ЎЗБЕК ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИ

Уч жилдлик

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI

Uch jildlik

ЎЗБЕК ХАЛҚ



ЭРТАКЛАРИ

I

„O'QITUVCHI" НАШРИЁТ-МАТБАА ИЖОДИЙ УЙИ
ТОШКЕНТ — 2013

O‘ZBEK XALQ



ERTAKLARI

I

O‘QITUVCHI
O‘QUVCHI
ЎҚИВАТЕЛЬ
ЎҚУВЧИЛАР

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2013

УДК: 821.512.133
398.21
КВК 82.3(5O')
O'-16

Фольклор

TAHRIR HAY'ATI

XODI ZARIF, MANSUR AFZALOV, ZUBAYDA HUSAINOVA,
XOLID RASUL, BAHODIR SARIMSOQOV,
MAHKAM MAHMUDOV

TUZUVCHILAR

M. AFZALOV, X. RASULOV, Z. HUSAINOVA

Mas'ul muharrir

Mahkam Mahmudov

Muharrirlar

X. Ubaydullayev, A. Hasanov, G. Nasriddinova,
S. Xo'jaahmedov

Musavvirlar

A. Venediktov, V. Yeremyan, V. Kaydalov, A. Levitskiy,
A. Rossal, G. Shevakov, N. Agapova

Badiiy muharrirlar

Sh. Xo'jayev, D. Mulla-Axunov

HO 41138/I
4

2013/56
A 4153
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

ISBN 978-9943-02-457-1

© „O'qituvchi" NMIU, 2007

NODIR XAYOLOTNING SO‘NGSIZ OSMONI

Ota nasihati



olalikni inson umrining eng beg‘ubor va oltin davri, deyishadi. Orzular osmonida parvoz etuvchi baxtiyor bolalikni esa xalq badiiy tafakkurining dahosi yaratgan go‘zal ertaklarsiz tasavvur etish qiyin. Bola ertakdagi jasur qahramonlardan ibrat oladi. Chunki bu qahramonlar hamisha mehnatkash xalqni turli-tuman balo-yu ofatlardan, zulm-u adovatlardan, yovuz dev-u ajdaholardan himoya qiladi.

Ertaklar olami bilan tanishgan kishi avvalo ma’naviy barkamollik chashmalaridan bahra oladi. Bolaligida „Uch og‘ayni botirlar“ ertagini o‘qimagan odam kam topilsa kerak. Ota farzandlarini olis safarga kuzatar ekan, bunday deydi: „O‘g‘illarim, sizlarni... birinchidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim — quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim — yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz. (Qadim zamonlarda Sharqda ham, G‘arbda ham yigitlar qilich-yarog‘siz yurmas, birovlarning zulm-zo‘ravonligini yoki haqoratini jazosiz qoldirishmas, shuning uchun mard yigitlar bir-birini xafa qiladigan, haqoratomuz gaplarni aytishmas edilar — *M. M., B. S.*) Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim, botir bo‘ldingiz. Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, esdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling — bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang — baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling...“

Bu gaplar juda sodda aytilgan bo‘lsa ham, ularda olam-olam ma’no bor. Esingizda bo‘lsa, uch og‘ayni botirlar ota nasihatiga a’lo darajada amal qiladilar. Ular biri yovuz sherni o‘ldiradi, ikkinchisi ajdahoni o‘ldiradi, uchinchisi qirq qaroqchini o‘ldirib, podshoning qizlarini qutqarib qoladi. Lekin uchalasi uch kechada qilgan ishlari to‘g‘risida hech kimga churq etib og‘iz ochishmaydi. Podsho o‘rdasida mehmon bo‘lib o‘tirishganida ham ular rost gapirishadi, podshoning aslida novvoy naslidan ekanligini, go‘shti dasturxonga qo‘yilgan qo‘zi it emib o‘sganligini, shinnining odam qoni to‘kilgan so‘rida o‘sgan uzumdan tayyorlanganini ziyraklik bilan sezishadi. Podsho tekshirtirib ko‘rganda, uch og‘ayni botirlarning gapi to‘g‘ri chiqadi.

Italiyada XIII asr oxirida vujudga kelgan donishmandlik kitobi — „Novellino“ to‘plamida ham xuddi shunga o‘xshash hikoya uchraydi. Yunon — Makedoniya podshosi Filipp zamonida bir donishmand yunon zindonga tashlangan ekan. Uning bilimdonligi, shuhrati olamga yoyilibdi. Podsho uni sinab ko‘rish uchun, saroyga chaqirib, uchta savol beribdi. Avvalo, podsho cholga ajoyib tulporini ko‘rsatib, uning zotini bilib ber, debdi. Donishmand yunon bu ajoyib tulpor

eshak suti emib katta bo‘lganligini aytibdi. So‘ng podsho nafis javohirlaridan eng chiroylisini baholab ber, debdi. Donishmand yunon bu qimmatbaho toshning ichida qurt borligini aytibdi. Keyin, podsho o‘zining nasl-u nasabini so‘rabdi. Donishmand yunon uning novvoy farzandi ekanligini aytibdi.

Taajjubga tushgan podsho, bu ishlarni tekshirtirib ko‘rganida, donishmandning hamma gaplari to‘g‘ri chiqibdi.

O‘zbek xalq ertagi bilan italyan novellasining o‘xshashligi — qadim zamonlardan Sharq va G‘arb xalqlarining madaniy aloqalari borligini ko‘rsatadi.

Humo qushining pati haqidagi o‘zbek xalq ertagi „Bulbuligo‘yo“ ham mashhur rus xalq ertagini („Жар птица“) eslatadi. Bundan ikkala xalq madaniyatining ham azaldan yaqin ildizlari borligini sezish mumkin.

Ertaklarda adolat va haqiqat ulug‘lanadi. Xalq podshodan, el-yurt rahbaridan adolat va haqiqat kutadi. Chunki el-yurt rahbari o‘z xalqini o‘z oilasi deb bilishi kerak. Podsho, rahbar ko‘pincha yurt otasi deb hisoblanadi. U o‘z farzandlariga hech qachon yomonlikni ravo ko‘rmaydi. Ammo farzandlar orasida sodiqlari ham, sotqinlari ham, mard, bahodirlari ham, qo‘rqoq, mug‘ambirlari ham bor. Ertaklardagi devlar, ajdaholar esa el-yurt boshiga tushgan zulm, haqsizlik, zo‘ravonlik, xudbinlik, takabburlik, ochko‘zlik singari ijtimoiy illatlardir. Mana shu dev, ajdaho va jodugarlar ko‘pincha podshoning go‘zal va aqlli qizlarini, bahodirlarning sevimli qalliqlarini bandi qilib yashiradi yoki halok etadi.

Ertak qahramonlari esa ana shu yovuz kuchlarga qarshi hayot-mamot jangiga kirishadilar. Qiynalib qolgan paytlarida ularga tabiatdagi ezgulik, yaxshilik kuchlari yordamga keladi.

Azal-azaldan inson o‘zining butun olam bilan, tabiatdagi barcha mavjudot bilan aloqadorligini sezgan. Tabiat farzandi bo‘lgan inson hayvonot va o‘simliklar ham tabiat farzandi ekanligini tushungan. Shuning uchun ham u ko‘p hollarda og‘ir ahvolga tushib qolgan qushlarga, baliqlarga, otlarga, chumolilarga va hokazolarga yordam qo‘lini cho‘zgan, ularni falokatdan qutqargan, zarur paytlarda o‘zi ham ularning yordamiga suyangan. Ajoyibotlarga boy „Suhrob bilan Muzrob“ ertagi qahramoni madrasada tahsil ko‘rib, Xo‘ja Hofiz, Mirzo Bedil kitoblarini o‘qiydi, romantik tabiatli, xayolparast bu yigit ayni chog‘da tabiat quchog‘ini qo‘msaydi.

„Muzrob tushida keng, xushmanzara ko‘kalamzorda sayr-sayohat qilib yurgan emish. U joyning bir tomoni tog‘, bir tomoni bog‘ bo‘lib, o‘rtadan katta daryo oqib o‘tar ekan. Daryo goh ko‘tarilib, goh pasayib, oppoq nuqradek to‘lqinlanib turgan emish“.

Bolalikni sog‘inib...

Bolaligimizda bizga olam go‘zalliklarini hadya etgan, fikr-u xayollarimizga qanot bag‘ishlagan tabiatning ko‘rkam go‘shalari yoshimiz ulg‘ayganida xohishimizdan tashqari bizdan uzoqlasha boshlaydi. Chunki ulg‘ayganimizda obro‘, martaba, hashamatli hayot, shon-shuhrat kabi sivilizatsiya girdoblari bizni o‘z komiga tortadi, tiniq va teran tabiat go‘zalliklariga hayratimizni so‘ndira boshlaydi. Ammo ko‘nglimiz bunga qarshi isyon ko‘taradi, xushmanzara ma’volarni, yam-yashil o‘tloqlarni, chaman bog‘larni, o‘rmon, jilg‘a, buloq va asov sharsharalarni sog‘inamiz, ba’zan shularni tushimizda ko‘ramiz. Ertakdagi Muzrobning tushiga biz ham kirib, u bilan birga g‘aroyibotlarni uchratamiz.

„Daryoning chap tomonida kattakon, chiroyli shahar ko‘rinibdi. Shaharning ko‘k gumbazli madrasalari, baland minoralari, ikki-uch qavatli imoratlari bor ekan. Shahar ko‘chalarida oq terak, mirza terak, qayrag‘och, mevali daraxtlar ko‘p bo‘lib, shahar atrofi baland devor bilan o‘ralgan ekan. Muzrobning ko‘zi shahar darvozasiga tushibdi. Darvoza ochilibdi. Undan otliq qizlar chiqishibdi. Qizlar shohona kiyinishgan, sochlarini boshlariga tugib, oq parda bilan yuzlarini bekitishgan ekan. Qo‘llarida kamoncha, o‘q, nayza va qalqon ushlab, to‘rtta-to‘rtta bo‘lib, otlarini choptirib, daryo bo‘ylab sayohatga chiqibdilar...“.

Qahramonimiz ham olim, ham shoirta’b yigit. Baliqchi otasi „O‘g‘limning baxti uchun!“ deb, suvga to‘r tashlar ekan, biz bu baxtni oddiy baliq emasligini anglaymiz. Boya aytganimizday, olam birligi qonuniga ko‘ra, o‘g‘il baxtiga tutilgan kattakon laqqa baliq, keyinchalik uning tutingan akasi — pahlavon Suhrob bo‘lib, ajoyib-g‘aroyib qahramonliklar ko‘rsatadi. Agar Ovrupo ritsarlari ko‘pincha qirol va sevgilisi uchun jasorat ko‘rsatsa, Suhrob barcha ajoyib qahramonliklarini inisi Muzrob baxti uchun bag‘ishlaydi. Ushbu ertakda juda-juda qadimda ota-bobolarimizning olovga, suvga, qushlar va baliqlarga topingan davrlarining aks-sadosini sezamiz. Chunki ertakda suvdan chiqqan baliq — pahlavon ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan g‘aroyib ishlarni qiladi, qudratining cheki yo‘qday tuyuladi...

Ertaklardan xalqlarning ibtidoiy davrlardagi olamni tasavvur qilishlarini bilib olish mumkin.

Xalq o‘zining go‘zallik idealini parilarda ko‘radi. Darvoqe, parilar go‘zallik idealigina bo‘lib qolmay, adolatparvarlik, insonparvarlik orzusi hamdir.

Go‘zallik esa g‘oyat nafis, uni avaylash kerak. Agar ko‘z qorachig‘iday avaylab-asralmasa... „Guliqahqah“ ertagidagi kabi pari kundoshlari tomonidan tuhmatga uchrab, zindonband qilinadi. Uning tilla sochli farzandi tortib olinib, suvsiz sahroga tashlanadi. Ammo adolatsizlik qurboni bo‘lgan, podshoning bog‘larida yayrab-yashnab yurish o‘rniga kimsasiz sahroda tashlandiq qolgan bola taqdir taqozosi bilan yana onasining kundoshlariga yo‘liqadi. Ertakda balog‘atga yetgan, kuchga to‘lgan yigitchani ham bola, bo‘z bola deyishadi. Siz o‘zingizni ana shu bo‘z bola o‘rnida ko‘ring. Sizni yana kundoshlar Guliqahqah parini izlash bahonasida odamxo‘r devlar makoniga yo‘llashadi. Siz pari nomini eshitgan zahotingiz, dushmanlaringizning makkorligini unutib, devlar makoniga ketaverasiz. Ammo devlarga majburiyat yuzasidan xizmat qilayotgan pokdil chol sizni qutqazib, Guliqahqah parini ham qo‘sh-qo‘llab tutqazadi. Ammo shu bilan u murod-maqsadiga yetmaydi. Jodugar kampir sizning tirikligingizni ko‘rib, yana aldaydi. Devlarning qirq qozonini olib kel, deydi. Siz ketaverasiz, chunki qahramonsiz. So‘ng sizni oynayi jahonnamoni topib kelishga yuborishadi.

Sizga bu ishda chinorga in qurgan, tabiatdagi qarindoshingiz — dono qush yordam beradi. Ammo buning uchun Siz qushning bolalarini yeb ketayotgan ajdahoni tosh bilan urib o‘ldirishingiz kerak. Ishonmayapsizmi? Qo‘rqmang, qo‘lingizga donishmand chol (ehtimol, u mangu tiriklik timsoli, tabiatday yashil libosli Hizrdir) bergan tosh. U oddiy emas, sehrli. Ana shu kichkina, lekin sehrli (ehtimol, lazer nuri taratuvchi) tosh har qanday yovuz ajdaholarni o‘ldira oladi. Bu yaxshiligingiz qadrlanmay qolmaydi. Dono qush sizni uchirib osmonga olib

chiqib ketadi, u yerda, osmon yaylovida qo'y boqib yurgan cho'ponning tayog'ida oynayi jahonnamo yashirilgan. Qush yordamida uni qo'lga kiritasiz. Ertak voqealari juda tez tugab qoladi. Siz bunga qoniqmaysiz. Mayli, qoniqmaganingiz yaxshi. Chunki kitobning keyingi sahifalarida sizni bundan ham qiziqarli ertaklar kutib turadi.

Ba'zi podsholar el-yurt farovonligini o'ylasa, ba'zilari javohirot daraxtining bir yaprog'ini deb, yurtining posbonlarini jallodga topshiradi. Jallodning ishi ma'lum. Ular doimo: „Kimning ajali yetdi, oftobni soyaga yetkarmay, jonini olay" deb turishadi.

Ammo, yaxshiki, dono vazirlar ham bor. Ulardan biri podshoni to'g'ri yo'lga soladi: „Ey, shohim, har kuni qirqtadan yigitning boshini kesaversang, shaharda odam qoladimi?"

Ana shundan keyin siz ertakdagi podshoning uch o'g'lidan biriga aylanasiz. Akalaringiz bilan galma-galdan javohirot daraxtini qo'riqlaysiz. Akalaringiz poyloqchilik vaqtida uxlab qolgani uchun zindonga tashlanadi. Sizni ham yarim tunda uyqu bosadi. Ammo siz qahramonsiz. Uxlab qolmaslik uchun, jimjilog'ingizni kesib, qalampir-tuz sepasiz...

Yarim kechasi bir qush keladi. Ertakda bu qushning qanaqaligi aytilmaydi, chunki uning nimaligini qahramon ham bilmaydi. Notanish, sirli qushning bir pati yarim podsholikka arziydi. Agar shunday bo'lmasa, podsho o'z farzandlarini olamning narigi chekkasiga xatarli safarga yubormasdi-da.

Sirli qush keyinchalik kenja o'g'ilga baxtini topishga yordam beradi, demak, u Humo bo'lib chiqadi. Ikki aka uxlab qolgani uchun qushni ko'rishmaydi. G'aflatda yotganlarga Humo tutqich bermaydi, albatta.

Podsho o'g'illari qushni topib kelish uchun safarga otlanishadi. Ular „borsa kelar", „borsa xatar" va „borsa kelmas" deb atalgan uch yo'l ayrilishiga kelib qolishadi. Ertakda bahodirlarning mardi hamisha „borsa kelmas" yo'lni tanlaydi. Chindan ham u begona yurtda g'aroyib qushni qo'lga kiritolmay, tutqunlikka tushib qoladi. Podsho uni yanada qiyinroq ishga — go'zal parini topib olib kelishga yuboradi. Bu ishni bajarayotganda yana tutqunlikka tushadi. Podsho yigitga yanada qiyinroq ishni, „Daryoyi Qulzum"ning nariyog'idagi bir jodugar qo'riqlayotgan tulpor Qoraqaldirg'ochni olib kelishni buyuradi. Yigit pari yordamida jasorat ko'rsatib, tulporni qo'lga kiritadi.

Mangu hayot sirlari

Xalqimizda „o'limdan boshqa narsaning chorasi bor" degan hikmatli ibora yuradi. Bu ibora shafqatsiz o'lim dahshati oldida ojiz qolgan bechora insonning iqroridan boshqa narsa emas. Shu ko'hna Yer kurrasi vujudga kelib, bashar zoti tarqalib, yetti iqlimni zabt etibdiki, bu iqror o'zining haqqoniyligi bilan jaranglab keladi. Biroq inson, uning ko'ngil mayli yakka-yu yagona ana shu iqrorga ham bo'yin eggisi kelmaydi, isyonkor orzular bilan uni chilparchin qilib tashlaydi. Bunday orzu faqat ertak deb atalmish purziyo olamda amalga oshadi, xolos. Unda barcha yovuzliklar — madfun-u, barcha ezguliklar barhayot. Unda yaxshi inson zoti o'lim bilmaydi. Chunki ertak deb atalmish sehrli ochunda buning chorasi topiladi. Buning uchun siz allaqanday tog' o'ngiridagi qorong'i g'orga qarab yo'l oling. Yo'lda siz dastlab bahaybat ajdarga duch kelasiz. U sizga hamla qiladi. Siz esa hech ikkilanmasdan unga tashlaning. Axir siz ajdarni yengasiz,

chunki bu ertak deb atalmish noyob olam. So'ngra g'orga qarab yana dadilroq odim tashlang. Birdan hammayoqni zulmat qoplab, kuchli bo'ron turadi, zamin qattiq silkinib, qarshingizda bahaybat dev paydo bo'ladi. U sizga — shakkok odam farzandiga nafrat bilan boqib, qah-qah otadi. Bu qahqahadan tog' cho'qqilari ko'chib, zilol tog' irmoqlari teskari oqib, buloqlarning suvi qurib qoladi. Shunda ham aslo qo'rqmang! G'ayrat bilan devga tashlaning. Axir siz dev bilan jangda g'olib chiqasiz. Chunki bu ertak deb atalmish sehrli olam. G'or juda chuqur, qorong'i va sovuq. Dadil tushib boravering. Aylanma yo'llar sizni g'aroyib bir sandiq qoshiga eltadi. Bardam ruh bilan siz uni oching. Sandiq ochilishi bilan undan allaqanday ko'k kabutar uchib chiqadi. Darhol uni tutib oling-u qanoti ostiga yashirinib olgan ilonni o'ldiring. Shunda g'aroyib hodisalarning shohidi bo'lasiz. G'orning ichi yorishib ketadi, siz ortingizga qaytasiz, tog' irmoqlari yana o'z iziga oqqan, buloqlar qaynab-toshgan, gullar ochilgan, atrofida bulbullar sayragan. Shodon qaytib, o'lim oldida bosh eggan bahodir oldiga kelasiz. Bunda ham mo'jiza yuz berganini ko'rib aslo hayratlanmang, chunki u yana hayot chashmasidan suv ichib, sizni kutib o'tirgan bo'ladi. Ha, ha, u tirilib, sizni mushtoqlik bilan kutadi. Chunki bu ertak deb atalmish abadiy barhayot olam...

Bularning hammasiga surat va siyrat ato etgan Navoiy dahosi xalq dahosi bilan birikib, she'riy mo'jizalar hosil qilgan. Yoki buyuk mutasavvif alloma Farididdin Attor bog'idan ko'chat olib yetishtirilgan bo'ston — „Lison-ut-tayr" dostonidagi bir-biridan go'zal va teran ma'no durlari jilolangan afsonalarni olaylik. Dostonda vasf etilgan Talab vodiysi, Ishq vodiysi, Ma'rifat vodiysi manzaralari ertaklardagidek sehri va mo'jizaviyligi bilan dilni maftun etadi. Chindan ham Navoiy aytgan:

Chun Talab vodiysig'a qo'ysang qadam,
Oldinga har dam kelur yuz ming alam —

kabi ma'nosi insonni umr bo'yi o'ylantiradigan so'zlar ham xalq ijodining donishmandligidan parvarish topmaganmi?

Gyotening shohona „Faust" dostoni, Pushkinning „Oltin xo'roz" ertagi, ayniqsa „Ruslan va Ludmila"si hayratomuz poetik fantaziyasi bilan dillarga hayajon soladi. „Ruslan va Ludmila"da rus poeziyasining dahosi bir ertakni emas, son-sanoqsiz go'zal ertaklarni real hayotning, hatto tarixiy hayotning murakkab hodisalari bilan qorishtirib, mo'jizaviy she'riy qudratga erishgan.

O'zbek shoiri Hamid Olimjonning „Semurg' yoki Parizod va Bunyod" ertagichi? Bunda shoir adolat, haqiqat, yaxshilik kuchlarining zulm, istibdod, munofiqlik, sotqinlik, takabburlik kuchlari ustidan g'alabasini o'zbek xalq ertaklari asosida chiroyli she'riy misralarda mujassam etgan.

Ertaklarga faqat bolalar emas, balki Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Gyote, Pushkin, Andersen kabi daho mutafakkirlar, hatto Balzak va Lev Tolstoy kabi buyuk realistlar ham ishonishgan. Chunki ular ertaklar zamiridagi ulkan haqiqatni anglashgan va o'zlari ham go'zal ertaklar to'qishgan.

Firdavsiy dahosining mangu obidasi „Shohnoma" dostonidagi g'aroyib ertak va afsonalar, Ahriman va Hurmuzd, zulmat va nur, yovuzlik va yaxshilik kuchlarining olishuvi, Jamshid saltanatida insonlarning devlar ustidan g'alaba

qozonishi, Zahhok — Ajdaho saltanatida zulm kuchayib, adolat mahv etilishi, dunyodagi barcha jonli va jonsiz mavjudotning otasi — yarim odam va yarim ho'kiz qiyofali Sfinks — Kayumars ham uning avlodlari, Faridun, Turon va Piron avlodlarining qahramonliklari, Rustam, Suhrob, Siyovushlarning adolat va tinchlikni barqoror etish uchun kurashlari — bularning bari ertakka o'xshasa ham, minglab xalqlarning tili va dili, ijtimoiy ongi, teran shuuri va tafakkurining yuksak she'riy ifodasidir.

Alisher Navoiy xalq og'zaki ijodini, ertak va afsonalarini sevib o'qigan, ulug' shoir va mutafakkir alloma bo'lib yetishganida ham o'zining eng buyuk asarlarini xalq ertak va afsonalari bilan bezagan. Dahshatli ajdar bilan olishib, sehrli oynayi jahonni topib, unda go'zal Shirinni ko'rib, qalbiga buyuk muhabbat olovi tutashgan Farhod, „Sab'ayi sayyor"dagi bir-biridan ajoyib afsonaviy qahramonlar — mushkul tilsimotlarni kashf etgan Sa'd, sehrli buloqqa sho'ng'ib, devlar va parilar oroliga tushib qolgan Suhayl, kamtarinligi va bahodirligi bilan baxtga yetishgan Muqbil, suvsiz jazirama cho'lga tashlab ketilgan va Chin donishmandi parvarishlab voyaga yetkazgan parivash sozanda Dilorom...

Ertak va haqiqat

O'zining maftunkor sehri, tuganmas shukuhi, dilni rom etuvchi jozibasi bilan hamisha qanotlanib turuvchi xalq ertaklari inson xayolotining mevasidir. Kishilar o'z qismatining chigalliklarini yechishdan ojiz qolgan chog'larda, ertak uni nurli qanotlarida umidli manzillarga ko'tarib o'tgan. Bashariyat hali zulmat qo'ynida najot yo'llarini qidirib, asrlar mobaynida kimsasiz taqdir so'qmoqlarida tentirab yurgan onlarda ertaklar uni xayolot qanotida ziyobaxsh sohillarga eltgan. Bir so'z bilan aytganda, ertak insoniyatning beg'ubor bolaligi yetishtirgan samaradir. Binobarin, uning ta'rif-u tavsifiga til ojiz, qalam — behol.

Biz bugun sanoq mashinalari bir soniyada yuz minglab chigal muammolarni osonlik bilan hal qilib berayotgan, inson farzandining qadami olis sayyoralarda iz qoldirayotgan bir davrda yashayapmiz. Binobarin, hozir kishilarni hayron qoldiradigan ishlarni, mo'jizaning o'zini topish amri mahol. Biroq uzoq ajdodlarimizning orzu-istaklari bunyod etgan ertaklarda bunday mo'jizalar to'lib-toshib yotibdi.Chunki bir dam bilan daryo suvini sipqoradigan, uchar gilamda dunyoning istalgan go'shasiga bir zumda bora oladigan, afsonaviy Semurg' qanotida osmono'par tog'lar-u had-hududsiz dengizlardan o'ta oladigan bahodirlar ertaklarda tajassum topgan. Shu boisdan ham ularda yaxshilik, oliyjanoblik, mardlik va adolat tantana qilsa, nomardlik va zulm jazoga mustahiqdir.

„O'zbek xalq ertaklari"ning avvalgi nashriga so'zboshi yozgan atoqli folklorshunos olim Mansur Afzalov hayvonlar hayotiga oid ertaklarda ham insonlarning axloqi, fe'l-atvori, tabiati yaxshi ochib berilganligini, bu ertaklar bolalar qalbiga va ongiga tez yetib borishini aytganida ming bora haqli edi.

Inson xayolotining ufqlari uning ruhiy olami qadar keng hamda chegarasizdir. Shuning uchun ertak azal-azaldan kishilardagi yaxshi sifatlarni kamol toptirishning, ularning go'zallikni his etish qobiliyatini o'stirishning, Vatan, el-yurt obodligini, osoyishtaligini ta'minlash ishqi bilan yashashga targ'ib etishning qudratli vositasi sifatida kishilar xotirasida yashab keladi.

„Bulbuligo'yo" o'zbek xalqining ertak chamanidan saralab berilgan bir guldasta. Bu ertaklar xalqimizning yuksak va musaffo xayolot osmonining bir burji, xolos. Bu osmon katta-kichik yulduzlar bilan bezangan. Siz ularga tunlar mijja qoqmay boqing. Ana o'shanda yulduzlarning betakror jilvasi, nurziyo tovlanishi sizga huzur-halovat baxsh etadi, ko'ngildagi g'ubor tarqab, o'rnini nurafshon tuyg'ular egallaydi. Agar farzandlarimiz yaxshi odamlar bo'lib yetishsin desangiz, siz ularga oydin tunlarda oppoq tongga qadar ertak so'ylab bering, ularning murg'ak qalbida oy nuri bilan yo'g'rilgan ezgu tuyg'ular bir umrga naqshlanib qoladi.

Xullaski, inson bor ekan, u ertak bilan o'sib-ulg'ayadi, o'zining qalb qo'rini ertak bilan boyitadi. Dunyoda ertak bor ekan, odamlar xonadonidagi chiroq abadiy o'chmaydi, ezgulik yovuzlik ustidan hamisha g'olib chiqadi.

Ongida badiiy tafakkur buloqlari, qalbida nafis shuur irmoqlari quriy boshlagan ayrim odamlar ertaklarni xushlamaydilar, ularga ishonmaydilar. Bunday odamlar olis parvozlarga chorlovchi xayoliy tafakkur qanotidan ayrilib, faqat kichik so'qmoqlarda o'ralashib, o'rmalashib qolgan vujudlarga o'xshaydilar. Ular ertaklar zamiridagi ulkan haqiqat javohirlarini ko'rmaydilar.

Ma'nolar xazinasi ertakda, haqiqat dafinasi ertakda. Murakkab hayot hodisotlari orasida haqiqat bo'lib ko'ringan narsa — afsona va aksincha, afsona bo'lib ko'ringan narsa — haqiqat bo'lib chiqishi mumkin. Navoiy aytganidek:

Ixtilofi juzv ila kull mundadur,
Kim, taraqqiy-u tanazzul mundadur...

Ertaklar olami shunday sehrli, hayotbaxsh chashmaki, bu chashmaning teran va musaffo buloqlaridan bir bor to'yib suv ichgan kishi umr bo'yi shirin orzularidan ayrilmaydi, hamisha yaxshilik uchun, erk va adolat uchun kurashdan charchamaydi. Ertaklar xalq aql-zakovatining qudratli parvozi, ertaklarda xalqning orzu-istaklari, ming yillik donoligi, tajribasi, majoziy timsollar zamiridagi mangu hayot muammolarini bilishga intilishi aks etadi.

Xullas, ushbu to'plamga o'zbek xalq og'zaki ijodining eng yaxshi namunalari kiritilgan bo'lib, Xodi Zarif, Buyuk Karim, Mansur Afzalov, Po'latjon Qayumov, Muhammadnodir Saidov, Muzayyana Alaviya, Zubayda Husainova, To'ra Mirzayev, Komiljon Imomov va boshqa folklorshunos olimlar tomonidan tayyorlangan 1960, 1964-yilgi nashrlar asos qilib olindi.

Xalqimiz ertaklarni sevgani, uning zamiridagi falsafiy, majoziy ma'nolarni yaxshi tushungani tufayli qayta-qayta nashr etilsa ham, ertaklar to'plamlari noyob kitobligicha qolmoqda. Bu aslida quvonarli hodisa.

Mahkam Mahmudov,
Bahodir Sarimsoqov.



Ovchi, Ko‘kcha va Dono

I

Bir zamonda bir ovchi bor ekan. Bir kuni u dalaga chiqibdi, yerga tuzoq qo‘yib, o‘zi bir pana joyda pisib o‘tiribdi. Bir gala kaptar uchib kelib, chinorga qo‘nibdi, yerga tushib donlamoqchi bo‘libdi. Kaptarlar orasida Ko‘kcha degan keksa bir kaptar bor ekan. U kaptarlarga qarab: „Pastga tushmanglar, tuzoq bor, ilinib qolasizlar“, debdi.

Kaptarlar Ko‘kchaning so‘ziga quloq solmay, bitta-bitta uchib tushib donlay boshlabdilar. Axiri nafslari g‘oliblik qilib, to‘r ostiga qo‘nibdilar. Ko‘kcha sheriklaridan ajralib qolishni, yolg‘iz yashashni o‘ziga ep ko‘rmabdi. O‘zi ham pastga tushib, to‘r ostiga kiribdi. Ovchi sekin-asta to‘rning ipini tortibdi, hamma kaptar to‘rga ilinibdi. Ko‘kcha sheriklariga qarab:

— Endi bir so‘zim bor, agar xo‘p desangiz, aytayin, zora-mora qutulsak,— debdi. Kaptarlar:

— Xo‘p, ayting, avval sizning so‘zingizga kirmay, shu baloga yo‘liqdik, endi nima desangiz, shuni qilamiz, — deyishibdi.

Ko‘kcha qarasa, ovchi quvib kelayotgan ekan, kaptarlar juda baland ko‘tarilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdilar.

Ko‘kcha endi to‘rdan qutulish yo‘lini izlab turgan ekan, Dono ismli bir sichqon do‘sti yodiga tushib qolibdi va kaptarlarni shu tomonga boshlabdi. Kaptarlar cho‘l-biyobonlar ustidan o‘tib, tog‘lardan oshibdilar, borib-

borib Dononing ini og'ziga kelib qolibdilar. Ko'kcha Dononi chaqiribdi. Dono chiqib qarasaki, do'sti Ko'kcha emish. Dono do'sti Ko'kchaning iltimosi bilan avval Ko'kchaning sheriklarini, keyin o'zini to'rdan qutqazibdi. So'ngra hol-ahvol so'rabdi. Ko'kcha butun voqeani aytib beribdi.

Dono qadrdon do'stlarini kutish uchun salqin va xushhavo yerga joy qilibdi, don-dun, noz-ne'matlarni serob qilibdi.

II

Chinorda o'tirib hamma voqeani ko'rgan bir qarg'a: „Kaptarlar biror yerga borib tushsa, doniga sherik bo'larman" degan umid bilan ular orqasidan uchib kelgan ekan. Qarg'a Dononing kaptarlarga bergan yordamini ko'rib, hayron qolibdi, o'zicha: „Do'st yordam berar ekan, men sichqon bilan do'st bo'layin", deb o'ylabdi. So'ngra borib Dononi inidan chaqiribdi. Dono chiqib qarasa, bir qarg'a turgan emish.

Dono eshikda turgan qarg'aga qarab:

— Xo'sh, keling birodar, — debdi. Qarg'a:

— Men jonivorlarning hech biriga qo'shilmay, yolg'iz o'zim yashab kelaman, yor-birodarlarim, jonkuyarim yo'q; jonivorlar hamisha mendan qochishadi. Yolg'izlik jondan o'tdi, qiynalib ketdim, o'ylab-o'ylab siz bilan do'st bo'lishni ma'qul ko'rdim, orzuyimni qabul qilsangiz deb, umid bilan keldim,— debdi.

Sichqon qarg'aga javoban:

— Durust, lekin siz meni qayerda ko'rsangiz yeysiz, shuning uchun so'zingizga ishonish qiyin, — degan ekan, qarg'a:

— To'g'ri aytasiz, do'stim, rostini aytsam, qayerda sichqon ko'rsam tutib yer edim. Ammo do'stlik yaxshi ekan, endi sizga sira zarar yetkazmayman,— deb chinakam va'da beribdi. Dono bo'lsa, qarg'aning so'ziga ishonib, inidan chiqibdi, qarg'a bilan qo'l olishib, do'st bo'libdi, uni mehmon qilibdi.

Bir kun qarg'a do'sti Dononi bog'iga taklif qilibdi. Dono boradigan bo'libdi. Qarg'a Dononi tumshug'ida olib bormoqchi bo'libdi, lekin sichqon qiynalmasin deb uni changalida avaylab olib ketibdi. Bu bog' jahonda bor hamma meva daraxtlari bilan bezangan ajoyib joy ekan. Xilma-xil gullar xushbo'y hid sochib, bo'stonni yashnatib turar, shishadek tiniq suvlar shildirab oqib turar ekan. Turli-tuman mevalar pishib, tagiga tushib turar ekan. Qarg'a Dononi yaxshilab ziyofat qilibdi. Sichqon ko'p xursand bo'lib, bog' ichini qarg'a bilan tomosha qilib yuribdi. Buni shu bog'da yurgan bir toshbaqa ko'rib qolibdi. Ularga havasi kelibdi. Salom berib, ular oldiga boribdi. Hol-ahvollarini, sichqon bilan qarg'a o'rtasidagi inoqlik, mehribonlik sababini so'rabdi. Qarg'a toshbaqaga kaptarlar voqeasini aytib beribdi.

Toshbaqaning havasi yana ortibdi. Do‘stlik, birgalikning bahosi yo‘q, deb ular bilan qadrdon do‘st bo‘lishga so‘z beribdi. Qarg‘a toshbaqani ham ko‘p izzat-hurmat bilan ziyofat qilibdi.

III

Bog‘ning bir tomonidagi baland tepa bag‘rida bir kiyik yurar ekan. U qarg‘a, sichqon va toshbaqaning totuv bo‘lib yurishganini ko‘rib, qarg‘aning makoniga qarab yo‘l olibdi. Ular yaqiniga kelib, so‘z qotibdi. Uni hammalari xursandlik bilan kutib olibdilar. Qarg‘a kiyikni dasturxonga taklif qilibdi va o‘zaro gaplashib o‘tirishganda, kiyik qarg‘a, sichqon, toshbaqaning bir-birlari bilan hamjins bo‘lmasalar ham, nima uchun bunchalik inoqliklarining sirini bilishga kelganini aytibdi.

Qarg‘a bo‘lib o‘tgan voqealarni kiyikka birma-bir hikoya qilib beribdi. So‘ngra kiyik ham ular bilan do‘stlik iplarini bog‘lamoqchi bo‘libdi. Do‘stlar qabul qilibdilar. Hammalari boshqatdan o‘rinlaridan turib ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashib, kiyikni yuqoriga o‘tkazib, unga ko‘p iltifot qilibdilar. Shu paytda Dono kaptarlarni xotirlabdi. Qarg‘a kaptarlarga bir xat yozib berishni Donodan so‘rabdi. Dono xursand bo‘lib xat yozib, uni qarg‘aning o‘ng oyog‘iga bog‘labdi. Qarg‘aga oq yo‘l tilab, hammalari uni kuzatishibdi. Qarg‘a kaptarlarning makoniga kelib xatni beribdi. Kaptarlar xatni o‘qib, qarg‘a bilan uchib, bog‘ga kelib qo‘nibdilar. Do‘stlar ko‘rishib, so‘rashib, shirin-shirin suhbatlashib o‘tiribdilar.

Bir zamon kiyik sayr-tomoshaga chiqib ketibdi. Lekin hadeganda kelavermabdi. Do‘stlar xavotir olibdilar. Shunda Ko‘kcha qarg‘aga qarab:

— Kiyikdan shu choqqacha darak yo‘q, undan xabar olish kerak,— debdi. Qarg‘a kiyikni ko‘p axtarsa ham topolmabdi. Axiri xafalikdan nima qilarini bilmay, hayron bo‘lib ketayotganda, bir yerga ko‘zi tushibdi, qarasa, bechora kiyik zolim ovchining qo‘yib ketgan tuzog‘iga oyog‘idan ilinib yotgan emish. Tezda uchib borib, do‘stlarini bu voqeadan xabardor qilibdi. Ular juda xafa bo‘lib, bir-birlari bilan maslahat qilibdilar.

Ko‘kcha bunday deb maslahat beribdi:

— Qarg‘avoy, sen sichqonni changalingda olib bor, sichqon kiyikning tuzog‘ini qirqsin.

Bu gap hammaga yoqib tushibdi. Qarg‘a sichqonni changaliga olib uchib ketibdi, orqasidan Ko‘kcha ham uchibdi. Bularga toshbaqa ham ergashib qolibdi. Ko‘kcha toshbaqaga harchand bormagin desa ham bo‘lmabdi. Qarg‘a sichqonni kiyik ilingan joyga oborib qo‘yibdi. Sichqon kiyikning oyog‘idagi tuzog‘ini qirqa boshlabdi. Ko‘kcha o‘ylab turib:

— Do‘stim Dono, kiyikning oyog‘idagi tuzoqning hammasini qirqma: uch tolasini qoldir. Tag‘in ovchi buni bizdan ko‘rib, zarar yetkazadigan bo‘lmasin. Ovchi kelgach, kiyik bir zo‘r berib uch tolasini uzib ketaveradi,— debdi.

Dono Ko‘kchaning aytganini qilib, uch tola ipini qoldiribdi. Avval qarg‘a sichqonni ko‘tarib uchibdi. Uning ketidan kaptar uchibdi. Ular bog‘ga kelib qo‘nishibdi. Qarg‘a sichqonni changalidan yerga sekin qo‘yibdi.

Ovchi tuzoqqa ilingan kiyikni ko‘rib, yugura kelgan ekan, kiyik bir intilish bilan uch tola ipni uzib qochibdi. Ovchi noumid bo‘lib, tuzoqni olib ketmoqchi bo‘lgan ekan, toshbaqani ko‘rib qolib, xurjunga solibdi. Kiyik allaqachon qarg‘aning bog‘iga yetib kelgan ekan. Do‘stlari qarasalarki, toshbaqa yo‘q emish. Ko‘kcha:

— Men unga harchand bormagin desam, ko‘nmagan edi. Bor, qarg‘a, xabar olib kel!— debdi.

Qarg‘a kiyik ilingan joyga borib qarasa, ovchi toshbaqani xurjunga solib, og‘zini mahkam bo‘g‘ib ketayotgan emish. Tezda kelib do‘stlariga aytibdi. Ko‘kcha yana maslahat beribdi. Do‘stlar Ko‘kchaning maslahatini ma’qul topib, shunday qilibdilar: qarg‘a sichqonni ko‘tarib uchib ketibdi. Kiyik ovchining oldidan cho‘loqlanib o‘taveribdi. Ovchi kiyikni ko‘rib xursand bo‘libdi va „Tuzoqdan qochish vaqtida oyog‘i sinib, cho‘loq bo‘lib qolgan ekan, endi uni ushlab olaman“, deb kiyikning orqasidan yuguribdi. Kiyik ham oqsoqlanib qochaveribdi. Axiri ovchi juda charchabdi, yelkasidagi xurjunni tashlab, kiyik orqasidan rosa yuguribdi. Qarg‘a sichqonni xurjun yaqiniga eltib qo‘yibdi. Sichqon xurjunni teshib, toshbaqani qutqazibdi. Toshbaqa bir katta toshning tagiga kirib berkinibdi. Qarg‘a sichqonni bog‘ga olib borib qo‘yibdi. So‘ngra kiyikning oldiga borib: „Ish bitdi, endi qochaver!“ debdi. Kiyik qochib ketibdi. Ovchi kiyikning gardiga ham yetolmay qolibdi. Kiyik bilan kaptar ikkisi qarg‘aning bog‘iga borishibdi. Do‘stlar xursand bo‘lishib, do‘stlik samarasidan bahramand bo‘lib, bog‘da tinch umr kechira boshlabdilar.



Ur to‘qmoq

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir kampir bilan bir chol bor ekan. Ular ovchilik bilan kun o‘tkazar ekanlar. Bir kun chol tuzoq poylab o‘tirgan edi, tuzoqqa katta bir laylak tushdi. Yugurib borib laylakni tuzoqdan chiqargan edi, laylak odamdek so‘zlamoqqa boshladi:

— Chol, men laylaklarning boshlig‘iman, meni qo‘yib yubor, nima tilasang shuni beraman. Mening makonim shu qarshidagi tog‘ning orqasida. „Laylakvoyning uyi qayda“ desang, hamma aytib beradi, — dedi.

Chol laylakni qo‘yib yubordi. Ertasiga ertalab turib, Laylakvoyning sovg‘asini olib kelish uchun yo‘lga tushdi. Yurib, yurib bir joyga borib yetdi. Qo‘y boqib yurgan cho‘ponlardan:

— Bu qo‘ylar kimning qo‘yi? — deb so‘radi.

— Bu qo‘ylar Laylakvoyning qo‘yi,— deb cho‘pon cholni yo‘lga solib yubordi. Bir joyga borib yilqi haydab yurgan yilqichiga:

— Bu yilqilar kimniki?— deb so‘radi chol. Yilqichi:

— Laylakvoyniki, — dedi.

— Laylakvoy menga sovg‘a va’da qilib edi, nima so‘ray? — degan edi, yilqichi bunday dedi:

— Laylakvoyning bir xumchasi bor, „qayna, xumcha“ desa, tilla qaynab chiqadi, shu xumchani so‘ra, — dedi.



«Ur to'qmoq» ertagiga ishlangan rasm

2013/56
A4L53
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK

Chol oz yurib, ko‘p yurib, ko‘p yursa ham cho‘l yurib, yetti kecha-yu yetti kunduz deganda Laylakvoyning uyiga borib yetdi. Eshikdan kirib:

— Assalomu alaykum, — dedi. Laylakvoy:

— Haq, saloming bo‘lmasa, ta’ziringni berardim. Sen sovg‘a uchun kelgan bo‘lsang kerak, qani nima so‘raysan? — dedi.

— Men sizdan „qayna, xumcha“ni so‘rayman, — dedi chol. Laylakvoy o‘ylab qoldi:

— Chol, senga bir tovoq tilla beray, — desa ham chol ko‘nmadi. Axir „qayna, xumcha“ ni berishga rozi bo‘ldi. Chol „qayna, xumcha“ ni olib jo‘nadi. Yo‘l yurib, cho‘l yurib, bir joyga yetdi. Dam olish uchun o‘tirdi. Qishloqning bolalariga qarab: „O‘g‘illarim, mana bu xumchaga qarab turing, men bir oz mizg‘ib olay, faqat „qayna, xumcham“ demanglar“, — deb tayinlab, uyquga ketdi. Bolalar chol uxlashi bilan „Qayna, xumcha“ deb baqirishib edi, xumdan tilla qaynab chiqdi, shoshib-pishib, bolalar tillalarni yig‘ib olib, xumni uylariga olib kirib bekitib qo‘ydilar, „Qayna, xumcha“ ning o‘rniga boshqa bir xumchani olib kelib qo‘ydilar. Chol uyqudan turib xumchani olib jo‘nadi. Yetti kecha, yetti kunduz yo‘l yurib, uyiga yetib keldi.

— Qani, kampir, dasturxonni yoz, hozir tillaga boy bo‘lamiz, — dedi. Kampir dasturxonni yozdi, dasturxonning o‘rtasiga xumchani qo‘yib, chol bor kuchi bilan „qayna, xumcha“ deb baqirdi. Xumchadan tilla qaynab chiqmadi; chol yana baqirdi, tilla qaynamadi. Cholning jahli chiqib:

„Ha, padaringga la’nat Laylakvoy, meni aldab boshqa xumcha beribdi; men ertaga borib boshqa sovg‘a so‘rayman,“ deb qo‘ydi.

Ertasi saharlab chol yana yo‘lga chiqdi. Yilqichining oldiga borib:

— Laylakvoy meni aldadi, endi nima sovg‘a so‘ray, — dedi. Yilqichi o‘ylab turib: „Ochil, dasturxon“ni so‘rang, dasturxonni yozib, „Ochil, dasturxon“ desangiz, har xil taomlar tayyor bo‘ladi, — dedi.

Chol Laylakvoyning eshigidan kirib:

— Assalomu alaykum, — dedi. Laylakvoy:

— Haq, saloming bo‘lmasa, ta’ziringni berardim. O‘tgan gal senga „Qayna, xumcha“ ni berib edim, ko‘ngling to‘lmadimi? — dedi. Chol hamma voqeani aytib:

— Meni aldading, „Qayna, xumcha“ning o‘rniga boshqa xumcha beribsan, endi sendan „Ochil, dasturxon“ni so‘ragani keldim, — dedi.

Laylakvoy o‘ylab qoldi. Axiri „Ochil, dasturxon“ni cholga sovg‘a qildi.

Chol yo‘lga tushdi. Oz yurib, ko‘p yurib, o‘tgan gal dam olgan qishloqqa borib yetib, o‘ziga tanish bo‘lib qolgan bolalarni ko‘rdi.

— O‘g‘illarim, mana shu dasturxonni ushlab o‘tiring, men bir oz mizg‘ib olay, faqat „Ochil, dasturxon“ demanglar,— deb ularga tayinladi. U uyquga ketgandan so‘ng bolalar „Ochil, dasturxon“, deb baqirgan edilar, yetti xil taom tayyor bo‘ldi. Bolalar taomlarni o‘rab, dasturxonni uylariga olib kirib, o‘rniga boshqa dasturxon olib chiqib o‘tirdilar.

Chol uyqudan turib dasturxonni oldi, yo‘lga tushdi. Uyiga kelib:

— Kampir nima taom desang, hozir tayyor bo‘ladi,— deb dasturxonni yozdi. „Ochil, dasturxon“, deb edi, hech qanday taom chiqmadi. Cholning jahli chiqib, — Laylakvoy meni ikkinchi marta aldadi, ertaga borib boshqa bir sovg‘a so‘ray, — dedi.

Ertasi saharlab chol yo‘lga chiqdi. Yilqichining oldiga borib:

— Endi Laylakvoydan nima so‘ray? — dedi.

— Endi Laylakvoydan „Ur, to‘qmoq“ni so‘rang, dushmaningiz ko‘pga o‘xshaydi, agar „Ur, to‘qmoq“ desangiz, oldingizda kim bo‘lsa, urib tashlaydi, — dedi yilqichi.

Chol yo‘lga tushdi, eshikdan:

— Assalomu alaykum,— deb kirdi. Laylakvoy:

— Haq, saloming bo‘lmasa, ta’ziringni berardim. Yana nima uchun kelding? „Qayna, xumcha“ni olding, „Ochil, dasturxon“ni olding, yana nima kerak? — dedi.

— Meni bu gal ham aldading, Laylakvoy! „Ochil, dasturxon“ o‘rniga boshqa bir dasturxon beribsan. Endi sendan bir narsa so‘rayman, menga „Ur, to‘qmoq“ni ber, — dedi. Laylakvoy cholga „Ur, to‘qmoq“ ni hadya qildi.

Chol „Ur, to‘qmoq“ni olib yo‘lga tushdi. Oz yurib, ko‘p yurib avvalgi o‘zi bilgan qishloqqa borib yetdi. Tanish bolalarni chaqirdi.

— O‘g‘illarim, mana shu to‘qmoqni ushlab turing, men biroz mizg‘ib olay, faqat „Ur, to‘qmoq“ demanglar, — dedi. U uyquga ketgandan so‘ng bolalar qiziqib, „Ur, to‘qmoq“ deb baqirishgan edi, to‘qmoq hammasini ura boshladi. Bolalarning baqirig‘idan chol uyg‘onib ketdi. Bolalar bo‘lsa, yig‘lashib:

— Chol ota, to‘qmoqni to‘xtating, biz sizning xumchangizni, dasturxoningizni olib, o‘rniga boshqa xumcha, boshqa dasturxon qo‘ygan edik, tavba qildik, ota, to‘qmoqni to‘xtating, — deyishdi. Chol: „Tur, to‘qmoq“ deb baqirgan edi, to‘qmoq urishdan to‘xtadi. Bolalar yugurib borib uylaridan „Qayna, xumcha“ bilan „Ochil, dasturxon“ni chiqarib berdilar, chol yo‘lga tushdi. Oz yurib, ko‘p yurib, ko‘p yursa ham

mo‘l yurib, ko‘l demay, cho‘l demay yetti kecha-yetti kunduzda uyiga borib yetdi.

„Qayna, xumcha“ deb edi, xumchadan tilla qaynab chiqdi; „Ochil, dasturxon“ deb edi, har xil taom muhayyo bo‘ldi. Umrlarida ko‘rmagan taomlarni yeb, chol bilan kampir xursand bo‘ldilar.

Tillalarga chol yaxshi uy soldirdi va xonni uyiga mehmondorchilikka chaqirgan edi, xon: „Men xon bo‘lsam-u, o‘sha kambag‘al, qashshoq cholning uyiga mehmondorchilikka boramanmi“, deb bormadi.

Cholning jahli chiqib, xonni urushga chaqirdi. Ertasiga xon yetti ming askarni tayyorlab, cholning uyi oldiga tizib:

— Qani, chol, joning bo‘lsa urushga chiq! — dedi. Chol eshikdan chiqib to‘qmoqqa qarab:

— Ur, to‘qmoq! — deb baqirgan edi, to‘qmoq hamma askarlarni bittadan urib yotqizib qo‘ydi, oxirida to‘qmoq xonni ura boshladi.

Xon:

— Chol, to‘qmog‘ingni to‘xtat, sen yengding, meni o‘limdan olib qol, yurtga sen hokim bo‘la qol, — dedi.

Chol to‘qmoqni to‘xtatdi. O‘zi yurtga hokim bo‘ldi. Murod-maqsadiga yetdi.



Bo‘ri bilan mergan

Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, tovuq toq etdi, bilmadim qayoqqa ketdi.

Bir mergan bor ekan. U mergan ovga chiqibdi. Bo‘rini uchratib quvib ketibdi. Bir joyda bir chol xirmon sovurayotgan ekan. Bo‘ri yugurib kelib cholga:

— Ota, bir mergan quvib kelayotibdi, meni bekitib qo‘ying,— debdi. Chol „xo‘p“ deb, bo‘rini qopga solib, ustiga poxol yopib bekitib qo‘yibdi. Mergan cholning oldiga kelib:

— Hoy, chol, shu yerdan bo‘ri o‘tdimi?— debdi. Chol:

— Men o‘zim bo‘ridan qo‘rqaman, hech narsa ko‘rganim yo‘q,— debdi. Mergan cholning gapiga ishonib, ketib qolibdi. Bo‘ri poxol tagidan:

— Ota, meni quvib kelayotgan mergan ketdimi? — debdi.

Chol:

— Ha, bolam, ketdi,— debdi.

— Ketgan bo‘lsa, meni qo‘yib yuboring,— debdi bo‘ri. Chol:

— Xo‘p, bolam,— deb bo‘rining ustidagi poxolni olib tashlabdi. Bo‘ri poxol tagidan chiqib:

— Chol, chol, seni yeyman, — debdi. Chol qo‘rqqanidan shoshib:

— Meni yeguncha, molxonada qo‘sh qo‘chqorim bor, uni yegin,— debdi. Bo‘ri sevinib molxonaga boribdi:

Bo‘ri bordi qo‘chqor qoshiga,
Suzib soldi bo‘ri boshiga.
Yana keldi cholning qoshiga.

— Jon, bobo, jonim bobo, seni yeyman, — debdi bo‘ri.
Chol:
— Meni yeguncha, otxonada qo‘sh otim bor, uni yegin,— debdi.

Bo‘ri bordi otning qoshiga,
Tepib soldi uning boshiga.
Yana keldi cholning qoshiga.

— Jon bobo, jonim bobo, seni yeyman,— deb takrorlabdi bo‘ri.
Chol yana:
— Meni yeguncha, otxonada qo‘sh eshagim bor, uni yegin,— debdi.

Bordi eshak qoshiga,
U zarb soldi boshiga.
Keldi cholning qoshiga.

— Jon bobo, jonim bobo, seni yeyman,— deb turganida, ikkovining oldiga tulki kelib qolibdi, chol bechora yig‘lab:

— Mergan bo‘rini quvib kelayotgan edi, bo‘ri mendan o‘zini yashirib qo‘yishni so‘radi. Men uni qopga tiqib, poxol yopib bekitib qo‘ydim. Mergan kelib „Chol, chol! Bo‘ri ko‘rdingmi?“ deb so‘radi. Men bo‘ridan qo‘rqaman, o‘tgani yo‘q, dedim. Mergan ishonib, ketdi. Poxolni olib bo‘rini qopdan chiqarib qo‘ysam, „Seni yeyman“ deb meni mushkul holda qoldirdi, — degan ekan, Tulki:

— Ey, bo‘ri o‘rtoq, chol seni shunday o‘limdan qutqarsa-yu, sen shunday qari cholni yeysanmi?— deb dashnom beribdi[1]. „Yur bo‘lmasam“ deb, bo‘ri tulki bilan birgalikda cholning oldidan „Xayr, ota“, deb jo‘nab ketibdi. Chol ham o‘limdan qutulganiga xursand bo‘lib qolibdi. Bo‘ri bilan tulki boshlariga tushgan sarguzashtlarini aytishib ketaveribdilar. Bir shudgorga kelsalar, bir parcha quyruq yotgan ekan. Och qolgan bo‘ri shoshilib, tulkiga:

[1] **Dashnom bermoq** — izza qilmoq, koyimoq.

— Men shu dumbani yeyman,— debdi.

Tulki:

— Yema! — debdi.

Bo‘ri:

— Nega yema deysan? — deb g‘azablanibdi.

Tulki:

— „Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur“, uni yemagin, — debdi. Bo‘ri:

— Men ham bir gap aytay, sen ham tushungin. Bir odam bozorga borgandir, go‘sht-yog‘ olgandir, otini minib lo‘killatib chopgandir, bir parcha yog‘i shu yerda tushib qolgandir, yeyman, — debdi. Tulki: „Yema!“ deb ko‘p yalinsa ham bo‘ri ko‘nmabdi. Tulki achchiqlanib ketaveribdi.

Tulki ketgandan keyin bo‘ri yog‘ni yeyman, deb mergan qo‘ygan qopqonga tushib qolibdi. Mergan bir katta tolning tagida poylab o‘tirgan ekan.

Bo‘rining qopqonga ilinganini ko‘rib, vaqti chog‘ bo‘lib, kelib bo‘rini ura boshlabdi. Kaltakning zarbiga bo‘ri chiday olmay, sakrab qopqondan chiqib, jon holatda bir daryoga boribdi. Undan suzib o‘tib, daryo bo‘yida u yoqqa-bu yoqqa qarab o‘tlab yurgan qo‘zini ko‘ribdi, halloslab qo‘zining oldiga boribdi va qo‘ziga:

— Seni yeyman,— debdi. Qo‘zi:

— Meni yeyishga yeysan, meni tuz konga olib borib, tuzlab yegin. Ana maza-yu, mana maza,— debdi. Bo‘ri: „Xo‘p, sening ham gapingga kiray“, deb konga olib boribdi. Qo‘zi:

— Sen shu yerdan jilmay tur, men darrov tuz olib chiqay, undan keyin tuz bilan yeysan,— deb konga kirib, yo‘lni chappa solib qochib ketibdi. Bo‘ri hali chiqar, hali chiqar, deb bir qancha vaqt kutibdi, qo‘zining hech daragi bo‘lmabdi. „Qo‘zi meni aldab ketgan ekan“ deb, umidini uzib, jo‘nabdi. Bir joyga borsa, bir ot o‘tlab yuribdi. Otning oldiga borib:

— Ot, ot! Seni yeyman,— debdi. Ot:

— Meni yesang yersan, mening taqamga yozilgan vasiyat bor, shuni o‘qib ber, men eshitay,— debdi. Bo‘ri taqadagi xatni o‘qiyman deb borishi bilan ot bir tepibdi, bo‘rining og‘zi qonab, dumalab ketibdi.

O‘rnidan turib bir joyga borib, u yoqqa-bu yoqqa qarab, nima qilishini bilmay turgan ekan, bir semiz eshakning o‘tlab yurganini ko‘rib qolibdi. Eshakning oldiga borib:

— Eshak, seni yeyman,— debdi.

Eshak:

— Xo‘p, meni yeyishga yeysan. Ota-buvamdan qolgan yo‘rg‘a yurishim bor, shuni qilib beray, armonda ketmayin,— debdi. Bo‘ri: „xo‘p, bo‘lmasa“ deb eshakning ustiga minibdi. Eshak bo‘rini u yoqqa lo‘killatib-bu yoqqa lo‘killatib olib kelib, ustidan irg‘itib qochibdi. Bo‘ri yiqilganicha qolibdi. Qorni och, bedarmon bo‘lib yotganida bir cholning o‘tin terib yurganini ko‘ribdi. Joyidan turib, chol tomon jo‘nabdi. Chol uzoqdan bo‘ri kelayotganini fahmlab shoshib-pishib o‘tinini arg‘amchisiga bog‘-labdi. Bir daraxt ildizi kovlangan chuqur bor ekan. Chol darrov shu chuqurning ichiga tushib, o‘tinini chuqurning og‘ziga qozon qopqog‘idek yopib, bekinib yotaveribdi. Bo‘ri o‘tin yoniga kelib qarab turib, cholni topa olmay, o‘tinning tepasiga chiqib o‘tirib:

Ko‘rdingki, qo‘zi,
Termuladi ikki ko‘zi,
Senga kim qo‘yibdi,
Qo‘zini tuzlab yeyishni, uv-uv.

Ko‘rdingki, o‘tlab yuribdi ot,
Ota-bobosidan qolgan xat,
Senga kim qo‘yibdi
Uning vasiqasini o‘qishni, uv-uv.

Ko‘rdingki, eshak,
Yoniga solding to‘shak,
Senga kim qo‘yibdi
Yo‘rg‘asini ko‘rib boqishni, uv-uv —

deb yig‘lab-yig‘lab o‘tin ustidan tushib sahroga qarab keta beribdi. Yurib-yurib ochligidan o‘lib qolibdi. Chol bechora chuqur ichidan chiqib, o‘tinini ko‘tarib, u yoq-bu yoqqa qarab, shoshib bolalari yoniga qaytib kelibdi. Bo‘lgan voqeani bolalariga aytib beribdi. Bolalari „Dadam bechora bir o‘limdan qolibdi-da“ deb, otalarini dalaga chiqarmay qo‘yibdilar.



O‘tinchi yigit bilan sher

Bir yigit dalaga o‘tin tergani chiqibdi. Bir daraxt yoniga kelib shu daraxtni yiqitmoqchi bo‘libdi. Bir sher kelib qolib:

— Ey odam, nimaga kelding, bu yerda nima ish qilasan?— debdi. U yigit:

— Mana shu terakni qulataman,— debdi.

Sher:

— Men shunday kuchim bilan bu terakni qulata olmayman-ku, sen qanday qilib qulatasan,— debdi.

Yigit:

— Ey, jo‘ra, men juda zo‘rman,— debdi. Sher:

— Sen zo‘r bo‘lsang, kel ikkovimiz kurashib kuchimizni sinaymiz, — debdi.

Yigit:

— Mayli, kurashamiz,— debdi. Ikkovi kurashmoqchi bo‘lib turganda yigit:

— Kuchimning yarmi uyda qolibdi, borib olib kelay, — debdi.

Sher:

— Ha, borib kel, bo‘lmasa yiqilsang kuchim uyda qolgan edi, deb tan bermay yurarsan, — debdi. Yigit kuchini olib kelmoqchi bo‘lib ketib, bir joyda ko‘rinmay bekinib turib, yana qaytib kelibdi.

Sher:

— Olib keldingmi? — debdi.

— Olib keldim,— debdi yigit.

— Unday bo‘lsa, qani kurashaylik,— debdi sher. Yana ikkovi kurashmoqchi bo‘lib turganda yigit:

— Ey, sher jo‘ra, kuchimning tag‘in pichasi uyda qolibdi. Olib kelay,— deb ketib, yo‘ldan qaytib kelib:

— Sen qochib ketma,— debdi.

Sher:

— Yo‘q, men qochmayman, sherning gapi bir,— debdi.

Yigit:

— Yo‘q, senga ko‘nglim ishonmaydi. Seni bog‘lab ketaman,— debdi.

Sher:

— Bog‘lay qol,— deb o‘zini bog‘latibdi. Yigit sherni mahkam bog‘labdi. Toldan yaxshi bir tayoq qilib olib kelib, gursillatib sherni ura boshlabdi.

Sherning: „Jon odamzod, meni urmang, endi odamzodga yo‘liqmayman“, deb yalinganiga ham qaramay, uraveribdi. Shu payt bir yo‘lbars kelib qolibdi. Yigit yo‘lbarsdan qo‘rqib terak boshiga chiqib ketibdi. Yo‘lbars sherning bog‘lanib yotganini ko‘rib:

— Ey, sher, shuncha kuching bilan nimaga o‘zingni odamzodga urdirasan? — debdi.

Sher:

— Esing bo‘lsa odamzodga yo‘liqma. Qoch bu yerdan. Seni ham ushlab, bog‘lab uradi,— debdi. Yo‘lbars sherdan bu gapni eshitishi bilan orqasiga qaramay qochib ketibdi. Yigit terak ustidan tushib, sherni bo‘shatib yuboribdi. Terakni qulatib, arralab uyiga olib borib, murod-maqsadiga yetibdi.



Buzoq, echki va qo‘zi

Bor ekanda yo‘q ekan, bir dangasa bor ekan, hech ishga havasi yo‘q ekan. U hatto shu darajada dangasa ekanki, kunga chiqib o‘tirishni ham xushlamas ekan.

Uning birgina xotinidan boshqa hech kimi yo‘q ekan. Bahor kelib, o‘tlar ko‘karib, yozning issiq kunlari kelmasdan boylar o‘z mollari bilan yaylovga ko‘chib ketar ekanlar. Hech qanday moli bo‘lmasa ham dangasa xotini bilan ularga ergashib ko‘chib ketaverar ekan.

Bir qancha vaqt o‘tgach, dangasaning xotini har kimning ishini qilib, biroz pul topibdi.

Kunlardan bir kun dangasaning xotini topgan pulini berib, debdi:

— Biz ham mol qilib yaylovga ko‘chib boraylik, bozordan bir mol sotib oling.

Dangasa bozorga tushib katta mollardan sotib olishga puli ozlik qilibdi, yurib-yurib oxiri bir qo‘tir uloqni sotib olibdi.

Yana bir hafta o‘tgandan keyin dangasaning xotini „mol oling“, deb uning qo‘liga yana biroz pul beribdi.

Dangasa bozorga borib, bir qo‘tir qo‘zi sotib olibdi.

Yana biroz vaqt o‘tgach, dangasaning xotini erining qo‘liga yana pul berib:

— Bozordan bir mol sotib oling, — debdi.

Dangasa bozorga borib, bir qo‘tir buzoq sotib olibdi.

Shu orada bahor kelibdi. Boylar mol-hollari bilan yaylovga ko‘cha boshlabdilar.

Dangasa olib kelgan mollariga qaramay, xotini bilan boylarga qo‘shilib ko‘chib ketaveribdi. Xotini ham „molimiz boylarning mollari ichida yurgandir“ deb, xotirjam bo‘lib ketaveribdi. Dangasaning qishi bilan yashagan joyida ham o‘tlar chiqib, oradan ko‘p vaqt o‘tmay uning qarovsiz qolgan mollari semirib ketibdi. Endi buzoq buqa, uloq serka, qo‘zi qo‘chqor bo‘libdi. Uchalasi kunda birga o‘tlab kelib uyda yota beribdi.

Kunlardan bir kuni uyga bo‘ri kirib qolibdi.

Ularni ko‘rib, o‘ziga uch kunlik ovqat deb mo‘ljallab xursand bo‘lib, ashula aytibdi:

Dingirdiq-dingirdiq,
Buzoqcha ham bir kunlik.
Dingirdiq-dingirdiq,
Uloqcha ham bir kunlik.
Dingirdiq-dingirdiq,
Qo‘zichoq ham bir kunlik.

Shunda aqlli buzoq o‘ylab turib, bo‘riga bir siyosat qilib ko‘rmoqchi bo‘libdi. Buzoq turib:

— Echki, sen eshikni to‘s, qo‘y, sen teshikni to‘s,— deb buyruq beribdi. Buzoq tilini chiqarib bo‘kiravergandan keyin, bo‘ri qo‘rqib ketibdi, nima qilishini bilmay, uydan yugurib chiqib qochib ketibdi.

Bo‘ri shoshilib qochib ketayotganida sakkizta bo‘ri bir yerda to‘planib turgan ekan. Ulardan biri:

— Ey, og‘ayni, nimaga qochib ketayotibsan?— deb so‘rabdi.

Bo‘ri:

— Mana bu yerda buzoq-buqa, serka-taka, qo‘zi-qo‘chqor uchovi meni o‘rtaga olib qolgan edilar, arang ularning oldidan qochib ketayotibman, chaqqonlik va abjirlik qilib qochib qoldim, bo‘lmasa, o‘lar edim,— debdi.

Bo‘rilar aytibdi:

— Shoshma, bizni ularning oldiga boshlab bor, ularni najir qilib bir yeylik.

Dangasaning mollari ham bo‘rilarning to‘dalanib kelishini bilib o‘zlarini panaga olibdilar. Hovlida bir tup o‘rik bor ekan. U o‘rikning ayrisiga echki bilan qo‘zi buzoqni bir amallab ko‘tarib chiqazib qo‘yib-

dilar. Uning ketidan shu o'rikka qo'zi, keyin echki chiqib, o'zlarini yashiribdilar.

Birdan hovliga to'qqiz bo'ri kelibdi. Bo'rilar uyni, molxonani qarab, qidirib-qidirib buzoq, echki, qo'zini topolmay, boshlab kelgan bo'rini „bizni aldading", deb koyibdilar. Qochib borgan bo'ri:

— Xuddi mana shu yerda ko'rgan edim,— deb ularni ishontiribdi.

To'qqiz bo'ri o'rik ostiga to'planib fol ochibdilar. Shu payt o'rik ustidagi buzoq shoxga o'rnashib turolmay sekin-sekin og'a boshlabdi. Shunda buzoq asta-sekin:

— Ey, og'ib ketyapman, og'ib ketyapman,— debdi.

Echki:

— Tilingni tishla, tilingni tishla! — debdi.

Axiri buzoq o'rnashib turolmay gumburlab fol ochayotgan bo'rilar ustiga ag'anab tushibdi.

Echki bo'lsa, o'rik ustidan turib:

— Fol ochganini ushla, fol ochganini ushla! — deb baqiribdi.

To'qqiz bo'ri qo'rqib, to'qqiz yoqqa qochibdi. Bo'rilar qochib borib-borib bir yerga to'planibdilar. Eson-omon qutulganlari uchun shodlanib bir-biriga:

— Folchisini ushla, deb baqiradi, ular bizning folchimizni ushlab olgandan so'ng avlod-ajdodimizni qo'ymay quritar edi. Yaxshiki vaqtida qochib qoldik, endi boshqa avlodlarimizga aytaylik, bu yerlarga hech kelmasinlar, deyishib jo'nab qolishibdi.

Dangasaning mollari bo'rilardan sog'-salomat qutulib, semirib, xursand bo'lib yuribdilar.

Kunlardan bir kuni dangasaning xotini eriga:

— Bizning mollarimiz bor edi, ular qayoqda qoldi?— deb so'rabdi.

Keyin er-xotin mollarini qidirib yo'lga tushibdilar. Dangasaga ham g'ayrat kiribdi.

Ular o'z hovlilariga kelib qarasalar, mollar o'tlab yurgan ekan. Shu bilan er-xotin ham molga ega bo'lib, murod-maqsadiga yetgan ekan.



Qarg‘a bilan qo‘zi

Bor ekan, yo‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, g‘oz karnaychi ekan, tovuq toq etdi, bilmadim qayoqqa ketdi.

Bir qarg‘a bilan qo‘zi bor ekan. Qarg‘a qo‘zi yoniga borib:

— Seni yeyman,— debdi.

— Meni yeyishga yeysan-u, tumshug‘ing xarom, daryoga borib chayqab kelib, undan keyin yegin,— debdi qo‘zi. Qarg‘a tumshug‘ini chayqagani daryoga boribdi. Daryo suvini pastga tortib olib:

— Mendan odamlar suv ichadi, sening tumshug‘ing xarom, Ustaboy kuloldan bitta ko‘za olib kelgin, men suv beray, sen suvni olib u yoqda chayqagin,— debdi. Shunda qarg‘a Ustaboy kulolning oldiga borib:

— Ey, Ustaboy kulol, bering ko‘za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a’lo yeyman qo‘zi,— debdi.

Ustaboy kulol:

— Tuprog‘im ado bo‘lib qoldi. Tuproqolur degan yerdan tuproq olib kelib bergin, men yangi ko‘za qilib beraman, — debdi. Sho‘rlik qarg‘a tuproqolurga uchib boribdi:

— Bering tuproq, qilsin ko‘za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a’lo yeyman qo‘zi, — debdi. Tuproqolur:

— Tog‘ning boshida bir kiyik bor. Shu kiyikning shoxidan olib kel. O‘sha kiyik shoxi bilan qazib olasan,— debdi. Qarg‘a bu yerdan ham uchib tog‘ tepasidagi kiyik oldiga boribdi:

— Hoy, kiyik aka, bering shox, qaziy tuproq, qilsin ko‘za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a’lo yeyman qo‘zi,— debdi. Kiyik bechora aytibdi:

— Rahmim kelib beray dedim-u, shoxim qattiq o‘rnashgan, jonim og‘riydi. Bir Po‘latvoy aka degan kishining tozisi bor. Shu tozisini sizga bersin. Tozi kelib meni quvsin, men qochib ketib daraxtlarga shoximni urib tushirib beray, — debdi. Shundan keyin qarg‘a uchib Po‘latvoy akaning oldiga borib „Po‘latvoy aka“, deb chaqiribdi:

— Bering tozi, quvlasin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq, qilsin ko‘za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a’lo yeyman qo‘zi,— debdi. Po‘latvoy aytibdi:

— Tozimning qorni och, bedarmon bo‘lib yotibdi. Tosh akamning sigiri bor, o‘sha sigirning sutidan bersin, olib keling, ichiramiz, tozi ovqatlanib olib, kiyigingizni quva bersin,— debdi. Qarg‘a uchib borib:

— Toshvoy aka! — deb chaqiribdi.

— Labbay,— debdi Toshvoy aka.

— Bering sut, ichsin tozi, quvsin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq, qilsin ko‘za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a’lo yeyman qo‘zi,— debdi.

Toshvoy aka:

— Sigirimning qorni och, dalaga borgani yo‘q. Sen daladan bir ko‘tarim quroq[1] olib kelib ber, sigir yeb sutga kirsin, undan keyin olib ketasan,— debdi. Qarg‘a bir quroqzor ko‘lga borib:

— Bering quroq, yesin sigir, bersin sut, ichsin tozi, quvlasin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq, qilsin ko‘za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a’lo yeyman qo‘zi,— debdi.

Quroq aytibdi:

— Yulib olsang, qo‘lingni qiyib ketaman, shaharning chekkasida o‘roq qiladigan usta So‘kildi degan bor. Bitta yaxshi o‘roq qilib bersin, meni o‘rib olib ketgin,— debdi. Qarg‘a uchib usta So‘kildining oldiga boribdi:

— Usta, usta,— deb chaqiribdi. Usta:

— Labbay,— deb qarg‘aning oldiga chiqibdi.

Qarg‘a:

---

[1] **Quroq** — yashil qamish.

— Bering o‘roq, o‘ray quroq, yesin sigir, bersin sut, ichsin tozi, quvsin kiyik, tashlasin shoh, qaziy tuproq, qilsin ko‘za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a’lo yeyman qo‘zi, — debdi.

Usta So‘kildi:

— Ko‘mirim tamom bo‘lib qolgan edi. Bir tog‘ning boshida besh-o‘n xonadon bor, ular ko‘mir kuydirayotgan emish, ko‘miridan olib kelib ber, senga pashshaning qanotidek olmosdan o‘roq qilib beray.

Qarg‘a bu yerdan ham uchib o‘shal ko‘mirchilarning oldiga borib:

— Ko‘mirchi aka, ko‘mirchi aka, bering ko‘mir, qilsin o‘roq, o‘ray quroq, yesin sigir, bersin sut, ichsin tozi, quvsin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq, qilsin ko‘za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a’lo yeyman qo‘zi, — debdi. Ko‘mirchilardan biri bir parcha ko‘mirni oldiga irg‘itib yuboribdi. Qarg‘a ko‘mirni olib, usta So‘kildining oldiga kelibdi:

— Mana ko‘mirni topib keldim,— debdi. Usta:

„Obbo, vaj qilsam ham bo‘lmadi-ya“, deb bir pashshaning qanotidek olmosdan qilingan o‘roqni qarg‘aning qanotiga o‘tkazib qo‘yibdi. Qarg‘a bir qancha vaqt uchgandan keyin o‘roq qanotini shartta qirqib ketibdi, ikkinchi qanotiga o‘tkazib olibdi. Yana bir qancha vaqt uchgandan keyin ikkinchi qanotini ham shartta qirqib ketibdi. Bechora qarg‘a endi o‘roqni bo‘yniga solibdi, ucha olmasdan hiqillab birmuncha yo‘l yuribdi. Bo‘ynini ham o‘roq shartta kesib ketibdi. Qarg‘a maqsadiga yetolmay, bir cho‘lda o‘lib ketibdi. Qo‘zi esa qutulib qolibdi.



Botir echki

O‘tgan zamonda kambag‘al er-u xotin bor ekan. Ularning bisotida faqatgina bitta echkisi bor ekan. Echkisiga har kuni bir siqim quruq xashakni berib, yelinlariga mushtlab, kuniga bir kosa sut sog‘ib olishar ekan. Ularning kunlik ovqati shu bir kosa sut bilan o‘tar ekan. Lekin bechora echkiga har haftada bir kun dam berib turishar ekan. Echki shu dam oladigan kuni bo‘shalib borib, erkin tirikchilik qilar ekan.

Echki erta bahorda, qishloqqa yaqin bir o‘rmonzorda o‘tlab yurarkan, nogahon unga bir sovliq qo‘y kelib salom beribdi. Echki bunday qarasa, bu sho‘ring qurg‘ur sovliq bechoraning holi xarob, bag‘ri kabob ko‘rinibdi. Oriq, terisi borib suyagiga yopishib, har qovurg‘asi „manamen“, deb sanalib turibdi. Echki sovliqning salomiga alik olib, unga aytibdi:

— Ko‘zing o‘zini yerga solib, yuzingga boqqani uyalib, po‘stingda unda-munda bir tuk, u ham bo‘lsa, o‘zingga og‘ir yuk, — debdi. Echkidan bu gapni eshitib, sovliq izza bo‘lib, uning yuziga qarab:

— O‘rtoq echki, sen oldin o‘zingga boq, so‘ngra nog‘ora qoq, „o‘zingni bil, o‘zgani qo‘y“, degan gapni eshitganing yo‘qmi. Bu aytgan bayting o‘zingga mos keladi, — debdi.

Shundan keyin bular bir-birlari bilan tanish-bilish bo‘lib, gaplashib ketibdilar. Har ikkalalari o‘zlarining boshlaridan o‘tganlarini aytishibdi.



«Susambil» ertagiga ishlangan rasm

Echki:

— Mening xo'jayinim bor. Xo'jayinimning mendan boshqa hech narsasi yo'q, yeydigan ovqati ham yo'q, faqat er-xotin menga zo'rg'a bir tutam quruq xashak topib berib, yelinimga mushtlab urib, bolam uchun tayyorlagan bir kosa sutimni sog'ib olib, shuni ovqat qilishadi. Haftasiga zo'rg'a bir kun erkinlikka chiqaradi. Faqat shu juma kunida erkin yurib o'ynayman, yuragimning chigilini ancha yozib ketaman, — debdi.

Echkidan keyin sovliq qo'y ham boshidan o'tganlarini gapiribdi. Uning turmushi ham echkining turmushiga o'xshash ekan. Uni ham faqat juma kuni boshvog'ini olib, dam berib qo'yib yuborar ekanlar. Shunda bular xo'jayinlarining jabr-zulmlaridan qutulish yo'lini axtaribdilar. Axiri bular bir joyga qochib ketishga maslahat qilishibdi.

— Endi qayerga qochamiz? — debdi sovliq.

Echki butun atrofga qarab olib:

— Mening otam: „Hu, o'sha ko'ringan tog' juda ham o'tloq joy, suvlari yaxshi, havosi undan ham yaxshi, bolam, bir iloj qilib o'sha joyga yetib borsak, umrbod rohatda o'tardik, bu yerda ko'rgan azoblarimiz ham esimizdan chiqib ketardi", deguvchi edi. Lekin otam rahmatlik u yerga yetolmay, bizni ham yetkizolmay, olamdan o'tib ketdi. Otam menga: „Agar mening bolam bo'lsang, o'sha joylarga borsang, keng yaylovlarda men uchun ham u yoq-bu yoqqa yugurib, mening arvohimni shod qilib qo'yasan", deb vasiyat qilib ketgan edi. Endi shu joyga borsak, ko'p yaxshi bo'ladi,— debdi.

Bu gap sovliqqa ko'p ma'qul kelibdi. Ikkalasi hayyo-hu, deb o'sha ko'ringan tog'ga qarab jo'nashibdi.

Bular yo'lda ketayotganda, uzoqdan bir narsaga ko'zlari tushibdi. „Bu qanday narsa ekan", deb turishganda, u narsa bir ho'kiz bo'lib chiqibdi. Ho'kizning tinkasi qurigan, sekin-sekin qadam bosib ketayotgan ekan. Echki bilan sovliq bu yoqdan yetib borib qarashsa, bir qo'ng'ir ho'kiz, shoxi xuddi bir quloch keladi. Juda ham oriqlab ketgan. Ko'zlari shokosaday, shafaq bosgan, bo'yni qing'ir tolday yerga egilgan, cho'qqisi qirday irg'ib chiqqan, gapirishga ham madori qolmabdi. Echki salom bergan ekan, bechora ho'kiz boshini bir likanglatib, arang alik olibdi. Gapirgani majoli ham qolmabdi. Ho'kiz bulardan „Ha, bolalar, yo'l bo'lsin?" deb so'rabdi. Echki:

— Ulug'imiz sizdan bo'lsin, — debdi.

— He, bolalar, hafta ishladik, ertaga shanba bo'lsa, bukun bir hordiq chiqarib, sal tiklanib olay deb kelyapman,— debdi. Undan keyin echki bilan sovliq ham boshlaridan o'tkazganlarini aytib, axiri xo'ja-

yinlari bilan xayr-ma'zurni nasiya qilib, tog'ga qarab ketayotganliklarini aytishibdi. Shunda ho'kiz turib aytibdi:

— Dunyoning g'am-g'ashidan juda chiqdim. Bizni ota-onamiz zab sizlarga boylab ketgan ekan-da. Sahardan to namozshomgacha ishlaysan, ancha-ancha yerni haydaysan, kech kirib juda darmoningdan ketganingda qo'shdan chiqaradi, o'lganning ustiga ko'mgan deganday, ketishda, quruq ketmasin deb, bir arava cho'p-cho'makni ham yuklab ketishadi. Uyga borsang tuzuk-quruq ovqat yo'q. Endi badanda jir tugadi, quvvat ketdi. Bu jabr-zulmlardan qanaqa qilsam qutular ekanman, deb ko'p vaqtlardan beri o'ylanardim. Yaxshi bo'pti. Sizlar shu maslahatga kelibsizlar. Endi men ham sizlar bilan ketaman,— debdi. Ular: „Xo'p, bo'pti", deyishibdi. Shunday qilib, bular uchalasi tog'ga qarab jo'nashibdi.

Bular yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, mo'l yursa ham ko'l yurib, axiri bir kun tog'ga yetishibdi. Bu tog' echki aytganday, juda ham obod ekan. Istagan ovqat topilarkan. Havosi juda baland, suvlari tiniq. Bular borishi bilan yaxshilab qorinni to'qlab, adirlikdagi katta chinorning tagida makon qurib yota berishibdi. Shu kuni kechasi oyoqlarini uzatib uxlashibdi. Saharga borganda echki uyqusida bosinqirabdi. Uning tushiga xo'jayinlari kirib, „Sen qayoqqa yo'qolding, sendan necha kunlik sutni sog'ib olaman", deb uni tushovlab, sog'a boshlabdilar. Bir kosa sut chiqqandan keyin, boshqa sut chiqmay qolibdi. Shunda xo'jayini: „Sen qolgan sutlarni nima qilding", deb qo'liga katta so'yilni olib hadeb urgani turibdi. Shunda echki ovozining boricha „dod", deb qichqiribdi. Uning ovozini sovliq bilan ho'kiz eshitib, bunga nima bo'ldi, deb uyg'otishibdi. Echki uyg'onib, darrov ichiga tupurib:

— Xudoga shukur-ey, tushim ekan, tushimda hadeb xo'jayinim uryapti,— debdi.

Ho'kiz aytibdi:

— Bu tushing bo'lmay, nima bo'ladi, endi xo'jayining ham yo'q. Xo'jayinning katta so'yili ham o'zi bilan birga qoldi, — debdi. Shunday qilib bular bu yerda juda yayrab qolishibdi. Kundagiday sahar uyg'otish, bo'yniga arqon solish yo'q. Ovqat serob, tergaydigan odam yo'q.

Bular tez kunda juda ham tozarib, semirib ketishibdi. Ho'kiz juda ham semiribdi. Uning savlatini ko'rganda har qanday yovvoyi hayvonlar ham qochadigan bo'libdi.

Bir kuni ho'kiz sheriklariga aytibdi:

— Men har kuni ichkarida yotib issiqlab qolayotibman, bu kun chinorning tagida yotaman, — debdi. Shu kuni echki bilan sovliq ichkarida

yotishibdi, ho‘kiz tashqarida yotibdi. Shu kuni qattiq sovuq bo‘lib, ho‘kiz yotgan yerida shamday qotib qolibdi. Erta bilan o‘rtoqlari chiqib, ho‘kizni chaqirsa, hech tovush bermabdi. Nima bo‘ldi ekan, deb borib qarashsa, sovuqdan muzlab qolibdi. „Endi nima qilamiz“ deyishibdi. Axiri buni o‘tga qizitmasak bo‘lmaydi deb, echki darrov chinorning ustiga chiqib, u yoq-bu yoqqa qarabdi. Qarasa, yaqin bir pastlikdagi o‘ngirdan tutun chiqib turibdi. Chinordan darrov tushibdi, tushib sovliq ikkalasi ho‘kizni arang suyashib tutun chiqqan tarafga boshlashibdi. Ular yo‘lda ketayotsa, bir joyda bir yo‘lbars, bir bo‘ri, yana bir tulkining terisi yotibdi. Echki terilarni olib ho‘kizning ustiga yopibdi. Yana jo‘nashibdi. Bular tutun chiqqan yerga yetib borib qarashsa, bu joy butun vahshiy hayvonlar o‘tiradigan joy ekan. Bular shu yerda to‘planib olib, gap yeyishar ekan. Sovliq bilan ho‘kiz qo‘rqib orqalariga qaytmoqchi bo‘libdilar. Echki ularni to‘xtatib, ho‘kizning ustidagi boyagi yo‘ldan topgan terilarini olib, o‘ngirning og‘ziga tashlab, ichkariga salom berib kiribdi. Ho‘kiz bilan sovliq ham kiribdi. Kirishsa, ichkarida bo‘ri, arslon, tulki, qoplon va sherdan tortib hamma vahshiy hayvonlar bor. Yo‘lbars podshoh ham taxtda o‘tiribdi. Shu kuni tulki gap beradigan ekan. Tulkini o‘rtaga olib juda ham siqib: „Nimaga bu kun ovqat topib kelmading?“ deb turishgan ekan. Tulki: „Hamma joyni qidirib keldim, sira ham ovqat uchramadi, xudo o‘zi yetkazmasa, bandasi nima qiladi“, deb turgan ekan. Shunda birdan bular kirib qolishibdi. Bularning kirishi bilan tulki juda xursand bo‘lib ketib, bir baytni aytibdi.

Tulkining baytini eshitib, echki ham cho‘nqayib, podshohga qarab bayt aytibdi:

Namangan shahrida qassob edim, do‘stlar,
Oltmish yo‘lbars, oltmish bo‘ri, oltmish tulki
So‘yishga qo‘l qo‘ygan pudratchi edim.
Xudoyimdan o‘rgilay endi keldim koniga,
Ishonmasang chiqib qara, endi bo‘ldi bittadan,

— debdi.

— Shundan keyin, uydagi vahshiy hayvonlar birin-ketin chiqib qarab, boyagi terilarni ko‘rib ichkariga qaytib kirmasdan, shundan nari qochib ketaveribdilar. Axiri yo‘lbars podshoh o‘zi yakka qolib, qo‘rqqanidan u ham chiqib ketayotgan ekan, ho‘kiz yugurib yo‘lbarsning qornidan suzib borib, jarga taqab turib qolibdi. Buni ko‘rib echki bilan sovliq ham hujumga o‘tibdi. Ular ham tisarilib turib, oldinga qarab yugurib, yo‘lbarsni suza boshlabdi. Yo‘lbars qarasa, bular o‘ldirib qo‘yadi. Axiri yalingani turibdi. Yo‘lbars aytibdi:

— Jon akalar, endi bundan buyon sizga hech da'vogarlik qilmayman, sizlar turgan joyga birorta hayvonning qadamini bostirmayman. Meni qo'yib yuboringlar,— debdi. Ular yo'lbars podshohdan va'dani olib, urib-surib haydabdilar. Vahshiy hayvonlar ketgandan keyin bular bu joydagi o'ljalarni olib, ho'kizga yuklashib joylariga qarab ketibdilar.

Boyagi vahshiy hayvonlar ulardan qochib borib, bir yerga to'planishibdi. Ular: „Shu uchta go'shtdan qochdikmi?" deb, qochganlariga pushaymon qilib, yana ularni quvib bormoqchi bo'lib jo'nabdilar. Echki ularning kelayotganini bilibdi. U darrov qo'y bilan ho'kizning oldiga kelib, ularni chinorga chiqarib yuboribdi. O'zi bir balandlikka chiqib turibdi. Echki qo'y bilan ho'kizga: agar haligi vahshiy hayvonlar bizni izlab topolmay, shu yerda o'tirib qolishsa, qattiq ovoz chiqarib, chinordan o'zlaringni tashlanglar, deb gap o'rgatgan ekan. Boyagi vahshiy hayvonlar izlab kelib qolibdi. Ular chinorning tagiga kelganda tulkiga yalinibdilar:

— Ana, biz ularni topolmadik. Sen romchi eding, bir rom qarab qo'ygin, ular qayda ekan? — deyishibdi. Tulki ham cho'nqayib o'tirib rom qarab ketibdi. Tulki rom qarab, hamma hayvonlar uning og'ziga tikilib o'tirgan ekan, birdan yuqoridan allaqanday bir ovoz chiqib, bir narsalar tushib kelib qolibdi. Ular boyagi ho'kiz bilan qo'y ekan.

Shu holda birdan narigi yoqdan:

— Romchisini ushla, romchisini ushla, — degan ovoz kelib qolibdi.

Bu ahvoldan qo'rqib, vahshiy hayvonlar orqa-oldiga qaramasdan qochib ketishibdi. Bundan keyin ular bu joylarga butunlay kelmaydigan bo'lib ketibdilar. Shu bilan ho'kiz, echki, qo'y bu joyda umrbod yashab qolishibdi.



Bo‘ri bilan tulki

Bo‘ri bilan tulki ikkovi do‘st tutingan ekan. Bir kuni tulki bo‘rining oldiga kelibdi, bo‘ri juda ochiqib turgan ekan, tulkiga qarab:

— E, do‘stim tulki, yaxshi kelding, qani yur, meni bir joyga olib bor va qornimni to‘yg‘azib, xursand qilib kelgin,— debdi. Tulki „xo‘p“ debdi-yu, oldinga tushib, ketidan bo‘rini ergashtirib ketaveribdi. Borib-borib, ular bir yerda to‘yga ketayotgan yetti-sakkizta xotinga yo‘liqibdilar. Hammaning qo‘lida tugilgan dasturxon bor ekan. Shunda tulki bir yumalab bedana bo‘libdi va haligi xotinlarning oldiga tushib yo‘rg‘alay boshlabdi.

Uni bir xotin ko‘rib:

— Iye, anovi bedanani qaranglar, uni men bolamga tutib beraman,— debdi-da, qo‘lidagi dasturxonni yerga qo‘yib, bedanani quva ketibdi, uning orqasidan yana biri quvlabdi.

Shunday qilib, xotinlarning hammasi quvib ketaveribdi. Tulki bo‘lsa, ularning oldiga tushib yo‘rg‘alayveribdi. Xotinlar yetay-yetay deganda, „pirr“ etib uchib, yana bir tomonga tushar emish. Shunday qilib tulki bularni aldab ergashtirib ketaveribdi.

Bo‘ri bo‘lsa, tugunlar ichidagi ovqatlarni maza qilib yeb, qornini to‘ydirib jo‘nabdi. Xotinlar bedanaga yetolmay charchab, yo‘ldan qaytib

kelishsa, tugunlar qup-quruq emish. „Voy, sho‘rimiz quridi, „Oyimbuvi ovga chiqdi, ketidan g‘ovg‘a chiqdi“ deganday, bu nimasi ekan!“, deb dod deganlaricha qolaverishibdi.

Tulki aylanib borsa, bo‘ri bir joyda dam olib yotgan emish.

Tulki bo‘riga qarab:

— Ha, o‘rtoq,— debdi.

Bo‘ri unga:

— Ha, qornim juda ham to‘yib ketdi, dam olib yotibman,— debdi.

Ertasi kuni tulkiga bo‘ri shunday debdi:

— O‘rtoq, kecha meni juda xursand qilib yubording, endi bugun sal xafa qilib qo‘ygin.

Bunga javoban tulki:

— Xo‘p bo‘ladi, qani yur bo‘lmasa,— deb bo‘rini bir bog‘ga boshlab boribdi. Bog‘ning devori tagida bir ombor bor ekan, shu ombordan ikkovlari siqilib, zo‘rg‘a ichkari kirishibdi. Qarashsa, hamma yoq uzumga to‘lib-toshgan, hech kim yo‘q emish. Vaqtni g‘animat bilib, ikkisi uzumxo‘rlikka zo‘r beribdi. Bir vaqt tulki qornini obdan to‘ydirib, ikki dona g‘ujumni ikkala burniga tiqib, bo‘rining oldiga boribdi:

— E, do‘stim, mana men judayam to‘ydim, azbaroyi to‘yganimdan uzum burunlarimdan chiqib ketdi. Bo‘l, yaxshilab yeb, obdan to‘yib ol, — debdi. Bo‘ri shoshib-pishib yeyaveribdi. Axiri qorni shishib ketibdi, lekin burnidan chiqmabdi.

— Qani, burnimdan chiqmadi-ku? — debdi u. Tulki bo‘rining tumshug‘ini ko‘tarib qarab:

— Hu ana, ko‘rinib qolibdi, yana biroz yesang chiqadi, — debdi.

Bo‘ri yana yeyaveribdi, qorni rosa ko‘pchib, axiri o‘zini tutib turolmay yotib qolibdi. Tulkiga ana shugina kerak ekan. U yugura borib, devorga chiqibdi-da:

— Uzumga o‘g‘ri ketde-e-e, uzumga o‘g‘ri ketde-e-e! — deb qichqiribdi. Uning tovushini bog‘bon eshitib, so‘yil ko‘tarib kelib qolibdi.

Bo‘ri lapanglab borib boyagi omborga suqilgan ekan, sig‘mabdi. Devorga tirmashsa, chiqolmabdi. Bog‘bon uni o‘lasi qilib savalabdi, bo‘rining yegan uzumlari og‘zi-burnidan chiqib, oxirida kaltak zarbidan sulayib qolibdi. Bog‘bon bo‘rini o‘ldiga chiqarib, tashlab ketibdi. Bir vaqt bo‘ri hushiga kelibdi. Qarasa, ombor og‘zida yotgan emish. Yonida hech kim yo‘q emish, tura solib devordan oshib, bir chekkada ingrab yotaveribdi.

Bir vaqt tulki kelibdi, bo‘rini ko‘rib, undan:

— Ha, do‘stim, nima bo‘ldi? — deb so‘ragan ekan, bo‘ri bazo‘rgina ingrab:

— Ha, do‘stim bo‘lmay o‘l. Biroz xafa qilib qo‘ygin desam, shuncha xafa qilasanmi?— debdi.

Tulki:

— Birodar, bog‘ egasining seni bunchalik urishini qaydan bilay? — debdi.

Bo‘ri yurolmasdan shu yerda qolibdi. Tulki ketibdi.

Ertasi kuni tulki o‘ynab yurgan ekan, bir joyda katta tosh yotgan emish, uning yonida bir qo‘yning kart dumbasi ham bor emish. Unga qarab tulki: „Bunda bir sir bo‘lsa kerak. Oldin uni o‘zim yemayin-u, bo‘rini ro‘para qilayin“, debdi. Keyin bo‘rining oldiga borib:

— O‘rtoq, qorning qalay?— deb so‘ragan ekan, bo‘ri:

— Qornim och,— debdi. Tulki:

— Bo‘lmasam men bir qo‘y so‘yib, go‘shtini yedim-u, yog‘i qoldi. Borib sen shuni yesang-chi, — deganda, bo‘ri:

— Bu gaping juda ma’qul, chunki kechagi kaltakdan ichak-bag‘rim uzilib, haligacha hech narsa yeganim yo‘q edi,— debdi.

Bular ikkisi bir tomonga qarab jo‘nashibdi. Bir joyga borganda, tulki uzoqdan turib yog‘ni ko‘rsatibdi. Bo‘ri:

— Yur, birga boramiz, — debdi. Tulki:

— Qo‘y, meni ovora qilib yurasanmi, o‘zing borib yeb kela qol,— deb bormabdi. Bo‘ri borib qarasa, qo‘yning dumbasi yotgan emish.

Shoshilib borib tishlab tortgan ekan, „part“ etib, tumshug‘idan qopqonga ilinibdi. Shunda tulki yugura kelib, hadeb yog‘ni yeyaveribdi. Uzoqdan buni ko‘rib turgan ovchi to yugurib kelguncha tulki qochib ketibdi.

Ovchi kelib qarasa, qopqonga ilingan bo‘ri ekan.

— Iye, men tulki desam, sen ekansan-da, — deb bo‘rini obdan kaltaklab, keyin bo‘shatib yuboribdi.

Bo‘ri bundan qutulib, qorni och ketayotgan ekan, yo‘lda bir qo‘zini uchratibdi, unga qarab:

— Hoy qo‘zi, seni yeyman! — debdi. Qo‘zi qo‘rqa-pisa:

— E, taqsir, oldin siz Karim bobomning tuzidan olib keling, chunki go‘shtim juda bemaza,— debdi. Shunda bo‘ri: „Xo‘p bo‘ladi“ deb, tuz axtarib ketibdi, ungacha qo‘zi qochib qolibdi. Bo‘ri kelib qarasa qo‘zi

yo‘q emish. Hayron bo‘lib borayotsa, bir joyda bir xo‘roz turgan ekan. Bo‘ri borib:

— Hoy xo‘roz, seni yeyman! — debdi. Xo‘roz unga:

— Bo‘lmasa, oldin bir zira-piyoz qilaylik, meni undan keyin yeng. Buning uchun siz avval pichoq topib keling, men zira bilan piyoz keltirayin,— debdi.

Bo‘ri pichoq qidirib ketibdi, xo‘roz paytdan foydalanib, bir tomonga qochib qutulibdi. Bo‘ri pichoqni olib kelsaki, xo‘roz yo‘q emish. Noiloj yana ketaveribdi. Yurib-yurib bir joyga borsa, bir xachir turgan emish. Unga qarab:

— Hoy xachir, seni yeyman!— debdi. Xachir:

— Agar meni yemoqchi bo‘lsangiz, avval yetti marta minasiz, keyin yesangiz mayli, otam shunday deb vasiyat qilgan edi,— debdi.

Bo‘ri xachirning shartini o‘rniga qo‘yish uchun to‘rt marta minibdi, beshinchi minishida xachir bo‘rini qo‘sh oyoqlab tepibdi.

Bo‘ri chalqanchasiga yiqilibdi. Xachir qochganicha ketaveribdi. Bo‘ri o‘rnidan turib, bir joyga boribdi, qarasa, ot o‘tlab yurgan emish. Bo‘ri otga qarab:

— Hoy ot, seni yeyman! — debdi. Ot bo‘riga:

— Bo‘lmasa, mening keyingi o‘ng oyog‘im tuyog‘iga otam yozib ketgan ikki enlik xatni o‘qib, keyin yegin,— debdi.

Bo‘ri otning orqasiga o‘tibdi, ot tuyog‘ini ko‘tarib turibdi. Bir vaqt bo‘ri yaqiniga kelganida, ot uni bir tepgan ekan, bo‘rining tishlari majaq-majaq bo‘lib, o‘zi ancha nariga borib tushibdi. Ot qochib ketibdi.

Shu onda tulki yetib kelibdi, qarasa, bo‘rining og‘zi-burni qip-qizil qonga belangan emish. Shunda tulki undan:

— Ha, do‘stim, senga nima bo‘ldi yana?— deb so‘rabdi.

— Ha, nimasini so‘raysan, ishlar shunday-shunday bo‘ldi,— deb bo‘ri hamma voqeani aytib beribdi. Shunda tulki debdi:

„Ko‘rdingki, qo‘zi, yeb qo‘ygin, termulib qolsin ikki ko‘zi. Senga kim qo‘yibdi Karim boboning tuzini? Ko‘rdingki, xo‘roz, urib bo‘ynini yoz, senga kim qo‘yibdi, zira bilan piyoz? Ko‘rdingki, xachir, urib bo‘ynini g‘aji, senga kim qo‘yibdi minishni xachir. Ko‘rdingki, ot, yeb ustida yot, senga kim qo‘yibdi mirza buvalikni?“

Bo‘ri tulkidan dashnom eshitib, indamay turib ketaveribdi, naryoqqa borgan ekan, ikkita ovchi uni ko‘rib qolib, quva ketibdi. Bo‘ri qochib borayotganda yo‘lda bir odam qo‘sh haydab yurgan ekan. Bo‘ri borib qo‘shchiga yalinibdi:

— Jon amaki, meni shu ovchilardan saqlab qoling.

Qo'shchi: „Xo'p bo'ladi", deb bo'rini katta qanorga solib qo'yibdi. Bir vaqt ovchilar yetib kelib qo'shchidan: „Bo'ri o'tdimi?" deb so'rabdilar. „Ha, o'tib ketdi", debdi qo'shchi. Ovchilar ketgandan keyin bo'ri qanordan chiqib, qo'shchiga:

— Hoy qo'shchi, seni yeymaan! — debdi. Qo'shchi:

— Iye, bu qanday gap, axir, men seni o'limdan qutqarib olsam-u, meni yeysanmi? — desa, bo'ri:

— Yaxshilikka yomonlik, — der emish.

Shunda qo'shchi yalinibdi, bo'ri sira ham unamabdi. Bular shunday mojaro qilib turgan ekan, tulki yetib kelib, qo'shchidan:

— Ha, nima gap?— deb so'rabdi.

Qo'shchi bo'lgan voqeani tulkiga birma-bir aytib beribdi. Tulki bo'riga qarab:

— Men sening shu qanorga sig'ishingga ishonmayman: o'zing sig'sang ham duming sig'maydi,— debdi. Bo'ri unga:

— Yo'q, sig'dim — debdi. Tulki:

— Bo'lmasa, qani kirib ko'r-chi, — degan ekan, bo'ri:

— Mana bo'lmasa, — deb qanorga kiribdi. Tulki qo'shchiga imlab, qanor og'zini bog'lashga buyuribdi. Qo'shchi qanor og'zini mahkam bog'labdi. Shundan so'ng qo'shchi bilan tulki ikkisi bittadan ikkita so'yil olib, bo'rini ura-ura o'ldirishibdi.



Ilonning ishi zahar solmoq

Bir cho‘pon daladan qaytayotganda, katta ariqning narigi yog‘idagi to‘qayga o‘t ketganini ko‘ribdi. Bir vaqt suv bo‘yiga kelib qarasa, qamish ichida bir katta ilon vishillab kuyib ketayotgan emish. Cho‘ponning unga rahmi kelibdi, qo‘lidagi uzun tayoqning uchiga xaltani boylab ilon tomonga uzatibdi. Ilon jon holatda o‘zini xaltaga uribdi, cho‘pon xaltani tortib olib, og‘zini ochibdi, ilonni yerga tushiribdi. Shu payt ilon cho‘ponning oyog‘iga chirmashib olibdi. Cho‘pon hayron bo‘lib:

— Nima qilmoqchisan? — deb so‘rabdi, ilon:

— Men seni chaqaman,— debdi. Cho‘pon:

— Men yaxshilik qilib seni o‘limdan qutqardim-ku, senga yaxshilik qilgan odamni chaqasanmi?— debdi. Shunda ilon:

— Men bilmayman, mening vazifam chaqish, zahar solish, menda bundan boshqa hunar yo‘q,— debdi. Cho‘pon:

— To‘xta, bo‘lmasa, birorta odamdan „yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi?“ deb so‘rayman, u nima desa, o‘shanga qarab ish tutamiz,— debdi.

Cho‘pon yo‘lda davom etibdi. Ilon esa cho‘ponning oyog‘iga chirmashib ketaveribdi. Yo‘lda o‘tlab yurgan bir oriq sigir duch kelibdi. Shunda cho‘pon:

— Ey, sigir, yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi? — deb so‘rabdi. Sigir javob beribdi:

— Albatta, yaxshilikka yomonlik. Men yoshligimda har kuni uch mahal sut berardim. Xo‘jayinim yaxshi ko‘rar edi. Endi men qaridim,

sut bermay qo‘ydim, oriqladim. Ertaga meni qassobga sotish uchun bozorga olib boradilar,— debdi. Shunda ilon:

— Ana, mening aytganim to‘g‘ri chiqdimi?! Endi seni chaqaman,— debdi. Cho‘pon, yana bir so‘raymiz, keyin chaqsang ham mayli! — debdi.

Ular yo‘lda bir olma daraxtiga duch kelishibdi. Olma daraxtining shoxlari singan, tagi to‘la tosh, kesak ekan. Cho‘pon olma daraxtidan so‘rabdi:

— Ey daraxt, yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi? Daraxt:

— Ey do‘stlar, albatta yaxshilikka yomonlik, masalan, meni oling, yoshligimda ko‘p meva berar edim, o‘tgan-ketgan odam tosh otib, bolalar ustimga chiqib shoxlarimni sindirib shu ahvolga solishdi. Endi meni kesib o‘tin qilishmoqchi. Bu yaxshilikka yaxshilikmi?— debdi.

Ilon:

— Ana, eshitdingmi, endi chaqaman, — debdi. Cho‘pon:

— Yo‘q, yana biror kishidan so‘raylik, — debdi. Yo‘lda ketishayotsa, bir tulki uchrabdi.

— Hoy, tulki, to‘xta, bizlar sendan bir savol so‘ramoqchimiz?— debdi cho‘pon. Tulki to‘xtab qarasa, bir katta ilon odamning oyog‘iga chirmashib „chaqaman“ deb yopishib turgan emish. Tulki:

— Nima gap?— deb goh ilonga, goh cho‘ponga qarabdi. Cho‘pon so‘z boshlabdi:

— Ey, tulkivoy, men mana bu ilonni o‘limdan qutqarib qolgan edim. Endi esa u meni chaqmoqchi, shu ham insofdanmi? — debdi. Tulki:

— Qanday qilib uni o‘limdan qutqarding?— deb so‘rabdi.

— To‘qayga o‘t tushgan edi. O‘t ichida ilonni ko‘rib rahmim keldi, bir yog‘ochning uchiga mana bu xaltani bog‘lab, ilon tomon uzatdim, u xaltaga kirdi, tortib oldim,— deb javob beribdi. Shunda tulki qah-qah urib kulib yuboribdi, cho‘ponga:

— Shu kichkina xaltaga katta ilonning sig‘ganiga men hayron bo‘lib, kulib yubordim,— debdi. Ilon „unga men sig‘dim“,— debdi. Tulki:

— Bo‘lmasa, yana xaltaga tushib ko‘r-chi, sig‘armikansan yoki yo‘qmi?— debdi. Ilon maqtanib:

— Mana ko‘r, men sig‘aman,— deb cho‘ponning xaltasiga kiribdi.

Tulki cho‘ponga ko‘zini qisib:

— Xaltaning og‘zini mahkam bog‘la, ko‘tarib aylantirib yerga ur! — debdi. Cho‘pon tulkining aytganini qilib, ilondan qutulibdi. Yana o‘z ishiga ravona bo‘libdi.



Laylak bilan tulki

Laylak bilan tulki do‘st bo‘lgan ekan. Qimmatchilik vaqti kelib, ikkisi bola-chaqasi bilan och qolibdi. Bir kun laylak tulkiga:

— Tulkiboy, sen uyga qarab o‘tir. Men uchib borib o‘zimizga va bolalarimizga ovqat topib kelay,— debdi.

Tulki rozi bo‘lib, uyda bolalarga qarab qolibdi. Laylak ovga ketibdi.

Tulki uyda o‘zining va laylakning bolalariga qarab o‘tiraveribdi, oradan besh kun o‘tibdi, olti kun o‘tibdi, laylakdan darak bo‘lmabdi. Tulkining qorni nihoyatda ochib, holdan ketay deb qolibdi, ochdan o‘lar holga kelibdi. Tulki u yoq-bu yoqqa qarab, hech kim yo‘qligidan foydalanib, laylakning bitta bolasini tappa bosib yeb qo‘yibdi. Bolani yeb bo‘lgandan keyin qarasa, laylak ikki toshbaqa, beshta qurbaqa, ikki ilonni ko‘tarib olib, ovdan kelyapti. Tulki o‘zicha:

— Ey, attang-ga, bir kun qarasam bo‘lar ekan, do‘stim ancha oziq olib kelar ekan, endi nima deb javob beraman,— deb yig‘lay beribdi. Laylak uyga kelsa, tulki do‘sti yig‘lab o‘tirgan emish. Laylak:

— Ey tulki do‘stim, nega yig‘laysan?— deb so‘rabdi.

Tulki yig‘i aralash:

— Hay, hay, laylak do‘stim, bo‘yni uzunjonning biri kasal bo‘lib o‘lib qoldi, shunga yig‘layapman, deb suyaklarini ko‘rsatibdi. Laylak xafa bo‘libdi, yig‘labdi va bolasini olib, tulkidan yashirib boshqa yoqqa uchib ketibdi.



Susambil

Bor ekan-u, yo‘q ekan, och ekan-u, to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan...

O‘tgan zamonda bir boy bor ekan. Uning bir eshagi va bir ho‘kizi bor ekan. U odamning yeri ko‘p ekan, bu yerlarni qarol - qo‘shchilarga ektirib, kun o‘tkazar ekan. Xo‘jayinning o‘g‘illari ko‘pincha eshakni minib yurar ekanlar. Xo‘jayin eshakka yarasha egar-to‘qim qildirib bergan ekan. To‘qimi gajimli, juda ham kelishgan ekan. Shunday qilib, bu eshakni xo‘jayin ham, xo‘jayinning bolalari ham yaxshi ko‘rib, suv o‘rniga sharbat, o‘t o‘rniga qora mayiz bilan beda berib boqar ekan. Xayr, eshak suv o‘rniga sharbat, o‘t o‘rniga qora mayiz bilan bedani yeb, maza qila bersin. Endi gapni ho‘kizdan eshiting.

Xo‘jayin ho‘kizni ertadan kechgacha qo‘shga qo‘shar ekan. Ho‘kiz kechqurun qorni ochib, charchab qaytib kelsa, uning oldiga bir bog‘ quruq poyani tashlab qo‘yar ekan. Ho‘kiz bechora har kuni bir bog‘ quruq poyaga yo‘liqib, qorni ochib, qoni qochib, rangi to‘zib ko‘p abgor bo‘libdi. Bir kun ishdan kelib, poyani yegisi kelmay yig‘lab yotib atrofga qarasa, boyagi eshak suv o‘rniga sharbat, o‘t o‘rniga qora mayiz bilan bedaning gulini yeb, maza qilib yotibdi. Shunda ho‘kiz uning ovqatidan yegisi kelib, eshakdan:

— Hoy o‘rtoq, men ko‘p och qoldim, rahming kelmaydimi? Kel, menga ham ovqatingdan ber!— debdi. Shunda eshakning rahmi kelib, ovqatidan beribdi. Eshakning oldida har doim ovqat ortib yotar ekan. Xo‘jayin erta bilan chiqib ko‘rsaki, eshakning oldida ovqati qolmabdi. „E, eshagimning ishtahasi endi ochilibdi“, deb ko‘p-ko‘p ovqat soladigan bo‘libdi. Bir kuni xo‘jayin chiqib qarasa, eshakning ovqatini hadeb ho‘kiz kelib yeyayotgan emish. Xo‘jayin:

— Iye, hali sening qorning to‘yib, dimog‘ing ko‘tarilib qolibdiku!— deb, ertasi kuni ho‘kizni eshakning o‘rniga qo‘yib, eshakni oborib, ho‘kizning o‘rniga qo‘shga qo‘shibdi. Eshak sho‘rlik umrida qo‘shga qo‘shilmagan ekan. U omochni tortishga ko‘p qiynalibdi. Oxiri taqdirga tan berib, qo‘shda yurishga ham ko‘nikib qolibdi. Kechgacha qo‘shda yurib charchab, qorni ochib uyga borsa, avvalgi ovqatlar yo‘q, sharbat o‘rniga bir paqir suv, mayiz bilan bedaning o‘rniga bir bog‘ poya. Eshak bechora nochor yeyishga tushibdi.

Xayr, shunday qilib, xo‘jayin eshakni kuzgacha toza ham qo‘shga qo‘shibdi. Kuz kelganda unda uzoq-uzoq yerlarga yuk ortib boradigan bo‘libdi.

Bir kuni xo‘jayin eshakni minib bozorga boribdi. Bozordan bir qop tuz sotib olibdi. Tuzni eshakka ortib, ustiga o‘zi minib, yo‘lda ketayotsa, birdan havo aynib, yomg‘ir yog‘a boshlabdi. Hash-pash deguncha darrov yo‘llar loy bo‘lib ketibdi. Eshak bechora ustida tuz, uning ustiga xo‘jayin mingan, boz ustiga yuklar yomg‘irda ivib vazminlashgan, yomg‘irdan junlari ivib, terisiga nam o‘tib qovjiragan bir ahvolda, yo‘lda arang yurib kelar ekan. Noinsof xo‘jayini loaqal eshakning oyog‘idagi taqasini ham yangilatib qo‘ymagan ekan. Taqasi siyqalanib qolgani uchun eshak loyda toyilib, turtinib borar ekan. Ustidagi og‘ir yuki bosib, darmoni quribdi, buning ustiga xo‘jayin:

— Tez-tez yurmaysanmi?— deb, qo‘lidagi hala cho‘pi bilan bo‘yniga niqtabdi, „xix-xix!“ deb ikki oyog‘i bilan qorniga tepibdi. Eshak shu azob bilan borayotib yo‘lda bir buzuq ko‘prikka kelib qolibdi. Bechora eshak toyilib-turtilib ko‘prikning ustiga chiqqanda oyog‘i toyib, ko‘prikning teshigiga kirib qolibdi, ustidan xo‘jayin chalqanchasiga ag‘anab ketibdi. Shunda xo‘jayinning qahri kelib, chiyonday zahri kelib, ko‘prikning tagidan bir so‘yilni tortib olib, o‘lganning ustiga ko‘mgan deganday, „Meni ag‘anatadigan senmisan?!“ — deb bechora eshakni toza uribdi. Eshakning oyog‘ini ko‘prik qisgan, o‘zini yuk bosgan, buning ustiga kaltakning achchig‘i. Eshak shunda bo‘ynini yerga solib, boshini loyga qo‘yib, ko‘zidan yoshini oqizib yotib qolibdi. Shunda uch-to‘rt yo‘lovchi

yetib kelibdi. Eshakning ahvolini ko‘rib, ularning rahmi kelibdi. Bitta yo‘lovchi:

— Hoy, noinsof! Eshakning ahvoliga qarasang-chi, uni urib nima qilasan? Ustidagi yukni ol, bo‘lmasa o‘lib qoladi,— debdi. Keyin yo‘lovchilar kelib, biri yukning ustidagi arg‘amchini qirqibdi, birisi tuzni ag‘anatibdi, biri eshakni belidan ko‘tarib, yana biri dumidan ushlab, ko‘prikdan chiqarib olibdi. Shundan keyin xo‘jayin tuzni ortib yana yo‘lga tushibdi. Eshak bechora shuncha azob bilan qorni ochib, uyga zo‘rg‘a yetib boribdi. Borgandan keyin uydagilar: „Xo‘jayin yomg‘irda ivib kelibdi, ko‘p azoblanibdi“, deb uni qo‘llab-qo‘ltiqlab, issiq uyga olib kirib ketishibdi. Eshakni esa ochiq havoga bog‘lab qo‘yishibdi. Xo‘jayin o‘choqda oqqalov o‘tda isinib, yog‘li palovni yeb, maza qilibdi. Eshakka bo‘lsa, boyagi-boyagi boyxo‘janing tayog‘i, deganday bir bog‘ quruq poyani tashlashibdi.

Eshakning juda xo‘rligi kelib, endi shu kayfiyatda yuraverishga rozi bo‘lgisi kelmabdi. Eshak endi nima qilsam bo‘lar ekan, deb o‘ylabdi. „Men shu xo‘jayinning qo‘lida tokay ezilaman, axir xo‘jayinnikidan chiqib ketsam, ochdan o‘lamanmi? Kel-e, shu yerdan boshimni olib ketayin!“ debdi.

„Endi qayoqqa borsam bo‘lar ekan?“ deb o‘ylabdi.

Eshak yoshligida onasidan: „Susambil degan mamlakat bor ekan. U joyda o‘tning quyug‘i, suvning tinig‘i mo‘l ekan. Unda birov bilan birovning ishi ham yo‘q, azob-uqubat, g‘am yo‘q, ovqat mo‘l, qorning doim to‘yib yuradi“, degan gapni eshitgan ekan. Onasi bechora ko‘p orzu qilsa ham Susambilga borolmay, o‘lib ketgan ekan. Eshak o‘ylab-o‘ylab shu Susambilni topibdi. O‘rnidan turib, chiranib tortib boshvog‘ini uzib, osmonga qarab bir hangrab olibdi. Keyin xo‘jayinning tashqi hovlisi bilan xayrlashib, yo‘lga tushibdi.

Bir odamning qirqta tovug‘i bor ekan, birkam qirqtasi makiyon, bittasi xo‘roz ekan. Makiyonlar har kuni birkam qirqta tuxum qilib berar ekanlar. Biroq egasi juda xasis odam ekan. Tovuqlarga loaqal uch kunda bir marta ham don sochib qo‘ymas ekan. Tovuqlar hovlida xashaklarni va go‘nglarni titib, ovqat topib, shundan qorin to‘yg‘azar ekanlar.

Bir kuni tovuqlar qo‘shnisining hovlisida donlab yurganda, qo‘shnisining xotini uy obrezida oqishoq yuvib, qozonga solibdi. Obrezning chetiga besh-to‘rtta oqishoq to‘kilib qolibdi. Buni xo‘roz ko‘rgan ekan, sekin kirib, haligi donlarni yeya boshlabdi. Shunda qo‘shnisining xotini ko‘rib, „kisht-kisht, qirilgurlar, kisht“ deb, otashkurakni otib yubo-

ribdi. Otashkurak xo'rozga tegib, uni bir necha marta yumalatib yuboribdi. Otashkurakning zarbidan xo'roz ko'p alam tortib, bir chekkaga borib toza yig'labdi. Shunda xo'rozning xo'rligi kelib: „Xo'jayin har kuni birkam qirqta tuxum olsa, loaqal bitta tuxumning puliga don olib sochmasa; uyining eshigi yoniga borsak, o'zi ham, xotini ham „kisht-kisht!" deb haydasa, boz ustiga qo'shnilaridan ham kaltak yesang! Menga nima azob! Kel, shu yerda yurgandan ko'ra dalalarga chiqib ketib, o'sha yerda o'zimcha tirikchilik qilsam nima bo'ladi?" debdi. O'rnidan turibdi va „quq-qu-qu" deb qichqiribdi. Keyin pir etib uchib devorga qo'nibdi, undan uchib ko'chaga tushibdi-yu, dalaga qarab ketaveribdi.

Xo'roz dala yo'lida borayotgan ekan, uch ko'cha kelib to'qnashibdi. Uch ko'chaning biridan boyagi eshak, ikkinchisidan xo'roz kelib chiqibdi. Xo'roz eshakka qarab:

— Assalomu alaykum, eshakvoy!— debdi.

Eshak:

— Vaalaykum assalom, xo'rozvoy,— debdi.

Xo'roz:

— Sizga yo'l bo'lsin?— deb eshakdan so'rabdi.

Eshak:

— Susambilga!— debdi.

Xo'roz:

— Susambil qanday joy?— debdi. Eshak:

— Susambil o'tning quyug'i, suvning tinig'i, unda juda erkinlik, azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasan!— debdi.

Xo'roz:

— Men ham borsam bo'ladimi?— deb so'rabdi.

Eshak:

— Mayli, bitta edim, sen bilan ikkita bo'lamiz, yuraver! — debdi.

Ikkovi boshidan o'tganlarini bir-biriga gapirib ketaveribdi.

Endi boyagi ho'kizga kelaylik. Ho'kizning xo'jayini uni ho'kizlar bilan urishtirib yurar ekan. Ho'kiz juda urishqoq bo'lib, hamma joyda dong'i ketgan ekan. Bir kuni ho'kiz urishtirish bo'lib qolibdi. Shunda bu ho'kiz yetti-sakkizta ho'kizni qochiribdi. Endi bitta juda urishqoq ho'kiz qolibdi. Xo'jayin ho'kizini bu ho'kiz bilan ertasiga urishtirmoqchi bo'libdi. Ertasiga xo'jayin:

— Endi ho'kizni urishtirishga oboraman. Ho'kizimning shoxini yog'lab qo'yay! — deb molxonaga chiqsa, ho'kizning ikki ko'zi yumuq, hadeb uxlayapti.

Tushida katta bir yig‘in emish. Yig‘inda yana bir ho‘kiz turgan emish. Ho‘kizning xo‘jayini yig‘inga olib kirsa, haligi ho‘kiz buni yig‘indan quvib chiqarish uchun hamla qilib, yugurib qolibdi. Shunda buning achchig‘i chiqib, kelayotgan ho‘kizga daf javob qilib, uni bir suzibdi. Shunda ho‘kiz shoxini yog‘layotgan xo‘jayinni suzib yuboribdi. Xo‘jayinning yog‘ kosasi bir tarafga, o‘zi ikkinchi tarafga uchib tushibdi.

Xo‘jayinning ko‘ngli ketibdi, hushiga kelgandan so‘ng:

— Hali meni suzadigan senmisan?!— deb, ho‘kizni chunon uribdiki, qavarib chiqmagan joyi qolmabdi. Shunda ho‘kiz yotib yig‘labdi, xo‘rligi kelibdi: „Men, xo‘jayinga shuncha ishlarni qilib bersam, qancha ho‘kizlar bilan urishib, ularni yengib, pul yutib bersam, xo‘jayinim shugina hazilimni ko‘tarmay meni o‘larcha ursa, bu menga qanday xo‘rlik?!“ debdi va: „Kel-e, men tokay xo‘rlik tortaman, shu xo‘jayinnikidan ketsam nima bo‘lar edi? Ketaman!“— deb, o‘rnidan turibdi, bir chiranib boshvoqni uzib, yo‘lga tushibdi, yurib-yurib bir joyga borsa, boyagi eshak ko‘rinibdi. Shunda ho‘kiz eshakni chaqirib, orqasidan yuguribdi. Bir vaqt eshakning qulog‘iga bir tovush kelibdi. Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho‘kiz uni to‘xtovsiz chaqirib kelyapti.

Eshak to‘xtab turibdi, ho‘kiz yetib kelibdi. Qarasa, o‘zining sherigi ekan. Eshak:

— Ha, ho‘kizvoy, nima qilib yuribsan?— debdi.

Ho‘kiz debdi:

— Sendan keyin xo‘jayin meni ham toza azobladi. Men ham „bor-e“ deb kelaverdim. Sen qayoqqa ketyapsan?

Eshak:

— Men Susambilga ketyapman,— debdi.

Ho‘kiz:

— Susambil qanday joy?— debdi.

Eshak aytibdi:

— Susambil o‘tning quyug‘i, suvning tinig‘i, unda juda erkinlik, azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasan! Ho‘kiz:

— Bo‘lmasa men ham borsam bo‘ladimi?— debdi.

Eshak:

— Kelganing yaxshi bo‘libdi. Ikkita edik, uchta bo‘ldik. Yuraver! — debdi.

Eshak, ho‘kiz, xo‘roz uchovi boshidan o‘tganlarini bir-biriga gapirishib, hasratlashib ketaverishibdi. Necha kun yo‘l yurib, cho‘l-u biyobonga yetishibdi.

Cho'lda hech kim yo'q ekan. Bir joyda ikkita kalamush turar ekan. Cho'lda oziq-ovqat kamligidan, ozgina ovqat topish uchun ko'p joylarga borib, ko'p yerlarni qazir ekanlar. Shunda qorin to'yar-to'ymas ozgina ovqat topilar ekan. Bora-bora cho'lda ovqat topilmay qolibdi. Bir kuni ikkala kalamush yeydigan ovqati yo'q, qorni ochiqib, endi nima qilamiz deb, uyasining og'ziga chiqib shumshayib o'tirishganda, uzoqdan haligi eshak, ho'kiz va xo'rozlar ko'rinishibdi.

Biri aytibdi:

— Shu ko'ringanlar yo'lovchi bo'ladi. Yur, shulardan ovqat tilaylik. Zora rahmi kelib, biror narsa tashlab ketishsa, — debdi. Ikkalasi yo'lning ustiga chiqib turibdi. Ko'ringan hayvonlar ham yetib kelishibdi. Shunda kalamush ulardan ovqat tilabdi. Eshak turib:

— Ey, birodarlar, biz ham sizlarga o'xshash och qolganlardanmiz. Agar ovqat kerak bo'lsa, biz bilan birga yuraveringlar, — debdi.

Kalamush eshakdan:

— Qayerga ketyapsizlar?— deb so'rabdi.

Eshak:

— Biz Susambilga ketyapmiz,— debdi.

— Susambil qanday joy?— deb so'rabdi kalamush.

— Susambilni aslo so'rama! Susambil o'tning quyug'i, suvning tinig'i, unda juda erkinlik, azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasan! — debdi eshak.

— Bo'lmasa biz ham boraylik, — deyishibdi kalamushlar.

— Uchta edik, beshta bo'ldik, yuraveringlar,— debdi eshak.

Mana endi bular beshovi boshlaridan o'tgan sarguzashtlarini bir-birlariga gapirishib, hasratlashib, Susambilga ketaveribdilar.

O'sha cho'lda bir to'da ari bor ekan. Ular ham ovqat yo'qligidan och qolib nima qilarini bilmay, osmonda g'o'ng'illab uchib ketayotgan ekanlar, birdan haligi Susambilga ketayotgan besh jonivorga yo'liqibdilar.

Arilar bularni ko'rib „uh, mana ovqatning konidan chiqdik, keragini olib qol!"— deb bularni chaqqani kirishibdi.

Shunda eshak aytibdiki:

— Ey, ukalar, sizlar ham bizga o'xshab och qolib qiynalganga o'xshaysizlar. Bizning tanimizda shira qolgani yo'q. So'rganlaring bilan hech narsa chiqmaydi. Shiramizni xo'jayinlarimiz so'rib olgan. Agar ovqat kerak bo'lsa, biz bilan yuraveringlar! — debdi.

Shunda arilar bularning ahvolini ko'rib, bular ham bizga o'xshagan och qolganlardan ekan deb, qayoqqa ketishayotganini so'rabdi.

— Biz Susambilga ketyapmiz, — deyishibdi.

— Susambil qanday joy? — deb so‘rabdi arilar.

— Susambil o‘tning quyug‘i, suvning tinig‘i, unda juda erkinlik, azob-uqubat yo‘q, maza qilib yurasiz,— deyishibdi.

— Bo‘lmasa biz ham boraylik,— debdi arilar.

— Mayli, beshta edik, ko‘p bo‘ldik,— debdilar.

Shunda bular hammasi „Susambil qaydasan?“ deb, boshidan o‘tganlarini gaplashib, hasratlashib ketaveribdilar.

Yo‘lda ketayotib: „Qachon Susambilga yetamiz?!“ deb, yuraklari orziqib, goho-goho eshakdan „Yana bir gapirib bering. Susambil qanday joy o‘zi?!“ deb so‘rashar ekan. Eshak ham Susambilni maqtab, ularning ko‘nglini ko‘tarar ekan. Bular:

— Susambilga borsak unday qilamiz, bunday qilamiz!— deb, o‘zlaricha shirin-shirin xayollar qilib borishar ekan.

Bular yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Oxiri dimoqlariga Susambilning xushbo‘y shabadasi kelibdi. Susambilga ham yetib kelishibdi.

Susambil juda ham keng, bepoyon bir joy ekan. Havosi juda tiniq, narigi yoqda ulkan tog‘ bo‘lib, uning shabadasi doim g‘irillab kelib turar ekan. Yerda ko‘m-ko‘k chaman ko‘katlar, bedalar yashnab yotibdi. Bir yoqda bug‘doy, arpalar; bir yoqda qovun-tarvuzlar pishib yotibdi, bir tarafda ketgancha bog‘. Unda uzum, anjir, o‘rik, shaftoli va turli-tuman mevalar pishib, taglariga to‘kilib yotibdi. Ariqlar to‘la, oppoq sutday suvlar sharqirab oqib yotibdi. Borganlarning bag‘riga shamol tegibdi.

Shunda bu bechoralar juda ham xursand bo‘lib ketishibdi. Xursandlikdan ba’zilari yig‘lab ham olishibdi. Ular ko‘p och qolishgan ekan. Har qaysisi istagan ovqatini yeb, qornini to‘yg‘azib vaqtlarini xushlashib, so‘ngra salqin bir joyga kelib dam olishibdi. Yo‘l azobi, go‘r azobi, deganday, yo‘lda ko‘p charchab kelishgan ekan, shu salqin joyda yotib uzoqqina uxlashibdi.

Uyqudan turib qo‘l-betlarini yuvib, yana xohlagan ovqatlarini yebdilar. Shu bilan bular Susambilga kelib ko‘p rohatlanib qolishibdi.

Susambilning bir tomoni baland tog‘ bo‘lib, unda kiyik deysizmi, alqor deysizmi, ishqilib ko‘p jonivorlar yashar ekan. Tog‘ning bir joyida bir to‘da bo‘ri yashar ekan. Bir kuni bo‘rilarning podshohi ularni to‘plab, bazm qilib, ichkilik ichib, kabob qilib yeb o‘tirgan ekan. Shunda bo‘rilarning podshohi uzoqdan haligi eshak bilan ho‘kizni ko‘rib qolibdi:

— Uh, bizga barra kabob topildi. Huv ana o‘tlab yuribdi. Uch-to‘rtta bo‘lib borib shularni olib kelinglar, kabob qilib yeymiz,— debdi.

Bo‘rilarning ichida bitta hovliqmasi bor ekan, u turib aytibdi:

— Shugina narsaga uch-to‘rt kishining nima keragi bor! Bitta o‘zim borib olib kelaman! — debdi.

Bo‘rilarning ichida yana bitta gupsoldisi[1] bor ekan. Haligi bo‘rining gapini eshitib, shartta o‘rnidan turib:

— Hoy, nima deyapsan o‘zing? Men turganda sen qayoqqa borasan? O‘tir joyingda! Men o‘zim borib olib kelaman! — debdi.

Bunga u bo‘rining achchig‘i kelibdi:

— Meni pisand qilmayapsan, sendan nima kamligim bor?! — deb, bir-ikki daf qilibdi. Shu yerda ikkovi mushtlashib ketibdi.

Shunda bo‘rilarning podshohi turib:

— Hoy muttahamlar! Mushtlashma! Bor, ikkoving borib olib kel, — debdi. Shu bilan ikkovi chopqillashib ketishibdi.

Bular ketayotganlarida bizning susambilliklarimiz o‘tlab yurishgan ekan. Bir vaqt ho‘kiz yerdagi ko‘katni yeb, og‘zini to‘ldirib, boshini ko‘tarib, o‘tni chaynab, tog‘ tomonga qarab uzoqdan chopib kelayotgan ikkita bo‘riga ko‘zi tushibdi. Shunda ho‘kizning yuragi shuvillab ketibdi. U qo‘rqib og‘zidagi o‘tini yerga tashlab, sheriklarini chaqiribdi. Sheriklari ham bo‘rilarni ko‘rishibdi. „Endi nima qilamiz? Qochamizmi, turamizmi?“ deb maslahatlashibdilar. Eshak:

— Qochsak, quvib yetib oladi, yaxshisi qochmaymiz,— debdi.

Ho‘kiz aytibdi:

— Basharti oldimizga kelsa, nima qilamiz?

Shunda xo‘roz:

— Men daraxtning tepasiga uchib chiqib ketaman, — debdi. Kalamushlar:

— Biz yerni kovlab, kirib ketamiz,— debdilar.

Eshak:

— Men hangrab turaveraman,— debdi.

Arilar:

— Biz ro‘para kelganini chaqib, hamma yog‘ini shishirib tashlaymiz! — debdilar. Ho‘kizga arilarning gapi juda ham yoqib tushibdi:

— Bo‘lmasa, sizlar jon boricha chaqinglar. Qolganlarini menga qo‘ya beringlar! — debdi.

Bular maslahatni bir qilib turaverishibdi.

Bir zumda bo‘rilar yetib kelibdilar. Bo‘rining haligi gupsoldisi sherigiga:

---

[1] **Gupsoldi** — gapni ko‘pirtirib, katta gapiruvchi, hovliqma.

— Huv anovini sen ko‘tar! Mana buni men ko‘taraman,— deb, ho‘kizga qarab yuguribdi.

Shunda ho‘kiz orqasiga qaytib turib, bo‘riga qarab yugurib borib bir suzganda, bo‘ri „dod“ deb, yetti dumalab tushibdi. Buni ko‘rib sherigi yugurib kelgan ekan, ho‘kiz uni ham qattiq suzib tashlabdi. Kalamushlar bo‘lsa, qo‘rqqanlaridan yerni kovlab kirib ketishga urinibdi. Yer toshloq, qattiq ekan, ular yerni kovlab kirolmabdilar, bir zumda allaqancha yerni o‘yib yuboribdilar.

Xo‘roz bo‘lsa daraxtga chiqib olib, hadeb „quq-qu-qu-qu“ deb qichqira beribdi.

Arilar har ikkala bo‘riga yopishib, chaqaverishibdi-chaqaverishibdi, bir zumda bo‘rilarni do‘mbira qilib shishirib tashlashibdi. Bo‘rilar shunda ham qochmay jon holatda kelib, ho‘kizga yopishishibdi. Ho‘kiz ularni suza berib, a’zoyi badanini yara qilib tashlabdi. Eshak bo‘lsa, nariroqda bor ovozi bilan hangrab, nari borib-beri kelib turaveribdi.

Bir vaqt bo‘rilar olishib-olishib charchashibdi. Qarasa, ho‘kiz bilan arilar o‘ldirib qo‘yadigan. Shunda haligi gupsoldi bo‘ri qochgani turibdi, orqasidan unisi ergashibdi. Bular shu qochgancha podshohining oldiga yetib borishibdi. Bu bo‘rilarning hamma yog‘i yorilgan, qon oqqan, shishgan, ari chaqqan yuzlari shishib, ko‘zlari ko‘rinmaydigan bir ahvolda ekan. Podshohi va sheriklari bularning ahvolini ko‘rib, rangi o‘chib, qoni qochib, iyaklari qaltirab, ko‘zlari yaltirab qolibdi. Podshohi:

— Sizlarga nima bo‘ldi? — deb so‘rabdi.

— Ey taqsir, bular barra kabob emas, boshga kelgan bir balo ekan! — deyishibdi.

— Ha, nima bo‘ldi? —desa, bo‘rining biri:

— Bular bizning jonimizga qasd qilib kelgan ekan. Bularning ichida munkar-nakir ham birga kelgan ekan. Uning bir juft go‘rkovi ham bor ekan. Munkar-nakir gurzisi bilan bir urganda, agar sher bo‘lsa ham necha dumalab ketadi,— debdi.

Bo‘rining yana biri:

— Ey, mahmadona! Sen tek tur! O‘zim gapiraman. Bularning ichida azroili ham bor ekan. Jonni olish uchun nayzasini suqsa, a’zoyi badaning achishib, shishib ketar ekan, — debdi.

Endi bunisi:

— He, sen bilmaysan! Bular go‘rkovi bilan kelgan ekan. Hali biz o‘lmay turib, har birimizga yettitadan go‘r qazib qo‘yishdi, — debdi.

Unisi aytibdi:

— Sen ko‘rmabsan! Bular so‘fisi bilan kelgan ekan. Hali biz o‘lmay turib, daraxtning tepasiga chiqib, hadeb, odamlarni janozaga chaqiryapti.

Unisi:

— Lekin bularning ichida bir kattasi bor ekan. Unisi eshoni bo‘lsa kerak. Bizga yaqinlashmadi, lekin nariroqda turib ish o‘rgatib bularga baqirib turdi. Agar unisi kelganda biz mutlaqo o‘lar edik, — debdi.

Bo‘rilar bularning aft-angorini ko‘rib, gaplarini eshitib, qo‘rqib vasvasaga tushibdilar. Podshohi:

— Endi nima qilamiz?— debdi. Haligilar:

— Ey taqsir, agar baloga duchor bo‘laylik, kunimiz bitibdi, o‘laylik desangiz turaveramiz. Bo‘lmasa qochamiz. Bular bizning orqamizdan quvsa, hali zamon yetib keladi,— debdi.

Buni eshitib bo‘rilarning podshohi yana qo‘rqibdi.

— Bo‘lmasa turinglar, jo‘naymiz,— debdi. Shunda hamma bo‘rilar, bu joyga kelmay, har yoqda tirqirab yurganlarini ham topib kelib, Susambil tog‘ini tashlab qochib, yetti tog‘ning narigi yog‘iga o‘tib ketishibdi.

Susambilliklar endi tamom erkinlikka chiqib, og‘zi oshga tegib, sal kunda semirib ketibdilar. Ular goho xo‘jayinlarinikida ko‘rgan kunlari esga tushsa, o‘kinib, bu yerdagi rohatlarni ko‘rib sevinib, Susambilning ovini ovlab, dovini dovlab, maza qilib yurisha beribdi. Shu bilan murod-maqsadlariga yetishibdi.



Echkining o‘ch olishi

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, baland tog‘ bag‘ridagi sero‘t, ko‘m-ko‘k vodiyda bir echki o‘z bolalari bilan yashar ekan. Birinchi bolasi Bulbuli, ikkinchisi Gulsari, uchinchisi Sarguli, to‘rtinchisi Xamirturush, beshinchisi Mirzaxo‘rish, oltinchisi Lolaqizg‘aldoq deb atalar ekan.

Echki bolalarini juda ham sevar, ular uchun hatto o‘z jonini ham ayamas ekan. U har kuni tog‘ bag‘ridagi o‘tloqqa o‘tlagani chiqib ketar ekan. Bolalariga esa eshikni ichkaridan tambalab olishni, uydan hech yoqqa chiqmaslikni tayinlar ekan. Shundan keyin ko‘m-ko‘k o‘tloqdagi barra o‘tlardan to‘yib-to‘yib yer, baland tog‘ bag‘ridan sharqillab oqib tushayotgan shishadek tiniq buloq suvlaridan qonib-qonib ichar ekan. Uning butun fikri-zikri bolalarini boqish ekan. Bolalari uchun tog‘dagi qalin, barra o‘tlardan yig‘ib qopga solib, ularni ko‘tarib uyga qaytar ekan, u eshikni ohista taqillatib, muloyim ovoz bilan bolalarini chaqirib shunday der ekan:

Bulbulijon bolam,
Gulsarijon bolam,
Sargulijon bolam,
Xamirturush bolam,

Mirzaxo‘rish bolam,
Lolaqizg‘aldoq bolam,
Och eshikni, jon bolam,
Qopim to‘la o‘t keltirdim,
Yelinim to‘la sut keltirdim,
Och eshikni, jon bolam!

Shunda echkichalar quvonishib, eshikni ochar ekanlar. Ona echki keltirgan maysa o‘ti va shirin suti bilan bolalarini xo‘p to‘yg‘izar ekan. So‘ngra ularni yalab-yulqab, erkalab uxlatar ekan. Ertasiga echki yana bolalarini emizib, ularning oldiga barra o‘tlarni tashlab, o‘tloqqa jo‘nar ekan.

Ular shunday rohatda yashab yurganlarida boshlariga bir ish tushibdi. Shu yaqindagi g‘orda bir bo‘ri paydo bo‘lib qolibdi. Bu och bo‘ri keksaligidan o‘z to‘dasidan ajralib, shu yerda qolgan ekan. Uning niyati shu oradagi kuchsiz hayvonlarni tutib yeb, kun ko‘rish ekan.

Ona echki o‘tloqda o‘tlab yurgan vaqtida bo‘ri ham uyqusidan ung‘onib g‘ordan chiqibdi va rohat qilib kerishibdi. Uning qorni o‘lgudek och ekan. U tumshug‘ini yuqori ko‘tarib havoni iskabdi va uvillab yuboribdi:

— Auuuvvv! Echki isi kelyapti. Shu yaqin o‘rtada echkilar borga o‘xshaydi, qornim ham ochgan edi, cho‘qqisoqol befahmlarni maza qilib yeydigan bo‘ldim, deb o‘ylabdi bo‘ri. U shunday debdi-yu, dumini qisib g‘ordan vodiyga qarab sekin yo‘l olibdi. O‘tlab yurgan ona echki o‘ziga qarab kelayotgan bo‘rini ko‘rib, yelkasidagi o‘tni bir chekkaga qo‘yibdi, nayzaga o‘xshash shoxli kallasini bo‘ri tomonga qaratib olibdi. Ayyor bo‘ri echkini chalg‘itib, uning yon tomonidan yaqinlashmoqchi ekan, ona echki o‘zini o‘nglab, bo‘rini shunday suzibdiki, o‘tkir nayzadek shoxining uchlari bo‘rining qornini yorib yuborishiga oz qolibdi. Bo‘ri dumini qisib undan chetlashibdi, unga qarab:

— Shoshmay tur, la’nati, sen bilan boshqacha gaplashaman,— debdi.

Echki uyiga qaytibdi. Bo‘ri ham uning orqasidan qorama-qora bora beribdi. Echki o‘z uyiga yaqinlashganda, bo‘ri shu uy yaqinidagi o‘pqonga tushib olib, echkini kuzatib turibdi. Echki esa mayin ovoz bilan bolalarini erkalab chaqirib, eshikni ochishlarini so‘rabdi. Bolalari eshikni ochishib, ona echki ichkariga kiribdi.

— Bolalarim,— debdi echki, endi ehtiyot bo‘linglar, o‘tlog‘imizda bir yovuz bo‘ri paydo bo‘libdi. U menga hujum qildi, men zo‘rg‘a qutulib

qoldim. Men yo‘q paytda eshikka chiqmanglar, tag‘in bo‘ri kelib sizlarni yeb ketmasin.

— Xo‘p, onajon, ehtiyot bo‘lamiz,— debdi echkichalar.

O‘pqonda o‘tirgan bo‘ri echki uyga kirishi bilan u yerdan chiqib, „hay-hay“ debdi, lablarini yalab, „men onasini yemoqchi edim, bu yoqda semiz-semiz bolalari bor ekan. Onasining go‘shtiga tishim ham o‘tmas edi, bolalarining go‘shti menday keksa bo‘ri uchun yaxshi, ertagayoq onasi ketgan mahalda kelganim bo‘lsin“, deb o‘ylabdi va g‘orga qaytibdi. Ertasi ona echki o‘tlagani ketganida bo‘ri echkining uyiga kelib, xuddi ona echkidek eshikni tiqillatibdi va qo‘pol xirildoq ovoz bilan ashula boshlabdi:

Bulbuli bolam,
Lolaqizg‘aldoq bolam,
Orqam to‘la o‘t obkeldim,
Emchagim to‘la sut obkeldim,
Eshikni oching, bolalarim!

Echki bolalari: „Bu xirildoq tovush bilan ashula aytayotgan kim?“— deb so‘rabdilar.

— Men oyilaring bo‘laman,— debdi bo‘ri.

Echkilar bu chaqirgan o‘z onalari emasligini sezib qolishibdi.

— Yo‘q, sen bizning onamiz emassan, onamizning ovozi senikiga o‘xshash xirildoq emas, onamiz oppoq, qoshlarida o‘sma, ko‘zlarida surmalari bor,— debdi echki bolalaridan biri.

Shunda bo‘ri hech narsa qilolmay tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib, qaytib ketibdi. U shu ketgancha to‘g‘ri tog‘ bag‘ridagi katta archa tagiga borib o‘tirib, echki bolalarini qanday qilib qo‘lga tushirish haqida o‘ylay boshlabdi. O‘ylab-o‘ylab oxiri bir yo‘l topibdi. U tiniq buloq suviga tushib, tanasi qurimasdan turib, tog‘lar orasidagi ohakli joyga boribdi va kukundek bo‘lib yotgan ohakning ustiga ag‘anab olibdi. Shunda uning junlari xuddi ona echkinikiga o‘xshab oppoq bo‘lib qolibdi. Bo‘ri qoshiga o‘sma, ko‘ziga surma qo‘yib olibdi-da, yana echkining uyiga kelibdi. Eshik tirqishidan qarasa, uyda echki bolalari o‘ynab yurgan ekanlar. Shu vaqt eshik oldiga kelibdi-da, eshikni ohista tiqillatib, ovozini ona echkinikiga o‘xshatib ashula boshlabdi:

Bulbulijon bolam,
Gulsarijon bolam,

Sargulijon bolam,
Xamirturush bolam,
Mirzaxo‘rish bolam,
Lolaqizg‘aldoq bolam
Och eshikni, jon bolam,
Qopim to‘la o‘t keltirdim,
Yelinim to‘la sut keltirdim,
Och eshikni, jon bolam!

Echki bolalari o‘z onalarining tovushiga o‘xshagan bu tovushni eshitib, sevinib eshik oldiga kelibdilar. Gulsarijon eshik zanjirini endigina tushirgan ekan hamki, sabri chidamagan bo‘ri, bor kuchi bilan ichkariga intilibdi. „Qochinglar, bo‘ri ekan“, deb qichqiribdi Sargulijon va o‘zi o‘sha zahoti eshik orqasiga bekinibdi. Qolganlari esa duch kelgan joyga: biri o‘choqning ichiga, biri sandiqning ichiga, biri uyning tokchasiga bekinishibdi...

Bo‘ri tandir ichiga, eshik orqasiga va taxmonga bekinib olgan echkilardan boshqa uchta echki bolasini yeb, chiqib ketibdi.

Bir ozdan so‘ng ona echki o‘tloqdan qaytib kelibdi. U eshikning ochiq qolganini, uydagi hamma narsaning ag‘dar-to‘ntar bo‘lganini ko‘rib, yugurib uyga kirsa, hech kim ko‘rinmabdi. U titroq tovush bilan bolalarini chaqiribdi. Hech kim javob bermabdi. Ikkinchi qayta chaqirganda taxmonga, tandir ichiga va eshik orqasiga yashiringan uch bolasi oldida paydo bo‘libdi. Ular onalariga yig‘lab-siqtab bo‘lgan voqeani aytib beribdilar.

Ona echki qattiq qayg‘uribdi. U bo‘ridan qanday qilib o‘ch olish yo‘lini izlay boshlabdi. O‘ylab-o‘ylab, axiri bir yo‘l topibdi.

Echkining hovlisida eski o‘rasi bor ekan; echki bu o‘raga olov yoqibdi, olov laxcha cho‘g‘ bo‘lgach, o‘raning ustiga bir eski bo‘yrani tashlab, uning ustiga sholcha yozibdi. Sholcha ustiga esa ko‘rpachalarni solib, dasturxon yasabdi. O‘zi esa o‘sha zahoti qozon-tovoqqa unnab, oshning harakatiga tushibdi, oshga guruch solib damlabdi. Bolalarini uyda qoldirib, o‘zi bo‘rini izlab ketibdi. Qidirib-qidirib uni topibdi. Bo‘ri g‘or oldidagi supachada dam olib yotgan ekan. Echki unga ta’zim qilib, salom beribdi va qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib:

— Bo‘ri aka,— debdi,— kecha men yo‘g‘imda bolalarimdan uchtasini qandaydir noma’lum maxluq yeb ketibdi. Men shunga xudoyi qildim, agar janobingizning ko‘ngillari tilasa, bizning uyimizga qadam ranjida qilsalar.

Qorni o'lgudek to'q bo'lishiga qaramay, bo'ri darrov ko'na qolibdi. Ular echkining uyiga kelibdilar. Noz-u ne'mat bilan to'la dasturxonni ko'rgan bo'ri, o'ra ustiga solingan qalin ko'rpacha ustiga endi o'tirmoqchi bo'lgan ekan, bo'yra o'pirilib, bo'ri o'ra ichiga ag'anab tushibdi, Laxcha cho'g' ustiga tushgan bo'ri birdan dodlab yuboribdi.

— Voy-dod,— debdi bo'ri o'ra ichida o'zini har tomonga urib, voy-dod, kuyib ketyapman qutqaringlar! La'nati echki, meni tortib ol!

Shunda echki kulib:

— Hechqisi yo'q, taqsir,— debdi, — menda kuyganning dorisi bor.

Shunda bo'ri o'ra ichida dodlab turib:

— Kuyganga nima dori?— debdi.

— Qalampir dori,— deb javob beribdi echki.

— Tashla qalampiringni!

Echki o'raga bir shoda qalampir tashlab yuboribdi. Bo'ri u qalampirlarni kuygan joylariga ishqagan ekan, bir alami o'n bo'libdi. U yana baqirib:

— Kuyganga nima dori?! — deb so'rabdi.

— Tuz dori!— deb javob beribdi echki.

— Tashla tuzingni!— debdi bo'ri.

Echki bir xumcha tuz tashlabdi.

Bo'ri tuzni badaniga surtib yana dodlabdi.

— Kuyganga nima dori!

— Chaqir tikanak dori,— debdi echki. U bir quchoq chaqir tikanak tashlabdi. Bo'ri unga ag'anabdi, uning azobi yuz barobar ko'payibdi. U qattiq-qattiq qichqirib, oxiri azob bilan jon beribdi. Echki omon qolgan bolalari bilan tinch yashabdi.



Tulki bilan tovus

Ertagiyo ertagi, echkilarning bo‘rtagi, qirg‘ovul qizil ekan, quyrug‘i uzun ekan, ko‘k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, ola qarg‘a azonchi, qora qarg‘a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to‘rg‘ay to‘qimchi ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan; ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo‘ri bor.

Kunlarning birida tulki ketayotgan edi, bir tovus dumini setora-setora qilib kelaverdi. Shunda tulki aytdiki:

— Ey tovus, ajab-ajab o‘yinlaring bor ekan, bir yaxshilab o‘ynab bergin.

Tovus dumini setora-setora qilib o‘yinga tusha berdi. Tulkining qorni och edi, o‘ynab turgan paytida uni ushlab oldi. Bir vaqt tovus qarasa, tulkining avzoyi buzuq, uni yemoqchi bo‘lib turibdi. Tovus:

— Ey tulki, nima qilyapsan? — dedi. Tulki aytdi:

— Mening qornim och edi, seni yegim kelib qoldi. Tovus:

— Xo‘p mayli, meni yegin, lekin ko‘z oldimda bir fotiha o‘qib yesang, hech armonim qolmas edi, — dedi.

Shunda tulki pichir-pichir qilib qo‘lini ko‘tardi: — Omin, oblohu akbar,— deb edi, tovus tulkining oldidan „var“ etib uchib ketdi. Tulki qo‘lini ko‘targanicha tovusga qarab turib shunday deb fotihasini davom etdiraverdi: — Ovqat yemasdan oldin fotiha o‘qigan ahmoq ekan, ovqatni yeb bo‘lib, undan keyin fotiha o‘qish kerak ekan, omin, oblohu akbar,— deb fotihasini tamom qildi.



Kiyik bilan kadi

Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan. Bir kiyik bor ekan. U kiyikning tog‘ kamarida uyasi bor ekan, uyasining yonida bir terak bor ekan. Bir odam kelib shu terakka kadi osib qo‘yibdi. Kadi shamoldan kunin taraqlab, tunin taraqlab turar ekan. Kadi osilgan kundan boshlab kiyik uyasidan chiqa olmay qolibdi. Kiyik har kuni asta uyasining og‘ziga kelib qarab, yana kadining taraqlaganini eshitib „Mergan bo‘lsa kerak“ deb qo‘rqib, uyning to‘riga qochib kirib ketar ekan. Shunday qilib kiyik hafta - o‘n kungacha chiqa olmay, ochlikdan holi ketib: „Kel-e, ochdan o‘lguncha mergan otsa ham yorug‘ dunyoni ko‘rib o‘lay“ deb, asta uyasining og‘zidan chiqib qarasa, shamoldan daraxtga urilib to‘q-to‘q etib turgan kadi ekan. „Ey, bu kadi ko‘pdan beri ishini qildi-ku. Buni terakning boshidan olib tushib bilganimni qilay“, deb terak boshiga chiqib kadini olib tushibdi. Kadini quyrug‘iga bog‘lab, joni boricha chopib tog‘u toshlarga urib taraqlatibdi. Oxiri o‘zi charchab: „Endi seni bir bo‘ldiqlatay“ deb kadini quchrug‘iga mahkam bog‘lab, buloq yoniga kelib sekin buloqqa solibdi. Kadining ichiga suv to‘lib, kiyikni suv tagiga torta boshlabdi. Kiyik yuqoriga tortibdi. Kiyikning quyrug‘i shartta uzilib ketibdi. Kiyik bir chekkaga borib „Voh, mening quyrug‘im uzilmaganda, kadi meni suvga cho‘ktirib o‘ldirgan bo‘lar edi. Endi bir nahor qilib olay“ deb turganida, yoniga yettita kiyik kelib qolibdi.

— Ha, jo‘ra, nimaga duming to‘mtoq bo‘ldi? — deyishibdi. Bu kiyik:

— Ey, jo‘ralar, bir kadini deb o‘n kun uyimga qamalib, ochlikdan o‘lib qolay dedim. Axiri men uni aldab qo‘lga tushirdim. Quyrug‘imga bog‘lab, tog‘ga olib chiqib taraqlatib yurdim. Keyin suvga olib tushib bo‘ldiqlataman deb, quyrug‘imga bog‘laganimcha suvga solgan edim, menga zo‘rlik qildi. „Jon, kadijon, do‘stim“, desam ham quloq solmay, quyrug‘imni yulib suv tagiga tushib ketdi. Shunday qilib to‘mtoq bo‘lib qoldim,— debdi. Jo‘ralari:

— Ey jo‘ra, uni bizlarga ko‘rsat, undan o‘chingni olib beraylik,— deb buloqqa qarab ketishibdi. Yurib-yurib bularning oldidan bir xirmon chiqib qolibdi. Dumi to‘mtoq kiyik:

— Ey jo‘ralar, menda bir maslahat bor,— debdi.

Jo‘ralari:

— Ha, nima maslahat? — deyishibdi.

Cho‘ltoq kiyik:

— Mana shu xirmonni yanchib olib ketsak-chi,— debdi.

Jo‘ralari:

— Egasi kelib qolsa, qanday qilamiz, — debdi.

Cho‘ltoq kiyik:

— Egasini men bilaman, uning uyi olis, — debdi.

Jo‘ralari:

— Mayli bo‘lmasa, xo‘bchi[1] kim bo‘ladi?— debdi. Cho‘ltoq kiyik:

— Xo‘bchi men-da, o‘lanni yaxshi bilaman,— debdi. Jo‘ralari cho‘ltoq kiyikning maslahatiga kirib, xirmon yoniga kelishibdi. Cho‘ltoq kiyik bir-biroviga matashtirib bog‘lamoqchi bo‘libdi. Jo‘ralari:

— Ey jo‘ra, bo‘ynimizdan bog‘laysizmi?— debdi. Cho‘ltoq kiyik:

— Bo‘yningizdan bog‘lasam, mergan kelib qolsa, bo‘shatguncha otib qo‘yadi. Quyruqlaringdan bog‘layman. Mergan kelgan vaqtda o‘zi yechilib ketadi,— debdi. Hammasining quyrug‘idan matashtirib bog‘lab, bug‘doy xirmoniga solib, o‘lan aytib, hayday beribdi. Bir oz haydagandan keyin:

— Voy odam isi kelyapti,— debdi. Yana u yoq-bu yoqqa qarab. — Mergan kelib qoldi,— deb turib qochibdi. Bularning hammasi „Mergan kelib qoldi“ deb, biri bu yoqqa, biri u yoqqa tortib qochibdi. Shunday qilib kiyiklarning quyrug‘i uzilib, cho‘ltoq bo‘lib qolgan ekan. Xo‘bchi kiyik qochganicha qochib ketgan ekan.

[1] **Xo‘bchi** — xirmonchi.



Hiylagar bedana

Bor ekanda yo‘q ekan, bitta zag‘izg‘on bo‘lgan ekan. U bir tup do‘lananing tepasiga in qo‘yibdi va beshta bola ochibdi. Bolalari endi uchirma qilishga yaqinlashgan kunlarda undan bir och tulki xabardor bo‘lib qolibdi. Tulki zag‘izg‘onga do‘q qilib, bolalarini yeyish payiga tushibdi. U do‘lananing tagiga kelib:

— Ey, zag‘izg‘on, bitta bolangni tashlasang tashlaganing, tash lamasang do‘lanangni tagidan ag‘daraman, qizil qoningni shimiraman, etingni yeb, suyaklaringni kemiraman, bolalaring bilan bitta qo‘ymay hammangni qiraman,— deb qo‘rqita boshlabdi.

Bechora zag‘izg‘on qo‘rqib ketganidan bitta bolasini yig‘lab-yig‘lab tashlab yuboribdi. Tulki uni ko‘tarib jo‘nab ketibdi. Ertasiga tulki ovqat topib yeyolmay yana do‘lananing tagiga kelib, zag‘izg‘onga kechagidek do‘q qila boshlabdi:

Do‘lanangni to‘miraman[1]
Qonlaringni shimiraman.

---

[1] **To‘miraman** — ag‘daraman.

Suyagingni kemiraman,
Bitta qo‘ymay qiraman.

— Yana bitta bolangni tashla, yaxshilikcha tashlamasang, o‘zing bilasan, — debdi. Zag‘izg‘on, boshqa bolalarim omon qolar-ku, degan niyat bilan jonidan aziz bo‘lgan bolasining ikkinchisini qurbon qilibdi.

Tulki zag‘izg‘onning ikkinchi bolasini ko‘tarib, jo‘nab qolibdi. O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas degandek, tulki to‘rt kun deganda zag‘izg‘onning to‘rtta bolasini yeb qo‘yibdi. Beshinchi kuni zag‘izg‘on bittagina bolasi bilan qolib, yig‘lab o‘tirgan ekan, uning oldiga birdan bedana uchib kelibdi. Yig‘lab o‘tirgan zag‘izg‘onga ko‘zi tushib, bedana uning holini so‘rabdi. Zag‘izg‘on o‘z ahvolini so‘zlab beribdi. Dono bedana zag‘izg‘onning nodon va qo‘rqoqligiga ko‘p achinibdi. Keyin unga shunday deb o‘rgatibdi.

— E, zag‘izg‘on, tulki yana sening oldingga kelib:

Do‘lanangni to‘miraman,
Qonlaringni shimiraman...—

deb do‘q qilsa, sen „to‘mirsang to‘miraver, shimirsang shimiraver“, deb tura ber. Qolgan bolangni tashlama, — debdi. Bedana ketgandan so‘ng, tulki kelib qolibdi. Tulki kundagi do‘qini qilib, zag‘izg‘onni qo‘rqitmoqchi bo‘lgan ekan, zag‘izg‘on:

— Do‘lanani to‘mirsang to‘mira ber, kemirsang kemira ber, endi sendan qo‘rqmayman, — debdi. Shunda tulki:

— E, zag‘izg‘on, bu so‘zlarni senga kim o‘rgatdi? — debdi.

Zag‘izg‘on:

— Bu so‘zlarni menga bedana o‘rgatdi, — debdi. Tulki:

— Bedana qayoqqa ketdi?— deb so‘rabdi.

Zag‘izg‘on bedana ketgan tomonni tulkiga ko‘rsatib beribdi, endi tulki bedananing orqasidan izlab ketibdi. Bedana bir o‘tloqqa borib uxlab yotgan ekan. Tulki uning izidan borib, topib, ustalik bilan bedanani tutib olibdi. Bedana:

— E, tulki, meni nima qilmoqchisan? — degan ekan, tulki:

— Sen zag‘izg‘onga gap o‘rgatganing uchun u bolasini tashlamadi. Endi seni yemoqchiman,— debdi. Bedana tulkiga aytibdi:

— Meni yeganing bilan hech bir baraka topmaysan, qorning ham to‘ymaydi, mening bir barmoqchalik ham etim yo‘q. Sen meni yemasang, seni yaxshilab to‘ydiraman. Tulki:

— Qanday qilib meni to‘ydirasan? — deb so‘rabdi. Bedana aytibdi:

— Katta yo‘lga chiqib turamiz, sen bir to‘da xashakning ichiga kirib berkinib turasan, xotinlar dasturxonlarda turli narsalarni tugib o‘tadilar. Men ularning oldiga tushib, hurpayib turaman. Xotinlar meni ko‘rib: „Mana bu bedanani ko‘ringlar“, deydilar. Shunda men ucholmay, yo‘rg‘alab qochaman. Xotinlar dasturxonni qo‘yib, meni ushlamoqchi bo‘ladilar. Men sekin-sekin yo‘rg‘alab, sekin-sekin uchib, ularni uzoqroqdagi bir tepaning orqasiga olib ketaman. Sen shu vaqt xashak orasidan chiqib, dasturxonlarni ochasan, eng yaxshi narsalarni olib qocha berasan“. Bu tadbirni eshitgan tulki shodlanibdi. Tulki bilan bedana katta yo‘lning bir chetiga chiqib turibdilar. Tulki xashak orasiga kirib yashirinibdi. Shunda uzoqdan uch-to‘rtta xotin katta-katta dasturxonlarni ko‘tarib kela beribdi. Bedana xotinlarning oldiga chiqib hurpayib tura beribdi. Xotinlardan bittasi:

— E, ana u bedanani qaranglar,— debdi.

Boshqa bir xotin:

— Mening bolamning bedanasi uchib ketgan edi. U har kuni bedana deb xarxasha qiladi. Kelinglar, hammamiz o‘rab tutib olamiz. Bu bedana ucholmaydiganga o‘xshaydi,— debdi.

Xotinlar tugunlarini yerga qo‘yib, bedanani ushlash uchun quvlabdilar. Bedana avval yo‘rg‘alabdi, keyin kalta-kalta uchibdi, oxiri xotinlarni qiziqtirib, tepaning orqasiga olib o‘tibdi. Xotinlar „Bu bedananing qanotlari yulingan bo‘lsa kerak, zo‘rg‘a uchyapti“, deb o‘ylab turgan ekanlar, bedana birdan „pirr“ etib uchib, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Xotinlar dasturxonga bir talay non va go‘shtlarni solib, chimildiq uzdiga[1] ketayotgan ekanlar. Tulki dasturxonlar holi qolganini ko‘rib, darrov ochibdi, non va go‘shtlardan ko‘pgina olib bir chetga qarab qochibdi. Tulki non va go‘shtlarni yeb juda ham to‘yib ketibdi. U yana bedanani qidirib topibdi. Shunda tulki:

— E, bedana, meni ko‘p to‘ydirib yubording, ovqatni hazm qilishim qiyin bo‘lib qoldi. Endi menga bir qiziq tomoshalarni ko‘rsatib, aylantirib kelgin va meni kuldirgin,— debdi.

Bedana uchib borib, bir sigir sog‘ib o‘tirgan kampirning oldiga yaqinlashibdi. Pirr etib uchib sigirning shoxiga qo‘nib olibdi. Kampir buni ko‘rib cholni chaqiribdi.

---

[1] **Chimildiq uzdi** — kelin charlar.

Chol bedanani urib olmoqchi bo‘libdi. Mo‘ljallab turib bir tayoq otgan ekan, bedana uchib ketibdi, sigirning shoxi sinibdi, hurkib ketgan sigir kampir sog‘ib turgan sutni to‘kib yuboribdi. Buni ko‘rgan tulki kula berib, ichagi uzilay deb qolibdi. Bedana xira tulkidan uzoqlashib, u bilan xayrlashmay jo‘nab qolibdi.

Tulki ertasi erta bilan yana bedanani qidirib ketibdi. Bedana bir o‘tloqda o‘tlarning urug‘larini yeb yurgan ekan, birdan zavq bilan sayrab yuboribdi. Agar u sayramaganda, tulki uni kechgacha ham topolmas ekan. Tulki bedanani ko‘rib, buyruq qilibdi:

— Ey, bedana, bugun ham meni to‘ydirib, xursand qilasan, bo‘lmasa o‘zingni yeb qo‘yaman, — debdi. Bedana ichida: „Bu xira tulkidan qutulish kerak, u xavfli dushman, chunki uxlab qolganimda ushlab olsa, yeb qo‘yishi mumkin“, deb o‘ylabdi. Bedana tulkiga:

— Xo‘p, bugun ham to‘ydiraman, lekin bu yaqinda to‘y ham yo‘q, kechagidek dasturxon ko‘targan xotinlar ham yo‘q, shuning uchun qishloqqa yaqin joyda bir parcha go‘sht ko‘rgan edim, shunga boshlab boraman, — debdi. Tulki rozi bo‘libdi.

Bedana bu gal tulkini cho‘ponlarning qopqoniga boshlab boribdi. Qopqondagi go‘shtni ko‘rgan tulki bora solib o‘zini go‘shtga uribdi. Qopqonning ilgagi chiqib, tulkining bo‘ynidan qisib olibdi. Ayyor tulki o‘z tumshug‘idan qopqonga ilinib, ko‘p azob chekib o‘libdi.

Bedana ham, zag‘izg‘on ham xira va ayyor dushmandan qutulib qolibdi.

Cho‘ponlar qopqondagi tulkini ko‘rib, juda xursand bo‘libdilar.



Chivinboy

Chivinboy uchib bordi-da, yantoq ustiga qo‘ndi. Yantoqning tikani uning tumshug‘iga kirdi. Chivinning qahri kelib, echki akasining oldiga bordi:

— Echki aka, Echki aka, shu yantoqni yesangiz-chi, — dedi.

Echki:

— Qoch, o‘shanga meni ro‘para qilma! Ko‘m-ko‘k o‘t, barra maysa turganda, endi sening gapingga kirib, yantoqni yeymanmi? — dedi.

Chivin:

— Hap, sanimi, shoshmay tur, to‘g‘ri bo‘ri akamga borib, seni unga yedirmasam, xo‘p yurgan ekanman, — dedi. Chivin bo‘ri oldiga bordi:

— Bo‘ri aka, Bo‘ri aka, ana shu echkini yesangiz-chi! — dedi.

Bo‘ri:

— Ko‘p meni laqillatma, qo‘y go‘shti turganda, shayton echkining go‘shtini yeymanmi? — dedi.

Chivin:

— Hap, sanimi, mergan akamga aytib seni o‘ldirtirmasam, chivin bo‘lib yurgan ekanman, — dedi-da, to‘g‘ri uchib merganning oldiga bordi.

— Mergan aka, mergan aka, — dedi Chivinboy, — shu bo‘rini otib tashlasangiz-chi, echkini ye desam, yemayman, dedi.

Mergan:

— Mening bo‘ridan boshqa otadigan ovim ko‘p. Sening gapingga kirib, bo‘rini otib yuramanmi? — dedi.

Chivinboy:

— Hap, sanimi, qarab tur, sichqon akamga aytib sening dori soladigan xaltangni teshdirmasam yurgan ekanman, — deb sichqon oldiga uchib bordi.

— Sichqon aka, sichqon aka, ana shu merganning dori xaltasini teshing, u ko‘p jonivorga zarar yetkazadi, — dedi.

Sichqon aytdi:

— Bug‘doy, arpa turib, menga endi merganning xaltasini teshish qoldimi?

Chivinboy:

— Hap, sanimi, shoshmay tur, mushuk akamga aytib, seni yedirmasam, toza yurgan ekanman, — dedi-da, to‘g‘ri mushuk oldiga uchib bordi.

— Mushuk aka, mushuk aka, ana shu sichqonni yesangiz. Merganning dori xaltasini tesh desam, yo‘q, deydi.

Mushuk aytdi:

— E, qo‘ysang-chi, mening yeydigan narsalarim ko‘p: qo‘yning go‘sht-yog‘i turganda, sichqonni poylab yurarmidim!

— Hap, sanimi, kuchuk akamga aytib, bir talatmasam, yurgan ekanman, shoshmay tur! — dedi Chivinboy.

Chivinboy:

— Kuchuk aka, kuchuk aka, ana shu mushukni bir o‘xshatib talang! Sichqonni ye, desam, yemaydi, — dedi.

— Sening gapingga kirib, bekordan-bekorga mushukni talaymanmi? — dedi kuchuk.

Chivin:

— Hap, sanimi, bolalarga aytib, bir urdirmasam, qonga bulatib yasatmasam, yurgan ekanman, — deb, uchib ketdi. Chivin yo‘lda bir to‘da bolalarga yo‘liqdi.

Chivin bolalarga qarab: — Hoy, bolalar, shu kuchukni bir boplab uringlar, mushukni tala, desam, talamaydi, — dedi.

Bolalar:

— Bizning boshimizni ko‘p aylantirma, o‘zimizning o‘yinimiz ko‘p. Endi o‘yinni qo‘yib, ovora bo‘lib, kuchukni quvib yuramizmi? — deb javob berishdi.

Shunda Chivinboy:

— Hap, sanlarnimi, onalaringga aytib, bir o‘xshatib savalatmasam, yurgan ekanman, —dedi.

Chivin charx yigirib o‘tirgan momoning oldiga borib:

— Hoy, onajon, shu bolalaringizning bir adabini berib qo‘ying, — dedi.

Momo:

— Mening ishim boshimdan oshib yotibdi, hali paxtalarim savoqsiz. Endi men hamma ishni tashlab, biror sababsiz bolalarni quvib, urib yuraymi?— debdi.

— Hap, sanimi, men borib shamol akamga aytib, sening paxtalaringni uchirib yubormasam, yurgan ekanman, — debdi Chivinboy.

Shamol, bag‘ri kamol,
Bolalarga qo‘yningni och.
Ota-onang o‘libdi,
Cho‘loq ketmoningni olib qoch! —

deganda, bir qattiq shamol turibdi. Shamol momoning paxtasini uchiribdi. Momo qo‘liga kaltak olib, bolalarni quvibdi, bolalar kuchukni ura ketishibdi, kuchuk mushukni talay ketibdi, mushuk sichqonni quva ketibdi, sichqon xaltani tesha ketibdi, mergan bo‘rini otibdi.

Lekin shamol Chivinboyning o‘zini ham uchirib, daraxtga uribdi. Chivinboyning oyog‘i va qanoti sinib, abjag‘i chiqibdi.



Tulkiboy

Bir kuni Tulkiboy changalzorda ovqat qidirib yurib, bir angishvona topib olibdi. Tulkiboy yurib-yurib bir kampirning uyi oldiga kelib qolibdi.

Kampirni ko‘rib:

— Ona, senga shu angishvonani ertagacha qoldirib ketaman, ertalab kelib olaman, deb chiqib ketibdi. O‘zi eshikning tirqishidan kampirning angishvonani qayerga qo‘yganini ko‘rib olibdi. Tulkiboy kampir uxlagandan keyin sekin uyga kirib, angishvonani qo‘ygan joyidan olib chiqib ketibdi. Ertasi kampir shoshib-pishib qatlama pishirib turganda, Tulkiboy kirib kelibdi:

— Ona, kechagi omonat qoldirib ketgan angishvonani bering,— debdi. Kampir yugurib uyga kirib angishvonani qo‘ygan joyidan topa olmabdi.

— Tulkiboy, angishvonang qo‘ygan joyimda yo‘q, yo‘qolib qolibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Topib berasiz, topib bermaganingizga qo‘ymayman,— debdi.

Kampir:

— Yo‘qolgan narsani qayerdan topib beraman, o‘rniga qirq qatlama beraman,— debdi. Tulkiboy „xo‘p“ deb, qirqta qatlamani olib tashqariga chiqqanidan keyin:

„Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama“, deb jo‘nabdi. Yo‘lda ketayotsa, bir oq echki boqib yurgan kampirni ko‘ribdi. Tulkiboy kampirga:

— Ona, shu qirqta qatlamani ertagacha omonat olib qo‘ying. Ertalab kelib olaman,— debdi. Kampir qirq qatlamani uyiga olib kirib bekitib qo‘yibdi. Tulkiboy yana eshik tirqishidan mo‘ralab turib qatla-ma qo‘yilgan joyni ko‘rib olibdi. Kampir kechasi uxlaganda kelib, sekin kampirning uyiga kirib, qirqta qatlamani bitta ham qoldirmay yeb ketibdi.

Ertasi ertalab kelib:

— Ona, kechagi omonat qoldirib ketgan qirq qatlamani olib bering,— debdi. Kampir uyiga kirib qatlamani qo‘ygan joyini qarasa, bitta ham qatlama qolmabdi.

Kampir:

— Tulkiboy, qo‘ygan joyimdan qatlamalaring yo‘qolib qolibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Topib berasiz, topib bermaganingizga qo‘ymayman,— debdi. Kampir Tulkiboydan qo‘rqib:

— Bisotimda bir donagina oq echkim bor, qirq qatlamang o‘rniga shuni berayin,— debdi. Tulkiboy oq echkini yetaklab, xursand bo‘lib:

„Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki“, deb jo‘nabdi.

Tulkiboy oq echkini yetaklab ketayotsa, bir nortuyani boqib yurgan cholni ko‘ribdi. Tulkiboy cholga yaqin kelib:

— Ota, ertagacha mana shu oq echkini sizga omonat qoldirib ketaman, ertaga kelib olaman,— debdi. Chol „xo‘p“ deb echkini hovlisiga olib kirib bog‘lab qo‘yibdi. Kechasi chol uxlaganida Tulkiboy kelib, oq echkini yeb, terisini qoldirib ketibdi. Ertasi Tulkiboy cholning oldiga kelib:

— Ota, kecha qoldirib ketgan omonat oq echkini bering,— debdi.

Chol tulkiga:

— Kechasi echkini bo‘ri yeb, terisini qoldirib ketibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Echkini topib berasiz, topib bermaganingizga qo‘ymayman, — debdi.

Chol:

— Bisotimda birgina nortuyam bor, oq echkining o‘rniga beraman, — debdi.

Tulkiboy nortuyani yetaklab: „Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nortuya“ deb, xursand bo‘lib jo‘nabdi.

Tulkiboy nortuyani yetaklab yurib, qizi bilan ip yigirib o‘tirgan kampirga uchrabdi. Tulkiboy:

— Ona, mana shu nortuyani ertagacha sizga omonat qoldirib ketaman, erta bilan kelib olaman,— debdi. Kampir nortuyani hovlisiga olib

kirib bog‘lab qo‘yibdi. Kechasi kampir uxlaganda, Tulkiboy nortuyani hovlidan olib chiqib, bir changalzorga olib borib qo‘yibdi, ertasi kampirning oldiga kelib:

— Ona, kechagi qo‘yib ketgan omonat nortuyani bering,— debdi.

Kampir qarasa, nortuya bog‘langan joyida yo‘q, axtarib topa olmabdi.

Tulkiboy:

— Topib berasiz, topib bermaganingizga qo‘ymayman,— debdi.

Kampir tulkidan qo‘rqib:

— Nortuyang o‘rniga berishga hech qanday molim yo‘q. Birgina oydin qizim bilan ona-bola ip yigirib kun kechiramiz,— debdi.

Tulkiboy:

— Nortuyam o‘rniga shu oydin qizingizni bering. Bermasangiz, ona-bola ikkovingizni ham yeb ketaman,— debdi. Kampir nochor, noiloj yolg‘izgina oydin qizini Tulkiboyga beribdi.

Tulkiboy oydin qizni olib xursand bo‘lib kampirga qarab: „Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nortuya, nortuyaga oydin qiz“ deb, oydin qizni qopga solib, qopning og‘zini bo‘g‘ib, orqalab jo‘nabdi. Bir to‘qaydan o‘tib ketayotsa, uzoqdan itini yetaklab kelayotgan bir ovchi ko‘rinibdi. Tulkiboy orqasidagi qopni yerga qo‘yib, o‘zi bekinibdi. Ovchi kelib qopni ochib qarasa, ichida bir qiz o‘tirgan ekan. Ovchi qopdan qizni chiqarib olib, qiz o‘rniga itini qopga solib og‘zini bo‘g‘ib, bog‘lab qo‘yibdi. Ovchi ketgandan keyin Tulkiboy kelib „ovchidan qutulib qoldim“ deb suyunib, qopni orqalab jo‘nabdi. Yo‘lda ketayotsa, qopning ichidan ovoz chiqibdi. Tulkiboy: „Yig‘lama oydin qiz, yig‘lama, hozir uyga yetamiz“ deb, qadamini ildam tashlab uyga yetib kelibdi. Qopning ichidan yana ovoz kelibdi. Tulkiboy: „Oydin qiz, qopning ichida zerikkanga o‘xshaysan. Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nortuya, nortuyaga oydin qiz, chiq!“ deb qopning og‘zini ochibdi. Qopning ichidan quloqlarini shalpaytirib ovchining iti chiqibdi. Oydin qiz chiqishini kutgan Tulkiboy ovchi itning haybatini ko‘rib qochib ketibdi. It tulkining ketidan quvlab ketibdi. Tulki o‘zini bir shudgor tomonga olibdi. Tulki yugurib ketayotib quyon tutish uchun qo‘yilgan qopqonga tushib qolibdi. Qopqonning egasi kelib tulkining terisini shilib olibdi.



Qumursqa

O‘tgan zamonda bir kishi safarga chiqqan edi. Bir soydan o‘tishga to‘g‘ri keldi. Qish vaqti edi. Suv muzlagan edi. Eshakning keyingi oyog‘i muzga toyib, yiqilib beli sindi... U kishi xafa bo‘lib, muzga qarab shunday dedi:

— Ey, Muz aka, sen o‘zing kimdan zo‘rsan?

Muz:

— Men zo‘r bo‘lsam, kun meni erita olarmidi? Shunda u kishi kunga qarab:

— Ey, Kun, sen kimdan zo‘r? — dedi.

Kun:

— Men zo‘r bo‘lsam, bulutlar mening ko‘zimni olarmidi? Shunda u bulutga qarab:

— Ey, Bulut aka, sen kimdan zo‘r? — dedi.

Bulut:

— Men zo‘r bo‘lsam, yomg‘irlar meni teshib-teshib o‘tarmidi? Shunda u yomg‘irga qarab:

— Yomg‘ir aka, sen kimdan zo‘r? — dedi.

Yomg‘ir:

— Men zo‘r bo‘lsam, yerga singib ketarmidim? U yerga qarab:

— Yer aka, sen kimdan zo‘r? — dedi.

Yer:

— Men zo‘r bo‘lsam, o‘tlar teshib chiqarmidi?

Shunda o‘tga qarab:

— O‘t aka, sen kimdan zo‘r? — dedi.

O‘t:

— Men zo‘r bo‘lsam, mollar yulib-yulib yutarmidi? — dedi. Molga qarab:

— Mol aka, sen kimdan zo‘r? — dedi.

Mol:

— Men zo‘r bo‘lsam, bo‘rilar yermidi? So‘ngra bo‘ridan so‘radi:

— Bo‘ri aka, sen kimdan zo‘r? — dedi.

Bo‘ri:

— Men zo‘r bo‘lsam, merganlar otarmidi?

— Mergan aka, sen kimdan zo‘rsan? — dedi.

Mergan:

— Men zo‘r bo‘lsam o‘q soladigan xaltamni sichqon va kalamushlar qirqib tashlarmidi? Shunda u kishi sichqonga qarab:

— Sichqon aka, siz kimdan zo‘rsiz? — dedi.

Sichqon:

— Men zo‘r bo‘lsam, qumursqalar[1] qulog‘imdan chimchilab-chimchilab, chaqib olarmidi? — dedi.

— Qumursqa aka, sen kimdan zo‘r? — dedi. Qumursqa:

— Men zo‘r, men zo‘r, men zo‘r, — dedi. — Otangning olti yuz botmon bug‘doyini olti tog‘dan oshirib yeganman, pochchangning yuz botmon bug‘doyini yetti tog‘dan oshirib yeganman. Men zo‘r, men zo‘r, men zo‘r! — dedi.

— Qorning nima uchun katta?— deb so‘radi u kishi.

— Jigarim zo‘r, — dedi qumursqa.

— Beling nima uchun ingichka? — deb so‘raganda, mehnatim zo‘r! — deb javob berdi qumursqa.

Kallang nima uchun katta? — dedi u kishi.

— Davlatim zo‘r! Mehnatim zo‘r, davlatim zo‘r, men zo‘r, men zo‘r! — dedi qumursqa.

---

[1] **Qumursqalar** — chumolilar.



Qo‘ng‘iz bikach

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda qo‘ng‘iz bikach bor ekan. U yolg‘iz yashar ekan. Kunlardan bir kun qo‘ng‘iz bikach erga tegmoqchi bo‘lib, yo‘lga chiqibdi. Necha oy, necha kun yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir sahroda ketayotganda, bir mol boqib yurgan podachiga duch kelibdi. Podachi:

— Ha, Qo‘ng‘iz bikachoyim, qayoqqa?

— Erga tekkani ketyapman.

— Erga tegsangiz, menga tegaqoling.

— Xo‘p, senga tegaman. Achchig‘ing kelsa, nima bilan urasan?

— Qo‘limdagi mol haydagan tayog‘im bilan uraman. Bu gapni eshitgan bikach kekkayib:

— Sari kavish, sanama juvon, gul-gul ko‘ylak, gulama juvonman. Senga tegib kaltak yeguncha, itga tegay, — deb yo‘lida ketaveribdi.

Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir manzilga yetganda, bir qo‘y boqib yurgan cho‘ponni uchratibdi.

Cho‘pon:

— Ha, Qo‘ng‘iz bikachoyim, qayoqqa?

— Erga tekkani ketyapman.

— Erga tegsang, menga tega qol.

— Xo‘p, senga tegay. Achchig‘ing kelsa, nima bilan urasan?

— Qo‘y haydagan kaltagim bilan uraman.

— Sari kavish, sanama juvon, gul-gul ko‘ylak, gulama juvonman. Senga tekkuncha, itga tegay,— deb yo‘lida ketaveribdi. Yo‘lda ketayotib Sichqonboy bilan uchrashibdi. Sichqonboy:

— Ha, Qo‘ng‘iz bikachoyim, qayoqqa?

— Erga tekkani.

— Erga tegsang, menga tega qol.

— Achchig‘ing kelsa, nima bilan urasan?

— Nimaga seni urarkanman. Dumim bilan silab, tokchaga chiqarib qo‘yib, seni boqaman,— debdi Sichqonboy.

Shunday qilib Qo‘ng‘iz bikach Sichqonboyga tegibdi.

Sichqonboy uni tokchaga chiqarib qo‘yib osh, go‘sht, non, suv olib kelib boqaveribdi.

Kunlardan bir kun Qo‘ng‘iz bikach eshikka suvga chiqib, ko‘prik tagida loyga botib qolibdi. Ko‘prikdan o‘tayotgan kishilarning oti undan hurkib o‘tolmabdi. Shunda u otliqlarga qarab:

Dupur-dupur otliqlar-a,
Ot boshini tortinglar-a.
Qo‘ng‘iz bikach o‘ldi, deb-a
Sichqonboyga aytinglar-a, —

debdi.

Otliqlardan bir rahmdili Sichqonboyga aytibdi.

Sichqonboy chiqib uni qutqazib olibdi. Shundan so‘ng suvga yaqinroq deb Qo‘ng‘iz bikach bilan Sichqonboy ko‘prik tagida yashayveribdilar.



Och bo‘ri

Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan, bir och bo‘ri bo‘lgan ekan. Kunlardan bir kuni u don yeb yurgan bir xo‘rozni ko‘rib qolibdi. Bo‘ri xo‘rozni ushlash payiga tushibdi. Xo‘roz qanotini yozib qaq-qaq, deyman deb turgan ekan, bo‘ri lip etib kelib xo‘rozning qanotidan tishlab olibdi. Xo‘roz qarasa, bo‘ri uni mahkam ushlab turgan emish. Shunda xo‘roz so‘rabdi:

— E, bo‘ri, meni nima qilmoqchisan?

— Men seni yeyman, — debdi bo‘ri.

— Meni shundayligimcha yesang, hech maza qilmaysan, yeydigan bo‘lsang, kashnich, piyoz bilan yeginki, dunyoda bir maza qilgin, — debdi xo‘roz. Bo‘ri:

— Kashnich, piyozni qayerdan topaman? — debdi.

Xo‘roz:

— Kashnich, piyozni shu yaqin oradagi qishloqdan topasan, sen borib kelaver, men seni shu yerda poylab turaman,— debdi. Bo‘ri kashnich, piyoz izlab ketishi bilanoq, xo‘roz parillab uchib ketibdi.

Bo‘ri kashnich, piyozni qiynalib-qiynalib, zo‘rg‘a topib kelibdi. Qarasa, xo‘roz yo‘q emish. U yoqqa yuguribdi, bu yoqqa yuguribdi, oxiri xo‘rozni topolmay, nochor yo‘lga tushibdi.

Bo‘ri bir yerdan o‘tib ketayotgan ekan, bir qo‘zi o‘tlab turganini ko‘ribdi, sekin kelib qo‘zini ushlab olibdi.

Qo‘zi:

— Ey bo‘ri, meni nima qilmoqchisan?— debdi.

Bo‘ri:

— Men seni yemoqchiman,— deb javob beribdi.

— Mening quruq go‘shtimni yeganing bilan hech maza qilmaysan, yaxshisi borib konning tuzidan olib kel, shundan keyin go‘shtimni maza qilib yeb, armondan chiqasan,— debdi qo‘zi.

Bo‘ri qo‘zini shu yerda qoldirib, kondan tuz olib kelgani jo‘nab ketibdi. Shu paytdan foydalanib qo‘zi qochib qolibdi. Bo‘ri sarson-sargardon bo‘lib kondan tuz olib kelsa, qo‘zi qochib ketgan emish. Qo‘zini toza izlabdi, axiri topolmay yana yo‘lga tushibdi. Bo‘ri keng cho‘lda yugurib ketayotgan ekan, unga bir ot ro‘para kelib qolibdi. Bo‘ri tez-tez yurib, otning oldiga o‘tib olibdi. Ot bo‘riga yaqin borib, uni iskagan ekan, bo‘ri chaqqonlik bilan otning tumshug‘iga yopishib olibdi. Ot xo‘p unnab ko‘ribdi, lekin o‘z tumshug‘ini och bo‘ridan ajratib ololmabdi. Keyin ot bir hiyla qilmoqchi bo‘libdi.

— Ey, bo‘ri, nima qilmoqchisan? — debdi.

— Men seni yemoqchiman,— debdi bo‘ri.

— Unday bo‘lsa, — debdi ot, — avval mening orqamga o‘t, otam o‘lmasdan avval tuyog‘imga bir nasihatnoma yozib qoldirgan edi, shu nasihatnoma senga tegishli, sen shuni o‘qib olib, so‘ngra meni yeyaber, — debdi. Bo‘ri otning tumshug‘ini bo‘shatib, uning orqasiga o‘tibdi, otning tuyog‘idagi xatni o‘qiyman deb termilib, mahliyo bo‘lib turgan vaqtida ot oyog‘ini ko‘tarib, bo‘rining og‘ziga bir tepibdi.

— Ey, savodsiz, xatni o‘qiyolmasang nimaga orqamga o‘tding?— debdi ot.

Haqiqatan ham bo‘ri savodsiz ekan. Otning qattiq tepkisidan bo‘rining og‘zida bitta ham tishi qolmay sinib, ichiga ketib qolibdi. Bo‘rining tumshuqlari majaqlanib, esini yo‘qotib, gangib qolibdi, bir vaqt hushiga kelibdi. Bo‘ri aqlini rostlab o‘ziga-o‘zi ta’zir berib debdi:

— Ko‘rdingki xo‘roz, senga kim qo‘yibdi kashnich-u piyoz, ko‘rding qo‘zini, senga kim qo‘yibdi konning tuzini, ko‘rding ot, yeb yonida yot; xat bilmasang ketiga o‘tib mirza bo‘lishing uyat... deb aljirab-aljirab o‘lib qolibdi. Xo‘roz, qo‘zi va ot dushmandan qutulib qolishibdi.



Tulki bilan bo‘ri

Qadim zamonda bir chol bilan kampir bor edi... Ularning bir ola sigiri bor ekan. Kunlardan bir kun chol:

— Ey kampir, ola qopning unidan, ola sigirning moyidan bir ko‘mach qil, — dedi.

Shunda kampir ola qopning unidan, ola sigirning moyidan bir katta ko‘mach qildi. Ko‘machni olib kelib chol-kampir ikkovi o‘rtaga qo‘ydilar. Shunda kampir:

— Qani, chol, sindiring, — dedi.

Chol aytdi:

— Kampir, siz sindiring.

Kampir yana cholga:

— Ey chol, siz sindiring, — dedi.

Shunda chol „bismillo“ deb sindirmoqchi bo‘lgan edi, ko‘mach qochib qoldi. Ko‘mach g‘ildirab qocha berdi, chol-kampir uning orqasidan quva berdi. Qo‘rg‘onni uch aylanishdi. Ko‘mach darvozadan chiqib, ko‘chaga qochdi. Ko‘chaga chiqqanda, chol-kampir yetolmay qoldi.

Ko‘mach qochib bir yilqichining uyiga bordi va uni chaqirdi:

— Ho‘ yilqichi, men ola qopning unidan, ola sigirning moyidanman. Meni ye, meni ye, meni yemasang, ota-onangning etini ye, — dedi.

Shunda yilqichi ko‘machni ushlab yemoqchi bo‘ldi. Ko‘mach qochdi. Yilqichi bir otini minib, bir otini yetaklab, ko‘machni quvib qoldi.

Ko‘mach qochib bir podachining oldiga bordi. Ko‘mach podachini chaqirib:

— Ho‘ podachi, men ola qopning unidan, ola sigirning moyidanman, meni ye, meni yemasang, ota-onangning etini ye, — dedi.

Shunda podachi ko‘machni yemoqchi bo‘lib, unga tomon yurdi. Ko‘mach qochdi. Podachi bir ho‘kizni minib, bir ho‘kizni yetaklab, ko‘machni quvib qoldi, lekin bu ham ko‘machga yetolmadi.

Ko‘mach ketayotgan edi, yo‘lda bir tulki uya kovlab turgan ekan. Ko‘mach tulkini chaqirdi:

— Ho‘ tulki, ola qopning unidan, ola sigirning moyidanman, meni ye, meni yemasang, ota-onangning etini ye, — dedi. Ko‘mach shu yerda turib ikki marta chaqirsa ham tulki hech qaramadi, eshitmagandek bo‘lib tura berdi. Shunda ko‘mach tulkiga yaqinroq kelib:

— Ho‘ tulki, men ola qopning unidan, ola sigirning moyidanman, meni ye, meni yemasang, ota-onangning etini ye,— deb baqirdi.

Bir vaqt tulki ko‘machga qarab sekin qulog‘ini ko‘rsatdi. Tulki aytdi:

— Mening qulog‘im kar, hech nimani eshitmaydi. Qulog‘imni tutib turay, sen gapir, shunda eshitaman.

Ko‘mach tulkining yoniga keldi. Tulki unga qulog‘ini tutib turdi, ko‘mach uning qulog‘i tagiga kelib turib:

— Ey, tulki, meni ye, meni ye, meni yemasang, ota-onangning etini ye, — dedi. Tulki lip etib ko‘machni ushlab oldi.

Tulki ko‘machning bir chekkasidan teshib, mag‘zini yeb oldi, keyin teshikni mahkam qilib berkitib qo‘ydi. Tulki ko‘machni ko‘tarib bir qo‘ychivonning oldiga olib bordi:

— Ey, qo‘ychivon, men senga bir sovg‘a olib keldim, — dedi.

Qo‘ychivon aytdi:

— Nima berayin?

Tulki aytdi:

— Bir yaxshi qo‘zi berib qo‘ya qol. Qo‘ychivonning qorni och edi, bitta qo‘zi berib, haligi ko‘machni oldi. Tulki:

— Ey, qo‘ychivon, men qo‘zini yetaklab huv anavi qirdan oshib ketganimdan keyin ko‘machni sindirgin,— deb tayinladi.

Tulki qo‘zini yetaklab qirdan oshib ketdi. Qo‘ychivon ko‘machni sindirdi, qarasa, uning mag‘zini tulki yeb qo‘ygan ekan. Qo‘ychivon juda xafa bo‘ldi.

Tulki qo‘zini yetaklab ketayotgan edi, birdan uning oldidan o‘rtog‘i bo‘ri chiqib qoldi. Bo‘ri qo‘zini ko‘rib xursand bo‘ldi:

— Ey, tulki o‘rtoq, qo‘zini necha pulga olding?— deb so‘radi.

— Qo‘zini falon pulga oldim, — dedi-yu, o‘tib keta berdi.

Tulki qo‘zini uyga olib borib bog‘lab, o‘zi qirga o‘t o‘rib kelishga ketdi. Tulki qirdan bir tutam shuvoq o‘t olib kelib, uyda turgan qo‘zini chaqirdi:

Uydan-uyga yugurdim,
Uy shuvog‘in sug‘urdim.
Qirdan-qirga yugurdim,
Qir shuvog‘in sug‘urdim.
Jonivorim, qo‘zichoq,
Eshikni och, eshik och.

Qo‘zi:

— Ma-a-a,— deb yugurib kelib eshik ochdi. Tulki olib kelgan shuvoq o‘tni qo‘zining oldiga qo‘ydi. Qo‘zi shuvoqni yeb yotdi.

Kunlardan bir kuni bo‘ri tulki o‘rtog‘ini poylab qoldi. Bo‘rining maqsadi o‘rtog‘i tulkining qo‘zisini yeyish edi. Bo‘ri poylab o‘tirgan edi, tulki qirga chiqib ketdi. Bo‘ri tulkining uyiga kelib, mo‘ridan tushdi. Uyga kirib olgach, qo‘zini burda-burda qilib yedi, qo‘zining kallasini o‘rta ustunning tagiga qo‘ydi. To‘rtta oyog‘ini uyning to‘rt burchagiga qo‘ydi. Keyin bo‘ri yana mo‘ridan chiqib jo‘nab ketdi...

Bir vaqt tulki qirdan bir bog‘ shuvoqni ko‘tarib, yelib-yugurib, qizarib-bo‘rtib, sekin-sekin yo‘talib eshik yoniga keldi, qo‘chizoqni chaqirdi:

Uydan-uyga yugurdim,
Uy shuvog‘in sug‘urdim.
Qirdan-qirga yugurdim,
Qir shuvog‘in sug‘urdim.
Jonivorim, qo‘zichoq,
Eshikni och, eshik och.

Qo‘zi eshikni ochmadi ham, tovush chiqarmadi ham. Tulki uch marta chaqirsa ham qo‘zichoqning „ba-a“ degan ovozi kelmadi. Shunda tulki shoshilib eshikni buzib uyga kirdi.

Uyga kirsa, qo‘zining kallasi o‘rta ustunning tagida turibdi. To‘rtta oyog‘i uyning to‘rt burchagida turibdi. Tulkining kayfi uchib ketdi.

— Ey, badbaxt bo‘ri do‘stim, yo‘lda yetaklab kelayotganimda qo‘zini ko‘rgan eding, „qo‘zini qanchaga olding?“ deb so‘ragan eding, sen so‘raganingdayoq, qo‘zini yeb qo‘yishing ko‘nglimga kelgan edi,— deb tulki ko‘p achindi.

Tulki bo‘rini bir boplayin deb o‘yladi, uyning to‘riga o‘ra kovladi. O‘raning ichiga toshko‘mirning cho‘g‘idan tashlab qo‘ydi, og‘ziga bir kichkina yog‘och qo‘yib, uning ustidan bo‘yra yozdi. Bo‘yraning ustidan bir ko‘rpacha soldi. Shu kuni qo‘zining kalla-pochasini qozonga solib, qaynatib qo‘ydi. Keyin bo‘ri o‘rtog‘ining oldiga keldi.

— Ey, Bo‘riboy, men bugun sizni ziyofat qilmoqchi edim, biznikiga boring, — dedi. Bo‘ri aytdi:

— Ey, o‘rtoq, bugun mening tobim yo‘q, kasal bo‘lib qoldim, boshim og‘rib, zo‘rg‘a yotibman.

Tulki:

— Ey, o‘rtoq, turing, kechagi qo‘zini so‘ygan edim, bugun uning kalla-pochasini pishiryapman, borib issiq-issiq sho‘rva ichsangiz, tuzalib ketasiz, — dedi.

Shunday qilib, tulki bo‘rini qo‘yarda-qo‘ymay, surgab uyiga olib bordi. Uyga kirgach, tulki bo‘rini to‘rga taklif qildi. Bo‘ri borib ko‘rpachaning chekkasiga o‘tirdi.

Tulki aytdi:

— Ey, o‘rtoq, chekkaga o‘tirib qoldingiz, tortinmay bahuzur yozilib o‘tiring.

Bo‘ri turib ko‘rpachaning o‘rtasiga o‘tirayin degan edi, tulki bo‘yraning chekkasidan tishlab turib bir silkidi, shunda o‘raning og‘ziga qo‘yilgan kichkina yog‘och tushib ketdi. Bo‘ri ham shu onda o‘raga tushib ketdi. Tulki ko‘chaga qochib chiqib ketdi.

Bo‘ri o‘raning ichida shoshib qoldi, irg‘ib chiqaman deb sakraganda, chalqanchasiga cho‘g‘ ustiga ag‘anab tushdi. Bo‘rining badanidagi hamma junlari kuyib, qip-qizil go‘shti chiqib ketdi. Bo‘ri axiri sakrab-sakrab kuygan holda o‘radan chiqdi. Chiqsa, tulki qochib ketgan ekan. Bo‘ri bir qirning ostiga kelib, burnidan suv oqib, o‘lay-o‘lay deb yotdi.

Keyin tulki boshqa tusga kirib, bo‘rining oldiga keldi. Undan hol-ahvol so‘radi.

Bo‘ri aytdi:

— Mening bir tulki o‘rtog‘im bor edi. Uning bir qo‘zisi bor edi. Shu qo‘zisini yeb qo‘ygan edim. Tulki meni aldab o‘raga tashladi va o‘zi qochib ketdi. Endi azob yeb shu yerda yotibman.

Tulki unga achingan bo‘lib:

— Bay-bay, yaxshi ish qilmabdi-ku, nahotki shunday azob bersa, — dedi. Bir ozdan keyin tulki yana:

— Men tabibman, bunday yaralarning ko‘pini tuzatganman, dorisi — mana shu changal tikanlarning orasida yugura berish, changalzordagi tikanlar mana bu badaningizdagi zardoblarni oqiza beradi. Siz uch kunda tuzalib ketasiz, — dedi-yu, keta berdi. Shunda bo‘ri o‘rnidan turib, tabib aytganini qilib, changalzorning ichiga kirib yugura berdi. Bo‘rining badanlari teshilib, go‘shtlari yulinib, avvalgidan ham ko‘p azoblandi, o‘ladigan bo‘lib yotib oldi. Tulki boshqacha turlanib, o‘zini tanimaydigan qilib, bo‘rining oldiga keldi, undan hol-ahvol so‘radi. Bo‘ri:

— Kecha bir tulki kelib, changalzorda yugursang, tuzalasan degan edi, men yelib-yugurgan edim, oxiri o‘ladigan bo‘ldim, — dedi. Tulki:

— Ular tog‘ tulkisi, biz qir tulkisi, ular davolashni bilmaydi. Men bilaman, — dedi. Keyin bo‘rining tomirini ushlab turib:

— Siz, kulga ag‘anay bering, tuzalib ketasiz, dedi-yu, yana o‘z yo‘liga ketdi. Bo‘ri yotib, kulga ag‘anay berdi, badanidagi yaralarga kul kirib, juda azob tortdi, badanining achishganiga chidayolmay dodlab yotdi.

Ertasiga bo‘ri yaraning alamiga chidolmay dodlab yotgan edi, tulki yana boshqacha tusga kirib bo‘rining oldiga keldi:

— Ey bo‘riboy, nima bo‘ldi sizga?— deb so‘radi.

Shunda bo‘ri aytdi:

— Mening bir o‘rtog‘im bor edi, uning bir qo‘zisi bor edi. U qo‘zini yeb qo‘ygan edim. O‘rtog‘im meni ziyofat qilaman, deb uyiga boshlab bordi, meni aldab o‘raning tepasiga o‘tqizib, chuqurga tushirib yubordi, o‘zi qochib ketdi. O‘rada cho‘g‘ bor ekan, badanim kuyib qoldi. Men chidolmay yig‘lab yotsam, bir tulki keldi. Bu tulki: „Men tabibman, sen changalzorga kirib yugura bersang, tuzalib ketasan“, — dedi. Changalzorga kirib yugurdim, tikanlar kuygan badanimni shilib yubordi, o‘ladigan bo‘ldim.

Og‘riqqa chidayolmay yotgan edim, yana bir tulki keldi. U tulki: „Seni changalga yugurtirgan tog‘ tulkisi ekan, men qir tulkisiman“ deb, kulga ag‘anashga buyurdi. Men kulga ag‘anagan edim, kul badanimning yaralariga tegib juda achishtirdi. Og‘riqning alamiga chidolmay undan badtar o‘ladigan bo‘ldim, — dedi.

Shunda tulki aytdi:

— He, ilgarigi tabib tog‘ tulkisi, keyingi tabib qir tulkisi, men uy tulkisi bo‘laman. Bunaqa jarohatni men bilaman dedi-da, bo‘rining tomirini ushlab ko‘rib:

— Sen daryoning muzini o‘yib, tagidan kosada suv olib tong otguncha boshingdan quya bersang, tuzalasan, — dedi. Biroz turib o‘z yo‘liga jo‘nab ketdi.

Bo‘ri daryoning muzini teshib, muzning ustiga o‘tirib olib, kosada suv olib boshidan quya berdi.

Bir ozdan so‘ng bo‘rining badani muzlab ketdi. Bo‘ri bunga chidayolmay, qochmoqchi bo‘lib, turayin desa, dumi ham, o‘tirgan o‘rni ham muzga yopishib qolibdi. Axiri bo‘ri muzdan qutulolmay, tirjayib o‘lib qoldi. Tulki o‘rtog‘idan xabar olgani keldi:

— O‘l-a, sen nafsingni tiymading, men yomonligimni qo‘ymadim. Sen nafsingni tiyganingda edi, men yomoyligimni qo‘yar edim. Bunday xor bo‘lib o‘lmas eding, — dedi tulki.



Chumchuq

Chumchuq uchib ketayotib yo‘ldan bir g‘o‘za topib olibdi. U sevinganidan g‘o‘zani tishlab shoshilganicha bir kampirning oldiga olib boribdi. G‘o‘zani kampir oldiga tashlab:

— Chuv, chiy, chiy,— debdi. Kampir g‘o‘zani chuvib beribdi. Chumchuq paxtani olib boshqa bir kampir oldiga olib borib:

— Sava, sav, sav,— debdi. U kampir savab beribdi, so‘ngra Chumchuq ola chopon bo‘zchi do‘koni oldiga borib:

— Ig, ig, ig, to‘q, to‘q! — debdi. Do‘kondor bo‘zchi yigirib, to‘qib beribdi. Chumchuq tikuvchi oldiga borib:

— Tik, tik, tik, — debdi. Tikuvchi uni o‘lchab, chopon tikib beribdi.

Ana endi Chumchuqboy choponni kiyib, podshoh o‘rdasiga uchib boribdi. Chumchuq qarasa, podshoh yuz-qo‘lini yuvayotgan ekan. Chumchuq podshohning orqasiga kelib bir qadam naridan turib, podshohga qarab:

— Mening to‘nim chiroyli, mening to‘nim chiroyli, — debdi.

Shunda podshoh g‘azabga kelib:

— Jallod, — debdi. Bosh jallod kelibdi. Podshoh:

— Ana u falokat nima deyapti? O‘ldir uni! — deb baqiribdi.

Bosh jallod ham qonli boltasini qulochlab, zarb bilan uribdi.

Chumchuq „pir“ etib uchib, devor ustiga qo‘nibdi. Bosh jallod qarasa, urgan boltasi podshoh orqasining yarmini kesib ketibdi. Podshoh tovush chiqarmay o‘libdi. Chumchuq bo‘lsa, devorda turib, bu hodisani ko‘rib dimog‘i chog‘, vaqti xush bo‘lib:

— Podshohning orqasi chopildi,
Mening ko‘nglim ochildi.
Podshohning orqasi chopildi,
Mening ko‘nglim ochildi, —

debdi.

Shunday qilib podshoh o‘lib, chumchuq murodiga yetgan ekan.



Burgutlar

Bir tog‘ etagidagi g‘orda bir Shahzoda, bir ayiq, bir tulki va bir burgut yashar ekanlar. Burgut butun dunyodagi burgutlarning podshohi ekan. Ayiq ham butun dunyodagi ayiqlarning podshohi ekan. Tulki ham dunyodagi barcha tulkilarning podshohi ekan. Kunlardan bir kuni tulki va burgut bir shaharga kelibdilar. U shahar podshohining bir go‘zal qizi bor ekan. Tulki aylanib yurib, shu qizni ko‘rib qolibdi va g‘orga kelib Shahzodaga qizni juda yaxshilab ta’riflab beribdi. Shahzoda shohning qiziga g‘oyibona oshiq bo‘libdi. Qizning vasliga yetolmay, ko‘p vaqt xafa bo‘lib yuribdi. Shu vaqtda burgut, ayiq va tulkilar undan nima uchun xafa ekanligini so‘rabdilar. Shahzoda: „Menga o‘sha shohning qizini olib bersalaringiz, shunda mening vaqtim chog‘ bo‘ladi“, debdi. Burgut o‘rnidan turib, „E, shahzodam, aslo tashvish qilmang, bu ishni tulki bilan ikkimiz bajaramiz“, debdi.

Shahzoda juda xursand bo‘libdi. Tulki va burgutlar shaharga kelibdilar. Tulki shohning saroyiga kirib, qizning oldida dumini qilpillatib yuribdi. Burgut esa qizning ravog‘i ustida poylab turibdi. Shohning qizi tulkini ko‘rib quvlabdi, tulki sekin-sekin qizni aldab ko‘chaga olib chiqibdi. Shunda burgut osmondan kelib qizni ko‘tarib uchibdi va Shahzodaning oldiga olib kelibdi. Tulki ham sekin kirib kelibdi. Qizni yigitga nikoh qilibdilar. Shahzoda va qiz baxtli hayot kechira boshlabdilar. Ular har kuni qizni g‘orga qo‘yib, ayiqni unga poyloqchi qilib, o‘zlari o‘rmonga ov qilgani

ketishar ekan. Oradan oz vaqt o‘tgach, qizning otasi shaharga jar chaqirtiribdi. Biroq u qizidan darak topa olmabdi. Shunda bir jodugar kampir shohning oldiga kelib: „Shohim, qizingizni men topib beraman, suyunchisiga nima berasiz?“ debdi. Shoh: „Nima maqsading bo‘lsa, shunga yetkazaman“, debdi. Kampir shohdan bir uchar ot olib, yo‘lga ravona bo‘libdi. Kampir borib-borib, haligi qiz turadigan g‘orning ro‘parasidagi o‘rmonga yetibdi. Jodugar otini o‘rmonga yashirib, o‘zi bir musofir odam bo‘lib, qizning oldiga kelibdi. Shu vaqtda Shahzoda, burgut va tulki kelib qolibdilar. Kampir ularga hiyla qilib: „Men musofirman, pulim, molim yo‘q, meni sizlar shu yerda olib qolinglar, men sizlarning ovqatlaringizni pishirib berib yuray“, deb yig‘labdi. Shahzodaning kampirga rahmi kelib, g‘orga olib kirib ketibdi. G‘orda har kuni kampir bilan qiz qolib, ular esa ovga boribdilar. Kunlardan bir kuni kampir qizni o‘rmonga tomosha qilish uchun olib chiqibdi. So‘ngra jodugar qizga uchar otni ko‘rsatib, „Qani, shu otga bir minib ko‘raylik-chi“ deb, qizni mindiribdi va o‘zi ham minib, qizni otasi — shoh oldiga olib kelibdi. Qiz Shahzodadan ayrilganiga juda xafa bo‘lib yuribdi. Kechqurun Shahzoda, ayiq, tulki va burgut ovdan qaytishib qarasalarki, qiz va kampir yo‘q. Shahzoda yana xafa bo‘lib, burgut va tulki avvalgidek qilib, yana qizni olib kelibdilar. Bular yana baxtli turmush kechira boshlabdilar.

Shoh ko‘rsaki, qizi yana yo‘q. U darhol butun askarlarini to‘plabdi. Jodugar kampir yo‘l ko‘rsatibdi, so‘ngra shoh barcha askarlari bilan g‘or oldiga kelibdi va: „Hoy, Shahzoda! Nima uchun sen mening qizimni olib qochding, kel, urush qilamiz, qani askarlaringni chaqir!“ deb dahshat solibdi. Shahzoda boshini quyi solib turarkan, ayiq bir uvillabdi, butun dunyodagi ayiqlar to‘planishib, bir tomonga saf tortib turibdilar. Tulki ham bir uvillagan ekan, hamma tulkilar kelib bir tomonda turibdilar. Burgut esa bir qichqirgan ekan, butun dunyodagi burgutlar tog‘lardan toshlarni ko‘tarib kelib tepada turibdilar. Shu vaqt shoh vaziriga ayiq va tulkilarni ko‘rsatib: „Askari oz ekan, urushni boshlaymiz“, debdi. Vazir dono ekan, yuqoriga qarab, burgutlarni ko‘rib, yuragi yorilguday bo‘libdi. Vazir shohga qarab:

— Shohim, tepangizga qarang! Uni ko‘ryapsizmi? Urush qilmaymiz, Shahzoda bilan yarash qilamiz,— debdi. Shoh bu holni ko‘rib, darrov Shahzoda bilan yarashibdi va Shahzodani o‘z yurtiga kuyov qilib olib ketibdi. So‘ngra hammalari murod-maqsadlariga yetibdilar.



O‘tinchi chol bilan tulki

Bir kambag‘al chol bor ekan. U har kuni cho‘llardan o‘tin-cho‘p, yantoq terib, eshagiga ortib kelib, bozorda sotar ekan. Har kuni chol cho‘lga o‘tinga chiqish vaqtida xotini ikkita chavati[1] qilib berar ekan. Kunlarning birida chol cho‘lga ketayotsa, bir tulki cholning yo‘lini to‘sib, ikki chavatisini olib yeb qo‘yibdi. Shu bilan tulki har kuni cholning chavatisini yeydigan bo‘libdi. Chol kampirga aytmas ekan, kampir cholga chavati pishirib beraverar ekan. Bir kuni chol o‘ylab turib: „Men har kuni cho‘lga borishimda shu yo‘l bilan boraman, tulki chavatimni yeb qo‘yadi, bugun bo‘lak yo‘l bilan boray“ deb boshqa yo‘lga tushibdi. Yo‘lda ketayotib eshak ustida uxlab qolibdi. Bir narsadan cho‘chib uyg‘onib qarasa, eshagi bir katta chinor yonida to‘xtab turibdi. Chinor tagida bir supa, supa ustida qirqta dev uxlab yotibdi. Chol devlarni ko‘rib juda qo‘rqibdi. Devlar har uxlaganda qirq kun uxlar ekan. Ularning uxlaganiga o‘ttiz to‘qqiz kun bo‘lgan ekan. Bir kunlik uyqusi qolgan devlar odamzod hidiga uyg‘onib qolishibdi. Devlar qarasa, ro‘parasida bir odam turibdi. Devlar bir-birini turtishib, bir-biriga shivirlashib qolishibdi. Chol bulardan

---

[1] **Chavati** — qozonda pishirilgan non.

qo‘rqib: „Bular mendan gap so‘rasa, nima desam bo‘lar ekan. Agar biror gap so‘rasa, men azroilman deyman, shu yerda qirqta dev bor ekan, xudo meni shularning, jonini olib kel“ deb yubordi, shunga keldim, deb aytaman“, deb o‘z gapini o‘zi ma’qullab devlar qoshiga boribdi. Devlar cholga qarab:

— Keling ota, kimsiz?— debdi. Chol:

— Men xudoning yuborgan azroiliman. Shu joyda qirqta dev bor ekan. Shularning jonini olaman,— debdi. Devlar qo‘rqib: „Bu chol azroil ekan, endi nima qilamiz“, deb maslahat qilishibdi. Devlardan biri:

— Ey jo‘ralar, otamizdan qolgan bir tilla keli bilan kelisop bor. Bu bizning jonimizdan azizmi, shuni beraylik,— debdi. Boshqa devlar:

— Albatta jonimizdan aziz emas, lekin kelisini bersagu, sopini olib qolsak, —deyishibdi. Bu maslahatga hammasi rozilik berishibdi.

Devlardan biri cholga:

— Biror narsa berib, sizni xursand qilsak, jonimizni olmaysizmi? — debdi. Chol:

— Ey devlar, menga hech narsa kerak emas, menga faqat devning joni kerak,— debdi. Shunda devlar bir-biri bilan maslahatlashib, keli bilan kelisopni ham bermoqchi bo‘lishibdi.

— Ey chol, bizning otamizdan qolgan tilla keli bilan kelisop bor, shuni sizga beramiz, bizni o‘ldirmang,— debdi. Chol o‘zini tutib:

— Bo‘lmasa keltiringlar, eshagimga yuklab beringlar, gunohlaringdan o‘tsam o‘tayin, — debdi. Chol tilla keli bilan kelisopni eshagiga yuklab o‘z uyiga ketibdi. Oradan ikki kun o‘tgandan keyin devlar „azroil“ choldan qutulganliklari uchun bo‘ri bilan tulki do‘stlarini chaqirib, qirq quloqli qozonni osib ziyofat qilishibdi. Cholning chavatisini yeb yurgan tulki devlarga qarab hazillashib:

— Ey devlar, otangizning o‘lganiga necha yillar bo‘lib ketgan bo‘lsa, nechuk bugunga kelib is chiqaryapsizlar?— debdi. Devlardan biri:

— Hoy do‘stim, og‘zingni ochma, xudoning yuborgan azroilidan qutulganimizga ziyofat qilayotibmiz,— debdi.

Tulki:

— U qanday odamzod ekan?— debdi:

Dev:

— Soqollari uzun, belida arqoni bor, eshak mingan bir chol,— debdi. Tulki qarsak urib kulibdi:

— Senlar ham devman deb yuribsanlar. Men har kuni u cholning ikki dona chavatisini yeb yurar edim. Ikki kundan beri bu yo‘ldan yurmasdan, boshqa yo‘ldan yurib ketibdi. Shunda sizlarga to‘g‘ri kelib,

sizlarni aldab ketibdi. Men sizlarni cholning uyiga olib boraman, yuringlar,— debdi. Devlar hayron bo'lishibdi. Tulki beshta devni o'zi bilan birga olib, cholning uyiga jo'nabdi. Devlar qo'rqqanlaridan bir-birlarini ushlashib kelishibdi.

Chol ilgari qiynalgan o'tinchi ekan. Tilla keli, kelisopni olib, ozginadan maydalab bozorda sotib, turmushi juda yaxshi bo'lib ketibdi. Bir kuni xotini xamir qilib o'tirib cholga qarab:

— Hoy chol, o'tin tashlang, xamir ko'pchib qoldi,— debdi. Chol o'tin tashlab turib shunday ko'chaga qarasa, haligi chavatisini yeb yurgan tulki beshta devning dumidan ushlab kelayotgan emish. Chol bilan kampir: „Ilgari o'lmasak ham endi o'lamiz", deb qo'rqib ketishibdi. Chol o'ylab turib: „Shu tulkining sha'niga bir yomon gap gapirsam, qutulsak ajab emas",— deb:

— Ha, tulki sen otangdan qolgan qarzlaring uchun bu beshta devni olib kelyapsanmi, menga ular kerak emas, o'zimning haqimni ber, — debdi. Shunda devlardan biri:

— Ha, bizni otangdan qolgan qarzing uchun olib kelayotgan ekansan,— deb tulkining dumidan ushlab yerga bir uribdi. Tulkining og'zi qiyshayib, tishi irjayib, o'lib qolibdi. Devlar orqasiga qaramay, qochib ketibdilar. Chol tomdan tushib, tulkining terisini ajratib olib kelib, telpak qilib kiyib olibdi. Beshta dev halloslab borib sheriklariga:

— To'g'ri, u chol xudoning yuborgan jallodi ekan. Tulkining undan qarzi bor ekan. Bizni shu qarzi uchun cholga topshirmoqchi bo'lgan ekan, tulkining dumidan tutib yerga urdik, joyidan qimirlamay o'lib qoldi, — debdi. Devlar choldan va tulkidan qutulganliklariga ziyofat qilibdilar. Chol ham tulki bilan devlardan qutulib yaxshi turmushga ega bo'libdi. Chol hozirgacha tulki telpagini kiyib yurgan emish.



Oltin tarvuz

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda bir kambag‘al dehqon bor ekan. Uning atigi bir tanobgina yeri bor ekan. Dehqon shu yerda kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilib kun ko‘rar ekan. Bahor kelib qolibdi. Dehqon yer hayday boshlabdi. Yerni ikki marta haydab bo‘lib, yaqinidagi katta soyning bo‘yida salqinlab o‘tirsa, osmonda uchib ketayotgan bir laylak yiqilib tushibdi. Dehqon qarasa, laylakning qanoti siniq emish. Dehqon haligi laylakni darrov uyga olib borib, siniq qanotiga taxtakach bog‘lab, bir qancha vaqt uni boqibdi. Laylak sog‘ayib, uchib ketibdi.

Bir kun dehqon chigit ekib yursa, laylak pastlab uchib o‘tibdi. Dehqon esa chigitni ekaveribdi. Biroq laylak yana pastlab o‘tibdi. Shu o‘tishda uch dona tarvuz urug‘i tashlab ketibdi.

Bir necha kundan keyin chigit bilan baravar tarvuz urug‘i ham unib chiqibdi. Ekinni vaqtida o‘tabdi, sug‘oribdi, chopibdi. Shunday qilib hosilni yig‘adigan payt ham kelibdi. Bir kuni tarvuzdan uchtasini uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar juda katta ekan. Dehqon o‘zining yaqin qarindoshlarini va oshna-og‘aynilarini mehmon qilib chaqiribdi. Bir mahal tarvuzga pichoq ursa, pichoq sira botmas emish. Uni qo‘yib, ikkinchisini so‘ymoqchi bo‘libdi, pichoq o‘tmabdi, uchinchisi ham shunday bo‘libdi. Dehqon qam, mehmonlar ham hayron bo‘lishibdi. Yerga bir urib yorib qarasalar, ichi to‘la tilla emish. Qolgan ikkitasini ham yorib ko‘rishibdi. Ularning ichi ham

tilla emish. Kambag‘al sevinib ketib, hammasini mehmonlarga ulashibdi, ular ham xursand bo‘lib, uy-uylariga tarqabdilar. Uch tup tarvuzning har biri o‘ntadan solgan ekan. Dehqon qolgan tarvuzlarni ham yig‘ib olibdi. Shunday qilib kambag‘al dehqon juda boyib ketibdi.

Uning bir boy dehqon qo‘shnisi bor ekan. U haligi kambag‘al dehqondan: „Sen nima qilib boyiding?“ deb so‘rabdi.

Dehqon voqeani aytibdi: „Qo‘shni, mening yerimni o‘zingiz bilasiz. Erta bahordan yerni haydashga kirishdim. Bir kun charchab, soy bo‘yida salqinlab o‘tirsam, osmonda uchib ketayotgan bir laylak yiqilib tushdi. Qarasam bir qanoti singan ekan. Rahmim kelib, ko‘tarib uyga olib keldim. Qanotini taxtakach bilan bog‘lab, dori-darmon bilan parvarish qildim, boqdim. Laylak bir necha kundan keyin tamom sog‘ayib uchib ketdi. Kunlardan bir kun yer haydab bo‘lib, chigit ekib yursam, haligi laylak tepamdan uchib o‘tdi. Ishimni qilaverdim. Bir ozdan keyin laylak orqasiga qaytdi. Qaytishda pastlab uchib, yerga uch dona tarvuz urug‘i tashlab o‘tdi. U urug‘lar yerdan unib chiqdi. Uni g‘o‘zalarim bilan baravar parvarish qilaverdim. Tarvuzlarni so‘ysam ichidan tilla chiqdi. Shunday qilib boyib ketdim“,— debdi.

Buni eshitgan boy dehqon: „Zora men ham shunday oltinlarni qo‘lga kiritsam“ deb soyga borib turibdi. Bir vaqt boy nariroqda bir laylakni ko‘ribdi. U sekin borib, poylab turib laylakning oyog‘iga tayoq otibdi. Laylakning oyog‘i sinib, ucholmay qolibdi. Boy darrov uni tutib, uyiga olib kelibdi, oyog‘iga taxtakach bog‘lab, parvarish qilibdi. Bir necha kundan keyin, laylakning oyog‘i tuzalib uchib ketibdi. Boy dehqon har kuni dalaga chiqib, laylakni kutaveribdi. Kunlarning birida uning tepasidan tanish laylak o‘ta turib ikki dona urug‘ tashlab ketibdi. Urug‘i ko‘karib chiqib tarvuz solibdi. Tarvuz pishishi bilan boy dehqon hamma qarindosh-urug‘ini mehmonga chaqiribdi. Tarvuzga pichoq urgan zamon ichidan katta-katta qovoqarilar chiqib, o‘tirganlarni talay boshlabdi. Boy tura solib ularni haydamoqchi bo‘lganda, arilar uni boshi demay, yuzi demay chaqib tashlayveribdi. Oradan sal o‘tgach, boyning kallasi, burni, lablari shishib ketibdi. Buning alamiga chidolmay, o‘zini katta suvga tashlab, cho‘kib ketibdi.

Kambag‘al dehqon halollik bilan murodiga yetibdi, boy dehqon o‘z qilmishiga yarasha jazosini tortibdi.



Kampir bilan shaqol

Bir kampir „Shaqolning dastidan dod!“— debdi:

Shaqollar keladi har yoqdan xezlab,
Tovug‘imning yotgan joyini izlab.
Patini yuladi, go‘shtini tuzlab,
Bu shaqollar meni xarob ayladi.

Kechalar qayerda yuradi ulib,
Tovuqlarning yotgan joyini bilib.
Olib qochar dashtga tomog‘in bo‘g‘ib,
Bu shaqollar meni xarob ayladi.

Qanday bo‘lsa tovug‘imni bilmasa,
O‘zim kampir, ko‘zim ko‘rmay qolmasa.
Kelganini kuchuklar ham bilmasa,
Bu shaqollar meni xarob ayladi.

Tovug‘imga xo‘p pana yer etmasam,
„Shaqol keldi“,— deb merganga aytmasam,
Bu sabilning kelganini bilmasam,
Bu shaqollar meni xarob ayladi.

Shaqol tomning orqasiga kelib, kampirning „dod“ deganini eshitib turgan ekan. Shaqol ham kampirga javob beribdi:

— E, momo, kampir, pirag‘ar
Taqqa joyingda turabor.
G‘ayratim sendan zo‘rabor —
Xo‘rozingni men yedim,
Makiyoning tag‘in nechta bor?

O‘zlari qari shaqol-a,
Izlari loyga botar-a,
Chaqirib kel merganingni
Changalzorning ichida-ya
Shaqollar ulib yotar-a.

Kampir aytibdi:

— Merganim botir, shokamon,
Botirlarga bir aytaman.
Yig‘ilib borib ustingga,
O‘zim ham minging otaman.

Shaqol:

— Qurma, kampir, mashmashangni,
Yeymiz ochgan bor jo‘jangni.
Sen bo‘lasan bizga boqim,
Bizga berasan bolangni.

Shunda ishingni tindiray,
Yemasam bo‘g‘ib o‘ldiray.
Tug‘gan tuxuming sindirib,
Iching alamga to‘ldray.

Kampir aytadi:

— Men turay,
Merganlarga xabar beray.
Ustlaringga yovlab borib,
Bittangni qo‘ymay o‘ldiray.

Berdi xabar merganlarga
Jonidan ko‘p to‘yganlarga.
Bosib yurdi changalzorga,
„Keldik, chiq!“ — dedi — maydonga!

Ko‘ring endi mard kampirni
Merganlari girdin oldi,
Shaqol, bo‘rilarni qirdi,
Elni baridan qutqardi.



«Bulbuligo‘yo» ertagiga ishlangan rasm



Bulbuligo‘yo

Qadim zamonda bir zolim podshoh bor ekan. U birmuncha kun, birmuncha yil xalqni ezib, yanchib, yeydigan ovqatining yarmini olib sotib, oltin-kumushni yig‘ib, xalqdan yig‘gan pul bilan o‘z o‘rdasiga bir tup chinor qildiribdi. Ustalarni yig‘ib: „Bu chinorning tanasi yoqutdan, shoxchalari zumraddan, barglari zabarjaddan, mevalari gavhar-u shamchiroqdan bo‘lsin!“ deb amr qilibdi. Shahar xalqi buni eshitib: „Bu daraxt bitguncha bosh qashigani tirnog‘imiz ham qolmasa kerak“, deb qayg‘uribdi.

Chinorni yetti yilda tayyor qilibdilar. Bir kun podshoh chinor tagida uxlabdi. Shunda o‘ng betiga issiq o‘tibdi. Ko‘zini ochib qarasa, tangadek oftob tushib turibdi. Birdan podshoh yurtini chaqirtiribdi:

— Kimki shu daraxtning bargini olgan kimsani topsa, podshohligimga sherik qilaman. Aytganim topilmasa, bunday shahar menga kerak emas, shaharning kulini ko‘kka sovuraman, — debdi. O‘ng qo‘l vaziri:

— Bu kecha poylash uchun odam qo‘ying, uddasidan chiqolmasa, keyin bunday siyosat qiling, — debdi.

Qirq yigitni qo‘liga yarog‘-aslaha berib poylatibdi. Ular yarim kechaga borib yakka-dukka bo‘lib uxlab qolibdilar. Podshoh uyqudan uyg‘onib

qarasa, bir mirilik chaqadek daraxtning bargi yo‘q. Podshoh g‘azablanib har tana mo‘yi nishtarday bo‘lib, tojini tepib:

— Jallod! — deb qichqiribdi.

O‘n to‘rt jallod, murg‘i salovat, qilichi burro, tili go‘yo „Kimning ajali yetdi, oftobni soyaga yetkazmay, jonini olay!“ debdi.

— Bularning boshini tanidan judo qil!

Vazir:

— Har kuni qirqtadan bosh kesaversangiz, shaharda odam qoladimi? Bularni hozircha zindonga soling, boshqa kishidan poyloqchi qo‘ying, — debdi.

Podshoh:

— Bu kecha daraxtimni kim poylaydi? Hech kim menga shu sirni oshkora qilmasa, shahar xalqini tig‘dan o‘tkazib, tuproq bilan barobar qilaman, — debdi.

Podshohning uch o‘g‘li bor edi. Katta o‘g‘li:

— Bu kecha men poylay, — deb daraxtning tagiga boribdi. Yarim kechada bu ham uxlab qolibdi. Tong otib podshoh qarasa, kechagidan kattaroq oftob tushib qolibdi. Podshoh katta o‘g‘lini zindonga hukm qilibdi. O‘rtancha o‘g‘li otasiga qarab:

— Bu kecha men poylay, sirni bilmasam meni ham akamga qo‘shib o‘ldiring! — debdi. O‘rtancha o‘g‘li ham kechasi bilan daraxt tagida turibdi, tongga yaqin ko‘zini uyqu olib, uxlab qolibdi. Podshoh ertalab uyg‘onib qarasa, daraxt barglari orasida bir burda nondek joyi yo‘q.

Har bir ko‘zi charvi tiqilgan mushukning ko‘ziday bo‘lib:

— Jallod! —debdi. O‘rtancha o‘g‘lini ham zindonga tashlabdi.

Kichik o‘g‘li:

— Ey otajon, ijozat bersangiz, qo‘limga o‘q-yoyni olsam, bu bargni oladigan kimsaning jigarini pora-pora qilmasam, elu xalqni yorug‘lik jahonga chiqarmasam, podshohzoda bo‘lmayman, — deb ahd qilibdi. Podshoh bunga ham ijozat beribdi.

Kenja shahzoda qo‘liga o‘q-yoyni olib, chilla-yu kamonga payvasta qilib, o‘ngga-so‘lga qarab o‘tiribdi. Ayni saharda ko‘zini uyqu olib kelganda, cho‘ntagidan pichoqchasini olib, bir jimjilog‘ini kesib qo‘yibdi. Qo‘li og‘riqqa turibdi. Kesgan joyiga tuz-qalampirdan bosib qo‘yibdi. Uyqusi qochibdi. Azonga yaqin osmondan bir parranda uchib kelib, chinorning shoxiga qo‘nibdi. Qushning tumshuqlari yoqutdan, oyoqlari zabarjaddan, qanotlari durri marjondan ekan. U chunon sayrabdiki, zamini-zamon, makini-makon larzaga kelibdi. Shahzoda simobdek eribdi, lekin o‘zini tutib olib, kamonini to‘g‘rilab, qushning

ko‘kragini mo‘ljallab otibdi. O‘q qushning bir tola qanotiga tegib, uni uzib tushiribdi. O‘qning sharpasiga podshoh boshliq sarkardalarning hammasi uyqudan uyg‘onibdi.

Kichik o‘g‘lining o‘ng qo‘lida o‘q-yoyi, chap qo‘lida bir qanot: — Men qushga o‘q otgan edim, qanotiga tegdi, — deb otasiga qanotni ko‘rsatibdi. Podshoh qo‘liga olib qarasa, bir tola qanot yetti yillik boji-xirojga arziydi. Podshoh:

— Kimki shu qushni qo‘limga keltirsa, taxtimga chiqarib, podshohligimga sherik qilaman, — debdi.

Kenja o‘g‘il zindondagi ikki akasi va qirq yigitni ajratib olibdi.

Podshoh:

— Bu ishga kim qadam qo‘yib boradi? — deganda, ikki katta o‘g‘li:

— Bu xizmat bizdan bo‘lsin, ota, — deb, qo‘l qovushtirib turibdi.

— Shahar xalqi, o‘z farzandlarini o‘ldirsa, bizni ham o‘ldiradi, o‘ldirmasa, biz shaharni bo‘shatib bir yoqqa ketamiz, — deb maslahat qilibdilar.

Podshohning ko‘zi tinib, qo‘lidagi piyolasi yerga tushibdi. Noiloj ikki o‘g‘liga javob beribdi. Ikki o‘g‘li qirq tuyadan mol qilib, savdogar suratida bo‘lib, shahardan chiqib ketibdi.

Oradan uch kun o‘tibdi. Podshohning kenja o‘g‘li tush ko‘ribdi, tushida bir parcha bulut uzilib qo‘yniga tushibdi. Cho‘chib uyg‘onibdi va podshohning yoniga kelib:

— Ey otajon! Menga ham safar yo‘li tushdi. Tush ko‘rdim, tushimda safarga chiqishni xush ko‘rdim. Yaxshilik bilan javob bersangiz ham, yo‘q desangiz ham ketaman, — debdi.

Podshoh noiloj bir qancha mol-u amvol berib, kenja o‘g‘lini ham jo‘natibdi. U tez-tez yurib, bir hafta deganda akalariga yetib olibdi. Yurib-yurib bir manzilga yetibdi.

Uch yo‘l kelibdi. Biri „borsa kelar“, ikkinchisi „borsa xatar“, uchinchisi „borsa kelmas“ ekan.

Katta akasining joni bo‘shroq ekan. U „borsa kelarga“ ketibdi, o‘rtanchasi „borsa xatarga“, kichkinasi „borsa kelmas“ga xayrlashib jo‘nabdi.

O‘rtanchasi: „Bu borsa xatar chatoq. Akamning oldiga borib, birgalashib ketsam bo‘lmaydimi?“ — deb akasining ketidan ketib, uni topib olibdi. Ikkisi bir shaharga borib, bir supada qatiq ichishib o‘tirgan chog‘ida, shu shahar podshohining qizi ravoqda o‘tirib, ko‘zi ikkala dangasaga tushibdi. Malika g‘azablanib: „Mening to‘g‘rimda uyalmay o‘tiribdi“, deb og‘zida yeb turgan olmaning po‘chog‘ini katta sahzodaga otibdi. Ular orqaga qayrilib qarasalar, malika ravoqda o‘tirgan emish.

Ular:

— Bu podshohning qizi bizga oshiq bo‘ldi, — deb gumon qilib, qirq tuya molni unga tuhfa qilibdilar. Namoz asrgacha o‘tirishibdi, foyda bermabdi. Malikaning kanizaklaridan biri chiqib:

— Nimaga ketmay, bu yerda o‘tiribsizlar? — debdi. Podshohzoda:

— Malika bizga oshiq bo‘lib, olma otib, hazil-mazah qilibdi. Biz bir iltifot bo‘lmasa ketamizmi? — debdi.

Kanizak:

— Bu yerdan tez ketinglar. Bo‘lmasa boshingizni kesadilar, — deb qo‘rqitibdi.

Ikki shahzoda qo‘rqib, qaltirab, shaharga kiribdilar, kechasi bir do‘konning taxtasi tagida yotibdilar. Ertasiga biri sho‘rvapazga, biri oshpazga shogird tushib, o‘t qalamoqqa boshlabdi.

Ikki kalima so‘zni kenja shahzodadan eshiting:

Kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay, cho‘lma-cho‘l, ko‘lma-ko‘l, biyobonma-biyobon, mazgili marohil yo‘l bosib, bir buloq boshiga yetibdi. Buloq yonida bir chinor bor ekan. Otni chinorga bog‘lab, xurjunga qo‘lini solib qarasa, bir dona kulcha qolibdi. Suvga solib, ro‘molchasiga ushatib, endi yeyman deb turgan pallada biyobondan bir chang paydo bo‘libdi, so‘ng ichidan bir maymun shahzodaga qarab yugurib kelibdi. Shahzoda qo‘rqib, daraxtning tepasiga o‘zini olibdi. Maymun ivigan kulchani yeb, tumshug‘ini artib, daraxtga qarab shahzodani imlab:

— Tut! — debdi.

Shahzoda:

„Nonni yeb to‘ymadi, endi meni ham yeydi“, deb qo‘rqqanidan chinorning shoxini ushlab turibdi, maymun bir sakrab chinorning pastki shoxiga chiqibdi. Shahzoda yana daraxtning barglari orasiga yashirinmoqchi ekan, maymun buni sezib:

— Yerga tush, — debdi. Shahzoda daraxtdan tushibdi.

Maymun:

— Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyar bu yerlarda nima qilib yuribsan? — debdi.

Shahzoda yerga tushib, mardonalik bilan boshidan o‘tgan voqeani bayon qilibdi. Maymun:

— Bir tuz ichgan yerga qirq kun salom. Sening kulchangni yemasam bo‘lar edi. Kulchangni yedim, endi tuzingni oqlayman. Otga minaylik, davlat bizga yori bersa, qushingni qo‘lga kiritaylik — debdi. Ikkisi yo‘lga tushibdi. Bir manzilga yetib, otdan tushib, dam olib o‘tirishganda, maymun:

— Men shu yerdan laxim kovlab, besh kecha-yu besh kunduzda chiqaman.

Besh kecha-yu besh kunduzda chiqmasam, kelgan yo'lingga qayt, — deb yer kovlagani mashg'ul bo'libdi. Oltinchi kuni maymun chiqib:

— Sen aytgan jonivor „bulbuligo'yo" ekan. Qafasning tagidan chiqdim. Bu g'orga kirasan. Teshik og'ziga yetasan. U yerda saroy bor, askarlar ko'p. Yarim soat istiqomat etasan. Askarlar uxlaydi. Shunda qafasga qo'lingni uzatasan, tepasini ochib ko'rmasdan olib chiqasan. Podshoh bilib qolsa, o'n joningdan bir joningni ham qo'ymaydi, — debdi.

Maymunning so'zini uqib, g'orga kiribdi. G'orning og'ziga borib, sabr qilib turibdi. Posbon-qorovullar beshta-o'nta bo'lib, yerda uxlay boshlabdilar. Shahzoda g'ordan chiqib, qafasi bilan qushni qo'liga olib „Otam aytgan yetmish qavat parda ichidagi jonivor shumi yoki boshqami?" deb pardaning bir qavatini ko'taribdi. Qush chunon sayrabdiki, olam xalqi mast bo'libdi. Shahzoda beixtiyor bo'lib, qo'lidan qafas yerga tushibdi. Ko'zini ochib qarasa, ikki yasovul oldida, uchtasi ketidan haydab podshohning o'rdasiga yetkazibdi. Podshoh mirg'azab jallodni chaqirib:

— Bu o'g'rining ikkala qo'lini chig'anog'idan kes! — debdi.

Vazir podshohga murojaat qilib:

— Bir qushni deb shunday yigitni o'ldirasizmi? Bundan gap so'raylik, — debdi.

Shahzodadan voqeani so'rabdi. Shahzoda boshidan kechirgan voqealarni aytib beribdi. Vazir voqeani eshitib:

— Ey podshoh, bu yigitni bir qiyin ishga buyuring, o'z ajali bilan o'lib ketsin. Bir qushni deb, bir yigitni o'ldirsak, bizga isnod bo'lib qoladi, — debdi.

Podshoh:

— Kunbotarda bir shahar bor. Bu shahardan otliqqa to'qqiz oylik yo'l. U shahar podshosining bir qizi bor. Shu qizni menga keltirsang, qafasdagi qushni senga beraman, — debdi. Podshoh bir hamyon tilla berib, shahzodani yo'lga solibdi. Shahzoda qilgan ishidan maymunni ogohlantiribdi. Ikkovi otga minib, yana safarga ketibdi. To'qqiz oy deganda bir katta shaharga yetibdilar. Otni o'tga qo'yibdilar. Maymun g'or kovlash bilan mashg'ul bo'libdi. To'qqiz kecha, to'qqiz kunduzda g'orni kovlab, bitirib chiqibdi. Maymun:

— Men yer kovlab malika ravog'ining qoq tagidan chiqdim. Qo'ng'iroqlarga eski uvadalarni tiqib, qo'ng'iramaydigan qilib qo'ydim. Malika qirq kanizak o'rtasida oydek bo'lib o'tiribdi. Unda bir kichkina

oltindan yasalgan taxt bor. Taxt ustida bir quti turibdi. Agar malika uxlamoqchi bo‘lsa, xuddi ana shu qutining ichiga tushib uxlaydi. Sen avval bu qutini ochib qara, malikaning ko‘zi ochiq bo‘lsa, uni ol, ko‘zi yopiq bo‘lsa tegma, — debdi.

Shahzoda g‘orga kirib, maymun aytgan yerdan boshini chiqaribdi.

Zinadan chiqib, qirq hujradan o‘tib ravoqqa kirib ko‘rsa, qirq kanizak o‘rtasida bir malika dilorom o‘tiribdi.

Shahzoda andek sabr qilib turibdi. Har qaysisi o‘z joyiga o‘tirib uxlay boshlabdi. Shahzoda borib qutini qo‘liga olsa, o‘n to‘rt kechalik oydek barq urib, malika yotibdi. Shahzodaning aqli boshidan uchib, yuragi jo‘sh urib, qaynab-toshib, sabr-toqati qolmay, malikaning naqsh olmaday yuzidan bir bo‘sa olay, deb yaqin borganda, og‘zining hovriga malikaning yuzi xiralanib, ko‘zini ochib:

— Ey odamzod, mening tepamda nima qilib turibsan? — debdi va kanizaklarini chaqiribdi.

Kanizaklar uyg‘onib, shahzodani podshohga olib boribdilar. Podshoh darg‘azab bo‘lib, o‘limga buyuribdi. Podshohning vaziri:

— Taqsir, bu bolani kechasi o‘ldirsak, tong otsa katta-kichik eshitib „podshoh qizining o‘ynashini o‘ldirib, qizini olib qolibdi, degan isnodga qolamiz. Uni bir xizmatga buyuring, o‘z ajali bilan o‘lib ketsin, — debdi.

Podshoh:

— Mening bir shartim bor, shuni bajarsang qizimni senga beraman. Shu yerdan o‘ttiz oylik yo‘lda bir daryo-yu qulzum bor, deb eshitaman. Shu daryoning narigi yuzida Arzaqi degan bir jodugar bor emish.

Uning „Qoraqaldirg‘och“ nomli bir oti bor emish. Bir oylik yo‘lni ko‘zni yumib, ochguncha bosarmish. Shu otni menga keltirib bersang, qizim seniki, — deb tilxat beribdi va bir hamyon oltin berib jo‘natibdi.

Shahzoda maymunning oldiga kelib zor-zor yig‘labdi. Maymun:

— Ey shahzoda, g‘am yema, davlat bizga yor bo‘lsa, jodugarning taxt-baxtini taxta-yu tobutga urib, raxtini buzib, otni senga olib beraman, — debdi. Har ikkisi yo‘lga ravona bo‘libdi. Sahrolarda sayri tomosha qilib, shikor qila-qila, bir daryoning bo‘yiga yetishibdi. Bu daryoning u yuzidan bu yuzi aslo ko‘rinmas ekan. Maymun:

— Bu daryodan qanday o‘tamiz? — deb so‘rabdi.

Shahzoda:

— Bu daryodan nima bo‘lsa ham o‘tishimiz kerak. Kelgan yo‘limizga aslo qaytmaymiz, yo o‘tamiz, yoki daryoga tushib o‘lamiz, — debdi.

Maymun bolaning himmatiga zavq qilib:

— Har ishga qadam qo‘ysang, sherdek hayqirib qadam qo‘y. Aslo qo‘rqma! Sen, men omon bo‘lsak, murodingga yetasan. Seni o‘z shahringga yetkazaman, — deb daryoning labidan chuqur kovlay boshlabdi. Qirq kecha, qirq kunduz deganda maymun qaytib chiqib:

— Men otning oxuri yonidan teshib chiqdim, o‘zingga hushyor bo‘lib, boshingni teshikdan bir marta ko‘rsatasan. Ot bir sayha tortib kishnaydi. Jodugar uyqudan turadi, chiqib otni urib, yana uyiga kirib yotadi. Yana boshingni ikkinchi marta ko‘tarasan. Jodugar otni urib, qasam ichadi. Uchinchisida hushyor bo‘l, ot kishnaguncha to‘rvadagi kishmishni uning boshiga il: „Ey jonivor, zolimning zulmidan, jodugarning ilgidan qachongacha kaltak yeb yurasan“, deb chaqqonlik bilan otni yechib ol, egar, yugan, to‘qim dema. Jodugar bir uxlasa, qirq kecha-kunduz uxlaydi. Bir uxlamasa qirq kecha-kunduz uxlamaydi. Jodugar shu bugundan boshlab uyquga tushdi, — debdi.

Shahzoda maymunning so‘zini uqib olibdi. G‘orga kirib, daryoning tagidan, otning oxuri yonidan chiqibdi. Teshikdan boshini chiqarib qarasa, otxonaning to‘rt burchagida to‘rtta oltin qoziq. To‘rtta oltin qoziqqa bog‘langan ot qulog‘ini qalam, quyrug‘ini alam qilib o‘ynab turibdi. Ot shahzodani ko‘rib, birdan sayha tortib, kishnab yuboribdi. Jodugar uyquga yotgan ekan. U otning ovozini eshitib, uyg‘onib ketibdi. Og‘zidan o‘t sochib, otxonaga kiribdi. Shahzoda ko‘rsa, bo‘yi minordek, har kifti chinordek, og‘zi g‘ordek, ko‘zi eski qopdek, burni misli tandirdek, badani filning badaniga o‘xsharmish.

— Ey, jonivor, bu yerlarda qush uchsa qanoti kuyar, odam yursa oyog‘i kuyar, odamzodning qadami yetmas. Bu yerni Jazirai Olmas deydilar. Odamzodning hidini oldingmi sen? — deb otga bir qamchi uribdi. So‘ngra kirib o‘z joyiga yotibdi. Shahzoda yana bir karra boshini chiqaribdi.

Ot kishnabdi. Jodugar qaytib chiqib, qo‘lida qamchi:

— E harom o‘lgur. Odamzodning isini oldingmi? Yerning ostida, osmonning ustida bo‘lsa ham tutib bir yamlab, bir yutaman deb, otga uch qamchi uribdi. Ot qo‘rqqanidan qon siyibdi. Jodugar uyga kirib ketibdi. Shahzoda chaqqonlik bilan chiqib, otning boshiga to‘rvani ilib:

— Ey jonivor, zolimning zulmida, jodugarning ilgida qachongacha kaltagini yeb yurasan? — deb otning boshini-ko‘zini silab-siypab, egar-yugan, to‘qimini urib uzasiga o‘zini olibdi. Otning bo‘ynidan quchoqlasa, bir depsinibdi. Uning ikki biqinidan qanot paydo bo‘lib, qarchig‘aydek osmonga ko‘tarilibdi. Otning tuyog‘idan chiqqan uchqun jodugarning peshonasiga tegibdi. Jodugar otni bulut orasida ko‘ribdi. U „Shoshma, odamzod!“ deb otning orqasidan changalini yozib uchib, quvlab ketibdi.

Otga yaqin yetib, otning dumidan ushlay deb qasd qilibdi. Ot bilib daryoga o‘zini otibdi. Tezpar lochin ot suvga yaqin yetibdi. Jodugar qo‘lini otning dumiga yetkazib, quyrug‘idan tutib, daryoga uray deb turganda, ot qo‘sh oyoq qilib jodugarning og‘ziga tepibdi. Jodugarning og‘zi paranjidek yirtilib, joni chiqib, daryoga g‘arq bo‘libdi. Ot qaytadan havoga parvoz qilib uchibdi. Shahzoda ko‘zini ochib ko‘rsa, o‘ttiz oylik yo‘lni uch kunda uchib, boyagi mamlakat ustida ot davra olib turibdi. Shahzoda otning chap qulog‘ini uch marta himarib qo‘yibdi. Ot suzilib, boyagi g‘orning og‘ziga tushibdi. Shahzoda xursand bo‘lib, atrofga qarasa, boyagi maymun g‘orning og‘zida yong‘oq chaqib yeb o‘tiribdi.

Maymun:

— Endi nima qilamiz? — deb shahzodadan so‘rabdi:

— Otni berib, qizni olamiz, — debdi shahzoda.

— Bu otni shu podshohga berib bo‘ladimi? Men bir yumalab, bir ot bo‘laman. U meni yoqtirib qoladi. So‘ngra malikani olib, ilgarigi joyga borib turasan, — debdi. Maymun shu on bir yumalab bir ot bo‘libdiki, buning oldida boyagi ot xachircha ham bo‘lmay qolibdi. Shahzoda ikki otni yolpo‘shlab, quloqchinlab podshohning o‘rdasiga boribdi. Podshohning ko‘zi otga tushibdi, ko‘rsa ikki qoraqaldirg‘och ot turibdi.

Podshoh vazirga qarab:

— Chaqir otchini, bizbop ot ekan, sotsa olaylik.

Vazir qichqiribdi. Taxtning tagiga kelib otga bir depsinibdi. Taxtning ikki kungurasiga ikki ot qo‘nib, to‘rt oyog‘ini juft qilib turibdi.

Podshoh hayron bo‘lib:

— Bu otning bahosi necha pul? — deb so‘rabdi.

Shahzoda:

— Pulga sotmayman. Bittasini bir qizga beraman, — debdi. Podshoh:

— E nodon bachcha, shu otni bir qizga bersa bo‘ladimi? — debdi. Bola qo‘ynidan qog‘ozni chiqarib podshohning oldiga qo‘yibdi. Podshoh o‘qib ko‘rsa: „Kimki shu otni keltirsa, qizimni beraman“, deb yozilgan ekan. Podshoh vazirga qarab:

— Nima qilamiz? — debdi.

Vazir:

— Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan qaytmas. Qizingizni bersangiz shunday yigitga berasiz-da, — debdi.

Podshoh:

— Biriga pul, biriga qizimni beray, ikki otni menga ber? — debdi.

Bola:

— Birini qizingiz uchun beraman, yana birini qizingizning o‘zi shikorga chiqqan paytlarida minadi, — debdi.

Podshoh xursand bo‘lib otning ikkalasini yalang‘ochlab:

— Ey vazir, otning qaysisi yaxshi? Tanla! — debdi. Vazir Arzaqi jodugarning otini yoqtiribdi. Podshoh:

— Ey vaziri nodon, mana bu ot yaxshi, — deb maymun-otni yoqtirib olibdi. Chunki maymun-ot har nafasda sayha tortib kishnab turarkan.

Podshoh qizini olib chiqib bir qancha tillalar bilan jo‘natibdi. Endi podshohdan eshiting:

Podshoh „otni ertaga ovga minaman“, deb otxonaga olib kirib qo‘yishga buyuribdi. Sayislar otni boylay desa, ot qulog‘ini qalam qilib, quyrug‘ini alam qilib, so‘lig‘ini chaynab, oldidan kelganni tishlab, ketidan kelganni tepib, hech kimni tablaga kirgizmabdi. Podshoh xafa bo‘lib, otxonaning eshigiga kalladek qulfni solib, o‘zi eshikning tagida, tomga qirqta kishini qo‘yib yotibdi. Maymun-ot devorning teshigidan chiqib badar ketibdi. Ertalab podshoh eshikning darzidan „otim turibdimi, yo‘qmi“ deb qarasa, siniq kurak bilan qashlag‘ich ham yo‘q emish. Bularning hammasi tilladan qilingan ekan. Podshoh xafa bo‘lib, o‘zini u yoqqa-bu yoqqa urib qolaveribdi. Bir zamon vazirini chaqirib o‘tgan ishlarni bayon qilibdi. Vazir:

— Bu ot Arzaqi jodugarning oti ekan. Arzaqi jodugardan dev parilarning hammasi qo‘rqar ekan. Necha-necha podshohlar bu otni olamiz deb jodugarning qo‘lida boshi kesilgan ekan. Yaxshi sizga ziyon yetkazmay, otni olib ketibdi. Bu ishdan siz xafa bo‘lmang. Qizingizni bo‘lsa, bir shahzodaga berdingiz. Yana bir ot qizingizning qo‘lida qoldi-ku, — deb podshohning ko‘nglini xotirjam qilibdi.

Endi so‘zni shahzodadan eshiting.

Bulbuligo‘yoni olish uchun g‘or kavlagan joyga borsa, maymun yong‘oq chaqib yeb o‘tirgan emish. Shahzoda otdan tushib o‘ltiribdi. Maymun:

— Nima qilamiz? — deb so‘rabdi.

Shahzoda:

— Qizni berib, qushni olamiz, — deb javob beribdi.

Maymun:

— Ey, nodon bachcha, bir qushga shu qizni berib bo‘ladimi? Men bir yumalab qiz bo‘laman. Mening oldimda bu qiz to‘qsonga kirgan kampir ham bo‘lmaydi. Podshohning oldiga olib kirasan. U meni yoqtirib olib qoladi.

Shahzoda:

— Qizni shu yerga qo‘yib, sizning o‘zingizni olib borsam-chi? — debdi.

Maymun:

— Yolg‘iz meni olib borsang nomardlik bo‘ladi. Podshoh ikkimizdan birimizni tanlab olsa, keyin pushaymon qilmaydi, — deb bir qiz bo‘libdi. Shahzoda otni g‘orning ichiga yashirib, ikki qizni ikki qutiga solib podshohning oldiga boribdi. Podshoh uni ko‘rgach devona fahmlab, xazinachiga qarab:

— Kelgan mehmonga bir narsa berib yubor! — debdi.

Podshohning vaziri:

— Ey podshoh, bu o‘rtada turgan yigit devona emas, bulbuligo‘yoning ishqida kelgan shahzodadir, — debdi. Shahzoda qo‘ynidan bir xat olib, podshohning oldiga qo‘yibdi. Podshoh o‘qib ko‘rsa, o‘zining bergan tilxati. Podshoh:

— Ey o‘g‘lim, xizmatni bajo qildingizmi? — deb so‘rabdi.

Shahzoda:

— Keltirdim, — debdi.

Podshoh, vazir va shahzoda bir uyga kirib o‘ltiribdilar. Bola qo‘ynidan ikki qutini olib, yerga qo‘yibdi. Podshoh:

— Qiz qani? — deb so‘rabdi.

— Qiz shu qutining ichida. Siz bir qiz deb edingiz, men ikki qiz keltirdim. Ikkalasidan birisini yoqtirib olasiz. Biri o‘zimga qoladi, — debdi.

Podshoh kulib:

— Qiz qutining ichiga sig‘adimi? — debdi:

Shahzoda qutini ochibdi. Ikki qiz baravar aksa urib, qutidan chiqibdi. Podshohning aqli shoshib, hushi boshidan uchibdi... Oshiqi-beqaror bo‘libdi. Podshoh:

— Ey vazir, qaysisini olay? — deb so‘rabdi.

Vazir podshohning qizini yoqtiribdi. Chunki podshohning qizi boshini past qilib, so‘zlamay, odob saqlab o‘tirgan ekan. Maymun-qiz qutidan chiqib, podshohning tizzasiga o‘tirib, bo‘yniga qo‘l solib, yuz-ko‘zini artib, yuz noz-karashma bilan turar ekan. Podshohga maymun-qiz yoqibdi.

Podshoh vazirga: „Ot bo‘lsa yo‘rg‘a bo‘lsin, xotin bo‘lsa satang bo‘lmasin-u, satangsifat bo‘lsin, deb eshitmaganmisan?“ debdi. Podshoh maymun-qizni olib, bulbuligo‘yoni shahzodaga beribdi. Shahzoda otga minib, qizni o‘ng tizzasiga o‘tqizib, chap tizzasiga oltin qafasni qo‘yib jo‘nab ketibdi.

Endi so‘zni podshohdan eshiting:

Podshoh yurtni chaqirtirib, to‘y-tomosha qilibdi, peshin o‘tibdi, xufton bo‘libdi, chiroqlar yoqilibdi. Podshoh qiz turgan uyga kiribdi. Maymun-qiz podshohni alahsitib, uy ichidan bari yaxshi narsalarni yig‘ishtirib, bir teshikdan chiqib qochibdi. Podshoh uyqudan uyg‘onib qarasa, boshidagi toji, qilichi, kamari yo‘q emish. Qiz ham ko‘rinmabdi. Podshoh vazirni chaqirib voqeani bayon qilibdi.

Vazir:

— Bu malika bir podshohning qizi bo‘lsa, uning sizga o‘xshagan oshiqlari juda ko‘p. Shulardan biri qizni olib, sizni o‘ldirmay ketibdi. Bunga hech xafa bo‘lmang, — debdi.

Endi gapni shahzodadan eshiting.

Shahzoda birinchi yo‘ldagi chinorning tagiga borsa, maymun birtalay yong‘oqni chaqib yeb o‘tiribdi. Maymun:

— Endi nima qilamiz? — deb so‘rabdi. Shahzoda:

— Men ketaman, — debdi.

Maymun:

— Mening uyimga borib uch-to‘rt kun mehmon bo‘lasan, — debdi.

Shahzoda:

— Sening uying bir tog‘ning teshigi bo‘lsa, men sig‘amanmi? — debdi.

Maymun kulib:

— Haliyam mening kim ekanimni bilmas ekansan. Yur, mening uyimni ko‘rib ketasan, — deb yo‘l boshlabdi. Ular bir tog‘ning orqasiga o‘tibdilar. Shahzoda qarasa, bir ajoyib bo‘ston, bulbullar sayragan, suv ustida sebargalar o‘rnagan; anjir, shaftolilar pishib, tagiga to‘kilgan. Bo‘stonning to‘rt burchagida to‘rt oltin taxt. Zar ko‘rpachalar solig‘liq. To‘rt atrofda qator hujralar tuzug‘liq. Har tarafda uch yuz sakson olti hujra bor. Har hujrada parizodlarning bolasi o‘qib, xat yozib o‘tiribdi. Maymun bir yumalab, bir malika bo‘libdiki, olamda bunday chiroyli qiz onadan tug‘ilgan emas. Shahzoda ko‘rgan hamon hushidan ketib yiqilibdi. Bir zamondan keyin ko‘zini ochib qarasa, maymun parining tizzasiga bosh qo‘yib, taxtning uzasida yotibdi.

Maymun pari shahzodani uch kun mehmon qilibdi. Uch kundan keyin:

— Qaysi bir parini xohlasang senga beray, —debdi.

Shahzoda:

— Xohlasang o‘zingni so‘rayman.

— Men er qilmayman, parilar podshohining qiziman. Bu qizlarga men ustoz. Men er qilsam meni o'ldirishadi. Endi, ketsang taxtga o'tqizib, shahringga yetkazib qo'yay, — debdi.

Shahzoda:

— O'zim keldim, o'zim ketaman, — debdi.

Maymun pari bir tola kokilidan kesib beribdi.

— Qachon boshingga mushkul ish tushsa, shu sochning uchini kuydirsang, men shu yerda hozir bo'laman. Shahzoda undan:

— Menga muncha yaxshilik qilib olib kelishingning sababi nima? — deb so'rabdi.

Maymun pari:

— Sen kelmasdan ilgari qur'ada ko'rdim. Kun chiqar tarafda bir zolim podshoh bor, fuqarosining yeydigan ovqatining yarmisini olib, bir tup oltin daraxt yasaydi. Shu daraxt tufayli shaharni vayron qiladi. Podshohning uch o'g'li bor, kichkina o'g'li shu daraxtni deb otam shaharni buzsa, el-u xalq ko'chada qolsa, yaxshi bo'lmaydi. Shu daraxtga ziyon yetkazuvchi qushni olib kelaman, deb shu biyobonga keladi.

Bir go'dak bola bechora xalq uchun jonini fido qilsa, men nechuk taxtda farog'atda o'tiray, deb yetti yildan beri shu chinorning tagiga har kuni yetti marta kelaman, — debdi.

So'ngra shahzoda maymun pari bilan xayr-ma'zur qilib jo'nabdi. Necha vaqt, necha zamon yo'l yurib, uch ko'chaning boshiga yetibdi. „Akalarimdan xabar olay" deb „borsa kelar" yo'lga yuribdi. Shaharga kirib ko'chama-ko'cha yurib, bir sho'rvapazning do'koniga ko'zi tushibdi. Katta akasi o't yoqib o'tiribdi. U odamlar yeb tashlagan suyakni g'ajib kun o'tkazar ekan. Shahzoda:

— Ey sho'rvapaz, shu o't yoqayotgan boladan ro'parangizdagi machitning ichiga bir kosa sho'rva yuboring, — debdi. Sho'rvapaz katta shahzodaning yuziga bir tarsaki urib, qo'liga sho'rva berib:

— O'zingdan uzoqroq ushla, boshingdagi changlar kosaga tushmasin, — debdi. U sho'rvani olib borib machitning supasiga qo'yibdi.

Shahzoda:

— O'tirib o'zing ich! — debdi.

— Men o'tirsam ustam urishadi.

— Urishmaydi, ich sho'rvani! — deb sho'rvani ichkizibdi.

— Sen qayerliksan, asli zoting kim?

— Men sho'rvapazning shogirdiman. Shu shaharning bolasiman.

— Mendan yashirma, men seni tanidim. Rost so'zlasang, o'z shahringga olib ketaman.

Sho‘rvapazning shogirdi yig‘lab, boshidan o‘tkazgan voqealarni aytib beribdi.

— Ukangni ko‘rsang taniysanmi?

— Taniyman.

— Qanday bilasan?

— Yoshligimda daryoga ot sug‘organi borganimda, „Men ham boraman“, deb otga yopishdi. Ot bolaning yelkasiga tepdi. Otning taqasi chap yelkasiga tamg‘a bo‘lib qolgan, — debdi.

— Nima uchun ukangni o‘ynagani olib bormading?

— Biz ikki o‘g‘il bir onadan, kichik o‘g‘il boshqa onadan edi. O‘gaylik qilib olib bormadim.

— Ukangning tamg‘asi shunga o‘xshaydimi? — deb shahzoda chap yelkasini ochib ko‘rsatibdi. Akasi ukasining oyog‘iga o‘zini tashlab, zor-zor yig‘labdi. Kichik shahzoda uni bozorga olib chiqib, usti-bosh va yaxshi bir ot olib beribdi.

Shahzoda o‘rtancha akasini axtarib, uni ham shunday ahvolda topibdi. Uchovi o‘z mamlakatiga jo‘nabdi. Ikki aka yo‘lda maslahat qilib:

— Bu bolani o‘ldirsak, otamiz huzuriga malikani, otni, Bulbuligo‘yoni olib borsak yaxshi bo‘ladi, — deyishib, shahzodaga qasd qilishibdi.

Bir daryoning labiga borganda, malika shahzodani chaqirib:

— Ikkala akangning dili buzuq, seni o‘ldirib, meni olmoqchi. Bu kecha o‘zingni bir panaga tort, — debdi. Shahzoda bir uxlab turib, yotgan yeriga eski zambilni keltirib qo‘yibdi, o‘zi boshqa joyga borib yotibdi. Ikki akasi zambilni daryoga tashlabdi va „ukamizni yo‘qotdik“, deb o‘ylabdilar. Har ikkisi:

— Endi malikaning oldiga kirsak, bir bazm orasta qilsak deb turganda, tong yorishibdi. Uzoqdan bir sharpa kelibdi. Qarasa, ukasi daryoning narigi yog‘ida betini yuvib o‘tirgan emish. Shahzoda bu sirlarni ko‘rib, ikki akasiga qilgan yaxshiligi uchun pushaymon qilib, daryodan o‘tibdi. Ikki aka maslahat qilib, ilgariroq ketib, bir qum tepaga yetibdilar. Ular o‘tkir qilichning damini osmonga qaratib, qumga ko‘mib qo‘yibdilar. O‘zlari uning yonida belidan pastini ko‘mib yotibdilar. Ukasi borib:

— Bu qumda yotishning ma’nosi nima? — deb so‘rabdi. Katta akasi:

— Bel og‘riq, oyoq og‘riq bo‘lmaydi kishi. Sen ham tush, seni ham ko‘mamiz. Oyoqlaring yaxshi bo‘ladi, — debdi.

— Ey aka, qum issiq ekan-ku, — debdi. Akasi:

— Oyog‘ingni qimillatsang qum soviydi, — debdi.

U oyog‘ini qimillatibdi, qilich ikkala tizzasidan shartta kesib ketibdi. Shahzoda qoniga belanib, qumda yotib qolibdi. Ikkala aka qizni, otni,

qushni olib o‘z mamlakatiga jo‘nabdi. Otasi qizni o‘rdadagi qirq kanizakka qo‘shib qo‘yibdi. Otni otxonaga qo‘yibdi. Bulbuligo‘yoni qafas bilan oltin chinorga osibdi. Qush hech sayramay, boshini qanotining tagiga olib yotibdi.

Ot kelgan odamni oldidan kelsa tishlab, ketidan kelsa tepib, hech kimni oldiga keltirmabdi. Malika qirq kanizaklarning ichida boshini ko‘tarmay, oltin qutisidan chiqmay yotaveribdi.

Endi sizga yosh bersin, bizga hayot. Shahzodadan eshiting.

Uch kecha-kunduzdan keyin shahzoda ko‘zini ochibdi. O‘z ahvolini ko‘rib hushidan ketib, bir zamondan keyin hushiga kelib, maymun parining bergan tutatqisi yodiga tushib, uchini kuydiribdi. Ko‘zini yumib-ochguncha to‘rt burchini to‘rt pari ko‘targan, tepasida maymun pari o‘tirgan oltin taxt paydo bo‘libdi.

— Ey odamzod, senga bu zulmni kim qildi? — deb shahzodaning boshini tizzasiga olibdi va makoniga olib ketibdi. Maymun pari shahzodani oltin taxtga o‘tqizib, bir kanizak parini yoniga qo‘yib otasiga xat yozibdi.

„Bu odamzod farzandini Bahrul hayot suviga solib, parilarning qoidasida muolija qilib, qirq kunda tuzatib tezlik bilan yuborasiz. Bu odamzod menga bir tug‘ishgan ini bo‘lib qolgan“, deb muhrini bosib, taxtni parilarga ko‘tartirib, Ko‘hiqofga jo‘natibdi. Parilar Billur tog‘dan o‘tib, uni parilar podshosiga topshiribdi. Shahzoda qirq kunda sihat topib, ilgarigi husniga necha barobar husn qo‘shilib, parilar yurtidan qaytibdi. Maymun pari: „Seni shu ahvolda otangga yubormayman. Qalandar suratida qishlab olib boraman. Malikani akangga berib, taxtga chiqarib podshoh qilgan bo‘lsa, shaharga kirmay qaytmaymiz. Agar otang o‘z o‘rnida turgan bo‘lsa, malikani senga to‘y qilib, seni taxtga o‘tkazib kelaman“, — deb bolani uch oy saqlabdi. Uch oyda bolaning sochi o‘sib peshonasiga tushibdi. Tirnoqlari o‘sibdi. Maymun pari shahzoda bilan taxtga o‘tirib shaharning chekkasiga kelib tushibdi. Shaharning tashqarisida parilarni qo‘yib, shahzodaning qo‘lidan ushlab podshohning o‘rdasiga kelibdi.

Podshoh bilan vazir so‘zlashib: „Olti oy bo‘ldi, men g‘am loyiga botdim, bu qush biror marta sayramaydi. Ot bir marta kishnamaydi. Malika bir luqma taom yemaydi“, deb turganda, podshoh o‘rdasiga kirgan bir qalandar bachchaga ko‘zi tushibdi. Podshoh uni ko‘rib qaddi-qomatini, zulfi siyohini kichik o‘g‘liga o‘xshatib:

— Ey qalandar bachcha, kel beri! — deb chaqiribdi. Qalandar bachcha ko‘rsa, otasining ikki yonida ikki akasi o‘tiribdi. Bildiki, bu akalariga hali amal tekkani yo‘q.

Taxtga qadam qo‘yibdi. Shu on oltin chinordagi bulbuligo‘yo chunon sayrabdiki, xalqi olam mumdek eribdi. Ot otxonada turib uch marta sayha tortib, kishnabdi. Malika qutidan irg‘ib chiqib, qo‘liga tilla sozini olib, qirq kanizakning ichida o‘yin-kulgi boshlabdi.

Podshoh sevinib:

— Bu qalandarning poyqadami yoqdi, — deb qalandarning boshidan bir lagan tilla sochibdi. Qalandar bachcha:

— Men qalandar emasman. Malikadan so‘rasangiz ishonasiz yo ishonmaysiz. Qafasdagi bulbuldan, oxurdagi otdan so‘rang, — debdi.

Podshoh:

— Ey o‘g‘lim, olamda ot bilan qushning so‘zlaganini qachon ko‘rding? — debdi. O‘sha hamono qush tilga kirib, bo‘lgan voqealarni boshdan-oyoq so‘zlab beribdi. Podshoh o‘g‘lining peshonasidan o‘pibdi.

U ikki katta o‘g‘lining qo‘lini orqasiga boylab, qo‘y qo‘shoqlagandek qo‘shoq qilib, kichik o‘g‘lining oldiga qo‘yibdi. „Senga zulm qiluvchi shu ikki og‘angni nima qilsang o‘zing qil!“ debdi, taxtiga chiqarib, o‘z tojini unga kiydiribdi. Kenja o‘g‘il otasining o‘rniga podshoh bo‘lib, xalqni zulmdan qutqaribdi. Qirq kun yurtga osh-non berib, malikaga uylanibdi.

Maymun pari parilar qoidasida to‘yni o‘tkazib, shahzodaga:

— Qachon boshingga mushkul ish tushsa, sochimni o‘tga solsang, hozir bo‘laman, — deb xayrlashibdi.



Uch og‘ayni botirlar

Bor ekan, yo‘q ekan, bir zamonda bir kishi bor ekan. Boy ham, kambag‘al ham emas ekan. Uning uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar. To‘ng‘ichi — yigirma bir yoshda, o‘rtanchasi — o‘n sakkiz yoshda, kenjasi — o‘n olti yoshda ekan. Otasi bir kun bularni oldiga chaqirib, har birining peshonasidan silab:

— O‘g‘illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsa umid qilib o‘tirmanglar, o‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar, deb sizlarni o‘qitdim. Yaxshi ot qo‘ydim. To‘y qildim. Voyaga yetkazdim. Buning ustiga yana sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim: birinchidan, sog‘lom vujudli qilib tarbiya qildim — Quvvatli bo‘ldingizlar. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim — qurol ishlatishga usta bo‘ldingizlar. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim — Qo‘rqoq bo‘lmay, botir bo‘ldingizlar. Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling — bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasa bo‘lmang — baxtsiz bo‘lmaysiz. Mana bundan boshqasini o‘zingiz biling. Qora toyni, saman toyni, ko‘k toyni asboblari bilan tayyorlab qo‘ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan



«Uch og‘ayni botirlar» ertagiga ishlangan rasm

to‘lg‘izdim. Baxtingiz yo‘lda, topib olmoq uchun dunyoni ko‘rgani yo‘lga chiqingiz. Dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo‘lmaysiz. Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqingiz. Xayr, o‘g‘illarim, — deb turib ketdi.

O‘g‘illari suyunib safar tadorikini ko‘rib, erta saharda otlanib yo‘lga tushdilar. Uch og‘ayni butun kun yo‘l yurib, juda uzoq ketdilar. Namozshom vaqtida bir joyga yetdilar. Kechasi yo‘l yurmoqni munosib ko‘rmay, shu joyda yotmoqni ma’qul topib, otlaridan tushib, istirohat qilib, ovqat yeb, yotish oldida o‘zaro shu maslahatga keldilar: „Bu joy to‘qayzor ekan, biz yo‘l bosib kelganmiz, charchab uxlab qolsak yaxshi bo‘lmas, kechani uch bo‘lakka bo‘lib, har bir bo‘lagida birimiz navbat bilan poyloqchi bo‘lib, uyg‘oq turaylik“.

To‘ng‘ich akasi birinchi navbatni oldi. Ikkala ukasi uyquga ketdilar. Chiroq lipillab yonib turar edi. Qo‘lidagi yarog‘ini o‘ynab, atrof tomondagi daraxtlarni tomosha qilib, bir qancha vaqt o‘tirdi. Jimjit. Hech narsa shit etmas edi. Hamma narsa uyquda. Kecha oydin edi. Bir vaqt to‘qay ichidan bir narsaning kelayotgan sharpasi eshitildi. Hech qo‘rqmadi, yarog‘ini chiqarib tayyor bo‘lib turdi.

Bular tushgan to‘qayning narigi tomonida bir sherning makoni bor edi. Bulardan boshqa hech kim bu joyga tushmas, hatto boshqa hayvonlar ham bu joyga kelgani qo‘rqar edilar. Sher bularning hidini bilib, yemoq uchun asta-asta uyasidan qo‘zg‘alib chiqib keldi. To‘ng‘ich botir sherni o‘ldirishiga ishonsa ham „Ukalarim bezovta bo‘lmasinlar“, deb to‘qayning bir tomoniga qarab qochdi. Sher quvdi. To‘ng‘ich botir panaga yashirinib turib, sherning orqa tomoniga qilich bilan urib, sherni yaraladi. Sher botirga o‘zini tashlamoqchi bo‘ldi. Botir chap berdi.

Sherning o‘ng qo‘liga urdi. Sher botirga qarab, bor kuchini to‘plab o‘zini tashladi. Botir yana chap berdi, boshiga qarab qilich soldi, sher yiqildi. Yana bir qilich bilan sherni tugatdi. Sherning ustiga minib, terisidan bir tasma qilib oldi. Ichidan beliga mahkam bog‘lab olib, hech narsa ko‘rmaganday, yana ukalarining yoniga kelib o‘tirdi. Poyloqchilik navbati o‘rtancha botirga keldi. Hech qanday voqea ro‘y bermadi, uchinchi botir turdi, tong otguncha poyloqchilik qildi, hech narsa ko‘rmadi. Birinchi kecha shu bilan tugadi. Erta bilan yana yo‘lga tushdilar. Kechgacha yo‘l yurdilar, yo‘l yursalar ham mo‘l yurdilar, bir tog‘ning bag‘riga tushdilar, tog‘ning chap tomoni keng qo‘riq edi. O‘rtada bittagina baqaterak bor edi. Baqaterakning tagida bir buloq, uning oldida supa, tog‘ning tagida g‘or bo‘lib, unda ilonlar podshosi — ajdar sulton yolg‘iz turar edi.

Botirlar bugun shu yerga tushdilar. Otlarini boylab, xashak solib, haligi supaga o‘tirib, istirohat qildilar. Ovqatlarini yeb bo‘lgach, uxlash oldidan avvalgiday navbat bilan poyloqchilik qilishdi. Birinchi navbat to‘ng‘ich botirga berildi, undan keyin o‘rtancha botirga gal keldi. Buning navbatida kecha oydin, jimjit edi. Bir vaqt haligi g‘ordan vahimali bir ovoz eshitildi. O‘rtancha botir qo‘rqmadi, jim turdi. Faqat akasi bilan ukasining bezovta bo‘lishlaridan tashvishlanar edi. Ko‘p vaqt o‘tmadi. G‘orning ichidan boshi xumday, uzunligi xariday bir narsa o‘rmalab, bular sari kela boshladi. O‘rtancha botir supadan tushib, qo‘riqning narigi tomoniga qarab qochdi. Odam borini bilib chiqqan ajdar, o‘rtancha botirga qarab yugurdi. Botir chap berdi va ajdar sultonning dumiga qilich bilan urib, uni yaraladi. Ajdar sulton aylanib qoldi. Yana poylab turib, ustalik bilan uning beliga qilich soldi, yarasi og‘irlashib, hansirab qoldi, shu choqda yana urib, ishini tugatdi. Terisidan bir tasma olib, ichidan beliga bog‘lab oldi. Hech narsa ko‘rmaganday bo‘lib, supaga borib o‘tirdi.

Uchinchi navbat kenja botirga keldi. Akasi uyquga ketdi. Tong otdi, uyg‘ondilar. Yana otlanib yo‘lga tushdilar. Bugun ham yo‘l yurdilar. Tog‘larni, cho‘llarni, dasht-dalalarni o‘tib, kun botganda, bir tepalikka yetdilar. To‘xtab, bu kechani shunda o‘tkazmoqchi bo‘lib, tlardan tushib, tepalikda istirohat qilib o‘tirdilar. Ovqat qilishib, yeb, yotarda yana poylash navbati to‘ng‘ich botirga, undan so‘ng o‘rtancha botirga, eng keyin kenja botirga yetdi. Botircha tepalikda akalarini uxlatib poylab o‘tirib edi, shamol kelib, chiroqni o‘chirib qo‘ydi. Akalarining qorong‘ida uxlashi unga og‘ir tuyuldi. Chiroq axtarib, eng tepa bir joyga chiqib, har tomonga ko‘z tashlar edi, uzoq kun botish tomondan g‘ira-shira uchqun ko‘rinib qoldi. Chiroqni yondirib kelmoq uchun uchqun chiqqan tomonga qarab otini minib ketdi. Ancha yo‘l yurib, cho‘lning o‘rtasida bir qo‘rg‘onga borib yetdi. Otdan tushib, qo‘rg‘onning tagiga keldi. Yetti paxsa devor bilan o‘ralgan yolg‘iz qo‘rg‘onning bir tomonida eshik o‘rni bor edi. Tashqariga otini bog‘lab, sekin ichkari kirdi. Qo‘rg‘onning ichkarisida, bir chekkada o‘n bir yog‘ochlik qora uy, darchalari berk bo‘lib, eshiklari ochiq edi. Oyoq uchi bilan sekin-sekin borib, darchaning yorig‘idan mo‘ralab qaradi. Kunchiqar tomonda katta o‘choq, qozonda sho‘rva qaynab turibdi. Butun qorayib bitgan uyda yigirma choqlik odamlar o‘tiribdilar. Devorlarda yarog‘-aslahalar, o‘tirganlarning peshonalari qaqqaygan, ko‘zlari chaqchaygan, ko‘ngillari qora, yuzlari ola, o‘ylaganlari yomonlik ekan. Alhosil bular — talonchilar to‘pi ekanligi, bu joy —

bularning to‘planadigan makoni ekani ma’lum bo‘ldi. Kenja botir o‘ziga o‘zi aytdi: „Bularni tashlab keta bersam, yigitlikdan bo‘lmaydi, qanday bo‘lsa ham bir yo‘l bilan bularni tamom qirib yo‘qotmoq lozim. Buning uchun bir hiyla ishlatib, bularga qo‘shilib olay, paytini topib, ishimni bajaray“, dedi. Orqasiga qarab bir necha qadam yurib, so‘ngra chopib keldi. Oyoq ovozini eshitib, o‘g‘rilar yarog‘larini qo‘llariga olib, tayyorlana boshladilar. Shu orada kenja botir eshikdan ichkariga kirib keldi. Salom berib, hammasi bilan so‘rashib, tiz bukib o‘tirdi. O‘g‘riboshiga qarab:

— Taqsir, men kamina qulingiz, falon shahardan bo‘laman, yoshligimdan beri hech bir ustod ko‘rmay, o‘zimcha mayda o‘g‘irlik qilib yurar edim, ko‘p tajriba ko‘rganman. Yakka o‘zim durustroq bir ish qilmoqqa kuchim bo‘lmaganidan, bir to‘pga qo‘shilmoqni orzu qilib yurar edim, janoblaringizni bunda deb eshitdim, kecha-kunduz yo‘l yurib, oxirida xizmatingizga yetib keldim. Umidim shuki, meni yosh deb qaytarmay, ichlaringizga olib, bilmagan narsalarimni o‘rgatib, to‘plaringizga qo‘shib olsangiz. Ko‘p narsalardan xabarim bor, ayniqsa, lahim kovlamoqqa, oldin tushib ahvolni bilib chiqmoqqa ustaman. Umidim borki, ishlaringizga yarab qolarman, — deb ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib yolvordi. O‘g‘rilarning boshlig‘i:

— Juda yaxshi, bizga ham bir shunday yosh o‘g‘ri bola zarur edi. Yaxshi kelibsan, bizga qo‘shilding. Murodingga yetding, o‘g‘richa, — dedi.

Kenja botir o‘rnidan turib, qulluq qildi: „Murodimga yetsam baxtliman, so‘zing rost bo‘lsin, semiz qo‘ylar! Qassobing men bo‘laman“, deb pichirlab qo‘ydi.

Sho‘rvani keltirdilar, ichib bo‘ldilar, bugun o‘g‘rilar podshohning xazinasini urmoqchi bo‘lib, shu yerga to‘planishgan edilar. Maslahatlashib, otlandilar, kenja botir ham birga ketdi. Ko‘p o‘tmadi, o‘g‘rilar shaharga kirib keldilar, o‘rdaning orqa tomonidagi bog‘chaga kirdilar. Otdan tushib o‘rdaga qanday qilib kirish to‘g‘risida maslahat qilib, oldin „o‘g‘richa“ni devordan oshirib tushirishga, hamma uxlagan bo‘lsa, baravar kirmoq uchun, devordan birin-birin oshib tushib, ichkariga to‘planishga gapni biriktirib, oldin kenja botirga: „Sen kirib ahvolni bilib chiq, so‘ngra devor tepasida xabardor bo‘lib tur!“ dedilar. O‘g‘rilar Kenja botirni ko‘tarishib devorga chiqardilar. U bir iloj qilib pastga ham tushib oldi. Biroz u yoq-bu yoqqa yurib xabar olgan bo‘ldi. So‘ngra bir aravani sekin devor tagiga keltirib qo‘ydi. Aravaning tepasiga chiqib, boshini devordan chiqarib, o‘g‘rilarga qarab: „O‘rdada hamma

uxlagan ekan, qulay fursat", dedi. O'g'riboshi o'g'rilarga: „Birinketin devordan oshilsin, ovoz chiqarilmasin!" deb buyurdi. Birinchi o'g'ri devordan aravaga qarab, tushmoq uchun qornini paxsaga qo'yib, boshini eggan edi, kenja botir qo'lidagi qilich bilan uning bo'yniga qarab, mo'ljallab turib chunon urdi, ikki bo'lak bo'lib yiqildi. „Tushilsin" dedi. Tushganning bo'ynini uza berdi. Qisqasi, hamma o'g'rining kallasini uzib bitirdi. Qilichini artib, qiniga solib, o'rdaning ich tomoniga yurdi. Arkning darvozasiga keldi, darvozabon uxlab qolibdi. Sekingina oldidan o'tib, darvozani ochib ichkari kirdi. Bir katta saroy, uning uch tomonida uchta eshik, to'g'ridagi eshik oldida posbon uxlagan, u sekingina — juda ehtiyotlik bilan posbonning qo'lidagi kalitni oldi. Qulfga solib, ovoz chiqarmay ochdi. Undan ichkariga, bir o'rta saroyga kirdi. Unda yana uchta eshik bo'lib, bu bo'lmada o'nta chiroyli cho'ri qiz poyloqchi ekan-u hammasi ham uxlab qolgan ekan. Chunon ustalik bilan oldilaridan o'tdiki, hech biri aqalli sezmadi ham. Birinchi eshikdan bir bo'lmaga kirdi, uning devorlari qoziqlungilar bilan bezalgan. Qip-qizil gullar, ipakdan tikilgan har turli uy jihozlari to'la ekan. Gul yuzli cho'ri qizlarning o'rtasida, kumush so'rida bir qiz oqqa o'ralib, oyday yuzini pirpirab yonib turgan shamga qaratib uxlab yotgan ekan.

Sekin kelib, tomosha qilib: „Sen to'ng'ich akamning baxt qushi" deb o'ng qo'lidagi tilla uzugini chiqarib olib, cho'ntagiga soldi. Orqasiga qaytib, yana o'sha o'rta saroyga kelib chiqdi. „Endi ikkinchi uyni ko'raychi, nima sirlar bor ekan?" deb, ikkinchi bo'lmaga kirdi. Bunda ham uylar o'ziga munosib ipaklar bilan yasatilgan, turli qushlarning surati bilan bezalgan. O'n nafar cho'ri qizning o'rtasida kumush so'rida o'n sakkiz yoshlarda bir qiz yotibdi. Oy: „Mendan" deb talashsa, kun: „Mendan" deb talashadigan, oq harirga o'ralgan holda pirpirab yonib turgan shamni tomosha qilgan kabi uxlab yotibdi. Kenja botir o'zicha „Sen o'rtancha akamning baxt qushisan, oyog'ingdan bog'lab ketayin" deb, qo'lidan sekingina bilaguzugini olib cho'ntagiga soldi. Orqasiga qaytib yana oldingi o'rta saroyga kelib chiqdi.

„Endi uchinchi bo'lmaga kirmoq lozim", deb so'l tomondagi bo'lmaning eshigini ochib, ichkari kirgan edi, bunisida hammasidan ham ziyoda chiroyli narsalar ko'rdi. Devor qip-qizil ipaklar bilan yasatilgan, ipak gilamlar ustiga ipak ko'rpachalar solingan. O'n olti yoshli chiroyli cho'ri qizlardan o'n oltitasi atrofini o'ragan holda kumush so'rida bir qiz yotibdi, tilla shamdondagi pal-pal yonib turgan sham bilan o'ynashib turganday bo'lib uxlabdi. Oq nozik badanini oq harirga o'rab

yotgan o‘n olti yashar qizga cho‘lpon yulduzi cho‘rilikka tayyor, buning uchun kun gul teradi, oy olma tashlaydi. Odam bolasi ekanligiga hech kim ishonmaydi...

Kenja botir ichida: „Mening baxt qushim sendirsan“ deb, uning o‘ng qulog‘idan sekingina tilla isirg‘asini chiqarib olib, cho‘ntagiga soladi. Orqasiga qaytib, yana o‘sha o‘rta saroyga kelib chiqdi.

Bular podshohning qizlari edilar. Kenja botir ilgari qaysi yo‘l bilan kelgan bo‘lsa, yana o‘sha yo‘l bilan darvozaning oldiga chiqdi. Darvozabon uyqusidan uyg‘onmagan ekan. Darvozani qulflab, kalitini yana darvozabonning qo‘liga o‘tkazib, o‘tib ketdi. Haligi paxsa devordan oshib, bog‘chaga tushib, chirog‘ini yondirib, otiga minib, akalarining yoniga keldi. Akalari uyqudan uyg‘onmagan ekanlar. Chiroqni o‘z joyiga qo‘yib, qamchisini o‘ynab o‘tiraverdi. Tong otdi. Hammasi uyqudan turib, bir-birlaridan hol-ahvol so‘radi. Kenja botir: „Tinchlik, hech narsa bo‘lgani yo‘q“, deb javob berdi. Ovqatlarini yeb, otlarini tayyorlab, minib yo‘lga tushdilar. Birozdan keyin shaharga kirib keldilar. Bir saroyga otlarini bog‘lab, o‘zlari bir baland joyga chiqib, atrofga qarab, tomosha qilib o‘tirgan edilar. Shaharda o‘rdaning voqeasi eshitila boshladi. Shu vaqtda jarchi chaqirib, hammani voqeadan xabardor qilar edi:

— Bugun kechasi noma’lum odam tarafidan o‘rdaning bog‘chasida yigirma kishining boshi kesilgan, ichki haramning eng nozik joylaridan bir donadan tilla narsalar yo‘qolgan. Bu sirli voqeani bajargan botir kim ekanligini bilish uchun podshohimiz elning hamma katta-kichigidan yordam istaydi. Shahar xalqidan unday ish qiluvchi botirlar bo‘lmasligini bilib, kimning hovlisida chetdan kelgan musofirlar bo‘lsa, darhol o‘rdaga olib borilsin! — deb jar solardi.

Joy egasi bu botirlarning o‘rdaga bormoqlarini taklif qildi.

Bular piyoda asta-sekin o‘rdaga bordilar. Podshoh bularning musofir ekanligini bilib, alohida bir ziynatlangan uyga kirgizib qo‘ydi. Boshqa musofir bo‘lmaganidan, ularga juda diqqat bilan qarab, sir olmoqni bir vazirga topshirdi. Vazir aytdi: „Bulardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘rasak, ehtimol aytmaslar, o‘z ahvollariga qo‘yib, tashqaridan quloq solib turamiz, nima desalar, so‘zlaridan sirini topamiz“, dedi. Bu xonada bulardan boshqa hech kim yo‘q edi. Bir vaqt dasturxon yozildi, xilma-xil noz-ne’matlar keltirib qo‘yildi. Ikkinchi bir xonaning teshigidan podshoh bilan vazir quloq solib jim o‘tirdilar. Birozdan keyin uch og‘ayni botirlar o‘zaro suhbat qila boshladilar. To‘ng‘ich botir dasturxondagi ovqatni ko‘rsatib:

— Shu go‘sht qo‘zi go‘shti ekan, biroq shu qo‘zi it emib katta bo‘lgan ekan, — dedi.

O‘rtancha botir aytdi:

— To‘g‘ri aytasiz, podshoh degan it go‘shtidan ham qaytmaydi. Saralab yemoq faqirning ishi, qo‘yni boqib qo‘yibdimi? Men ham bir narsaga hayron bo‘lib turibman, mana shu shinnidan odam isi keladi.

Kenja botir aytdi:

— To‘g‘ridir, podshohlik qonxo‘rlik demakdir. Qon qo‘shilgan bo‘lsa, ehtimoldan uzoq emasdir. Lekin yomonning qoni bo‘lsa-ku mayli, begunohning qoni qo‘shilgan bo‘lmasin. Men ham bir narsaga hayron bo‘ldim, shu nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekan, taxlovi novvoycha.

— To‘g‘ri bo‘lsa kerak, — debdi to‘ng‘ich botir. — Podshoh bizni bu yerga o‘rda voqeasi bilan chaqirgan. Albatta, bizdan savol qilar, nima deymiz?

— Albatta, yolg‘on so‘ylamaymiz, — dedi o‘rtancha botir, — bu voqeaga aralashgan bo‘lsak, aytmog‘imiz lozimdir.

Kenja botir:

— Uch kunlik yo‘lda qanday voqea ko‘rgan bo‘lsak, o‘rtaga tashlaydigan vaqt keldi, — dedi.

To‘ng‘ich botir birinchi kechada sher bilan olishganini aytib, belidan tasmasini o‘rtaga olib qo‘ydi. O‘rtancha botir ikkinchi kechadagi voqeani aytib, nishona uchun tasmani o‘rtaga tashladi. Kenja botir uchinchi kechadagi voqeani aytib, olgan narsalarini o‘rtaga tashladi. Podshoh bilan vazir sirdan xabardor bo‘ldilar. Faqat go‘sht, shinni, non to‘g‘risidagi gaplarni tekshirib ko‘rmoq uchun qo‘ychibonni chaqirtirdi. Qo‘ychibondan so‘radi:

— To‘g‘risini ayt! Kecha yurgan qo‘zining onasi itmidi?

— Podshohim, bir qoshiq qonimdan o‘tsangiz aytaman.

— O‘tdim, to‘g‘risini so‘yla!

— Qishning o‘rtasida bir qo‘y tug‘ib, o‘zi o‘lib qoldi, shu vaqtda bir katta itim tug‘gan edi. Qo‘zichoqqa rahmim keldi. Yetim qo‘zini och qoldirgim kelmadi. Nochor o‘sha itga emizdirib, katta qilgan edim. Boshqa qo‘zi qolmagani uchun o‘shani yuborgan edim, — dedi.

Podshoh bog‘bonni chaqirib:

— To‘g‘risini ayt, shinniga odam qoni qo‘shilganmi? — dedi.

— Podshohim, bir qoshiq qonimdan o‘tsangiz, bir voqea bo‘lgandi, aytar edim, — dedi.

— Ayt, o‘tdim, — dedi. Bog‘bon:

— O‘tgan yozda, bog‘dagi uzumzorga har kecha bir odam uzum o‘g‘irlikka kelib, sizga olib qo‘yilgan eng yaxshi uzumdan o‘g‘irlab olib keta boshladi. Bir kun agar qo‘limga tushsa, o‘ldirib shu tokning tagiga ko‘may, deb qasd qildim. Bir kecha poylab yotdim. Yana keldi. Shashvar to‘qmoq bilan boshiga urdim, boshi pachoq-pachoq bo‘lib ketdi.

Hech kim bilgani yo‘q. Shu tok tagiga chuqur kovlab ko‘mib qo‘ydim, kelasi yilga tok kuchlanib, chunon hosil qildiki, bargidan ham uzumi ko‘p edi. Lekin mazasida ozgina o‘zgarish paydo bo‘ldi. Men uzumdan sizga yubormay, butunicha shinni qilgan edim, — dedi.

Nonni podshoh o‘zi taxlagan edi. Podshohning otasi novvoy edi, podshoh haqiqatlar bilingandan keyin, bularning zakovatiga „ofarin“ deb, botirlarning oldiga kirdi. Salom berib ko‘rishdi. Hech bir narsa so‘ramay:

— Sizlarning hamma deganingiz to‘g‘ri bo‘lib chiqdi, mening sizlarga muhabbatim ortdi. Botir mehmonlar, ijozat bersangiz bir arzim bor edi, agar qabul qilsangiz, aytar edim, — dedi.

To‘ng‘ich botir:

— Aytganlaringiz to‘g‘ri kelsa, qabul qilarmiz, aytingiz! — dedi.

Podshoh:

— Mening uchta qizim bor, o‘g‘lim yo‘qdir. Men ertaga butun shaharni to‘yga chaqirib, qirq kun osh berib, qizlarimni sizlarga nikoh qilsam, mening o‘g‘illarim bo‘lib, bunda qolsangizlar, — dedi.

To‘ng‘ich botir:

— Xo‘p yaxshi aytasiz, lekin bizlar podshoh bolasi emasmiz. Otamiz boy ham emas. Sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo‘l kuchi bilan tarbiya qilinganmiz. Elimiz bir bo‘lsa ham, tarbiyamiz boshqa. Qanday bo‘lar ekan? — dedi.

Podshoh:

— Men bir iqlimning podshohiman, sizni otangiz qo‘l kuchi bilan tarbiya qilib, sizday botirlarning otasi bo‘lgan ekan, mendan nima kamligi bor? Haqiqatda, mendan ortiqdir. Tarbiyangiz orqasida jahon podshohlari oshiq bo‘lib yig‘lab yurgan qizlarning otasi sizga o‘z qizlarini yig‘lab tutadi, — dedi.

Bular qabul qildilar. Shaharda qirq kun to‘y-tomosha bo‘lib, botirlar podshoh qizlariga uylandilar. Qizlar yo‘qotgan tillalariga gavhar qo‘shib oldilar. Yaxshi tarbiyasi orqasida yigitlar baxt qushini qo‘lga kirgizdilar. Qizlar bilan botirlar ipak bo‘lib yechildilar.

Podshoh hamma kuyovidan kenja botirni yaxshi ko‘rar edi. Kunlardan bir kun podshoh bir salqin joyda uxlab yotgan edi, yonidagi ariqdan bir ilon chiqib, podshohga zahar solmoqchi bo‘lib turganda, to‘satdan kelib qolgan kenja botir uni ko‘rib, belidan qilichini chiqarib, chopib, ikki bo‘lib tashladi. Yana qilichini qiniga solib turganda, podshoh uyg‘onib qoldi. Dilida: „Qizimni berganimga qanoat qilmay, meni o‘ldirib, podshoh bo‘lmoq xayolida bor ekan“, deb shubha qildi. Vaziriga chiqib voqeani aytdi. Vazirning botirlarga adovati bo‘lib, qulay paytni kutib yurgan ekan, yaxshi bahona bo‘ldi.

Vazir podshohga aytdi:

— Shunday bebaho qizlaringizni, mendan bir maslahat so‘ramay, yaxshi tarbiya ko‘rgan deb, musofirlarga berib qo‘ydingiz, endi mana, uchidan sizga ko‘rsatdi. Endi yaxshi deb, sevgan kuyovingiz sizni o‘ldirmoqchi bo‘lgan ekan. Yana bir kuni boshqacharoq hiyla bilan sizni o‘ldirib qo‘yar, — dedi. Podshoh vazirning so‘ziga ishonib:

— Zindonga solinsin! —deb buyurdi.

Kenja botirni zindonga soldilar. Kenja botirning qallig‘i juda xafa bo‘ldi. U botirni nihoyatda yaxshi ko‘rar edi. Yig‘lab-yig‘lab kelinchakning yuzlari so‘la boshladi.

Bir kuni qiz otasining oyog‘iga boshini qo‘yib yig‘lab, qallig‘ini so‘radi. Podshoh qizining yuzidan o‘tolmay, kenja botirni zindondan oldirib keldi. Qallig‘i juda sog‘inganidan yorini quchoqlab, yuzlaridan o‘pib, qo‘lini yelkasiga tashlab yig‘lab turar ekan, podshoh kenja botirga qarab:

— Botir, siz shunday vafosizmisiz? Ko‘ryapsizmi, mening qizim sizga qanday mehribon. Shu qizimni ham rioya qilmay, qay ko‘ngil bilan meni o‘ldirmoqchi bo‘ldingiz? — dedi.

Kenja botir, podshohga qarab bir hikoya aytdi:

Hikoya

Bir zamonda bir podshoh bor ekan, uning yaxshi ko‘rgan bir to‘tisi bor ekan. Podshoh to‘tisini shunday yaxshi ko‘rar ekanki, bir soat ko‘rmasa turolmas ekan. To‘ti ham podshohga juda mehribon bo‘lib, har turli shirin so‘zlar aytib, xursand qilar ekan. Bir kuni to‘ti podshohdan so‘rabdi:

— Mening Hindiston degan yurtda ota-onam, aka-ukam, opa-singillarim bor, falakning gardishi bilan sizning dargohingizga kelib qolgan edim. Shukrlar bo‘lsin, aqlim, idrokim, yaxshi xulqim, shirin

so‘zim orqasida sizday podshohga hamnishin bo‘ldim. Endi so‘raymanki, meni qafasdan bir bo‘shatib, yigirma kun javob bersangiz, olti kun borishim, olti kun kelishimga ketsa, bir hafta ota-onam, ukalarimni ko‘rib to‘ymog‘im uchun ketar.

Podshoh:

— Yo‘q, senga javob bersam, yana kelmay qolsang, men sog‘inaman, juda xafa bo‘laman, — debdi.

To‘ti:

— Yo‘q, podshohim, sizning menga ko‘rsatgan iltifotingiz meni noma’qul yo‘lga yubormaydi, qanday bo‘lsa ham va’da degan ulug‘ narsa bor, buzish yaramaydi. Va’dani buzmoq — yomon narsa. So‘z beraman, so‘zimda turaman, — debdi.

— Xo‘p bo‘lmasa, agar va’dangda tursang, ikki haftaga ruxsat beraman, — debdi podshoh.

— Xayr, endi qanday bo‘lsa ham chiqay, — deb to‘ti o‘n besh kunga ruxsat olibdi. Devorga qo‘nib turib xayrlashibdi. Janub tomonga qarab uchib ketibdi. Podshoh orqasidan qarab qolibdi. Podshoh to‘tining qaytib kelishiga ishonmas ekan.

To‘ti olti kun deganda Hindiston degan mamlakatga borib, ota-onalarining oldiga yetibdi. Bechora to‘ti juda xursand bo‘lib, tog‘dan-tog‘ga, bog‘dan-bog‘ga, daraxtdan-daraxtga, shoxdan-shoxga sakrab, uchib, o‘ynab-kulib, ota-onasining diydoriga to‘ydi, qarindosh-urug‘iga mehmon bo‘lib, uch kunni qanday o‘tkazganini bilmay qoldi. Ertasi yana qafas tomonga, tutqunlikka uchmog‘i kerak ekan. Ota-onalari, aka-ukalaridan ajramoq juda og‘ir bo‘libdi. Bir tarafda va’da bor, va’daga vafosizlik xavfi turadi. Bechora to‘tining quvonchi tugabdi. Shodligi g‘amga almashibdi. Qanotlari so‘libdi. Ikkinchi qaytib kelish yo bor, yo yo‘q. Qarindosh-urug‘ bir joyga to‘planibdilar. Hammasining ko‘zi g‘amli to‘tida ekan. Qanday bo‘lsa ham qaytmaslik maslahatini berishibdi. To‘ti aytibdi:

— Yo‘q, yana qaytmoq uchun va’da berganman, va’daga vafo qilmasam bo‘ladimi?!

Bir to‘ti aytibdi:

— Va’da bergan podshohingda insof bo‘lsa, seni uch yil qamoqda saqlab, faqat ikki haftaga javob berarmidi? Seni sevar ekan, seviklisini qafasda tutmoq yarashadimi? Dunyoga qafasda turmoq uchun keldingmi? Bir kishining xushvaqtligi uchun erkinlikni qo‘ldan berma! Podshoh deganning marhamatidan qahri ortiqdir, podshoh bilan sherga yaqin bo‘lmoq hikmatdan emasdir.

Podshohning to‘tisi aytibdi:

— Menga bir yo‘l ko‘rsating, men ham erkinlikka chiqay, ham va’da yolg‘on bo‘lmasin.

Ona to‘ti aytibdi:

— Shunday bo‘lsa, men bir maslahat beraman. Bizning joyda bir daraxtnnng mevasi bor, har kim bir donasini yesa, qari chol bo‘lsa, yigitlik holiga qaytur. Kampir yesa, qiz kabi yosh holiga kelur. Podshohga shundan uch donasini olib borgin, bu bebaho mevani berib, o‘zingning butunlay ozod etilishingni so‘ra, shoyad insofga kelib, butunlay ozod etsa, — debdi. Bu gap ma’qul tushibdi. Shu choqda uch dona meva olib kelibdilar. To‘ti uni changalida mahkam ushlab xayrlashib, shimol tomonga qarab uchibdi. Zo‘r umid bilan orqasidan qarab qolibdilar.

To‘ti olti kun deganda podshohning saroyiga yetib kelibdi. Podshoh bilan ko‘rishib, olib kelgan tortiqni unga beribdi, xosiyatlarini birma-bir aytibdi. Podshoh juda xursand bo‘libdi. Ozod qilmoqqa va’da beribdi. Bir donasini xotiniga berib, ikki donasini vaziriga ko‘rsatmoq uchun bir piyolaga solib qo‘yibdi. Ertasiga vazirga ko‘rsatib, xosiyatlarini aytibdi. Vazirning bunga hasadi kelibdi. Ichida xafa bo‘libdi. Ishni boshqacha yo‘lga burmoqni ixtiyor qilibdi:

— Siz bu parrandaning olib kelgan narsasini yemay turing, oldin bir tajriba qilib ko‘raylik, durust bo‘lsa yemoq qochmaydi, — debdi. Bu gap podshohga ma’qul tushibdi, vazir vaqtini topib, piyoladagi ikki dona yoshartiruv mevasiga o‘tkir zahar aralashtirib qo‘yibdi. Bir kundan keyin vazir aytibdi:

— Endi yoshartiruv mevasini bir tajriba qilaylik.

Buning uchun qamoqxonadan ikki nafar odamni olib chiqib yediribdilar. Bu ikki odam shu choqdayoq o‘libdi.

Vazir aytibdi:

— Agar siz yesangiz nima bo‘lar edingiz?

— Men ham o‘lar edim, — debdi podshoh. Bechora to‘tini qafasdan sudrab olib chiqib, kallasini tanasidan uzib tashlabdilar.

Bir kuni bir odamni, podshoh g‘azab qilib, o‘ldirmoqchi bo‘libdi. Bu kishi keksa ekan. Qolgan bir dona mevani yemoqqa buyuribdi. Bu odam yegan ekan, oqargan sochlari tushib ketibdi, tishlari butunlanib, ko‘zlarining nuri ortib, yigirma yashar yigit holiga kelib qolibdi. Podshoh vazirdan shubhalanib, piyolani olib kelib qaragan ekan, zahar qo‘shil-ganligi bilinibdi. Podshoh vazirni ham o‘ldirib yuboribdi. Bechora

to‘tining begunoh o‘lganiga podshoh qayg‘uribdi, lekin ish o‘tgan ekan. To‘ti podshohga yaqin bo‘lganining „mukofoti“nigina ko‘ribdi.

— Endi men o‘zimning qilgan yaxshiligimni aytay, — deb ariqdan chiqqan ilon voqeasini aytdi. O‘sha joydan ikki bo‘linib yotgan ilon tanasini olib kelib ko‘rsatdi. Podshoh qilgan ishiga pushaymon bo‘ldi. Kenja botirdan uzr so‘radi.

Kenja botir aytdi:

— Taqsir, endi bizga ruxsat bersangiz, bizlar o‘z yurtimizga qaytsak.

Podshoh yalinib-yolborib, qolmoqlarini so‘rabdi.

— Biz saroy kishisi bo‘lolmaymiz. Biz mehnat bilan, kasb bilan yashaymiz, — debdilar.

Podshoh:

— Bo‘lmasa, qizlarim qolsinlar, — degan ekan, qizlari:

— Biz yorlarimizdan ajralmaymiz, ruxsat bersangiz, biz ham ular bilan birga ketsak. Sizni ko‘rgani har yilda kelib turamiz, — debdilar.

Podshoh hayron bo‘lib, nochor ruxsat berdi. Butun narsalarini yig‘ishtirib, safarga chiqdilar. Botir yigitlar o‘z xotinlari bilan birga ikki yil deganda, otalarining oldiga olti kishi bo‘lib keldilar. Otasi ham uch bo‘lak hovli, bog‘ tayyorlab qo‘ygan edi. Kelib har birlari tayinlangan joyga tushdilar. Botirlar otalari bilan quchoqlashib ko‘rishib, xotinlarini tanishtirdilar. Ular rohatda yashab, murod-maqsadlariga yetdilar.



Tohir va Zuhra

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda bir podshoh bor ekan. Lekin uning farzandi yo‘q ekan.

Kunlardan bir kun o‘ylab, xafa bo‘lib o‘tirsa, o‘ng qo‘l vaziri so‘rabdi:

— E, podshohi olam, nega xafasiz? Davlatingiz bor. Hamma fuqaro sizning ixtiyoringizda bo‘lgandan keyin, buncha xafagarchilikning nima keragi bor?

— Men shuncha davlat-saltanatga ega bo‘lsam-u, — debdi podshoh, — xizmatimga shuncha odamlar tayyor tursa-yu, dunyodan farzandsiz o‘tsam, men xafa bo‘lmay, kim xafa bo‘lsin? Farzand bo‘lmagandan keyin bu podshohlik va davlatning nima keragi bor?

O‘zining befarzandligini eslab vazir ham „oh“ tortibdi. Podshohga ahvolini bayon qilibdi. Ikkalasi xafa bo‘lib, yig‘lab, bir uyga kirib dardlashib yotibdi. So‘ngra ikkisi befarzand bo‘lib dunyoda yurgandan ko‘ra, davlat va izzat-ikromdan kechib, bosh olib ketishni ortiqroq ko‘ribdi. Podshoh bilan vazir butun mol-dunyoning bahridan o‘tib, shahardan chiqib ketishibdi. Yo‘l yura-yura ular oxiri bir bog‘ga yetishibdi. Ammo unga kirishga iloj bo‘lmabdi. Bog‘da gullar ochilgan, ko‘m-ko‘k maysalar yoyilgan, bulbullar, turli qushlar sayragan. Rayhon, jambil va boshqa xushbo‘y giyohlar gurkirab turarkan. Suvlar sepilgan. Supada gilamlar yozilgan, ko‘rpachalar solingan, yostiqlar qo‘yilgan emish. Bu bog‘ juda

chiroyli ekan, ko‘rgan odamning bahr-dili ochilib, g‘am-hasrati, qayg‘u alamlari ketar ekan. Bog‘ ichi jimjit, hech kim yo‘q ekan.

Ikkovlari bog‘ga kiribdilar va hayron bo‘lib, bir-birlariga qarab o‘tiribdilar. Bog‘ning bir burchagidan bir chol chiqib kelibdi:

— Ha bolalarim, nima qilib o‘tiribsizlar? — deb so‘rabdi.

Bular darhol o‘rinlaridan turib, salom beribdilar. Podshoh bilan vazir bir-birlariga qarab qo‘yishibdi va befarzand ekanliklari, shu sababdan xafa bo‘lib, mol-dunyodan kechib, shu joyga kelganliklarini gapiribdilar.

Chol bularning so‘zini obdan tinglabdi. Keyin qo‘ynidan ikkita qizil olma chiqarib, birini podshohga, birini vazirga uzatib, bunday debdi:

— Bolalarim, bu olmalarni olib borib sevgan xotiningiz bilan baham ko‘ringlar, o‘z ishlaringizdan qolmanglar, fuqaroga jabr-zulm qilmay, yurtni obod saqlanglar.

Keyin ularga bir shart qo‘yibdi:

— Men olmani sizlarga shu shart bilan berdimki, qaysi biringizning xotiningiz o‘g‘il tug‘sa, otini Tohir qo‘ying, qaysi biringizning xotiningiz qiz tug‘sa, otini Zuhra qo‘ying. Ammo ularni bir-biridan ajratmang. Katta bo‘lib voyaga yetganida quda bo‘linglar, esdan chiqarmanglar, — deb kelgan tomonga qarab ketibdi. Podshoh vazirga, vazir podshohga qarabdi. Ular o‘ylashib, keyin:

— Qani, cholning aytganini ham qilaylik-chi, bizdan nima ketdi, — deyishib, orqaga qaytishibdi.

Yana podshoh bilan vazir yurt so‘rashda davom etishibdi.

Kundan kun, oydan oy o‘tib vazirning xotini o‘g‘il, podshohning xotini qiz tug‘ibdi. Podshoh bilan vazir ovga chiqib ketishgan ekan. Darhol suyunchiga odam boribdi, u podshohga:

— Suyunchi bering, xotiningiz qiz tug‘di, — debdi, so‘ngra vazirga qarab:

— Suyunchi bering, sizning xotiningiz o‘g‘il tug‘di, — debdi.

Xotini qiz tug‘gani uchun podshoh g‘azablanib, xabarchiga buyuribdi:

— Bor, o‘sha qizni o‘ldirib, qoniga mana bu ro‘molchani bo‘yab keltir! —deb, bir oq ro‘molchani beribdi-yu, keyin qizning o‘ldirilgan, o‘ldirilmaganini so‘ramabdi.

Vazir bo‘lsa suyunib, ot choptirib ketibdi. Yo‘lda ketayotganida oti toshga qoqilibdi-yu, munkib ketibdi, vazir otidan yiqilib, til tortmay o‘libdi. Bu yomon qora kunlarga qolgan bechora xotin yig‘i-sig‘i qilib, ota yuzini ko‘rmay qolgan yetimchani yaxshilab tarbiyalashga kirishibdi. Kundan-kun, oydan-oy, yildan-yil o‘tibdi. Go‘daklar yo‘lga kiribdi. Kunlardan bir kun podshoh taxtida o‘tirgan ekan, ko‘chada o‘ynab yurgan Tohirga ko‘zi tushib, yonidagi vaziridan:

— Bu kimning bolasi, — deb so‘rabdi.

— Ey, podshohi olam, sultoni bokaram, bu bola avvalgi vaziringizning o‘g‘li Tohir bo‘ladi. Sizning ham qizingiz o‘lmaganda, shunday bo‘lib qolar edi, — debdi vazir.

Podshoh qattiq qayg‘uribdi va peshonasiga urib yig‘labdi. Shunda vazir darhol o‘rnidan turib podshoh xotinlaridan birini chaqirib so‘rabdi:

— Podshohning qizi tirikmi?

— Podshohim bilmasinlar. Qizchalari yo‘rtmachoq bo‘lib qolgan, bildirganimiz yo‘q hali, — debdi xotin.

Vazir yugurib kelib:

— Ey, podshohi olam, sultoni bokaram, bir qoshiq qonimdan kecching, sizga bir suyunchilik xabar aytaman, — debdi.

Podshoh yoshga to‘lgan ko‘zlari bilan vazirga qarab:

— Ayt, kechirdim, — debdi. Vazir:

— Yig‘lamang, podshohim, qizingiz hayot ekan, — debdi.

Podshoh suyunib:

— Olib keling qoshimga! Tezroq keltiring, hayallamang! — debdi.

Qizni olib kelib, podshohga ko‘rsatishibdi.

Podshoh suyunib, qizini qo‘liga olib bag‘riga bosibdi, quvonganidan yana yig‘lab yuboribdi. So‘ngra qirq kecha-yu, qirq kunduz to‘y-tomosha qilib beribdi.

Qizni yaxshilab tarbiyalay boshlabdilar. Tohir va Zuhra, ko‘pincha, birga o‘ynab yurar ekanlar.

Kunlardan bir kun Tohir yong‘oq o‘ynab yurganda, otgan yong‘og‘i ip yigirib o‘tirgan bir kampirning charxiga tegibdi. Kampirning achchig‘i kelib, Tohirni qarg‘abdi:

— E, shum yetimcha! Men bilan o‘ynashguncha, borib Zuhra bilan o‘ynash.

Tohir bu so‘zlarni eshitgach, yugurib kelib kampirning qo‘lidan ushlabdi:

— Buvijon, Zuhrani gapirdingiz. Tag‘in bir qaytarib ayting, jon buvi!

— Qo‘yvor qo‘limni, aytaman!

— Ayting, buvijon, ayting!

— Bu so‘zlarni oyingdan so‘ra.

— Onam aytmaydi, siz ayting, buvijon, — deb kampirning qo‘llarini qattiq qisib so‘rabdi Tohir.

Kampir gap o‘rgatibdi:

— Uyingga borib, oyingga yig‘la. Non bersa — olma, osh bersa — yema. Onang seni qarg‘ab urishadi. Hech narsaga qaramasdan yig‘layver.

„Nima qilay, nima qilib beray?“ deb so‘raganda: „Qo‘g‘irmoch qilib bering“ degin. Qo‘g‘irmochni kosada bersa — olma, cho‘michda bersa — olma, kapgirda bersa — olma. „Nimada beray?“ desa, „hovuchingda ber“ degin-da, hovuchida berganida qo‘lini mahkam qisib, „Menga unashilgan qiz kim, shuni aytib bergin“, degin. Shunda aytib beradi.

Tohir uyga yugurib kelib, kampir o‘rgatgan gaplarni aytib, oyisini ko‘p xafa qilibdi. Axiri oyisi qo‘g‘irmochni hovuchida beribdi. Tohir oyisining qo‘g‘irmoch ushlagan hovuchini qisib,

— Menga unashtirilgan qiz kim? Rostini aytib ber, — debdi.

Oyisi:

— Qurib ketgur yetimcha! Senga kim o‘rgatdi buni? Voy-voy, qo‘lim kuydi, — deb o‘g‘lini qarg‘abdi.

— Ayt, oyi, ayt! Aytmasang qo‘ymayman, — debdi Tohir.

— Qo‘yib yubor, aytaman, aytib bo‘lmasa ham aytaman, — debdi onasi.

Ona bechora xafa bo‘lib: „Endi yashirganim bilan foyda yo‘q, mayli, ayta qolay“, deb eri bilan podshohning quda bo‘lishga va’da qilganini, vazirning o‘g‘il ko‘rganidan suyunib, yo‘lda ketayotganida otdan yiqilib o‘lganigacha bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘g‘liga so‘zlab beribdi va:

— Sen yetimchasan, baribir podshoh senga qizini bermaydi. Zuhra podshoh qizi, sen — bir yetimcha kambag‘alsan, — debdi.

Tohir:

— Mayli, oyijon, bo‘ldi, men shuni bilsam, bas, — deb ko‘chaga chiqib ketibdi.

Kunlardan bir kuni maktabda Tohir bilan Zuhra so‘zlashib, kulishib, kitob o‘qimay, domlani qiynabdilar. Domla kelib bu voqeani podshohga aytibdi:

— Podshohi olam, sizga arzim shuki, qizingiz Zuhrani Tohir o‘qitgani qo‘ymaydi.

Shunda podshoh g‘azablanib:

— Tohirni bo‘lak joyga o‘tkazing, agar unga ko‘nmasa, o‘rtadan devor urib qo‘ying, — debdi. Ikkisining o‘rtasiga devor olibdilar.

Sal vaqtdan so‘ng devor buzilib, ikkovi tag‘in gaplashib o‘tiradigan bo‘libdi. Ular katta bo‘lib voyaga yetibdi. Ikkovi ham bir-birini ko‘rmasa turolmas ekan.

Ulamolar: „Podshoh Tohirni yo‘q qilsin“, debdilar.

Buni podshohga aytibdilar. Podshoh g‘azab bilan ustalarni chaqirib ularga bunday debdi:

— Katta bir sandiq yasanglar, Tohirni oqizaman!

Bu gapni Zuhra eshitib, bir lagan tillani ustalarga olib borib:

— Shu tillani olinglar, sandiq shunday puxta bo‘lsinki, ichiga suv o‘tmasin, toki bechora yetimcha borgan joyida kun ko‘rsin, — deb zor-zor yig‘labdi.

Ustalarning Zuhraga rahmi kelib:

— Ey, malika, agar sandiq siz aytgandan ortiq bo‘lmasa, bergan tillangizni qaytib oling, — debdilar.

Bir kuni Tohir bilan Zuhra ikkisi hasratlashib turganlarida ayg‘oqchilardan biri ko‘rib qolib, podshohga aytibdi.

Darhol podshoh Tohirni zindonga solishga buyuribdi. Tohirni zindonga solibdilar.

Kunlardan bir kun sandiq tayyor bo‘lganini podshohga aytibdilar. Buni Zuhra eshitib, sandiqni ko‘rib kelibdi. Sandiq Zuhra aytgandan ham ortiq ekan. Podshoh jarchi qo‘yib butun xalqni katta maydonga yig‘ibdi. Xalq Tohirni suvga oqizmaslikni talab qilibdi. Biroq podshoh xalqning talabiga quloq solmabdi, o‘z aytganini qilibdi.

Tohirni oqizish payti yetibdi, daryo labi xalq bilan to‘lib-toshibdi. Tohirning onasi g‘am-hasrat bilan daryo bo‘yiga zo‘rg‘a yetib borib, o‘g‘lini ko‘rib: „Yonida jon bersam koshki edi“, deb yig‘layverib hushidan ketibdi. Xalqning g‘azabi qaynabdi: „Podshoh bir qizi uchun bechora yetimchani bunchalik qiynab, azoblaguncha, bir joyga yuborsin, podshoh ham Tohirning onasi kabi qon-qon yig‘lasin. Ana zulm! Ana noinsoflik! Bir qiz uchun shuncha odamni yig‘ib, bir yigitni suvga oqizish jallodlikdir!“

Shu payt jarchi jar chaqirib:

— Hozir Tohirni olib keladilar! —debdi.

Hamma odam Tohir yo‘liga termilib turar ekan. Tohirning onasi bechora o‘g‘lini ko‘rishga zor bo‘lib, boshini tosh-u tuproqqa urib:

— Qani mening begunoh o‘g‘lim, uni bir ko‘ray, — deb faryod qilar ekan. Tohirning qo‘llarini orqasiga bog‘lab, onasi oldiga keltiribdilar. Ona bechora zor-zor yig‘lab, bolasini bag‘riga bosib turib o‘lib qolibdi. Maydonga yig‘ilgan xalq jim bo‘lib qolibdi. Birozdan keyin kimlar yig‘lagan, kimlar baqirgan holda Tohirni olib borib sandiqqa solibdilar. Tohir sandiq ichida Zuhra bilan xayrlashib, shu g‘azalni aytibdi:

T o h i r

Men ketaman ko‘rib qol,
Arg‘amchini ushlab qol.
Sog‘inganda yig‘larsan,
Qoram o‘chmay, qarab qol.



«Tohir va Zuhra» ertagiga ishlangan rasm

Z u h r a

Suv kelar guldur-guldur,
Suyganim qizil guldur,
Suyganimga bermasa,
O‘lganim o‘sha kundur.

T o h i r

Suv kelar axta-axta,
Sandig‘im temir-taxta.
Sendan boshqa yor qilsam,
Qon yutay laxta-laxta.

Z u h r a

Suv kelar tosh ustida,
Ro‘molim qosh ustida.
Tohir esimga tushsa,
Yig‘layman osh ustida.

T o h i r

Suv kelar injudayin,
Ko‘pirib-toshgan sayin.
Sendan o‘zga yor desam,
Xanjarga sanchilayin.

So‘ngra Tohir Zuhra bilan xayrlashib, oqib ketibdi. Hamma xalq g‘amginlik bilan shaharga qaytibdi. Zuhra Tohirdan ayrilib qolibdi.

Tohir suvda oqib-oqib olti oy deganda Xorazmga boribdi. Xorazm shohining ikki qizi bo‘lib, bular har juma kuni daryo labiga kanizlari bilan chiqar ekanlar.

Podshoh qizlari daryo labida o‘tirishsa, bir sandiq oqib kelaveribdi: „Kim ushlab oladi? Nima qilamiz?“ — deyishibdi.

Biri: „Oqib kelayotgan narsani kim ushlab olsa, u narsa o‘shaniki“, debdi.

Sandiq yaqinlashibdi. Katta qiz sochini solibdi, sandiq unga ilashmabdi. Kichigi sochini solibdi, sandiq unga ilashib, yaqin kelibdi. Qizlar sandiqni daryo labiga tortib chiqaribdilar. Endi opa-singil orasida janjal boshlanibdi. Uzoq janjaldan keyin, axiri bir maslahatga kelishibdi. Kattasi: „Sandiqni

men olaman“, debdi, kichkinasi: „Sandiq ichidan nima chiqsa, shuni men olaman“, debdi.

Sandiqni ochibdilar. Sandiq ichida bir yigit o‘tirgan emish, dunyoda uning tengi yo‘q emish. Sochi qop-qora, jingalak-jingalak. Qoshlari qop-qora, ko‘zlari shahlo, qaddi-qomati kelishgan ekan.

Qizlar uzoq janjallashibdi. Kichik qiz turib:

— Nimaga janjal qilasiz? Sandiq ichida nima bo‘lsa, uni men olaman, degan edim. Bu maniki bo‘ladi, hech kimga bermayman, — debdi.

Podshohga xabar qilibdilar. Podshoh odamlari bilan kelib ko‘rsa, chiroyli bir yigit emish. Podshoh kichik qizining aytganini qilish uchun Tohir rozilik bermasa ham, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha qilibdi. Qizning chiroyi ham Zuhraning chiroyidan qolishmas ekan.

Lekin Tohir Zuhraga bergan va’dasini eslab, qizga gapirmas, qizning savoliga javob ham bermas ekan.

Oradan bir necha kun o‘tgandan keyin Tohir:

— Men bugun daryo labiga chiqaman, otangizga ayting, — debdi.

Qiz o‘zida yo‘q sevinib, yugurib yangasining oldiga chiqib: „Kuyovingiz gapirdilar, suyunchi bering, suyunchi! Otamga aytinglar, kuyovlari daryo labiga chiqarmish“, debdi.

Podshoh bu xabarni eshitib juda suyunibdi, daryo labiga tezda sayil chaqirtiribdi. Butun shahar xalqi daryo labiga chiqibdi. Sayilgoh o‘rtasidan kuyovga joy qilibdilar.

Podshoh jarchi qo‘ydiribdi:

— Kimki kuyovimning kulganini ko‘rib yo eshitib menga xabar bersa, boshidan zar sochaman! — debdi. O‘zi ham kelibdi.

Endi so‘zni Zuhradan eshiting.

Zuhra Tohirdan ajralgandan keyin kecha-yu kunduz oh tortib, g‘am-hasrat chekaveribdi. Uni zolim otasi Qorabotir degan podshohvachchaga beribdi. Qiz g‘am-motam ichida qolibdi.

Kunlardan bir kun Zuhra tush ko‘rsa, Tohir bilan bog‘da yurgan emish. Oh urib o‘rnidan turibdi. Axiri, nima qilarini bilmay bir lagan tilla ko‘tarib, karvonsaroyga boribdi. Karvonboshiga tillani berib:

— Bir odam bo‘lsin, butun dunyoni axtarib, Tohirning bor-yo‘qligini menga bildirsin, — debdi.

Karvonboshi tillani olib, Tohirni axtargani yo‘lga chiqibdi. U Tohirni juda ko‘p axtaribdi, odamlar orasida Tohirga bag‘ishlab g‘azallar aytsa ham uni topolmabdi. Karvonboshi Zuhra oldidan chiqqaniga qirq kun

bo‘ldi deganda, Tohir chiqqan sayilgohga yetib kelibdi va daryo labidagi bir balandlikda kishilar to‘planganini, ularning o‘rtasida bir yigitning o‘tirganini ko‘ribdi.

— Shu joyda ham bir g‘azal aytay, zora Tohir shu yerda bo‘lsa, — deb bir g‘azal aytibdi:

Men keldim karvon bo‘lib,
Karvonga sarbon bo‘lib,
Tohirjonni yo‘qotib,
Yuribman hayron bo‘lib.

Bu g‘azalni eshitib, Tohir qah-qah urib kulib yuboribdi. Uni poylab yurgan odamlar podshohga suyunchiga yugurib ketibdilar. Boshqalar esa hayron bo‘lib qolibdi. Tohir karvonboshiga qarab bir g‘azal aytibdi:

E, tuya mingan yigit,
Orqangga qarab ketgin.
Hali aytgan baytingni,
Tag‘in bir aytib o‘tgin.

Karvonboshi:

Tohir degan senmisan,
Zuhrani tanirmisan?
Zuhradan xabar kelsa,
O‘rningdan turarmisan?

Tohir „Zuhra“ degan so‘zni eshitishi bilanoq, yugurib borib karvonboshi mingan tuyaning bo‘yniga osilibdi va:

— Meni olib ket, men ketaman, borib Zuhramni bir ko‘ray, — deb yolvoribdi. Karvonboshi so‘z boshlab:

— Zuhra erga tegib, uyda tinch o‘tiribdi, endi undan foyda yo‘q.

Bu yerda shuncha vaqt turding, uylangandirsan. Men yolg‘iz sening bor-yo‘qligingni bilib ketgani keldim, — debdi.

Shunda Tohir:

— Yo‘q, ketaman, olib ket meni, o‘lsam ham o‘sha joyda o‘lay, — deb yana yolvoribdi.

Karvonboshi shuncha nasihat qilsa ham, Tohir unamabdi, karvonboshiga:

— Bu yerda podshohning qizini men rozilik bermasam ham zo‘r bilan berdilar. Bugun qirq kundirki, hali ham qizga bir og‘iz gap aytganim yo‘q, yuziga ham qaraganim yo‘q, — debdi. Karvonboshi Tohirga:

— E, nodon, ketma, shu xotining bilan kun ko‘rib o‘taver, Zuhradan senga hech foyda yo‘q, — debdi.

Tohir unamabdi.

— Bo‘lmasa bor, umid bilan bir yostiqqa bosh qo‘yganing bilan xayr-ma’zur qilib chiq, — debdi karvonboshi.

Tohir xotini oldiga yugurib kelibdi, qiz yasanib o‘tirgan ekan. Unga qarab bir g‘azal aytibdi:

Ey podshohning qizi,
Hurmatim baland sizga.
Zuhradan keldi xabar,
Javob beringiz bizga.

Xadicha:

Suv kelar suzukmidi,
Qo‘limda uzukmidi?
Uzoqdagi Zuhraxon
Bizdanam tuzukmidi?!

Tohir

Suv kelar suzukkina,
Qo‘limda uzukkina.
Uzoqdagi Zuhraxon
Sizdan ham sulukkina, —

deb, Xadicha bilan xayrlashib, chiqib ketibdi. Kelin bechora yig‘laganicha qolibdi. Tohir yugurib borib, karvonga yetibdi, tuyaga mingashib, yo‘lga ravona bo‘libdi.

Karvon yurib-yurib bir joyga kelibdi. Bu joyda uch yo‘l bor ekan. Biri „borsa kelmas“, biri „borsa xatar“, yana biri „borsa kelar“ ekan. Karvonboshi qaysi yo‘lga yurishni bilmay, o‘ylab qolibdi.

Tohir:

— Xatarli bo‘lsa ham shunga yuramiz, mayli Zuhra qoshiga tezroq boraylik, — debdi. Shu bilan ular xatarli yo‘lga yurib ketibdilar.

Yurib-yurib bir joyga yetibdilar. Bu joy qaroqchilar makoni ekan. Qaroqchilar bu bechoralarning tuyalarini olib, o‘zlarini zindonga solibdilar.

Tohir zindonda yig‘lab-yig‘lab: „Kel-e, zora shu joyda bir tanish bo‘lsa, bizni bo‘shatib yuborsa“, — deb bir g‘azal aytibdi:

Yursam yo‘lim uzundir,
Kecha menga kunduzdir.
Bizni qo‘ying, jon beklar,
Zuhra unda yolg‘izdir.

Tohirning hammaktab o‘rtoqlaridan biri shu yerda ekan, u Tohirga:

— Ha, Tohir, haliyam Zuhraning ko‘yida kuylab yuribsanmi, a? — debdi. Keyin zindonbonni chaqirib, unga bir hovuch tilla berib:

— Buni qo‘yib yuboringlar, bu o‘zi kuygan qul, buni kuydirib nima qilasizlar, — debdi. Shu bilan Tohirni va u bilan kelayotganlarni zindondan bo‘shatib yuboribdilar.

Bular bir necha kun cho‘l-biyobonlarni kezishibdi. Zuhra dardida yurak-bag‘ri ezilib yurgan Tohir sahar vaqtida Zuhra yotgan uy tagiga yetib kelibdi. Bu paytda Zuhra shirin uyquda ekan.

Tohir g‘azal o‘qib, Zuhrani uyg‘otibdi. Zuhra Tohirni ko‘rishi bilan yugura kelib ko‘rishibdi. So‘ngra ikkovlari yashirincha bog‘ga kirib ketibdilar. Bu voqeadan Qorabotirning singlisi xabardor bo‘lib turgan ekan.

Qorabotir kelganda Zuhra uyda yo‘q ekan, u singlisidan: „Zuhra qayerga ketdi?“ deb so‘rabdi. Singlisi javob beribdi:

— Bugun saharda Tohir keldi, yangam u bilan bog‘ga kirib ketgan.

Qorabotir bu gapni eshitib g‘azablanibdi va podshohga borib Zuhrani chaqibdi. Podshoh tezda Tohirni tuttirib kelib, qamabdi. Ulamolarning bergan maslahati bilan podshoh:

— Tohirni ikki nimta qilib darvozaga osaman! Uni o‘ldirmasam, qizimni qo‘ymas ekan, — debdi.

Shu gapdan so‘ng podshoh yana jarchi qo‘yib, shahar xalqini chaqirtiribdi. Maydonga katta-kichik, xotin-xalaj yig‘ilibdi. Zuhra bilan Tohirning qarindosh-urug‘lari ham kelishibdi. Xalq orasida ivir-shivir gaplar tarqabdi. Odamlardan biri:

— Tohir nima uchun qaytib kelgan ekan? — deb so‘rabdi ikkinchi bir odamdan. Unisi aytibdi:

— Tohirni bu yerga keltirgan narsa — uning Zuhraga bo‘lgan muhabbatidir. Shuning uchun bechora yigitni o‘ldirish kerakmi, qonxo‘r podshohga ming la’nat!

Jallodlar Tohirning ko‘zlarini bog‘lab, maydon o‘rtasiga olib kelib, qilichlarini qayrabdilar.

Zuhra bechora esa zolim otasiga yolvoribdi. Otasi quloq solmabdi. Zuhra o‘z sevganini jallod oldida ko‘rib, hushidan ketib yiqilibdi. Jallod o‘tkir qilichini havoda yarqiratib, zarb bilan Tohir tanasini ikkiga bo‘lib tashlabdi, so‘ng darvozaga osibdi. Hamma yoqni odamlarning dod-faryodi, yig‘isi bosib ketibdi. Tohirning xolasi qattiq oh tortib, podshohga qarab shu g‘azalni aytibdi:

Qonxo‘r jallod qo‘lida,
Tilla qilich qayraldi.
Tilla qilich damlari
Qora qonga bo‘yaldi.

Bu havo havomidi?
Qor-yomg‘ir yog‘armidi!
Qiz uchun yigit o‘lmoq
Shahringda davomidi?

Shundan so‘ng Zuhra boshini ko‘tarib, bir g‘azal aytibdi:

Qator-qator tuyalar
Qatorlashib o‘tdilar.
Xon otamiz davrida
Tohir go‘shtin sotdilar.

Tohir go‘shti go‘sht emas,
Qo‘y go‘shtiga o‘xshamas.
Tohirjonni o‘ldirgan
Bu dunyoda yashamas.

— Buni ko‘minglar! — deb buyruq qilibdi podshoh. Odamlar Tohirni ikki nimta qilib darvozaga osilgan joyidan darhol olib, go‘rga ko‘mibdilar.

Zuhra sevikli yori Tohirning ta’ziyasini bajo keltirish uchun qora kiyib, qirq kungacha motam tutibdi.

Zuhra: „Bugun Tohirning o‘lganiga qirq kun bo‘ldi, otam menga javob bersin, qizlar bilan borib, qabrini ko‘rib kelayin“, debdi.

Otasi ko‘p qiyinlik bilan ruxsat beribdi. Zuhra ikki cho‘ntagiga marvarid to‘ldirib, qo‘liga oshpichoq olib, Tohir ko‘milgan qabristonga jo‘nabdi. Qirq kaniz uni kuzatib boribdi. Yo‘lda Zuhra kanizlariga qarab bir g‘azal o‘qibdi.

Qizlar, tez yuguraylik,
Tohirjonga yetaylik.
Tohirjonga yetganda,
Marvaridlar sochaylik, —

deb cho‘ntagidan marvarid olib sochib yuboribdi. Qizlar marvaridga ovora bo‘lib o‘sha yerda qolibdi, Zuhra esa qabrga yetmoq uchun shoshilibdi.

Marvarid sochish, g‘azal aytish to qabristonga borguncha uch-to‘rt marta qaytarilibdi. Axiri qabristonga yaqinlashganda Zuhra bor marvaridini sochib, o‘zi yugurganicha ilgari ketibdi. Qizlar orqada qolibdi.

Zuhra Tohirjon qabriga yetibdi.

Boshidan paranjisini irg‘itib tashlab, oshpichoq bilan peshonasiga bir urib: „Ochil, go‘r!“ debdi.

Go‘r ochilibdi. Zuhra, go‘r ichida gul kabi ochilib, qosh-ko‘zlari mavj urib yotgan Tohirning quchog‘iga otilibdi. Go‘r yopilibdi.

Qizlar marvaridni terib yurib, Zuhrani yo‘qotib qo‘yishibdi. Biroq Zuhraning paranjisi, kavushi va bir qonli oshpichoq yerda yotgan ekan. Qizlar har tomonga yugurib Zuhrani chaqirishibdi, hech kim tovush bermabdi. Bu voqea shaharga tarqalibdi. Podshoh va Qorabotir, uning singlisi va Tohirning xolasi mozorga kelishibdi. Tohirning go‘riga qarabdilar. Zuhraning soch piligi go‘rga qisilib qolganini ko‘rib, go‘rni ochibdilar. Qarasalar, ikki oshiq-ma’shuq qizil guldek qizarib, qosh-ko‘zlari suzilib, yonma-yon yotishgan emish. Ularni ko‘rgan kishi shirin uyquda yotibdi, deb xayol qilar ekan.

Bu holni ko‘rgan Qorabotir: „Zuhradan ajralib men nima qilay“, deb o‘zini shu joyda o‘ldiribdi. Qorabotirni Tohir bilan Zuhraning o‘rtasiga qo‘yibdilar, zolim Qorabotir ikki oshiq-ma’shuqni o‘lganida ham tinch qo‘ymabdi. Tohir ustidan qizil gul, Zuhra ustidan oq gul, ular o‘rtasida yotgan Qorabotir ustidan esa qora tikan o‘sib chiqibdi. Gullar o‘sib, tikanlar ham baland ko‘tarilib, bir-biri bilan chirmashib ketibdi.



Rustamzod va Sherzod

Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan. Qadim zamonlarda bir mamlakatda bir kambag‘al bor ekan. U kambag‘alning ikkita o‘g‘li bor ekan. O‘g‘illaridan birining oti Rustamzod va birining oti Sherzod ekan. Ularning onalari o‘lgan ekan. Bu kambag‘al bobo mardikor ishlab, bu bolalarni o‘qitib, parvarish qilib yurar ekan. Shu mahallada bir ayol bo‘lib, bu ayolning eri ham o‘lgan ekan. Shu ayol boboni o‘ziga er qilib olibdi. Bir kuni ayol boboga aytibdiki:

— Siz bunday mardikorchilik qilib yurishingizda biz o‘z ro‘zg‘orimizni to‘g‘rilab ololmaymiz. Yaxshisi, kechasi ko‘chaga chiqib o‘tirsangiz, qaroqchilar o‘tadilar, shularga ergashib borsangiz, bir narsa ajratib beradilar. Mardikorchilikda bir oy ishlagan narsangizni bir kechada topib kelasiz.

Xotinining bu so‘zi boboga ma’qul tushibdi. Bobo kechasi xotini aniqlab bergan yo‘lning bir chekkasiga borib o‘tiribdi. Darhaqiqat, shu yo‘l qaroqchilarning yo‘li ekan. Bobo kechani yarim qilib o‘tirgan edi, qaroqchilar kela boshladilar. Boboni ko‘ra solib „ovimiz baror oldi“, deb uni o‘rab, talamoqchi bo‘ldilar. Qarasalar bir janda chopondan boshqa hech narsasi yo‘q ekan. Hol-ahvol so‘radilar. Bobo: „Bir necha yillardan beri sizlar bilan qo‘shilishni orzu qilar edim. Endi maqsadimga yetdim. Xohlanglar qo‘shib olinglar, xohlanglar boshqa bir chora ko‘ringlar — ixtiyor sizlarda“, dedi. O‘g‘riboshi birpas o‘ylab, o‘g‘rilarga:

— Mayli, olib yuringlar, qayerga tushsak tushgan yerimizga posbon bo‘lib turadi, — dedi. Qaroqchilar boboni o‘zlari bilan olib ketdilar.

— Bir necha fursat yo‘l yurib, bir qorong‘i o‘rmon ichiga kirdilar. Qarasalarki, yerto‘lalar, ot yotadigan joylar tayyor turibdi. Boboga: „Ey, ota, shu makonda to biz kelguncha choyni qaynatib, oshlarni muhayyo qilib, bemalol, qo‘rqmasdan o‘tiravering, biz kelgach, sizning dimog‘ingizni chog‘ qilamiz“, deb o‘g‘rilar jo‘nab ketaverdilar. Haligi bobo choy va oshga o‘t yoqib biroz fursat o‘tgandan keyin, qaroqchilarning ketidan ohista-ohista boraverdi. Qaroqchilar yo‘l yurib bir necha vaqtdan so‘ng bir qishloqqa kirdilar. Qishloq chekkasidagi bir joyga otlarini bog‘lab, o‘zlari qishloq ichiga oralab ketdilar. Shu qishloq ichida bir boy kampir bor edi. Kampirning kasbi-kamoloti doimo bahshilik va qoqinchilik qilish edi. Bu kampir ko‘p badavlat edi. Qaroqchilar shu kampirning uyiga kirdilar. Mol-dunyolarni qirq qop qilib yukladilar. Bular yuklarni orqalashib turaversinlar, endigi gapni bobodan so‘rang. Bobo ham bularning ketidan poylab shu kampirning uyiga kirgandan so‘ng u yoq-bu yoqqa qaradi-yu, haligi kampirning doirasiga ko‘zi tushdi. Keyin doirani olib, bir kamgak joyga kirib oldi, doirani to‘xtovsiz chala boshladi. Kampir o‘z choli bilan qattiq uyquda yotgan edi. Bir vaqt chol doiraning ovozidan uyg‘onib qarasaki, doira maqomiga kelib „gumbang, gumbang“ qilib chalinib turibdi. Chol kampirning parilari kelib doirani chalyapti deb o‘yladi. Kampirni uyg‘otib: „Hoy, kampir, sening parilaring meni kechasi uyquda ham tinch qo‘ymaydi. Tur, borib qaragin“, dedi. Kampir turib qarasaki, ko‘p kishilar uyini g‘orat qilib, mol-mulklarini orqalab turibdilar. Kampir „dod“ deb chapak chala boshlagan edi, chol ham „dod-faryod“ qila boshladi. Ularning ovoziga qishloq xalqi yig‘ilib kelib, o‘g‘rilar qo‘lidagi barcha mollarini tortib olib qoldilar. O‘g‘rilar sarosima bo‘lib, otlarini minib qochib ketaverdilar. Qishloq odamlari yig‘ilib qarasalar, haligi bobo doirani hamon chalib yotibdi.

Qishloq xalqidan biri boboni kamgakdan tortib chiqarib: „Sen odamzodmisan yoki parizodmisan?“ degach, bobo:

— Men odamzodman, — dedi.

— Odamzod bo‘lsang hamma yig‘i-sig‘i qilib, xafa bo‘lib turibdi, sen bo‘lsang, doimiy shodlik qilib turibsan, nima sababdan doirani to‘xtovsiz chalaverasan? — dedilar. Bobo aytdiki:

— Mening doira chalishimga sabab shuki, qaroqchi-o‘g‘rilar sizlarning mol-dunyolaringizni shipirma-shaqshul qilib ko‘tarib ketadigan vaqtida, men shu xayolni o‘ylab, sizlarni ogohlantirdim. Endi sizlardan talabim shuki, mening xizmatimga yarasha quruq qo‘ymangizlar, bir nima berib, rozi qilib yuborsangizlar.

Cholning bu gapi qishloq xalqiga ma'qul tushdi, ular kampirga aytdilarki, haqiqatan ham bu bobo sizning mollaringizni saqlab qolishda katta xizmat qilgan ekan. Bir nima berib, cholni rozi qiling. Shunda kampir bobodan xursand bo'lib, unga minnatdorchilik izhor qildi. Kampirning bir ko'zachasi bor edi; shu ko'zachani boboga taqdim qildi. Bu ko'zacha tilla va tangalar bilan to'latilgan edi.

Bular bu yerda tursinlar. Bobo ko'zachani olganicha, chopib o'g'rilar ko'rsatgan joyga kelib, osh va choylarni pishirib, hech nima ko'rmagandek bo'lib turdi. Haligi ko'zachani esa, ichidagi g'animatlarini olib, o'zi ketadigan yo'lning bir chekkasiga ko'mib, ustiga nishona yasab qo'ydi. Bobo ichida: „Qachon o'g'rilardan xafa bo'lib, zerikadigan bo'lsam, albatta shu tillalarni olib ketaman", deb o'yladi.

Shu vaqt o'g'rilar haligi qishloqdan qaytib, boshqa tomonlarga borib ov ovlab, g'animat qidirib yurar edilar. Oxiri bir joyga bordilar, qarasalar baland paxsalar bilan o'ralgan bir boyning chorbog'i ko'rindi. Qo'rg'on atrofidan aylanib qarasalar chorbog'ga kirishning iloji yo'q. Chorbog'ning bir chekkasida bir baland daraxt ko'rdilar. Shu daraxtning ustida bir qancha qushlar yotibdilar. Qaroqchilardan biri o'q-yoyini olib, qushlar to'dasiga qarab o'q uzdi. O'q bir qushga tegib, u daraxtdan yiqilib tushdi. O'g'rilar haligi qushni ushlab, xurjunga solib, boboga poylatib ketgan makonlariga keldilar. Ovlari baror olmagan o'g'rilar juda och va charchab kelgan edilar. O'g'rilarning boshlig'i boboga qarab, do'q urib:

— Sen shumqadam bo'lding. Bizning ishimiz hamma vaqt rivojli bo'lar edi. Qancha-qancha g'animatlarga ega bo'lib kelar edik. Qachonki sen bilan birga keldik, ishimiz rivoj topmadi, — dedi.

O'g'rilar chol tayyorlagan ovqatlarni yeb, burchak-burchakda tirishib uxlab qoldilar. Ertasi choshgoh bo'ldi, o'g'rilar o'rinlaridan turdilar. Bir vaqt qarasalarki, haligi bobo choylarni qaynatib, oshlarni pishirib turibdi. Yana xursand bo'lishib, ovqatlarini yeyishib, salla-kallalarini o'rab, shahar ichiga mehmondorchilikka ketishdi. O'g'rilar, odatda, kunduzi hamisha sallakalon bo'lib, shayx bo'lib, xalqning ko'ziga mard-boobro' bo'lib yurar edilar. Ammo kechasi o'g'rilikni kanda qilmas edilar.

Bu kecha ham o'g'rilar o'z makonlariga yig'ilishib keldilar. „Bugun falon qishloqda bir tegirmon bor, shunga bosib boramiz", dedilar.

Ketish oldida boboga kechagidek, choy qaynatib, osh pishirib turishni buyurdilar. Bobo choy va oshga olov yoqib, asta-sekin o'g'rilar orqasidan yo'lga tushdi. O'g'rilar mo'ljal qilgan tegirmonga yetib bordilar. Tegirmonning egasi qulflab ketgan ekan. O'g'rilar tegirmon eshigi turmini buzib ochdilar, tegirmonda bor bo'lgan hamma don va

unlarni qirqta otga ortdilar. Shu paytda chol tegirmonga yetib keldi va tegirmonchining bir karnayini topib, bir pana joyni tanlab olib, karnayni chalaverdi. Buning ovoziga qishloq xalqi uyg'onib, tegirmon tomonga oqa boshladi. Ular bir voqea bo'lganidan xabardor bo'lib, qorakaltak ko'tarib kelgan edilar. Xalq o'g'rilarni ko'rib qoldi va ular otlarga yuklab turgan don va unlarni olib o'g'rilarni kaltaklab, jo'natib yubordilar. Shunda hamon bobo bir pana joyda karnay chalish bilan ovora edi. Odamlar uni topib: „Hamma o'z tashvishi bilan-ku, sen bu vaqtda bema'ni ishlar qilib karnay chalib turibsan", deb koyidilar. Shunda bobo bechora:

— Hay birodarlar, shu qilgan ishimni taroziga tortib ko'ringlar-chi, sizlarning suyaklaringizga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi? Agar to'g'ri kelsa, siz yaxshilik alomatini qanday deb tushunasizlar. Agar to'g'ri kelmasa, nima desalaringiz men tayyor, — dedi.

Xalqlar o'ylab ko'rsa, boboning qilgan ishi haqiqatan ham katta yaxshilik ekan. Shunda odamlar tegirmonchiga:

— Haqiqatan ham bobo sening davlatingni saqlab qolishga sababchi bo'ldi. Qudrating yetganicha shu boboyni rozi qilib, bir nima berib yubor! —dedilar. Boboga tegirmonchi bir qancha javohirlarni berib, rozi qildi. Bobo g'animatlarni olib, chopganicha o'g'rilar makoniga keldi. O'g'rilar boshqa tomonlarga borsalar ham, ovlari baror topmay itdek g'ingshib kelib qoldilar. Bobo bularning kelayotganini kuzatib turgan edi. O'g'rilar bu kecha bir-birlari bilan ahdlashib, „Borsak shu boboning kallasini kesib tashlaymiz, chunki u kelgandan beri ovimiz baror olmaydi. Bilmaymiz, ketimizdan shu bobo borib xabar berar ekanmi?" deb maslahatlashib kelar edilar. Bu gaplarni chol eshitib turgan edi. U vaqtni g'animat topib, qochishga chog'landi. Chol kecha o'g'rilar ovlab kelgan qushni oldi. Keyin yugurib borib, kechagi nishona qilib ketgan g'animatlarni oldi. Ularning hammasini jandasiga o'raganicha chopa-chopa uyiga yetib keldi. Darvozani taqillatdi, kampir chopib chiqib darvozani ochdi. Chol ichkariga kirgach, haligi g'animatlarni kampirga berdi. Kampirning sevinchi ichiga sig'may qoldi. Chunki kampir umrida bunday boylikni ko'rmagan edi. Chol topib kelgan dunyoni yetti yilgacha xarajat qilib yedilar.

Kunlardan bir kun bobo bozorga bormoqchi bo'ldi. Kampirdan bozor xarjini so'radi. Kampir sandiqni ochsa, sandiqda hech narsa qolmabdi. Lekin shu yetti yil ichida haligi qush, har yili bir martadan, yetti marta tuxum qilibdi. Bu tuxumlar haqiqiy tuxummi yoki toshmi, nimaligini bilmasdan sir tutib, tuxumlarni sandiqda saqlagan edilar. Pulga zor bo'lib, haligi tuxumdan bozorga olib borib sotadigan bo'lib

qoldilar. Bobo bir tuxumni olib, qo'yniga solib, bozorga ketayotgan edi, arkon davlatning darvozasi oldida bir qafas turibdi. U qafas ichiga qarasa, bir tuxum turibdi, u tuxum o'zining tuxumiga o'xshaydi. Bobo qo'ynini hadeb qarayverdi. Bu holni podshoh amaldorlari ko'rib, voqeani podshohga yetkazdilar. Podshoh cholni olib kelinglar, deb buyurdi.

— Ey, bobo, nimaga qafasga va qo'yningga tez-tez qarab turibsan? — dedi podshoh. Shunda bobo:

— Men bozorga bir tuxum olib chiqayotib edim, qafasdagi tuxumga ko'zim tushdi. U tuxum ham mening tuxumimga o'xshar ekan, deb hayron bo'lib turgan edim, — dedi. Podshoh akobirlaridan biri:

— E, uying kuygur chol! Podshohlikdan bir gavhar yitib[1] edi. Bir necha muddatlardan beri axtarib yurib edik. Shu senda ekan. Sen kim-u gavhar kim! — deb tuhmat qildi. Bobo aytdiki:

— Ey vaziri dono, bilingki, menda bunday tuxum bir dona emas va ikki-uchta ham emas, yetti dona bordir. Agar ishonmasangiz odam qo'shing, birga borsin, ko'rib keladi, so'ngra ishonarsiz.

Shunda podshoh va amaldorlari bir-birlariga qaradilar. Shundan keyin podshoh amaldorlari chol bilan birga boraverdilar. Bobo hovliga yetmasdan xotiniga qichqirib:

— Hoy xotin, haligi tuxumlarning oltovini ham olib chiq! — dedi. Xotin chiqib qarasa, erini podshoh amaldorlari yetaklab kelyapti. Bular uyga kirib qarasalar, haqiqatan ham cholning gapi rost ekan. Amaldorlar podsholikka borib voqeani bir-bir bayon qildilar.

Podshoh boboni chaqirib qancha uzrlar so'radi. Keyin boboga bosh-oyoq sarpolar berib, undan bir dona tuxum gavharini so'radi. Keyin podshoh gavharning bahosi qancha deb so'radi. Chol:

— Buning bahosini men bilmayman. O'z insofingiz bilan qancha bersangiz, roziman, — dedi.

Podshoh maslahatdonlar bilan maslahatlashib, hisoblashib ko'r-salar, gavhar tuxumning bahosiga podshohlikdagi tamomi xazinalar ham barobar kelmas ekan. Podshoh bir suruk tuya[2]ga javohirotlarni yuklab, oldiga qari kishilardan bittasini mindirdi. „Qari kishining tilini qari biladi, qanday bo'lsa ham shu narsalarga chol rozi bo'lsa ajab emas", dedi.

---

[1] **Yitmoq** — yo'qolmoq.

[2] **Bir suruk tuya** — besh yuzdan mingtagacha bo'lgan tuyalar to'dasi.

Podshohning tuyalari asasa-yu dabdaba bilan cholning uyiga kirib keldi. Cholning qo‘rg‘oni javohir ortilgan tuyalarga to‘lib ketdi. Chol bu narsalarga rozilik izhor qilib, olib kelgan cholga ko‘p minnatdorchiliklar bildirdi. Chol borib podshohga rozi bo‘lganini aytdi. Podshoh bu cholga ham bosh-oyoq sarpolar berdi. Bular ham shu kayfiyatda bo‘lsinlar, endigi gapni bobodan eshiting.

Bobo dunyodor bo‘lib ketgandan keyin katta-katta savdogarlar bilan tanishib, ular bilan shaharlarga boradigan bo‘ldi. Bobo savdogarchilikka ketganda oradan bir oy yoki bir yarim oy o‘tgan edi. Boboning kampiri choli yo‘qligida begona kishiga erga tegib olibdi. O‘gay onaning bu yomon ishiga Rustamzod bilan Sherzod g‘azablanar edilar.

Kunlardan bir kun kampirning bu eri kelib uyning ichiga kirib ketdi. Bolalar maktabga ketgan edilar. Ikkovlari gaplashib o‘tirgan edilar, shu payt ularning oldidan bir qush o‘tib qoldi. Bu bobo o‘g‘rilardan olib kelgan murg‘imusammo edi. Buni ko‘rgan kishining nafasi biroz ichiga tushib ketdi, keyin so‘radi: „Haligi ko‘ringan tovuq kimniki?“ Kampir: „O‘zimizniki,“ deb javob berdi: Keyin u:

— Shu murg‘ni so‘yib bersang, ikkalamiz yeb olsak, — dedi. Keyin kampir:

— Bu murg‘ning egasi menga „Shu ikki aziz farzandlarimizdan ham ortiqroq qushni parvarish qilib tur“ degan. Shuning uchun mendan boshqa har narsani talab qilsangiz ham bu qushni so‘ramang, — dedi.

— Mening senga muhabbatim baland bo‘lsa-yu, men sendan bir qushni so‘rasam, sen menga shu qushni ham ravo ko‘rmaysan, unday bo‘lsa, endi men ketaman, — deb araz qildi. Kampir uning ketib qolishidan qo‘rqib:

— Ertaga qushni so‘yib bersangiz, ikkovimiz yeymiz, bu qush sizning sadqayi so‘zingiz bo‘lsin, — dedi.

Haligi kishi qushni ko‘rgan hamono uning xislatlarini bilgan edi. Murg‘ning sangdonini kechasi yeb yotib, erta bilan tursa, boshining tagidan bir hamyon tilla chiqar edi. Murg‘ning jig‘ildonini yegan kishining boshi tagidan bir hamyon kumush chiqar edi. Kampirning javobidan qanoat hosil qilgan bu kishi ertasi bolalar maktabga ketgan vaqtda murg‘ni so‘yib tozaladi, qozonga soldilar.

Bolalar maktabdan qorinlari och holda qaytdilar, qarasalar, uyning eshigi ustidan qulflangan. Onamiz bir joyga ketganmikin deb, devorning bir joyidan uyga qarasalar, uyning eshiklari berk, oshxonada esa tutun chiqib turibdi. Qarasalar, qozonda go‘sht qaynayapti. Go‘shtlarni yeyishga o‘gay onadan qo‘rqdilar. Aka-uka maslahatlashib, murg‘ning jig‘ildoni va

sangdonini yedilar. Keyin o‘ynagani chiqib ketdilar. Bundan o‘gay ona va eri bexabar qoldilar. Chunki ular qattiq uyquga ketgan edilar. Birmuncha vaqt o‘tgach qorinlari ochib uyg‘ondilar va darhol ovqatdan xabar oldilar. Qozonga qarasalar ko‘p qaynash natijasida go‘shtlar hil-hil bo‘lib pishib, aralashib ketgan ekan, uning orasidan jig‘ildon bilan sangdonini ham ajratib bo‘lmas edi. Haligi kishi noiloj holda aralash go‘shtlarni yeb oldi.

Endigi so‘zni bobodan eshiting.

Bir kuni bobo charchab, o‘ylab yotgan edi, mudroq bosib, ko‘zini uyqu oldi. Tushida ko‘rsa o‘z hovlisida o‘tiribdi. Shu vaqtda bir shaqol kelib, murg‘ni tutib oldi. Bobo yugurib kelib murg‘ni qutqazish uchun ko‘p jahd-u jadal qildi, bo‘lmadi. Axiri shaqol murg‘ni olib ketdi. Bobo uyg‘onib qolib, tush ko‘rganini angladi.

Oradan bir yarim oy o‘tgach, bobo sovg‘a-salomlar bilan yurtiga qaytdi. O‘z choli safardan qaytganini eshitgan kampir boyagi erini uydan haydab yubordi. Bobo uyiga kelgan hamono hammadan oldin murg‘ni so‘radi. Kampir murg‘ni bolalaringiz urib o‘ldirgan, men uning patlarini falon joydan topib oldim, deb bahona qildi. Chol bolalardan qattiq g‘azablandi. Bolalarni oldiga chaqirib olib:

— Agar shu murg‘ni siz o‘ldirgan bo‘lsalaringiz, sizlardan bezorman, agar o‘ldirmagan bo‘lsalaringiz baxtingiz yor bo‘lsin, — deb uydan haydab yubordi. Bu ikki aka-uka uydan bir qozoncha va o‘q-yoylarini olib „hayyo-hu“ deb yo‘lga ravona bo‘ldilar. Yo‘l yursalar ham mo‘l yurib, mo‘l yursalar ham cho‘l yurib borar edilar, oldilaridan bir o‘rmon chiqib qoldi. Shu o‘rmonga chodirlarini tutib, bir necha kun ovlarini ovlab, dovlarini dovlab yurdilar.

Bir kun Rustamzod o‘q-yoyni qo‘liga olib, ov qilish uchun chiqib ketdi. Sherzod uyda qoldi. Havodan ikkita qush kelib, Sherzod yotgan daraxtning tepasiga qo‘nib biri-biriga dediki:

— Ey, dugona, kimki meni otib yesa, qirq kecha-yu qirq kunduz jazirani bosib, qirq kecha-yu qirq kunduz o‘rmonlikda yurib, bir mamlakatga borib podshoh bo‘ladi.

Qushlarning yana biri boshqasiga:

— Ey, dugona, kimki meni otib yesa, qirq kecha-yu qirq kunduz uxlaydi, qirq kecha-yu qirq kunduz yo‘l bosadi, ko‘p azob-uqubatlarni tortib, maqsadiga yetadi, — dedi. Shunda Sherzod darhol o‘q otib ikki qushni ham urib tushirdi. Qushlarning patlarini tozalab, qozonga solib qaynatdi. Go‘sht pishgandan keyin u qushlarning qaysi biri qanday xislatga ega ekanini farq qilolmay, birining go‘shtlarini yedi. Yeb bo‘lgan hamono ko‘zlariga uyqu kelib, badanlari susayib go‘yo behush odamday yiqilib yotaverdi.

Rustamzod ovdan kelib qarasaki, ukasi behush bo‘lib uxlab yotibdi. Qarasa qozonda ovqat tayyor, pishib turibdi. Go‘shtni yeb bo‘lgach, Rustamzod beixtiyor yo‘lga tayyorlanib, mast kishilardek yurib ketdi. U qirq kecha-yu qirq kunduz jaziradan yurib, qirq kecha-yu qirq kunduz o‘rmonlikdan yurib borgach, axiri oldida bir shahar paydo bo‘ldi. Ohista-ohista shu shaharga kirib borsa, shahar podshosi o‘lib, davlat qushi uchib yurgan ekan. Davlat qushi kelib Rustamzodning boshiga qo‘ndi. Podshoh amaldorlari Rustamzodni bir uyga berkitib, davlat qushini boshqatdan uchirib ko‘rdilar, lekin qush xuddi shu uy ustiga borib qo‘ndi. So‘ngra xalq nima bo‘lsa bo‘ldi, deb Rustamzodni podshoh qilib ko‘tardilar. Rustamzod podshoh bo‘lgach, xalqqa katta sayillar qilib berdi. O‘zi xalqparvarlik qildi, mamlakat osoyishta hayot kechirdi. Bular bu yerda tura tursin, endigi gapni Sherzoddan eshiting.

Sherzod qirq kecha-yu qirq kunduz uxlab, bir kun uyg‘onib qarasa, qorinlari tanobdek tortilib, harakati susayib, bir ish qilishga majoli qolmabdi. O‘rnidan arang qo‘zg‘alib, ov ovlab, bir necha kun o‘zini parvarish qilib, akasi ketgan tomonlarni mo‘ljallab yo‘lga tushmoqchi bo‘ldi. Bu aka-uka oralarida bir xislat bor edi. Ular bir-birlarini izlaridan tanir edilar, orada qancha vaqt o‘tgan bo‘lsa ham Sherzod Rustamzodning izini topib borar edi. Sherzod ko‘p yurdi, yo‘lda qattiq mashaqqatlar chekdi. Ba’zan vahshiy hayvonlarga duch keldi, ba’zan ularni o‘ldirdi, ba’zan o‘tkir o‘q bilan ularning ko‘zlarini ko‘r qildi. Shunday qilib jazira va o‘rmonlardan o‘tib oldi. Axiri akasi podshoh bo‘lib turgan shaharga kirib bordi. Shom paytida shahar darvozasini taqillatdi. Darvozabonlar kimligini so‘radilar. Sherzod ularga o‘z ahvolini bayon qildi: uzoq yo‘ldan qattiq mashaqqatlar chekib kelayotgan bir musofir ekanini aytdi. Noinsof darvozabonlar „Kim bo‘lsa bo‘lsin, ko‘chada yotaversin“, deb darvozani ochmadilar. Lekin bu shaharga har kechasi ajdarho kelib, tashqarida qolgan jondor bo‘lsa, o‘z damiga tortib ketar edi. Ajdarho kunduzi bir g‘orga kirib yotar edi. Sherzod tavakkal qilib yotaverdi. Yarim kecha bo‘lganda uzoqdan kuchli shamol kelib qoldi. Sherzod qarasa, uzoqdan ko‘zlari yongan ajdarho kelayotir. Sherzod o‘tkir o‘q bilan ajdarhoning bir ko‘zini ko‘r qildi. Ajdarho zo‘r shitob bilan tashlangan edi, uning sog‘ qolgan ko‘ziga ham o‘q urib ko‘r qildi. Ikki ko‘zi ko‘r bo‘lgan ajdarhoning badanlarini shamshir bilan tilib tashladi. Qon ko‘p ketavergach, ajdarho quvvatsizlanib, to‘lqinlanmay qo‘ydi. Shunda Sherzod ajdarho terisidan bir tasma tilib, beliga bog‘lab oldi. Keyin borib darvozani taqillatdi. Chunki juda charchab, chanqab qolgan edi. Darvozabonlar yomon niyat qildilar. Darvozani ochib Sherzodni qilich bilan chopib o‘ldirmoqchi bo‘ldilar.

Uni bir chuqurga ko‘mib, ajdarhoni biz o‘ldirdik deb, podshohdan in’omlar olmoqchi bo‘ldilar. Eshik ochilgach, bu yomon niyatdan bexabar bo‘lgan Sherzod asta-sekin kirib kelayotgan edi, darvozabonlar uning har yog‘idan yopishib, yarador qildilar, keyin bir namatga o‘rab, kulollar tuproq olgan tepaning chuqur joyiga ko‘mdilar. Darvozabonlar podshohga „Ajdarhoni o‘ldirdik“, deb maqtanib in’om-ehsonlarni oldilar va podshohlikka amaldor bo‘ldilar.

Shu shaharda bir kulol bor edi. Ajdarho paydo bo‘lgan kunlaridan boshlab, shahar chekkasidagi tepadan tuproq ololmas edi. Ajdar o‘ldirilganini eshitib xursand bo‘ldi. O‘g‘liga shunday dedi:

— Ey, o‘g‘lim, ajdarho o‘libdi. Endi tepalikka borib picha tuproq keltiraylik, o‘z kasbimizni davom ettiraylik. Shundan keyin ota-bola tuproq olgani tepaga bordilar. U yerda yumshoq tuproqni ko‘rib ketmon bilan bir urgan edilar, ketmon to‘p etib bir narsaga tegdi. Otasi:

— Ey, o‘g‘lim, xudo berdi-ku! Qoch-qoch bo‘lib turgan vaqtda qochgan kishilar qimmatli narsalarini ko‘mib ketgan bo‘lsalar kerak. Ketmonni sekinroq ur, mabodo sinadigan narsa bo‘lmasin, — dedi. Sekin-sekin ochib qarashsa, bir namatga o‘rog‘liq narsa. Ular dunyo topgan tentakdek ko‘tarishib uyga olib bordilar. Uyda ochib qarasalar qaddi-qomati kelishgan bir alpdek yigit. O‘zi juda pahlavon va zabardast ko‘rinar edi. Lekin badanlarining hammasi chavaqlangan bo‘lib, ramaqijon bo‘lib yotar edi. Kulol:

— E, o‘g‘lim, dunyo topdik deb, bir gala g‘urbat orttirdik. Bu ishning oqibati qayerga yetar ekan, — dedi.

Yana joyiga eltib qo‘yishni xayol ham qildilar. Keyin shunday navqiron yigitning bevaqt vafot etishiga achindilar. Nima bo‘lsa bo‘lsin, bunga shifo qilib jonini saqlab qolishimiz kerak, deb maslahatlashdilar. Kulol bir tabib qoshiga bordi, tabibga shunday dedi: „Mening xotinimning badanlarini pichoq kesibdi, shunga nima dori qilurmiz?“ Tabib jarohatlariga mos dorilardan berdi. Kulol ularni keltirib Sherzodning jarohatlariga qo‘ydi. Keyin unga obdob[1] ichirib turdi. Kulol axiri Sherzodni tuzatdi. Sherzod sog‘ayib, kulolni o‘z otasidek va uning kampirini o‘z onasidek his qilib yuraverdi. Shularning o‘g‘illari qatori xizmatlarini qildi.

Bir kun podshoh amaldorlaridan ikkitasi o‘ta turib Sherzodga ko‘zi tushib qoldi. Ular bir-birlariga shivirlashib:

---

[1] **Obdob** — dumba yog‘ bilan unni qovurib qilingan atala.



«Rustamzod va Sherzod» ertagiga ishlangan rasm

— Hu ajdarhoni qiymalab o'ldirgan pahlavon bola shu emasmi? — dedi. Darhaqiqat, qarasalar, yigitning boshlari va badanlari bog'liq ekan. Xuddi o'zlari qilich bilan chopgan odamga o'xshaydi. Ular Sherzodga siyosat qilib biz qidirib yurgan gunohkor sen ekansan, deb otlariga mindirib, olib ketdilar. Bechora kulol o'z farzandiga achingandek, xotini va bolasi bilan achinib qoldi.

Amaldorlar hech kimdan so'ramay, Sherzodni zindonga solib qo'ydilar. Shu shaharga yangi podshoh tayinlangandan beri hamma shaharlardan muborakbod uchun kelib-ketdilar. Lekin bir uzoq shaharning podshosi hali kelmagan edi. Bu podshoh eshitsa, podshoh yangi bo'libdi, yurtga oralagan ajdarho o'libdi, bu mamlakatda omon-omonlik bo'lib ketibdi. Endi men ham borib, bir muborakbod qilib kelay, deb navkarlari bilan yo'lga chiqdi.

Rustamzod podshoh ularning kelishini eshitib, o'z amaldorlari bilan peshvoz chiqdi. Podshoh kelishi bilan Rustamzod otidan tushib, quchoqlashib ko'rishdi. Bir-birlari bilan ko'rishib bo'lganlaridan keyin mehmonlarni hurmat va tavozelar bilan o'rdaga taklif qildi. Ular o'rdaga kirib yaxshi ziyofatlarni yedilar. Ziyofatdan so'ng suhbatlashdilar. Keyin mehmon podshoh qaytishga ijozat so'radi. Rustamzod ijozat bergach, mehmon podshoh aytdiki:

— Ey, birodar, siz bilan bizning o'rtamizda bir daryoyi azim bordir. Shu daryodan o'tar paytda bir kishini suvga tashlab o'tamiz. Endi biz qaytishimizda ham bir kishini tashlab o'tishimiz kerak. Shunday qilmasak, daryo to'lqinlanib hammamizni g'arq qilishdan qaytmaydi. Shuning uchun bironta gunohkoringiz bo'lsa, menga bersangiz, men daryoga tashlab o'tar edim, — degach, Rustamzod „Zindondagi qattiq va og'ir gunohkorlardan birini chiqarib bering", dedi. Amaldorlar vaqtni g'animat bilib, Sherzodni chiqarib berdilar.

Podshoh yo'lda keta turib Sherzodning pahlavonlarnikidek qaddi-qomatiga hayron bo'lib undan gap so'ray boshladi: Sherzod „Nima bo'lsa bo'lsin", deb hech gapirmadi. Javob ololmagan podshoh bu qaysarligidan zindonga tushgan ekan, deb o'yladi. Daryoga borguncha kech bo'lib qoldi. Podshoh o'z odamlari bilan uyquga ketdi. Ular Sherzodni bir daraxtga zanjirband qilib qo'ygan edilar.

Shu uzoq kechada Sherzod xudoga nola qilib sig'indi. Erta bilan qarasalar hammalari daryoning narigi betida turibdilar. Podshoh va uning hamrohlari bu sir-asrorni ko'rib hayron qoldilar. Qarasalar Sherzod ham bir chekkada o'tiribdi. Uning qo'l-oyoqlaridagi kishanlari ham yo'q. Podshoh bu holni bilib: „Bu yigitda bir xislat bor ekan, bo'lmasa bunday xunxo'r daryodan biz betashvish o'ta olmas edik", dedi va o'rnidan turib, Sherzodning huzuriga keldi.

— Ey, birodarim, mendan xatolik o'tgan bo'lsa kechiring, sizda yaxshi xislatlar bo'lmasa, bunchalik sir voqe bo'lmas edi, — dedi.

Podshoh Sherzodni o'z shahriga olib borib lashkarboshi qilib qo'ydi. Sherzod lashkarboshi bo'lgandan so'ng bir yil ham o'tib ketdi.

Bu podshohning bir singlisi bor edi. Uni Malikayi Nusrat der edilar. Malika ko'p sohibjamol va xushsurat edi; u suv ichsa tomog'idan va sabzi yesa biqinidan ko'rinar edi. Agar qorong'i uyga kirsa, uning jamoli uyni munavvar qilar edi. Podshoh: „Shu podshohlikka qarashli bir dahada sher bor, u vaqt-vaqti bilan chiqib, odamlarga ko'p ofatlar yetkazadi. Shu sherni kim o'ldirsa, singlim o'shaniki bo'ladi", deb qo'ygan edi. Bu ahdga kirishgan odam yo'q edi. Bu so'zni Sherzod eshitib qoldi. U bir temirchi jo'rasiga „Menga bir temir engil-bosh qilib ber", dedi. Sherzod o'z niyatini temirchi jo'rasiga aytib, sher bilan kurashgani chiqib ketdi. Lekin sirni temirchi jo'rasidan boshqa hech kimga bildirmadi. Shu yo'lda uchragan vahshiy hayvonlarning ba'zilarini o'ldirar va ba'zilarini band qilar edi. Bir necha kun shu holda yurib, oxiri sherning makoniga yaqinlashdi. Qarasa, bir daraxtning tagida bir qora narsa yotibdi; haybatining zo'rligidan jami hayvonlar tovush chiqarmay qochar edilar. Sherzod o'zini dadil tutib, sherning ro'parasiga bordi va unga qattiq tikildi. Sher odam hidini bilib ko'zini ochib qarasa, to'g'risida bir odam turibdi. Sher ham o'rnidan turib Sherzodga tikildi. Ikkovlari yonma-yon aylandilar. Bularni bu holda ko'rgan parranda-yu darrandalar odamzodga rahmlari kelib, uning atrofidan aylanar edilar. Bir necha fursat tikilma jang qildilar, oxiri sherning ko'zi qamashdi, bor kuchini oyoqlariga to'plab, o'zini Sherzodning ustiga qarata otdi. Sherzod ham epchillik bilan bir sakrab, daraxt shoxini ushlab oldi. Sher dushmanni tagimga oldim deb gumon qilib, ko'kragi bilan yerni ezaverdi. Sherzod vaqtni g'animat bilib, qo'lidagi temir gurzisini sherning boshiga mo'ljal qilgani holda, kuchli zarb bilan sher ustiga tashlandi. Sher bir zo'r berib silkingan edi, Sherzod besh-o'n gaz yerga otilib ketdi. Sher yana uning ustiga tashlanishga o'zini chog'lab ko'rdi, lekin miyasining qatig'i chiqib, holsizlangani uchun majoli kelmadi. Sherzod o'rnidan turib, sherning boshiga yana bir gurzi urdi, shamshirini chiqarib, sherning terisidan tasma olib, yo'lga ravona bo'ldi.

Temirchi jo'rasi shu daha boshigacha Sherzodni kuzatib kelib, uning omon qolishini kutib duo qilib turar edi. Sherzodning omon kelayotganini ko'rib, quchoqlab ko'rishib ketdi. Keyin podshohlikka xabar bergani ot choptirib ketdi. Podshohga borib haqiqatni bayon qildi. Podshoh lashkarlari bilan dahaga bordi. Ular yo'lda Sherzodni

uchratdilar, borgan sari yo'lda vahshiy hayvonlarning o'liklarini uchratib bordilar. Dahaga yetganlarida sherning o'lib yotgan jasadini ko'rib, uning qahramonligiga tillarini tishlab, tahsin va ofarinlar qilar edilar. Dahadan qaytgandan keyin podshoh tamom olamga shunday mazmunda noma yozdi:

„Bilinglar va ogoh bo'linglar! Sherzod nomli bir pahlavon chiqib, falon dahadagi hamma vahshiy hayvonlarni va sherni o'ldirdi.

Shuning uchun singlim Malikayi Nusratni falon kunda to'y qilib, unga nikohlab berurman. To'yga kelaveringlar", deb chaqirtirdi.

Odamlar to'yga aytilgan kunga yig'ilishib keldilar. Podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berdi. To'y qiyomga kelganda pahlavon Sherzodga singlisi Malikayi Nusratni nikohlab berdi.

Kunlardan bir kun Sherzod, podshoh va akobirlari bazm qilib o'tirgan edilar, shunda Sherzod bir oh urib yubordi. Podshoh so'radi:

— Ey, do'stim Sherzod, nimaga oh urasan? Yeyardan kamchiliging bormi? Ichardan kamchiliging bormi? Yoki xotindan bir jabr-u sitam o'tdimi? Nima uchun oh urasan? — dedi. Sherzod yana bir oh urgan edi, go'yo og'zidan olov uchqunlari chiqib ketgandek bo'ldi, aytdiki:

— Ey, podshohi olam va sultoni bokaram. Siz meni bir bandi bachcha deb o'ylamang. Mening ham Rustamzod degan og'am bor edi. Shu jondan azizroq og'amdan ajralganimga ko'p yil bo'ldi, lekin har kecha-yu kunduz og'am mening yodimdan chiqmaydi. Sizdan o'tinib so'rar edimki, menga ruxsat bersangiz, qolgan umrimni g'ayrat qilib mehribon akamni qidirib topishga sarf qilsam, — deb so'zini tugatdi. Podshohga bu gap qattiq ta'sir qildi. Yo'lga tayyorlanib, ketishga ijozat berdi. Buni eshitgan xotini Malikayi Nusrat:

— Shunday jondan aziz yorim ketsa-yu, men qolsam, yaxshi bo'lmas. Erim qayerda bo'lsa, men ham shu yerda bo'laman, — deb akasidan ruxsat oldi. Bularga podshoh bir qancha kishilarni ham qo'shib yubordi.

Yo'lda haligi kishilar malikaning husn-jamolini ko'rib oshiqi beqaror bo'ldilar.

Ular bir-birlari bilan maslahatlashib, daryo yoqasiga borib tushdilar. Sherzod hamma vaqt ov ovlashni yaxshi ko'rar edi. Qarasa, daryo yoqalarida bir qancha daraxtlar bor. Qushlar uchishib, bulbullar sayrashar edilar. Sherzod qo'liga o'q-yoyni olib, xizmatkorlariga aytdiki:

— Sizlar shu yerda turing, men sayohat qilib, qushlardan otib kelay.

Xizmatkorlar bir joyga to‘planib maslahatlashdilar. Ular daryo yoqasidagi bir sabza joyga gilamlar to‘shadilar, kundol[1] ko‘rpachalarni daryo tomonga soldilar. Shu daryo tomonga Sherzodni o‘tqizib, payt poylab uni gilam aralash daryoga tashlamoqchi bo‘ldilar. „Keyin xotin bizga qoladi“, deb o‘yladilar.

Sherzod kelgandan keyin uni izzat va hurmat bilan gilamning daryo tomoniga o‘tqizdilar. Sherzod o‘tirgan hamono bir chekkasidan ko‘tarishib, gilamga o‘rab daryoga tashlab yubordilar.

Bechora Sherzod daryoga tushib ketaversin, endi so‘zni Malikayi Nusratdan eshiting. Xizmatkorlar xotinni bir sandiqqa solib, daryodan o‘tkazib edilar. Daryo qirg‘og‘iga chiqqanlarida, u tomonda Rustamzod tomosha qilib yurar edi. Rustamzod ko‘rdiki, ko‘p odamlar bir sandiqni bir otga yuklab keladilar. Rustamzod bularning oldiga kelib:

— Bu sandiqda nima bor? — dedi. Xizmatkorlarning biri „bo‘xcha bor“, biri „dunyo bor“, yana biri „mening xotinim bor“ dedi. Har qaysisidan har xil javobni eshitib podshoh kuldi, keyin qo‘shinlariga buyruq berdi:

— Tutinglar, bu o‘g‘rilarni, mening baxtimga yaxshi sayd topildi. Bundan ortiq sayd bo‘lmas, — dedi. Xiyonatkorlar tutib bog‘langach, podshoh qo‘shinlari bilan kelib sandiqni ochib ko‘rdi. Ko‘rsalar bir pari surat malikaki, bir qoshiq suv bilan yutib yuborsa bo‘lur.

Rustamzodning ko‘ngli vayron bo‘lib, aytdiki:

— Hay darig‘! Dunyoda hech kishi bunday ayriliqda yurgan emas. Men og‘amdan ayrilib, ko‘ngillarim vayron bo‘lib yuribman. Bu bechorani ham o‘z sevganidan ayirgan bo‘lsalar kerak. Buning egasi chiqar. Bunga biz ko‘ngil bersak, noinsoflik qilgan bo‘lurmiz, — dedi va malikani o‘rdaga qo‘yib yubordi. Xiyonatchilarni esa zindonga solib qo‘ydi. Bular tura tursinlar, endigi gapni Sherzoddan so‘rang.

Sherzod gilamga o‘ralganicha jarga quladi, undan daryo ichiga tushdi, keyin daryoyi xunxo‘r to‘lqinlariga aralashib oqib ketdi. Shu joyda bir baliqchi bor edi. Qarab ko‘rsa, to‘lqinlar orasidan bir ajoyib narsa goho ko‘rinib, goho suv ichiga g‘arq bo‘lib kelayotir. Bu holni ko‘rgan baliqchi o‘g‘li bilan daryoga qarab yugurdi. O‘g‘lini belidan bog‘lab daryoga tashladi. Baliqchi bola suza-suza Sherzodga yetib, uni tutib oldi. Arqonni tortib qarasalarki, bir pahlavon yigit gilamga

---

[1] **Kundol** — kimxob.

o‘ralgan. Sherzodni daryodan olib chiqib hushiga keltirdilar va undan hol-ahvol so‘radilar.

Sherzod so‘zni qisqa qilib shunday dedi:

— Ey, otajon, men bir gunohkori azim edim, gunohimga asosan daryoga tashladilar. Siz mening o‘lmay qolishimga sababchi bo‘ldingiz. Meni uyga olib boring, men sizning o‘g‘lingiz bo‘lay. Nima xizmat buyursangiz jon-u dilim bilan qabul qilaman.

Baliqchi chol uni uyiga olib ketdi. Sherzod ovga chiqib, daryo atrofida yurar edi. Baliqchi chol baliqchi o‘g‘lim ikkita bo‘ldi, deb mehnatdan qutulib, shaharlarga tushib, tomosha qilib yurar edi.

Baliqchi chol bir kun shaharda yursa, podshohlikdan qo‘yilgan jarchilar: „Kimki mening og‘amning daragini eshitgan bo‘lsa, kelib aytsa, shunday kishiga bosh-oyoq sarpo beraman, dunyolikdan saraproz qilurman. Agar ukamni ko‘rgan bo‘lsa, undan ziyodaroq qilurman. Agar kimki o‘zini olib kelsa, bir mamlakatni uning bekligiga beraman!“ — der edilar.

Bu xabarni eshitgan baliqchi bobo kechqurun bo‘lib, hammalari ovqatlanib turganlarida:

— Ey, o‘g‘illarim, shu bugun bir gap eshitdim, ko‘p ajoyib gap, — deb qo‘ydi. Buni eshitgan Sherzod bobodan: „Nima gap?“ deb so‘radi.

Bobo: „Ey, o‘g‘lim, ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng aytaman“, dedi. Sherzodning ichi g‘uvillab yana: „Nima gap?“ deb so‘ragan edi, bobo tilga kelib, podshoh jarchilarining e’lonini birma-bir aytib berdi. Axiri bobo: „Ey, o‘g‘lim, qani biz ham shunday podshohning ukasini ko‘rgan bo‘lsak yoki ovozasini eshitgan bo‘lsak. Qolgan umrimizni dunyoda osoyishtalik bilan o‘tkazgan bo‘lar edik“, deb kallasini chayqab qo‘ydi. Bu gapni eshitgan Sherzodning yegan ovqatlari tomog‘iga tiqilib, nafasi ichiga tushib, shaytonlagan odamday bo‘lib qoldi. Birozdan so‘ng o‘zini tutib olib, ko‘zlari yoshlik va dili g‘ashlik holatda, hasrat-u nadomatlar bilan:

— Ey, otajon, biz og‘amiz bilan ovchilikda yuraversak, siz bilan kampirni boqolmay qolarmidik? — deb boboning ko‘nglini ko‘tardi.

Bobo ham Sherzodga qarab:

— Ey, o‘g‘lim, xafa bo‘lmay ovqatingni yeyaver, shu arzimagan gap uchun ko‘zga yosh olishning hojati yo‘q, — deb qo‘ydi. Bobo ham sezgir odam edi, u Sherzodning dilidagi orzularini sezdi.

Ovqat yeb bo‘lgandan so‘ng hammalari yotdilar, ammo Sherzod boboning yoniga kelib: „Ey, ota, bu gapingiz menga yoqib ketdi. Ertaga

podshohlikka borib aytingki: „Mening bir qizim bor, qo‘li shol, oyog‘i shol, ko‘zi ko‘r, go‘yoki bir tulum shaklida. Lekin gapirishga tili bor. Shu qizim sizning ukangizning qayerda ekanini bilar emish. Agar shuni olib kelsak, sizga anig‘ini aytadi“, deb kelavering. U yog‘ini o‘zim aytaman. Dunyolikdan beniyoz bo‘lasiz“, dedi.

Ertasi bobo borib podshohlikning darvozasini taqillatdi. Darvozabonlar darvozani ochib:

— Nima xizmatingiz bor! —deb so‘radilar.

— Podshoh bilan ro‘para bo‘lib gapiraman, — dedi bobo.

Boboni ichkariga olib kirdilar. U podshoh bilan salomlashib bo‘lgandan keyin, haligi gapni gapirdi. Shu gapni aytib bo‘lgach, o‘zi uyga qaytaverdi. Cholning orqasidan podshohlikdan yuborilgan xizmatkorlar qizni olib ketgani kelib qoldilar. Shunda Sherzod podshoh xizmatkorlariga qarab:

— Bu bir qiz bola bo‘lsa, sizlar nomahram bo‘lsanglar, bu sira to‘g‘ri kelmaydi. Buni olib borish uchun podshohlikdan bir zambil tayyorlab kelinglar, unda joypo‘shlar ham bo‘lsin. Shu joypo‘shlarga o‘rab zambil ichida olib borsanglar yaxshi bo‘ladi. Bundan boshqa iloji yo‘q, — dedi.

Xizmatkorlar podshohlikka borib zambil va joypo‘shlarni muhayyo qilib keltirdilar. Shundan keyin Sherzod zambilni ichkariga olib kirdi va uning ustiga o‘zi cho‘zilib yotdi. Boboga aytdi:

— Meni joypo‘shlar bilan yaxshilab o‘rang, hech bir joyim ochiq qolmasin! —dedi. Bobo Sherzod aytganidek qilib o‘rab, xizmatkorlarni chaqirdi. Ular zambilni ko‘tarib podshohlikka jo‘nab ketdilar.

Podshohlikka borgach, podshoh, akobirlari va jami xizmatkorlar qiziqib yig‘ilishdilar. Zambilni o‘rtaga qo‘ydilar. Zambil ichidan ovoz chiqdi:

— Assalomu alaykum! Ey, ahli jamoalar! Men tilga kelib, sizga o‘xshagan podshoh va sizlarga o‘xshagan navkarlar haqida yaxshi-yomon gapirsam, xafa bo‘lmasanglar.

Hamma xalq: „Mayli, gapiring“ deyishdi. So‘ngra Sherzod tilga kelib:

— Bor ekan, yo‘q ekan, bir shaharda bir kambag‘al bor ekan. Bu kambag‘alning Rustamzod va Sherzod nomli ikki o‘g‘li bor ekan. Ularning onalari o‘gay ekan. Ularni otasiga oq fotiha berdirib, uydan haydatibdi...

Keyin Sherzod o‘z boshidan o‘tkazgan voqealarini birma-bir hikoya qila boshladi: aka-uka ko‘p yo‘l yurib axiri o‘rmonga borganlari, Sherzod

qushlarning gapini eshitib, otib pishirib yegani, o'zining beixtiyor uxlagani, akasi Rustamzod izidan qidirib ketgani, bir kun oqshom paytida shu shahar darvozasi oldiga kelgani, ajdar bilan olishgani, darvozabonlar Sherzodni yarador qilib, bir namatga o'rab ko'mib, ajdarni o'ldirdim deb, podshohdan in'om olganlari va Sherzod kulolnikida tarbiya topib tuzalgani, podshohda amaldor bo'lgan darvozabonlar buni ushlab siyosat qilib, zindonga solganlarini gapirib berayotgan edi, gap shu yerga yetganda darvozabonlar o'rinlaridan turib chiqib ketmoqchi bo'ldilar. Sherzod „Yaxshi-yomon gaplarga chidam berib o'tirsalar, gapiraman", deb oldindan pisanda qilganini eslatdi va hikoya tamom bo'lguncha hech kimni chiqarib yubormaslikni podshohdan talab qildi. Podshoh eshikka qorovullarni qo'yib, hech kimni chiqazmaslikka buyruq qildi. Shundan keyin Sherzod gap boshlab: „Agar gapimga ishonmasangiz falon joydagi kulol boboni chaqirtirib keling", dedi. Darrov odamlar borib haligi kulol otani keltirdilar. Kulol qo'rqqanidan gaplari og'zidan tushib, quruq surobi kirib keldi. Chol kirganda gapirishga ham majoli kelmadi. Shunda podshoh kulol otaning yoniga o'tirib, u yoq-bu yoqdan gapirib, ko'nglini ko'tarib, gap so'radi:

— Ey, otajon, ajdarho o'lgandan so'ng siz nima sir ko'rdingiz? — dedi. Bobo birpas turib, qo'rquvlari ko'nglidan ketib, yuragining qattiq urishi to'xtab, tuproqqa borib bir pahlavon yigitning namat orasiga o'rab ko'mib tashlanganini ko'rib qolgani, uning butun badani yaralangani, tabibdan dori olib kelib tuzatib, o'g'il qilib olgani, podshoh amaldorlarining gunohkor deb Sherzodni olib kelganlarini gapirib berdi. Podshoh kulol otani izzat va obro'lar bilan bir chekkaga o'tqazdi.

Keyin zambil ichidan yana ovoz keldi. Endi Sherzod muborakbodga kelgan mehmon podshoh bilan bo'lgan voqealarni hikoya qildi. Bunda daryoga tashlanish uchun zindondan chiqib mehmon podshoh bilan ketgani va daryodan o'tish voqealarini, mehmon podshoh Sherzodning xislatlariga qoyil qolib, o'ldirmay, o'z mamlakatiga olib ketgani, unda lashkarboshi bo'lib xizmat qilgani, dahadagi sherni o'ldirib, podshohning singlisini olgani, bir kungi bazmda og'asini eslab oh urgani, podshohdan ruxsat olib akasini qidirishga yo'llangani, unga o'z yori Malikayi Nusratning ergashgani, yo'lda xizmatkorlar bilan bo'lgan voqea, suvda oqib ketganlarini birma-bir hikoya qildi. Hikoyaning so'nggida Sherzod baliqchi ota suvdan

qutqarib olganini izhor qildi. Baliqchi otadan podshoh gap so‘raganda, u o‘z hikoyasini bayon qilib, axiri: „O‘sha topilgan yigit shu zambilda turib gapirgan odamning o‘zidir“ deyishi bilan Sherzod o‘rnidan silkinib turdi. Shundan so‘ng aka-uka ikkovlari quchoqlashib ko‘rishganlaricha, go‘yo mast kishilardek bir necha vaqt behush bo‘lib turdilar. Keyin hol-ahvol so‘rashib, topishganlari uchun juda xursand bo‘lib o‘tirdilar. Rustamzod dushmanlarni qattiq jazoladi. Kulol bilan baliqchiga in’om-ehsonlar berdi. Ular bilan ota-bola tutinib, xayrlashib, kuzatib qo‘ydi.

O‘rda ichidagi Malikayi Nusratga „Eringiz Sherzod topildi“, deb xabar berdilar. Malika sevinch va quvonch bilan o‘z yorining oldiga yugurib kelib ko‘rishdi.

Rustamzod podshoh ukasining topilishiga va xotini bilan topishganiga atab el-yurt uchun katta hashamatli sayil qilib, to‘y-tomoshalar qilib berdi.

Ular yetdi murodga, biz ham yetaylik murodga, shu hikoyani o‘qigan va eshitganlar ham yetsinlar murodga, lekin dushmanlar qolsin uyatga.



Gulshoh bilan Varqa

O'tgan zamonda bir podshoh bor ekan. Uning Gulshoh degan qizi bor ekan. Podshohning bir do'sti bo'lib, uning Varqa degan o'g'li bor ekan. Varqa bilan Gulshoh ikkisi bir maktabda o'qishar ekan.

Varqa bilan Gulshoh maktabda o'qib yurganlarida bir-birini sevib qolishgan ekan. Ammo Varqaning otasi kambag'al ekan. Varqa o'sib, ulg'ayib pahlavon bo'lib yetishibdi. U mamlakatdagi eng katta pahlavonlar bilan kurash tushib, ularni ham yengibdi, pahlavonlikda dong qozonib, mashhur bo'libdi.

Varqaning otasi vafot qilibdi. Kunlar ketidan oylar, oylar ketidan yillar o'tibdi. Varqa Gulshohni so'ratib, podshohga sovchi yuboribdi. Podshohga bu yoqmabdi, chunki Varqa ham yetim, ham kambag'al. Lekin u kuchli pahlavon, undan pahlavonlar qo'rqar, podshoh ham hayiqar ekan. Podshoh qizini beray desa kambag'al, bermay desa pahlavon. Buning ustiga Varqaning otasi podshohning do'sti edi. Podshoh vazirlarini chaqirib maslahatlashib, Varqani boshqa mamlakatga jo'natmoqchi bo'libdi.

Podshohning tog'asi Rum shahrining podshohi ekan. Boshqa bir podshoh Rum shahri bilan urushayotgan ekan. Gulshohning otasi Varqani

Rumga yuborish fikriga tushibdi. Bundan maqsad Varqa jangda o'lib ketsa, Gulshohni boshqaga berish ekan.

Podshoh Varqani chaqirib olib:

— Pahlavon yigit, Rum shahrining podshohi mening tog'am bo'ladi. U dushman bilan jang qilmoqda. Agar Rumga borib, tog'amga yordam bersang, ko'p mol-dunyo orttirib kelsang, shunda qizimni beraman, — debdi.

Varqa:

— Meni olti oy kutinglar, olti oyda kelmasam, Gulshohni boshqaga beraveringlar, — debdi.

Varqa Rumga jo'nabdi. Bir qancha kun yo'l yurib jang maydoniga yetibdi. Rum podshohi jangchilari tomonida turib, dushmanga qarshi kurashibdi. Bir necha kunda yov qo'shinlarini yengibdi. Rum podshohi dushmanning taslim bo'lganini ko'rib, Varqaning qahramonligiga qoyil qolibdi va uning kimligini so'rabdi. Varqa o'zini tanitgach, podshoh uni yaxshi kutib olibdi-da:

— Tila tilagingni, — debdi.

— Ey, podshohi olam, sultoni bokaram, — debdi Varqa, — men Yaman podshohining qizi Gulshohni sevaman. Podshoh „Boylik orttirib kelsang, qizimni beraman", degan edi. Oltin-zar, qimmatbaho narsalar bersangiz, qizni olishga yordam bergan bo'lardingiz.

Podshoh Varqaga bir qancha ot, tuyalarga oltin-zar va qimmatbaho narsalar ortib beribdi. Varqa yo'lga chiqibdi.

Shu vaqtda Varqaning o'z yurtiga qaytish muddati bitay deb qolgan ekan.

Yaman podshohi qizini boshqa mamlakat podshohiga xotinlikka uzatib, Varqaning kelishiga bir hiyla ishlatibdi.

Bir qo'yni so'yib, uni kafanga o'ratib, „Gulshoh o'ldi" deb xalqqa e'lon qilibdi va uni mozorga olib borib ko'mibdi. Podshoh va fuqaro motam tutib, hamma qora kiyinibdi, taxt-ravoqlarga qora bayroq tutilibdi, mamlakat qoraga bo'yalibdi.

Gulshoh uzatilayotganida, to'y kuni qayg'urib, nima qilishini bilmay, o'zining eng yaqin kanizaklaridan birini chaqiribdi, qimmatbaho uzugini barmog'idan chiqarib:

— Mana bu uzukni ol, Varqa kelsa, unga ber, mendan yodgorlik, — debdi.

Endi gapni Varqadan eshiting. Bir necha kun yo'l yurib, horib-charchab, o'z yurtiga yetib kelibdi. Qarasa, mamlakatning shahar, qishloqlari qoraga bo'yalgan emish. Xalq esa qora kiyim kiygan emish. Varqa yo'lda odamlardan:

— Nimaga hamma yoq qoraga bo‘yalgan, odamlar qora kiyingan? — deb so‘rasa:

— Gulshoh o‘ldi, — deb javob berishibdi.

Varqa bir oh chekib o‘zidan ketibdi. Bir qancha vaqtdan so‘ng o‘ziga kelsa, atrofini kishilar o‘rab olgan emish.

Varqa alamdan bag‘ri ezilib, madori ketib uyiga kelibdi. U qayg‘urib, ozib-to‘zib ketibdi. Bir necha kun o‘tgandan so‘ng Varqaning kelganidan xabar topgan kaniz kelib, Varqaga Gulshohning uzugini berib, shunday debdi:

— Gulshoh o‘lgani yo‘q. Podshoh xalqqa bildirmay, uni Farang shahri podshohiga uzatib yubordi. Gulshoh meni „o‘ldi“ desa ishonmasin, deb shu uzukni berdi. Menga ishonmasangiz go‘rni ochib qarang, shunda qo‘y yotgan ekanligiga ishonasiz.

Varqa go‘rni ochib qarasa, kanizak aytganiday haqiqatan qo‘y emish.

Varqa g‘am-g‘ussa chekib, ranggi-ro‘yi ketib, xarob bo‘libdi. Buning ustiga Rumdan olib kelgan mol-dunyosini har tomonga sochib, o‘zi qalandarga o‘xshab qolibdi.

Varqa uzukni olib Farang shahriga qarab ravona bo‘libdi. Endi Varqa yo‘lda keta bersin, ikki og‘iz so‘zni Gulshohdan eshiting.

Gulshoh Farang podshohinikiga borganda:

— Siz meni bekor oldingiz, mening sevgan yorim bor. Baribir men sizga tegmayman, — debdi.

Podshoh:

— Sening sevgan yoring bo‘lsa, men seni singlim deb bilaman, mendan xavfsirama, men seni yoringga yetishtirishga yordam beraman, — debdi.

Gulshoh:

— Menga baland ravoq soldirib bering, — debdi.

Podshoh unga tillo ravoq qurdirib beribdi. Gulshoh ravoqqa chiqib: „Ko‘chadan musofir o‘tsa menga aytinglar“, debdi xizmatkorlariga.

Varqa Farang shahriga yetib kelibdi. Uning musofir ekanini bilgach, xizmatkorlari Gulshohga xabar beribdi.

Gulshoh Varqani ko‘rishi bilanoq tanibdi. Ikkisi bir-biri bilan ko‘rishib, hushidan ketibdi. Hushlariga kelishib, yana so‘zlashib o‘tirishibdi.

Farang podshohi Varqaning kelganini eshitib, ikkisiga alohida uy yasatib, uyga taklif qilib, o‘zi chiqib ketibdi.

Gulshoh bilan Varqa uyda o‘tirib, bir-biriga g‘azal aytishibdi. Podshoh ularning aytishuvlarini uyning orqasidan eshitib turgan ekan. Ikkisi g‘azal aytishib bo‘lgach, Varqa:

— Sen podshohning nikohida bo‘lsang, men seni olishim noto‘g‘ri, men seni olsam podshohga xiyonat qilgan bo‘laman, — debdi. Buni eshitgan qiz o‘ksib-o‘ksib yig‘labdi. Podshoh Varqaga qoyil qolibdi.

Lekin Gulshohning yig‘laganiga rahmi kelib, ichkariga kiribdi:

— Nega yig‘laysan, singlim? — deb so‘rabdi. Gulshoh:

— Varqa ketaman deyapti, shunga yig‘layapman, — debdi.

Varqa podshoh va qizning „ketma“ deb yolborishlariga qaramay, yig‘lab-yig‘lab yo‘lga ravona bo‘libdi. Yurib-yurib madori quribdi, azob-uqubatdan o‘larga yaqinlashibdi. Bir mozorga yetganda o‘tib ketayotgan qalandarlarni ko‘ribdi. Ularga:

— Shaharga borib, Gulshohga Varqa o‘ldi, deb xabar berib qo‘yinglar — debdi-yu, jon beribdi.

Qalandarlar shaharda Gulshohning ravog‘i tagidan o‘tayotib aytibdilar:

— Varqa degan yigit mozorda o‘layotib, xabar berib qo‘yinglar, deb aytgan edi, — debdilar.

Gulshoh ravoqdan tushib, podshohga voqeani aytibdi. Qiz podshoh bilan mozorga boribdi. Gulshoh yigitni ko‘rib, ustiga o‘zini tashlab, hushidan ketib, u ham vafot etibdi.

Podshoh ikkisiga ham achinib, ko‘p yig‘labdi. Ikkisiga maqbara qurdirib, oltindan qo‘rg‘on soldirib, o‘zi ham o‘sha yerda yashabdi. Podshoh o‘z taxti va boyligini tashlab, qalandar bo‘lib qolibdi. U qiz bilan yigitning mozorini bog‘larga aylantirib yuboribdi, uni Bog‘i Eram deb atabdilar.



Muqbil toshotar

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. O‘tgan zamonda Buxoro shahrida bir zolim podshoh bor ekan. Uning bir chiroyli qizi bor ekan. Uning nomi Mehrinigor ekan. Yuzining nuri oyni xira qilar ekan.

Mehrinigor chiroyli, kuchli va g‘ayratli qiz ekan. Yuziga niqob tortib, xuddi yigitlar singari, yonida qilich-qalqon osib, ko‘p vaqtini ovda o‘tkazar ekan. Mehrinigor bir kuni sakkiz yuz yigit bilan ovga chiqibdi, yura-yura, bir tog‘ga yetibdi. Tog‘ juda baland ekan, bir tomoni to‘qay ekan. Tog‘ning bir chekkasidan bir chiroyli kiyik chiqib qolibdi. Mehrinigor yigitlarga qarab: „Mana shu kiyikni o‘rtaga olinglar, uni tirikligicha tutishimiz kerak, kiyik kimning yonidan o‘tib ketsa, shu odamga jazo beraman“, debdi. Sakkiz yuz odam har tarafdan davra olib kiyikka kamon tashlabdi. Kiyik chaqqonlik qilib malikaning yonidan o‘tib ketibdi. Malika juda g‘azablanib, kiyikning ketidan ot qo‘yibdi. Yetib olib o‘q otibdi, tegmabdi. Malika ot qo‘yib ketayotganida tog‘ning bir chekkasidan bir yo‘lbars chiqib, malikaga yuguribdi. Ot yo‘lbarsdan hurkib orqaga tislangan ekan, malika otdan yiqilib tushibdi. Yo‘lbars malikaga yetishiga ikki qadam qolganda, yaqinda turgan cho‘pon tosh bilan yo‘lbarsning manglayiga bir uribdi. Yo‘lbarsning boshi tars yorilib, yerga cho‘zilibdi. Cho‘pon yugurib kelib malikani o‘rnidan turg‘azibdi. Malika uyalib hech narsa deyolmabdi.

Shu vaqt sakkiz yuz yigit yetib kelibdi, malikani bu ahvolda ko‘rib hayron bo‘lishibdi. Cho‘pon bechora nima qilishini bilmabdi. Malika darhol otga minib, qo‘lidagi uzugini cho‘ponga uzatibdi.

Malika saroyga qaytgandan keyin bir necha vaqtgacha ovga chiqmabdi. Endi gapni cho‘pondan eshiting.

Bechora cho‘pon malikadan ajrab qolgandan keyin uyiga bazo‘r yetib kelibdi. Qattiq kasal bo‘lib yotib qolibdi. Cho‘pon tog‘ xalqining eng yaxshi ko‘rgan farzandi ekan, uning ism-laqabi Muqbil toshotar ekan. Muqbilning to‘satdan kasal bo‘lib qolganiga tog‘ xalqi hayron bo‘libdi.

Muqbil tog‘ xalqining podasini boqib, uni yirtqich hayvonlardan saqlar ekan. Cho‘pon har qanday yirtqich hayvonni bitta tosh bilan urib yiqitar ekan. Yirtqichlar Muqbildan qo‘rqib, tog‘ xalqining yaqiniga, poda boqiladigan yaylovlarga yo‘lamas ekan. Muqbil kasal bo‘lgandan keyin, yirtqichlar tog‘ xalqining mol-joniga hujum qila boshlabdi.

Muqbil toshotarning qartayib qolgan otasi bilan onasi bor ekan. Ular Muqbilning kasaliga kuyib yig‘lashar ekan. Tog‘ odamlari Muqbilni har kuni ko‘rgani kelishar ekan. Ular ichida bir donishmand chol bor ekan. U bir kuni Muqbildan so‘rabdi:

— O‘g‘lim, sening kasaling unaqa-bunaqa kasal emas, ishq kasali bo‘lsa kerak. Rostini ayt, bolam, bu dard senga qaydin keldi? Kimga oshiq bo‘lib qolding?

Cho‘pon yotgan joyida ko‘z yoshi qilib:

— Ey, ota, nimasini so‘raysiz. Mening dardim tuzalmaydigan dardga o‘xshaydi, — debdi.

Shunda chol yana:

— Jon bolam, yuragingdagi dard-hasratingni ayt. Agar sen yaxshi ko‘rgan qiz osmondagi oy bo‘lsa ham olib beramiz, — debdi.

Cho‘pon malikani ko‘rganini, uning uzuk berganini birma-bir aytibdi.

Chol yigitning dardi ishqdan ekanligini bilib, bu sirni tog‘ xalqiga aytibdi:

— Bizning Muqbil toshotarimiz podshoh qizi Mehrinigorga oshiq bo‘libdi. Endi bunga biz iloj topishimiz kerak, bo‘lmasa Muqbilning dardi yana og‘irlashadi, — debdi.

Tog‘ odamlari o‘ylashib turib:

— Podshoh qizini Muqbilga bermaydi, — deyishibdi. Keyin ulardan biri:

— Shunday bo‘lsa ham kishi yuborib ko‘ramiz, bersa bergani, bermasa boshqa biror chora ko‘rarmiz. Muqbilni yo tilagiga yetkazamiz, yo podshohning g‘azabiga uchraymiz, — debdi.

Donishmand chol bir qancha kishini ergashtirib, podshoh qiziga sovchi bo‘lib boribdi. Podshoh ularga qarab:

— Xo‘sh, nima arzlaring bor? — deb so‘rabdi.

Donishmand chol hamma voqeani bayon qilib, keyin:

— Shohim, biz sizga qulchilikka keldik, — debdi. Podshoh tutoqib ketib:

— E, nodonlar, mening qizimga senlar sovchi bo‘lib keldilaringmi? Bu qanday nomus, yo meni mensimaysanlarmi? — deb sovchilarni zindonga soldiribdi. Keyin lashkarlariga qarab:

— Hammangiz borib sahroyilarning mol-mulkini olib keling. Muqbilni tiriklayin tutib keltiring! — debdi.

Lashkarlar tog‘ odamlarining mol-hollarini och bo‘riday talab, ko‘p jabr-zulm qilibdilar. Muqbilning otasi hamma voqeani o‘g‘liga aytib beribdi. Shunda Muqbil:

— Hali meni deb bechora xalq shu ahvolga tushdimi, — debdi-yu, palaxmonini yelkasiga osib, jang bo‘layotgan joyga ot choptirib ketibdi. Borib qarasa, podshoh lashkarlari hali ham xalqni ezib-yanchib talayotgan ekan. Muqbil darhol ularga qarshi jang boshlabdi. Lashkarlarning allaqanchasini qirib tashlabdi. Qolganlari o‘rdaga qarab qochishibdi. Borib podshohga arz qilishibdi:

— E, shohi olam, Muqbil toshotar juda zo‘r yigit ekan. Har qanday odamni bir musht ursa, til tortqizmay o‘ldirar ekan. Bir qancha lashkar o‘ldi, biz dargohingizga qochib qutuldik.

Podshoh bo‘g‘ilib, butun lashkarini yig‘diribdi, o‘zi bosh bo‘lib, jangga kiribdi.

Muqbil uzoqdan turib tosh bilan lashkarlarning boshlarini uchiraveribdi.

Podshoh Muqbilga baravar kelolmasligiga ko‘zi yetib, unga mana shu xatni yuboribdi:

„E, pahlavon yigit! Qizimni senga berishga roziman. Lekin bir shartim bor: ikki qo‘lingda to‘rttadan sakkizta yo‘lbarsni yetaklab kelasan. Agar shu shartimni bajo keltirsang, qizim seniki“.

Muqbil bu shartni qabul qilibdi, ammo podshohdan zindonda yotgan begunohlarni chiqarib yuborishni talab qilibdi. Podshoh bu talabni qabul qilibdi, zindondagilarni bo‘shatib yuboribdi.

Muqbil tog‘ xalqidan rozilik olib, yakka o‘zi yo‘lbars qidirib ketibdi. Yura-yura bir to‘qayzorga yetibdi. Qamishzorda uxlab yotgan bir yo‘lbarsni ko‘rib qolibdi. Vaqtni qo‘ldan bermay, bora solib uni bo‘g‘ibdi. Yo‘lbars

o‘rnidan turib Muqbil bilan olisha ketibdi. Muqbil yo‘lbarsni mahkam bo‘g‘ib olib, mushuk boladay qo‘lida o‘ynatib, bir-ikki marta yerga uribdi. Yo‘lbars gangib qolgandan keyin, tumshug‘iga behush qiladigan dori tutib, uni hushidan ketkizibdi, burnidan buroz solib, yo‘g‘on zanjir bilan daraxtga bog‘lab, yana yo‘lga tushibdi.

Yurib-yurib bir tog‘ga chiqibdi, unda yana bir yo‘lbarsga duch kelibdi. U bilan olishib, uni ham yengibdi: zanjir bilan bir katta daraxtga bog‘labdi. Shu yo‘sinda sakkizta yo‘lbarsni tutib bog‘labdi. Keyin ularning hammasini bir joyga yig‘ib, birin-ketin hushiga keltirib, tepib-tepib qo‘rqitib qo‘yibdi. Yo‘lbarslar qo‘rqqanidan boshlarini quyi solib, dir-dir titrar emish. Muqbil sakkiz yo‘lbarsni yetaklab yo‘lga tushibdi, yettinchi kuni kechqurun qishlog‘iga yetib kelibdi. Muqbilning o‘lja bilan omon-eson kelganini ko‘rgan qishloq xalqi juda sevinibdi.

Muqbil erta bilan qo‘lida to‘rttadan sakkizta yo‘lbarsni yetaklab, podshoh saroyiga boribdi.

„Muqbil toshotar shartni bajarib, sakkizta yo‘lbarsni yetaklab kelayotir“, deb hammaning yuragiga g‘ulg‘ula tushibdi. Odamlar uni ko‘rishlari bilan to‘s-to‘s bo‘lib qocha boshlabdilar. Yasovullar bu xabarni podshohga yetkazibdilar. Podshohni vahima bosib: „Men uni o‘lib ketar deb o‘ylagan edim, attang, tirik qolibdi“, deb bir qancha lashkar bilan Muqbilni kutib olishga chiqibdi. U noiloj bunday debdi:

— Balli, o‘g‘lim, balli! Shartimni bajaribsan. Endi qo‘lingdagi yo‘lbarslarni tog‘ga eltib, o‘sha yerda terilarini shil. Bu ishni qilib kelganingdan keyin senga yana bir shartim bor. Bu shartim shuki, Hotamtoyning boshini kesib keltirasan. Uning bitta yaxshi oti bor, shuni ham olib kelasan. Ana shundan so‘ng senga qizimni beraman.

Shohning va’dasida turmaganligi Muqbil toshotarga yoqmabdi. Muqbil o‘zicha o‘ylabdi: „Balki Hotam qaroqchi, xalqqa jabr qiluvchi kishidir. Bo‘lmasa uning boshi podshohga nima uchun kerak bo‘ladi. Xo‘p, mayli, shunday ekan, ikkinchi shartni ham o‘rniga qo‘yay. Shoyadki xalq zulmdan qutulsa“.

So‘ngra Muqbil qishloqdagi yor-do‘stlari bilan xayrlashib, Hotamning boshi bilan otini olib kelishga jo‘nab ketibdi. Muqbil bir qalandar suratiga kirib safarga chiqibdi, to‘rt oy deganda Hotamtoyning shahriga yetibdi. „Shu kecha biron joyda qo‘nay“, deb o‘ylab borayotgan ekan, katta anhor bo‘yida qirq yoshlar chamasidagi bir odam otini yuvib turganini ko‘ribdi. Muqbil undan:



«Muqbil toshotar» ertagiga ishlangan rasm

— Hotam shahardami yo biror yoqqa ketganmi? — deb so‘rabdi. Ot egasi javob beribdi:

— Hotamtoy shaharda. Yo‘l bo‘lsin, yigit. Musofirga o‘xshaysiz. Bugun biznikida mehmon bo‘ling, Hotamtoy oldiga ertaga borarsiz.

Muqbil o‘zicha: „Ayni muddao bo‘ldi“ deb sevinib, haligi odamning uyiga boribdi. Uy egasi Muqbilni yaxshilab mehmon qilibdi. Vaqt yarim kechadan og‘ganda uy egasi Muqbildan so‘rabdi:

— Yaxshi yigit, Hotamtoyda nima ishingiz bor edi?

— Ha, zarur ishim bor edi. Siz uni taniysizmi? O‘zi qanday odam?

— Ha, Hotamni taniyman, u shu shaharning kattasi bo‘ladi. Shunday bo‘lsa ham boshqa shohlar singari taxtda o‘tirmaydi, faqir singari xalq orasida yuradi. U kishida qanday ishingiz bor edi? — deb yana so‘rabdi uy egasi. Shunda Muqbil ancha noqulay ahvolga tushib, biroz jim qolibdi. O‘zicha: „Hotamtoy xalq orasida yursa, fuqaroga yomonlik qilmasa, yomon odam emas ekan-da“, deb o‘ylabdi, keyin bunday debdi:

— Men juda hayron bo‘lib qoldim. Yurtimiz podshosining amri bilan Hotamning boshini olib ketgani kelgan edim. Gapingizga qaraganda Hotam juda bahodir yigit ko‘rinadi. Men endi u bilan maydonda qanday olishar ekanman?

Uy egasi Muqbildan:

— Hotam sizga nima yomonlik qilgan edi? — deb so‘rabdi.

— Hotam-ku menga yomonlik qilgan emas, — debdi Muqbil. So‘ngra Hotamni nima uchun o‘ldirgani kelganini birma-bir aytib beribdi.

— Siz bu kecha yaxshilab dam oling, — debdi uy egasi, — erta bilan sizni Hotamga olib boray.

Muqbil uy egasidan minnatdor bo‘lib, uyquga ketibdi. Tong otibdi. Ertalab nonushtadan keyin Muqbil:

— Qani, Hotamning uyini menga ko‘rsatib qo‘ying, — debdi. Uy egasi:

— Hotam men bo‘laman. Podshoh aytgan otni bisotimda boshqa narsa bo‘lmaganidan, kecha so‘yib, sizga ovqat qildim. Siz oshiq yigit ekansiz, siz uchun bitta bosh emas, mingtasi ham qurbon bo‘lsin, — deb Muqbil oldiga tiz cho‘kib, boshini tutibdi. Muqbil Hotamning mardligini ko‘rib, yig‘lab yuboribdi.

So‘ngra bunday debdi:

— Yo‘q! Sizning boshingizni kesadigan qo‘lim qirqilsin! Podshoh qizini bermasa, bermay qo‘ya qolsin. Men sizdek saxiyning qurboni bo‘lay!

Hotamning bir o‘g‘li bor ekan, otasiga qarab debdi:

— Mehmon to‘g‘ri aytadilar. Baribir, siz boshingizni berganingiz bilan: „Bu bosh Hotamniki emas“, deb uchinchi shart qo‘yishdan toymaydi.

So‘ngra Muqbilga qarab:

— Otam siz bilan birga borsinlar, agar otamning boshi bilan sizdek muhtoj kishining hojati chiqadigan bo‘lsa, men mingdan mingga roziman, — debdi.

O‘g‘lining so‘zini Hotam ma’qullab debdi:

— Men bironta muhtoj odam hatto boshimni so‘rab kelganda ham ayamayman, deb ahd qilgan edim. Endi murodimga yetdim.

Muqbil nima qilarini bilmay, noiloj Hotam bilan yo‘lga tushibdi. Ular bir qancha kundan keyin Buxoro shahriga yetib kelibdilar. Muqbil Hotamni tashqariga qo‘yib, o‘zi podshoh saroyiga kiribdi. Podshoh Muqbilni ko‘rishi bilan darhol:

— Qani, Hotamning boshi bilan otini olib keldingmi? — deb so‘rabdi.

— Hotam saxiy yigit ekan, bilmasdan men uning uyiga borib, mehmon bo‘lib qolibman. Bisotida boshqa narsasi bo‘lmaganidan otini so‘yib, mendek bir musofirni mehmon qildi. Mening ahvolimni bilib, boshini qilichga tutib berdi. Lekin men shunday mard, saxiy kishining boshini emas, o‘zini tiriklayin olib keldim, — debdi. Podshoh:

— Qani Hotamning o‘zi! — deb qichqiribdi. Muqbil podshohdan Hotamni boshlab kelishga ijozat so‘rabdi.

Podshoh bosh qimirlatib ijozat beribdi. Muqbil Hotamni podshohga ro‘para qilibdi. Hotam podshohga salom beribdi. Podshohning rangi qochib, badaniga titroq turibdi. Keyin Hotam podshohga qarab:

— Siz yo‘qlagan Hotam men bo‘laman, —debdi.

Podshoh Muqbilga qarab:

— Men senga „Hotamning boshini keltir“, degan edim. Sen buni tiriklayin olib kelibsan, — degan ekan, Hotam:

— Men o‘z yurtimda boshimni bu yigitga tortiq qilgan edim, unamadi. Noiloj o‘zim birga keldim. Mana, marhamat, boshimni kestiring, shu bechorani murodiga yetkazing, — debdi.

Podshoh Hotamni o‘limga buyuribdi. Jallod Hotamni olib ketayotganda Muqbil chidolmabdi: bir musht urib jallodning yuzini teskari qilib qo‘yibdi, keyin podshohga g‘azab bilan:

— Sen qanday nomardsan! Shunday begunoh, mard, oliyjanob yigitni o‘ldiradigan bo‘lsang, qizingni bermay qo‘ya qol! Agar o‘ylaganing odam

o‘ldirish bo‘lsa, Hotam o‘rniga meni o‘ldir, — debdi. Podshoh tutoqib bo‘g‘ilibdi va Muqbilga qarab:

— O‘ldirsam sendan qo‘rqamanmi! — deb jallodni chaqiribdi, Muqbilni o‘limga buyuribdi:

Shu payt ichkaridan Mehrinigor yugurib chiqib, o‘zini Muqbilga tashlabdi. Podshoh g‘azab bilan:

— Uni ham o‘ldiring! — deb buyuribdi. Shunda Hotam:

— Ey, xoin podshoh, senda rahm-shafqatdan asar ham yo‘q ekan, har qanday yirtqich hayvondan ham battar ekansan! — deb yugurganicha borib, podshohga hujum qilibdi. Bunga qarshi podshoh qilich o‘qtalgan ekan, Hotam podshohning qilichli qo‘lini mahkam ushlab, yuziga bir tarsaki uribdi. Podshoh taxtdan ag‘darilib tushibdi. Hotam Muqbilga qarab:

— Taxtga chiqib o‘tiring, yigit, — debdi. Xalq zolim podshohni urib o‘ldiribdi, el-yurt so‘rashni Muqbilga topshiribdi. So‘ngra Hotamning o‘zi bosh bo‘lib Mehrinigorni to‘y-tomoshalar bilan Muqbilga olib beribdi. El-yurt tinch va farovon umr kechira boshlabdi.

Shunday qilib, Muqbil toshotar bilan Mehrinigor ikkisi murod-maqsadiga yetibdi.



Orzijon bilan Qambarjon

Bir zamonda bir podshoh o‘tgan edi. Uning Qambarjon degan o‘g‘li bor edi. Qambarjon bir kuni tushida Kan’on podshohining qizi Orzijonni ko‘rib, u bilan shirin suhbatlar qurdi. Har ikkisi bir-birini yaxshi ko‘rib, ishq-muhabbat izhor qilishdi. Qambarjon uyqudan uyg‘onsa, ko‘rganlari tush edi. Ammo Orzijonning ishqi uning yuragidan chuqur o‘rin oldi. Usiz turishga sabr-toqat qila olmadi. Qanday qilib bo‘lsa ham Orzijonning vasliga yetishish uchun ahd qilib, otasidan ruxsat so‘radi. Podshoh o‘g‘lining ishq savdosiga tushganini bildi, yo‘ldan qaytarishning ilojini topmay, unga o‘n sakkiz ming askar qo‘shib berdi.

Qambarjon o‘n sakkiz ming askarni ergashtirib, „Orzijon yorimning, tanamdagi jonimning Kan’on degan shahri qaydasan?“ deb yo‘lga ravona bo‘ldi. Yo‘l yurdi, yo‘l yursa ham mo‘l yurdi. Nihoyat Kan’on shahriga yetib borib, chodir-chamanini qurib yota berdi.

Kan’on shahrining podshohiga: „Shaharni allaqanday askarlar kelib o‘rab oldi!“ degan xabar yetdi. Podshoh elchi chiqardi va elchiga:

— Borib bilinglar-chi. Bu kelgan askar o‘tkinchi askarmikin, yo bizga yov bo‘lib kelganmikin? — dedi.

Elchi shahar darvozasidan chiqib, askarni oralab: „Sizlarning kattalaringiz qayerda?“ deb so‘roqlab, Qambarjonning chodiriga bordi. Otdan tushib, shahzodaga ta’zim qilib, podshohning nomasini topshirdi.

Qambarjon nomani olib o‘qib ko‘rsa, Kan’on podshohi: „Bu kelgan askar o‘tkinchi askarmi, yo bizga qarshi dushman bo‘lib kelgan askarmi?“ deb yozibdi. Qambarjon xatga javob yozib, elchiga topshirib aytdi:

— Sen elchi ekansan. Elchiga o‘lim yo‘q! Men Kan’on podshohining qizi Orzijonni tushimda ko‘rib, unga g‘oyibona oshiqi beqaror bo‘lib, o‘n sakkiz ming askar bilan kelganman. Podshohingga aytgin, yaxshilik bilan qizini bersa, bersin! Yaxshilik bilan bermasa, maydonga chiqsin! Kim xo‘roz, kim makiyon, bilishaylik, — dedi.

Elchi qo‘l qovushtirib:

— Xo‘p, sizning gapingizni podshohimga yetkazaman! — deb qaytib ketdi. Elchi borib, Orzijonning otasiga Qambarjonning xatini topshirib, aytdi:

— Ey, podshohi olam! Bu kelgan askarlar qizingiz Orzijonning ishqida kelgan ekan. Bularning shahzodasi Orzijonga g‘oyibona oshiq bo‘lib kelibdi: „Podshohingga borib aytgin! Qizini yaxshilik bilan bersa bersin, yaxshilik bilan bermasa, maydonga chiqsin!“ deb aytdi, — dedi.

Podshoh elchidan bu xabarni eshitib, o‘rnidan turib ketib:

— Dod! Faryod! Bormisan, mening tuzimni yeganlar, suhbatimda o‘tirganlar! Begona bir shahzoda qo‘shin tortib kelib, zo‘rlik bilan mening qizimni tortib olib keta beradimi? Bu menga qanday or, qanday nomus! Odam yo‘qmiki, chiqib shu yovni qaytarsa, o‘sha kishiga bir qoshiq suv bilan qizim Orzijonni nikoh qilib bersam! —dedi. Ammo hech kimdan sado chiqmadi. Podshohning yaxshi otini minganlar, yaxshi to‘nini kiyganlar, yaxshi oshini yeganlarning hammasi g‘ing demasdan, boshlarini yerga solib o‘tira berdi. O‘sha shaharda bir jodugar kampir bor edi. Shu jodugar chiqib aytdi:

— Taqsir! Men chiqib shu dushmanni qaytarsam, qizingizni o‘g‘lim Arshinboyga berasizmi? — dedi. Podshoh:

— He, bormisan! Tez qaytar! Qizimni o‘g‘lingga, albatta, beraman! — dedi. Shunda jodugar kampir:

— Bo‘lmasa, qizingizni o‘g‘limga berishlikka tilxat yozib, muhringizni bosib bering! — dedi. Podshoh vazirga buyurib, tilxatni yozdirib, muhrini urib berdi. Shunda kampir podshohga aytdi:

— Endi ish bitdi. Orzijonning qirqta kanizi, qirqta enagasini mening ixtiyorimga berasiz. Shularning hammasiga qora libos kiydirib, bellariga qora belbog‘ bog‘latib, qo‘llariga qora ro‘mol berasiz! — dedi.

Podshoh ayyor kampirning aytganlarini qildirib berdi. Ayyor kampir kanizak va enagalarga:

— Yigirmatang bu yonimga o‘tasan, yigirmatang bu yonimga o‘tasan, qolganing orqamdan ergashasan! Sizlar „Voy, xojam!“ deb yig‘laysizlar,

men: „Voy, Orzijon qizim!“ deb yig‘layman. Shu ahvolda darvozadan chiqib, kelgan askarlar o‘rtasidan yig‘lab o‘tib ketamiz!“ — dedi. Bular ayyor kampir aytganday qilib, bor ovozlari bilan ho‘ngrab, baqirib yig‘lab, askarning orasidan o‘tib ketayotganda, shahzoda bularning yig‘isini eshitib, o‘rnidan sakrab turib, vaziriga aytdi:

— Bu nima hodisa? Orzijon o‘libdi-da! Biz uning azasiga kelgan ekanmiz-da?! — dedi. Shunda Qambarjon shotirlarini chaqirib:

— Tezda otimning ayillarini qattiq tortib olib kelinglar! Men qabristonga borib, Orzijonning o‘lgan-o‘lmaganligini bilib kelaman! — dedi. Shotirlar darrov otni tayyorlab olib kelishdi. Qambarjon otga mindi. Ot o‘ynatib, qabristonga yetib bordi. Borsa, haligi qora kiygan xotin-qizlarning hammasi qabristonni quchoqlashib yig‘lab yotibdi. Shunda Qambarjon kampirga aytdi:

— Hoy kampir! Kimingiz o‘lgan?

Kampir aytdi:

— Kan’on podshohining qizi Orzijon bosh og‘rig‘i kasaliga giriftor bo‘lib, uch kecha-yu uch kunduz qattiq dard tortib, o‘lib qoldi. Shunga aza tutib, uch kundan beri kelib yig‘lab ketyapmiz, — dedi.

Bu gapni eshitgach, shahzodaning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib, askarlarining oldiga xomush holda yetib bordi. Askarlarini to‘pladi va ularga aytdi:

— Orzijon o‘lgan ekan! Endi ish tugabdi. Sizlarga javob. Hammalaringiz qaytib ketaveringlar! Men qolaman. Jahongashta bo‘lib, olamni kezaman. Qachon Orzijonga o‘xshagan yor topaman, undan keyin ota yurtiga qaytib boraman! — deb, kelgan askarlarni orqasiga qaytarib yubordi.

O‘zi esa shahzodalik liboslarini tashlab, bir qalandarga bir dona dur berib, uning jandasini olib kiydi-da, qalandar taxlitiga kirib, bir go‘lahga borib, Orzijonning ishqida oh tortib, kul titib yetti yil yotdi.

Qambarjonning askarlari qaytib ketgandan keyin jodugar kampir Arshinboy o‘g‘lini podshohga olib kelib:

— Mana kuyovingiz! Endi qizingizni bunga nikohlab bering! — dedi.

Kunlarning birida Orzijon ham tush ko‘rib, tushida Qambarjon bilan o‘zining avg‘on bog‘ida gullar orasida sayr qilgan edi. Shundan beri uning ishqida oh urib, ko‘kragini zaxga berib: „Men kasalman!“ deb yotib olgan edi. Kanizaklari uning tepasidan ketmay, yelpib, uqalab turar edi. Qizining kasalligi sababli otasi uni erga bera olmas edi. Shunday qilib Orzijon ham Qambarjonning ishqi o‘tida yetti yil kuydi. Qambarjon:

„Men yetti yil qalandarlik qildim. Qalandarlik ham jonga tegdi. Endi attorlik qilayin!“ deb bozorga borib, attorlik mollarini sotib olib, xurjunga solib, yelkasiga ortib, yorining ishqida yetti yil attorlik qildi. Oradan o‘n to‘rt yil o‘tdi. Malika ham Qambarjonning ishqida o‘n to‘rt yil oh urib yotdi.

Qambarjon: „Men yorning ishqida yetti yil qalandarlik qildim, yetti yil attorlik qildim. Ammo biror marta ham yor arkining tagidan o‘tmadim. Endi shu arkning tagidan o‘tayin. Uning bosgan tuproqlarini ko‘zimga surayin, yorning yurgan-turgan yerlarini ko‘rib, ko‘zlarim quvonsin! Yorning kanizaklaridan bo‘lsa, chiqib savdo qilsa, ular bilan gaplashsam, yurak o‘tim sal bosilarmikan?“ deb, Orzijon arkining tagiga: „Saqich ketdi-yo! Upa ketdi-yo! Atir ketdi-yo! Ipak ketdi-yo!“ deb kelib qoldi. Qambarjonning tovushi behol yotgan Orzijonning qulog‘iga yoqimli eshitilib, yuraklarini o‘ynatib yubordi. Orzijon shu kuni o‘rnidan turib, chinni hovuzda cho‘milib, badanlariga mushk-anbarlarni sepib, necha alvonlarni kiyib, o‘ziga jilva berib o‘tirgan edi. Shunda malika ko‘chaga qarab, attorni ko‘rib:

— Hoy, kanizlarim! Tushimda ko‘rgan yorim, tanamdagi jonim shu attorning xuddi o‘zi. Tezda turinglar! Xazinamdan bir siqim dur olib chiqib berib, saqich, ipak olib kelinglar! —dedi.

Kanizlar durni olib, chopqillashib ark tagiga chiqib, attor otining jilovidan ushlab:

— Xojamizga saqich, ipak, xina bering, — dedi. Shunda attor so‘radi:

— Sizlarning xojalaringiz kim?

Kanizlar:

— Bizning xojamiz Kan’on podshohining qizi Orzijon degan malika-da! — dedi, shunda attor:

— Orzijon degan malikaning o‘lganiga o‘n to‘rt yil bo‘ldi-ku! Go‘ridan qamishlar ko‘karib chiqdi-ku! —dedi. Shunda kanizlar aytdi:

— E, kalla deb qovoqni ko‘tarib yurgan ekansiz-da! Malikamiz o‘n gulidan bir guli ochilib, ravog‘ida o‘tiribdi. Ana, qarang! — deyishdi.

Qambarjon arkka shunday qarasa, Orzijon yori o‘n gulidan bir guli ochilib, gavhardan yasalgan olmani qo‘lida o‘ynab o‘tiribdi. Qambarjon qarashi bilan Orzijon qo‘lidagi olmani shahzodaning ko‘kragiga otib yubordi. Shunda shahzoda „Oh!“ deb, otning tagiga yiqilib tushdi. Qizlar uning tepasida chug‘urlashib qolishdi. Shahzoda bir soatdan keyin hushiga kelib, xurjundagi attorlik mollarining hammasini qizlarning etagiga to‘kib berdi va: „Xudoga shukr! Yorim o‘lmagan ekan! Endi tog‘ga borayin. Kiyik tutayin. Keyin kiyikni yorimga sovg‘a qilib olib kelib, uning o‘rdasiga

qo‘yib yuborayin, keyin yorimni ko‘rayin!“ deb otiga minib, tog‘ga qarab chiqib ketdi.

Malika: „Men uning ishqida o‘n to‘rt yil kuyib o‘tirgan bo‘lsam! Men bilan bir yo‘la ko‘rishmay, oldin kiyik olib kelay, so‘ngra ko‘rishaman deb tog‘ga chiqib ketdi! Men kiyikka zormidim?!“ deb Qambarjonning orqasidan bu g‘azalni o‘qib qoldi:

Belingda davot, qalam-ay,
Qo‘lingda Kalomullo-yay.
Kitob ochib qaragin-ay,
Yorga salom bormikin-ay!

Shunda shahzoda, Orzijonning baytini eshitib, otning boshini to‘xtatib: „Iyyi! Men yorimga salom qilmabman-a! Endi men ham bir bayt aytib, ko‘nglini olayin!“ deb bu baytni aytdi:

Belimda davot qalam-ay,
Qo‘ynimda Kalomullo-yay.
Kitob ochib qarasam-ay,
Yorga salom yo‘g‘akan-ay!

Bu gapni eshitib, malikaning qahr-u g‘azabi keldi va yoriga qarab, yana to‘rt misra bayt o‘qib:

Ovginang ov bo‘lmasin-ay, yigit-ay,
Dovginang dov bo‘lmasin-ay, yigit-ay.
Bir kiyikni quvlashib-ay, yigit-ay,
Sinib kelsin qo‘lginang-ay, yigit-ay, —

deb, yorini duoyibad qilib yubordi.

Shahzoda tog‘ning tagiga yetib borib, otining ayilini bo‘shatib, tog‘ga haydab, o‘zi otining dumidan ushlab, tog‘ga chiqib ketdi. Tog‘ning tepasiga chiqib, otini archaning shoxiga bog‘lab, u yoq-bu yoqqa qarasa, tog‘ning cho‘qqisida bir kiyik alanglab turibdi. Shu kiyikni ushlab olaman deb, cho‘qqiga chiqib ketdi. Kiyik buni ko‘rib qochdi, u kiyikni quvladi. Shunda bir toshning tepasidan sirg‘alib yiqildi. O‘ng qo‘lining bilagi sinib, pachaq-pachaq bo‘lib, ko‘ngli ketib qoldi. Shahzodaning oti uni ko‘rdi-yu, bir silkib, no‘xtani uzib, uning tepasiga yetib bordi. Egasini ko‘rib, ko‘zlaridan yoshini oqizib, suvlug‘ini chaynab, ustida motam tutib tura berdi. Shahzoda

hushiga keldi. Ko‘zini ochib qarasa, oti tepasida motam tutib turibdi, o‘zining qo‘li sinib qolibdi. Shahzoda dast o‘rnidan turdi. Belidagi ikkita zarrin ro‘molini yechdi. Biri bilan qo‘lini shiralab[1] bog‘ladi. Biri bilan qo‘lini bog‘lab, bo‘yniga osdi. Keyin otini yetaklab, pastga tushdi. Pastga tushib, otini minay desa, minolmaydi. Ne mashaqqatlar bilan bir katta toshning ustiga chiqib, arang otning ustiga o‘zini oldi. Yana yori ravog‘ining tagiga borib, besh bayt o‘qidi:

Aytganing aytgan keldi-yoy,
Deganing degan bo‘ldi-yoy!
Ovginam ov bo‘lmadi-yoy,
Dovginam dov bo‘lmadi-yoy.
Bir kiyikni quvlashib-oy,
Sinib keldi qo‘lginam-oy.
Xonga boraymi dodga-yoy,
Bekka boraymi arzga?
Bir musofir boshimni
Kimga aytib yig‘layin-oy?

Yorining bu nolasini eshitib, malikaning siylayi rahmi keldi. Yoriga qarasa, gulning bargiday rangi sarg‘aygan, zarrin ro‘mol bilan qo‘lini bog‘lab, bo‘yniga solgan. Yori yarador bo‘pti. Shunda Orzijon zarrin ro‘molini qo‘liga ushlab, bu ham ikki bayt o‘qidi:

Xonga bormagin dodga-yay,
Bekka bormagin arzga-yay.
Boshimda qo‘shoq ro‘mol-ay,
Birini olib, bog‘lab ol-ay, —

deb, qo‘lidagi ro‘molini pastga tashlab yubordi. Shunda malikaning ishq-muhabbati jo‘sh urib ketdi. Sabri chidolmay, o‘rnidan qo‘zg‘alib yetti kanizi bilan ravog‘idan pastga tushib, darvozaning biqiniga kelib, yorining ahvolini ko‘rib, yuragi to‘lib, qayg‘urib, ravog‘iga chaqirib, unga dori-darmon qilishga iloj topmay:

— Siz falon hovliga boring. Unda mening bir enaxonim turadi. Shunga borib, eshigini taqillatsangiz, chiqadi:

---

[1] **Shiralab** — tarasha qo‘yib.

— Nimaga chaqirding? — desa:

— O‘g‘li yo‘qqa o‘g‘il bo‘laman, qizi yo‘qqa qiz bo‘laman! — desangiz, sizni o‘g‘il qilib oladi. Shunikida yuraverasiz. Ikkimiz shu kampir orqali aloqa qilamiz. Nima gapingiz bo‘lsa, unga aytasiz, u sizning gapingizni menga kelib aytadi, mening gapimni sizga borib aytadi, — dedi.

Bu kampir o‘zi jodugar edi. Bir yeganda qirqta qo‘yning go‘shtini yeb qo‘yar edi, bir ichganda qirq mesh suvni ichar edi.

Shunda Qambarjon yori bilan xayrlashib, otini minib yo‘lga tushdi. Toq-toqiyon[1] borib, qamchisining sopi bilan kampirning eshigini urdi. Shunda kampir:

„Eshikni kim taqillatdi?“ deb o‘rnidan tura kelib, eshikni ochib qarasa, bir g‘ulmonday go‘zal yigit ot ustida turibdi. Kampir Qambarjonning husn-jamolini ko‘rib, behush bo‘lib yiqildi. Qambarjon bu ishni ko‘rib: „Endi qizig‘i chiqdi-yu! Bu kampir mendan qo‘rqib ketib ag‘anab tushdi. Basharti yuragi yorilib o‘lib qolsa, ketidan o‘g‘illari chiqib, onamni o‘ldirib qo‘yibsan, deb menga osilsa, unda nima bo‘ladi?“ dedi. Keyin: „Agar qaytib ketsam nomardlik bo‘ladi“, deb otdan tushib qarasa, kampirning joni bor. Shunda shahzoda bir qo‘li bilan etagini ushlab, kampirni yelpidi. Kampir bir soatda hushiga keldi, ko‘zini ochib, boshini ko‘tarib, o‘rnidan turdi. Shahzoda yana ko‘chaga chiqib, otiga minib turdi.

Shunda jodugar kampir shahzodani ot-poti bilan ko‘tarib, hovliga olib kirib ketdi. O‘zini otdan ko‘tarib olib, uyiga olib kirib, sakkiz qavat ko‘rpaning ustiga yotqizdi. Otini otxonaga olib kirib bog‘ladi. Qambarjonning qo‘lini yechib, issiq suv bilan yuvib, necha xil dorilarni surtib, bog‘lab qo‘ydi. Darrov maskayog‘dan muloyim ovqatlarni pishirib kelib, oldiga qo‘ydi. Shahzoda ovqatlardan tanavvul qilib, yotib uxladi.

Kampir har kuni asr bilan shom o‘rtasida uyini berkitib chiqib ketar va Orzijonning ravog‘iga borib, u bilan suhbatlashar, tuni bilan uning o‘ng biqinida yotib, erta bilan yana uyiga qaytib kelar edi. Qambarjon uyqudan uyg‘ondi. Kampir:

— Bolam, men mahallada yurib, bola tug‘diradigan enachi xotinman, hozir podshoh sarkardasi xotinining to‘lg‘og‘i bor ekan. Hali kelib aytib ketgan edi. Shunga borib, xotinini tug‘dirib, erta bilan kelaman. Sen tilsim uyda yotasan. Tashqariga chiqma! Eshikda katta qopog‘on it bor. Chiqsang o‘n joningdan bir joningni qo‘ymaydi: men eshikni

---

[1] **Toq-toqiyon** — yakka o‘zi.

berkitib ketaman. Erta bilan kelib ochaman, nima gaping bo‘lsa, erta bilan gaplashamiz, — dedi.

Kampir shahzodani uy ichida qoldirib, malikaning oldiga ketdi.

Malika yorining ishqida kuyib, uning uchun oh urib, qirq o‘rim uzun qora sochlarini baraq-baraq qilib yozib tashlab, qirqin qizlari bilan o‘tirgan edi. Malika: „Kampir enamning daragi bo‘lmayapti. Nimaga kech qoldi ekan?! Yorim omonmi? Yoki kampir tiriklayicha yutib qo‘ydimi?“ deb, ikki ko‘zi ko‘chada bo‘lib turdi. Malika uzoqdan kampir enasini ko‘rib:

— He ona! Tezroq keling! Yorimni angqatmay-changqatmay, yomon so‘z aytmay, parda ichida saqlayapsizmi? — dedi. Shunda kampir malikadan bu gapni eshitib, sinchalagini tishlab, to‘xtab qoldi:

— Men sening yoring ekanligini bilmabman! — dedi. Malikaning ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushdi. — Agar bilganimda paranjimga o‘rab olib kelib, qo‘yningga solib qo‘ymasmidim! Qog‘ozdek g‘ijimlab yotar eding! Ertalab yana olib ketar edim, — dedi kampir. Bu gapni eshitib, malika diljam bo‘ldi va:

— Yorimni eshikka yotqizmabsiz-da! Eshikda yotqizganingizda men yorimga shu'lamni solib yotar edim, — dedi. Malika oppoq tong otguncha yorining hasratidan gapirib chiqdi. Kampir:

— Qo‘rqma, qizim! Yor hamma vaqt o‘zingniki, — dedi.

Endi bir kalima so‘zni shahzodadan eshiting. Qambarjon saltanat ko‘rpaning ustida yotib, men yorning ishqida har qadamimda qazoga rizo bo‘lib, yo‘lga chiqqanman. Endi bir itdan qo‘rqib tashqariga chiqmay o‘tiramanmi? Yakkaning yori xudo, yigit so‘zidan, yo‘lbars izidan qaytmaydi, deb borib eshikning bir qanotini ko‘tarib, turumini chiqardi. Kallasini tashqariga chiqarib, „ahha“, „ahha“ deb yo‘taldi. Ammo hech yerdan itning sharpasi kelmadi. Shunda Qambarjon yalang‘och qilichini yelkasiga qo‘yib, tashqariga chiqib qarab tursa, yorining shu'lasi tusha-yotgan emish. „Bu shu'la qayerdan kelyapti ekan? Yoki yorimning shu'lasimikan?“ dedi. Atrofni aylanib, shu'lani topaman deb, kampir-ning avg‘on bog‘iga kirib qoldi. Avg‘on bog‘ning mevalaridan yeb yurib, qo‘shni bog‘ga tushdi. Bu bog‘ Orzijonning bog‘i edi: „Bu bog‘ yorimning avg‘on bog‘imikan? Yorimning avg‘on bog‘i bo‘lsa, eshigini topib, turumini ko‘tarib ochib, ichkari o‘rdaga kirib, yorim uyquda yotgan bo‘lsa, shakar labidan bir bo‘sa olaman!“ dedi. Etagini turmushlab, qilichini yelkasiga qo‘yib, bog‘ning eshigini topdi. Eshikning turumini ko‘tarib ochdi. Ichkari o‘rdaga kirdi. Yorining ravog‘iga borib, qirq zinali ravoqqa chiqib ketdi.

Ravoqqa chiqib qarasa, yori qirq qavat adras ko‘rpaning ustida bir savam paxtani tashlab qo‘ygandek, hamma yoqqa shu’la sochib yotibdi. O‘ng biqinida haligi jodugar kampir, chap biqinida qirq kanizagi qatorlashib, hammasi qator tizilishib yotibdi. Yorining yigirmata kokili chap tarafiga, yigirmata kokili o‘ng tarafiga chulg‘anib yotibdi. Qambarjon asta borib yori yotgan taxtning tepasiga chiqdi. Uning oyday jamolini ko‘rib, yuragi dukullab urib ketdi. Orzijonning yelka tarafiga qo‘lini tashlab, yuzidan bir o‘pib, tushib ketdi. Yori qattiq uyquda edi, bilmay qoldi. Qambarjon: „Xudoga shukr! Yorimning vaslidan menga bir luqma nasib bo‘ldi! O‘lgan tanamga jon kirdi!“ deb, sekin pastga tushdi. Eshikning turumini joyiga solib, yorining avg‘on bog‘idan kampirning bog‘iga o‘tib, kampirning uyiga kirib, eshigining turumini yana o‘z joyiga solib, o‘rniga borib yota berdi.

Vaqt subhi sodiq bo‘lgan edi, malika cho‘chib uyg‘onib ketdi. Qarasa, labiga uchuq toshib ketibdi. Malika kampirni uyg‘otdi.

— Hoy, onayi mehribon! Kechasi birov kelib yuzimdan bo‘sa olib ketibdi. Shuni izlab toping! Terisini ustara bilan shilib, qalampir-tuz tiqay, — dedi. Kampir turib:

— Hoy, bolam! Arkning tagida otangning qirqta shotiri va bir qancha qul-u cho‘rilari poyloqchi bo‘lib yotgan bo‘lsa, seni kim kelib o‘pib ketar edi! O‘zing cho‘chigandirsan! — dedi.

Shunda malika:

— Yo‘q, onajon? Meni birov kelib o‘pib ketgan. Bo‘lmasa, labimga uchuq toshmas edi. Bugun kechasi eshikka qorovul qo‘ying, — dedi Kampir:

— Yoningda meningdek onang yotibdi, men pashshaning kelganini bilaman, kim kelar edi? — dedi. Shunda malika:

— Erta bilan maska yog‘iga qatlama qilib, ikkita anor bilan yorimga olib boring! Yorimga oshiqona salomimni yetkazing! Agar yorim kelib o‘pib ketgan bo‘lsa, roziman! Agar yorim kelmay, bo‘lak bir odam o‘pgan bo‘lsa, uni tutish kerak! — dedi.

Malika maska yog‘ida pishirilgan to‘rtta qatlama bilan bir juft anorni kampirdan yoriga berib yubordi. Kampir qatlama bilan anorni olib borib qaraydiki, eshikning qulfi joy-joyida turibdi. Kampir qulfni ochib, ichkariga kirsa, Qambarjon qo‘yning yog‘idek kilkillab, adras ko‘rpaning ustida uxlab yotibdi. Kampir:

— Hoy, bolam! Tur o‘rningdan! Yoring senga ko‘pdan-ko‘p salom aytdi! — dedi. Yigit o‘rnidan turib: „Yorim salomat bo‘lsin!“ dedi. Kampir:

— Nimaga menga siringni aytmading? — dedi. Shunda Qambarjon aytdi:

— Ena! Men yurakdagi dardimni aytguncha, siz: „Men mahallada enachi xotinman, har qancha siring bo‘lsa, ertaga erta bilan aytarsan“, deb ketaverdingiz! — dedi.

Kampir Orzijon berib yuborgan taomni Qambarjonning oldiga yozib qo‘yib:

— Bu narsalarni yoring senga berib yubordi. Ol, yegin! — dedi. Yana kampir:

— Hoy, bolam! Bu kecha sen borib, yoringning yuzidan bo‘sa olib keldingmi? Agar olgan bo‘lsang, yoring sendan ikki dunyoda rozi ekan. Agar sen borib bo‘sa olmagan bo‘lsang, poyloqchi qo‘yib tutish kerak, deb aytdi, — dedi.

Shunda Qambarjon:

— Hoy onayi mehribon! Men bu shaharga musofir bo‘lsam, ko‘chalarning o‘ng-u do‘ngini bilmasam, qanday qilib malikaning o‘rdasiga borib ravog‘iga chiqa olay? — deb, borganidan tondi.

Shunda kampir:

— Hoy bolam! Sen borib o‘pmasang, kim borib o‘padi? — dedi. Qambarjon:

— O‘ziga ishonchi, mendan boshqa yori bordur-da. Bo‘lmasa unday joylarga borib, malikani o‘pib kelishga kimda had bor? — dedi. Kampir xudoni o‘rtaga solib aytdi:

— Bolam, rostingni ayt! Agar sen borib o‘pgan bo‘lsang, o‘pganman degin, yoring sendan u dunyo-yu bu dunyo rozi. Agar o‘pmagan bo‘lsang: „Xudo haqi, o‘pganim yo‘q?“ degin, u holda poyloqchi qo‘yib ushlatamiz! — dedi.

Shunda Qambarjon:

— Endi, siz xudoni o‘rtaga qo‘yib so‘radingiz. Rostini aytsam, men borib o‘pgan edim! — dedi. Shunda kampir:

— Otangga rahmat! Sen asl o‘g‘il bola ekansan! Bunday ishlar kimning qo‘lidan keladi?! Men seni kechqurun Orzijonning oldiga olib borib qo‘yaman. Erta bilan yana olib kelaman, — dedi. Shunda Qambarjon o‘rnidan turib, kampirga qulluq qildi. Kampir:

— Endi, bolam! Sen avg‘on bog‘ga kirib, to qosh qorayguncha sayr-u tomosha qilib yurgin, — dedi. Qambarjon avg‘on bog‘ga kirib aylanib yurdi. Peshin haddiga borgan ediki, podshoh o‘rdasidan qirqta karnay-surnay, bolobomning ovozi kelib qoldi. Bu ovoz kampirga ham eshitildi.

Kampir o‘rnidan turib quloq solib: „Bu nima hodisa?“ deb yugurib bog‘ga kirdi, Qambarjonga:

— Bolam! Sen shu yerda o‘tirib turgin! Men o‘rdaga borib, xabar olib kelayin-chi, nima gap o‘zi? — dedi. Kampir endi jo‘namoqchi bo‘lib turgan ediki, bir kaniz yugurib kelib:

— Hoy ona, tez yuring! Malika yig‘lab o‘tiribdi, qo‘qqisdan malikaning to‘yi bo‘lib qoldi! — dedi. Shunda kampir: Podshoh qizini mendan beso‘roq erga bermas edi-ku, nima gap bo‘lib qoldi?!— deb kaniz bilan birga podshohning oldiga jo‘nadi.

Kampir o‘rdaga borsa, o‘rda darvozasining tomida o‘n to‘rt karnay, o‘n to‘rt surnay, o‘n to‘rt nog‘ora, o‘n to‘rt bolobom chalinyapti. Hamma u yoq-bu yoqqa yugurgan, o‘rda ichi, ko‘chalar supurilib, suvlar sepilgan. Hamma to‘y taraddudida. Kampir to‘ppa-to‘g‘ri podshohning oldiga kirib, undan:

— Nimaga karnay-surnaylar chalinyapti? — dedi.

Shunda podshoh turib aytdi:

— Qizim o‘n to‘rt yildan beri o‘zini kasallikka solib yotadi. Endi omonatni egasi talab qilyapti. Avvalo o‘g‘lingga qizimni beraman, deb kampirga tilimdan xat berib qo‘yganman. Bermasam bo‘lmaydi. Podshoh o‘z hukmini o‘zi buzsa: „Xudo yo‘q!“ degan bilan barobar bo‘ladi. Shu sababli Arshinboyga Orzijonni berish uchun to‘yni boshlab yubordim. Tepada turib, to‘yni o‘tkazib, qizni oborib, uyiga qo‘ndirib keling! — dedi.

Kampir bu gaplarni eshitib, hayron bo‘lib, podshohning ra’yini qaytarolmay, endi bir tadorigini o‘ylab topish kerak, deb podshohning ko‘ngli uchun:

— Xo‘p, podshohim! Orzijon qizimning to‘yini albatta bosh bo‘lib o‘tkazaman, deb Orzijonning oldiga kirib ketdi. Orzijonning oldiga kirsaki, yig‘lab o‘tiribdi. Kampir kirishi bilan, uning bo‘yniga osilib:

— E, onajon! Endi men yorimdan ayrilib, Arshinboynikiga ketib qolamanmi? — deb yig‘lay berdi.

Shunda kampir:

— Bolam, yig‘lama! Bir chorasini qilamiz: yoringni avg‘on bog‘ga qo‘yib kelganman. Qosh qoraygan vaqtida uni boshlab kelib, o‘choqning oldiga o‘tqazib qo‘yaman. Sen yoringga qarab bayt o‘qiysan, u senga bayt o‘qiydi. Shunda men chirog‘ni o‘chirib qo‘yaman, Qambarjonni sening oldingga kirgizib yuboraman. Shunda yoring bilan gapni bitta qilasan! Men ketyapman, kechqurun uni boshlab olib kelaman, — dedi-da, kampir chiqib ketdi. Malikaning ko‘ngli ancha taskin topib, yorining kelishini kutib o‘tirdi.

Kampir shaboxun urib uyiga qaytib keldi. Darrov Qambarjonning oldiga chiqdi-da:

— Hoy bolam! Yoringning to'yi bo'lib qolibdi! Seni kechqurun uning oldiga olib boraman. To'y bor yerga quruq borib bo'lmaydi. Podshohnikiga dasturxon qilib boray desam, uyimda hech nimam yo'q, — dedi. Shunda Qambarjon:

— Huv anavi g'ishtni olib keling! — dedi. Kampir g'ishtni olib keldi. Shunda Qambarjon Sulaymon payg'ambarning niginini[1] tilining tagiga tashlab: „Yo Sulaymon payg'ambar!" deb, g'ishtning ustidan bir hatlab o'tdi. G'isht oltin bo'lib qoldi. Kampirga bu oltinni hadya qildi:

— Oling, ona! Bu sizga mendan tekkan shinilg'i[2]. Shuni ushatib, podshohnikiga dasturxon qilib boring! — dedi. Kampir xursand bo'lib, oltin g'ishtni uyiga olib kirib, sandig'iga solib qo'ydi. Saqlab qo'ygan tanga, tillalarini olib, bozorga chiqdi. Sovg'alar oldi. Uyiga kelib, qatlama, somsalarni pishirib, savatga solib tugdi, ustiga sovg'a-salomlarini qo'yib, qosh qorayganda Qambarjonni paranjisining ichiga olib, dasturxonni ko'tarib, to'yga olib ketdi.

Qambarjonni olib borib, o'choqning yoniga o'tqazib qo'ydi. Shunda qiz-u juvonlar Qambarjonning husni jamoliga termulib qolishdi. Kampir malikaning yoniga kirdi va:

— Yoringni olib kelib, o'choqning oldiga o'tqazib qo'ydim, endi gaplashaver! — dedi. Malika o'choq tomonga qarasa, yori o'choq yonida bir dasta guldek bo'lib o'tiribdi. Malika yoriga shama qildi:

Charxim bor, chambarim bor,
Mushkim bor, anbarim bor.
Orzijonning to'yida-yay
O'lanchi Qambarim yo'g'-ey!

Bu baytni eshitib, Qambarjonning ko'ngli buzilib, yoriga javob qaytarib, shama qilib, bu ham to'rt yo'l bayt aytdi:

Charx kuysin, chambar kuysin,
Mushk kuysin, anbar kuysin!
Orzijonning to'yida
O'lanchi Qambar o'lsin!

---

[1] **Nigin** — uzuk.

[2] **Shinilg'i** — hadya.

Qambarjon shu baytni o‘qigan ediki, kampir o‘rnidan turdi va o‘tirganlarga ishora qilib:

— Chiroq xiralashib ketyapti. Birortalaring ham chiroq piligining uchini olishga yaramaysizlar! O‘zim olayin deb, chiroq piligining uchini olayotgan kishi bo‘lib, chiroqni o‘chirib qo‘ydi. Qambarjonni Orzijonning oldiga kirgizib yubordi.

Orzijon bilan Qambarjon qorong‘ida bir-birlarini topishib, egizak mag‘izdek bo‘lib ketishdi. Orzijon yoriga aytdi:

— Otam meni Arshinboyga beraman, dedi. U mening tengim emas. Men sizga oshiq bo‘lganman. Otam Arshinboyga beraman deganda, men rozi bo‘lmagan edim. Otam mening ko‘nmaganimga ham qaramay unga bermoqchi bo‘lgan edi, o‘zimni kasalga solib, sizning ishqingizda o‘n to‘rt yil yotdim. Endi otam zo‘rlik bilan to‘yni boshladi. Arshinboynikida mening holim nima bo‘ladi? Bu qanday jabr, qanday zulm? Men Arshinboyga xotin bo‘lmayman! Siz qarab turaverasizmi? Meni qutqarish chorasini ko‘rmaysizmi? — dedi. Shunda Qambarjon aytdi:

— E, aziz yorim! Tanamdagi jonim! Siz aslo g‘am yemang! Sizni otangizning zulmidan, Arshinboyning changalidan qutqarib olaman. Menda Hazrati Sulaymon payg‘ambarning nigini bor. Niginni mendan oling. Sizni Arshinboynikiga olib ketish uchun ot keladi. Shunda niginni tilingizning tagiga tashlab, so‘ngra otga minsangiz, niginning xosiyati bilan otning beli uzilib ketadi. Boshqa yangi ot keladi. Uni minsangiz, uning ham beli uzilib ketadi. Shunday qilib, ellikta otning beli uzilib ketadi, hamma hayron bo‘ladi. Shunda men otimni minib, attorlik qilib, aylanib yurgan bo‘laman. Shunda kampir onangiz: „Hoy o‘sha attorning oti asl tulpor ko‘rinadi. Bunday ot podshohlikda yo‘q. Orzijonni o‘shandan boshqa ot ko‘tara olmaydi. Attorni to‘xtatinglar. Qirq-ellik tilla berib, qizni o‘shaning otiga mindirib olib boraylik!“ desin. Shunda men: „Har kimning fe’li egasiga ma’lum. Otimning fe’li o‘zimga ma’lum. Otim yomon, oldidan kelganni oldidan oladi, orqadan kelganni orqasidan oladi, yonidan kelganni yonidan oladi“ deyman. Shunda yana qistashadi. Men: „Arshinboyning sag‘risi katta kelini mening ham otimni mayib qilsinmi?“ deyman. Siz bu gapimdan achchiqlanmang, do‘st-dushman oshiqligimizni bilib qolmasin! Shunda enaxonim aytsinlarki: „Hoy, bolam! Otingning fe’li o‘zingga ma’lum bo‘lsa, men qo‘limga behining gavronini olib, qiz-juvonlarni haydab, ularning qorasini ko‘rsatmay turaman, sen malikaga jilovdor bo‘lib borib, kelinni joyiga qo‘yib kelasan. Jilovdorlik haqingni ham beramiz!“ desin. Shunda men rost ko‘cha qolib, past ko‘cha bilan sizni o‘z mamlakatimga



«Yalmog‘iz kampir» ertagiga ishlangan rasm

olib qochaman! Endi menga ruxsat bering, men hozirligimni ko‘ray, siz tilla jabduqli otning kelishini kutib turing! — deb uydan chiqib ketdi.

Qambarjon yorining oldidan chiqib kampirga:

— Ish bitdi. Siz qizingizning oldiga kirib, undan gap olib, men aytganlarni qilinglar. Kalitni menga bering. Men ham uyga borib, hozirligimni qilayin! — deb, kampirdan kalitni olib, kampirning o‘rdasiga bordi. Otning ayilini qattiq qilib tortdi. Bir xurjunga turli narsalarni solib, yolg‘ondakam attor bo‘lib, otni minib, podshohning o‘rdasiga borib, to‘yga kelgan odamlarning orasida u yoqdan-bu yoqqa o‘tib, kettichilik qilib yura berdi. O‘rda ichi o‘yin-kulgi, ashula ovozlari bilan to‘lgan, ko‘chada tomoshabinlar benihoya ko‘p edi. Hamma Arshinboynikidan kelinoyimga otlar kelishini kutar edi. Shunda birdan Arshinboynikidan qiz-u juvonlarga qirqta yasatig‘liq soyabon arava keldi. Kelinga yasatig‘liq tilla jabduqli ot keldi.

Shunda necha yuz qiz-juvon qo‘sh chirmandalar chalib, necha alvon o‘lan va yor-yorlarni aytib, kelinoyimni tilla jabduqli otning oldiga olib kelishdi. Qiz-juvonlar shovur-shuvur bilan aravalarga chiqib o‘tirishdi. Aravaga sig‘maganlari piyoda bo‘lib ergashdi. Shunda Orzijon yori bergan Sulaymon payg‘ambarning niginini tilining tagiga solib: „Yo boboyi Qambar!“ deb otga mindi. Otning beli mayib bo‘lib, qiz otning ketiga umbaloq otib, yiqilib tushdi. Turganlar: „Dod! Kelin mayib bo‘ldi“ deb yugurib kelib, kelinning qo‘ltig‘idan ko‘tarib olishdi. Yana bir ot keltirishdi. Orzijon niginni og‘ziga solib otga mindi. Bu otning ham beli nobud bo‘ldi. Ketma-ket ikkam ellik otning beli nobud bo‘ldi. Bu ahvol hammani hayron qoldirdi. Podshoh ham tashvishga tushdi. Endi nima qilamiz, deb turgan choqlarida boyagi jodugar kampir turib gapga kirdi:

— Hoy, kalla deb qovoqni kiygan sarkardalar! Shuncha ot nobud bo‘lib ketdimi? Hech qaysing ot bilmas ekansan. Huv anovi attorning otini ko‘rdizmi? Asl tulporning bolasi. Bunday ot podshohlikda yo‘q. O‘sha attor bilan gaplashib, ellik tilla berib, otini kiraga olinglar! Malikani shu otga mindiringlar. Agar beli nobud bo‘lmasa, o‘sha ot oborib qo‘yib keladi. Jilovdorlik haqini ham shu attor olsin. Agar oti nobud bo‘lsa, ellik tillaga boshqa ot olsin! — dedi. Bu gap sarkardalarga ma’qul bo‘lib, „attor“ni chaqirib kelishdi. Kampir attorga aytdi:

— Hoy inim! Ko‘rib turibsan, shuncha ot mayib bo‘ldi. Sening oting asl tulporning bolasi ekan. Ellik tilla kira beraylik. Kelin sening oting bilan uyiga borib olsin! — dedi. „Attor“ aytdi:

— He, ona! „Itining fe'li egasiga ma'lum“ degan gap bor. Otimning fe'li o'zimga ma'lum. Otim oldidan kelganni oldidan, ketidan kelganni ketidan, yonidan kelganni yonidan oladi. Arshinboyning sag'risi katta kelini otimni minib, belini mayib qilib qo'ysinmi? — dedi.

Shunda kampir aytdi:

— Jon inim, ellik tillani olgin, xo'p degin. Savob bo'ladi. Agar oting nobud bo'lsa, shu ellik tillaga ot sotib olasan, agar nobud bo'lmasa, kelinning yonida jilovdor bo'lib borasan, jilovdorligingga bitta bo'rdoqi qo'y olasan! Axir sen ham pul topaman deb kettichilik qilib yuribsanda! — dedi. „Attor“ rozi bo'ldi. Shunda kampir:

— Endi otdan tush, otni yasataylik! — dedi. Attor otdan tushdi.

Ustidagi abzallarini olib qo'yib, tilla jabduqlarni urib, tepasiga mamlakat xirojiga arziydigan zarvaraqlarni urib, otni yasatishib, kelinposhshoning oldiga olib kelib, ko'ndalang qilib qo'yishdi. Shunda kelinposhsho tilining tagidagi niginni olib, sinchalog'iga soldi va chap qo'li bilan egarning qoshidan, o'ng qo'li bilan egarning qoptolidan tutib: „Yo Sulaymon payg'ambar!“ deb otga mingan edi, ot suvlug'ini chaynab, bitta g'ishtning ustida o'ynab turdi. Shunda jami sarkardalar, donolar va tomoshabinlar otga tan berib, tahsin-ofarin aytishdi.

Attor otning jilovidan ushlab jo'nadi. Kampir aytdi:

— Aravalar keyinroq jo'nasin, qiz-juvonlar yor-yoridan, chirmandalarning tovushidan ot cho'chimasin! —deb, to kelinning qorasi ko'rinmay ketguncha aravalarni va odamlarni o'tkazmay turdi. Ularning qorasi ko'rinmay ketgandan keyin aravalar, piyoda tomoshachilar shovqin-suron bilan yo'lga tushdi. Kampir qo'liga behining uzun gavronini olib, sekin yur deb odamlarni sekinlatib keldi. Qambarjon otni tez yetaklab ketdi. Yo'lda yoriga gap gapirsa, u javob qaytarmaydi. U yerini ushlaydi, bu yerini ushlaydi — gapirmaydi. „Nozik oyog'ingizni uzangi og'ritdimi?“ deydi, gapirmaydi! „Hilva qo'llaringizni qamchi qavartirdimi?“ desayam, gapirmaydi; „Alifdek qomatingizni egar og'ritdimi?“ desayam gapirmaydi. Shunda yori gapirmaganidan Qambarjonning dardi o'n hissa oshdi.

Shu payt ot uch ko'chaning oldidan chiqib qoldi. Shunda Qambarjon o'ng oyog'ining shilp-shilp etganini sezib, oyog'ini kavushidan chiqarib qarasa, ichi to'la qon. U yoriga jilovdor bo'lib, yoriga gapirib kelayotganida ot uning oyog'ini bosaveribdi, yorning shaydosi bo'lib, oyog'i ezilganini sezmabdi. Kavushlar qonga to'libdi. Shunda Qambarjon yorning rahmi kelarmikin deb, to'rt-besh bayt o'qidi:

Oting boshi tez keldi-yoy
Yetib oyog'im bosdi-yoy.
Yetib oyog'im bosganda
Sarpoyam to'ldi qonga-yoy.
Xonga boraymi dodga-yoy
Bekka boraymi arzga!
Gul kiygan, kuloh kiygan
Menga solmagin zulm-oy.
Menga solsang zulm-oy,
Qazosiga roziman-oy.
Bu musofir boshimni-yoy
Kimga aytib yig'layin-oy?!

Bu nolishni eshitib Orzijon irg'ib tushib qaraydiki, yorining ikki oyog'i laxta qonga botibdi. Malikaning siylayi rahmi kelib, boshidagi zarrin ro'molini olib bittasida qonini artib tashladi, bittasida oyog'ini tarasha qo'yib shiralab bog'ladi. Shunda malika aytdi:

— Eli xalqning ichida „Arshinboyning sag'risi katta kelini" deganingizga achchig'im kelganidan indamadim. Dadamning yetti iqlim shahriga shu „sag'risi katta qiz" degan gapingiz tarqab ketadi-da! — dedi.

Shunda Qambarjon:

— Oshiq-ma'shuq ekanligimizni do'st-dushman bilmasin deb jo'rttaga aytgan edim, — dedi. Shunda Orzijon Qambarning oyog'i yarador bo'lganidan, otasi qizini o'z sevganiga bermaganidan zorlanib:

Zolimning zulmi qursin-oy,
yigit-oy!
Barchani xunob ayladi.
Xonga boraymi dodga-yoy,
yorim-oy!
Bekka boraymi arzga-yoy!? —

dedi va:

— Shahzoda! Endi sizni mana bu ko'chaga yuring deyolmayman, men aytgan ko'chaga yursangiz, Arshinboy eshigining tagidan chiqib qolsangiz, zomini qiyomatga qolmayin. O'zingiz xohlagan ko'changiz bilan meni olib qoching! Shunda Qambarjon otining ayilini mahkam tortib, qattiq qamchin urdi. Ot lochini tezparday qochdi. Shunda ot o'n besh odimini bir odim qilib, o'n besh daqiqa yurib, Arshinboy eshigining

tagiga yetib borib, taqqa to‘xtab qoldi. Qambar ahvolni bilib, o‘zidan ketib, otining tagiga „shilq“ etib yiqilib tushdi.

Shunda kelinning kelishini kutib turgan yigitlar kelinning yo‘liga o‘t yoqib yuborishdi. Arshinboy kelib ot ustidan kelinni ko‘tarib olib, yetti qadam bosib yerga qo‘ydi-yu, yigitlarning ichiga qochdi. Darrov xotin-qizlar kelib, kelinni qurshab olib, yor-yorlar aytib, arkning tepasiga olib chiqib, chimildiqning ichiga o‘tqizishdi. Shunda kelin kampirni chaqirib:

— Ona! O‘g‘lingiz yo‘lni bilmay, bu yerga olib kelib qo‘ydi. O‘zi behush bo‘lib yiqilib qoldi. Siz uning holidan xabar oling! Agar hushiga kelgan bo‘lsa, aldab-suldab bu yerga olib kiring, bir-ikki misra bayt aytib, ko‘nglini olay! — dedi. Kampir yigitning oldiga borib:

— Hoy, o‘g‘lim, tur o‘rningdan! Yoringning oldiga olib kiray. Bir-ikki misra bayt aytar ekan. Tinglagin, nima deyishini bilgin! — dedi. Yigit o‘rnidan turdi. Ayyor kampir bir hiyla bilan uni yorining oldiga olib kirib, o‘choqning yoniga o‘tqazib qo‘ydi. So‘ng malikaga: „Yoring keldi!“ deb bildirdi. Shunda Qambarjon: „Yorim qo‘ldan ketdi!“ deb malikadan ilgari shoshilib, o‘ziga o‘lim tilab, nola qilib, bayt o‘qib yubordi:

Charx kuysin, chambar kuysin-ay, xudo-yoy!
Mushk kuysin, anbar kuysin-oy!
Orzijonning to‘yida-yoy
O‘lanchi Qambar o‘lsin-oy!
Balosiga sabr qildim-oy, xudo-yoy!
Qazosiga roziman-oy!

Shunda kelin: „Hurmatimni qilmay mendan ilgari bayt o‘qidi. To‘rt misra bayt o‘qib, shahardan badarga qilib yuboray!“ deb:

Ko‘p qayg‘urma, qariysan,
yigit-oy!
Ko‘p oh urma, horiysan-oy!
Mundan nariga borsang-oy,
Oysuluvga yetarsan-oy! —

dedi.

Kustontoniya podshohining qizi bor edi, uning oti Oysuluv edi. U bilan Orzijon yoshligida o‘rtoq bo‘lib: „Agar erga tegsak, bitta erga tegamiz!“ deb ahd-u paymon qilishgan edi. Orzijon Qambarjonga: „Sen

o‘shanga borgin!“ deb shama qildi. Shunda Qambarjonning achchig‘i kelib: „Har kim suygan oshini ichadi-da! Meni o‘rtog‘iga ravo ko‘rib, shama qilyapti!“ deb kampirga uyning kalitini topshirib, otini minib, tog‘ning o‘nguriga kirib ketdi. Qambarjon ko‘p vaqt riyozat chekib, tog‘larni, ko‘llarni kezib yurib, tilsim tog‘ga kirib qoldi. Tilsim tog‘ning ichida uch kun yurib, chiqib ketishga yo‘l topolmay qoldi. Shunda yorning sha’niga bayt o‘qidi:

Bir cho‘pon devona bo‘ldim
Chashmi mastonang ko‘rib.
Ko‘rmayam ishqingda kuydim
Ikki ruxsoring ko‘rib.
Ko‘chada qildi rasvo-yay,
yorim-ay,
Sunbuli zarkokiling-ay!
Ichga to‘lgan hasratim-ay
Kimga aytib yig‘layin-ay!
Dod, voydod-ay,
Endi dodimga yetkin-oy!

Shu paytda bir ola kiyik paydo bo‘ldi. Qambarjon uni quvdi. Kiyik Qambarjonni ergashtirib, bu tog‘ning o‘ngiridan chiqarib yubordi-da, birdan g‘oyib bo‘lib ketdi.

Shunda Qambarjon o‘z musofirligiga xafa bo‘lib:

...Bu musofir boshimni-yay
xudo-yay!
Kimga aytib yig‘layin-ay?! —

deb cho‘lda ot o‘ynatib keta berdi. Yo‘lda kiyik otib, go‘shtini o‘t topsa, pishirib yeb, o‘t topmasa, xomligicha yeb, keta berdi. Oxirda bir sarchashmalik daryoning labiga yetib keldi. Daryoning labida bitta chinor bor edi. Chinorning soyasi uch tanob joyni olib yotar edi. Qambarjon otini chinorning shoxiga bog‘ladi. O‘zi daryoda cho‘mildi. O‘rnidan turib qarasa, Balx shahri podshosining qizi qirqta kanizi bilan tilla jomchaga qatiqlarni solib, daryoning labida bosh yuva boshlashdi. Qambarjon chinorning panasiga qochib turdi. Shunda bir kanizak ko‘rdiki, bir tilla jabduqli ot chinor shoxiga bog‘log‘liq turibdi. Kanizak malikaga qarab:

— Malikam, huv anavini qarang! Bir yasatig'liq ot turibdi. Oti shunchalik chiroyli, egasining husni qanday ekan? — dedi.

Shunda ikkita kaniz bilan ikkita qari enaga otning egasini axtarib ketishdi. Ular chinor orqasidagi ot egasini ko'rib, qaytib kelib, malikaga uning sifatini maqtashdi.

Shunda Qambarjon: „Bular meni zulm bilan olib qolarmikin!" degan xayolga bordi. „Uch ko'chaga kelib qolibman. Shu qizlardan Kustontoniyaning yo'li qaysi!" deb, bir so'rab ko'ray-chi, rahmi kelib, yo'lga solib qo'yarmikin, deb ularga qarab bayt o'qidi:

Gul kiygan, kuloh kiygan-oy,
qizlar-oy!
Menga solmanglar zulm-oy!
Menga solsanglar zulm-oy,
Qani, qaysiykin, yo'lim-oy?

Qambarjonning baytini eshitib, malika o'yladi: „Bu yigit yorning ishqida chiqqan yigitga o'xshaydi. Yo Kustontoniyadagi Oysuluvxonning oldiga ketyapti yoki boshqa bir yoqqa ketyapti. Oshiqlarga yordam qilish — savob ish. Agar Oysuluvxonning oldiga borsa, to'rt misra bayt bilan yo'lga solib yuboray!" deb, bayt o'qib:

Gul kiysang, kuloh kiysang,
yigit-oy!
Senga solmasin zulm-oy!
Senga solsalar zulm-oy,
Anov ko'ringan yo'ling-oy! —

dedi va qo'li bilan ishorat qildi. Qambarjon malikaga qulluq qilib otiga minib, yo'lga ravona bo'ldi. Qambarjon shu ketganicha yetti kecha-yu yetti kunduz yurib, bir vaqt shu baytni aytdi:

Tog'-u toshlarni kezib-ay,
xudo-yay!
Yuraklar zangor bo'ldi-yay!
Bu musofir boshimni-yay,
Kimga aytib yig'layin-ay?

Shunda Qambarjonning qirq odimi bir odim bo'lib, Kustontoniya shahriga kirib ketdi.

Kustontoniya katta shahar bo‘lib, anchagina darvozasi bor edi. Qambarjon bir darvozasidan o‘tib, ichkariga kirsa, o‘ng tarafida ming tanobli bog‘, chor atrofidagi devori to‘rdan. Bog‘da turli mevalar pishib turibdi. Bog‘ning atrofida bir sarhovuz bor. Sarhovuzning atrofiga marmar tosh o‘rnatilgan. Hovuzning atrofiga to‘rt tup tilla daraxt o‘rnatilganki, tanasi zumraddan, shoxlari la’li-yoqutdan, barglari zabarjaddan. Har qaysi tilla daraxtning shoxida tilla qafas, ichida bulbullar sayrab turibdi. Ajab bir xushxonlik bor. Qambarjon: „Shu bog‘ har kimsaning bog‘i bo‘lsa, qazosiga roziman, nima qilsa qilsin!“ deb, qilichi bilan to‘rni bir urib, buzib kirdi.

Qambarjon bog‘ga kirib, otini bir qizil gulga bog‘lab, bog‘ni tomosha qilib yurdi. Bog‘ning bir tomonida olma, nok, shaftolilar; bir tomonida uzum, anjirlar pishib yotibdi. Qambarjon uzumzorga kirib, kattaqo‘rg‘on uzumidan bir bosh uzib, cho‘qilab yeb o‘tirdi. Shunda bog‘dagi qushlar Qambarjonning husniga xushtor bo‘lib sayrab, uning bosh, oyog‘iga qo‘naverdi. Qambarjon oxiri charchab, shoxlari bir-biriga mingashib, kapa bo‘lib qolgan gulning tagiga kirib uxlab qoldi.

Bu bog‘ Kustontoniya podshosining qizi Oysuluvning bog‘i edi. Yigit bilmasdan kirib, uxlab qolib edi. Qushlar kapa gulning tepasiga kelib, o‘z tillarida sayrashaverib, bog‘ni boshlariga ko‘tarishdi. Oysuluvxon qirq zinali ravog‘ining tepasida bosh yuvib o‘tirgan edi. Qushlarning zavq-shavqlarga to‘lib sayragan tovushlaridan taajjublanib, kanizlariga:

— Hoy, qizlar! Avg‘on bog‘dagi qushlar bugun juda boshqacha sayrayapti-ya! Har kuni bunday sayrashmas edi! Yuringlar, avg‘on bog‘ni bir sayr qilib chiqaylik-chi, nima gap ekan! —dedi. Shunda malika o‘ziga oro berib, necha xil alvonlarni kiyib, qirq kokiliga shingillarni[1] osib, qirq kanizi bilan bog‘ni aylanib yurib, ko‘cha tomondagi to‘rning buzilganini ko‘rib achchiqlandi. Yonidagi qilichini g‘ilofidan sug‘urib:

— Hoy, qizlar! Shu to‘rni buzgan odamni topinglar! Uni kallaminor qilaylik![2] — dedi. Shunda barcha qizlar, enagalar bog‘ni qidirib ketishdi. Ko‘rdilarki, bir qizil gulda tilla jabduqli chiroyli ot bog‘log‘liq turibdi. Shunda kanizlar aytdi:

— Malikam, bu otni ko‘ring! Qanchali chiroyli ot! Buning egasi ham juda chiroyli bo‘lsa kerak?! — deyishdi. Malika:

---

[1] **Shingil** — tilla va kumushdan yasab, sochga va bo‘yinga taqiladigan bezak.

[2] **Kallaminor qilmoq** — *boshini kesmoq, o‘ldirmoq.*

— Otning egasini topish kerak! — dedi. Kanizlar bog‘ning ichini yetmish marta aylanib otning egasini topolmadi. Oxirida Sakinaxon degan bir kaniz gulning tagida qo‘lida yarim bosh uzum bilan to‘lpog‘day bo‘lib, uxlab yotgan yigitni ko‘rib qoldi. Shunda Sakinaxon borib, malikaga:

— Malikam, otning egasini topdim. Kapa gulning tagida bir savam paxta tashlab qo‘yganday uzala tushib yotibdi, qo‘lida yarim bosh uzum bor, — dedi.

Shunda malika qirqin kanizlari bilan kapa gulning oldiga keldi. Ko‘rdiki, tepada qushlar sayrayapti, yigit cho‘zilib yotibdi. Malika ovoz qildi:

— O, hoy to‘lpog‘im! Sen qaysi bog‘ning gulisan, qaysi chamanning bulbulisan, qanday gavhar donodan bino bo‘lgansan? O‘rningdan turib, tilga kir! — dedi. Yigit uyg‘onmadi. Shunda malika:

— Uyg‘onmadi, qattiq chaqirmaylik! Shikastalik topmasin. Cho‘chib, labiga uchuq toshmasin! — deb, shu baytni aytdi:

Gulga kel-o, gulga kel-ay!
yigit-ay!
Gulni qo‘yib, bulbulga kel-ay!
Gul tagida yotgan yigit-ay!
Tura kelib, tilga kel-ay!

Malikaning yoqimli ovozi yigitni uyg‘otdi. Yigit shunday qarasa, bir malika jamoli o‘n to‘rt kunlik to‘lgan oydek, qirq kokilini har tomonga tashlab, g‘uncha labini tishlab, nozik belini ushlab, qirq kanizi bilan turibdi, necha alvon liboslar uzasida. Yigit malikaga qarasa, oy desa og‘zi bor, shirindan shakar so‘zi bor, o‘ng betida chaparasta xoli bor. Qambarjon: „Orzijon aytgan Oysuluvxon shumikan-a? Mabodo shu bo‘lmagay!“ deb, unga qarab shu baytni o‘qidi:

Gulni gulga urdilar-ay,
yorim-ay!
Gul tikanin terdilar-ay.
Suyub olgan yorimni-yay,
Bir nokasga berdilar-ay!

Shunda malika yigitni kapa gulning tagidan chiqardi. Uning husniga oshiq bo‘lib, ravog‘iga olib chiqib, adras ko‘rpaning ustiga cho‘ziltirib qo‘ydi. Uzoq yo‘l yurib, horiganligini bildi. Shunda malika mis qozonni osib, maskadan muloyim ovqat qilib yedirdi. Qambarjonning tanasiga quvvat kirib, irg‘ib o‘rnidan turib, bir gulidan o‘n guli ochilib, chordona qurib, langar to‘kib o‘tirdi. Ana endi Qambarjon Oysuluvxondan:

— Ey, go‘zal malika! Siz kimsiz? — deb so‘radi.

Shunda malika:

— Men Kustontoniya podshosining qizi Oysuluvdirman, siz Orzijon o‘rtog‘imning yori Qambarjon emasmisiz? Biz ikkalamiz bitta yigitni yor qilamiz, deb ahd qilishganmiz. Siz o‘rtog‘imning to‘lpog‘ yori bo‘lsangiz, endi mening ham to‘lpog‘ yorim bo‘ling, — dedi. — Men tezpar qilichimni yalang‘ochlab, otamning oldiga borib aytayin, ikkimizga nikoh xutbasini o‘qitsin! So‘ngra ikkovlon bir-birimizning diydorimizga to‘yishib, boshimizdan o‘tgan sarguzashtlarni qo‘zg‘ashaylik! —dedi.

Qambarjon qarasa, Oysuluvxonning avzoyi boshqacha: otasi xo‘p desa-demasa, o‘ziga yor qilib olib, bir dasta gulday g‘ijimlab, ko‘ksiga tortadigan chog‘i bor. Qambarjon aytdi:

— Hoy Oysuluvxon, oppoq qiz, jonon qiz, shoshmang! Ikki tarvuz bir qo‘ltiqqa sig‘adi deb eshitganmisiz? Ikki ishq bir ko‘ngilga sig‘maydi. Chin oshiqman degan er ko‘ngil qo‘yganidan qaytmaydi. Men Orzijonni tushimda ko‘rib, g‘oyibona oshiq bo‘lib, ota-onamdan, yurt-elimdan kechib, uning ishqida necha yil kuyib, oxirda visoliga yetar chog‘imda uning to‘rt og‘iz achchiq gapidan dimog‘im kuyib, majnun bo‘lib chiqib ketganman. Orzijondan to ro‘zi qiyomat umidimni uzmayman, undan o‘zgani demayman. Agar siz Orzijon yorimning do‘sti bo‘lsangiz, *mening ham do‘stimsiz. Siz Orzijon bilan bir yigitni yor tutamiz,* deb ahdlashgan bo‘lsangiz ham bu ahdingizdan qayting, aka-singil bo‘laylik! — dedi.

Oysuluvxon Qambarjondan bu gaplarni eshitib, hayron bo‘lib turib qoldi. Es-hushini yig‘ishtirib, yana bir necha so‘z qilib ko‘rdi. Qambarjon unamadi. Oysuluvxon bildiki, Qambarjonning Orzijonga bo‘lgan muhabbati chin muhabbat. Oysuluv o‘z ichida Qambarjonga tan berdi, oshiqlik bo‘stonining aynimas guli bo‘lganligi uchun unga tasanno aytdi.

— Sizday vafodor yigitga rahmat! Sizning ishqingiz aynimas ishq ekan. Bo‘lmasa, qiyomatlik aka-singil bo‘laylik. Siz mening ravog‘imda, bog‘-u rog‘imda bir necha kun yotib dam oling! — dedi.

Shundan so‘ng Oysuluvxon Qambarjonni izzat-ikrom bilan tarbiyalayverdi. Oradan qirq kun o‘tdi. Qambarjon Oysuluvxonga aytdi.

— Hoy, Oysuluvxon! Men yorim Orzijon tufayli sizdek malika bilan ko‘rishib, qiyomatlik aka-singil bo‘lishdik. Meni qirq kun tarbiyaladingiz. Sizga ming-ming rahmat! Endi menga ruxsat bersangiz!

Oysuluvxon aytdi:

— Sizning yuragingiz Orzijonning ishq o‘ti bilan doim yonib turganini bilaman. Orzijonning otasi Arshinboyga uzatgani bilan Orzijon unga xotin bo‘lmaydi. Agar ketar bo‘lsangiz, men ham birga boray, Orzijonni

qutqarib olib, sizning ota yurtingizga olib borib, to‘y-tomoshalaringizni o‘tkazib qaytib kelayin!

Oysuluvxon otasidan ruxsat olib, yo‘l hozirligiga kirishdi.

Podshoh qiziga qirqta qul, qirqta enaga xotin, qirqta kaniz berdi, qirqta qo‘y-qo‘zi berdi, necha xachirga zari-zarvaraq yuklab berdi va qiziga:

— E, qizim, bu narsalarni Qambarjondan Orzijonga sovg‘a qilib olib boring. Ikki oshiqning boshini qovushtiring. Savobga qolasiz! — dedi. Ularga zerikkanlaringda uchirib, o‘ynatib, ko‘ngil ochib ketasizlar deb hakkav[1] kaptarxonasi bor soyabon arava berdi, tantana bilan xayr-ma’zur qilib jo‘natdi.

Ular xursandchilik bilan yo‘lga ravona bo‘lishdi. Bular yo‘l yurdi, yo‘l yursa ham mo‘l yurdi. Bir necha marohil tay qilib, o‘n to‘rt kunda Orzijonning shahriga kirib borishdi. Orzijonning bog‘dodi eshigining tagiga kelib, turnaqator bo‘lib to‘xtadi. Shunda Oysuluvxon zarvaraq paranjisini yopinib, zarrin chimmatini tutib, Qambarjonga qarab:

— Men Orzijonning oldiga kirib, kelganligingizni bildiraman, siz bilan ketishga rozi qilib, devordan uning narsalarini tashlataman. Siz narsalarni olib aravaga solasiz. Orzijonning o‘zi devorga chiqib, ayri minib o‘tiradi, uni ham ko‘tarib olib, aravaga o‘tqazing. Orqasidan men chiqaman, meni ham aravaga soling, so‘ng tezlikda ot qo‘ying! — dedi.

Oysuluvxon Orzijonning bog‘iga kirdi. Qarasa Orzijon adras ko‘rpada „Voy boshim, voy qo‘lim!“ deb bemor bo‘lib yotibdi. Yigirma kaniz uqalab, yelpib turibdi. Orzijon bu yerga kelgandan buyon o‘zini kasalga solib yotgan edi. Arshinboy har kuni uyga boshini suqib, „Yorim darddan forig‘ bo‘ldimikin, forig‘ bo‘lgan bo‘lsa, yuzidan bir bo‘sa olaymikin“, deb qarab, kirolmay chiqib ketar edi. Orzijon Oysuluvxonni ko‘rib, irg‘ib o‘rnidan turdi. Taxtidan tusha kelib, o‘rtog‘i bilan quchoqlashib, yig‘lashib, so‘rashdi. Shunda Orzijon Oysuluvdan:

— Hoy, o‘rtoqjon! Yorim dastingizda salomatmi? — dedi. Oysuluvxon:

— Yoringiz salomat, hozir avg‘on bog‘ingiz devori tagida sizni kutyapti — dedi. Shunda Orzijon turib, kanizlariga:

— Hoy qizlar! Mening jonajon o‘rtog‘im, yorug‘ dunyoning xirojini sarf qilsa ham kelmaydigan mehmonim kelibdi. O‘zi kelgan mehmon atoyi xudo! Tezda oshxonaga chiqib, turli-tuman taom pishiringlar! — deb hammasini chiqarib yubordi. Oysuluvxon aytdi:

— O‘rtoqjon! Eringiz sizga mahtal bo‘lib turibdi. Siz narsalaringizni tayyorlab, tezda bog‘ga chiqing, narsalaringizni devordan irg‘itib, o‘zingiz ham devorga chiqing, men bu yoqdan chiqib boraman! — dedi.

---

[1] **Hakkav** — kaptarning oq, nasldor bir turi.

Orzijon kerakli narsalarini oldi va qizlariga:

— O‘rtog‘imga o‘z qo‘lim bilan mevalardan uzib chiqayin, — deb bog‘ga kirib ketdi, bo‘xchalarini devordan otdi, o‘zi ham devorga ayri mindi.

Qambarjon tugunlarni ham, yorini ham ko‘tarib oldi. Oysuluvxon bo‘lsa:

— O‘rtog‘im bog‘da aylanib qoldi. Aravakashim serzarda edi. Chiqib, u-bu deb, tinchitib kelay! — deb, paranjisini yopinib, shaboxun urib, chiqib ketdi. Qambarjon buni ham olib, aravaga qo‘ydi. Qambarjon otga bir qamchi urdi. Ot charchagan joyigacha chopib ketdi. Tug‘doq degan joyga borganda ot charchab qoldi. Bular damlarini olishdi. Oysuluvxon butun voqeani bayon qilib, Qambarjonni Orzijonga topshirdi.

Keyin hammalari Qambarjonning shahriga jo‘nashdi. Yetti kecha-yu yetti kunduz riyozat chekib, bir manzilga borib to‘xtashdi. Shunda Qambarjon otasiga: „Biz Orzijon, Oysuluvlar bilan falon manzilda turibmiz, darhol yo‘lga odam chiqaring“, deb xat yozdi. Otasi shodligidan olamga sig‘may ketdi. Karnaychi, surnaychi, nog‘orachi, bolobomchi, qiziqchilarni peshvoz chiqardi. O‘rdasiga qirq karnayni qo‘ydirdi, qirq qozonni qurdirib, yurtga osh-nonni tortaverdi.

Shaharda ko‘chalar, tomlar, daraxtlar odam bilan to‘lib ketdi. Ikki qizning ustidan dur-u javohir sochib, o‘rdaga olib kirishdi. Shunda Qambarjon chopqillaganicha mehribon onasining oldiga kirib ketdi. Kirsa, onasi farzandining dog‘i-hasratida yig‘layverib, ikkala ko‘zi ko‘r bo‘lib, bir chekkada ustunga suyanib o‘tirgan ekan. Borib onasi bilan ko‘rishdi. Qambarjonning cho‘ntagida kiyikning o‘ti bor edi. Onasining ko‘ziga surtgan edi, uning ikkala ko‘zi yarqirab ochildi. Ona-bola bir-birining diydorini ko‘rib, qayta boshdan ko‘rishdi. Qambarjon onasining oldidan otasining yoniga kirib, u bilan ham quchoqlashib ko‘rishdi. Ota-bola bir-biriga to‘yishmay ancha ko‘rishdi. So‘ngra Qambarjon ota-onasiga Orzijon bilan Oysuluvxonni tanishtirdi: „Mana bu Orzijon kelinigiz, Oysuluvjon — qiyomatlik singlim!“ — dedi. Hammalari ketishib, xursand bo‘lishdi.

Qirq kecha-kunduzgacha fuqarodan hech kim uyida qozon qaynatmay, podshohning to‘yidan osh-non yedi, to‘y-tomosha xursandchilik bilan tugadi. Orzijonni Qambarjonga nikohlashdi. To‘ydan keyin podshoh saltanat tojini Qambarjonga kiydirib, saltanat taxtiga mindirdi. Oysuluvxon o‘rtog‘i Orzijon bilan Qambarjonning to‘y-tomoshasini o‘tkazib, o‘z yurtiga jo‘nadi. Shu bilan hammalari murod-maqsadlariga yetdi.



Yalmog‘iz kampir

Bor ekanda, yo‘q ekan, och ekanda, to‘q ekan. Burungi zamonda chol-u kampir bor ekan. Bularning bir o‘g‘li bor ekan. O‘g‘lining bir oltin soqqasi bor ekan. Kunlardan bir kun tirama[1] bo‘lib sovuq tushib qolibdi. Bular yaylovdan qishloqqa ko‘chibdi. Bolaning oltin soqqasi yaylovda esidan chiqib qolibdi. Keyinchalik esiga tushib:

— Ena, ena, oltin soqqam qayerda? — debdi. Enasi:

— Otangdan so‘ra, — debdi. Bola otasi oldiga borib:

— Ota, ota, oltin soqqam qayerda? — debdi. Otasi:

— Ey, bolam, yaylovda qolibdi, ola toyingni minib, olib kela qol, — debdi.

Bola darrov ola toyni egarlab, ustiga minib, yaylovga qarab otini choptirib ketibdi. Kun ham botay deb qolibdi. Yaylovga borsa, bir yalmog‘iz kampir bolaning oltin soqqasini o‘ynab o‘tirgan emish. Bola kampirni ko‘rib qo‘rqib, orqasiga qaytay desa, oltin soqqasini ko‘zi qiymabdi. Shu turgan joyida yalmog‘iz kampirdan:

— Oshig‘imni bering, — deb so‘rabdi. Yalmog‘iz kampir:

— Ey, bola, men o‘zim o‘lib borayotgan kampirman, oshig‘ingni olib berguday holim yo‘q. O‘zing toyingdan tushib ol, — debdi. Bola toyidan tushishga kampirdan qo‘rqib:

---

[1] **Tirama** — kuz.

— Olib ber, deyman, — deb kampirning yaqinrog‘iga toyni hezlab boribdi. Kampir yana:

— O‘zim o‘lib borayotibman, senga soqqani olib berishga holim kelmaydi, mana, o‘zing ola qol, — deb soqqani beriroqqa qo‘yibdi. Bola toyini hezlab kelib oltin soqqani olib qochibdi. Yalmog‘iz kampir dadil o‘rnidan turib bola orqasidan quvib ketibdi. Bola toyini choptirib qocha beribdi. Yalmog‘iz kampir quva beribdi. Ola toy charchab qolib, yalmog‘iz kampir bolaning orqasidan yetay deb qolibdi. Oqshom o‘tib tong otay deb qolibdi. Bolaning oldidan bir yaxshi to‘qimlangan eshak chiqib qolibdi. Bola toyni shu yerga tashlab, eshakka minib yana qocha beribdi. Eshak ham charchab, yalmog‘iz kampir yetay deb qolibdi. Bolaning oldidan egar-yuganlangan bir yaxshi ot kishnab chiqib qolibdi. Bola eshakdan tushib, otga minib yana qocha beribdi. Yalmog‘iz kampir quvlayveribdi. Shu kuni oqshomgacha chopib, ot ham charchab qolibdi. Yalmog‘iz kampir yana bolaga yetay deb qolibdi. Bola oldidan jihozlangan nor tuya chiqib qolibdi. Bola otni shu yerga tashlab, tuyani minib qochibdi. Kampir quva beribdi. Shu kuni tuni bilan yurib tuya ham charchab qolibdi, yalmog‘iz kampir ham yetay deb qolibdi. Bir joyga borsa, yo‘lda ko‘p poda uchrabdi. Bola tuyani shu yerga tashlab, poda ichiga kirib minay desa, hech qaysisi mindirmabdi. Bolaning ko‘ziga bir buzoq ko‘rinibdi. Bola borib darrov buzoqqa minib qochaveribdi. Kuni bilan qochib, kun kech bo‘lib qorong‘i govgum bo‘lib qolibdi. Kampir yana yetay deb qolibdi. Buzoq og‘zini ochib nafasini yuborgan ekan, tuman tushib qolibdi. Yalmog‘iz kampir bolaning qorasini ko‘rmay adashibdi. Buzoq bolani bir tog‘ning kamariga olib boribdi. Bola buzoqning ustidan tushib, belidagi kamari bilan buzoqni bog‘lamoqchi bo‘libdi. Buzoq bolaga:

— Meni bog‘lama, men hech qayerga ketmayman, sen bilan jo‘ra bo‘laman, — debdi. Bolaning qorni ochib, uyidan beliga o‘rab chiqqan nonidan yeb, qolganini yana beliga tugib qo‘yibdi. Shu yerda bola bilan buzoq uxlab, oqshom o‘tib tong otibdi. Buzoq o‘tlab kelaman deb tog‘ ustiga chiqib ketibdi. Tog‘ga chiqib qarasa, tog‘ning narigi tomonida katta qo‘rg‘on, atrofi mevazor ekan. U yerga har yili yozda podshoh ko‘chib kelib shikor qilar ekan. Buzoq o‘tlab-o‘tlab shu podshohning qo‘rg‘oniga borib qolibdi. Podshoh qizining qirqta cho‘risi bor edi, hammasi ham sho‘x-sho‘tanoq qizlar edi. Buzoqni ko‘rib ushlab olishdi. Ustiga chopon solib minib, hovlining ichida u yoqdan-bu yoqqa o‘ynay boshlashdi. Podshohning qizi ko‘shkida o‘tirib bularni tomosha qilayotsa, cho‘rilar kelib:

— Siz ham buzoqqa mining, — deyishdi. Podshohning qizi buzoqqa minishni nomus qilib:

— O‘zlaring minib o‘ynay beringlar, men shu yerda tomosha qilib qarab o‘tiraman, — dedi. Cho‘ri qizlar yana:

— Mining, juda mingich ekan, — deb qo‘ymagandan keyin:

— Ha, bir minib ko‘ray-chi, — deb buzoq ustiga minibdi. Buzoq hozlining goh u boshiga, goh bu boshiga yo‘rg‘alab yuribdi. Podshohning qizi:

— Ha, bu juda yuvoshgina buzoq ekan-da, — deb kechgacha buzoq ustida yuraveribdi. Kun kech bo‘lganda buzoq chopib darvoza oldiga borib, bir og‘zini ochib, nafasini chiqaribdi. Tuman tushib, cho‘rilarning ko‘ziga podshohning qizi ko‘rinmay qolibdi. Buzoq podshoh qizini olib, tog‘dan oshib, do‘stining oldiga qizni olib kelib:

— Mana, bu qizni senga olib keldim. Endi meni so‘y, ikki ko‘zimni bir joyga, butun tanamni bir joyga ko‘m, — debdi. Bola buzoqning gaplarini qulog‘iga olib buzoqni so‘yibdi. Butun tanasini bir joyga, ikki ko‘zini bir joyga ko‘mibdi. Bola bilan qiz ertasi uyqudan tursa, buzoqning ikki ko‘zi ikkita tozi bo‘libdi, butun tanasi yaxshi bir hovli bo‘libdi. Ravotning ichiga har turli kashtali gilamlar to‘shalgan, har xil jihozlar bilan yasatilgan. Qiz bilan yigit shu ravotda yashay beribdi. Yigit ikkita tozi itini ovga olib chiqibdi. Ovlab borib bir daryo labiga kelib qolibdi. Qarasa, daryo labida yalmog‘iz kampir turibdi. Yalmog‘iz kampir bolani ko‘rib, qochib suvga tushib ketibdi. Bola tozilariga:

— Ol, shu kampirni, qo‘yma! —debdi. Tozilari bolaga qarab:

— Biz suvga tushamiz, suvning betiga qon chiqsa, quvonaver, yiring chiqsa, yig‘layver, — deb yalmog‘iz kampir orqasidan suvga tushib ketibdi.

Oradan ancha vaqt o‘tgandan keyin, suvning betiga yiring chiqibdi. Bola yiringni ko‘rib yig‘layveribdi. Darrov suvning betiga qon chiqib, daryoning hamma suvi qip-qizil bo‘lib ketibdi. Bola quvonib tursa, tozisi yalmog‘iz kampirning ikki oyog‘idan sudrab chiqib qolibdi. Bolaning dushmani o‘lib, quvonib ravotiga qaytibdi. Qarasa, uyida mehmonlar. Podshoh qizini izlab amaldorlari bilan kelib qolgan ekan. Podshoh sevinib qizini to‘y-tomoshalar bilan bolaga nikohlab beribdi, uni o‘z taxtiga o‘tqazibdi. Bir kuni bolaning ota-onasi ham o‘g‘lini qidirib yurib shu ravotga kelib qolibdi. Chol bilan kampir shunday baxtga erishgan bolasini ko‘rib, vaqtlari chog‘ bo‘libdi, yaxshi kelin topib murod-maqsadlariga yetibdi.



Vospiroxun

O‘tgan zamonda Oq podshoh bilan Qora podshoh bo‘lgan ekan. Ikkisi ham doimo bir-biri bilan urushib, bir-birini yengga olmas ekanlar. Kunlardan bir kuni Oq podshoh o‘z vaziriga: shahardagi butun botir va polvonlarni yig‘ib, urush maydoniga jo‘natish uchun buyruq beradi. Vazir polvonlarni qidirmoq uchun bozorga boradi.

Vazir bozorda polvonlarni izlab yurganida unga bir kal uchraydi, Vazir kaldan:

— E, kal, shu bozorda sen hech bir polvon ko‘rganmisan? — dedi. Kal:

— Taqsir, polvon sizga nima uchun kerak bo‘lib qoldi? — dedi. Vazir:

— Oq podshohimiz Qora podshoh bilan bo‘ladigan urushda yengib chiqishi uchun polvon kerak, — dedi. Kal:

— E, taqsir, o‘sha siz izlab yurgan polvon, er-sher odamingiz men bo‘laman, — dedi. Vazir asosiy muddaoni aytib:

— Agar sen qo‘rqoqlik qilib qochsang, tutib olib shartta kallangni olaman, — dedi. Kal:

— Agarda men podshohning buyurganini qila olmasam, meni so‘yib, go‘shtlarimni qiyma qilib, bozorda sarson qiling! — dedi. Ikkovlari podshoh oldiga keldilar. Podshoh kalning salomiga alik olmay:

— Xo‘sh, kal, sen nima uchun kelding, — dedi. Kal podshohga qarab:

— Sizning xizmatingizga keldim, buyuring, bajaraman, — dedi. Podshoh vazirga qarab g‘azablanib: „Sen hali menga shu odamni olib keldingmi?“ — dedi.

Vazir ta’zim qilib podshohga:

— Taqsir podshoh, sizning buyrug‘ingizga binoan men bozorga polvon va botirlarni qidirgani borgan edim. Shunda boshini qashib o‘tirgan shu kalni ko‘rdim. So‘ngra men kaldan botirlarni so‘radim. Kal menga qarab:

— Sizga botir va polvonlar nima uchun kerak? — deb so‘radi. Men:

— Oq podshohning Qora podshoh ustidan yengishi uchun kerak, — dedim. Shu vaqtda kal:

— Xuddi sizning aytgan kishingiz men bo‘laman, hamma ishingizni men bajaraman, — deb qasamyod qilib, sizning oldingizga keldi, — dedi.

Podshoh yostiqqa suyangan holda kalga qarab: „Ha... ha... hali sen Qora podshohni yengib, uning qizini va mol-u dunyosini olib beradigan bo‘ldingmi“, — dedi. Podshoh biroz o‘ylab:

— Xo‘p, mayli, kal, sen agar urushda yengilib qolsang, u vaqtda seni o‘ldirib, go‘shtingni qiyma qilib, bozorda sarson qilish u yoqda tursin, tanangni tegirmonga solib, un qilib, go‘shtingdan chuchvara pishirtirib, onangga berib bozorda sottiraman, —dedi. Kal podshohga ta’zim qilib, qo‘rqmay botirlarcha javob qaytardi:

— Xo‘p, mayli, agar men yengilsam bilganingizni qiling! Bordi-yu, Qora podshohni yengsam, u vaqtda podshohning qizini o‘zim olaman. Shu shartni men oldindan aytib qo‘yishim kerak, — dedi. Podshoh: „ha... ha...“ deb kuldi va:

— Nima bo‘lsa-da mayli, ishqilib Qora podshohni yengib, mening obro‘yimni olib ber! — dedi.

Vazir podshohga ta’zim qilib, „Taqsir, bo‘lmasa vaqtni o‘tkazmay, ishni boshlaylik“, dedi. Shu vaqtda podshoh kalga:

— Xo‘sh, kal, senga qanaqa ot kerak? — dedi. Shunda kal:

— Bo‘lmasa men sizning otlaringizni bir-bir ko‘zdan kechirib chiqay-chi, menga loyig‘i bormikin, shundan so‘ng tanlab olaman, — dedi. Podshohning otxonasida bir yuz qirqta oti bor edi. Kal bularning ichidan hech birini yoqtirmadi: kal otlarni qarab yurganida, otboqarlar: „Hali, Qora podshohni yengib, qizini olib beradigan botir shumi, va-a-a“ deb, mayna va kalaka qilishdi. Kalning achchig‘i chiqdi va bularning shu mayna qilishiga bozordan bir ot tanlab olay-chi, so‘ngra Qora podshohni

yengganimni tomosha qilsinlar, deb o‘ziga qattiq ahd qildi. Kal bilan vazir podshoh oldiga chiqdilar. Kal salom berib podshoh oldiga kirdi. Podshoh:

— Xo‘sh, kal, senga qaysi ot yoqdi? — dedi. Kal iljayib yerga qarab:

— E, podshoh, bu otlaringiz ichida menga hech biri ma’qul tushmadi, — dedi.

Podshoh ancha ta’nalardan so‘ng kalning bozordan o‘zi istagan otni sotib olishiga rozi bo‘ldi. Podshoh vazirga:

— Sen bu kalni bozorga olib bor, ana u tokchadagi tillalardan yettitasini ol, shu bilan kalning ko‘nglidagidek otni olib kelinglar! — dedi. Vazir va kal yetti tillani olib bozorga ketishdi. Bozordagi otlar kalga ma’qul tushmadi. So‘ngra vazir bilan bozorni aylanib yurganda, bir keksa chol dehqon bir otni bozorga yetaklab kirdi. Ot bozorga kirdi-yu, yiqildi. Kal bilan vazir otni ko‘rishdi. Kal vazirga: — E, vazir, ana shu ot mening ko‘nglimdagidek ekan, qani endi egasi sotsa, men olar edim, uni qarang, ot meni ko‘rib uyalib yotib oldi-ya, — dedi. Vazir kalning bu so‘ziga kulib:

— E, kal, bu otingni it ham iskamaydi-ku, — dedi. Kal:

— E, taqsir, vazir, meni yo‘ldan chiqarmang va o‘rgatmang! Siz anovi Errayimboyni tanimaysizmi, u ham ochlikdan yiqilib, so‘ngra bozorda gadoychilik qilgan. Endi u gadoychilikdan boy bo‘lib, podshohga vazir bo‘libdi. Yaqinda u Errayimboy podshoh qizini olib, uning taxtiga o‘tirmoqchi emish, u men bilan ilgaridan qalin o‘rtoq va tanish edi. Ajab emaski, bu ot ham o‘shanga o‘xshab, mening yonimda yo‘ldosh bo‘lib, yaxshilanib ketsa, ikkalamiz Qora podshohni yengib, Oq podshohning qizini olsak. Men shu umidimga erishaman, albatta, — dedi.

Kalning qistovi bilan majolsiz, xarob otni savdo qilib, chol yarim tilla so‘rasa, kal uch tilla berib turganda, bozor oqsoqoli:

— Nima gap, nima gap, qanchaga bitishdingiz, ota, — deb kelib qoldi. Chol bo‘sh bo‘lganidan:

— Shu o‘g‘lim, mana shu otim uchun uch tilla bermoqchi bo‘lib turibdi, — dedi. Oqsoqol va bozor dalloli otning bahosini ming chorak tilla, dedilar. Qolgan tilla bozor va bizning haqimiz uchun, desa, kal bir do‘q qilib, bozor oqsoqoli va dallolni quvib berdi. Vazir qizarib-bo‘zarib, uyalib chetga chiqib turaverdi. Kal cholga uch tillani berdi.

Chol duo qilib, xursand bo‘lib ketdi. Kal bir aravakashning aravasini kira qilib, otni aravaga solib podshoh oldiga olib keldi. Vazir esa nomus qilganidan kaldan keyin biroz kechikib podshoh oldiga keldi.

Podshoh kalning keltirgan otini ko‘rib, „qah-qah“... urib:

— E, kal, sen hali shu ot bilan Qora podshohni yengmoqchimisan, bu oting shamolga qulaydi-ku!.. Men senga bulutga sakraydigan yaxshi ot olib beray, tashla buni, — dedi. Kal:

— Mayli, nima bo‘lsa o‘zimdan, ishingiz bo‘lmasin, yengib chiqsam bo‘ldimi? — deb podshoh, vazir va otboqarlarning so‘ziga quloq solmadi. Kal otni ikki oy-u yetti kun boqdi, yana yetti kun sovitdi. So‘ngra ot yetilib, yaxshi ot bo‘ldi. Oldiga boshqa odamni yo‘latmaydi. Podshoh kalga:

— Oting tayyor bo‘ldimi, urushmoq uchun tayyormisan? — dedi. Podshoh otni ko‘rdi va:

— Kal, endi omading kelibdi, mening obro‘yimni endi oladigan bo‘libsan, lekin boshda ichgan qasamingni unutma, — dedi. Otning tayyor bo‘lganini ko‘rgach, podshoh kaldan so‘radi:

— Xo‘sh, kal, endi senga qanaqa qurol va qancha askar kerak, — dedi.

Kal:

— Menga otimdan boshqa hech narsa kerak emas, na qurol va na askar... Menga ruxsat etsangiz, otamdan qolgan qurol bor edi, shuni borib olib kelsam, — dedi. Podshoh javob berdi. Kal o‘z uyiga borib:

— Ona! Otamdan qolgan urush qurollarini ber, — dedi. Onasi:

— Voy bolam, otangdan hech narsa qolgan emas. Hamma mayda-chuyda uy ro‘zg‘orlarni ham sotib, seni to‘ydirish uchun sarf qilganman, — dedi.

Kal:

— E, ona, otamdan juda bo‘lmasa, eski oshpichoq bilan kosov ham qolgan emasmi? — dedi.

— Ha, bolam u bo‘lsa bor, eshikning tepasidadir, — dedi. Kal oshpichoqni va o‘choq boshidagi kosovni olib jo‘naydi.

Podshoh bu holni ko‘rib qo‘rqadi — o‘zidan xavf oladi. Podshoh: „Hech bo‘lmasa, bir qilich bilan bir kamon ol“ desa, kal:

— Yo‘q, menga oshpichoq, kosov ham shu otdan boshqa hech narsa kerak emas, shular menga yo‘ldoshdir, — deb ovqatlarni g‘amlab olib, podshoh bilan xayr-xo‘shlashib urushga jo‘naydi.

Kal urush maydoniga borib bir tolning tagida yotadi. Qorni ochganida qattiq nonni yeb o‘tiradi. Shu vaqt kalning oldiga o‘n to‘rt-o‘n besh yoshlardagi chiroyli bir bola keladi. Bola kaldan:

— E, kal, sen bu yerda nima qilib yotibsan? — deb so‘raydi. Kal bolaga:

— E, o‘rtoq, mening ishimni qo‘yaver, mening boshimga shunday ish tushganki, tog‘dan og‘ir, toshdan qattiq. Bola:

— E, kal, ayt siringni, meni sen do‘st deb bilmaysanmi? — deydi. Kal:

— Agar sen mening ishimga yordam bersang, aytaman, — deydi. Bola:

— Xo‘p bo‘lmasa, sening ishingga men yordam berganim bo‘lsin, — deydi. Shunda kal:

— Menga Oq podshoh tog‘dan og‘ir, toshdan qattiq, yechib bo‘lmaydigan bir ishni berdi. Oq podshoh bilan Qora podshoh urushib, hech bir-birovini yenga olmas ekan. Oq podshoh meni Qora podshoh bilan urushib, yengish uchun yubordi. Vaqt oz qoldi, urush maydonida Qora podshoh meni kutib turibdi.

Ikkisi gaplashib turganida Qora podshohning „Urushni boshlaymiz, tayyor bo‘l, dushman!“ degan xabari keladi. Kal:

— Ana, urushga buyruq bo‘ldi, do‘stim, endi nima qilamiz? — dedi. Bola:

— Qani, bo‘lmasa, sen anavi uyga borib ovqatingni qilib o‘tira ber! Otingni menga ber, sen aralashma, o‘zim yengib beraman, — deydi-da, otni minib, Qora podshohga qarshi urush maydoniga otni choptirib ketadi.

Bola uch duoni o‘qidi: birinchisida o‘zi po‘latdan kiyindi, ikkinchisida oti ham po‘latga aylandi, uchinchisini o‘qiganda, yig‘sa bir gaz, yozib yuborsa qirq gaz bo‘ladigan bir qilich qo‘lida paydo bo‘ldi. Qora podshoh urush e’lon qildi, jang qizib ketdi. Bola urushib, Qora podshoh askarlarining to‘rtdan uch qismini qirib tashlaydi. Bir bo‘lagi qolganda podshoh askarlarining hammasi qochib ketadi. Bola va otning badaniga o‘q kirgan edi, bola bir duo o‘qib, o‘zini va otni silkitsa, duv etib badanlaridagi o‘qlar tutdek to‘kiladi. Urush maydoni dushman askarlarining o‘ligi bilan to‘lgan edi. Oqayotgan qon esa otning bo‘yniga yetadi. Bola Qora podshohni yengib, kalning oldiga keladi va dushmanni yengganini, Qora podshoh askarlarining to‘rtdan uch qismini qirib tashlaganini va askarlarining to‘rtdan bir qismi qolgani to‘g‘risida aytadi.

Kal va bola ovqatlanib olishadi. Ovqat yeb turganlarida yana Qora podshoh karnay chaldiradi. Bola shaylanib yana urushga kiradi. Bu oxirgi urushga podshohning o‘zi ham kelgan edi. Podshoh bolani ko‘rishi bilan tumtaraqay bo‘lib orqasiga qaramay qochib ketadi. Askarlarining hammasi yengiladi. Bola kalning oldiga keladi va butun voqeani aytib beradi. Bola bilan kal Oq podshoh oldiga kelishadi. Yo‘lda bola kalga:

— Men bir o‘zim Qora podshohni yengdim, deb aytgin, — deydi.

Kal kelib xursand bo‘lib podshohga butun voqeani aytib beradi. Podshoh va uning odamlari bu ishga hayron bo‘ladilar. Kalning og‘zi qulog‘iga yetadi. Oq podshoh suyunganidan kalning peshonasidan o‘padi.

— Mening obro‘yimni olib beribsan, ko‘p yasha, kal, deb yelkasiga qoqadi. Ertasiga Qora podshohdan elchilar xat olib keladilar. Bu xatda meni yenggan bahodir kim edi, men o‘shanga qizimni beraman, deyilgan va Oq podshoh odamlari bilan kelsin deb, chaqirtirilgan ekan. Oq podshoh o‘zining eng yaqin kishilari bilan birga kal va bolani olib Qora podshohnikiga boradilar. Kal va bola bir otga mingashib boradi. Har xil ovqatlar bilan Qora podshoh uch kecha-yu uch kunduz mehmon qiladi. Oq podshoh odamlari endi ketamiz, deb turganlarida, Qora podshohning bir qari vaziri turib:

— Ey, do‘stlar, hammamiz bir poyga qilaylik, qaysi birimiz marraga oldin yetib borsak, Qora podshoh qizini shunga bersin, — deydi. Oq podshoh odamlari rozi bo‘ldilar. Shu vaqtda bola kalni bir chekkaga chaqirib olib, duo o‘qiydi-da, bir yaxshi ot paydo qiladi va kalga qarab:

— Kal, sen shu otga min va poygada ishtirok qil, men qarab turaman, chopish boshlanganda sen jim turaver, boshqalardan uch soat keyin sen chopasan. Sening oting bir sakraganda olti chaqirim yo‘lni bosadi, — deb kalning qulog‘ini pishitadi.

Chopish boshlandi. Kal uch soat keyin chopdi va ulardan to‘qqiz soat ilgari borib turdi. Bu ishlarga Qora podshoh qoyil qolib, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomoshalar bilan qizini kalga nikohlab berdi. Oq podshoh ham qaytadan to‘y qilib berdi. To‘ydan so‘ng bola kaldan ketish uchun ijozat so‘raydi. Kal javob bermaydi. Bola: „Juda ishim zarur“ deb, ketishga tayyorlanadi. Bola ketayotganida kal:

— Ey, qadrdon do‘stim, juda bo‘lmasa ketish oldingda ismingni aytib ket va sendan menga birorta nom-u nishona qolsin, — dedi. So‘ngra bola cho‘ntagidan pakkisini chiqarib: „Shunga qarab „Vospiroxun“ desang, men istagan joyingda, boshingga har qanday qiyinchiliklar tushsa ham yordam qilishga tayyor bo‘laman, bergan oshingga rozi bo‘l“, — deb pakkini berib, bola jo‘nab ketadi. To‘ydan uch kun o‘tgandan keyin kal xotiniga: „Mahsimni tort!“ deydi. Podshohning qizi mahsini tortganda, qo‘njidan pakki tushadi, shunda kal: „E Vospiroxun“ deb, pakkini uch marta o‘pib cho‘ntagiga soladi. Kalning bu so‘zlarini eshitgan yangasi kalga:

— Ey, hali siz Vospiroxunni bilar ekansiz-u, Qora podshohning qizini xotin qilib nima qilasiz? — deydi. Shu vaqtda kal:

— E, xola, nima dedingiz, yana qaytarib ayting, — deydi. Xotin yana qaytarib aytadi. Kal yangasidan:

— Hali Vospiroxun qizmi? — deb so‘raydi. Yangasi kalga:

— Hali Qora podshohni yenggan botir bo‘la turib, o‘z oldingizda birga yurgan odamni qizmi, erkakmi ekanligini ajrata olmadingizmi? — deydi. Kal:

— Eh, — deb peshonasiga bir urib, o‘rnidan turib jo‘nab ketadi. Kal ko‘p yuradi, ko‘p yursa ham mo‘l yuradi. Cho‘l yuradi, so‘ngra bir dashtga chiqadi. Dashtda uchta yo‘l uchraydi. Har yo‘lga — biriga „borsa kelar“, ikkinchisiga „borsa dargumon“, uchinchisiga „borsa kelmas“, deb yozib qo‘yilgan. Kal o‘ylab turib, borsa kelmasga qarab jo‘naydi. Kal bir joyga boradi va bir cholni uchratadi. Chol kalga:

— E, kal, sen bu qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan joyda nima qilib yuribsan? — deydi. Kal:

— Men bir o‘rtog‘imni qidirib keldim, — deydi. Chol:

— U o‘rtog‘ingning nomi nima, ayt — desa, kal:

— Ismi Vospiroxun, — deydi. Chol:

— Ey, bolam, Vospiroxunga ovora bo‘lmay qo‘ya qol, chunki sendan boshqa katta podshohlar ham shu Vospiroxunning bir tola sochi suvda oqib kelarmikin, deb suvga to‘r tashlab, intizor bo‘lib yuribdilar, sen ovora bo‘lmasang ham bo‘ladi. Bu yerdan o‘tish mumkin emas, bu qo‘rg‘on ichida devlar poylab yotibdilar, ular seni o‘ldirishlari mumkin. Vospiroxunning oldiga faqat biror nomi-nishoni, tutatqisi bo‘lgan odamgina bora oladi va bu yo‘ldan o‘ta oladi, — deydi. Kal:

— Mayli, nima bo‘lsa toleyimdan, — deb cholning so‘ziga quloq solmay o‘tib ketaveradi. Choldan o‘tib bir joyga borsa, bir darvoza ko‘rinadi. Darvozani sekin ochsa, o‘ng tomonda tuya, chap tomonda it bog‘langan.

Itning oldida poxol, tuyaning oldida so‘ngak turibdi. It suyakka, tuya poxolga tikilganlaricha turishibdi. Har ikkisi zanjir bilan mahkam bog‘langan. Kal poxolni tuyaga, so‘ngakni itning oldiga qo‘yadi-da, o‘tib ketaveradi. Yana bir eshik keladi. Eshikdan mo‘ralasa, hovlida devlar uxlagan, faqat bir dev eshik oldida qorovul bo‘lib turibdi. Kal Vospiroxundan o‘rgangan duoni o‘qigach, bu qorovul dev ham tarashaday bo‘lib uxlab, qotib qolibdi. Shu vaqtda kal orqasidan bir mushuk kelayotganini ko‘radi. Mushukni sekin ushlab oladi, qarasa mushukning bo‘ynida qirqta kalit osig‘liq ekan. Kal cho‘ntagidan pakkini olib, mushukni o‘ldiradi va kalitni cho‘ntagiga soladi. Uyga kirsa, hamma yoq qulflangan, qayerdan chiqib ketishini bilmay qoladi. Qirq kalitning ichidan bir kattasini olib, uy eshigini ochadi. Uyda bir katta dev yotgan ekan. Kal Vospiroxun o‘rgatgan duoni o‘qib, tutatqini tutatsa, Vospiroxunning

qilichi paydo bo‘ladi. Kal devni qiyma-qiyma qilib o‘ldiradi va bu uydan ko‘chaga chiqib ketadi. Kal ko‘p yuradi, oxirida bir joyga kelib yana qari cholga uchraydi. Chol:

— E, bolam, sen bu joyda nima qilib yuribsan? — deb so‘raydi. Kal:

— Men bir odamni izlab yuribman, — deb javob beradi. Chol:

— Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan bu joyda kimni izlab yuribsan, — deydi. Kal:

— Ey, ota, mening izlab yurgan kishimni hech kim bilmaydi. Men bir Vospiroxun degan qizni izlab yuribman, — deydi. Chol:

— Sen bu yerdan ketaversang bir yo‘l uchga bo‘linadi, sen o‘ng tomonga yurgin, so‘ngra ancha yurasan. Senga bir katta suv uchraydi, suv yoqalab ketaverasan, uch tarmoqli suv birga qo‘shilib ketadigan joy bor. Sen suvning haybatidan qo‘rqma va o‘zingni suv ichiga tashla, suvning ichiga tushganingda chuqurroq joyda bir uy ko‘rinadi. Sen borishing bilan bu uyning eshigi ochiladi. Sen eshikdan uyga kirasan, uyning to‘rida bir kampir o‘tirganini ko‘rasan. Bu kampir Vospiroxunning oyisi. Sen shu kampirga pakkini ko‘rsatib, Vospiroxunni so‘raysan va pakkini kampirga berasan, menga Vospiroxunni topib bering, deb aytasan. Shu bilan kampir senga Vospiroxunni topib beradi. Sening arz-dodingga shu kampir yetadi, — dedi.

Kal cholning ko‘rsatgan yo‘li bo‘yicha aytganini qiladi. Kal o‘zini suvga tashlaydi, suv tagidagi uyga kiradi. Kampirni ko‘radi. Vospiroxunni so‘raydi. Kampir:

— E, bolam, sen bu yerga qayerdan kelding, seni kim keltirdi, nima uchun kelding? — dedi. Kal:

— Men bir Vospiroxun degan qizni izlab keldim, u menga shu pichoqni belgi qilib bergan, — dedi. Kampir:

— E, qizimning baxti senga ochilgan ekan.

Kal:

— Qani, tezroq ayting, qizingiz qani va qachon keladi? — deb so‘raydi. Kampir:

— E, bolam, mana bu kalitni olib, shu yo‘lakdan to‘g‘ri, hu ko‘ringan uyga borasan. Uy tepasida „Vospiroxun“ deb yozib qo‘yilgan, eshikni ehtiyot bo‘lib ochib qaragin. Qizim yaqinda uyquga kirgan, u qirq kun uxlaydi, o‘zingga ehtiyot bo‘l, tag‘in uning husnini ko‘rib o‘z hushingdan ketib qolma. Devorlarga qirqta tilla qoziq qoqilgan, sen qizimning qirq tola sochini shu qoziqlarga bog‘laysan. So‘ngra qizning ustiga o‘zingni tashlab, uni mahkam quchoqlab olasan. Tag‘in etaging devorga tegmasin. Qizim uch marta qo‘zg‘aladi, shu qo‘zg‘alishida ehtiyot bo‘l, choponingni bari devorga tegmasin, agar bari tegsa, qizim seni qayerdan kelgan

bo‘lsang, o‘sha joyga otib tashlaydi, — dedi. Kal kampirning aytganini qiladi. Eshikni ochadi, qizning sochini tilla qoziqlarga bog‘laydi. O‘zini qizning ustiga tashlaydi. Qiz uch to‘lg‘anadi. Kalning bari devorga tegmaydi. Qiz uyg‘onadi va kalga qarab:

— Obbo, kal-ey, meni topib keldingmi, — deydi. Kal va Vospiroxun birga turmush kechiradilar.

Kunlardan bir kun kal uyda zerikkanidan Vospiroxunning qilichini olib, ovga ketish oldida qizga:

— Men uzoq joyga ketayotirman. Seni sog‘inib qolaman, shuning uchun rasmingni bersang, — dedi. Qiz:

— Men senga shu shart bilan suratimni beramanki, shamolda va suv bo‘yida ko‘rmaysan. Chunki mening soyamga oshiq bo‘lgan podshohlarning son-sanog‘i yo‘q. Mening bir tola sochimga zor bo‘lgan podshohlar suvga to‘g‘on solib, to‘r tikib poylab yotibdilar. Agar suvda mening rasmim borib qolsa, sen mendan ajralib qolasan, — dedi. Kal:

— Xo‘p, — deb qizning rasmini olib, ovga boradi. Ov juda qizib ketadi. Ovdan qaytadi va yo‘lda qizning aytgan sharti ko‘nglidan ko‘tarilib, ko‘p tutilgan ovga mahliyo bo‘lib, birdan suv bo‘yiga kelib qoladi. Rasm esiga tushib qoladi. Qo‘ynidan rasmni olib qaraydi, shu vaqt qattiq bo‘ron bo‘lib, kalning qo‘lidagi rasmni shamol uchirib olib borib suvga tashlaydi. Suv rasmni oqizib ketadi. Kal uyiga shalpayib, xafa bo‘lib qaytadi. Qiz:

— Nima uchun xafasiz? — deydi. Kal:

— Men bugun ko‘p ov ovladim. Shunga qiziqib ketib, sening shartingni unutib, suratingni suv bo‘yida ko‘rsam bo‘ladimi?.. Qattiq shamol turib, shu suratni uchirib ketdi, — deydi. Qiz:

— E, kal, bu ishni o‘zingga ham, menga ham qilmading, men senga tayinlagan edim-ku, endi, mayli, bo‘lar ish bo‘libdi, — dedi. Bular o‘z turmushlarini kechira bersinlar, endi ikki kalima so‘zni suratdan eshiting.

Surat oqib kelib bir podshohning to‘riga ilindi. To‘rni podshohning odami ko‘tarsa, bir qizning rasmi chiqdi. Baliqchi sevinib, yugurib rasmni podshohning oldiga olib boradi va:

— E, podshoh, Vospiroxun senga tegmoqchi bo‘libdi, o‘zidan ilgari suratini yuboribdi, — deb podshohga qizning suratini beradi. Podshoh sevinib, qizni kutadi. Podshoh o‘z vazir va baliqchilarini chaqirib „Shu qizni qanday bo‘lmasin olib kelsanglar. Kimda-kim shu qizni olib kelsa, umr bo‘yi tilla bilan boqaman, agar topib kelmasangizlar boshlaringni olaman“, dedi. Hamma odamlari har yoqqa tarqalishib qidira boshlaydilar, surat podshohda qoladi. Kunlardan bir kuni podshohning bir vaziri qidirib yurib, bir to‘yga kirib qoladi va u joydagi bir dasturxonchi kampirga

bu voqeani aytadi. Kampir: „Vospiroxunni topib beradigan odamingiz men bo‘laman“, deydi. Vazir:

— Agar qizni topib kelmasang, podshoh seni mayda-mayda qiladiya, — deydi. Kampir:

— Agar podshoh mening aytganimni qilib bersa, bajaraman, — deydi. Vazir:

— Sen nima istasang podshoh qilib beradi, men bunga seni ishontira olaman, — deydi. Vazir kampirni podshoh oldiga olib boradi. Dasturxonchi shum kampir podshohga salom berib:

— Buyurgan ishingizni bajarish uchun vazir meni bu yerga olib keldi, — dedi. Podshoh:

— Falon joyda Vospiroxun degan bir qiz bor, shuni qanday bo‘lmasin olib kelishing shart, nima desang beraman, olib kela olmasang, boshing o‘limda, moling talonda, — dedi. Kampir:

— E, taqsir podshoh, siz shartingizni aytib bo‘lgan bo‘lsangiz, endi mening ham ikki og‘iz shartim bor, quloq solsangiz aytaman, — dedi. Podshoh:

— Xo‘p, ayt! — dedi. Kampir:

— E, podshoh, men nima desam, nima buyursam, shu narsalarni bajarasiz, — dedi. Podshoh:

— Aytganingni yuzaga keltiraman — bajarmasam o‘sha kundan boshlab podshohlikdan tushganim bo‘lsin, — dedi. Kampir:

— Menga bir kema yasab keltirasiz, u juda chiroyli va g‘alati bo‘lsin. Chap qulog‘ini burasam Vospiroxun eshigida, o‘ng qulog‘ini burasam sizning uyingiz oldida to‘xtaydigan bo‘lsin, kema ichi turli-tuman gazlama-mollar bilan to‘lsin. Bir ko‘k eshak va bir bolta ham berasiz, — dedi. Podshoh kampir aytganlarini tayyor qiladi. Kampir kemaga tushib chap qulog‘ini buradi, shunda kema Vospiroxun eshigi tagida bo‘ldi. Shu vaqt kal ovdan qaytayotgan vaqt ekan. Kampir kalni ko‘rib, ko‘k eshakning oyog‘iga bir bolta uradi-da, yig‘lab o‘tiradi. Kal yig‘lab o‘tirgan kampirni ko‘rib rahmi kelib:

— E, ona, nima uchun yig‘lab, dilingizni siyoh qilib o‘tiribsiz, — dedi. Kampir:

— E, bolam, hech so‘rama! Men har yili uch marta hajga borar edim.

Bu yil ikki marta borib, endi uchinchi marta boray, deb turganimda, sening eshiging oldida eshagimning oyog‘i sindi. Qayoqqa borishimni bilmay, shu joyda to‘xtab qoldim. Eshagimning oyog‘i tuzalguncha bir-ikki kun uyingga kirib tursam — savob bo‘lar axir, bolam, — dedi.

Kalning kampir holiga rahmi keladi va onasi ham xotinining „Kerak emas, kirgizma!“ deganiga qaramay, kampirni uyiga olib kiradi.

Kampir ikki-uch kun kalning uyida turadi. Ikki-uch kundan so‘ng Vospiroxunga:

— E, kelinim, yuring boshingizni yuvib, tomosha qilib kelasiz, tashqarida — kemada juda ko‘p har xil mollar kelibdi, agar yoqsa, eringizga oldirasiz, — deydi. Vospiroxun:

— Yo‘q. Men erimdan so‘rayin, agar u ruxsat etsa, chiqaman, — dedi. Kechqurun kal kelganda, Vospiroxun kaldan so‘raydi. Kal:

— Sen nima bilan xursand bo‘lsang, men shunga rozi! —deydi. Birinchi kun Vospiroxun onasining qarshiligiga qaramay, kemaga kampir bilan birlikda chiqadi. Kal esa ovda bo‘ladi. Kampir bu paytdan foydalanib:

— Qizim, mana bu kiyimliklarni ko‘r, juda chiroyli va yaxshi ekan, — deb uni kemaga tushiradi va kemaning o‘ng qulog‘ini buraydi.

Kema podshoh taxti oldiga keladi. Vospiroxun:

— E, shum, yalmog‘iz kampir, meni sen qayerga olib kelding? — deb, kampirning yelkasidan ushlab ko‘tarib yerga bir uradi. Kampir yer ichiga kirib ketadi. Podshoh odamlari Vospiroxunni tutib oladilar va podshoh oldiga olib keladilar. Vospiroxun podshohga qo‘rqmasdan botirlarcha:

— E, podshoh, meni bu joyga nima maqsadda olib kelding, — dedi.

Podshoh:

— Vospiroxun, men seni olmoqchiman, shuning uchun bu yerga keltirdim, —desa, Vospiroxun:

— Agar meni xotin qilib olmoqchi bo‘lsang, u vaqtda bizning shahrimizda bir rasm-odat bo‘ladi, shuni bajarib, olasan, — dedi. Podshoh:

— Xo‘p, xo‘p, ayt! — dedi. Vospiroxun:

— O‘ttiz kun muddat beraman, shu muddat ichida uchta uy solasan, hammasi qo‘sh qavatli bo‘lsin, hammasi tilladan ishlansin, — dedi. Podshoh: „Xo‘p“ deb rozi bo‘ladi va odamlariga buyuradi.

O‘ttiz kunda uchta tilla uy qurilib bitadi. To‘y vaqti yaqinlashadi.

Endi ikki og‘iz so‘zni kaldan eshiting. Kal ovdan qaytib uyga kelsa, Vospiroxun yo‘q, onasi esa:

— Ana, o‘g‘lim, men senga kampirni kirgizma deb, aytmagan edimmi. U kampir Vospiroxunni olib qochib ketdi, — dedi. Kal: „Eh...“ deb peshonasiga bir urdi. Shunda onasi:

— Beri kel, men senga ko‘maklashay, — dedi-da, kalga og‘zini ochishga buyurdi. Kal og‘zini ochdi, kampir bir tupurdi. Kal qalandarga

aylandi va shaydoyi bo‘lib Vospiroxunni izlab ketdi. Izlab keta turib, podshohning shahriga borib, bozorni aylanib yurdi.

Endi Vospiroxundan eshiting:

To‘y yaqinlashgan sari Vospiroxun o‘zini kasallikka soladi. Qiz o‘zining kasalligini aytib, yana uch kun muhlat so‘raydi. Podshoh:

— Xo‘p, — deb yana uch kun muhlat beradi. Qiz yangi uyga kiradi va podshohga so‘zlamay, diqqinafas bo‘lib, xafa holda o‘tiradi. Shu paytda podshoh qizdan:

— Nima uchun xafasiz? — deb so‘raydi. Qiz:

— Men nihoyatda zerikdim, qayerdan bo‘lmasin meni ovutadigan odam keltirsang, ko‘nglim ochilsa, — deydi. Shunda podshoh butun mashshoq, o‘yinchi, sozandalarni keltiradi, hech biri qizni xursand qilolmaydi. Eng oxiri vazirlardan biri bozorga tushib qalandar kiyimidagi kalni qizning oldiga olib chiqadi. Qiz qalandarni ko‘rib, o‘zining eri — kal ekanini biladi va yotgan joyida imlab qo‘yadi. Podshoh qalandar va qizni sharob bilan mehmon qiladi. Qiz ichmaydi.

Sharobning ko‘pini podshoh ichib, mast bo‘lib qoladi. Qalandar ohangini keltirib g‘azal o‘qiydi-da, podshohni juda mast qilib hushidan ketkazib qo‘yadi. Qiz kalga:

— Paytdan foydalanib qochmaymizmi? — deydi. Kal:

— Xo‘p, — deydi. Qiz xazinaga kirib, tilladan olib chiqmoqchi bo‘ladi. Kal devor tepasida o‘tiradi. Shu kechasi Vospiroxunni o‘g‘irlash uchun bir qancha o‘g‘rilar kelib, devor orqasida turgan edilar.

Kalni ko‘rgan o‘g‘rilardan biri, uni bir urib, devordan o‘raga tushirib yuboradi. O‘zi kalning o‘rniga devorga chiqib o‘tiradi. Qiz xazinadan tillani olib, kal deb o‘ylab, haligi o‘g‘riga uzata beradi. O‘g‘ri ham hamma tillani oladi va Vospiroxun qo‘lidan tortib ko‘chaga tushiradi va ikkisi kemaga tushib qochadilar. Vospiroxun o‘g‘ri boshlig‘ini kal deb o‘ylaydi; qarasa, u boshqa bir kishi bo‘lib chiqadi. Kema bir joyda to‘xtaydi. O‘g‘ri boshlig‘ining niyati buziladi. Oxiri qizni o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Qiz o‘limiga rozi bo‘ladi. O‘g‘ri:

— Qo‘lingni shu dastgoh ostiga qo‘y, — deydi. Qiz:

— Avval o‘zingiz qo‘yib ko‘rsating, so‘ngra men qo‘yaman, — deydi. O‘g‘ri boshlig‘i dastgohga qo‘lini qo‘yishi bilan qiz uning murvatini burab yubordi, o‘g‘rini dastgoh g‘ajib tashlaydi. O‘g‘ri o‘ladi. Qiz orqasiga qaytadi. Podshohning darvozasi oldiga keladi, o‘g‘rilar uni o‘rab olib „Qayerdan kelding?“ deb so‘raydilar. O‘g‘rilar o‘zaro bir-biri bilan „Men olaman, men olaman“ deb urishib ketishadi. Shunda Vospiroxun:

— To‘xtanglar, urishmanglar, mening bir shartim bor, shuni kim oldin bajarsa, men shunga tegaman, — deydi. O‘g‘rilar:

— Ayt, Vospiroxun, — deydilar. Vospiroxun:

— Mana shu kamarimni otaman, kim oldin olib kelsa, men shunga tegaman, — deydi. Belidan kamarni yechib otadi. O'g'rilar kamarga chopib ketishganida Vospiroxun kemaga tushib, o'z uyiga jo'nab ketadi.

Endi so'zni podshohdan eshiting. Podshoh erta bilan o'rnidan turib qarasa, na qalandar va na Vospiroxun bor, hech kim yo'q; so'ngra vazirni chaqirib so'raydi. Vazir „Bilmayman" deydi. Podshoh Vospiroxunni qidirishga buyuradi. Hech qayerdan topa olmaydilar. So'ngra podshohning o'zi saroyni qidirib yurib xazinaga kirsa, xazinaning eshigi ochiq, oltinlar yo'q.— Eh, meni rosa boplab ketibdi, — deb turganda o'raga ko'zi tushadi. O'raga qarasa, kal voy-voylab yotibdi. Podshoh qalandarni o'radan tortib olishga buyuradi, arqon solib tortib oladilar. Podshoh kalga: „Sen nima qilib o'rada yotibsan" deydi. Kal:

— Men o'zim ham qanday qilib o'raga tushib qolganimni bilmayman. Kechasi meni birov urib, shu o'raga tushirib yubordi, kim ekanini bilmayman. Shundan buyon mana siz tortib oldingiz, boshqa hech narsani bilmayman, — dedi. Shunda podshoh kalning qornini to'ydiradi va „bor, endi ketaver", deydi. Kal o'z uyiga qaytib keladi. Kelsa, Vospiroxun bir qancha tillalar bilan o'z uyida o'tiribdi. Har ikkisi ham o'z boshlaridan o'tgan voqealarni bir-birlariga so'zlab beradilar. Kal Vospiroxun va onasini olib ota shahriga — Oq podshoh oldiga keladi. Kal kelsa, Oq podshoh hali ham Qora podshoh qizini kalga atab o'tirgan ekan. Oq podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-u tomosha qilib, Vospiroxunni olib beradi va o'z o'rniga podshoh qilib qo'yadi. Bu to'yda kalning onasi ham bor edi. Oradan bir-ikki yil o'tdi.

Kal podshoh bo'lgach, tez-tez ovga chiqib turdi. Ovda yurganida xudodan o'g'il tilaydi. Uyiga qaytib kelib, xotinlaridan nima tug'ishlarini so'raydi. Vospiroxun:

— Bir qiz, bir o'g'il tug'aman, boshi tilla-yu, oyog'i kumushdan bo'ladi, — dedi. Oq podshohning qizi esa, men ikki o'g'il tug'aman desa, Qora podshohning qizi:

— Men ham bir o'g'il, bir qiz tug'aman, — dedi. Oradan yana ancha vaqtlar o'tdi. Vospiroxunning bo'yida bo'ldi. Kundoshlari esa jimjit. Podshoh ovga chiqib ketadi. Vospiroxunning oy-kuni yaqinlashadi.

Kundoshlari buni ko'ra olmaydilar. Har ikki kundosh to'lg'oq tutgan Vospiroxunga:

— Biz yaxshi doya xotin olib kelamiz, — deb bir kampirni pulga yollab, tug'iladigan bolani yo'qotish fikriga tushadilar va kampirga yo'l o'rgatadilar. Kampir bolalarni yashirib, o'rniga o'sha kuni tug'ilgan

ikki it bolasini qo‘yadi-da, chaqaloqlarni bir cho‘l-biyobonga olib chiqib tashlaydi. Kal podshohga: „Xotiningiz bir qiz, bir o‘g‘il tug‘di“, degan xabar ketadi. Podshoh xursand bo‘lib ovdan qaytib kelsa, ikkita it bolasini ko‘radi va g‘azablanadi. Kal podshoh vaziriga:

— Zindonga tashlanglar! — deydi. Vospiroxun esa ko‘zidan milt-milt yosh to‘kib „It tug‘ibman-da“, deb juda xafa bo‘ladi. Vospiroxunni zindonga tashlaydilar.

Endi gapni Vospiroxunning bolalaridan eshiting. Kampir bolalarni cho‘lga tashlab ketgandan so‘ng Xizr buva keladi va bolalar big‘illab yig‘lashib yotishganini ko‘radi-da, rahmi kelib, qo‘lidagi hassasini bolalar atrofida aylantiradi. Shunda bir katta, chiroyli temir qo‘rg‘on paydo bo‘lib qoladi. Shundan so‘ng Xizr buva endi bu bolalarni kim boqar ekan, deb tog‘ga tomon yura boshlaydi. Shu vaqtda Xizr buva o‘z qarshisida bir kiyik xafa bo‘lib kelayotganini ko‘radi. Xizr buva:

— E, kiyik, nima uchun xafa ko‘rinasan? — dedi. Kiyik:

— E, taqsir buva, mening ikkita bolam bor edi. Shular tog‘da yotishibdi. Ularga sira sut yetkiza olmayapman, bolalarim och, sutim kam, — dedi. Xizr buva:

— E, kiyik, men senga bir gap aytaman, sen shunga xo‘p deysanmi? — dedi. Kiyik:

— Ayting, xo‘p deyman, — dedi. Xizr buva:

— Sen o‘z bolalaringni olib, ana u joydagi temir qo‘rg‘onga borgin, u joyda ikkita inson bolasi yotibdi. Shularni ham o‘z bolalaringga qo‘shib emizgin, sutingga sut qo‘shiladi.

Kiyik bolalarni tarbiyalaydi, bolalar ham katta bo‘lishaveradi. O‘g‘ilning ismi Sohibqurol, qizning ismi Sohibjamol bo‘ladi. Bular katta bo‘lgach, kiyik o‘z bolalarini olib tog‘ga ketadi. Bola ov qilib o‘z singlisini boqib yuradi. Kunlardan bir kun doya kampir temir qo‘rg‘onga keladi. Bola ovda edi. Uyda faqat singlisi qolgan edi. U ham zerikib, tashqariga chiqib o‘ynab yurgan payt edi. Kampir kelib qizni taniydi va unga:

— Sen uyda bir o‘zing zerikib, yuragingni qon qilib o‘tira berasanmi? — deydi. Qiz:

— Bo‘lmasa nima qilay, — deydi. Kampir:

— Men senga aytsam, akang kelganda xafa bo‘lib o‘tirasan. So‘ngra akang „Nima uchun xafasan?“ deydi. Shunda sen falon joyda bir gul va bulbul bor ekan, shuni olib kelsangiz, deb buyurasan. Siz ovga ketganingizda men shu gul va bulbullar bilan ovunsam, degin, — deydi. Kechqurun qizning akasi keladi. Qarasa, singlisi juda xafa ko‘rinadi. Akasi:

— Xo‘sh, singlim, juda xafa ko‘rinasan, nima uchun bunday bo‘ldi? — dedi. So‘ngra qiz kampir aytgan gul va bulbulni keltirishga buyuradi. Akasi:

— Bisotimda faqatgina bir singlim — sen bor ekansan-u, aytganingni joyiga qo‘ymaymanmi, — deb jo‘nab ketadi. Bolaga yo‘lda Xizr buva uchraydi. Bola gul bilan bulbulni qidirib ketayotganini aytadi. Xizr buva:

— Ey, o‘g‘lim, juda qiyin va uzoq joy ekan, mana senga yo‘ldosh bo‘lsin, — deb, yozganda qirq gaz, yig‘ganda bir gaz bo‘ladigan qilich berib, joyni aniqlab, tayinlab jo‘natadi. Bola aytgan joyga keladi. Bir chiroyli bog‘ni ko‘radi. Turli-tuman gul va bulbullar sayr etmoqdalar. Eshik oldida bir dev qorovul bo‘lib turibdi.

Shu vaqtda devning orqasidan kelib qilich bilan shartta kallasini oladi. Shu bog‘dan yana uch-to‘rtta dev oldinma-keyin chiqa boshlaydi, bola galma-gal hammasining kallasini uzadi. So‘ngra bog‘ga kirib, aytgan gulni tagi bilan oladi-da, jo‘naydi. Bu gul bilan juda bog‘langan bulbullar gulning atrofida gir-gir aylanib, bola bilan birga keladilar. Qiz gul va bulbulni ko‘rib juda sevinadi. Yana ikkinchi martaba kampir keladi. Gul va bulbullarni ko‘rib hayron bo‘ladi va bolaning o‘lmagani uchun ichidan qirindi o‘tadi. Yana qizni ishga soladi:

— E, bolam, endi hovling joyiga tushibdi, bulbullar sayragan, gullar ochilgan, kayf qilib, zerikmay yotasan. Biroq yana bir kamchiligi bor, — deydi. Qiz:

— Ayting, onajon, — deydi. Kampir:

— Bolam, bu bulbullarning sayrashi, gullarning ochilgan bo‘lishi ustiga endi, falon tog‘dagi qanotli oq otni olib kelib bersa, oldingda kishnab tursa, — dedi. Qiz kechqurun akasi ovdan qaytib kelgach, o‘zini yana xafalikka soladi. Akasi sababini so‘rasa. Qiz:

— Men bir tush ko‘rdim. Tushimda bir qanotli oq otni ko‘rdim. Shu oq otni keltirsangiz, oldimda kishnab tursa, — dedi. Bola „xo‘p“ deb, otni axtargani chiqib ketadi. Yo‘lda yana Xizr buva uchraydi. Xizr buva boladan so‘raydi. Bola butun voqeani aytadi. Shunda Xizr buva:

— E, bolam, bu uchar oq otni qo‘lga kiritish juda qiyin va mushkul, — deydi. Bola:

— Qanday bo‘lsa bo‘lsin, mayli, men singlimning aytganini bajaraman, — dedi. Xizr buva bolaga:

— Bundan bir qamishzorga borasan, kechki paytda bir ot o‘tadi, shu vaqtda irg‘ib ustiga minib olasan, ot osmonga ko‘tariladi. Borib bir tilla ustunga o‘zini uradi, ustun chil-chil bo‘ladi. So‘ng ketiga qaytadi. Sen otning boshini o‘z uying tomon burasan va otni keltirasan. Bola Xizr buva aytganining hammasini bajo keltiradi. Otni o‘z uyiga olib keladi va bog‘lab qo‘yadi. Singlisi juda xursand bo‘ladi.

Uchinchi marta yana kampir qizning oldiga keladi. Gul, bulbul va otni ko‘rib hayron qolib, ich-ichidan zil ketadi. Yana qizni ishga soladi.

Kampir:

— Eh, bolam, yana bir kamchiliging bor. U ham bo‘lsa, falon yurtda Sangil sopoltosh degan bir qiz bor, akangga aytib keltirgin, u senga kelin, akangga xotin va yo‘ldosh bo‘lsin, — dedi. Qiz yana o‘zini xafalikka soldi. Akasi so‘radi:

— Nima uchun xafasan?

Singlisi:

— Gullar ochilib, bulbullar sayrab, ot kishnab tursa-yu, faqat menga bir ovunchoq, yo‘ldosh bo‘lmasa. Shuning uchun falon joyda Sangil sopoltosh, degan bir qiz bor, shuni keltirsangiz edi. Men buni tushimda ko‘rdim — dedi. Akasi otni minib qizni axtargani jo‘naydi.

Yo‘lda Xizr buva uchraydi va boladan so‘raydi. Bola voqeani anglatgach, Xizr buva:

— E, bolam, bu juda og‘ir va mushkul ish-ku! Xayr, mayli, men senga yo‘lini ko‘rsatayin, bundan borishingda bir daryo uchraydi, to‘lqinining zarbi otingni qaytaradi, sen yetti-sakkiz marta orqaga tislanib, so‘ngra suvni kechib narigi yog‘iga o‘tasan. Uzoqdan bir qora echki ko‘rinadi, borib qarasang, qora tosh bo‘lib chiqadi va shu tosh atrofida bir qancha odam va hayvonlarning tosh holida yotishganlarini ko‘rasan. Shu vaqt sen: „Sangil sopoltosh“ deb chaqirasan. Birinchi chaqirishingda oyog‘ing, ikkinchi chaqirishingda gavdang, uchinchi chaqirishingda tomog‘inggacha tosh bo‘ladi, to‘rtinchi chaqirishingda butun atrofingdagi toshlar odam va mol bo‘lib tiriladi va „Meni kim chaqirdi?“ deb, bir qiz paydo bo‘ladi. Odamlar: „Men, men“ deb, qizning atrofini o‘rab oladi. Shu vaqtda qiz sening oldingga keladi, sen: „Men chaqirgan edim“, deysan. Qiz: „Seni kim yubordi“, deydi. Sen „Meni Xizr buva yubordi“, deb aytasan. Qiz o‘z nomini aytib „Men Sangil sopoltosh — men senga yo‘ldosh“, deydi. Shundan so‘ng qiz duo o‘qiydi, odamlar hammasi tosh bo‘lib qoladi. Sen bilan qiz o‘z otingga minib jo‘nab kelaverasan, — deydi. Bola Xizr buvaning hamma aytganini qiladi, uyiga qizni olib keladi va xotin qilib oladi.

Bola ovga chiqib ketadi. Yana kampir keladi. Qizni ham olib kelganini ko‘rib:

— Ana endi maqsadingga yetibsan, bolam, — deydi. Shu vaqt kampirni ko‘rgan Sangil sopoltosh qizdan:

— Siz nima uchun bu kampirni bu yerga keltirdingiz? — deb so‘raydi. Qiz esa butun narsalarni shu kampirdan o‘rganganini aytadi. Shu vaqt Sangil sopoltosh:

— Attang, bu kampirni bu yerga keltirish kerak emas edi, — deb turganida, eshikdan bola kirib keladi. Kampirni ko‘radi va undan:

— Sen nima qilib bizning uyda yuribsan? — deb so‘rasa, kampir „Bu narsalarning hammasini keltirishga men sababchi bo‘ldim“, dedi.

Shu vaqtda bola qilichini chiqarib, kampirni qiyma-qiyma qilib tashlaydi. Bola ertasiga ovga chiqib ketadi. Bola dashtda kal podshoh bilan uchrashadi. Bular bir-biriga yo‘ldosh bo‘lib ov ovlashadi. Lekin baxtga qarshi shu kun kal podshoh hech qanday ov qilolmaydi. Bolaning otgan o‘qi esa bekorga ketmaydi. Podshoh ov qila bilmagach, bolaning o‘ljasidan so‘raydi. Bola yo‘q demay, otib olgan o‘ljalarining bir qismini kal podshohga beradi, podshoh oladi. Bola ikkinchi kuni ovga chiqqanida yana kal podshoh uchraydi. Yana podshoh ov qila olmaydi. Bola esa butun ov qilgan o‘ljalarini bir joyga yig‘adi.

Podshoh ov qila olmagani uchun alam qiladi. Bu gal ham so‘rab ovning bir qismini kal podshoh olib jo‘naydi. Uch marta bola ovga chiqqanida shu hol takrorlanadi. Podshoh yana o‘ljadan bir qismini so‘rashni o‘ziga or deb biladi-da, bolaga qarab:

— Sen qanday qilib ovlayotirsan, menga ham o‘rgat, — deydi. Bola:

— Qanday ovlash o‘zingizni ixtiyoringizda, men sizning ovlayolmayotganingizni qayerdan bilay? Ey, podshoh, agar sizga bu o‘ljalar kerak bo‘lsa, olib ketavering, menga birozginasi qolsa bas, chunki menga qarashli oila juda kam kishidan iboratdir, — dedi. Podshoh: — Bo‘lmasa, ertaga men sening uyingga o‘z vazirlarim bilan mehmonga boraman, tayyor bo‘lib turgin, — deydi. Bola yo‘lda xafa bo‘lib ketayotganida Xizr buva uchraydi. Xizr buva boladan:

— Nima uchun xafa ko‘rinasan, bolam, — deb so‘raydi. Bola:

— Ey, ota, mening o‘zim bir kambag‘al bo‘lsam, kundalik turmushimni zo‘rg‘a o‘tkazib turib edim. Ertaga mening uyimga shu shaharning podshohi o‘z vazirlari bilan mehmon bo‘lib kelmoqchi. Endi men ularga ovqatni qayerdan olaman, otlarini qayerga bog‘layman va kichik uyimda qanday kutaman, deb xafa bo‘lib borayotir edim, — dedi.

Xizr buva:

— Ey, bolam, buning tashvishini tortma, o‘zim hammasini to‘g‘ri qilaman. Bolam, podshohingni o‘zim kutaman, ovqatingni o‘zim pishiraman, otlariga joy topib beraman, xullas, u mehmonlarni o‘zim tinchitaman, — dedi. Bola:

— Bir kunda qaysi birini tayyor qilasiz, podshohga joy tayyorlaysizmi, osh pishirasizmi, otxona tayyorlaysizmi? Qaysi birini qilasiz? — dedi.

Xizr buva:

— Uni sen qo‘yaver, men bularning hammasini bajaraman, uyingga ketaver, balki uyingga borguningcha tayyor bo‘lib qolar, xafa bo‘lma, bor uyingga, — dedi. Bola:

— Xo‘p, mayli, ota, — deb uyiga ketadi. Bola uyiga borib qarasa, qator yangi imoratlar paydo bo‘lib qolibdi: ichkari-tashqari hovli, ost-ustli imorat, omborxona, otxona. Qator bir-ikki uy ichi to‘la turli-tuman g‘alla va yemishlar. Bola hayron bo‘lib qoladi. Bola uyga kirishi bilan singlisi va xotini shodlik va xursandchiliklar bilan kutib oladilar. Bularning uyi to‘yga aylandi. Oziq-ovqatlarni tayyorlash va mehmon qilish uchun tegishli bo‘lgan xarajatlar bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Xizr buva ham kelib, o‘choqni qazib, oshpazlikka urinib ketadi.

Podshohlar ham yetib kelishdi. Podshohni tantana va hurmat bilan kutib olishdi. Xizr buva ularni o‘z joyiga o‘tqizadi, hammasini saranjomlaydi. O‘zi kichik bir dekcha qozonga olov yoqib, palov damlaydi. Shu qozonning oshi hamma kelgan mehmonlarga yetib, ortib ham qoladi. Mehmonlarni ko‘ngildagidek uch kun mehmon qilishadi. Dekchadan oshni suzgan bilan osh tamom bo‘lmaydi. Podshoh mehmonlari bilan ketmoqchi bo‘lib, o‘rnidan turganda, Xizr buva:

— E, taqsir podshoh, agar mumkin bo‘lsa, mening ixtiyorimda uch soat o‘tirsangiz, sizga aytadigan muhim so‘zim bor, — deydi. Kal podshoh:

— Xo‘p, mayli, ayting, eshitaylik, — deb turgan o‘rniga o‘tiradi.

Xizr buva Sohibqurol va Sohibjamollarning, so‘ngra kelini bo‘lmish Sangil sopoltoshlarning tarixini so‘zlab ketadi. So‘zining eng oxirida:

— Mana bu yigit o‘g‘lingiz Sohibqurol, mana bu qizingiz Sohibjamol, mana bu keliningiz Sangil sopoltoshdir, — deb tanishtiradi.

Podshoh ko‘ziga jiqqa yosh olib o‘rnidan irg‘ib turadi-da;

— Voy, bolalarim, bormisizlar, — deb bolalarini o‘z bag‘riga oladi, quchoqlab o‘padi. Shu vaqt Xizr buva:

— Mana, shu bolalaringni men tarbiya qilib o‘stirdim, endi topib olding, xayr endi, men ketdim, mendan rozi bo‘linglar, — deb g‘oyib bo‘ladi. Kal podshoh o‘z bolalarini olib, qo‘rg‘ondan chiqadi va uyiga ketadi. Shu vaqt orqasiga qarasa, temir qo‘rg‘ondan hech bir asar yo‘q.

Podshoh uyga kelgach, Vospiroxunni zindondan chiqaradi va yuvintiradi. Kiyintirib, o‘z bolalarini ko‘rsatadi. Vospiroxun kundoshlarini biyaning dumiga bog‘lab, tikanzorga haydab chiqaradi va orqasidan ayg‘irlarni qo‘yib yuboradi. Kundoshlarning go‘shti bir burdadan bo‘linadi. Boshqatdan to‘y-u tomoshalar qilib Sangil sopoltoshni o‘g‘liga olib beradi. Kal podshoh o‘z o‘rniga o‘g‘lini podshoh qilib ko‘taradi. Kal o‘z ajali bilan o‘ladi.

Kunlardan bir kuni Sohibqurol podshohning xotini uch o‘g‘il tug‘adi. Uchalasi ham oldinma-keyin katta bo‘ladi. Sohibqurol otasidan qolgan meroslarni tekshirib yurib, bir uyga kiradi. Uyda otasidan qolgan bir oynayi jahon bo‘ladi. Shunga qarab uxlab qoladi. Podshoh tushida shu oynayi jahon ichida bir qiz chiqib turganini ko‘radi. Uyg‘onib qarasa, qiz yo‘q. Bu holni vazir va o‘g‘illariga aytadi. O‘g‘illari:



«Malikai Husnobod» ertagiga ishlangan rasm

— E, ota, biz borib qidirib, siz istagan qizingizni keltiramiz, — deydilar. Otasi yo'l bermaydi. Bolalar ham bo'sh kelmagach, ruxsat etishga majbur bo'ladi. Katta o'g'liga miltiq, o'rtanchasiga xanjar, eng kichigiga kamarini beradi. Bolalar jo'naydi. Bu uch og'ayni bir muyulish ko'chaga keladilar, bu yo'lda uch yo'l bo'lib: biriga „borsa kelar", biriga „borsa kelmas", uchinchi yo'lga „borsa xatar" deb yozilgan edi. Uch og'ayni maslahat qilishadi. Kattasi „borsa kelarga", eng kichigi „borsa kelmasga", o'rtanchasi „borsa xatarga" jo'naydilar. Kichik o'g'il uzoq yurgandan so'ng, qorni ochib qayerga borarini bilmay, bir hovuz bo'yiga keladi. Hovuzdan bir kampir suv ololmay, qiynalib turganini ko'radi. Bola yugurib borib kampirning qo'lidagi chelakni olib, hovuzdagi suvga botirib oladi-da, kampirning uyiga eltib beradi. Kampir bolani to'yg'izadi va:

— E, bolam, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan bu joyda nima qilib yuribsan, — deydi. Bola:

— E, ona, hech so'ramang, men juda bir zarur ish bilan shu yo'llarga tushib qoldim, — deb aytmaydi. Kampir:

— Men shu joyda yolg'iz o'zim yashayman, o'g'il va qizim yo'q, sen menga o'g'il bo'lmaysanmi? — deydi. Qayoqqa borishni bilmagan bola:

— E, ona, o'g'li yo'qqa o'g'il, qizi yo'qqa qiz bo'laman.

Bola kampir uyida bir necha kun yashaydi. Bola kechasi tashqariga chiqaman desa, kampir yo'l bermaydi, eshikni mahkamlab tashlaydi. Bu holni ko'rgan bola kechasi hovliga chiqishni har kun so'raydi va kampirdan:

— Nima sababdan tashqariga chiqarmaysiz? — deb so'raydi. Kampir javob beradi:

— Osmonda ikki oy bor. Biri osmonning oyi, ikkinchisi kun botish podshosi qizining osmonga tushgan shu'lasi. Bu shu'laga qaragan har qanday yigit oshiq bo'lmay, shu qizni qidirib topish azobiga uchramay qolmaydi. Bu qizga yetisha olmay qancha podshoh va uning odamlari xazon bo'ldi. Shuning uchun kechasi seni tashqariga chiqarmayman.

Bola otasining tushidagi oynayi jahonda ko'ringan qiz shu bo'lsa kerak, deydi-da, kampirning qarshiligiga qaramay, kechasi oydinga chiqadi. Podshoh qizining shu'lasini ko'rib, hushidan ketadi. Kampir nima qilishini bilmaydi. Bola o'ziga kelib, tez shu qizning oldiga qanday borish yo'lini kampirdan so'raydi. Kampir aytib berishga majbur bo'ladi. Bola beliga uch nonni tugib, katta yo'lga tushib olib, jo'naydi. Bola yo'lda xafa bo'lib ketaveradi. Yo'lda Xizr buva uchraydi. Bolaning hol-ahvolini so'ragandan so'ng, bolaning qo'liga bir gazli qilich beradi. Bola Xizrdan o'tib bir qo'rg'onga keladi. Bu qo'rg'on dev podshosiniki ekan. Qilich bilan eshik oldida mudrab turgan devni o'ldiradi va ichkariga kiradi. Uyda juda ko'p devlar uxlab yotgan ekan. Bola bir chekkadan hammasining kallasini

oladi. Otxonada bir oq uchar ot turibdi. Otni borib yolidan mahkam ushlasa, ot kishnab, yoli uzilib, bola qo'lida qoladi. Ot uchib ketadi. So'ngra bola o'z yo'liga tushib, bir joyga kelib charchab dam olib o'tirsa, qarshisidan bir arslon chiqadi. Bola qo'rqqanidan nonining yarmini beradi. Arslon nonni yeb, o'z yolidan berib, bolani o'tkazib yuboradi, bola bir joyga kelsa, ko'cha to'la chumoli. Shu vaqt chumolilar podshosi to'y qilmoqda ekan. Bola chumolilarning ko'chadan o'tib bo'lishini kutadi. Ular tamom bo'lmaydi. Bola bir nonni burdalab ko'chaga tashlaydi. Chumolilar talab ketadi. Chumolilarni bosib o'tishni lozim ko'rmaydi, ularni ayaydi. Shunda chumolilar podshosi:

— E, inson farzandi, sen bizni hurmat qilding, ovqat berding, endi nima istaysan? — dedi. Bola:

— Faqat men shu yo'ldan o'tib ketsam, bas, — dedi. Chumolilar podshosi yo'lni bo'shatadi, bola o'tib ketadi. Uzoq yurgandan so'ng bir podshoh saroyiga keladi. Bu saroy kun botish podshosining saroyi ekan. Podshohning qizi qirq gaz balandlikdagi shiyponda osmonga qarab yotar ekan. Uning aksi osmonga tushar ekan. Buni izlab kelgan har qanday odam ham yo'lda devlarga uchrar, ular dabdala qilar yoki arslon yer, chumolidan o'tolmay xarob bo'lib ketar ekanlar. Butun xatarlardan qutulgan bola sekin saroy ichiga kiradi. Saroyda turli mamlakatlardan shu qiz ishqida kelgan podshohlar, vazirlar, botirlar to'la. Qiz kunduzi yerga tushar, kechasi shu minora tepasida yotar ekan. Qizning ishqida kelgan odamlarga qizning otasi:

— Kimda-kim tegirmon toshini otib, shu qirq gaz balandlikdagi uychani qulatsa, shunga qizimni beraman, — der ekan. Uch kungacha kishilar turli yo'llar bilan chirana-chirana bu toshni o'rnidan qo'zg'atolmagan. Hech kim topilmagach, podshoh odamlarga „mayli, kim bo'lmasin — musofir bo'lsa ham mayli", degach, „Men shu ishni bajaraman", deydi bola. Podshoh ruxsat etadi. Bola toshni yerdan ko'tarishda arslon tutatqisini tutatadi. Arslon kishilar ko'ziga ko'rinmagan holda toshni ko'taradi. So'ngra bola otning tutatqisini tutatadi. Ot ham ko'zga ko'rinmay paydo bo'ladi. Arslon toshni sekin otning ustiga qo'yadi. Ot osmonga ko'tariladi. Toshni imorat ustidan tashlaydi. Minora yer bilan yakson bo'ladi. Uy chilparchin bo'lib ketadi. Podshoh qizini bolaga to'y-u tomosha qilib beradi, o'z o'rniga podshoh qilmoqchi bo'lganda, bola rozi bo'lmaydi. „Agar istasangiz men bir ota-onamni borib ko'rib kelay", deydi-da, otning tutatqisini tutatadi. Oq otga qizni mindirib uchadi. Akalari bilan xayrlashgan joyga kelsa, ular yo'q. So'ngra ularni qidirib topadi. Katta akasi oshpaz, o'rtancha akasi go'loh bo'lib qolgan ekan. Har ikkisini topib oladi. So'ngra ketishga hozirlanadilar. Bolaning xotini, ikki akasi

yo‘lda keta beradilar. Shu vaqt ikki akasi bir-biri bilan maslahat qiladi. Kattasi o‘rtanchasiga:

— Sen bilan men shunday qup-quruqmiz, otamizning oldiga nima deb boramiz, — deydi. O‘rtanchasi:

— Bo‘lmasa, ukamizni o‘ldiramiz-da, chuqurga tashlab, qizni biz keltirdik, deb olib boramiz, — deydi. Yarim yo‘lda ukasining qo‘l-oyoqlarini bog‘lab, o‘ldirishga, ko‘zi qiymay, bir chuqurga tashlab ketadilar. Otalari oldiga boradilar. Podshoh kichik o‘g‘lini esga ham olmaydi. Shu vaqt qiz hadeb yig‘lay beradi, ovqat yemaydi. So‘ngra qizdan sababini so‘raydilar. Qiz butun voqeani aytib, „Meni bu yerga olib kelishga sababchi bo‘lgan bu ikki o‘g‘lingiz emas, o‘sha eng kichik o‘g‘lingizdir,“ deydi. Podshoh odam choptirib, qidirishga buyuradi.

Bolani topa olmaydilar. Bola yo‘lda qizning qo‘liga otning tutatqisini bergan ekan. Shu vaqt qiz ot tutatqisini tutatadi. Ot tayyor bo‘ladi. Qiz borib qarasa, yigit chalao‘lik bo‘lib yotibdi. Darrov otga bolani o‘ngarib oladi. Ot yana uchadi, podshoh saroyiga keladi. Podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-u tomoshalar bilan qizni kichik o‘g‘liga olib beradi. Muttahamlik qilganlari uchun ikki katta o‘g‘lini biyaning dumiga bog‘lab, tikanzorga choptirib, go‘shtlarini burda-burdadan qildiradi. Bu o‘g‘lini o‘zi o‘rniga podshoh etib ko‘taradi. Bola bir necha kundan so‘ng qaynatasinikiga — kun botish podshosi tomon qiz bilan uchadi. U yerda ham to‘y-u tomoshalar bo‘ladi. Yigitni o‘z o‘rniga podshoh qiladi. Qudalar bir-biriga borish-kelish qilishadi. Shunday qilib, bola ham kun chiqish, ham kun botish mamlakatining podshohi bo‘ladi. Oq uchar ot yigitni bir kun kun chiqishga, bir kun kun botishga olib boradi. Shunday qilib, Qora podshohni yenggan bizning kal podshohning nabirasi ikki mamlakatning podshohligini so‘raydi. Murod-maqsadiga, soqoli ko‘ksiga yetadi.



Malikai Husnobod

Sizga bog‘ bersin, bizga hayot.

Zamonlarning zamonida, qadimal ayyomda bir zolim podshoh bor ekan. Podshohning bir qizi bor ekan, oti Malikai Husnobod ekan. Onasi bir kambag‘alning qizi ekan. Sohibjamolligi haddan ziyoda, oy desa og‘zi bor, kun desa ko‘zi bor, shaq-shaqayi jamoli o‘n to‘rt kechali oyni xira qilar ekan. Suv ichsa tomog‘idan, sabzi yesa biqinidan ko‘rinar ekan.

Malikaga ko‘p joylardan sovchi kelibdi, otasi bermabdi. Kunlardan bir kun podshohning taxti tepasidagi daraxtga bir qarg‘a kelib qo‘nibdi. Qarg‘a „qag‘... qag‘“ deb qag‘illabdi. Podshohning to‘rt yuz ulamosi bor ekan. Podshoh ularni chaqirib:

— E, ulamolar, qarg‘a nima deyapti! — deb so‘rabdi. Ulamolardan biri:

— Qarg‘aning nima deyayotganini bilmaymiz. Chunki u — qarg‘a, biz odamzodmiz. Qarg‘a o‘z vaqtini chog‘ qilmoq uchun qag‘illaydi-da, — debdi.

Zolim podshoh darg‘azab bo‘lib „jallod“ debdi. O‘n to‘rt jallod murg‘isalovat, qilichini burro, zabonini go‘yo qilib „Kimning ajali yetdi, oftobni soyaga yetkarmay bosh kesarman“, deb turibdi. Podshoh hukm qilib: „Olib chiq, bu to‘rt yuz kishining boshini kes!“ debdi.

Shu zamon Malika bu so‘zni eshitib qolib:

— E, ota, sizga nima bo‘ldi, nima savol so‘radingiz? Xuni-nohaq to‘rt yuz kishining boshini kesasizmi? — debdi.

Podshoh doimo xotiniga: „Men podshohman, yaxshi kiyib, yaxshi yeyapsan, agarda bir kambag‘alga tekkaningda, non o‘rniga g‘isht chaynar eding!“ deb ta’na qilar ekan. Podshoh ketgandan so‘ng qizi: „E ona, meni bir kambag‘al, mehnatkashga beringki, agar toleim bo‘lsa, uni podshoh qilib, otamning taxtiga o‘tqazay“, der ekan.

O‘sha kuni jumboq ustida qiz hozir bo‘libdi. Podshoh „Agar jumboqni yechsang, gunohlarini o‘tdim“, debdi. Qiz: „Qarg‘aning „qag‘“ degani, erni bor qiladigan ham xotin, yo‘q qiladigan ham xotin, deganidir“, — deb javob beribdi.

Podshoh darg‘azab bo‘lib, har bir tuki nishtari obdor bo‘lib:

— E, soching qirqilgur, sening ko‘ngling er tilabdi, men seni zindonga solib, yetti yil saqlab, keyin teringga somon tiqayin, toki bu ish boshqa qizlarga ibrat bo‘lsin, bundan keyin hech kim ota-onasidan javobsiz erni tilga olmasin! — deb qizini zindonga solibdi. Haligi to‘rt yuz kishini ozod qilibdi.

Podshoh bir haftagacha uydan chiqmay, fikr qilibdi: „Qizni zindonda ochdan o‘ldiraymi, osaymi, nima qilsam bu ishni xalq bilmas ekan?“

Podshohning bir vaziri bu ishlardan xabardor ekan. Qizga rahmi kelib, kechasi uni zindondan qutqarib olibdi. Uyiga olib kelib, bir duradgorga hech bir joyidan shamol, suv kirmaydigan qilib mustahkam bir sandiq yasattiribdi. So‘ngra qizga qarab:

— E, qizim, otangning niyati buzildi, senga qirq kunlik ovqat tayyorladim, sandiqqa tush, uning qopqog‘ini mahkam bekitib, daryoga tashlayman, umring uzun bo‘lsa, birorta odam seni xalos etar, podshoh qilichidan o‘lganingdan ko‘ra, sahroda cho‘pon bo‘lib yurganing yaxshi, — debdi.

Qiz „xo‘p“ deb sandiqqa tushibdi. Vazir sandiqni ko‘tarib, daryo labiga kelibdi va uni suvga oqizib yuboribdi. Sandiq suvda uch oy oqibdi. Qiz bir kunlik ovqatni to‘rt kunga yetkazibdi.

Bo‘lak bir mamlakatning podshohi odamlarga: „Menga sahrodan o‘tin keltiringlar“, deb buyruq beribdi. Bir kambag‘al ayolmand kishi bor ekan. U „Men boraman, mening bola-chaqam ko‘p, menga bir narsa bersangiz, bolalarim bilan ovqat qilaman,“ deb qo‘liga o‘roq olib, beliga arqon bog‘lab dalaga boribdi. Chol o‘tin qilib bog‘labdi, chanqovini bosish uchun daryo labiga suv ichgani borgan ekan, shu paytda daryo o‘rtasida oqib kelayotgan bir sandiqni ko‘ribdi. Chol darhol ust-boshini yechib, o‘zini daryoga tashlabdi, sandiqni tortib chiqaribdi. Uni qayerdan

ochishni bilmabdi. Nihoyat, unnab-unnab o'roq uchi bilan sandiqni ochibdi. Qarasa, Malikai Xo'bon, malikai tal'at, husn-u jamolda tengi yo'q bir qiz yotgan emish. Chol hayron bo'lib: „Bu bir savdogarning qizi bo'lsa, otasi bilan savdoga jo'nagan bo'lsa, yo'lda daryo bo'lsa-yu, kemaga o'tirgan bo'lsa, kema cho'kib ketgan, bu sandiq suvning betida qolgan, mening bu qiz bilan nima ishim bor. Podshohga o'tinni olib borsam bir tanga beradi, qizni olib borsam, hech narsa bermaydi, yaxshisi shuki, daryoga tashlab yuboray" deb fikr qilibdi:

— Hoy, qiz, o'likmisan, tirikmisan? — deb chaqiribdi. Qiz:

— Tirikman, — deb o'rnidan turib o'tiribdi. Qizning tirnoqlari o'sgan, sochlari paxmaygan ekan. Chol ko'rib:

— E, qiz, seni tag'in daryoga tashlayman, — debdi.

— E, ota, meni sandiqdan chiqarib olsangiz, men sizni ko'p davlatmand qilardim, —deb yalinibdi qiz.

Chol quloq solmay, sandiqni bekitib: „Buni shaharga olib borib sotaman, bunda nima bor-yo'qligini hech kim bilmaydi", deb ko'taribdi. Bozorga olib borgan ekan, ko'chada ketayotgan podshohning ko'zi chol bilan sandiqqa tushibdi: „E, chol, qani keltirgan o'tining, men senga o'tin olib keltirgin desam, birovning uyini o'g'irlab, sandig'ini olib kelibsan!" deb cholni qilich bilan ikki nimta qilibdi, sandiqni saroyga keltiribdi.

Podshoh xizmatkorlariga: „Sandiq ochilsin!" debdi, sandiqni ochib qarasalar, bir qiz yotgan emish. Podshoh uni ko'rib, oshiqi beqaror bo'libdi. Ko'kragidan bir tiri juvoldiz parron o'tibdi va qizni sandiqdan olib: „Menga tekkin" debdi. Qiz:

— Podshohim, menga qirq kun muhlat bering! To'rt oydan beri ko'p azob chekdim, endi qizlar bilan birga yurib, besh-o'n kun o'ynab, dimog'imni biroz chog' qilay, — debdi. Podshoh qabul qilmabdi. „Hozir „Xo'p" demasang, boshingni tanangdan judo qilaman!" debdi. Qiz yig'labdi: „Bo'lmasa uch kunga javob bering, qizlar bilan bog'da sayr etib o'ynab olay, keyin sizning aytganingiz bo'lsin". Podshoh bir kunga javob beribdi.

Qiz qirq qiz bilan podshohning bog'iga kiribdi. Bog'ning oyog'idan daryo oqar ekan, qizning ko'zi daryoga tushibdi. „Yuringlar, qizlar, daryoga tushib cho'milib chiqamiz" deb daryo tomonga yo'l boshlabdi.

„Men bir kambag'alga tegib, uni podshoh qilib, zolim otamning tepasiga lashkar tortib borib, uning taxtini ko'kka sovuraman, deb ahd qilgan edim. Agar bu podshohga tegsam, maqsadim hosil bo'lmaydi" deb o'ylabdi o'zicha va qizlardan oldinroq borib, daryoga sho'ng'ibdi. Bir jayxun baliq daryoda yotgan ekan, qizni yutibdi-yu, suv tagiga ketibdi, qirq kaniz daryo labida chapak chalib qolaveribdi.

Qizlar borib bu voqeani podshohga aytibdilar. Podshoh oh tortib, boshidagi tojini, belidagi kamarini yerga urib, o'zi bir qalandar suratiga kirib, cho'l-biyobonga chiqib ketibdi.

Endi ikki kalima so'zni bo'lak jonibdin — shahri Jurjondin eshiting:

Bir podachining o'g'li daryo bo'yida mol boqib yurar ekan. Bir to'da baliqchi daryoga to'r solibdi. Podachi bola baliqchilarga yig'lab, bunday debdi:

— Uch kundan beri otam och, kasal. Ovqat topib kelgani shaharga borolmaydi. Men borsam „podangni boq" deb hech kim ko'chada yurgizmaydi. Menga biror narsa bersanglar. Haligi baliqchilar:

— Mana shu solingan to'rimizga nimaiki ilinsa seniki, — deyishib to'rni suvdan ko'tarishibdi. Qarasalar, bir katta jayxun baliq tushibdi. „Ol, bola" debdilar. Podachi bola baliqni to'rtta ho'kizning beliga bog'lab, sudratib uyiga olib boribdi. Otasi suyunib baliqni yorgan ekan, ichidan bir qiz chiqibdi. Chol suyunib, qizning nafasiga quloq solsa, tirik ekan. Chol darrov qizning og'ziga suv tomizibdi. Birozdan keyin qiz ko'zini ochibdi, o'rnidan turib, cholga salom beribdi.

— Ota, qornim och, menga bir luqma tomoq bering,— debdi.

Chol bilan o'g'li qizga haligi baliqdan pishirib berishibdi. So'ngra qiz so'rabdi:

— Ota, sizning kasbingiz nima, o'g'lingizning kasbi nima?

— Men podachi edim. Endi qarib qoldim. O'g'lim podachilik qiladi. Qiz suyunib aytibdi:

— Men endi murodimga yetdim. Sizga qiz bo'laman. Xohlasangiz meni o'g'lingizga olib bering.

— E bolam, to'y qilishga bizda hech nima yo'q.

— Men o'zim xohlasam, to'y xarji uchun hech narsaning keragi yo'q. Nihoyat chol xursand bo'lib qizni o'g'liga olib beribdi. Qiz sochini orqasiga turmaklab, qozonni qarasa, kirligidan u qulog'i bu qulog'iga yetay deb qolibdi. Idish-tovoqlar ham shunday. Hammasini tozalabdi. Chol uni ko'rib dili oynadan ham ravshan bo'libdi. O'rnidan turib:

— E, qizim, men kasal bo'lib qoldim. Uy ichiga ham qaray olmadim. O'g'lim bo'lsa, mol boqish bilan ovora. Erta ketib kech keladi, — debdi.

Kelin uy-ro'zg'orini butlashga kirishibdi. Uning ozodaligi va chaqqonligini ko'rgan chol juda xursand bo'lib:

— Bolam, sening g'ayratingni ko'rib, mening ham g'ayratim keldi. Xizmat bo'lsa, menga ham buyursang,— debdi. Kelin o'ng qulog'idagi bitta baldoqni cholga berib:

— Buni bozorga olib boring, xaridor nima bersa, olib keling,— debdi.

Chol baldoqni olib, karvonsaroyga borib o'tiribdi. Bir savdogar baldoqqa xaridor bo'lib:

— Ota, necha pul bu?— deb so'rabdi. Chol:

— O'zingiz insof qilib bir nima bering,— debdi.

Savdogar bir qutini oltinga to'lg'azib beribdi.

— Ota, bo'ladimi yo ozmi? — debdi.

— Insof qiling deb edim, gapim tamom,— debdi chol. Savdogar yana bir xaltada oltin chiqarib beribdi.

— Yuklab keting deb bir xachir ham beribdi. Cholning achchig'i kelib: „Bu meni masxara qilyapti, bir olib qochayki, savdogar meni hech topolmasin", deb o'ylabdi. Oltinlarni xachirga yuklab jo'nabdi. Savdogar o'z ko'nglida: „Agar shundan tag'in bitta topganimda, mamlakatimning podshosiga yetti iqlimning boj-xiroji barobariga sotardim" debdi, chunki baldoq noyob gavhar ekan.

Chol uyiga kelib, oltinlarni keliniga beribdi.

Keyingi hafta kelin chap qulog'idagi baldog'ini ham chiqarib beribdi. Chol yana avvalgi joyga borib o'tiribdi. Yana o'sha savdogar kelib qarasa, chol o'tirgan emish.

— Necha pul, ota? — deb so'rabdi savdogar.

— Senga sotmayman,— debdi chol. — Sen meni hazil-mazax qilyapsan. Savdogar:

— Yuring hujraga,— deb cholni saroyga boshlab kiribdi. Cholga ikki sandiq tilla beribdi, shohi to'n kiygizibdi, ikki xachir beribdi.

— Ota, turar joyingiz qayerda?— deb so'rabdi. Chol „joyimni aytsam, oltinlarni tortib oladi" deb o'ylab:

— Mening joyim yo'q, — debdi. Chol uyiga kelibdi. Kelin oltinlarni olib, uyga qo'yibdi. Tashqariga chiqib orolni taxmin qilibdi, kengligi o'n kunlik yo'l kelar ekan.

Kelin cholga qarab:

— Paxsa uradigan yigirmata devolzon toping,— debdi. Chol topib kelibdi. Kelin devolzonlarga:

— Bola-chaqangizni ham olib keling, — debdi. Ular olib kelibdilar. Har kuni ularga osh-non, pul, yaxshi kiyim-bosh berib turibdi.

Buni eshitib ikki yuzta devolzon usta jam bo'libdi. Ular devol urishni boshlabdilar. Bu devolzonlarni ko'rgan odamlar: „Bu ishni kim qilyapti?" deyishsa: „Podachi qilyapti, sizlarga ham ish kerak bo'lsa, kelaveringlar", deb javob berar ekanlar.

O'n besh kunda besh ming uylik odam to'planibdi. Uch oy deganda devol bitibdi. O'n ikki joyga darvoza qurilibdi. Kelin har darvozaga xat yozdirib, suratini yopishtiribdi.

Xatning mazmuni quyidagicha ekan:

„Bu yurtning nomi Husnobod. Har kimga oshlik-nonlik kerak bo'lsa, kelib xizmat qilsin".

Bir yil ichida yetmish besh ming uylik odam jam bo'libdi. Hammasiga qo'sha-qo'sha uylar solib berilibdi. Bir qancha odam yaroq-aslaha tayyorlabdi. Malika ham darvozaga yigirma beshtadan odam qo'yib: „Kimki darvozaga kelib, suratga yomon tikilsa, uni menga keltiringlar" deb hukm qilibdi. Bu shaharning xabari Jurjon mamlakatining podshosiga ham yetibdi.

Podshohning achchig'i kelib: „Mening zamonamda kim bu beodoblikni qilib, mening yurtimga kelib, podshohlik da'vo qiladi? Borib tig'dan o'tkazay!" deb darvozaga yetib, darvozada turgan qorovullarni ko'ribdi.

— Bu shaharni kim bino qildi?— deb so'rabdi podshoh. Qorovullar:

— Shu darvozadagi suratning egasi qildi. Sizga yaxshi xizmat qilsak, o'zimizgagina ovqat berar edingiz, bola-chaqamiz och qolaverardi, shu sababli bola-chaqamiz ko'cha-ko'ylarda sarson bo'lib, tilanchilik qilishib yurardi. Bu podshoh xotin esa bola-chaqamizni yaxshi parvarish qildi. Bizdan hech narsa tama qilmasdan, bolalarimizni yaxshi joylarda tarbiya qilib o'qitdi. Ko'p bolalar bir ishning egasi bo'ldilar,— deb javob berishibdi.

Podshoh suratni ko'rib, oshiq bo'lib, qizni o'ziga xotin qilishnn xohlab qolibdi. Shaharga kirib, malikaning o'rdasiga boribdi:

— Jurjon podshosi keldi. Sizni o'ziga xotinlikka tilaydi, — deb malikaga xabar yetkazibdilar. Bu gapdan malikaning achchig'i kelib, podshohni chaqirtiribdi. Malika:

— E, podshoh, nechta xotining bor?— deb so'rabdi.

— Qirqta.

— E, ahmoq podshoh, — debdi malika, — Qirq xotin ustiga meni ham olmoqchimisan, bu ishni ixtiyor qilma!

Podshoh bu so'zdan g'azablanib:

— Sen kabi ahmoq qizning qo'lidan nima ish kelardi?! Meni xalq ichida sharmanda qilding! — deb yonidan qilichini sug'urgan ekan, qiz o'zini taxt orqasiga olibdi. Qizning xizmatkorlari kelib podshohni ushlabdilar. Oyoq-qo'liga kishan urib, zindonga solibdilar.

Shahar xalqi buni eshitib zolim podshohdan qutulganlariga sevinib, malikani podshohlikka ko'taribdilar.

Oradan bir necha kun o'tibdi, bir qalandar darvoza oldiga kelib suratga tikilib, yig'layveribdi. Qorovullar uni malikaning oldiga olib kelibdilar. Malika qarasa, bir kunga muhlat bergan podshoh ekan. Shunda malika so'rabdi:

— E, qalandar! Nimaga yig'laysan?

— Bir qoshiq qonimdan o'tsangiz, aytaman.

— O'tdim, ayt!

— Mening bir mahbubim bor edi. Oti Husnobod edi. Sizning darvozangizda o'shaning suratini ko'rdim. Darvozada ham „Husnobod" deb yozilgan. Sizni ko'rsam, kimligingizni bilardim.

— Agarda o'sha qiz tirik bo'lsa nima qilasiz?

— Daryoga tushib yo'q bo'lgan deb eshitdim, agar biror hiyla qilib, kanizlarga biror nima berib, o'zi qochgan bo'lsa, qo'limga tushsa, go'shtini bittadan tikanga ilaman.

— Malika senga hech gunoh qilgani yo'q, hali ham bu shahtingdan qayt,— debdi qiz.

Qalandar „Mening xotinim shumikan?" deb gumon qilibdi.

Qilichini sug'urib malikaga o'qtalibdi va: „Yuzingni och, ko'raman!" debdi. Malika taxt orqasiga yashirinibdi va: „Ushla, bu qonxo'rni!" deb buyuribdi. Xizmatkorlar buni ham ushlab, zindonga solibdilar. Malika xotirjam bo'lib, vazirga buyuribdi:

— Lashkarimizning hisobini ol-chi, qancha ekan!

Vazir lashkar hisobini olib chiqibdi. Otliq, piyoda yetti lak lashkar yig'ilibdi, qirq kun yo'l jabdug'ini tayyorlab eri va lashkari bilan ota shahriga jo'nabdi.

Dasht-u biyobonlarni, cho'l-u sahrolarni keza-keza, axiri, malika o'z ota yurtiga yaqinlashibdi...

Endigi gapni qizning otasidan eshiting:

Qizning otasi kechasi tush ko'ribdi: qarasa, osmondan bir burgut kelib podshohni ko'tarib uchibdi, olib keta turib: „Menga qulluq qilasanmi yo boshingni uzib tashlaymi?" debdi. Podshoh: „Yurtimni va xazina-yu dafinalarimning hammasini senga beray, lekin meni omon qoldir" debdi. Shunda qush: „Menga dunyo kerak emas, sen zolimdan Husnobodning qonini talab qilaman" debdi. Podshoh qizning otini eshitib, yig'lab yalinib turgan vaqtda, Husnobod qizi bir tog'ning orasidan chiqib kela boshlabdi. Bir qo'lida yalang'ochlangan qilich, bir qo'lida g'oz kabobi bor emish. Qiz yetib kelib o'sha qushni bir uribdi. Qush ikki bo'lak bo'libdi. Podshohni yerga qo'yib qo'lidagi kabobni uzatib, „Ota, mendan o'tgan bo'lsa, ma'zur tuting" debdi. Podshoh „dod" deb uyg'onibdi. Qarasa, yoniverida hech kim yo'q, qorong'ida bir o'zi yotgan ekan. Erta bilan qirq to'rt vazirini va to'rt yuz akobirini chaqirtiribdi. Ular yig'ilishib kelibdilar, podshoh ularni o'tirishga ishorat qilibdi. Hammasi qo'l qovushtirib o'tiribdi. Podshoh o'ziga qarashli odamlarni yig'ib, kechasi ko'rgan tushini birma-bir aytib beribdi, ta'birini so'rabdi. Ammo o'tirganlarning birortasi ham churq etmabdi. Shunda podshoh g'azablanib, ikki qo'lini musht qilib:

— Tushimning ta'birini aytmasalaring, birontangni ham tirik qo'ymayman,— debdi.

— E shahanshoh,— debdi katta vazir ta'zim bilan, — bir qoshiq qonimdan kechsangiz, tushingizning ta'birini aytay.

— Ayt, kechdim!

Vazir aytibdi:

— Boshingizdan ko'tarilgan qush dushman bo'lsa kerak, dushman yurtimizni vayron qilay deb turgan bir vaqtda qizingiz kelib ajratib olsa-yu, podshohlik boshqa odamning qo'liga o'tsa.

Podshoh yana g'azablanibdi va:

— E yolg'onchi, qizimning suyaklari zindonda chirib ketganiga necha yil, necha zamonlar bo'ldi, sen qo'rqqaningdan shu gapni aytib yuragimni g'ash qilmoqchimisan, seni ham zindonga solay, qizim yonida sening ham suyaklaring chirisin! — deb vazirini ham zindonga solibdi.

Shundan so'ng podshoh kechalari qo'rqib uxlayolmay, o'q yegan to'ng'izday har tarafga yugurib, oppoq tong ottirib chiqadigan bo'lib qolibdi. Bir haftadan keyin bir xabarchi kelib, podshohga:

— Jurjon yurtining podshosi ustingga lashkar tortib keldi, tez chiqib, toj-taxtingni bersang berganing, bo'lmasa, o'zing bil! — deb podshohning halqumiga bir musht uribdi. Podshoh o'zini o'nglab olguncha, u odam ketibdi.

Podshoh buni ko'rib:

— Bitta xabarchisi shunday bo'lsa, yaroq taqqan lashkarlari qanday ekan,— deb xayol surib qolibdi va vazirlardan maslahat so'rabdi. Vazirlar:

— Bizdan maslahat chiqmaydi. Yaxshi desak ham o'ldirasan, yomon desak ham o'ldirasan. Zindondagi vazirni olib chiqib in'om dasturxon qilib, dushman oldiga chiqar, ho o'lib ketsin, ho .tirik kelsin,— deb javob beribdilar.

Podshohga bu so'z ma'qul bo'lib, vazirni zindondan chiqaribdi. Unga bir qancha pul, mol berib, bunday debdi:

— Jurjon podshohiga borib, mening salomimni yetkazasan. Mabodo mamlakat kerak bo'lsa, „xo'p" de, negaki kecha yegan mushtimning og'rig'i hali ketgani yo'q; bordi-yu, qon kerak bo'lsa, u vaqtda shahardan chiqib ketaman, chunki ikkinchi mushtga asti tobim yo'q.

Vazir kulib:

— Tushingning ta'birini aytsam, qilgan achchig'ing boshqacha edi, bitta qizingni nima qilding? Axir, boshingga shu kunlarni o'zing orttirding. U podshoh kelib seni zindonga solar, xor-zorlik bilan o'ldirar,— debdi.

Podshoh loyga botgan eshakdek boshini solib turibdi. Vazir tortiqlarni olib, shahardan jo'nab qo'shinga yetibdi, so'ngra o'z nomi-nasabini yozib

xat qilibdi: „Qon kerak bo‘lsa, butun shahar odamlari uchun men jonimni beraman, yo‘q desalar nohaq qon to‘kilmasin, podshohlik taxtini beraman“ deb qo‘l qo‘yib, elchi orqali xatni jo‘natibdi. Xat malikaga borib tegibdi. U xatni o‘qib vazirni o‘z huzuriga chaqirtiribdi:

— Ichkariga kirsin,— deb ijozat beribdi...

Vazir kirsa, taxtda bir podshoh o‘tiribdi, boshida toj, belida kamar, qirqta mahram qo‘l bog‘lab xizmat uchun turibdi. Vazir unga ta’zim qilibdi.

Podshoh yonida betiga niqob tutgan bir odam o‘tiribdi. Bu odam vazirga qarab:

— E vazir, bizning makonimizga qo‘rqmasdan bir o‘zing kelibsan, o‘ldirsam nima deysan? — debdi. Vazir debdi:

— Kishi o‘z farzandidan ham qo‘rqadimi? Farzand har qancha g‘azab qilsa ham, otalik hurmatini saqlaydi. Jigarpora qizimni tushimda ko‘rganimga bugun yetti kun bo‘ldi. Tushimda meni ko‘p hurmat qildi, shoyadki tushim o‘ng kelsa.

Bu so‘zlarni eshitishi bilanoq malikai Husnobod betidan niqobini olib, vazir bilan ko‘rishibdi va bunday debdi:

— E mehribon ota, siz orqali murodimga yetdim. Otamning yurtini sizga bersam, fuqaroga, beva-bechoralarga zulm qilmasdan podshohlik qilsangiz.

Vazir darhol o‘rnidan turib, qulluq qilib:

— Ey bolam, men qarib qoldim, podshohlik hukmini... menga bergan bo‘lsang, ro‘paramda o‘tirgan toj-u taxt egasi podshohga tutdim. Muvofiq ko‘rsang, qolgan umrimni sening qoshingda o‘tkazsam, — debdi.

Malikai Husnobod lashkar bilan shaharga kirib, otasini axtaribdi. Podshoh somonxonada bir oxurning ichida biqinib yotgan ekan. Kuyovi podshohning boshiga qilich ko‘taribdi. Podshoh yig‘lab qiziga yalinibdi. Qizi erining qo‘lidan qilichni olib:

— Har nechuk bo‘lsa ham otam qilgan gunohiga tavba qildi, o‘lmasin,— debdi. Podshohlik muhrini podachi yigit nomiga o‘ydiribdi.

Husnobod eri bilan bu yurtni ham idora qilib, zindonda begunoh yotganlarni ozod qilibdi. Ulardan bir qanchasini shaharlarga hokim qilib tayinlabdi.

Shunday qilib, Husnobod o‘zining qallig‘i — podachi yigit bilan umr kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.



Yamoqchi

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda Ma’ruf yamoqchi degan bir odam bo‘lgan ekan. U faqat yamoqchilik qilib, arang kun kechirar ekan. Ma’ruf domla-imomning maslahati bilan Ruzvon otin degan bir tul (beva) xotinga uylanibdi. Ruzvon otin juda firibgar xotin ekan. Uning kasbi rom ochish, fol boqish kabi xurofiy ishlar ekan.

Ruzvon otin erining yamoqchilik qilib topgan puliga qanoat qilmas ekan.

Bir kun Ma’ruf yamoqchi bozorda kun bo‘yi ishsiz o‘tirib, kechqurun uyiga qup-quruq qaytibdi. Ruzvon otin erini qarg‘ab-qarg‘ab uydan haydabdi.

Ma’ruf yamoqchi ham rosa jonidan to‘ygan ekan. U shahardan chiqib ketibdi. Karvonlarga qo‘shilib, ularning tuya, otlarini boqib, qorovullik qilib, ming azob-uqubatlar bilan Xo‘tan shahriga yetib boribdi.

Xo‘tanda Ma’rufning tanishlaridan Ali degan bir katta savdogar bor ekan. U Ma’rufni ko‘rib qolib, uni tekinga ishlatmoqchi bo‘lib, hiyla-nayrang bilan uyiga olib boribdi.

Uni darhol hammomga tushirib, yangi kiyim-bosh kiydirib, katta ziyofat qilibdi. Ertasiga Ma’rufga alohida do‘kon ochib beribdi.

Ma’rufning qo‘li juda ochiq ekan. U oldiga tilanib kelgan gadoylarga do‘kondagi mollardan, puldan berib jo‘nataveribdi. Xullas, o‘sha kunning

o‘zidayoq do‘konning ming tillalik dastmoyasini shahardagi gadoylarga, yetim-yesirlarga berib, tamom qilibdi.

Ertasiga Ali Ma’rufga yana ming tillalik mol berib, „Endi bunday qilmagin“ deb jo‘natibdi. Ma’ruf xo‘jayinning gapiga kirmay, do‘kondagi mollarni tilanib kelgan gadoylarga yana berib tamomlabdi. Ma’rufning ovozasi Xo‘tan podshosiga yetibdi. Podshoh uni chaqirtiribdi. Ma’rufning kelishiga dasturxonlar yozilib, rang-barang taomlar hozir qilinibdi. Ovqatdan so‘ng podshoh Ma’ruf yamoqchidan qaysi shahardan kelganini, kasbi-kori nima ekanini so‘rabdi.

Ma’ruf katta savdogar ekanini aytibdi. Podshoh uni sinash uchun qo‘lidagi uzugini chiqarib, ko‘zi qanday toshdan ekani va narxi qancha ekanini so‘rabdi.

Ma’ruf uzukni tishi bilan sinab ko‘raman deb, sindirib qo‘yibdi. So‘ngra podshohga:

— Shohim, bu yaramas tosh ekan, ming tillaga arzimaydi. Menda yuz ming tillaga arziydigan asl toshlar bor,— debdi. Podshoh uzukni ming tillaga olgan ekan.

Podshoh vazir bilan maslahatlashib, yamoqchi ta’rif qilgan yuz ming tillali qimmatbaho toshlarni olish uchun qizi Jahonoroni Ma’rufga bermoqchi bo‘libdi.

Vazirlar Ma’rufdan podshohning yagona qizi Jahonoroni xotin qilib olishini iltimos qilibdilar. Ma’ruf „Mening mollarim, tuyalarim yo‘lda, ular kelgandan keyin to‘y qilsak, qanday bo‘lar ekan“ desa ham ko‘nmabdilar. Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, Ma’rufga Jahonoroni olib beribdilar.

Ma’ruf Jahonoro bilan uch oy turmush kechiribdi. So‘ngra „Yo‘lda kelayotgan mollardan xabar olib kelaman“ deb, Xo‘tan shahridan chiqib ketibdi, shu bilan boshini o‘limdan saqlab qolmoqchi bo‘libdi.

Ma’ruf yamoqchi Xo‘tandan chiqib, ancha yo‘l yuribdi. Yo‘lda ketayotganida qarasa, dehqonlar yer haydayotgan ekan.

Ma’ruf yo‘l yuraverib, juda charchabdi, ochlikdan qiynalibdi, bir dehqondan non bilan qatiq so‘rabdi. Dehqon: „O‘g‘lim, mening uyim hov anavi tepalikda, sen ho‘kizlarimga qarab turgin, men borib non bilan qatiq olib kelaman“ deb uyiga jo‘nabdi. Ma’ruf biroz dam olib, „Dehqon kelguncha yerni haydab turay“ deb, yer hayday boshlabdi. Bir vaqt qarasa omoch tishi bir narsaga qadalibdi. Ma’ruf shuncha harakat qilsa ham, ho‘kizlar yurolmasdan to‘xtab qolibdi. Ma’ruf o‘zicha: „Endi meni xudo urdi, peshonam sho‘r ekan. Dehqon kelsa nima deb javob beraman“ deb qayg‘urib, omoch tishini chiqazib olishga unnabdi. Lekin omoch tishi bir marmar toshga taqalib qolganidan sira siljimabdi.

Ma'ruf tuproqni kavlab, toshni olib tashlamoqchi bo'libdi. Axiri toshni bazo'r ko'tarib, bir chetga irg'itibdi. Qarasa, toshning tagida bir zinapoya bor ekan.

Ma'ruf o'z baxtini sinab ko'rmoqchi bo'lib, ko'zini chirt yumib, zinapoya bilan chuqurga tushaveribdi. Qadami yerga tekkanda ko'zini ochibdi. Qarasa, hamma yoq kunduzdek yop-yorug' emish. Lekin u yerda na chiroq bor emish, na sham. Ma'ruf hayron bo'lib, buning sirini bilolmabdi, ammo eshik qubbalariga o'rnatilgan gavharlarni ko'rib, yorug'lik shulardan ekanini bilibdi.

Ma'ruf bu joyda qirq uy ko'ribdi. Ularning eshiklari qimmatbaho yog'ochlardan yasalgan bo'lib, eshiklariga oppoq pardalar tortilgan emish. Shu uylarning biriga kirsa, qator-qator sandiqlar turgan emish. Har qaysi sandiqning kaliti burnida emish.

Ma'ruf darhol bir sandiqni ochib qarasa, ichi oltin-lal kabi qimmatbaho narsalar bilan liq to'la emish. Oxirgi uyga kiribdi. Bu uy hammasidan katta bo'lib, judayam yaxshi bezatilgan emish. Ammo bu uyda sandiq, oltin yo'q emish. Uyning to'rida taxt bo'lib, u eng qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan emish. Taxt ustidagi bir oltin sandiqcha ichida zumrad ko'zli kumush uzuk porlab turgan emish.

Ma'ruf uzukni olib, barmog'iga taqibdi. Uning ko'zini sinchiklab ko'rmoqchi bo'lib, qo'li bilan silagan ekan, birdaniga qattiq gulduragan tovush eshitilibdi. Ma'ruf qo'rqib, hushidan ketayozibdi.

Qaysi ko'zi bilan ko'rsin, ikkita billur shoxli katta bir dev uning oldida ta'zim qilib turgan emish. Dev Ma'rufga qarab:

— Ey Said, nima xizmat buyurasiz, tog'larni daryoga uraymi yo shaharlarni suvga g'arq qilaymi? — deb ikki bukilibdi.

Ma'ruf qo'rqa-pisa undan:

— Sen o'zing kimsan? — deb so'rabdi. Dev:

— Ey Said,— debdi, — meni Ra'diqosif deydilar. Ko'hiqofdagi devlarning podshosi bo'laman. Yetti yuz ming lashkarim bor. Kimki shu uzukni qo'liga olsa, men uning xizmatkori bo'laman. Xohlasa bir shaharni ko'chirib, daryoga tashlayman, xohlasa bir lahzada cho'llarda shaharlar barpo qilaman, — deb yana ikki bukilib ta'zim qilibdi.

Ma'ruf es-hushini yig'ib turib, devga bunday debdi:

— Darhol to'qqiz yuz eng yaxshi ot, to'qqiz yuz eng yaxshi nor tuya hozirlab, shu yerdagi oltin va qimmatbaho toshlarni ortib, tashqariga shohona chodir tikasan. O'n mingta jangchi polvonlarni hozir qilasan, dunyoda hech kim kiymagan shohona kiyim-boshlar, qimmatbaho toshlardan qilingan yaroqlar tayyor qilib qo'yasan!

Ra'diqosif ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qilibdi va „Buyrug'ingizni darrov bajo keltiraman" deb ko'zdan g'oyib bo'libdi. Ma'ruf tashqariga chiqsa, Ra'diqosif hamma narsani hozirlab, Ma'rufni kutib turgan emish. Ma'ruf darhol qimmatbaho ust-boshlarni kiyib, Ra'diqosif tayyorlagan taxt ustiga chiqib o'tiribdi. Uning atrofida odam suratiga kirgan devlar, Ra'diqosif olib kelgan kishilar, chiroyli qizlar qo'l qovushtirib, farmonga hozir bo'lib turgan emishlar.

Endi so'zni dehqondan eshiting.

Dehqon bir kuvacha qatiq bilan to'rtta qotgan non olib kelar ekan, uzoqdan o'z yeriga qurilgan chodirlar va ajoyib otlarni ko'rib, esini yo'qotayozibdi. Ma'rufning amri bilan dehqonni ichkariga olib kiribdilar. Dehqon Ma'rufni podshoh deb o'ylab, unga ta'zim qilibdi, quruq kelgani uchun kechirim so'rabdi.

Ma'ruf o'rnidan turib, dehqonni quchog'iga olibdi.

— Otajon, sizning bu olib kelgan non bilan qatig'ingiz menga yetti iqlim podshohligidan ham ortiq. Tilang tilagingizni! — debdi.

Dehqon Ma'rufga ta'zim qilib, debdi:

— Podshohim, men bu yerni ekish uchun bir boydan ijaraga olganman. Boy meni ko'p xo'rlaydi. Menga turli-tuman jabr-zulmlar qiladi. Olgan hosilimdan to'qqiz hissasini boy tortib oladi, o'zimga atigi bir hissa qoladi. Yil bo'yi bola-chaqam bilan ishlayman, oxiri och-yalang'och qolamiz. Tilagim shuki, siz o'sha zolim boyning jazosini bersangiz, toki men ham ro'yobga chiqsam.

Ma'ruf darhol uzuk ko'ziga qo'l tegizibdi. Shu onda hozir bo'lgan Ra'diqosif ta'zimni bajo keltirib, yer o'pib xizmatga tayyor turibdi.

Ma'ruf devga shu yer egasini olib kelishni buyuribdi.

Boy Ma'rufni podshoh deb o'ylabdi. Ma'ruf sudxo'r boyga qarab:

— La'nati, sen nega dehqonlarni ezasan?— deb xitob qilibdi.

Boy esankirab, Ma'rufning so'rog'iga javob berolmabdi. Ma'ruf devlarga buyurib, boyning boshini tanasidan judo qildiribdi. Yerni dehqonga umrbod vasiqa qilib beribdi.

So'ngra dehqonga qarab bunday debdi:

— Otajon, endi yer o'zingizniki bo'ldi. Sizga hech kim zug'um qilolmaydi. Men sizga o'n sandiq tilla ham beraman. Siz shu sudxo'r boyga o'xshab, boshqa kambag'al dehqonlarni ezmasdan, tillalarni boshqa kambag'al dehqonlarga ham bo'lib bering, o'zingiz ham bahuzur xarjlab yuravering.

Shu bilan Ma'ruf dehqonga o'n sandiq tilla beribdi.

Endi so'zni Xo'tan podshosidan eshiting.

Ma'rufning qochib ketganini Xo'tan podshosi bilib qolibdi.



«Aqlli qiz» ertagiga ishlangan rasm

Podshoh darhol Ma'ruf orqasidan choparlar yuborib, uni qayerda topsalar ham bog'lab, kishanlab olib kelishga buyuribdi.

Podshoh qasamyod qilib: „U nobakorni shunday azob berib o'ldirayki, bu voqea boshqalarga katta ibrat bo'lsin, bundan keyin hech kim meni aldayolmasin!" debdi.

Xo'tan podshosining choparlari ot qo'yib, Ma'rufni izlab ketibdilar. Ular bu yerdagi shohona chodirlarni ko'rib, hayron qolibdilar, chunki umrlarida bunday qimmatbaho chodirlarni aslo ko'rmagan ekanlar. Choparlar otdan tushib, ruxsat so'rab, chodir ichiga kiribdilar, Ma'rufga ta'zim qilibdilar. Ma'ruf ularga qarab:

— Xush kelibsiz, Xo'tan shohining choparlari! Xo'sh, nima xizmat bilan keldingiz? — debdi. Choparlar yer o'pib:

— E shahanshoh, janobingizning qaynotalari yo'lga chiqib sizni kutib olish uchun yubordilar,— deb ikki bukilib ta'zim qilishibdi.

Ma'ruf o'sha onda xazinachini chaqirib: „Har bir choparga ming tilladan pul berilsin" deb buyuribdi. Choparlar oltinni olib, Ma'rufga qulluq qilibdilar, so'ngra podshohga xabar berish uchun jo'nab ketibdilar.

Choparlar orqasidan Ma'ruf ham o'ziga qarashli odamlarni yasantirib, chiroyli otlarga mindirib, dunyo-dunyo oltinlar, qimmatbaho toshlar, la'l-gavharlarni nor tuyalarga yuklab, Xo'tan shahriga ravona bo'libdi.

Choparlar tezlik bilan podshoh huzuriga borib, Ma'rufning davlatini, shon-shavkatini podshohga shunday ta'rif-tavsif qilibdilarki, Xo'tan podshosining og'zi ochilib qolibdi. Choparlar ertasi erta bilan Ma'rufning shaharga kelishini podshohga ma'lum qilibdilar.

Ertasiga choshgoh paytida shaharning kunchiqar tomonida chang paydo bo'libdi. Oradan sal fursat o'tmay, yaxshi otlarga mingan chiroyli yigit-qizlar, Rustamdek polvonlar, yuk ortilgan nor tuyalar yaqinlashib kelaveribdilar. Bularning oldida qanchadan-qancha soqchi askarlar bilan birga shohona kiyingan Ma'ruf as'asai-dabdaba bilan kelmoqda ekan.

Ma'ruf shaharga jar soldirib, g'arib-faqirlarni o'z yoniga chaqiribdi, ularga qanchadan-qancha mol-dunyo berib, xursand qilibdi.



Aqlli qiz

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda bir kishining uch o‘g‘li bilan bir qizi bor ekan. O‘zi boy ham, kambag‘al ham emas ekan. Lekin ikki ko‘zi ko‘r bo‘lib qolgan ekan. Kunlardan bir kuni boshqa bir yurtdan o‘rtoqlari mehmonga kelishibdi.

Ular uy egasining ko‘zi ojiz bo‘lib qolganini ko‘rib: „Ey o‘rtoq, sizning uch o‘g‘il-u bir qizingiz bor ekan. Ularga buyuring: Rum viloyati podshosining xazinasida ko‘z og‘rig‘i dorisi bor, o‘sha doridan olib kelib ko‘zingizga qo‘ysalar, ochiladi“ deyishibdi. Shu so‘zdan keyin uy egasi o‘g‘illarini chaqirib:

— Bolalarim, mening ko‘zim ko‘r bo‘lib qoldi. Endi mendan sizlar mol-mulk so‘raysizlarmi yoki duo so‘raysizlarmi?— debdi. O‘g‘illari esa bir og‘izdan:

— Ey ota, pul bo‘lsa, har ishni qilamiz,— deb mol, pul talab qilibdilar. Chol o‘g‘illariga mol-dunyoni bo‘lib beribdi. Lekin otaning ko‘zi bilan ularning ishi bo‘lmabdi. Piravordida chol qizini chaqirib, bunday debdi:

— Qizim, akalaring mol-dunyoni bo‘lishib olishdi, sen nima so‘raysan?

Qizi oqko‘ngil va odobli ekan. U:

— Men xizmatingizga tayyorman. Sizdan duo so‘rayman, — debdi.

Otasi:

— Bolam, unday bo‘lsa, Rum viloyati podshosining xazinasida ko‘r ko‘zni ochadigan dori bor emish, shu doridan olib kelib bersang, duo qilar edim,— debdi.

Qiz „Xo‘p bo‘ladi“ debdi. Otasi darhol yo‘lga kerakli oziq-ovqatlarni tayyorlab beribdi. Qizni bir yaxshi otga mindirib, Rum viloyatiga jo‘natibdi. Qiz bir necha kun yurganidan keyin uning yo‘lini bir ajdar to‘sibdi. Ajdar qizning otini, oziq-ovqatini yutib yuboribdi. Qiz hech narsa demay, orqasiga qayrilib qaramay, yig‘lab ketaveribdi.

Shunda ajdar:

„Qizning otini, shuncha oziq-ovqatini yesam ham indamadi. Men endi uning ishiga yordam beray“ deb o‘ylab, qizning ketidan yetib borib:

— Ey odamzod, shuncha narsangni yedim, bir qayrilib boqmaysan, hojating nima? — deb so‘ragan ekan, qiz:

— Ey ajdar, otamning ikkala ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan, Rum viloyati podshosining xazinasida dori bor emish, shu dorini qo‘ysa, ko‘zi ochilarmish. Otamning ko‘zini ochish uchun o‘sha yoqqa ketayotgan edim. Molim ketsa ketsin, o‘zim omon bo‘lay,— debdi. Ajdar unga qarab:

— Bo‘lmasa, yelkamga min, o‘sha Rum viloyatiga seni o‘zim eltib qo‘yay,— debdi.

Qiz ajdarning yelkasiga minib olibdi va bir nafasda Rumga yetibdi. Ajdar tog‘ bag‘rini yalab, piyozning po‘stidek qilibdi. So‘ngra qizga debdi:

— Mana shu tog‘ni itarib yuborsang, podshohning dorixonasiga kirasan, shu topda hamma soqchilar uxlagan. Dorixonaga kirganingda qog‘ozdagi dorini olsang, shishadagiga tegma, shishadagini olsang, qog‘ozdagiga tegma.

Qiz dorixonaga kiribdi. Shishadagi doriga qarasa, qog‘ozdagisi xushbo‘y tuyulibdi. Qog‘ozdagi doriga qarasa, shishadagisi xushbo‘y tuyulibdi. So‘ng qiz birdan ikkala dorini ko‘targan ekan, tutilib qolibdi: u joy tilsim ekan. Tong otgandan keyin dorixona xizmatkori ichkariga kirsa, bir qiz turgan emish. U darhol qizning qo‘l va oyog‘ini bog‘lab, to‘ppa-to‘g‘ri podshoh oldiga olib boribdi va podshohga ta’zim qilib:

— Ey shohim, mana bu odam xazinangizga o‘g‘irlikka tushgan ekan, tutib keldim, — debdi.

Podshoh qizni so‘roq qilib „Nima uchun o‘g‘rilikka tushding?“ debdi. Qiz otasining ko‘zi ko‘r bo‘lib qolganini va shuning uchun doriga kelganini va bilmasdan shu joyga kirib qolganini aytibdi.

— Bilmasdan kirgan bo‘lsang sen o‘g‘rilikka usta ekansan-da, — deb, qizga bir shart qo‘yib:

— Agar qutulishni istasang, Anadir shahri podshosining qizini o‘g‘irlab kelib berasan, shundagina seni ozod qilib, dorini beraman, bo‘lmasa, ajaling mening qo‘limda,— debdi.

Qiz javob uchun muhlat so‘rab, ajdar oldiga kelibdi, bo‘lgan voqealarni unga bayon qilibdi. Ajdar qizning gapini tinglab turib keyin:

— Unday bo‘lsa, yigirmata qoramol, yigirma mesh sharbat, yigirma kun muhlat so‘ragin,— debdi.

Ajdarning maslahati bilan qiz podshoh qoshiga borib, undan safarga kerakli narsalar berishni so‘rabdi. Podshoh qizning aytgan hamma narsasini beribdi. Qiz oziq-ovqatini g‘amlab bo‘lgandan keyin ajdarning yelkasiga minib, Anadir shahriga uchib boribdi.

Ajdar qizga yaxshilab tushuntiribdi: „Malikaning uxlaganiga bir kam qirq kun bo‘lgan. U bir varakayiga qirq kecha-qirq kunduz uxlaydi. Ertaga erta bilan uyg‘onishi kerak. Hozir sen uning oldiga borib, o‘ziga tegsang, ro‘moliga tegma, ro‘moliga tegsang, o‘ziga tegma. Qizning arkiga chiqaverishda ikkita hujrada paxta bor, qo‘yni-qo‘njingni paxtaga to‘ldirib ol. So‘ngra ark zinasining ikki yog‘ida qo‘ng‘iroqlar bor, ular ichiga o‘sha paxtadan tiqib, keyin yuqoriga chiqaver. Oxiri arkka yetasan,— debdi.

Qiz hamma gapni uqib olib, ajdarning aytganlarini bajo keltiribdi. Bir vaqt ark tepasiga chiqib qarasa, ajdar aytganday qiz uyquda emish. Uning qirqta kokilini qirqta kanizak bosib poylab yotgan emish. Qizning ro‘moli boshidan tushib qolgan ekan. Qarasa, qizdan ro‘mol chiroyli, ro‘moldan qiz chiroyli emish. Ikkovini baravar ko‘taribdi. U tilsim ekan. Shu zahoti bandga tushibdi. Erta bilan enaga xotinlar kelib qarasalar, qizga o‘g‘ri kelgan ekan. Darrov podshohga xabar berishibdi. Shoh: „O‘g‘rini keltiring!“ deb buyuribdi. Qizning qo‘llarini orqasiga bog‘lab, podshohga olib boribdilar. Podshoh qizga do‘q qilib:

— Nega mening qizimni o‘g‘irlamoqchi bo‘lding? — deb so‘rabdi. Qiz hamma voqeani podshohga birma-bir aytib beribdi va so‘z oxirida:

— Bu yer ham tilsim ekan, qo‘lga tushib qoldim,— debdi. Podshoh qizga g‘azab bilan so‘z qilibdi:

— Agar bu yerdan qutulishni istasang, bir shartim bor, shuni bajarasan. Kunchiqar tomonda Ko‘hiqof degan tog‘ bor, u yerda bir dev yashaydi. Uning bir qora oti bor, shu otni keltirsang qizimni beraman. Bo‘lmasa, boshingni olaman! — debdi.

Qiz: „Javobini ertaga beraman“ degan va’da bilan podshoh oldidan chiqib, ajdar yoniga kelibdi va podshohning qo‘ygan shartini ajdarga so‘zlab beribdi.

Ajdar to‘rt kun muhlat so‘rashni aytibdi.

Qiz borib uni podshohga aytgan ekan, u rozi bo‘libdi. Qiz ajdarning yelkasiga minib olibdi. Ajdar anchagacha uchib, qizni Ko‘hiqofga yetkazibdi va qizga yaxshilab tushuntiribdi: „Dev shu vaqtda uxlay deyapdi. Sen oxurning teshigidan boshingni chiqar. Ot seni ko‘rib kishnaydi. Dev „Odam hidi kelyapti“ deb to‘rt tomonga yuguradi, seni topolmagandan keyin yotib uxlaydi. Oxur tagidan boshingni ikkinchi qayta chiqar. Ot yana kishnaydi. Dev yana hamma yoqni qidirib chiqadi, topolmasdan, otxonaga kiradi va otga qarab:

— Ey ot, meni ikki marta ovora qilding, uchinchi marta kishnasang, o‘zingni yeyman! — deb, yotgani ketadi. Shunda oxurdan boshingi chiqarib, otga:

— „Ey jonivor! Seni suv o‘rniga sut, yem o‘rniga kishmish berib boqaman. Nima qilasan zolimning qo‘lida?“, desang ot bo‘ynini solib turadi. Yonida egar-jabdug‘i bor, ustiga tashlab, yetaklab chiqasan. So‘ngra u yog‘ini o‘zim to‘g‘rilayman,— debdi.

Qiz ajdarning aytganlarini bekami ko‘st bajaribdi. Otni yetaklab, ajdar oldiga yetkazib kelibdi. Ajdar qiz bilan ot ikkisini yelkasiga ortib, Anadir shahriga qarab uchibdi, sal fursatda manzilga yetibdi.

So‘ngra ajdar qizga:

— Ey qiz, bu otni o‘zing ol, men bir yumalab xuddi shu otga o‘xshab qolaman, meni podshohga eltib berasan. Uning qizini olib, yo‘lga tushaverasan, men orqangdan yetib olaman,— debdi-da, bir yumalab ot bo‘lib qolibdi. Qiz uni podshoh oldiga yetaklab kelibdi. Podsho otni ko‘rib, sevinganidan darhol qizni topshiribdi. Qizlar otni minib, qo‘llarida qush o‘ynatib, yo‘lga ravona bo‘lishibdi.

Endi gapni Anadir podshosidan eshiting:

Podshoh otni egarlashga buyuribdi. Uni egarlab, yasatib podshohga keltiribdilar. Podshoh uzangiga chap oyog‘ini qo‘yib, o‘ng oyog‘ini yerdan ko‘tarib, endi minay deb turganda, ot bir chivin bo‘lib uchib ketibdi. Podshoh yiqilib tushibdi. Podshoh hayron bo‘lib: bu qanday sehrgarlik: ham otdan ajraldim, ham qizimdan, — debdi. So‘ngra: „Darhol ularni topinglar!“ deb lashkarlariga farmon beribdi. Lekin lashkarlari hech qayerdan otni ham, qizni ham topisha olmabdi.

Ko‘z yumib ochguncha ajdar qizlarga yetib, ikkovini ot bilan yelkasiga olib, Rum viloyatiga jo‘nabdi. Rumga kelgach, ajdar bir yumalab, u qizdan ham chiroyliroq bir qiz bo‘libdi. Buni ko‘rib Rum podshosi shodlanibdi va ikkala dorini ham berib yuboribdi. Qizlar dorini olib, yo‘l-yo‘lakay qush o‘ynatib ketaverishibdi.

Endi gapni Rum podshosidan eshiting:

Podshoh xursand bo'lganidan xalqqa katta to'y qilib beribdi. To'y o'tgandan keyin qiz bir yumalab chivin bo'lib, ko'zdan yo'qolibdi. Ko'z ochib yumguncha ikki qizga yetib olibdi. Ularni qator qo'yib, ikkalasini oti bilan yelkasiga mindirib, qizni o'z yurtiga yetkazibdi. Qiz bozorlarni tomosha qilib yurib, kallapaznikiga kelibdi. Kallapazga shogird bo'lib ishlayotgan uch akasini tanib qolibdi. Ularning ust-boshlari yirtiq ekan. Qiz kallapazga pul bera turib:

— Uchala yigitdan kalla berib yuboring,— debdi. Kallapaz:

— Ey, bularning qo'li ham qursin, o'zi ham. Hamma yog'i kir-chir, kallani o'zim olib boraman, — degan ekan. Qiz:

— Yo'q, shu uchovidan berib yuboravering,— debdi.

Kallapaz kallani uch bo'lak qilib, uchala yigitdan berib yuboribdi. Ular kallani olib kelishibdi. Qiz kallani uchala akasining oldiga qo'yib:

— Buni yenglar, — desa, akalari:

— Xo'jayin urishadi, — deyishibdi. Shunda qiz:

— Pul meniki, sizlarni men mehmon qilayapman. Qo'rqmasdan yeyaveringlar,— deb ovqatni ularga yediribdi. So'ngra „Idishini berib, qaytib kelinglar" debdi. Uchovi yana qaytib kelibdi. Qiz ularni bozorga boshlab borib, ust-bosh olib beribdi. Hammomga tushirib, yangi kiyimlarni kiydiribdi. Shundan keyin qiz akalaridan:

— Meni taniyapsizlarmi?— deb so'rasa, akalari:

— Yo'q, tanimaymiz, — deyishibdi.

Qiz:

— Sizlar tuppa-tuzuk odamlar edingiz-ku, nima bo'ldi?— deb, so'ragan ekan, ular:

— Qimor o'ynab shu ahvolga tushib qoldik, — deyishibdi. Shunda qiz:

— Men singlingiz bo'laman. Mana bu ot — Ko'hiqofdagi devning oti, bu — o'rtog'im. Anadir podshosining qizi bo'ladi. Mana Rum podshosidan dorini ham oldik,— debdi.

Uchala aka uyalganidan nima qilarini bilmay, singildan yashirincha maslahat qilishibdi. „Singlimiz bu dorini olib borib otamizning ko'ziga surtadi. Bizning o'g'illigimiz bekor bo'lib qoladi. Undan ko'ra, buni quduqqa tashlash kerak", deb bechora qizning qo'l-oyog'ini bog'lab, quduqqa tashlashibdi, qizni va ot bilan dorini olib, otalari oldiga kelishibdi. Ichkariga kirib, otalari bilan ko'rishib-so'rashib bo'lib:

— Ey ota, qizingiz yomon bo'lib ketgan, sizga dori olib kelarmidi, dorini mana biz olib keldik, — deb dorini unga berishibdi.

Chol dorini surtishi bilan ko‘zlari ochilib juda xursand bo‘libdi. Lekin oti sira ovqat yemabdi. Anadir podshosining qizi necha kungacha gapirmabdi, sayrab turgan qush hech sayramay qo‘yibdi. Qo‘yingchi, uchalasi ham xafachilikdan bosh ko‘tarmabdi.

Endi gapni Rum podshosidan eshiting:

To‘y-tomoshadan keyin podshoh qizini qidirtirmoqda ekan. Kunlarning birida safardan qaytgan savdogarlar to‘ppa-to‘g‘ri podshoh huzuriga kelib:

— Ey podshohi olam, sizga arzimiz bor. Bir qoshiq qonimizdan kechsangiz, aytamiz,— debdilar. Podshoh:

— Kechdim, aytinglar! — debdi. Savdogarlar:

— Doriga ketgan qiz yo‘lda bir dugonasi bilan qush o‘ynatib kelayotir, — debdilar.

Podshoh darrov qizlar ketidan cholning uyiga borib, choldan uning doriga yuborgan bolasini so‘rabdi. Chol uchta o‘g‘lini ko‘rsatgan ekan, podshoh:

— Bular emas, men uni taniyman, — debdi. Shunda podshohning qizi:

— Ey podshoh, bular bizni olib kelgan o‘rtog‘imizning qo‘l-oyoqlarini bog‘lab, eski quduqqa tashladilar,— debdi.

Podshoh o‘sha zahoti qizni topib kelishga buyuribdi. Qizni quduqdan chiqarib olibdilar. Qarasalar, qiz chalajon bo‘lib yotgan emish. Uni shu ahvolda podshoh oldiga olib kelibdilar. So‘ngra tabiblar uni davolab tuzatibdilar. Otasi o‘z qizini ko‘rib juda sevinibdi va duo qilibdi.

Qiz umrining oxirigacha tinch, baxtli yashabdi.



Qorasoch pari

Qadim zamonda, Shom mamlakatida bir podshoh bor ekan. Xazinasi haddan tashqari ko‘p bo‘lsa ham farzandi yo‘qligidan davlati tatimay, doim g‘amgin bo‘lib yurar ekan. Saroy odamlari podshohning ko‘nglini yupatish uchun tez-tez sayohatga olib chiqib, g‘am-anduhlarini tarqatishga harakat qilar ekanlar. Kunlardan bir kun shoh lashkarlari bilan tog‘da kiyik ovlab yurgan ekan, birdan havo bulut bo‘lib, chaqmoqlar chaqib, sel quyib yuboribdi. Podshoh o‘z lashkarlari bilan seldan qochib baland tog‘ ostidagi g‘orning ichiga kiribdi.

G‘or ichida goh emaklab, goh tikka yurgan ikki yashar qizchaga podshohning ko‘zi tushib, hayron bo‘lib, bu qanday voqea, — deb lashkarlariga ko‘rsatibdi. Hammasi hayratda qolibdi. Podshoh voqeani bilish uchun bir askariga:

— Xabar ol,— debdi. U askar bolaning orqasidan ichkari kirib, birozdan so‘ng yuzlari qonga bo‘yalgan, qo‘llari sindirilgan, yarim yalang‘och, behush bo‘lib yotgan yigirma ikki yoshlardagi bir ayolni ko‘tarib chiqib, podshohning oldiga qo‘yibdi. Hamma hayajon bilan ayolga tikilibdi.

Behush bo‘lib yotgan ayol, birozdan keyin hushiga kelib, asta ko‘zini ochib, atrofidagi odamlarni ko‘ribdi. Podshoh bu voqeaning sababini

ayoldan so‘ray boshlabdi. Ayol badanining og‘rig‘iga chidolmasdan ingrab, o‘zi bir cho‘ponning xotini ekani, cho‘pon qaroqchilar tomonidan o‘ldirilgani, qaroqchilarga qarshilik ko‘rsatganligi uchun shu ahvolga tushirilganligini zo‘rg‘a gapiribdi-da, oxirgi nafasida:

— Qani mening Qorasochim? — debdi. Hech nimani anglay olmay, qora ko‘zlarini jovdiratib o‘tirgan qizni qon bilan bo‘yalgan bag‘riga bosib, jon beribdi.

Podshoh qizga rahmi kelib, uni ayolning qonli ko‘kragidan ajratib olibdi, qo‘liga ko‘tarib, shaharga qaytibdi.

Kunlar, oylar, yillar o‘tib, Qorasoch o‘n uch yoshga kirganda, o‘qib turgan maktabini tamomlagach, mashhur olimlardan dars ola boshlabdi. Qorasoch o‘n besh yoshga kiribdi, husnda barkamol, aqlda tengsiz bo‘libdi. Bu mamlakatda unga dars berishga qodir olim qolmabdi. Qorasochning dong‘i, ovozasi boshqa mamlakatlarga ham yoyilib ketibdi.

Qorasoch turli ilm, hunar egasi, husnda, aqlda yagona bo‘lib, uning dong‘ini eshitganlar pari deb nom qo‘yibdilar.

Endi biz ham ertagimizda uni Qorasoch pari deb ataymiz.

Podshoh mamlakat ishlarini vazir-vuzarolar bilan maslahatlashmasdan oldin Qorasoch pari bilan maslahatlashib, undan olgan fikrini vazir-vuzarolariga aytar ekan. Ular ham Qorasoch parining fikriga qo‘shilar ekanlar.

Kunlardan bir kun Kashmir shahridan bir odam kelibdi, u o‘z sehrgarligi bilan mashhur ekan. Qorasoch pari sehrgarni saroyga chaqirtiribdi: „Sehrning qanday foydasi bor?“ — deb undan so‘rabdi.

Sehrgar mag‘rurlanib:

— Men o‘z sehrim bilan bir necha odamlarni umrbod it, mushukka aylantirdim, bir necha qishloqlarning alangasini chiqarib, kulini ko‘kka sovurdim. Bir necha ajralmas do‘stlarning orasini buzib, bir-biriga dushman qilib qo‘ydim,— deb o‘z qilmishlaridan gapirib ketibdi. Qorasoch pari sehrgarga nafrat ko‘zi bilan qarab:

— Hayotingizda bir marta bo‘lsa ham odamzodga munosib va foydali biror ish qildingizmi? — deb, yana savol beribdi.

Sehrgar Qorasoch parining bergan savoliga mot bo‘lib o‘rnidan turib, ta’zim qilib:

— Hayotimda minglab podshoh, beklar bilan suhbatlashgan bo‘lsam ham bunday savolni birinchi marta sizdan eshitdim,— deb uzr so‘rabdi.

Qorasoch pari sehrgarlikning sirlarini undan o‘rgana boshlabdi. Oradan uch yil o‘tibdi.

Kunlardan bir kun sehrgar Qorasochga:

— Malikam, men bor ilmimni sizga o'rgatdim, bundan keyin sizga dars berishga qodir emasman,— deb o'rta barmog'idagi uzugini chiqarib, Qorasoch pariga uzatibdi:

— Sizga o'rgatgan sehr-jodu, tilsimotlarimning hammasi mana shu uzukka bog'liq. Mana shu uzukni o'ng tomonga burasangiz ovoz keladi va hamma amr-u farmoningizni bajaradi. Agarda chap tomonga burasangiz avvalgi asliga qaytadi. Agar bu uzuk shu vaqtda buralmay yo'qolsa, bajarilgan ishlar umrbod o'z holicha qoladi, bordi-yu uzuk shundayligicha yo'qolsa, sizda butun sehr-jodu, tilsimotlardan asar qolmay, mendan olgan ta'limotlar bekorga ketadi,— deb Qorasoch parining barmog'iga uzukni taqib, saroydan chiqib ketibdi.

Qorasoch pari o'n sakkiz yoshga kiribdi, husniga husn, aqliga aql qo'shilibdi. Qorasoch parining ovozasi turli mamlakatlarga yoyilib, ko'p xonlar, beklar g'oyibona oshiq bo'lib, birin-ketin sovchilar yubora boshlabdilar. Yetti iqlim podshosi zo'rlik bilan bo'lsa ham olaman, deb Qorasoch parining mamlakati ustiga yurish qilibdi.

Bu voqealardan xabardor bo'lgan shahar xalqi vahimaga tushibdi. Chunki Qorasoch pari qaysi birini qabul qilsa ham, qolgan olti podshoh lashkarlari orasida jang bo'lishi, shaharning vayron qilinishi, xalqning qirilishi aniq ekan.

Yetti iqlim podshosi yetti noma yozib, o'z elchisi orqali Qorasoch parining otasiga yuboribdi. Yetti nomada ham „Qorasoch pari meni qabul qilsin, bo'lmasa shaharning kulini ko'kka sovuraman", deb yozilgan ekan.

Podshoh ketma-ket kelgan nomalarni o'qib, miyasi qotib, vazir-vuzarolariga bir-bir qarab chiqibdi, ulardan bir og'iz so'z eshitolmaganidan keyin, hamma nomani olib, ichkariga kirib ketibdi. Xatlarni Qorasoch pariga beribdi. Qiz nomalarni birma-bir o'qib chiqib, birdan xaxolab kulib yuboribdi:

— Ular sizni ziyorat qilgani kelgan mehmonlar bo'lsa-yu, siz ularni kutib olmay, shahar atrofida qoldirib, uyat ish qilibsiz, hali ham bo'lsa ularning hammasini kechqurun saroyga mehmondorchilikka chaqiring, — deb har bir nomaning mazmuniga muvofiq javob yozib, podshohning qo'liga beribdi:

— Mendan elchilarga salom ayting, bu nomalarning javobini olib borib, podshohlarga topshirsinlar! — debdi. Podshoh nomalarni olib chiqib elchilarga beribdi.

Kechki payt, saroy bezatilgan, hamma yoq shamlar bilan yoritilgan, mehmonxonaga ipak gilamlar yozilgan, duxoba ko'rpachalar solingan, momiq yostiqlar qo'yilgan. Yetti iqlimdan kelgan podshohlar mehmonxonada o'tirib Qorasoch parining chiqishini kutibdilar.

Qorasoch pari kanizaklari bilan mehmonxonaga kirib, ta'zim bilan:

— Xush kelibsiz, aziz mehmonlar,— deb yuzidan pardasini ko'taribdi. Uning husni jamoliga ko'zlari tushgan mehmonlarning hushlari boshlaridan uchib, baqa bo'lib qotib qolibdilar.

Orada jimjitlik hukm suribdi. Qorasoch pari mehmonlarga:

— Sizlarning muborak nomalaringizni o'qib xursand bo'ldim. Sizlar har qaysingiz noma yozib, meni o'zingizga so'ratibsiz. Lekin sizlar ko'pchilik, men yolg'izman. Bu yerdan chiqqach, hammangiz yig'ilib ahillik bilan maslahat qilib meni bittangizga loyiq topib, noma yuboring, bordi-yu o'zaro kelisha olmasangiz mening bir shartim bor; shu shartimni kim bajarsa, o'shani qabul qilaman. Men shartimni maslahatingizdan keyin xabar qilurman,— deb chiqib ketibdi. Mehmonlar ham ketish harakatini ko'ribdilar. Qorasoch pari uzuk ko'zini buragan ekan, farmoningizga muntazirmiz, degan ovoz kelibdi.

Qorasoch pari mehmonlarni kuzatish uchun ikki tomonda yuztadan ikki yuzta sher, har bir sher ustida yarog'-aslaha taqqan pahlavon hozir bo'lsin, debdi.

— Farmon bajarildi, — degan ovoz kelibdi.

Shahanshohlarning tarvuzlari qo'ltiqlaridan tushib, suvga tushgan nonday bo'kib, oldinma-ketin saroy eshigidan ko'chaga chiqib qarasalar, na'ra tortgan haybatli sherlar ustidagi shijoatli pahlavonlar bir-birlari bilan nayzabozlik mashqini qilayotgan emishlar. Buni ko'rgan podshohlarning kayflari uchib, tumtaraqay bo'lib, saroy ichiga qochib kirib, Qorasoch parining oyog'iga bosh urib, iltimos qilib:

— Ey malika, biz sizning mehmonlaringizmiz, bizning o'z mamlakatimizga sog'-salomat yetib olishimizga yordam qiling! — debdilar.

Qorasoch pari saroy ichidan ko'chaga chiqishi hamon sher mingan pahlavonlar saf tortib turib, ta'zim qilibdilar. Oldinda Qorasoch pari kanizaklari bilan, keyinda shahanshohlar qo'rqa-pisa boribdilar. Qorasoch pari ularni kuzatuvchilar orasidan o'tkazib, xayrlashib saroyga qaytibdi. Shahanshohlar o'z lashkarlari tomon yo'l olibdilar.

Tong otgach, podshoh: „Shahanshohlardan xabar olinglar" — deb odam yuboribdi. Borgan kishi shahar atrofida hech kimni ko'rmabdi. Kechagi vahimalarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan shahanshohlar bir-birlariga sezdirmay, kechasining o'zidayoq quyon bo'lib qochib qolgan ekanlar.

Kundan-kunga Qorasoch pariga beklardan, shahzodalardan to'xtovsiz sovchilar kelar ekan. Qorasoch pari hech qaysisini qabul qilmay qaytarib yuborar ekan.

Kunlardan bir kun podshoh Qorasoch parining oldiga kirib, ko‘z-yoshlarini to‘kib:

— E nuri diydam, jondan aziz farzandim, qarigan chog‘imda menga rahming kelsin, ko‘zim tirikligida sening to‘yingni ko‘ray, orzu-havaslarimga yetay. Hozir shahzodalardan, o‘qimishli kishilardan sovchilar kelyapti, shulardan birini qabul qil, mening so‘zimni yerda qoldirma,— debdi.

Qorasoch pari ko‘p o‘ylab, bir so‘zlar ekan. U aytibdi:

— Ota, menga uch kun muhlat bering. Podshoh qabul qilib, chiqib ketibdi. Podshoh kelgan sovchilarni saroyda qoldirib, Qorasoch parining javobini kutibdi. Kanizak Qorasoch paridan podshohga maktub keltirib beribdi. Maktubda saroydagi hamma odamlarning Qirqqiz tepaligi yonidagi soyga kelishlarini so‘rabdi. Kechki payt, hamma Qirqqiz tepaligi tomon yo‘l olibdi, baland tepalik tagidagi keng soylik shamlar bilan yoritilgan, gullar bilan bezatilgan ekan. Tepa bag‘ridan buloq suvlari shildirab soy tomon oqib turgan, gullar shoxida har xil qumrilar sayrab turgan ekan. Bu yerga kelgan hamma xalq hayratda qolibdi. Kechagina hech narsasi bo‘lmagan soy, bugun bog‘i eramga aylanibdi.

Podshoh vazirlarining hech narsaga aqllari yetmay: „Bu tushimiz bo‘lsa kerak“ deb o‘z-o‘zlariga gapirar emishlar. Shu paytda:

— Ogoh bo‘ling, ogoh bo‘ling, — degan ovozlar atrofdan eshitila boshlabdi. Soydagi shamlar birdaniga o‘chib, soy qorong‘ulikka aylanibdi. Hamma vahimada qolibdi. Shu payt cholg‘u ovozlari yangrab, unga qizlarning sho‘x qo‘shiqlari jo‘r bo‘libdi. Tepaning ustida turgan Qorasoch pari xalqqa ta’zim qilibdi:

— Kimki shu tepa ustiga chiqib, mening qo‘limdan ushlab pastga tushsa, men o‘sha odamning vafodoriman,— debdi.

Cholg‘ular chalinibdi, qizlar o‘yinga tushib, Qorasoch parini taxti bilan ko‘tarib olib ketibdilar. Xalq tepa ustiga chiqish uchun oldinma-ketin yuguribdi. Kim tepaga yaqinlashsa, koptokdek orqasiga yumalab tushar emish. Bir yiqilgan odam ikkinchi borishga yuragi betlamas emish.

Endi Qorasoch parining ertagini shu yerda to‘xtatib, ikki og‘iz so‘zni boshqa tomondan eshiting. Rum podshosi Qorasoch parining ovozasini eshitib, oshiqi beqaror bo‘libdi. Qancha-qancha qo‘shinlar bilan borib jazosini yeb, Qorasoch parini ololmay ikkinchi borishga yuragi betlayolmay, zulmning zo‘ri, pulining kuchi bilan Qorasoch parining rasmini chizdirib, xazinaga qo‘yibdi.

Kunlardan bir kuni podshohning o‘n to‘qqiz yashar o‘g‘li shahzoda Qodir o‘z o‘rtog‘i Nodir bilan sayr-tomosha qilib yurib xazinaga kiribdi.

Shahzoda Qodir Qorasoch parining rasmini ko‘rib, behush bo‘lib yiqilibdi. Uni hushiga keltirgach, podshoh:

— Ey nuri diydam, senga nima bo‘ldi? Menga bayon qil,— debdi.

Shahzoda Qodir asta ko‘zini ochib shohga qarab:

— Ey qiblagohim, — debdi Qorasoch parining rasmini ko‘rsatib. — Bu malika kim? Qaysi mamlakatda turadi, tezda menga anglating.

Podshoh shahzodani yupatish maqsadida:

— Bu bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan rasm. Sen o‘tmishdagi rasmga qarab, o‘zingni dardlarga mubtalo qilma, agar sen uylanish orzusiga tushgan bo‘lsang, bundan ham chiroyli qizni olib beraman, — deb aldab saroyga olib ketibdi.

Shahzoda Qodirning dardi kundan-kunga zo‘raya beribdi. Keyinchalik saroy ichidagi kishilardan: „Xazinadagi Qorasoch parining rasmi emish, u tilsimot qurgan emish, kimki shu tilsimotni ochsa, o‘shanga tegar emish“, degan so‘zlarni eshitib, shahzoda Qodir podshoh oldiga kirib, Qorasoch parining mamlakatiga borishga, tilsimotni ochishga otasidan ijozat so‘rabdi. Podshoh o‘g‘lining qaytib kelmasligiga, nobud bo‘lib ketishiga aqli yetib, ijozat bermabdi. Qodir, shoh ijozat bermasa, o‘z ixtiyori bilan ketishga ont ichibdi. Podshoh noilojlikdan rozi bo‘lib, ikki ming qo‘shin to‘plab Qodirni jo‘natmoqchi bo‘libdi. Qodir:

— Menga qo‘shin, yarog‘larning keragi yo‘q, agar siz, safarga hamrohsiz chiqma desangiz, men bilan birga ketish uchun do‘stim Nodirga ijozat bersangiz, — debdi. Nodir esa shahzoda Qodirni tarbiyalab katta qilgan doya xotinning o‘g‘li ekan. Nodirning otasi o‘qimishli, xalq ichida e’tiborli bo‘lib, Nodir bir yarim yoshlik vaqtida o‘lib ketgan ekan.

Podshoh rozi bo‘libdi, Nodir ziyrak, har kimga maslahat beradigan, boshlagan ishining natijasi qanday bo‘lishiga aqli yetadigan bola ekan. Doya xotin Nodirni bag‘riga bosib:

— Mening uch nasihatimni qulog‘ingdan chiqarma: birinchi — birovga xiyonat qilma, ikkinchi—birovning dilini og‘ritma, uchinchi — qaysi shaharga borsang, eng avval o‘sha shaharning qariyalari bilan suhbatlashib ish qil! — debdi.

Qodir bilan Nodir safarga chiqibdilar. Ular yo‘l yurib, qirlar oshib, soylar kechib, bir necha kundan keyin Qorasoch parining mamlakatiga yetibdilar. Shahar darvozasidan kirib, Nodirning maslahati bilan shahar chetrog‘idagi Qobil kulol degan odamning uyiga tushibdilar. Qobil kulol o‘z hunari bilan shaharga tanilgan, musofirlikda ko‘p yurgan, meh-

mondo'st odam ekan. Kulol yosh yigitlarni ziyofat qilib, ularning kimligini so'rabdi. Nodir:

— Biz Rum shahridanmiz, musofirlik zahmatini chekib, shaharma-shahar kezib yuramiz. Biz o'z shahrimizdan chiqqanimizga ko'p vaqtlar bo'ldi. Ko'p shaharlarda bo'ldik, mana bugun sizning shahringizga kelib, siz bilan suhbatlashish sharafiga noil bo'ldik. Bundan keyin qayerga va qaysi shaharga borishimiz aniq emas.

Qobil kulol miyig'ida kulib:

— Odam sayohatga chiqishdan oldin o'z oldiga bir maqsadni qo'yadi. Savdo yo'li bilan mol to'plash, ilm-hunar orttirish uchun yo bo'lmasa o'z shahridan norozi bo'lib chiqib ketadi, — debdi.

Nodir Qobil kulolning so'zini tinglab bo'lib:

— Bizning musofirchilikka chiqishdan maqsadimiz bitta; u ham bo'lsa, odam bo'lish, odamgarchilikni o'rganishdir,— debdi.

Qobil kulol Nodirdan bu so'zlarni eshitib, boshqa savollar berishni ortiqcha bilibdi:

— Aziz mehmonlar, haqiqatni gapirdingiz, sizlarning Rum mamlakatingizni bu dunyoning zindoni, deb ta'riflaydilar. U yerda xonlar, beklarning zulmi haddan oshgan, zolimlar aqlli kishilarni dorga osadi, zindonga soladi, deyishadi. Mana bundan o'n sakkiz yil ilgari xalq ichida obro'li Zohid donishmand degan kishi podshohning zulmiga norozilik bildirganligi uchun dorga osib o'ldirilgan, uning xotinini o'z o'g'liga oqsoch qilib bergan edi.

Qodir Qobil kuloldan otasi haqidagi so'zlarni eshitib, Nodirning oldida xijolatdan bosh ko'tarolmay qolibdi. Chunki dorga osib o'ldirilgan Zohid donishmand Nodirning otasi ekan. Qobil kulol mehmonlardagi jiddiy o'zgarishni sezib, Rum podshosi haqidagi so'zni to'xtatibdi:

— Mana bizning mamlakatimizning shohi Qorasoch pari sodda va odil, mamlakat obod, hamma shod-xurram. Uning amri bilan dorlar yo'q qilingan, zindonlar ko'mdirilgan. Ilm-hunar taraqqiy qilgan.

Baxtimizga Qorasoch pari omon bo'lsin. O'ziga munosib yor bo'lsin, — deb duo qilib o'rnidan turibdi.

Nodir ham o'rnidan turib Qobil kulolni kuzatibdi. Shahzoda Qodir o'tirgan joyida xafa bo'lib, o'z otasiga dilida nafrat saqlabdi.

Nodir qaytib kelib shahzoda Qodirga:

— Yuring, shaharni tomosha qilib kelaylik,— debdi.

Har ikkisi ko'chaga chiqibdi. Odamlar to'da-to'da bo'lib, kun chiqar tomonga borar ekanlar. Bular ham o'sha to'daga qo'shilibdilar. Biroz yurib, katta soyga yetibdilar. Mayin shabada rang-barang ochilib turgan

gullarning xushbo‘y hidlarini keluvchilar dimog‘iga sochar emish. Og‘ir qayg‘ularga duchor bo‘lgan kishilar bu hidlardan o‘zlarini yengil his qilar ekanlar.

Soyda odam ko‘p bo‘lishiga qaramay, tiq etgan ovoz eshitilmas emish, hammaning ko‘zi tepa tomonda. Qodir bilan Nodir bir chetda odamlar orasidan joy olibdilar. Shu payt tepa ustida yoqimli kuy sadolari yangrabdi. Jimgina mahliyo bo‘lib turgan odamlar harakatga kirib ko‘z bilan emas, butun vujud bilan tepa tomon talpinibdilar.

Soz chalib, sho‘x kuylarni kuylagan bir to‘da qizlar tepa ustida saf tortibdilar. Ularning huzurida bir to‘da qiz raqs tushibdi. Xalq bularni chapaklar bilan olqishlar ekan, Qorasoch pari qizlar orasida paydo bo‘libdi.

U yuzidan pardasini olib, soydagi odamlarni ko‘zdan kechiribdi. Xalq uning husniga qoyil qolibdi. Qodir uning chiroyini ko‘rib behush bo‘lib yiqilibdi.

Kechki payt. Qobil kulolning hujrasida Nodir va Qodir bir necha kishi bilan suhbatlashib o‘tirar ekanlar. Suhbatdoshlar Nodirning so‘zlarini qiziqib tinglar ekanlar. Ulardan biri Nodirning so‘zini qo‘qqisdan bo‘lib:

— Kechirasiz, aziz mehmon, siz chindan ham bizning podshohga o‘g‘il bo‘ladigan ekansiz. Agar shoh qabul qilsa, men o‘zim sovchilikka borar edim,— debdi.

— Qorasoch parining o‘ziga bora qolgin,— debdi boshqa odam.

— Uning oldiga chiqishning hech iloji yo‘q,— debdi.

— Hammaga qiyin bo‘lsa ham senga oson; shoti qo‘yib chiqasan-da, — debdi.

Birinchi so‘zlovchining laqabi Shoti ekan. Hamma kulib yuboribdi, Nodir fursatni g‘animat bilib, gapni boshqa tomonga buribdi.

— Qorasoch pariga keyingi vaqtda ta’lim bergan kishi kim? Shu odam qayerda yashaydi? — deb so‘rabdi.

Hamma jim bo‘lib qolibdi, birozdan keyin bir chol Nodirga qarab:

— Mening bilishimcha, eng oxirgi ta’lim bergan Akram donishmand bo‘lsalar kerak, u kishi juda qari, hozir ko‘chaga chiqmaydilar, hujralarida kitob o‘qib o‘tiradilar.

Nodir choldan donishmandning huzuriga olib borishni iltimos qilibdi.

Kichik hujra. O‘rtacha jihozlangan bu hujraning eshik tomonida to‘qsondan oshgan, soch-soqollari oqargan nuroniy odam mehmonlarni kutib olibdi. Nodir birinchi kelishda donishmand chol bilan tanishib, suhbatlashib qaytibdi, keyingi gal yolg‘iz kelibdi.

Donishmand Nodirga qarab:

— Ey bo‘tam, siz mening oldimga bir umid bilan kelayotgan bo‘lsangiz kerak, so‘ray bering, qurbim yetsa, javob qaytararman,— debdi. Nodir so‘z boshlabdi:

— Men chin do‘stimga halol xizmat qilish uchun bel bog‘laganman. Mening bu xizmatim og‘ir va mashaqqatli bo‘lgani uchun sizdan yordam so‘rab, maslahatingizni olish umidida keldim.

Donishmand kulimsirab:

— Qorasoch pari to‘g‘risida bo‘lsa kerak,— debdi.

— Karomat qildilar,— deb o‘rnidan turibdi Nodir.


— Bu karomat emas, sizning ko‘rinishingizdan har bir narsaga qurbi yetadigan dono, nodir yigit ekanligingiz sezilib turibdi. Men sizga nima ham aytishim mumkin. Qorasoch pari o‘n besh yoshga qadar mendan ta’lim oldi. Mendan keyin u sehrgarlik ilmini o‘rgandi. Uch yildan keyin sehrgarning ta’lim berishga qurbi yetmay qoldi, so‘ng g‘oyib bo‘ldi. Mening fikrimcha, bu tilsimotga bir g‘or orqali yo‘l bo‘lsa kerak, g‘orning og‘zi tepadan chetroqda, soyning ichida bo‘lsa kerak.

Nodir donishmanddan bu so‘zlarni eshitib, hujrasiga qaytibdi.

Kundalik odat bo‘yicha soyga to‘plangan shahar ahli Qorasoch parini kuzatib, har tomonga tarqalibdi. Nodir esa o‘zini chetga olib, daraxt orqasiga bekinibdi. Quyosh botar paytida soydagi katta gul tagidan bir qiz chiqib, saroy tomon ketibdi. Birozdan keyin qaytib kelib, katta gulni uch marta aylanib ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Nodir ham ketma-ket borib, katta gulni uch marta aylangan ekan, g‘orning og‘zi ochilibdi. G‘or ichida qirq zina ko‘rinib, qiz hamon pastga tushib ketaveribdi. Qiz ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Nodir ham pastga tushish maqsadida birinchi zinaga qadam qo‘ymoqchi ekan, ovozlar eshitilib, alangali o‘tlar yona boshlabdi.

Nodir tezlik bilan oyog‘ini zinadan olganda ovoz to‘xtab, o‘t o‘chibdi, birinchi zinaga oyoq qo‘ymasdan ikkinchisiga qo‘ygan ekan, hech qanday hodisa bo‘lmabdi, shunday qilib uchinchisiga qo‘ymay, to‘rtinchisiga, beshinchisiga qo‘ymay, oltinchisiga qadam qo‘yib g‘orning tagiga tushgan ekan, ikkinchi tarafdan yuqoriga qarab ko‘tarilgan zinaga ko‘zi tushibdi. U zinaning boshida ikkitadan bahaybat sher hujum qilmoqchiday pastga tikilib turgan emish. Nodir birinchi zinaga qadam qo‘ymoqchi ekan, ikki sher birdan harakatga kiribdi. Birinchi zinadan oyog‘ini olib, ikkinchi zinaga qo‘ymoqchi ekan, sherlarning harakati yana kuchayibdi, undan olib uchinchi zinaga oyog‘ini bosgan ekan, sherlarning harakati to‘xtabdi.

Nodir agar ikki zina tashlab uchinchisiga qadam qo‘ysa yuqoriga chiqish mumkin ekanligini bilibdi. Shu bilan Nodir ketiga qaytib, Qobil



«Qorasoch pari» ertagiga ishlangan rasm

kulolnikida yotib, erta bilan shoh saroyiga borib, tilsimotni ochishga ijozat so‘rabdi. Shoh ijozat beribdi. Jarchi:

— Bugun bir musofir bola tilsimotni ochar emish, tepa ustiga chiqib, Qorasoch parining qo‘lidan ushlab olib tushar emish,— deb shahar xalqiga eshittiribdi. Xalq soy tomon kelibdi. Shoh ham vazirlari bilan yetib kelibdi. Nodir u soydagi katta gul tomon ketibdi.

Xalq jim bo‘lib, uning ishini tomosha qilibdi.

Nodir katta gulni uch marta aylanib ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach, xalq juda hayron qolibdi. Ba’zilari „yiqilib tushdi“ desalar, ba’zilari „yer yutdi“ deyishibdi. Nodir kechagi tekshirish tajribasi bilan sherlardan o‘tib, tepa ustiga chiqibdi. Qarasa, tepa ustiga qizil, sariq, ko‘k harsang toshlar terilgan ekan, u sariq toshni bosgan ekan tepa tebranib ketibdi. Ko‘k toshni bosgan ekan, tepa yonlamasiga larzaga kelibdi. U qadamini qizil tosh ustiga qo‘yganida hech qanday hodisa ro‘y bermabdi. Qizil tosh ustidan yurib borayotganda qarshisida katta qulf osig‘liq darvoza paydo bo‘libdi. Uning tepasiga xat yozilgan: „Ey, tilsimotni ochuvchi nodir yigit, shu darvozani ochganda ichkari kirmay, orqangga qaytib saroyga bor, mening uchta savolim bor, agar shu savollarga javob bersang, men seni qabul qilaman“.

Nodir darvoza tomon qadam qo‘yganda, qandaydir bir kuch ko‘kragidan itarib yo‘l bermabdi. Nodir bor kuchini to‘plab o‘zini darvoza tomon otibdi. Haligi kuch Nodirni ko‘tarib qirrali katta toshga uloqtirib yuboribdi, Nodir yana tosh ustiga tushib, yiqilib ketmaslik uchun toshning qirrasini mahkam ushlagan ekan, darvoza sharaqlab ochilib ketibdi. Nodir biroz nafasini rostlab, tepaning chetiga qarab yuribdi.

Ko‘pdan beri hayron bo‘lib turgan xaloyiq, ayniqsa, Qobil kulolning do‘stlari to‘xtovsiz ko‘z yoshlarini to‘kib, Nodirning paydo bo‘lishiga muntazir ekanlar. To‘satdan tepa ustida paydo bo‘lgan Nodirni ko‘rgan xalq xursandligidan qarsak chalib yuboribdi. Nodir tepadan hech qanday to‘sqinlikka uchramay, to‘g‘ri soyga tushib podshohning oldiga kelib ta’zim qilibdi.

Podshoh Nodirning peshonasidan o‘pib, jarchilarga shu bugundan boshlab Qorasoch parining to‘yi boshlanganligini xabar qilishga farmon bermoqchi ekan. Nodir shohga qarab:

— E shahanshohi olam, Qorasoch parining uchta savoli bor. Ana shu savolga javob beraman, undan keyin shodlik to‘yiga xabar qilasiz,— debdi.

Shoh ajablanib:

— Bo‘lmagan gap, qo‘ygan shartining ichida bunisi yo‘q edi-ku, to‘yni boshlay beramiz,— debdi. Nodirning iltimosi bilan podshoh noiloj:

— Mayli,— debdi.

Shaharning atoqli odamlari savol-javobni eshitish uchun saroy tomon yuribdilar. Saroyga odamlar yig'ilgan, shahzoda Qodir bilan Nodir bir chekkada turgan ekan.

Podshoh Nodirga o'z yonidan joy beribdi. Savolni kutibdilar. Qarasoch pari tarafidan bir qiz kelib, Nodirga bir dona sadaf berib:

— Qorasoch pari sening javobingni kutadi, — debdi. Nodir shohdan sadaf keltirishlarini iltimos qilibdi. Bir quti sadaf keltiribdilar. Nodir qutidagi sadaflarni tekshirib, orasidan xuddi Qorasoch parining chiqargan sadafidan ajratib bo'lmaydigan bir dona sadafni qo'shib qizga:

— Mana javobi,— deb qaytaribdi. Qiz Qorasoch pariga javobni ko'rsatgan ekan, Qorasoch pari kulib, yana ikkala sadafni qizga beribdi.

— Olib chiqib yigitga ber, javobini bersin,— debdi. Qiz olib kelib yana Nodirga beribdi.

Nodir qutidagi sadaflar orasidan chiroyli bir gavharni olib, sadafga qo'shib qo'yib:

— Mana javobi,— deb qaytaribdi. Qiz keltirib Qorasoch parining qo'liga beribdi. Uchinchi savoliga bir piyoladagi shakarga gavharning maydasini aralashtirib beribdi. Qiz keltirib:

— Javob kutadilar,— debdi. Nodir tekshirib qarasa, shakar bilan gavharning maydasi aralashgan ekan.

Yigit piyolaga sovuq suv quyib, qoshiq bilan kovlab, mana javobi, deb qizga uzatibdi. Qiz Qorasoch pariga olib borib beribdi. Qorasoch pari:

— Balli, Nodir yigitga, mening savollarim tamom, qabul qildim,— debdi. Saroy ichi shodlikka to'libdi.

Qorasoch pari xaloyiqqa qarab:

— Bu yigitga bergan birinchi savolimda bir dona sadaf berdim: o'zimning naslimni bildirib, „Siz kim bo'lasiz" — deb so'radim. Bu yigit xuddi men bergan sadafga o'xshagan sadaf bilan javob qaytardi: „Men ham siz kabi o'qimishli, dono kishining farzandiman", dedi.

Men ikki sadafni yana qaytarib chiqardim, „Ikkimizning sevgimizdan ham yuqori narsa bormi", dedim, bu yigit gavhar qo'shib chiqardi, bu gavhar „Ikkimizning sevgimizdan yuqori narsa farzand", degani edi.

Uchinchi savolga gavhar maydasi bilan shakarni aralashtirib chiqardim, „Shirinlik erlar uchun, gavhar — ziynat qizlar uchun, shunday bir-biriga munosib yigit-qizni bir-biridan kim ajrata oladi", deganimda, sovuq suv qo'shib aralashtirdi-da, „Agar o'lim ajratmasa, hech narsa ajrata olmaydi", dedi.

Qorasoch pari kelib Nodirga ta'zim qildi. Nodir podshohga qarab:

— Mening ham Qorasoch paridan ikki talabim bor, agar ijozat bersangiz to'y oldidan shu talabimni aytsam, shoyad ko'pdan beri istab yurgan maqsadimga erishsam, — dedi. Podshoh Qorasoch pariga qarabdi, pari ruxsat beribdi. Nodir:

— Men otadan yolg'iz o'g'ilman; otam, akam, ukam, singlim yo'q. Qorasoch pari meni bir qorindan tushgan akadek qabul qilsalar. Men tug'ishgan singlimni o'zlariga munosib kuyovga berib, to'yni o'zim boshlasam,— debdi.

Hamma turgan joyida qotib qolib, Qorasoch pariga qarabdi: Qorasoch pari boshini egib o'ylabdi. So'ngra: „Ey, og'ir mashaqqatlarni yenggan Nodir yigit, do'stingga qo'ygan mehr-muhabbatingni men mushtipar singlingga ham bag'ishla,— debdi va xalqqa qarab:

— Bugundan boshlab tug'ishgan akam bor, bundan keyin sehr-jodu menga kerak emas,— deb barmog'idan uzukni olib sindiribdi. Soydagi gullar, tepadagi turli-tuman narsalar g'oyib bo'libdi. Mening izmim akam ixtiyorida, kimni kuyovlikka munosib ko'rsa, qabul qilaman,— debdi.

— Ikkinchi talabim,— deb so'z boshlabdi Nodir. — Rum podshosining o'g'li shahzoda Qodirga singlim Qorasoch parini berishlarini shahanshohdan so'rayman.

Shoh qabul ishorasini beribdi. Karnaylar chalinibdi, to'y-tomosha boshlanib ketibdi.

Endi ertagimizni shu yerda to'xtatib, boshqa mamlakatdagi mish-mish gaplardan boshlaylik. „Bir bola kelib tilsimotni ochganmish, Qorasoch parini olmay, tashlab ketganmish, Qorasoch parining jahli chiqib sehr qiladigan uzukni sindirganmish, alam qilganidan bir musofirga tekkanmish, podshoh nomusga chidolmay saroydan quvganmish", degan duv-duv gaplar tarqalib, hind podshosiga yetibdi.

Bu gapni eshitgan hind podshosi ko'zi olayib, ranggi bo'zarib, shu kunning o'zidayoq mingta filga mingta pahlavonni mindirib, ularga qilich-qalqon taqtirib, „Shaharning kulini ko'kka sovuraman, podshohini asir olaman, Qorasoch parini o'zimga oqsoch qilaman", deb o'z pahlavonlariga bosh bo'lib yo'lga chiqibdi, shaharga yaqinlashib kelibdi.

To'y-tomosha qilib turgan podshoh bundan xabardor bo'lib, dushmanga qarshi otlanibdi.

Hind podshosining shaharga kirishiga bir tosh qolganda Nodir yuzta tuyaga somon ortib, bittadan odam mindirib, dushman tomon yo'l olibdi. Uzoqdan qatorlab kelayotgan fillar ko'rinibdi. Tuyadagilarga Nodir:

„O‘t yoqing, karnay chaling!“ deb buyruq beribdi, har kim o‘z tuyasidagi somonga o‘t qo‘yibdi va karnay chala boshlabdi. Tutundan yurolmay qolgan fillar karnay ovozini eshitib, orqaga tumtaraqay bo‘lib qochibdi. Ustidagilar yiqilib qolibdi. Saksonta pahlavon bilan qolgan xind shohi o‘z mamlakatiga qochib ketibdi. Hind shohi alamiga chidolmay, bir g‘orga kirib, ko‘zini yummasdan o‘tirar ekan, bir dog‘uli kampir kelib.

— E podshohim, turing, taxtingizga chiqing, Qorasoch parini men olib kelaman, — debdi.

Podshoh:

— Agar Qorasoch parini menga keltirsang, xazinamning yarmini beraman, — debdi.

— Menga bir katta kema yasab pahlavonlardan yigirma kishini saralab, ularning uch oylik ovqatini g‘amlab, ixtiyorini menga bering,— debdi. Podshoh tezlik bilan kampirning talabini bajarib, uni kuzatibdi. Kampir boshliq yigirma pahlavon bir necha kun suvda suzib, Qorasoch parining daryo labidagi saroyiga yaqinlashibdi.

Kampir:

— Meni shu yerda quruqlikka chiqarib, o‘zlaringiz o‘sha ko‘ringan qo‘rg‘on tagiga borib, qimirlamasdan, kemadan tushmasdan yotinglar, men: „vaqt g‘animat“ deganimdan keyin, birdaniga qizni ushlab kemani haydab yo‘lga chiqasizlar,— deb ravona bo‘libdi.

Qorasoch pari to‘yining oxirgi kuni, butun xalq xursand, qizlar o‘z parisini kuyovga berish oldidan hammomga olib kelar ekanlar, bular orasida bir juvon goh o‘ynab, goh ashula aytib: hammani o‘ziga jalb qilib boribdi. Hammom yonida sozandalar, ashulachilar, o‘yinchilar Qorasoch parini ham, sho‘x juvonni ham intizorlik bilan kutibdilar. Lekin ulardan darak bo‘lmabdi.

Axiri qizlardan biri ichkariga kirsa, hammomda hech kim yo‘q, suvxonaning orqasi buzilgan, haligi xushchaqchaq juvon hind shohining dog‘uli kampiri ekan, Qorasoch parini o‘g‘irlab ketibdi.

Hind shohining shahrida katta shodlik boshlanibdi. Qorasoch pari bir necha kanizaklar bilan ichkaridan chiqib, chap tomondagi oltin taxtga o‘tiribdi. U podshohga qarab:

— E yer yuzining xoqoni, sizning jufti halolingiz bo‘lishdan oldin orzu qilib yurgan niyatimni bajarishingizni so‘rayman. Har ikkimizning umrbod turmushimiz hurmati uchun mamlakatda azob chekuvchi, muhtojlikdan ko‘z yoshi to‘kuvchi odam bo‘lmasin, qarzdorlarning qarzini kechib, zindondagilarni ozod qilsangiz,— debdi.

Hind shohi hech qarshilik qilmay, shu ondayoq:

— Qarzdorlarning qarzidan voz kechilsin, zindondagilar ozod qilinsin! — deb farmon beribdi.

— Ikkinchidan, necha-necha yuz yillardan beri podshohlarning saroylariga mamlakat fuqarolari kirolmaydi. To'yni saroyda qilaylik: shoh-u gado, g'arib va bechoralarga saroy eshiklari doimo ochiq tursa,— debdi. Shoh buni ham qabul qilibdi.

— Uchinchidan, men hozirga qadar erkak qo'lini ushlamagan bo'lsam ham, bir odamning nikohiga o'tganman. Bizning odatimizcha bir odamning nikohida bo'lgan qiz ikkinchi kishining nikohiga o'tishi uchun oradan qirq kun o'tishi kerak. Bu muddat men uchun naqadar uzoq, chidab bo'lmaydigan muddat bo'lsa ham, xalqning hurmati uchun chidam bilan kutishga majburman. Shu sababli bu uzoq muddatning qanday o'tganligini sezmay qolish uchun to'yni qirq kunga cho'zib, ayshi-ishratlar bilan o'tkazasiz,— debdi.

Hind shohi bunga ham ko'nibdi.

Qorasoch pari o'z shartlarini aytib, kanizaklari bilan kelgan tomonga chiqib ketibdi. Qirq kunlik to'y boshlanibdi. Hind shohining o'n yetti yoshlik Dilnavoz degan qizi bor ekan, aqlda, husnda kamolga yetgan ekan, u doim Qorasoch pari bilan suhbatda va uning xizmatida ekan.

To'y marosimida saroyda bo'layotgan voqealarni ko'zdan kechirib yurib, har bir narsaga aqli yetgan qiz bir narsaga tushunmabdi, har kuni kechki payt saroyga bir qora chodirga o'ralgan odam kelib, tut daraxti tagida o'tirar, hech kim bilan so'zlashmas ekan, oldiga taom qo'ysa yemas, ammo hech narsa talab qilmas ekan, savol bersalar gapirmay, ko'z yoshini to'kib, chiqib ketar ekan.

Dilnavoz bir kun qora chodirli kishini chetga chaqirib:

— Kimsiz, dunyoning qanday jabr-zulmi sizni bu ahvolga tushirdi, gapiring, men sizning dardingizga ko'maklashaman,— deb yolvorib so'rasa ham, qora chodirli odam Dilnavozga tikilib, to'xtovsiz ko'z yoshlarini to'kib, bir og'iz so'z demay chiqib ketibdi. Keyinchalik Dilnavoz qora chodirli kishini sevib qolibdi. Kundalik keladigan vaqtidan kechiksa, sabrsizlik bilan kelishini kutar ekan. Dilnavoz kechalari uxlamay, shu odamni o'ylar ekan.

Keyinchalik ko'zlari kirtayib, ranglari siniqib ketibdi. Buni sezgan Qorasoch pari:

— Senga nima bo'ldi, singlim? Nimadan kamchiliging bor va qanday musibatlarga tushding? Nega o'zingni bu qadar oldirib qo'yding? — deb so'rabdi. Dilnavoz butun voqeani va qora chodirli kishini chin yurakdan sevib qolganini aytib beribdi. Qorasoch pari uzoq o'ylab:

— Ertaga kelsa, undan shu narsani so‘ragin, Rumdan chiqqanda qancha edi, Shomda qancha bo‘ldi, Hindistonda qancha, shu savolga javob bersa, javobini keltir,— debdi.

Dilnavoz qora chodirli kishini intizorlik bilan kutib turganida u darvoza oldida ko‘rinibdi, uni chetga chaqirib, sevib qolganini izhor qilibdi. Qora chodirli odam hech nima demay jim turaveribdi. Oxirida Dilnavoz:

— Dunyoning zahmatlariga bardosh bergan yigit, aytingchi, Rumdan chiqqanda qancha edi, Shomda qancha bo‘ldi, Hindistonda qancha? — debdi. Qora chodirli odam ko‘z yoshlarini to‘kib:

— E malikam, siz meni so‘zlashga majbur qilib, bu shaharda yurishdan mahrum qildingiz. Jabr-u zulmlar, azob-u uqubatlar chekib, oxirida sizning mehri-shafqatingiz tufayli shu shaharda turishga qaror bergan edim. Rumdan chiqqanimda ikkita edi. Shomda uchta bo‘ldi, Hindistonda bitta. Ammo bu javobning ma’nosi nima ekanini oxirgi nafasimda sizga aytib berishni istar edim. Bir kecha saroyda qolsam, o‘z o‘tmishimni, qora chodirli odam hikoyasini sizga aytib berar edim,— debdi. Dilnavoz uni saroydagi bir uyga yashirib, o‘zi Qorasoch parining oldiga boribdi. Qorasoch pari Dilnavoz kelishi bilan:

— Javob oldingmi,— deb so‘rabdi.

— „Rum shahridan chiqqanda ikkita, Shomda uchta, Hindistonda bitta“, deb javob berdi,— debdi va uni yashirib qo‘yganini aytibdi.

Qorasoch pari hech kimga bildirmay, uy tomon boribdi. Derazadan hovliga qarab turgan qora chodirli kishini ko‘ribdi. U Nodir ekan.

Qorasoch parining o‘g‘irlanganidan xabardor bo‘lgan Nodir ketmaket yo‘lga chiqqan ekan. Podshoh bir kam qirq kun deganda Qorasoch paridan xat olibdi. Xatda shunday so‘zlar yozilgan ekan: „Ey podshohi olam, ertaga muhlatimiz bitib, ikkimiz murodga yetadigan kun. Sizga juft bo‘lganimdan keyin saroydan bir qadam chetga chiqmoq menga munosib emas. Shaharni sayr qilish orzusidaman. Shuning uchun ijozat bersangiz, shu kecha o‘zimning qizlarim bilan shaharni sayr etsam. Mening orzuyimni rad etmasligingizni so‘rayman. Jufti halolingiz bo‘lmish Qorasoch pari“.

Podshoh oxirgi jumlani o‘qib: „Mayli, bilganini qilsin,“ debdi. Shohning amri bilan „Bu kecha erlardan hech kim ko‘chaga chiqmasin“, deb buyruq berilibdi. Otlar egarlangan, qizlar shaylangan holda Qorasoch parini kutar ekanlar. Qorasoch pari qizlarga qarab:

— Hali vaqt erta. Kelinglar, ozgina bo‘lsa ham mizg‘ib olamiz,— debdi.

Hamma birin-ketin yotib uyquga ketibdi. Qorasoch pari asta turib, Nodirni topib, qizlarning ustidan qulflab, ikki uchqur otga minib, darvozadan chiqib, qir tomon ketibdilar.

Nodir Qorasoch parini bir g'orga qo'yib:

— Men borib dog'uli kampirning ishini to'g'rilab kelmasam, keyin bizga shikast yetkazadi,— deb shaharga kiribdi.

Kampirning uyiga kelib, uni ketmon dasta bilan bir urib o'ldirib, ko'ylagining ichidan xoda boylab, saroy eshigi oldiga suyab qo'yib, jo'nab qolibdi.

Shoh erta bilan machitga borayotganida eshigi oldida irjayib turgan kampirni ko'ribdi. Shoh kampirga:

— Ey kampir, men sizni xursand qilmaguncha nikoh qildirmayman, boring, uyingizda o'tiravering, men namozimni o'qib chiqay, — desa kampir indamay iljayganicha turaveribdi. Podshoh mahramiga:

— Kampirni uyiga eltib qo'y!— debdi. Mahram kampirning yengidan ushlab:

— Yuring, ona, — degan ekan, kampir chalqanchasiga ag'darilibdi va ko'ylagi ichidan xoda ko'rinib qolibdi. Shoh qo'rqib, Qorasoch paridan xabar olishga odam yuboribdi. Borib qarasalar, qizlar uydan chiqolmay, arzlarini etolmay, qamalib yotgan emishlar.

Podshoh:

— Orqasidan quvib ushlab kelinsin,— deb buyruq beribdi. Lashkarlar Qorasoch parining orqasidan quvib yetolmay, qidirib topolmay o'z shaharlariga qaytibdilar.

Shom podshosiga Qorasoch parini dog'uli kampir olib qochib, hind shohiga topshirgani ma'lum bo'libdi. Nodir ham yo'qolibdi. Qodirning qizdan umidi uzilib, ko'kragini zaxga berib yotibdi.

Shom podshosi shahzoda Qodirga biror narsa bo'lib qolsa, Rum shohi: „Qizingni o'zing qochirib yuborib, mening ikki o'g'limni ataylab o'ldirgansan" deb tuhmat bilan hujum qilishi mumkin, deb vahimaga tushibdi.

Shom podshosi Qodirni o'z yurtiga qaytishga ko'ndiribdi. Qimmatbaho in'omlar beribdi, yoniga to'rt pahlavonni qo'shib Rumga jo'natibdi.

Qodir Taqirtosh tog'i ustiga chiqayotganida qarshisidan kelayotgan Qorasoch pari bilan Nodirga ko'zi tushib, sevinib ketibdi. Ular quchoqlashib ko'rishibdilar, Rum shahriga borishga qaror qilibdilar. Ular yo'lda charchab katta chinor tagida dam olibdilar. Qodir bilan Qorasoch pari uyquga ketibdi. Nodirning uyqusi kelmasdan xayol surib yotgan ekan, chinor tepasiga to'rtta to'tiqush kelib qo'nibdi. Ulardan biri: „Buni qara, mehnatni bu qildi-yu, huzurini anovi ko'radi", debdi. Ikkinchisi: „Bu mayli-ya, shahzodaning otasi bularning kelishini eshitib, o'g'lim kelib ichsin, xotini menga qolsin, deb bo'yi yetgan qizlarga zahar ushlatib qo'yibdi", debdi. Uchinchisi: „Otasi o'g'lim kelsin, minsin, qo'liga

olsin, o‘lsin, xotini menga qolsin, deb zaharlangan ot, qush tayyorlab qo‘yibdi“, debdi. To‘rtinchisi: „Otasi o‘g‘lim kelsa, chaqsin, o‘lsin, xotini menga qolsin, deb yangi uy qurib katta zaharli chayon tashlab qo‘yibdi“, debdi. Hammasi: „Bizdan keyin gapirganlar tosh bo‘lsin“, deb uchib ketibdi.

Qodir bilan Qorasoch pari uyqudan turib, otga minib Rum tomon jo‘nabdilar. Bir necha kundan keyin shohning saroyi ko‘rinibdi. Asta-sekin karnay-surnay ovozlari eshitilibdi.

— Bu yerda nima bo‘lyapti? — deb so‘rabdi Qorasoch pari.

— Otam bizni kutib olyapti,— deb shahzoda maqtanibdi. Shaharga yaqinlashganlarida yasangan qizlar zarhal kosalarda qimiz ushlab:

— Shahzodamiz yo‘l yurib, chanqab kelyaptilar, chanqovlarini qondirsinlar, —debdilar. Shahzoda Qodir olib ichmoqchi ekan:

— To‘xtang, aka,— deb Nodir shahzodaning qo‘lidan tutibdi, — Hind shohining saroyida Qorasoch parini otga mindirayotganimda bir niyat qilgan edim. Biz sog‘-salomat yurtimizga borganimizda yo‘lda birinchi marta qizlar qimiz tutsalar, shuni ichmasdan to‘kib tashlaylik, deb. Ruxsat bering, men to‘kib tashlay,— debdi.

Qorasoch pari Qodirga qarabdi. Qodir uning talabini qaytarib ichmoqchi ekan. Nodir qo‘lidagi qamchini bilan bir urib, qimizni to‘kib yuboribdi. Qodir Nodirdan xafa bo‘lib, otga qamchi uribdi. Shahar darvozasiga yaqinlashganida podshoh vazirlari bilan ularni kutib olishga chiqibdi.

Podshohni ko‘rgan zamon bular darrov otdan tushib, ta’zim qilibdilar. Shoh Qorasoch parini ko‘rgan zamon otdan tusholmay, o‘g‘li bilan ko‘risha olmay turib qolibdi. Vazirlardan biri qimmatbaho anjom, ot va qarchig‘ay qush keltirib shahzodaga:

— Shahanshohimizning yo‘l ustidagi sovg‘alarini qabul qilishingizni so‘raymiz,— deb ta’zim qilibdi. Shahzoda Qodir qushni olib otga minmoqchi bo‘lganida, Nodir to‘xtatib:

— Ey, shahrimizning ulug‘ zotlari, biz yo‘lda ko‘p qiyinchiliklarga uchrab, azoblar chekdik. Ana o‘shanda men bir niyat qilgan edim: shu azob-uqubatlardan qutulib, shahrimizga yetib olsak, shahanshohning birinchi sovg‘alarini xudoyi qilaylik degan edim,— debdi. Vazirning yonidan qilichini olib, ot bilan qushni burdalab, ustiga mayda qum sepib, qimmatbaho buyumlarni ko‘mib yuboribdi. Buni ko‘rgan podshoh achchig‘i chiqsa ham, Qorasoch pari oldida hech narsa deyolmay, jahl bilan iziga qaytib ketibdi. Qodir, Nodir va Qorasoch pari bilan maxsus tayyorlangan uyga kiribdi. Nodir hushyorlik bilan chayonni kuta beribdi.

Qorasoch pari yolg'iz o'zi tush paytida uylarni salqin qilib, qizil gilamlar ustiga duxoba to'shaklar solib, qora sochlarini oppoq yostiqqa yoyib, ikki qo'lining panjalarini bir-biriga juftlab, shirin uyquda yotgan ekan. Gilam ustidan yugurib kelayotgan o'n bir bo'g'inli chayon amirkon maxsiga yopishib, yuqoriga o'rmalabdi. Atlas ko'ylak ustidan yurib, ko'krak ustida to'xtab, nayzalarini chiqarib, zaharini yig'a boshlabdi. O'rmalab ko'ylak yoqasidan ichkari kirmoqchi bo'lganida qizning nafasi uni orqasiga qaytaribdi. Chayon yelkadan o'rmalab miya tomon borayotganda, Nodir uyga kirib, birdan qizning miyasiga o'rmalab borayotgan chayonga ko'zi tushibdi va chaqqonlik bilan chayonni ikki bo'lib tashlagan ekan, chayonning bir tomchi zahari Qorasoch parining yuziga sachrabdi. Nodir shoshilib, zahar yoyilib ketmasin deb ro'molcha bilan Qorasoch parining yuzidagi zaharni artib turgan ekan, shahzoda Qodir kirib, turgan joyida qotib qolibdi.

— Men seni do'stim, o'z ukam, deb mehr qo'ysam, sen menga xiyonat qilib yurgan ekansan,— debdi. Qorasoch pari cho'chib uyg'onibdi, hech narsa tushunmay hayratda qolibdi.

— O'zingning qora iflos nayranglaring bilan meni aldab yurgan ekansan. Otang otamning davlatiga xiyonat qilganidek, sen ham menga xiyonat qilding. Endi sen ham otangning yoniga bor,— deb Nodirni qilich bilan chopib tashlamoqchi bo'lganida Qorasoch pari sakrab turib, shahzodaning qo'lini ushlab, Nodirga:

— Nima voqea bo'ldi? Menga tushuntiring,— debdi.

Nodir Qodirga uzoq tikilib:

— O'tiring, akajon, o'tiring, singlim! Men butun voqeani aytib beray, ehtimol, mening so'zlarimni eshitib bo'lganingizdan keyin, bir-birimiz bilan so'zlasha olmasmiz, ko'risha olmasmiz. Buning uchun sizlarga qilgan gunohimni kechiringlar, sizlarning hurmatlaringizga sazovor bo'ladigan birorta xizmat qilolmadim. Voqea bunday:

Biz hind podshosining mamlakatidan chiqib, Shomdan kelayotib katta chinor tagida dam oldik. Siz Qorasoch pari bilan uxladingiz, men uyg'oq edim. Shu chinorga to'rtta to'ti qush qo'nib, birisi: „Buni qara, mehnatni bu qildi-yu, huzurini anovi ko'radi", dedi. Ishonmasangiz tizzamdan u yog'i tosh bo'lsin. Ikkinchisi aytdi: „Bu ham mayli-ya, otasi zaharli qimiz qilib, qizlar qo'liga berib qo'yibdi,o'g'lim kelsin, ichsin o'lsin, xotini menga qolsin deb"; shuning uchun o'sha qimizlarni to'kib tashladim. Ishonmasangiz belimdan u yog'i tosh bo'lsin. Uchinchisi aytdiki: „Otasi zaharlangan ot, anjom, qush yasab qo'yibdi, o'g'lim kelsin, minsin, o'lsin, xotini menga qolsin, deb"; uni ham

chopib o‘ldirdim. Ishonmasangiz ko‘kragimdan u yog‘i tosh bo‘lsin. To‘rtinchisi: „Otasi yangi imorat solib, chayon tashlab qo‘yibdi, o‘g‘lim kelsin, chaqsin, o‘lsin, xotini menga qolsin deb“. Kechadan beri chayonni poylab yurar edim, mana shu bugun Qorasoch pari uxlab yotgan edi, sochlari ustidan o‘rmalab yurgan ekan, shamshirim bilan chetga olib bir urgan edim, ikki bo‘linib bir tomchi zahari singlimning yuziga sachradi, zahari tarqalib ketmasin, deb ro‘molcha bilan zaharni artib olayotgan edim, siz kelib qoldingiz, — deb ikki bo‘linib yotgan chayonni ko‘rsatibdi. Ishonmasangiz tosh bo‘lay, deb bor vujudi toshga aylanib qolibdi.

Voqeadan xabardor bo‘lgan Qorasoch pari Qodirga:

— Hali sening yuraging shunday qora, shunday yaramasmi, seni deb og‘ir azoblar chekkan, yosh jonidan kechgan, vijdonli do‘stingga sendan kelgan oqibat shumi? Seni zaharlab yo‘q qilmoqchi bo‘lgan o‘z otangning changalidan qutqarib qolgan pok yigitning tosh bo‘lib yotishini qara! — debdi.

Qodir qilgan ishlariga pushaymon yeb, ko‘zlaridan to‘xtovsiz yosh oqizib o‘tirganida Qorasoch pari Qodirga:

— Tur o‘rningdan, mamlakatga jar sol. Hamma hakimlarni chaqir, xazinadagi dunyolarni sarf qil. Nodirni o‘z asliga qaytar. Agar o‘z asliga qaytmas ekan, Qorasoch pari senga harom, o‘z yurtiga ketadi, — debdi.

Shahzoda Qodir butun mamlakatga jar soldiribdi, hech qanday natija bermabdi. Kechasi Qodir uxlab yotar, Qorasoch parining uyqusi kelmas ekan. Shu paytda uyning ikki burchagidan oq va sarig‘ ilon chiqib, bir-biri bilan so‘zlashibdi. Oq ilon sariq ilonga:

— Yer yuzidagi jonivorlar bizga qahr-g‘azab bilan qarab, bizni dushman deydilar, holbuki, o‘zlari bir-birlariga ashaddiy dushmanlik qiladilar. Buni qara, mehnatni qilib-qilib, tosh bo‘lib yotibdi. Yana buning tosh bo‘lganidan xabar topgan podshoh har soatni g‘animat bilib, o‘g‘lini o‘ldirish uchun payt poylab yuribdi, — debdi. Sariq ilon so‘zga kirib:

— Buni asliga qaytarish mumkin, lekin juda og‘ir. Buning uchun dunyodagi eng zolim odamni topib, shuning qoniga cho‘miltirib, to‘ti-qushlar qo‘ngan chinorning tagidagi buloqqa sho‘ng‘itib olsa, asliga qaytadi, — debdi va ilonlar o‘z inlariga kirib ketibdilar.

Qorasoch pari bu voqeadan Qodirni xabardor qilibdi. Shu payt eshik ochilib, podshoh qo‘lida xanjar ushlagan holda kirib, Qodirga hujum qilibdi. Shahzoda Qodir podshohning oyog‘iga o‘zini tashlab:

— Otajon, axir men sizning farzandingizman-ku, nima gunohim bor, — deb yolvoribdi. Podshohning g'azabiga g'azab qo'shilib, shahzoda Qodirning yuragiga xanjar sanchibdi. Qodirning jonsiz gavdasi gilam ustiga cho'zilibdi. Podshoh vahshiy hayvonlarcha hayqirib, Qorasoch parini bag'riga bosmoqchi ekan, qiz zaharli hanjarni tortib olib, zolimning ko'ksiga uribdi.

Qorasoch pari:

— Dunyoda bundan ham ortiq zolim bo'lmaydi, — deb tosh bo'lib yotgan Nodirni ko'tarib shohning qoniga cho'miltirib, boshiga qo'yib:

— Xayr, zulm botqog'iga botgan shoh saroylari,— deb chinor tomon yo'l olibdi. Borib chinor tagidagi buloqqa toshni sho'ng'itgan ekan, Nodir aksa urib o'z holiga kelibdi. Qorasoch pari xursand bo'lib, Nodirga qarabdi. Nodir hayron bo'lib:

— Akam qani, nega biz bu yerdamiz?— deb so'rabdi.

Qorasoch pari shahzoda Qodirning otasi qo'lida halok bo'lganini aytibdi.

Qorasoch pari qarshisida turgan ikki otni ko'rsatib:

— Yuring, otga mining, aziz Nodirim, hamma voqeani o'z elimda aytib beraman,— debdi. Ular Shom shahri tomon jo'nabdilar.

Bir necha kun yo'l yurib shaharga kirar ekanlar, karnay-surnaylar ovozi eshitilibdi. Nodir:

— Bu qanday sadolar?— deb Qorasoch paridan so'rabdi.

— Bu Shom shahrining xalqlari ikki yoshning baxtli hayot boshlashini tabriklayotgan sevinch sadolaridir,— deb javob beribdi Qorasoch pari.

Ikkisi otga qamchi urib, shaharga kirib ketibdi va murod-maqsadiga yetibdi.



Qilich botir

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir zamonda Qilich botir degan bir polvon bor ekan. Kunlardan bir kun Qilich botir safarga chiqibdi. Bir necha kun yurgandan keyin bir odamga duch kelibdi.

Bu odam Qilich botirga:

— Yo‘l bo‘lsin, og‘ayni,— debdi, Qilich botir unga:

— Men Oqbilak oyim oldiga boraman, sen nima qilib turibsan bu yerda? — deb so‘rabdi.

Qilich botirga uchragan odam bo‘zchi ekan, u:

— Shu tomonda Qilich botir degan bir polvon chiqqan emish. O‘sha bilan kurashmoqqa chiqib turibman, — debdi.

Qilich botir:

— Kel bo‘lmasa, men ham Qilich botir bilan birga yurgan edim, men bilan bir bel ushlashib qo‘y, — degan ekan, bo‘zchi:

— Xo‘p bo‘lmasa, bir kurashib olaylik,— debdi. Shu bilan ikkalasi kurash boshlabdi. Ko‘p vaqt o‘tmabdi. Qilich botir bo‘zchini ko‘tarib yerga uribdi.

Bo‘zchi o‘rnidan turib Qilich botirga:

— Kuchingga qoyilman. Endi senga do‘st bo‘lay,— debdi. Qilich botir bo‘zchiga ikki dona naycha bera turib:

— Mana bu naychalarni ol. Agar biridan qon tomsa, beg'am bo'l, biridan zardob tomsa, tezda qanot bog'lab, orqamdan uchib yet, — deb yo'lga tushibdi.

Bir qancha yo'l yurgandan so'ng yana bir odamga duch kelibdi. Bu odam temirchi ekan. Bu ham:

— Ha yigit, yo'l bo'lsin? — deb so'rabdi. Qilich botir unga:

— Men Oqbilak oyim oldiga bormoqchiman. Xo'sh, nima uchun sen bu yerda turibsan?— debdi.

Haligi odam Qilich botirga:

— Qilich botir degan bir pahlavon kelayotgan emish, shu bilan kurashmoqqa chiqib turibman,— debdi. Qilich botir:

— Men ham Qilich botir bilan birga yurgan edim, agar kurashmoqchi bo'lsang, avval men bilan kurashib ko'r, — debdi. Shunda temirchi:

— Kel bo'lmasa, kurashaylik, —deb Qilich botir bilan bel ushlashibdi. Qilich botir temirchini ham yiqitibdi. Keyin uni o'rnidan turg'azib qo'yibdi. Bunga ham ikki dona naycha beribdi: biridan qon, biridan zardob tomishini, qon tomsa, beg'am bo'lish, zardob tomsa, orqasidan uchib yetish kerakligini aytib, „Bitta eding, ikkita bo'lding, o'zim bilan uchta bo'ldik",— deb yo'lga tushibdi.

Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri bir qishloqqa yetibdi. Bu qishloqda bir suvchi bor ekan, u ham yo'lga chiqib turgan ekan. Qilich botir u bilan ham so'rashib, ikkisi kurashibdi. Qilich botir uni ham yiqitibdi. Bunga ham haligi naychadan ikki dona beribdi: „Sen bilan uchta bo'ldik, o'zim bilan to'rtta bo'ldik, to'rtovimiz ham bir kishi. Shu naychaning biridan qon tomsa, beg'am bo'l, biridan zardob tomsa, tezda yetib bor", deb yo'lga tushibdi. Yurib-yurib sahroda bir gala qo'y boqib yurgan cho'ponga duch kelibdi, u bilan so'rashib bo'lib:

— Bu qo'ylar kimniki? — deb so'rabdi. Cho'pon unga:

— Oqbilak oyimniki, — deb javob beribdi. Qilich botir:

— Oqbilak oyim qayerda? Siz bilasizmi, unga yetish yo'li bormi? — deb so'ragan ekan, cho'pon:

— E azamat yigit, sizga o'xshagan bo'z yigitlar, shahzodalar uni kelib ololmay, o'zlarini nobud qilishdi. Ko'rdingizmi, hov anavi qo'rg'on sizga o'xshaganlarning kallalaridan yasalgan. Siz qanday qilib u yerga bora olasiz?— debdi.

Qilich botir biroz o'ylab turib:

— Men albatta boraman, buning uchun nima qilish kerak?— deb so'rabdi. Cho'pon javob beribdi:

— Siz bozorga borib, bir xurjunning ikki ko‘zini to‘latib kishmish oling. Oqbilak oyimning bir oti bor, u kishmish yeydi. Agar Oqbilak oyimning oldiga biror kishi kirsa, oti kishnab yuboradi. Oqbilak oyim uydan chiqib, kelgan kishining kallasini qilich bilan uzib tashlaydi. Endi siz shunga bir hiyla qilasiz: uzoqdan yer tagini kavlab borib, xuddi ot turgan joyning tagidan chiqasiz. Bir bordon olasiz. Haligi kishmish bilan birga bordonni olib kelib, teshikning og‘ziga keltirib qo‘yasiz. Kechasi bo‘lganda teshikdan chiqib, bordonni teshik og‘ziga tortib, o‘zingiz panada turasiz, buni otga bildirmaysiz, agar buni ot bilib qolguday bo‘lsa, sizni pachoq-pachoq qilib yuboradi. Oqbilak oyim uxlagan vaqtida darrov chiqib, kishmishni ot oxuriga solasiz, shu bilan Oqbilak oyimni qo‘lga kiritasiz.

Qilich botir cho‘pon bilan xayrlashib, uning aytganlarini birma-bir bajarishga kirishibdi: yerni kavlab borib, otning oxuri yonidan chiqibdi. Otga bildirmasdan, bordonni teshik og‘ziga yopmoqchi bo‘lib turganda, ot sezib qolib, birdan kishnab yuboribdi. Buni eshitgan Oqbilak oyim yotgan yeridan tura solib ot yoniga kelibdi:

— Ha, jonivor, nima sir bor, kishnab yubording? — deb otning boshini silabdi, u yoq-bu yoqni ko‘zdan kechiribdi, hech narsaning sharpasini sezmagandan keyin, qaytib ketibdi. Endigina ko‘zi uyquga ketgan paytda ot yana kishnabdi. Oqbilak oyim yana chiqibdi. Qarasa, hech gap yo‘q emish. Keyin:

— Sen muncha kishnayverding, uyqumdan bezovta qilding! — deb otga bir-ikki qamchi urib, so‘ngra ichkariga kirib uxlab qolibdi. Shunda Qilich botir birdan chiqib, otga kishmish solibdi. Ot kishmishni yeya boshlabdi. Qilich botir sekingina uyga kirib qarasa, Oqbilak oyim uxlab yotgan ekan. Tezdan uning boshi tevaragiga qirqta qoziq qoqib, qirq kokilini qoziqlarga bog‘lab qo‘yibdi. Bir vaqt Oqbilak oyim uyqudan ko‘zini ochib qarasa, tepasida bir yigit tikilib o‘tirgan emish. Oqbilak oyim Qilich botirga qarab:

— Ne uchun kelding? Menda nima qasding bor? O‘rnimdan tursam, kallangni olaman! — deb qattiq intilibdi, lekin kokillari qoziqlarga bog‘langani uchun o‘rnidan turolmabdi va Qilich botirning tadbiriga qoyil qolibdi. So‘ngra yigitga taslim bo‘libdi, shu bilan ikkovlari birga yashay boshlabdilar.

Qilich botir haligi otni minib, ovga chiqib yuribdi. Oradan bir necha yil o‘tibdi. Har qanday podshoh sovchi yuborsa ham, Oqbilak oyim aslo unamabdi. Axiri Qoraxon degan podshoh sovchilikka bir kampirni yuborib, unga:

„Agar o‘sha qizni keltirsang, bo‘ying barobar oltin beraman“, debdi.

Kampir eshakka minib, yo‘lga tushibdi. Qilich botirning ovdan qaytadigan yo‘li ustiga borib, eshakning bir oyog‘ini urib sindiribdi-da, o‘zi bir chekkada yolg‘ondan yig‘lab o‘tiraveribdi. Sal o‘tmay, Qilich botir ovdan qaytibdi. Kampir qilich botirga yalinib, ho‘ng-ho‘ng yig‘labdi, eshakning oyog‘ini ko‘rsatib:

— Bolam, menga rahm qil, bu odamzod yo‘q cho‘l-biyobonda qolib ketib, halok bo‘lmay, — debdi.

— Qilich botirning kampirga rahmi kelib, uni orqasiga mingashtirib uyga olib ketibdi. Oqbilak oyim erining shu ishiga juda achchig‘lanibdi va erini pana joyga chaqirib olib:

— Bu shum kampirni nega keltirdingiz? Boshimizni yeydi-ku! — degan ekan, Qilich botir:

— E buning qo‘lidan nima kelardi deysan. Qaytaga senga dalda bo‘lib o‘tiradi, og‘iringni yengil qiladi, — debdi.

Kampir Oqbilak oyimga xizmat qilib yuraveribdi. Kunlardan bir kun kampir Oqbilak oyimdan so‘rabdi:

— Bolam, Qilich botirning joni qayerda bo‘larkin, bilasizmi? Buni bilib olsangiz, yomon bo‘lmas.

Oqbilak oyim:

— Qanday so‘rasam ekan? — desa, kampir:

— Kechqurun botir kelganda, unga ro‘yxush bermasangiz, aytadi. Ana shu bilan bilasiz-qo‘yasiz, — debdi.

Kechqurun Qilich botir ovdan kelibdi. Oqbilak oyim Qilich botirga ro‘yxush bermabdi, otiga ham qaramabdi: bir burchakda to‘mtayib o‘tiraveribdi.

Xotinini bu ahvolda ko‘rgan Qilich botirning dili siyoh bo‘lib, o‘zini qayoqqa urishini bilmabdi. Keyin sabrsizlanib, Oqbilak oyimdan so‘rabdi:

— Nega xafasiz, jonim? Nima bo‘ldi sizga?

— Shu choqqacha men sizning hech bir nishonangizni bilmayman.

— Xo‘sh, qanday nishonamni?

— Sizning joningiz qayerda turadi?

Qilich botir aytmaslikka urinsa ham, hech iloj bo‘lmabdi. Axiri noiloj bo‘lib:

— Mening jonim qilichimda, qilichsiz asti yurolmayman, — debdi.

Oqbilak oyim yoshlik qilib, bu sirni o‘sha ondayoq makkor kampirga yetkazibdi.

Shum kampir ich-ichidan quvonib, o'zicha „hmm, murodimga yetar kunim ham bor ekan-a!" debdi. Ammo sir-boy bermaslik uchun Oqbilak oyimga:

— Qo'ying-e, bolam, bu gapingizga ishonmayman. Sira ham ishonmayman. Eringiz sizni aldagandir. Qani bo'lmasa, botir erta bilan ovga ketishida qilichini olib qo'ying-chi, nima bo'lar ekan? — debdi.

Ertalab Oqbilak oyim eridan qilichini tashlab ketishini so'rabdi.

Qilich botir xotinini xafa qilmaslik uchun qilichini zo'rg'a beribdi va otlanib, ovga chiqib ketibdi.

Kampir darrov qilichni tosh bilan bukib, soyga tashlabdi. Xuddi shu paytda Qilich botir yo'lda yiqilib qolibdi. Kampir tezdan yog'och ot yasabdi: o'ng qulog'ini burasa, ucharmish, chap qulog'ini burasa, tusharmish. Yog'och otni minib, u yoq-bu yoqqa uchirib, Oqbilak oyimni aldash payiga tushibdi.

— Bolam, siz ham minib boqing-chi, qanaqa bo'larkin. Bahona bilan hamma yoqni tomosha qilib kelasiz,— debdi.

Makkor kampir Oqbilak oyimni orqasiga mingashtirib, uchib ketibdi: bir zumda Qoraxon podshohning shahriga yetibdi. O'rdaga borib, podshohga ta'zim qilib:

— Shohim, mana, xizmatingizni ado qildim: Oqbilak oyimni olib keldim,— debdi.

Qoraxon podshoh kampirga ko'targanicha tilla berib jo'natibdi. Keyin qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilibdi.

Endigi so'zni Qilich botirning safarda uchratgan oshnalaridan eshiting.

Birdaniga haligi bo'zchi, temirchi va suvchining naychalaridan zardob toma boshlabdi. Bular tezlik bilan Qilich botirning holidan xabar olgani kelibdilar. Qilich botirning eshigi oldiga kelib qarasalar, bir daryo oqa-yotgan emish.


Bo'zchi suvchiga qarab:

— Suvni bog'la!— debdi.

Suvchi suvni bog'labdi. Soyga tushib qarasa, botirning qilichi bukilib yotgan emish. Uni temirchiga berib:

— Sen buni to'g'rilab peshla! — debdi suvchi.

Temirchi qilichni peshlabdi. Shu bilan Qilich botir o'z holiga kelibdi. Uyga kelib qarasa, Oqbilak oyim yo'q emish, uyda esa oshnalari o'tirishgan emish. Oqbilak oyimni ko'p qidiribdi, hech qayerdan topolmagandan keyin:



«Qilich botir» ertagiga ishlangan rasm

— Bu nima sir? Attang, Oqbilak oyim qo'ldan ketibdi-da! — deb qayg'uribdi.

Bo'zchi, temirchi bilan suvchi Qoraxon podshohning shahriga qarab jo'nabdilar. Ular juda ko'p yurib, to'y boshlanguniga bir kam qirq kun bo'ldi deganda Qoraxon podshohning shahriga yetishibdi, podshohning ravog'i tagidan o'taverishibdi. Qarasalar, hamma yoq shovqin, to'polon emish.

Suvchi Qoraxon podshohning xizmatkorlaridan:

— Nima gap o'zi? — deb so'ragan ekan, u:

— To'y bo'layotir, — deb javob beribdi. Suvchi:

— Qanday to'y? — deb so'rasa, xizmatkor:

— Qoraxon podshoh Oqbilak oyimga uylanmoqchi, — debdi.

Uchovlari voqeadan xabardor bo'lib, uni Qilich botirga aytibdilar. Keyin hammalari maslahatni bir joyga qo'yib, Qoraxon podshoh huzuriga jo'nabdilar.

Qilich botir dehqon va hunarmandlardan qo'shin to'plab, Qoraxon podshohga qarshi qattiq jang boshlabdi. Qoraxon podshoh asir tushibdi. Qilich botir bo'zchini shu mamlakatga podshoh, suvchini unga vazir qilib qo'yibdi. Oqbilak oyimni otga mindirib, temirchini boshlab o'z yurtiga ravona bo'libdi. Bir necha vaqt yo'l yurib, oxirida Oqbilak oyimning daryo bo'yidagi joyiga yetishibdi. Shu yerda temirchi ham ular bilan birga yashabdilar.



Ilon pari

O‘tgan zamonda bir podshoh yakka o‘zi ovga chiqib, ov qilib yurib, uzoqda bir narsa ko‘ribdi. Podshoh sekin borib qarasa, daraxt tagida bir pari qiz dam olib o‘tirgan emish. U qizni ko‘rgan zamon hushidan ketibdi. Birozdan so‘ng o‘ziga kelib qarasa, pari suv keltirib podshohning yuziga sepib turgan emish. Podshoh uning qo‘lidan suvni ichib, o‘zi bilan birga saroyga olib kelibdi.

Podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha bilan pari qizga uylanibdi.

Oradan bir necha vaqt o‘tgach podshohning darmoni qurib, rangi sarg‘ayib, tusi o‘zgara boshlabdi. Nihoyat podshoh vaziriga aytibdi:

— Ey vaziri a‘zam, men uylanganimdan buyon darmonim qurib, kuchim borgan sari kamayib, holsizlana boshladim. Nima qilmoq kerak? — debdi. Vazir:

— To‘g‘ri aytasiz, taqsir, rangingiz ham sarg‘ayib, tusingiz o‘zgarib, oriqlab bormoqdasiz. Bu holni bir sinchiklab tekshirishga to‘g‘ri keladi. Taqsir, xafa bo‘lmasangiz, men sizga bir sir aytaman, maylimi? — debdi. Podshoh:

— Mayli, ayt,— debdi. Vazir:

— Taqsir, tag‘in bu dashtdan olib kelgan qizingiz Ilon pari bo‘lmasin. O‘tmishda qarilar:

— Dashtda ko‘rma ilon bo‘ladi. Qirq yil odam ko‘rmasa u pariga aylanadi-da, odamga kunduzi pari bo‘lib, kechasi ilon bo‘lib ko‘rinadi, — der edilar. Xotiningiz tag‘in ilon bo‘lmasin,— deb gumon qilaman,— debdi. Podshoh:

— Unday bo‘lsa, nima qilaman? — deb so‘rabdi.

— Agarda xo‘p desangiz, avval uni aniq bilish kerak, keyin uning chorasini ko‘ramiz,— debdi vazir.

Vazir o‘ylab turib podshohga shunday yo‘l ko‘rsatibdi:

— Taqsir, bir kun kechqurun xotiningizga osh buyurasiz. Qozonga sabzi-piyozni solib qovurib, suvga ketganda, qozonga bir hovuch tuz tashlab yuboring. Oshni pishirib tayyorlab olib keladi, birga yeysiz.

So‘ngra osh juda sho‘r bo‘lib ketibdi-ku, deb ko‘p choy-suv ichadi. Siz ham ichasiz. So‘ngra qolgan ishni kechasi bilasiz.

Podshoh o‘sha kuni vazir aytgandek qilibdi.

Xotini sabzi-piyozni qovurib, suvga ketganda, bir hovuch tuzni qozonga tashlab yuboribdi. Osh sho‘r bo‘libdi. Podshoh zo‘rg‘a yebdi. Pari esa uyalganidan oshdan ancha yebdi. Sho‘r bo‘lgani uchun ko‘p choy va suv ichishibdi. Kechasi yotib uxlashibdi. Yarim kechada podshoh uyg‘onib qarasa, yonida katta, uzun ilon yotgan emish, Ilon pari cho‘llab, sekin o‘rmalab hovlidagi hovuzga boshini cho‘zib suv shimiribdi. Boshi hovuzda bo‘lsa, dumi podshohning yonida emish. Podshoh qo‘rqqanidan hech narsa deyolmay jim yota beribdi. Erta bilan podshoh qarasa, yonida pari yotgan emish. Bu sirni hech kimga aytmabdi. Faqat vaziriga aytibdi. Vazir podshohga:

— Taqsir, endi siz bir amallab bu xotiningizdan ajralmasangiz bo‘lmaydi. Buning chorasi shunday bo‘ladi. Bir temir qafasdan uy qurdirasiz. Bir amallab aldab xotiningizni shu uyga olib kirasiz, o‘zingiz chiqib keyin eshikni berkitib, tagidan o‘t yoqtirasiz, shu bilan Ilon pari kuyib o‘ladi,— debdi.

Podshoh vazirning aytganini qilibdi. Bir temir qafasdan uy soldiribdi. Uyga xotini bilan birga kiribdi. Birozdan so‘ng podshoh qafas uydan chiqib, ustidan qulf solibdi, so‘ngra tagidan o‘t qo‘ydiribdi. Bir chinqirib Ilon pari kuyib o‘libdi. Shunday qilib, podshoh uning tashvishidan qutulib qolibdi.



Shahzoda Asad

O'tgan zamonda Xorazm mamlakatida bir podshoh o'tgan ekan. Uning bitta-yu bitta o'g'li bo'lgan ekan. O'g'liga sipohigarchilikni yaxshi o'rgatish, tarbiya qilish uchun uni lashkar boshlig'i Behzodxonga topshirgan ekan. Bola yosh bo'lishiga qaramay, ko'p narsani bilib olibdi. Ayniqsa, sipohigarchilikni juda yaxshi o'rganibdi. El-u yurt uning o'q otishiga, nayza o'ynashiga qoyil qolar ekan. Podshoh bir kun qattiq kasal bo'libdi, shu kasaldan tuzalishiga ko'zi yetmabdi. Podshohning tug'ishgan bir ukasi bor ekan. Uni chaqirib shunday vasiyat qilibdi:

— Uka, jon bor yerda qazo bor. Mening kasalim og'ir ko'rinadi, o'g'lim ham yosh. Mabodo shu kasalim bilan o'lib ketsam, toji-taxt senga qoladi. Bir necha yil o'g'limga mamlakatni idora qilish tartibini va past-baland ishlarini o'rgatib, mustaqil ish olib boradigan bo'lgunicha unga taxtni berma. U dunyoning issiq-sovug'ini yaxshi bilgandan keyin mamlakatni idora qilish ishini o'g'limga topshirib, o'zing vazirlik mansabida turgin.

Podshohning ukasi aytganingizni bajo keltiraman, deb va'da beribdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay podshoh vafot etibdi. O'rniga ukasi podshoh bo'libdi. U podshoh bo'lgan kundan boshlab, xalqqa cheksiz jabr-zulm qilibdi. Podshohlik qilish, xalq ustidan hukmronlik yurgizish uning ko'ziga

yaxshi ko‘rinib ketibdi. Shahzodani qanday qilib bo‘lsa ham yo‘qotish payiga tushibdi. Shahzodani yo‘qotish ancha qiyin edi. Chunki shahzoda lashkar boshlig‘i bo‘lgan Behzodxonning qo‘lida tarbiyalanmoqda edi. Agar podshoh shahzodani o‘ldirmoqchi bo‘lsa, oldin Behzodxonga qarshi kurashish kerak edi. Behzodxon bilan kurashish ancha mushkul ish edi, butun askar uning qo‘lida bo‘lib, o‘zi haddan tashqari usta jangchi, kuchli pahlavon edi. Yana uni o‘ldira olmasligiga sabab, butun Xorazm xalqiga shahzodaning dong‘i ketgan edi. Xalq: tez kunda taxtga o‘tiradi, deb shahzodadan umidvor bo‘lib yurar edi. Mana shu sabablar podshohni juda qiynab qo‘ydi. Endi qanday qilib bo‘lsa ham oldin Behzodxonni yo‘qotishni o‘ylab-o‘ylab podshohning boshi qotadi-da, bir kun o‘zining eng yaqin vazirlaridan ikkisini bir xilvat yerga chaqirib, ichidagi dardini aytadi, ular podshohga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar.

Vazirlardan biri:

— Ertaga siz Behzodxonni chaqiring. Chin-Mochinga yuborilgan savdogarlarning molini Chin xoqoni talab olib, o‘zlarini zindonga solib qo‘yibdi, deb yolg‘ondan ko‘z yoshi qilib, g‘amgin bo‘lib o‘tiring. Behzodxonning jahli chiqib, Chin-Mochinga borib, zindonga solingan kishilarni qutqarib kelish uchun sizdan ruxsat so‘raydi. U borib kelguncha biz o‘ylagan ishni qilib olamiz, ehtimol uning o‘zi ham o‘sha yoqda yo‘q bo‘lib ketsa, undan ham qutulamiz, — debdi.

Podshohga bu maslahat yoqib tushadi. U ertasiga Behzodxonni chaqirtiradi. Behzodxon podshohning oldiga kirganda, qo‘l qovushtirib ta’zim qilibdi:

— E shahriyor, meni chaqirtirgan ekansiz, qanday xizmatingiz bor? — deydi. Podshoh piyozning suvi bilan ko‘zini artib, yonidan qog‘oz chiqarib:

— Mana bu noma Chin mamlakatidan keldi. Chin xoqoni savdogarlarimizning mollarini olib, o‘zlarini zindonga tashlab qo‘ygan emish. Bu kecha shu voqeani eshitib qattiq xafa bo‘lib yotgan edim.

Akam o‘lgandan beri hech tushimga kirmas edi. Rahmatli akam tushimga kirdi: „Qo‘y, xafa bo‘lma, Chin xoqoni bizlarni mensimagan bo‘lsa, ularning jazosini Behzodxon beradi“, deb ko‘zimdan g‘oyib bo‘ldi. Uyg‘onsam, tushim ekan. Tong otguncha uxlamadim. Shuning uchun sizni chaqirdim. Siz qanday maslahat berasiz? — dedi.

Behzodxon:

— Agar Chin xoqoni bizni mensimay savdoga borgan kishilarimizni zindonga solgan bo‘lsa, siz menga ijozat bersangiz Chin xoqonining jazosini

berib, zindondagi bechoralarni qutqarib kelaman. Yoki ajalim yetgan bo‘lsa, jangda o‘laman, — dedi.

Podshoh ichidan sevinib:

— Albatta yengib kelasiz, biz sizning duoyi joningizni qilib o‘tiramiz,— deb Behzodxonga ijozat berdi. Behzodxon lashkarlarini tuzatib, Chin-Mochinga yurish qildi. Podshoh bir qancha joygacha ularni kuzatib qo‘ydi. Shahzoda Asad ham bular bilan birga edi. Podshoh Asadga:

— Endi qaytaylik, — dedi.

— Men ustozim Behzodxon bilan birga boraman, — dedi unamay shahzoda.

Podshoh:

— Hali sen yoshsan, urushdagi qiyinchiliklarni bilmaysan,— deb yalinsa ham shahzoda unamadi. Keyin podshoh zorlanib:

— Ko‘zimizning oq-u qorasi sensan. Sendan ajralib qolishni xohlamayman, meni judolik o‘tiga solib ketma,— deb yolvordi.

Podshohga rahmi kelgan Behzodxon shahzodaga bir qancha nasihat qilib, uni qolishga ko‘ndirdi. Behzodxonni jo‘natgandan keyin yaramas niyatini amalga oshirish uchun podshohga katta yo‘l ochildi. Bir kun podshoh bir xilvatda bir-ikki kishi bilan o‘tirib shahzodaga behush qiladigan dori qo‘shilgan may berdi, hushidan ketkazib oyoq-qo‘llarini bog‘lab, uni maxfiy zindonga tashlatdi.

Shahzoda ikki oy zindonda yotdi. Ikki oydan keyin zindondan olib chiqib, bir aravaga yotqizib, shahzodani ko‘chalarda aylantirib yurdi. Chunki „Shahzoda jinni bo‘lib qolgan, kimni ko‘rsa shunga hamla qiladi, o‘zini o‘zi tishlaydi, shuning uchun qo‘l-oyoqlariga kishan urib qo‘yilgan“ — deb shaharda ovoza tarqalgan edi. Mana endi, podshoh shaharning har joy-har joyida to‘xtab:

— Ey xaloyiq, akamning shunday o‘g‘li aqldan ozib, devona bo‘lib qoldi. Bizning merosxo‘rimiz, ishongan tog‘imiz shu edi. Qancha dori-darmonlar qildik, foyda bermadi. Mana endi bir haftadan beri o‘likday hushsiz yotibdi. Ko‘pning duosi qabul bo‘ladi, deydilar. Sizlar duo qilinglar, shoyad dardiga shifo bersa,— deb yolg‘ondan ko‘z yoshi qilib yuradi. Xalq aravaning ustida o‘lik singari za’farondek sarg‘ayib yotgan shahzodani ko‘rib, ko‘zlariga yosh olib, „Xudo dardiga shifo bersin“ — deb duo qiladi.

Podshoh kechqurun o‘rdasiga qaytadi. U hiyla bilan xalqdan ham xotirjam bo‘lib oladi.

Endi shu kecha shahzodani o'ldirish kerak. Agar Behzodxon Chin-Mochindan tirik kelsa, shahzodaning o'limiga xalqning o'zi guvohlik beradi.

Shahzodani zindonda saqlab turuvchi zindonbon podshohning bu kirdikorlari va hiyla-nayranglaridan xabardor edi. U o'ylab turib: „Necha yildan beri qul bo'lib, yurtma-yurt sotilib yuribman. Yoshim bo'lsa yetmishga kirdi. Shunday qiynalib yurguncha o'lim ming marta afzal. Shu bola-ku gunohsiz. Bu kecha podshoh uni o'ldiradi. Bir otga bolani mingashtirib qochsam, uni o'limdan qutqarsam, agar qo'lga tushsam meni ham o'ldirishi muqarrar, o'lim-ku meni har daqiqa kutib turibdi. Shu bolaga ham bir yaxshilik qilay", dedi. Zindonbon podshohning egarlangan yaxshi otini olib chiqdi, shahzodani otga mindirdi, otga o'zi mingashib „hayyo-hayt" deb jo'nab ketdi.

Yarim kechada podshoh kirib qarasa, zindonbon ham, shahzoda ham yo'q. Qidirish uchun har tarafga maxfiy odamlar yubordi. Odamlarning hech qaysisi ularni topolmadi. Shahzoda bilan qulning mingashgan oti juda uchqur edi. Bular tong otgan paytda bir tog'ga yetdilar. U yer ko'kalamzor, suvlar oqqan, bulbullar sayragan, xushhavo bir joy edi. Haligi bechora qul shahzodani shu yerda otdan tushiradi. Qirg'ovul, kaklik, har xil qushlarni ov qiladi, shahzodaga oz-oz kabob qilib berib, tez kunda uni tuzatadi. Shahzoda endi avvalgi asliga qaytadi. Ular yana yo'lga tushadilar, yo'l-yo'lakay ov qilib, bir necha kun deganda Misr mamlakatiga yetib boradilar. Haligi qulning o'zi asli misrlik edi. Undan tashqari shahzodaning Misrda bir opasi bor edi. Shahzodaning opasi Misrdagi bir savdogarga uzatilgan edi. Qul o'z qarindoshlari bilan topishgandan keyin shahzodani bir necha kun mehmon qilib, keyin uni opasinikiga olib boradi. Opasi shahzodani juda yaxshi kutib oladi. U boshidan kechirgan voqealarni birma-bir opasiga aytib beradi. Opasi ukasining ko'rgan qiyinchiliklarini eshitib yig'laydi, uni o'limdan qutqargan qulga minnatdorchilik bildirib, ko'p in'omlar berib jo'natadi.

Shahzoda borgan paytda pochchasi savdoga chiqib ketgan ekan. Savdogarlar har yili bir marta erta ko'klam savdoga chiqib, kech kuz qaytib kelar ekanlar. Kunlarning birida opasi shahzodaga:

— Uka, sening bir lattafurush qo'lida xizmatkor bo'lib yurishingni xohlamayman. Hozir pochchang savdoda, u kelgandan keyin uni qil, buni qil desa men ko'tara olmayman. Shuning uchun sen bir tuzukroq ish topib, o'zingni xalqqa ko'rsatsang yaxshi bo'lar edi, — dedi.

Shahzoda ichida „Halitdan opamga malol kelib qolganga o'xshayman", deb o'yladi va:

— Xo'sh, qanday ish qilsam bo'ladi, opa? — deb so'radi.

Opasi:

— Yaqinda karvonlar Shomga safar qiladi. Men senga bir qancha dastmoya bersam, sen ham ular bilan qo'shilib, o'sha mamlakatdan mol keltirib sotsang, shunday qilib bir ish bilan shug'ullansang, tez kunda dunyoning achchiq-chuchugini totib, o'z yo'lingni topib olar eding, — dedi.

— Xo'p bo'lmasa, mayli, opa, borganim bo'lsin, — dedi shahzoda.

Opasi shahzodaga yo'l jabdug'ini rostlab, qo'liga sakson tilla pul beradi va saroyga borib, ukasini savdogarlar bilan tanishtirib, birga safarga olib ketishlarini so'raydi.

Shahzoda opasi bilan xayrlashib yo'lga chiqqandan keyin ot ustida o'ylaydi: „Endi bu sakson tillani olib savdogarga qo'shilib, u shahardan bu shaharga latta-putta, temir-tersak tashib yuramizmi deyman. Qo'y-ey, men savdogarlarga qo'shilmayman. Shahar darvozasidan chiqqandan keyin otning boshini o'z ixtiyoriga qo'yib, biyobon sari yo'l tortaman. Yo'lda bironta o'g'ri, muttaham qaroqchilardan uchrab qolguday bo'lsa jang qilib, ularni o'ldiraman va xalqni kulfatlardan qutultiraman. Bo'lmasa mana shu ot bilan sakson tillani boy beraman. O'zim bo'lsa o'lim kishisi edim", — dedi-da, shahar darvozasidan chiqib, haligi uchqur otga bir-ikki qamchi urib, o'z ixtiyoriga qo'ydi.

Uchqur ot shamoldek yelib, qirma-qir, tog'ma-tog' oshib ketaverdi. Yettinchi kuni yarim kechada bir shaharga yetdi. Shahar darvozasi berk ekan. Shuning uchun shu kecha shahardan tashqarida yotishga to'g'ri keldi.

Yarim kecha. Hamma yoq jimjit. Shahzoda Asadning hech uyqusi kelmaydi. Hayron bo'lib otning yonida boshidan o'tgan sarguzashtlarini o'ylab o'tirgan edi, qal'a devorining ustida bir odam sharpasi paydo bo'ldi. Devorning balandligidan haligi sharpa mushukday bo'lib ko'rinar edi. Borgan sari Asadning o'tirgan joyiga yaqinlashib keldi-da, bir narsani tashladi. Tashlangan narsa shalop etib suvga tushdi. O'sha paytda mamlakatni yovdan saqlash uchun shaharning tashqarisida xandoq qazib qo'yilar edi. Shahzoda o'ylab turib: „Bu bevaqt yurgan odam, albatta, to'g'ri odam bo'lmasa kerak. Bu odamning sheriklari ham bordir. Ular podshohning qasridan yoki biror boyning uyidan qimmatli narsalarni o'g'irlagan bo'lsalar kerak. Ular, albatta, o'g'irlagan molning hammasini shu yerga keltiradilar,

so‘ng men chiqaman-da, ular bilan urishib, qo‘llaridagi mollarini tortib olaman va o‘zlarini shu yerda mahkam ushlab turaman. Tong otib darvoza ochilgach, ularni o‘g‘irlagan narsalari bilan darvozabonga topshiraman“, deb o‘yladi va kutib o‘tirdi. Haligi o‘g‘ri qaytib kelmadi. Borgan sari tong ota boshladi. U yoq-bu yoqdan azon tovushi ham eshitildi, haligidan darak yo‘q. „Obbo mening toleyim shu yerda ham yoriy bermadi. Ular qo‘lga tushib qolganga o‘xshaydi, bo‘lmasa kelgan bo‘lar edilar. Ha mayli, endi bizga nasib etgani shu ekan-da“, deb o‘rnidan turib sandiqning tepasiga bordi. Sandiq suvda suzib yurgan ekan. Uni olish uchun qiynaldi. Sandiqni suvdan olib qarasa, u qulflangan ekan. Sandiqni mashaqqat bilan ochdi. Qarasa, kutilmagan bir hodisa: sandiqda bir qiz qip-qizil qonga belanib yotibdi. Chap qo‘li aralash pichoq yegan. Qon ko‘p oqqanidan qiz o‘zini bilmay, hushsiz yotibdi. Qizning chiroyini ko‘rib shahzoda hayron bo‘lib turgandi, qizning dimog‘iga shamol tegib, hushiga keldi va ko‘zini ochmasdan, mayin ovoz bilan ingrab:

— E zolim, meni o‘ldiradigan bo‘lsang o‘ldirmaysanmi, — dedi.

Shahzoda Asad:

— Sizni o‘ldiradigan qo‘llarim sinsin, qaysi zolim sizga rahmsizlik bilan xanjar urdi? — deb yig‘lamsirab gapirdi.

Qiz ko‘zini ochib tepasida bir begona yigitning turganini ko‘rdi-da, unga yolvorib shunday dedi:

— Yaxshi yigit, mana shu yerdan go‘r qazib, meni ko‘ming, bo‘ynimdagi marvaridlarni oling, sizga halol bo‘lsin. Lekin bu sirni hech kimga aytmang, — dedi-da, hushidan ketdi. Shahzoda:

— He, mening ustozim tirik odamni ko‘ming deb o‘rgatgan emas, — dedi. Sandiqni qaytadan qulfladi, otga o‘ngarib shaharga tomon yo‘l oldi. Tong otib shahar darvozasi ham ochilgan edi. Asad to‘ppa-to‘g‘ri shaharga kirib savdogarlar tushadigan saroyga bordi. Saroybon unga hujra tayin qildi. Hujraga kirib qizni sandiqdan olib, palos ustiga yotqizdi.

Qizning yaralangan qo‘lini vaqtincha bo‘lsa ham shohi ro‘mol bilan bo‘g‘ib qo‘ydi. O‘zi hujraning eshigini qulflab, tabib qidirib ketdi. Asad shahar ko‘chalarida yurib, undan-bundan surishtirib eng mashhur tabiblardan birini topdi. Tabib do‘konda o‘tirgan ekan. Asad tabibga salom berib:

— Otajon, bizning bir bemorimiz bor edi. Agar malol kelmasa, borib ko‘rsangiz, — dedi.

Chol:

— Men piyoda yurolmayman, agar ot keltirsangiz borishim mumkin, — dedi.

Shahzoda saroyga qaytib o‘z otini egarlab bordi, tabibni otga mindirib qizning qoshiga olib keldi. Chol hujraga kirib, palos ustida hushsiz yotgan qizni ko‘rishi bilanoq bolaning yuziga bir tarsaki urdi. Shahzoda: „Chol qizni tanidimi“ deb xavflanib shoshib qoldi. Cholning qo‘llarini o‘pib:

— Otajon, nimaga urdingiz?— deb so‘radi.

— Qanday zolim, shafqatsiz yigitsan, bu go‘zal mahbubani shunday ahvolga solasanmi? Senda insof degan narsa bormi? — dedi chol.

Shahzoda cholning qizga achinganligidan uni urganini fahmlab, shoshib-pishib yolg‘on-yashiqni gapirib ketdi.

— Otajon, biz savdogarlar ahlidanmiz. Ota-onam, singlim, hammamiz birga safar qilgan edik. Bir tog‘ning bag‘riga kelganimizda qaroqchilarga duch keldik. Ota-onam ularning qo‘lida o‘ldi. Men bir joyga yashirinib qolgan edim, chiqib qarasam singlim qonga belanib yotibdi. Joni bor ekan, bir sandiqqa solib, otga o‘ngarib kelaverdim.

Chol qaroqchilarni qarg‘adi va:

— Mayli endi, o‘g‘lim, sakson tilla berasan, singlingni davolayman. Shifo topib, tuzalib ketadi. Ammo yarasi og‘ir. Buning dorisiga ham anchagina pul kerak, — dedi.

Shahzoda ichida, sakson bir tilla desang ham ish chatoq bo‘lar edi,— deb opasi bergan sakson tillani cholning qo‘liga tutqazdi. Chol pulni ko‘rib:

— Singlingni bir oyga qoldirmay tuzatib beraman, — dedi. O‘sha kuni dori-darmon qo‘yib, yarani boylab ketdi.

Shunday qilib, chol har kuni kelib turdi. Oradan besh-olti kun o‘tgandan keyin qiz ancha sog‘ayib qoldi. O‘rnidan turib, u yoq-bu yoqqa yurib, chol kelganda gaplashib o‘tiradigan bo‘ldi. Shahzoda qizni shunday sevib qoldiki, qiz gap so‘rasa, yerga qarab javob berardi. Agar qiz qaramay turgan bo‘lsa, undan hech ko‘z uzolmas edi. Qiz nima desa, „Xo‘p“ der edi. Kunlardan bir kun Asad qizga:

— Sizni kim yarador qilgan edi? — deb so‘ragan edi qiz:

— Hali aytishning vaqti emas,— deb javob berdi. Shu bilan yana qaytib so‘ramadi. Oradan yigirma yetti kun o‘tdi, yigirma sakkizinchi kuni tabib kelib qizning qo‘lini yechib qo‘ydi.

— Endi tuzuk bo‘lding, qizim, har qanday ovqatdan ham parhez qilmay yeyaver, — dedi. Shahzoda sakson tillani tabibga bergandan keyin yonida boshqa puli bo‘lmaganligi uchun otini arzon-garov sotgan edi.

O‘zlariga, so‘ngra cholning har kun kelishiga osh-suv qilib, saroy ijarasiga berib, otning pulini tugatgan edi.

Qiz shahzodada pul tugaganligini sezdi. O‘z o‘ylaganining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini bilish uchun shahzodaga:

— Shu paytda barra kabob bo‘lsa, yeyar edik, — dedi.

Bu so‘zni eshitib, shahzodani ter bosdi. Xuddi tomning tagida qolgan odamday qiynaldi. Qiz kulimsirab:

— Rahmat, bor-yo‘g‘ingizni menga sarf qildingiz, minnatdorman. Men shunchaki, hazil tariqasida gapirdim, ko‘nglingizga hech qanday tashvish tushmasin. Menga bir qog‘oz bilan qalam keltiring, — dedi.

Shahzoda qog‘oz bilan qalam hozirladi. Qiz qog‘ozga nimadir yozdi va buklab, ochmaslik sharti bilan shahzodaning qo‘liga uzatib:

— Shaharning falon joyida bir do‘kon bor, unda chol o‘tiradi. Cholning qo‘liga shu xatni berasiz, u qo‘lingizga biror narsa beradi, olib keling, — dedi.

Shahzoda hujradan chiqib, qiz tayin qilgan rastaga bordi. Borsa bir do‘konda chol o‘tiribdi. Soqollarining tolasiga marvarid taqqan, ikki yonboshida ikki yostiq, bir xizmatkor uni yelpib o‘tiribdi, Shahzoda salom berdi. Chol salomiga alik ham olmasdan:

— Menda qanday yumushing bor? — deb so‘radi.

Shahzoda unga xatni uzatdi, chol yonboshlagan holatda xatni ochib ko‘rib, o‘rnidan sapchib turdi. Shahzodaning kelgan yo‘liga qarab uch marta ta’zim qilib, keyin u bilan so‘rashdi. Darrov do‘konini berkitib, shahzodani ergashtirib uyiga jo‘nadi. Uni eshikda qoldirib, uyiga kirib ketdi. Birozdan keyin bir kishiga tog‘orada o‘rog‘lik bir narsa ko‘tartirib chiqib:

— Siz koyimang, boradigan joyingizgacha tog‘orani mana bu g‘ulom eltib beradi, — dedi.

Shahzoda g‘ulomni bir qancha joygacha ergashtirib keldi. Keyin tog‘orani uning qo‘lidan olib:

— Siz qaytishingiz mumkin. O‘zim olib ketaman, — dedi.

Asad tog‘orani ko‘tarib saroyga keldi, hujraning eshigini taqillatdi, qiz eshikni ochdi.

— Xo‘sh, qani ochib ko‘ring-chi, nima bergan ekan, — dedi. Shahzoda tog‘orani ochdi. Qarasa, tog‘ora to‘la oltin. Qiz:

— Nazari pastlik qilibdi, — dedi.

Shahzoda hayratlanib, „muhri yo‘q bir kichkina qog‘ozga shuncha oltin bersa ham „nazari pastlik qilibdi“, deydi. Bu qanday qiz o‘zi,— deb o‘yladi.

Qiz shahzodaga:

— Mana bu puldan oling. O‘zingizga qimmatbaho kiyimlar sotib oling, — dedi.

Asad hammomga tushib, yangi kiyimlar kiyib, hujraga keldi. Qiz eshikni ochdi. Shahzodani ko‘rib beixtiyor ta’zim qildi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, qiz shahzodaning qo‘liga bir qog‘oz uzatdi. Qarasa, qog‘ozga bir hovlining surati tortilgan.

— Mana shu hovli shu shaharda bor, — dedi qiz. — Hovlining egasi o‘taketgan boy, hovlini sotmayman deganiga ham qo‘ymaysiz. Agar hovlining bahosi bir tilla bo‘lsa, siz yuz tilla bersangiz ham sotib oling, keyin shu hovliga ko‘chib boramiz.

Shahzoda hovlini izlab topdi, o‘rtaga kishi qo‘ydi, ko‘p pul berib, hovlini sotib oldi. So‘ngra hovliga qiz bilan ko‘chib bordi. Qiz hovliga borib olgandan keyin yigitga:

— Har bir kishi do‘st orttirishi lozim. Shu shaharning bazzozlik rastasida bir do‘kondor yigit bor, o‘zi ko‘p aqlli, hushyor yigit; chiroyda sizga o‘xshaydi. Shu yigit bilan do‘st bo‘lib oling, men sizga do‘st bo‘lish yo‘lini ham o‘rgataman. Uning do‘konida qimmatbaho kiyimliklar bo‘ladi. Siz eng yaxshi kiyimliklar so‘raysiz. Bir tillalik buyumni o‘n tilla desa ham savdolashmay sotib olasiz. U boy ekanligingizni ko‘rib siz bilan do‘st bo‘ladi, — dedi.

Shahzoda ichidan rashk qilsa ham noiloj „Xo‘p“ dedi. Qizning tayin qilgan joyiga bordi. Qarasa, bir do‘konda qizning aytganidek juda ham xushsurat bir yigit o‘tiribdi. Do‘koni har xil qimmatbaho kiyimliklar bilan to‘lgan. Shahzoda yigitning qarshisida to‘xtab, u bilan so‘rashdi. Asad qimmatbaho mollardan tanlab olib, yigit nima desa, aytganini sanab berdi va u bilan xayrlashib jo‘nadi. Keltirgan mollari qizga ma’qul bo‘ldi.

Oradan bir necha kun o‘tgach, qiz yana yangi kiyimliklar keltirishni buyurdi. Shahzoda yana o‘sha do‘konga bordi. Bu safar do‘kondor uni juda hurmat bilan kutib oldi. Asadning xohlagan mollarini berib, uning qaytishida: „Musofirga o‘xshaysiz, bugun, agar imkon bo‘lsa, biznikiga kelsangiz, suhbatlashsak, juda minnatdor bo‘lar edim“, dedi.

Shahzoda yigitga va’da berib qaytdi va qizga bo‘lgan voqealarni aytib berdi. Qiz:

— Mayli, boring, qaytishingizda o‘sha yigitni ham uyga taklif qiling, — dedi.

Shahzoda mehmondorchilikka bordi. O‘tirish bir kecha-yu bir kunduz davom etdi. Asad ziyofatdan qaytishda uy egasini ham mehmonga aytdi. Uyga kelib darvozani taqillatdi. Qiz chiqib eshikni ochdi. Qizga bo‘lgan voqealarni aytib berdi. Mehmon chaqirilgan kun juma edi. Qiz:

— Ertalab do‘stingizning do‘koniga boring, u bilan gaplashib o‘tirib, namozjumadan keyin uni uyga o‘zingiz bilan birga boshlab olib keling, — dedi. Shahzoda qizning aytganini qildi. Ammo u qilayotgan ishlarining tagida qanday sir borligini bilmas edi. Asad qizni ranjitmaslik uchun, uning buyrug‘ini bajarishga tayyor edi. Shuning uchun istar-istamas yigitning do‘koniga bordi. Uch-to‘rt soat o‘tgandan so‘ng yigit bilan uyga qaytdi. Asadning olgan hovlisi uzun bir ko‘chaning boshida bo‘lib, darvozasi uzoqdan ko‘rinib turardi. Qarasa, darvozaning ikki yonida ikki yasovul turibdi. Shahzoda: „Vo ajabo, bu qanday sir“, deb hayron bo‘ldi. Mehmon yigit esa ichida „bu yigit o‘taketgan boy yoki bo‘lmasa shahzoda, deb o‘ylaganim to‘g‘ri chiqdi“, deb shunday yigit bilan do‘stlashganligi uchun o‘z-o‘zidan xursand bo‘ldi. Shahzoda:

„O‘zim o‘lim kishisi edim, endi mehmonning oldida orqaga qaytish yaxshi emas. Mayli, endi bo‘lar ish bo‘ldi, boshimga nima tushsa, ko‘raman“, — deb dadillik bilan yura berdi. Eshikning oldiga kelgach haligi ikki yasovul qilichlarini sug‘urib tiz cho‘kib ta’zim qildi va so‘ngra ichkariga taklif qildi. Mehmon bilan shahzoda ichkariga kirdi. Qarasalar, yuradigan yo‘llariga ham poyandoz solingan, hovlida gullar ochilgan, bulbullar sayragan, har xil qushlar kukulashib yuribdi. Suvning bo‘yida bir shohsupa, shohsupaning ustida paloslar solig‘lik, dasturxonlar bezatilgan. Dasturxonda har xil ovqat, turli-tuman mevalar, ichimliklar — hammasi muhayyo. Hovlida bir qancha qul-cho‘rilar xizmat qilib yuribdi. Asad mehmonni haligi supa ustiga o‘tqazdi. O‘zi qizni qidirib, uylarga birma-bir kirdi. U uyga kirsa yo‘q, bu uyga kirsa yo‘q. Oxirida bir uyga kirsa, qiz shahzodani ko‘rib:

— Uyatsiz, mehmonni yolg‘iz tashlab, o‘zingiz bu yoqda nima qilib yuribsiz? — dedi.

Shahzoda hayajonlanib:

— Men juda hayron bo‘lib qoldim. Uydan chiqib ketganimda bunday narsalar yo‘q edi. Bular qayoqdan paydo bo‘lib qoldi? — dedi.

— Bularning sababini so‘ramang, qul-cho‘rilarga xizmatni buyura-vering, mehmonning ko‘ngli nima bilan xursand bo‘lsa, shuni qiling. Buning sababini keyin aytaman, — dedi qiz.

Shahzoda uydan chiqar oldida qiz:

— Darvoqe, tunov kun mehmonga borganingizda yigitning xotini yaxshi ashula aytar ekan, degan edingiz. Yigit o‘z sevgani bilan birga o‘tirsa juda xursand bo‘ladi. Shuning uchun uni olib keltirishni so‘rasangiz yo‘q demas, — dedi.

Yigit uydan chiqib mehmon yonida biroz o'tirgandan keyin unga:

— Shu o'tirishda mahbubangiz ham bo'lsa yaxshi bo'lar edi, — dedi.

Mehmon bu so'zni eshitgach, uyga kishi yuborib, xotinini ham keltirdi.

O'tirish yaxshi bo'ldi. Sozandalar soz chaldi, kanizlar o'ynadi, kelgan mehmon ham xushovoz edi. Uning xotini esa, shunday xushovoz ediki, qo'liga dutor olib, eriga jo'r bo'lib ashula aytganda, har qanday tosh-yurakni ham eritib yuborar edi.

O'tirishdagilarning hammasi kayf-u safo qilib, uchib qoldi. Shahzoda ertasi kun choshtgoh vaqtida quyoshning haroratidan tomog'i qaqrab ko'zini ochdi. Mayning ta'siri bilan kallalari xumday shishgan edi. Tomoqlarini ho'llab olish uchun suv axtara boshladi. Gandiraklab ariq labiga bordi. Yuz-qo'lini yuvib, bir-ikki ho'plam suv ichdi. U tomog'ini ho'llab olgandan keyin atrofiga qarasa, qaysi ko'zi bilan ko'rsin hovli jimjit. Na kelgan mehmonlar bor, na kechagi qul-u cho'ri va na sevgan qizi — hech qaysisi ko'rinmaydi. Esini yig'ib olib, shoshib-pishib, uydan-uyga o'tib ularni axtara boshladi. Juda hayron bo'ldi: „Endi ishimiz qanday bo'ldi?" deb sukutga ketdi. Lekin birdan qorong'u bosgan ko'zlari uyning to'rida taxlog'lik turgan bir gilamga tushdi. „Ey, nomard qiz, uyning vasiqasi yo'qligini bilib, mana shu gilamni sotib, yo'l kira qilib ketsin, degan bo'lsa kerak, u sharmandaning shu qilganiga mana shu gilamni kuydirib, hovliga o't qo'yib ketaman" deb o'yladi. Borib gilamni tortsa, gilam og'ir, jahli bilan selpib yuborgan edi, gilamning orasidan ikki tana tushdi. Boshi yo'q. Diqqat bilan qarasa, uyga chaqirib keltirgan o'sha ikki navqiron mehmonning jasadi qip-qizil qonga belanib yotibdi. Vaqtsiz o'lgan bu ikki navqironni bu holatda ko'rib, o'zini tuta olmadi.

Shahzoda yurtidan ajralib, bevatan bo'lib yurganligiga, sevgan qizidan ajralganiga va ikki navqironning bemahal o'lganligiga yurakdan ezilib, yig'lab turgan edi, darvoza tomondan ot dupuri eshitildi, birdan darvoza sharaqa-shuruq qilib qoldi. U: „Bu yerda odam o'ldirilganligi podshohga ma'lum qilingan bo'lsa, bu otliqlar meni tutgani kelayotgan kishilar bo'lsa kerak. Men endi, shunday ish ko'rsatayki, o'z zamonasida bu ishni Rustam-Doston ham qilmagan bo'lsin" dedi-da, sapchib o'rnidan turdi. U otliq eshikdan kirishi bilanoq yoqasidan xippa bo'g'ib, ko'tarib yerga urdi. Yasovul yerda yotgan holda big'illab: „Biroz to'xta", deb ishora qildi.

— Nima deysan? — dedi uning tomog'ini bo'shatib Asad.

— Bir qizni tarbiya qilgan edingmi? — dedi yasovul.

— Ha, tarbiya qilgan edim, — dedi.

— Meni o'sha qiz seni chaqirib kelish uchun yubordi, — dedi. Shahzoda darrov uning ko'ksidan tushib, uzr aytdi. Yasovul:

— Qo'y-e, juda mazang yo'q odam ekansan, odamni oz bo'lmasa o'ldirib qo'yay deding, — dedi.

Ikkisi podshoh o'rdasiga keldi. Darvoza oldida turgan ikki yasovul bir-birlariga qilichni urishtirib olib kirishga ijozat bergach, shahzoda ichkariga kirdi. Shahzoda qarasa, ust-ustiga solingan uch qavat imorat. Hovliga kirishi bilanoq kechagi xizmat qilib yurgan qul-cho'rilarni, o'z uyiga oro bergan butun jihozlarni ko'rdi. Yana gullar ochilgan, bulbullar sayragan. Imoratning birinchi qavati juda ziynatlangan, ajoyib buyumlar bilan bezatilgan, ikkinchi qavati undan ham ziynatliroq, uchinchi qavati esa ulardan o'ta go'zal va ziynatli xona edi. Shahzoda atrofga qarab, qurollangan sakkiz yuz yigitning kursida o'tirganini ko'rdi. Eng yuqorida bir taxt ustida niqoblangan qiz o'tiribdi. Asad qizga ta'zim qildi. Qiz Asadni hurmat qilib, o'rnidan turgan edi, yigitlar ham baravar o'rinlaridan turib Asadga ta'zim qildilar. Qiz shahzodani izzat-ikrom bilan yuqoriga o'tqazdi, uch kungacha ziyofat berdi.

Uchinchi kuni:

— Yaxshi yigit, — dedi malika.

— Labbay,— deb o'rnidan turdi shahzoda. Malika:

— Musofirni siylamoq uch kun, to'rtinchi kunga o'tib ketdi. Nimaga ketaman demaysiz, — dedi.

— E malikam, meni qullaringiz qatorida ko'rsangiz, men shu yerda qolib ishlasam, ketish mutlaqo xayolimda yo'q, — dedi.

— Mening qulim ko'p, hech qanday qulga ehtiyojim yo'q, mehri-bonchiligingiz uchun rahmat. Istasangiz jo'nay berasiz, — dedi malika va xizmatkorlariga qarab:

— Bu kishining xizmat haqini chiqarib bering, — dedi.

Xizmatkorlar bir xaltada tilla chiqarib berishdi. Qiz:

— Mana bu xizmat haqingiz, endi, istasangiz jo'nay berasiz, — dedi.

Asad:

— Men bu dargohdan chiqib qayerga ham boraman. Nima bo'lsa ham meni shu dargohdan yiroq qilmang,— deb yalindi.

Malika:

— Gapni ko'p uzaytirmang, mana bu oltinlarni olib, tezda yurtingizga jo'nang. Bu oltin sizning yetti pushtingizga yetadi. Mabodo o'g'riga oldirib qo'ysangiz, menga xat yozing, men sizga yana oltin yuboraman, xo'p, endi xayr, — dedi. Shahzoda tag'in:

— Malikam,— deb so‘z boshlagan edi, malika g‘azablanib, „jallod“ deb qichqirdi. Ikki jallod paydo bo‘ldi. Malika:

— Olib chiq buni, haydab yubor, — dedi.

Ikki jallod shahzodaning ikki qo‘lidan ushlab tashqariga qarab yetakladi. Ketidan xaltadagi oltinni ko‘tarib bir yasovul ham ergashdi. Jallodlar shahzodani arkning birinchi qavatidan olib tushib kelayotganida shahzoda ichida: „Bu nima degan xo‘rlik. Men bu yerdan chiqib, endi qayoqqa boraman“, deb o‘yladi. Har ikki jallodni urib, irg‘itib yubordi. Buni ko‘rib turgan bir yasovul shoshib-pishib malikaga xabar berdi:

— Jallodning har ikkisini irg‘itib yubordi. Birining qo‘li uzildi, birining bo‘yni, — dedi. U so‘zni tugatar-tugatmas shahzoda qaytib kirdi:

— Malikam,— deb so‘z boshlagan edi, qiz sapchib o‘rnidan turib qilich sug‘urdi, o‘tirgan sakkiz yuz yigit ham o‘rnidan turib, baravar qilich sug‘urdi.

— Jallod,— deb qichqirdi malika.

Haybatli bir jallod paydo bo‘ldi.

— Olib chiq buni, olib chiqib tashla! — dedi. Jallod kelib shahzodaning yoqasidan ushlamoqchi bo‘ldi, shahzoda undan oldinroq jallodning yoqasidan bo‘g‘ib, qattiq zarb bilan yerga urdi.

— Oyoqlaringni uzat, — dedi.

Jallod qo‘rqqanidan oyoqlarini uzatdi.

— Qo‘llaringni yenging ichiga ol, qimir etmay yotasan, agar qimirlasang tepaman,— deb dahshat qildi. Jallod shahzodaning buyrug‘ini kutib, qimirlamay yotdi. G‘azablangan shahzoda:

— Mana, jallodingizning ahvoli, malikam, — dedi. Siz jallodga shunday buyruq qilib, jallod, kel, odobsiz yigitni olib chiqib boshini kes! deng. Shu shart bilanki, meni o‘ldirib sizning yuradigan yo‘lingizga ko‘msinlar. Siz mening qabrimni bosib o‘tganingizda ruhim biroz shodlanib tursa bas, — dedi. — Agar siz jallodga shunday buyurmas ekansiz, mana shu o‘tirgan sakkiz yuz azamat yigitingizga ham bas kelishim turgan gap, — dedi.

Malika kulimsirab:

— Meni shunaqa yaxshi ko‘rasizmi? — dedi.

Shahzoda:

— Albatta, har qanday buyrug‘ingiz bo‘lsa ham bajarishga qodirman. Agar siz yer yuzidagi tog‘larni hovonchaga solib yanchib, elakdan o‘tkazgin, yuragingdan qon olib yerni qizartirgin deb buyursangiz ham bajaraman, buyrug‘ingizdan aslo bosh tortmayman, — dedi.



«Oltin baliq» ertagiga ishlangan rasm

— Unday bo'lsa, chiqib keting, — dedi malika. Shahzoda taajjublandi. Malika:

— Nima qilib o'ylanib qoldingiz. Yigit o'z so'ziga ega bo'lishi kerak. Men buyuraman, marhamat qilib mana bu haqingizni olib, bu yerdan chiqib keting, — dedi.

Shu fursatda eshikdan bir elchi kirib keldi. Malikaning qo'liga bir noma berdi. Malika nomani o'qib juda xursand bo'lib ketdi: yigitlarga qarab:

— Otam sayohatga ketgan edilar, qaytibdilar. Hammangiz otamning istiqboliga chiqingiz, — dedi va shahzodaga: — Xo'p, endi sizga ham xayr, — dedi.

Shahzoda:

— Xo'p mayli, men ketaman, ammo menga bu oltiningizning hojati yo'q. Menga bir durustroq ot bering, unda mukammal qilich-qalqon, yoylar bo'lsin. Biyobonlarda yurib sizning firoqingizda ov-ovlab umr o'tkazsam, mening juda katta davlatim shu bo'ladi, — dedi.

Malika Asadning aytganlarini tayyor qildirdi. Shahzoda otga minib, malika bilan xayrlashdi. Malikaning odamlari ketgan tomonga yo'l soldi. U shahar darvozasidan chiqib qarasa, podshoh bir qancha ming askar bilan kelayotir. Asad to'g'ri podshohning oldiga borib, unga salom berib, qo'lini o'pdi:

— Taqsir, men Xorazm shahzodasi bo'laman. Qizingizga uylanish uchun Xorazmdan kelgan edim. Siz sayohatga ketgan ekansiz. Albatta, yo'q demasligingizga ishonaman. Podshoh g'azablanib:

— Bu nima beodoblik, sen Xorazm shahzodasi ekansan, undan katta bo'lganingda ham qizimni sendek beodobga bermayman, — dedi.

— Bermasangiz urush maydonini tayin qiling, baribir zo'rlik bilan bo'lsa ham qizingizni olaman, — dedi shahzoda.

Podshoh zaharxanda kulib:

— Basharangga qarasa tuppa-tuzuk odamga o'xshaysan. Ayt-chi, seni qay vaqtda jin chalgan. Na lashkaring bor, na tayining. Men bilan qanday qilib jang qilasan? — dedi va g'azablanib qilichini qinidan sug'urdi.

Shahzoda ham qilich ko'tardi. Ikkisi qilichlashishdi, podshoh yarador bo'ldi. Podshohning askari Asadning ustiga yopirildi. Asad ularga qarshi keskin urushga kirdi. Kecha-yu kunduz jang qildi. Otiga o'q tegib yiqilsa, boshqa otni olib mindi. Podshohning ko'p askarlarini qirib tashladi.

Malika ravoqqa chiqib darvozani ochib tomosha qilib o'tirgan ekan, Asad yaralanib qolgan otni yugurtirib arkning tagiga kelib:

— Ey malikayi bevafo, tomog'im qaqrab, o'larga yetdim. Sening qo'lingdan bir qultum suv ichib, o'lsam armonim yo'q edi, — dedi.

Malika buning mardligini ko'rib, qilgan ishlariga pushaymon yeb o'tirgan edi. Birdan shoshib orqasiga qayrilmoqchi bo'lganda, derazadan tushib ketdi. Shahzoda qarasa, malika ravoqdan yiqilib, pastga tushib kelayotibdi. Yerga tushib mayib bo'lmasin, deb epchillik bilan malikani ushlab oldi. Malikaning zarbiga o'zi ham yiqilayozdi. Darrov malikani otga mingashtirib, shoshib jo'nab qoldi. Podshoh yarador bo'lib qolgani uchun ularni hech kim quvlamadi. Bitta-yarimta quvlaganlarni ham shahzoda o'ldirib keta berdi. Bir ko'kalamzorga borib shahzoda va malika otdan tushdilar. Shahzoda jarohatlanganidan, qon ko'p oqdi:

— Xayr endi, malikam, mendan rozi bo'ling, — deb hushidan ketdi. Malika yig'lab, nima qilishini bilmay, o'zicha o'yladi. So'ngra shahzodaning qonli kiyimlarini kiydi. Shahzodaga esa o'zining kiyimlarini kiydirdi. Uni bir g'orga qo'yib, otga minib shaharga qaytdi.

Shaharda odamlar o'lik tashib yurgan ekan, podshoh askarlari malikani ko'rishlari bilanoq „shahzoda" kelyapti deb qochishdi. Malika o'zini muolaja qilgan tabibning do'koniga bordi. U tabibga:

— Jarohatga kerakli dorilaringning hammasini yig'ishtirasan, o'zing otga mingashib, men bilan birga ketasan. Borgandan keyin birorta dori esimdan chiqibdi, desang, boshingni taningdan judo qilaman, — dedi. Chol ham qo'rqib dorilarini yig'ishtirdi, otga mingashib to'ppa-to'g'ri shahzoda yotgan g'orga keldi. Malika cholni otdan tushirib:

— Mana shu yigitni tuzatsang, juda ko'p oltinlar beraman. Tuzata olmasang qilichdan o'tkazaman, — dedi. Chol yigitning jarohatlarini ko'rib hayron bo'ldi:

— Voy-bo'y, bolam, buning yarasi og'ir, juda ko'p o'q yegan. Yigitning odam bo'lishidan odam bo'lmasligi ko'proq. Lekin tuzatishga harakat qilaman. Tuzata olmasam o'ldirsang o'ldirarsan, — dedi.

Malika cholning gapini eshitib:

— Nima qilsangiz ham shuni tuzatib bering,— deb yalinib yig'ladi. Chol shahzodani muolaja qila boshladi. Malika shu atrofdagi tog'larda ov qilib, ov go'shtidan yigitga pishirib berib turdi. Shahzoda kundan-kunga tuzala borardi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, qizning otasi podshoh ham sihat topdi. Qizining qochib ketganligini eshitib, alamiga chidayolmay qancha ming askar bilan qizini qidirib ketdi. Podshoh tog'ma-tog' oshib, ov qilib yurgan qizini ko'rib, darrov tanidi. Uni tutishga buyurdi.

Malika o‘q bilan bir necha askarni urib yiqitdi. Keyin otasiga baland tovush bilan:

— Agar pahlavonlaringiz mard bo‘lsa, bitta-bitta maydonga kirgizing, — dedi.

Shahzoda darmonsiz bo‘lsa ham g‘ordan chiqib, ularning urushini tomosha qilib turgan edi.

Qiz maydonda bir necha kishini o‘ldirdi. Podshohning askari ichida bir o‘tkir qilichboz bor edi. Maydonga o‘sha qilichboz kirdi. Qiz u bilan ikki soatcha qilichlashib, ishni ajrim qila olmadi.

Shu paytda birdaniga tog‘ning ikkinchi tomonidan bir qancha ming askar bilan tig‘ ko‘targan bir pahlavon paydo bo‘ldi. Kelayotganlar bu urushni ko‘rib hayron bo‘lib to‘xtashdi. Shu paytda malika haligi qilichbozni yiqitib, kallasini kesdi.

Bir tomondan kelgan lashkarboshi har ikki tomonga kishi yuborib: „Bu qanday urush, uch kishini behisob askarlar o‘rab olganining sababi nima?“ deb so‘radi.

Qiz uning yuborgan xatini o‘qib ko‘rdi: „Shahzoda bilan masla-xatlashib javob berayin“, deb shahzodaning yoniga kelib: „Bu xatni yangi kelgan sardor yuboribdi. Bunga nima deb javob beramiz, — dedi.

Shahzoda xatni olib o‘qib ko‘rsa, xat oxirida Behzodxonning muhri bosilgan ekan. O‘zini o‘limga bichib qo‘ygan shahzodaga qaytadan jon kirdi. Juda sevinganidan malikaga:

— Bu sardor mening ustozim bo‘ladi. Men Xorazmda ekanligimda Chin-Mochinga ketgan edi. Hozir shu yoqdan kelayotgan bo‘lsa kerak, bizning ajalimiz yetmagan ekan, — dedi.

Shahzoda darrov nomaga javob yozdi. Behzodxon xatni o‘qib shahzoda Asad ekanini bilib, hushdan ketayozdi. Tezda o‘ziga kelib, shahzoda tomonga yurdi va u bilan quchoqlashib ko‘rishdi. Bular topishgach, qizning otasi shoshib qoldi.

Shahzoda o‘z boshidan o‘tgan voqealarni qisqacha bo‘lsa ham Behzodxonga so‘zlab berdi. Behzodxon Asadning tortgan mashaqqatlarini eshitib, goh yig‘lab, goh xo‘rsinib tingladi. Qizning mehribonlik qilganini eshitib, xursand bo‘ldi.

Keyin Behzodxon tomonidan qizning otasiga noma yozildi. Qizning otasi ham yarashishga rozi bo‘ldi. Bularni mehmon qilish uchun. shaharga taklif etdi. Podshoh bir qancha kun to‘y-tomosha qilib, malikani shahzoda Asadga nikohlab berdi.

Bir necha vaqt o‘tgandan keyin shahzoda Behzodxon bilan Xorazmga qaytmoqchi bo‘ldi. Bir qancha yo‘lgacha podshoh bularni kuzatib qo‘ydi.

Yo‘lda malika bilan shahzoda o‘z sarguzashtlari haqida suhbatlashib ketayotganlarida malika nima uchun yarador qilingan holda sandiq ichiga solinib, shahar devoridan xandaqqa tashlanganligi haqida gapirib, oxirida shu so‘zlarni aytdi:

— Men o‘ldirgan er-u xotin mening xizmatkorim edi. O‘zingiz ko‘rdingiz, ular ashulani juda yaxshi aytar edilar. Otam sayohatga ketganligi uchun men o‘zim istaganimcha bazm tuzdim. Bir kecha shularning ashulasini eshitgim keldi. Ularni yarim kechada bezovta qilmay, deb xabar olgani borgan edim, hali uxlamay, may ichishib o‘tirishgan ekan, meni ko‘rib juda sevinishdi. Xotini menga ust-ustiga may quyib berdi. Hazil yo‘sinida yigit mening qo‘limni bukishga uringan edi, men uni bir qo‘llab yerga yotqizib qo‘ydim. Xotini kayf aralash: „Bir qizning bir qo‘liga kuchi yetmagan senday yigitga uyat“, deb achchiqlandi. U uyalganidan o‘rnidan turib menga hanjar soldi. Men hushimdan ketgandan keyin ular meni sandiqqa solib, eltib tashlagan joydan siz meni topib olib parvarish qildingiz. Ajalim yetmagan ekan, sihat topdim. Yigit va xotinni shu gunohi uchun o‘ldirtirdim, — dedi.

Shunday qilib Asad, malika va Behzodlar Xorazmga yetib bordilar. Asadning amakisi zolim podshoh zulmidan xalq juda ezilgan edi. Bular borishi bilanoq xalq bilan maslahatlashib, podshohni taxtdan tushirib, zindonga soldi, shahzoda Asad podshoh bo‘ldi. U zolimlarni yo‘qotib, mamlakatda adolat o‘rnatdi. Shu bilan murod-maqsadlariga yetdilar.



Oltin baliq

Qadim zamonda bir kambag'al chol bor ekan. Bu chol dengiz bo'yida yolg'iz o'g'li bilan yashar ekan. Ular juda faqir bo'lib, bechorahol kun ko'rar ekanlar.

Bisotlarida bir eski qayiq va baliq ovlaydigan to'rdan bo'lak hech narsa yo'q ekan. Cholning o'g'li doim ashula aytib yurar ekan. Bir kun baliqchi chol dengizga to'r solibdi, birozdan so'ng to'rni suvdan ko'taribdi. Qarasa, unaqa-bunaqa baliq emas, oltin baliq emish. Buni ko'rib chol hayron bo'libdi va o'g'liga:

— Bolam, sen bu ajoyib baliqqa qarab tur. Men borib bu hodisani xonga ma'lum qilay. Zora-mora xon bizga kattaroq in'om bersa, — debdi-da, shaharga jo'nab ketibdi.

Yosh yigitcha baliqning to'rda qiynalayotganini ko'rib, rahmi kelibdi, otasining kelishini ham kutmay, baliqni dengizga qo'yib yuboribdi. Oltin baliq dengizga sho'ng'ib ketibdi.

Xon o'zining vazir-vuzarolari, posbonlari bilan yetib kelib, yigitga:

— Qani, ajoyib baliqni ko'rsat! — deb buyruq qilibdi.

Yosh baliqchi boshini quyi solib xonga:

—Baliqqa rahmim keldi; uni dengizga qo'yib yubordim,— debdi.

Xon baliqchi yigitdan bu so'zni eshitib, cholga:

— Sen yaramas chol: arzimagan bir narsa uchun meni shuncha ovora qilding. Dunyoda oltin baliq ham bo'larmidi! — deb baqiribdi. Shunda keksa vazirlardan biri xonga qarab:

— Hazrati oliylari, men yetmish yildan ortiq umr ko‘rdim. Lekin bunday ajoyibotni eshitmagan edim,— debdi.

Chol oltin baliq tutgani rost ekanini ishontirishga ko‘p urinsa ham, xon uning so‘ziga sira ishonmabdi. Xon baliqchi yigitning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, eski qayiqda dengizga oqizib yuboribdi.

Xon o‘z ishidan xursand bo‘lib, dabdaba bilan saroyga qaytibdi. Boyaqish chol esa dengiz qirg‘og‘ida, „voy bolam“ deb yig‘laganicha qolaveribdi. Bir fursatdan so‘ng qayiq ko‘zdan tamom g‘oyib bo‘libdi, qayiqni kuzatib, ko‘z yoshlarini oqizib turgan chol, zolim xonning zulmidan g‘azablanib, unga la’natlar o‘qibdi.

Endi so‘zni yosh baliqchidan eshiting.

Baliqchi yigit har nafasda o‘z halokatini kutar ekan. Lekin qayiq shamol kuchi bilan hamon olg‘a qarab suzib borarkan.

Bir qanchadan keyin uzoqdan bir orol ko‘rinibdi. Kuchli shamol qayiqni bir nafasda orolga eltib qo‘yibdi. Qayiqning tumshug‘i qirg‘oqdagi qumga urilishi bilanoq daraxt orqasidan bir yosh yigit chiqib kelibdi.

U yosh baliqchiga judayam o‘xshar ekan, go‘yo bir olmaning yarmisi u-yu, yarmisi bu ekan.

Yosh yigit kela solib, yosh baliqchining qo‘l-oyoqlarini yechibdi. Yosh baliqchi bu mehribon yigitcha bilan ko‘rishibdi, orolda uchragan yosh yigit yonidan bir kulcha chiqaribdi, uni ikkovlari baham ko‘rishibdi. Shunday qilib ular orasida chin do‘stlik boshlanibdi.

Bir kun ular poda boqib yurgan bir chol-cho‘ponga yo‘liqishibdi.

Do‘stlar orolda o‘zimizdan boshqa hech kim yo‘q, deb o‘ylar ekanlar.

Cho‘pon bulardan hol-ahvol so‘rab, so‘z boshlabdi:

— Bu yerdan uch kunlik yo‘l narida katta bir xonning yurti bor. Xon baxtsizlikka uchragan. Uning go‘zallikda tanho bo‘lgan bitta-yu bitta qizi tug‘ilganidan beri bir og‘iz ham so‘z aytgan emas. Xon barcha xalqqa xabar berdirib: „Kimki qizimni davolab gapirtira olsa, men shu kishiga eng yaxshi in’omlar beraman. Bordi-yu gapirtirolmasa, u kishining boshini tanasidan judo qilaman, degan. Ana o‘shandan beri allaqancha navqiron yigitlarning boshi ketdi.

Do‘stlar o‘ylashib turib, keyin baxtlarini sinamoqchi bo‘libdilar. Ular xon saroyi oldiga borganlarida yigit yosh baliqchiga qarab:

— Avval men baxtimni sinab ko‘ray. Agar xon qizini davolay olsam, tekkan in’omlarni o‘rtada bab-barobar bo‘lishib olamiz, — debdi. Yosh baliqchi ko‘nibdi. Yigit esa xon saroyiga kirib ketibdi.

Yigit haram eshigi oldida ikki kanizakni uchratibdi. Ulardan biri achinib, yigitga:

— Sen qatori ko‘pgina bahodir yigitlar xon qizini davolashga obdan urinib ko‘rdilar, lekin ularning aziz boshlari hisobsiz kalla suyaklaridan

yasalgan minorani yana bir pog'ona yuqori ko'tardi. Seni ham shunday baxtsizlik kutadi,— debdi.

Jasur yigitni bu qo'rqinchli gap cho'chitolmabdi, u dadillik bilan haramga kiribdi.

Xon qizini ko'rishi bilanoq ta'zim qilib, so'z boshlabdi:

— E go'zal malika! Biz otadan uch o'g'ilmiz. Bir kun chakalakka o'tin kesgani bordik. Eng katta akamiz yog'ochni yo'nib, bir go'zal qush yasadi. Qush shunday ustalik bilan yasalgan ediki, xuddi tirik qushga o'xshardi. O'rtancha akam daraxtzorlarga borib, eng nozik qushlarning patlari, parlarini topib kelib, yog'och qushchani bezadi. Qush yana go'zallashib ketdi. Men bir sehrli buloq topdim, qushni shu sehrli buloq suviga cho'miltirdim. Qushcha tirilib, sayrab yubordi. Ana o'shandan to shu pallagacha bizning o'rtamizda hamon janjal davom qiladi. Har birimiz qushni „meniki" deb da'vo qilamiz. Janjalimiz juda zo'rayib ketdi. E go'zal qiz, qush kimniki bo'ladi? Siz bizning janjalli ishimizni bitirib bering?

Bu gaplarni eshitgan qiz qaddini ko'taribdi, qop-qora uzun kiprik-larini uchiribdi. Chehrasi ochilib, salgina jilmayibdi. Tovush chiqarmay barmog'i bilan og'zini ko'rsatib, boshini tebratib, qo'yibdi. Yigit g'azablanib o'shqiribdi:

— Modomiki, sen uchun men qurbon bo'lar ekanman, shuni yaxshi bilki, men bilan birga sen ham halok bo'lasan.

Yigit shu so'zlar bilan qiz boshiga qilich ko'taribdi. Qiz qo'rqqanidan yerga o'tirib, qattiq qichqirgan ekan, og'zidan bir oq ilon tushibdi. Ilon buralib-buralib, vishillab, o'zini yigitning qalin charmli etigiga uribdi. Lekin yigit quturib kelayotgan ilonning boshini etik poshnasi bilan majaqlab tashlabdi.

Qiz yoshli ko'zlarini yigitga tikib, barmog'idan uzugini chiqarib:

— Bu uzukni olib, saroyga — otam oldiga bor. U seni mukofotlaydi,— deb uzukni yigitga beribdi.

Yigit uzukni olib, do'stining oldiga ketibdi. Yosh baliqchi uni uzoqdan ko'rishi bilan yugura kelib, u bilan quchoqlashib ko'rishibdi. So'ngra yigit barcha voqeani do'stiga birma-bir so'zlab beribdi. U uzukni do'stiga uzata turib, shunday debdi:

— Endi senga sirni aytib beraman. Men — o'sha o'zing rahm qilib qo'yib yuborgan oltin balig'ingman. Qirg'oqda sen aytgan ashulalarning dong'i suv osti yurtiga yoyildi. Men sening ashulalaringni eshitish uchun dengiz qirg'og'iga yaqinroq borib, ovozingga mahliyo bo'lib, to'rga tushganimni payqamay qoldim. Sen tufayligina tutqunlikdan qutuldim. Xon posbonlari qo'l-oyog'ingni bog'lab, qayiqda oqizib yuborishlarini

ko‘rib, g‘azablangan edim. Seni qutqarish yo‘lini izlab, eng yaqin do‘stlarim bo‘lgan baliqlardan bir qanchasini chaqirdim. Ular sening qayig‘ingni suvga cho‘ktirmasdan, yelkalarida ko‘tarib keltirishlarini o‘tindim. Chin do‘stlarim o‘tinchimni bajo keltirib, seni bu orolga olib keldilar. Men bu yerda sening shaklingga kirdim. Shu qisqagina vaqt ichida sening sofdil yigit ekanligingga yana ishondim, seni o‘z akamdek ko‘rib qoldim. Endi o‘z joyimga — suv ostiga ketish vaqtim keldi. Bu uzukni olib borib, xonga ber. Mabodo kerak bo‘lib qolsam, ko‘k dengiz qirg‘og‘iga kelib, meni uch marta chaqir. Xizmatingga darhol tayyor bo‘laman...

Shu so‘zlardan so‘ng baliq yigit bilan xayrlashibdi va bir sho‘ng‘ib, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Yosh baliqchi qadrdon do‘stidan ajralib qolganiga qattiq qayg‘uribdi va bir vaqtdan keyin xon saroyiga jo‘nab ketibdi.

Yigit xon saroyiga kelib, ichkari kirishga ruxsat so‘rabdi. Biroq xon so‘zidan qaytib, qizini bermaydigan bo‘lib, yigitni saroyga kiritmabdi.

Shundan so‘ng yigitning dardi-dunyosi qorong‘u bo‘lib, orqasiga qaytibdi va shaharning narigi chekkasidagi bir temirchiga shogird tushibdi.

Oradan bir hafta o‘tgach, bu voqeadan xonning qizi xabar topib qolib, o‘zini o‘tga-cho‘g‘ga urib, zor-zor yig‘lab, otasiga bunday debdi:

— Agar meni davolab tuzatgan o‘sha yigitga bermasangiz, shu bugunoq mendan ajraysiz. Endi menga tirik yurish harom! — deb haram ichidan o‘tadigan katta suvga o‘zini tashlamoqchi bo‘lib turganda, uni zo‘rg‘a ushlab qolibdilar. Xon noilojlikdan qizini yosh baliqchiga beradigan bo‘libdi.

Hamma odamlar to‘yga aytilibdi.

Xizmatkorlar yosh baliqchiga sarpo kiygizibdilar. Ertasiga to‘y boshlanib, nog‘ora, karnay, surnaylar chalinibdi.

Shunday qilib, yosh baliqchi xonga kuyov bo‘libdi. Lekin xon kuyovini juda yomon ko‘rar, undan qutulish yo‘llarini izlar ekan. Yosh baliqchi esa xonning taxt-saltanati, saroylarini yaxshi ko‘rmas ekan.

Bir kuni yosh baliqchi xafa bo‘lib o‘tirgan ekan, malika undan nega xafa ekanini so‘rabdi, yigit bunday deb javob beribdi:

— Men bu hashamatli saroyda turolmayman. Ko‘nglimni hech narsa quvontirmaydi. Yoshlik davrimni dengizning narigi tomonida o‘tkazganman. U yerda jonimdan aziz baliqchi otam qolgan edi. Unga nima bo‘lganini bilmayman. Agar siz otam oldiga birga ketishga ko‘nsangiz, o‘zimni dunyoda eng baxtli yigit deb hisoblar edim. Lekin mening yurtimda bir kambag‘al baliqchining xotini bo‘lib yashaysiz. Bu saroydagi bezaklar, kanizaklar u yerda yo‘q.

Shunda malika eriga qarab:

— Men har narsaga tayyorman; faqat siz quvnab yursangiz, bas. Dengizning u tomoniga qanday o'tamiz? Bizda kema ham yo'q, kema yasaydigan usta ham yo'q, — degan ekan, yosh baliqchi:

— Buni o'ylamasang ham bo'ladi, hammasini o'zim to'g'rilayman. Agar ketmoqchi bo'lsang, yo'l harakatini qilaver, — debdi.

Shu so'zlar bilan yosh baliqchi xotinini uyga yuborib, o'zi dengiz labiga boribdi, suvga qarab uch marta chaqiribdi. O'sha onda oltin baliq suv yuziga chiqib:

— E qadrdon do'stim, nima xizmat? — deb so'ragan ekan, yosh baliqchi javob qaytaribdi:

— Yurtimni, otamni sog'indim. Dengizdan suzib o'tish uchun kema yo'q. Suzib kelgan qayig'im parcha-parcha bo'lib ketgan...

Yosh baliqchi shu so'zlarni aytishi bilan oltin baliq:

— Tilagingni bajaraman, kech kirganda senga kattakon bir baliq yuboraman. U og'zini ochishi bilan darrov og'ziga kir. Ertalab uyingda, bo'lasan, — debdi-yu, sho'ng'ib ketibdi.

Kech kirishi bilan dengizda to'lqin ko'tarilibdi, qirg'oqqa bahaybat bir baliq suzib kelibdi. Uning burnidan suv yuqoriga varillab otilib turar, dumini tinmay bilanglatar ekan.

Xon qizi baliqni ko'rishi bilan juda qo'rqib ketibdi. Yosh baliqchi xotiniga dalda berib, uni baliqning og'ziga olib kiribdi. Baliq tezda dengizda suzib ketibdi.

Ajoyib baliq manzilga yetib, og'zini ochibdi. Darhol er-xotin ikkovi baliq og'zidan qirg'oqqa chiqib, uyiga qarab yo'l olibdi. Birozdan keyin uyga yetishibdi. Yarim vayronaga aylangan kulbasini va uning oldida munkayib o'tirgan keksa otasini ko'rgach, baliqchi yigitning ko'zlaridan yosh chiqib ketibdi. Bora solib otasi bilan quchoqlashib ko'rishibdi va uning oqarib ketgan soch-soqollarini silabdi.

U xotinini otasiga tanitibdi, chol juda quvonibdi.

Shunday qilib, baliqchining eski kulbasida uchovlari baxtli kun kechira boshlabdilar.



No‘xatvoy

Qadim zamonda bir boy bor ekan. Bu boyning bir korandasi bor ekan. Uning bolasi yo‘q ekan. Boyning zulmidan koranda uyiga ham borolmas ekan. Koranda qo‘sh haydayotganida xotini ovqat pishirib olib borar ekan. Bir kuni xotin ovqat pishirib turganda no‘xatday bola tug‘ibdi, ancha kuchidan ketibdi. Xotin bolaga qarab: „Sen no‘xatday o‘lgurni tug‘ib darmonim ketib qoldi, qanday qilib otangga ovqat olib boraman?“ deb o‘ylab tursa, haligi tug‘ilgan bola qozonning yoniga kelib:

— Ovqatni men o‘zim olib boraman,— debdi. Onasi:

— Ho‘, xudo olsin seni, o‘zing no‘xatdaysan-u qanday qilib ovqatni ko‘tarasan,— debdi.

Onasining bu so‘ziga No‘xatvoyning achchig‘i kelibdi-da, xurmachaning tagiga kirib ko‘taribdi, pildirab ketaveribdi. Buni onasi ko‘rib hayron qolibdi.

Otasining qo‘sh haydab turgan joyiga birdan xurmachada ovqat borib qolibdi. Otasi ham hayron bo‘lib tursa, xurmachaning tagidan birov:

— Ota-ota, men sizga ovqat olib keldim,— debdi.

Otasi xurmachani olsa, hech kim yo‘q emish. Ovqatni olib yeya boshlabdi; No‘xatvoy qo‘shning oldiga borib, qo‘shni haydayveribdi. Koranda qarasa, qo‘sh o‘zidan o‘zi haydalib ketayotgan emish. No‘xatvoy hech kimga ko‘rinmas ekan. Otasi ovqatni yeb bo‘lib, qo‘shning oldiga boribdi. No‘xatvoy darrov qo‘shni qo‘yib, xurmachani ko‘tarib, onasining

oldiga olib kelibdi. Otasi: „Bu nima voqea bo'ldi ekan?"— deb sarosimaga tushib, kechqurun uyiga kelibdi. Kelgandan keyin xotinidan so'rabdi:

— E xotin, bugun ovqatni menga kim olib bordi?

Xotin erining so'zini eshitib, xandon tashlab kulibdi-da:

— Ovqatni olib borgan sizning o'g'lingiz bo'ladi, — debdi. Korandaning jahli chiqib:

— Qayoqdagi bo'lmagan gaplarni gapirasan, mening o'g'lim qayoqdayu, ovqat olib borish qayoqda. Mening o'g'lim bo'lsa, ko'zga ko'rinmaydimi?— debdi.

Xotini eridan bu so'zni eshitib, „xafa bo'lmasinlar tag'in" deb:

— No'xatvoy, No'xatvoy, — deb chaqiribdi. Eri:

— Xotin, sen qayoqdagi gaplarni gapirasan? No'xatvoy deb kimni chaqiryapsan. Shunday ham ot bo'ladimi?— deb kulibdi. Xotini:

— Voy o'lay, boy bo'lgur, qayoqdagi gaplarni gapirasan emish-a! Axir, kecha bir o'g'il tug'dim. O'zingiz boshim qorong'iligini bilgan edingiz, to'g'rimi? Bolamiz xuddi no'xatday; ko'zga ko'rinmaydi,— deb kulibdi. Bunga eri ajablanib turgan ekan, No'xatvoy:

— Assalomu alaykum, dada,— deb salom berib kelibdi.

Otasi bunday qarasa, yerda bitta no'xatday narsa pildirab ketayotgan emish. Shunda xotini aytibdi:

— Ana shu No'xatvoy bo'ladi. Buni eri ko'rib, hayron bo'libdi.

„Barakalla, bolam" — deb ko'rishibdi. Bolasining gapiga qarasa, ma'noli gaplar emish. Koranda suyunganidan No'xatvoyni darhol xo'jayini — boyning oldiga olib chiqibdi. Boy No'xatvoyni ko'rib oldin kulibdi, keyin jahli chiqib:

— Yo'qot buni, bu qanday qilib odam bo'ladi? Buni Qurdim daryoning narigi yog'iga olib borib tashlanglar,— debdi. Bu gapni eshitib koranda bilan xotini xafa bo'lib yig'lashsa ham, boyning xizmatchilari No'xatvoyni chinqirtirib Qurdim daryoning naryog'iga olib borib tashlashibdi. No'xatvoy daryoning narigi yog'ida besh-olti kun yuribdi. Unda ajoyib odamlar yashar ekan. No'xatvoy ular bilan og'ayni bo'lib olibdi. Ular No'xatvoyni o'zlariga boshliq qilibdilar.



Duradgor bilan tikuvchi

Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan. O‘tgan zamonda bir duradgor bilan bir tikuvchi bor ekan. Bularning ikkovi bir-birlari bilan do‘st ekanlar. Bir kuni tikuvchi nihoyatda yaxshi bir ko‘ylak tikibdi va o‘rtog‘i duradgor ustani chaqirib:

— Bir ko‘ylak tikdim, ko‘rdingmi? — deb duradgor ustaning qo‘liga beribdi. Usta ko‘ylakni ko‘rib, hech tikkan yeri — chokni topolmabdi. Tikuvchi ko‘ylakni juda ustalik bilan tikkan ekan, Duradgor esa umrida bu xilda ko‘ylak ko‘rmagan ekan. U bunga hayron bo‘lib qolibdi:

— Rahmat o‘rtoq, sening hunaringga qoyilman,— debdi duradgor.

O‘sha shaharda bir chiroyli qiz bor ekan. Bu qiz ham tikuvchi bilan, ham duradgor bilan gaplashib yurar ekan. Lekin har ikki do‘st bir-birlarining bu ishlaridan bexabar yurar ekanlar. Bir kun duradgor tikuvchi oshnasi yoniga borsa, do‘stining tikkan ko‘ylagini haligi qiz kiyib turgan emish. Buni ko‘rgan duradgor nihoyat xafa bo‘libdi va o‘ziga: „Tikuvchi bu hunarni qilibdi. Men ham bir ish qilay“, deb o‘sha kundan boshlab bir sandiq yasashga kirishibdi. Bir necha kundan keyin bir sandiq tayyorlabdi. Hech kim bunday sandiqni ko‘rmagan ekan. Bir kun duradgor sandiqni tikuvchi o‘rtog‘iga ko‘rsatibdi:

— Men bir sandiq yasadim, — debdi. Tikuvchi sandiqni ko‘rib hayron bo‘lib qolibdi:

— Do‘stim, siz ajoyib sandiq yasabsiz, — debdi tikuvchi. Duradgor:

— Buning ajoyib ekanligini ichiga tushsangiz bilasiz,— deb javob beribdi. Tikuvchi sandiqning ichiga tushgan ekan, duradgor kelib sandiqni bekitib, qulflab qo‘yibdi. Shundan so‘ng sandiq havoga ko‘tarila boshlabdi. Tikuvchi sandiq ichida dod-faryod ko‘taribdi, do‘sti quloq solmabdi. Sandiq havoga ko‘tarilib chiqib ketibdi. Bir necha vaqtdan keyin tikuvchi o‘ylab „Sandiqning ikkinchi bir qulog‘i bormikan, shuni burasam, yerga tusharmikan“ deb, u yoqqa-bu yoqqa qaragan ekan, bir kichkina quloq ko‘rinibdi. Shu quloqni burasa, sandiq yana ham yuqori ko‘tarila boshlabdi. Nihoyat sandiqning uchinchi qulog‘ini buragan ekan, pastga qarab tusha boshlabdi. Namozi asr vaqtida tikuvchi boshqa bir shaharning chetroq bir yeriga kelib tushibdi. Sandiqdan chiqib, uni ko‘tarib ketayotgan ekan, yo‘lda bir chol uchrabdi. Chol do‘konini bekitib turgan ekan. Tikuvchi cholga:

— Ey ota, men bir musofirman. Bu kun sizga mehmon bo‘lsam, —debdi.

Chol bunga rozi bo‘lib, uyiga boshlab olib boribdi. Sandiq esa cholning do‘konida qolibdi. Cholning bir kampiri bor ekan. Ovqat tayyor ekan, yeb bo‘lib, hol-ahvol so‘rashibdi. Tikuvchining hol-ahvolini so‘rab bo‘lgandan keyin kampir bilan chol:

— O‘g‘lim, siz bizga o‘g‘il bo‘ling, biz olamdan o‘tsak, shu joylar sizniki bo‘lsin! — debdilar. Tikuvchi bu so‘zni eshitgandan keyin rozi bo‘libdi. Kechasi bo‘lib qorong‘u tushibdi. Bir vaqtdan keyin osmonda bir yorug‘lik paydo bo‘libdi. Osmonda oy bo‘lmasa ham, butun shahar yorug‘ bo‘lib turgan ekan. Tikuvchi choldan so‘rabdi:

— Ajabo, osmonda oy bo‘lmasa ham yorug‘ bo‘lar ekan-da, bu shaharda,— debdi. Kampir javob beribdi:

— Bolam, bizga xudo bergan shahrimizning bir podshosi bor.

Ul podshohning bir qizi bor, juda ham chiroyli. Shu qizning nuri taftidan shahar kechasi yorug‘ bo‘ladi. Bu shahar xalqi chiroq yoqmaydi. U qiz olti oy yoz ravoqning tepasida balandlikda yotadi.

Tikuvchi bu so‘zni eshitib ichida: „Menga xudo berdi-ku!“ debdi. Shu kecha chol bilan kampirning uyida yotibdi. Ertasiga tikuvchi chol bilan do‘konga chiqibdi. Cholning kasbi bo‘yoqchilik ekan. Kechgacha birgalashib bo‘yoq bo‘yashibdi. Kechqurun bo‘libdi. Chol uyga qaytmoqchi bo‘libdi. Tikuvchi cholga:

— Uy juda uzoq ekan, men shu yerda yotib yursam bo‘lmaydimi? — debdi. Chol aytibdi:

— Uyda yotsang yaxshi bo‘lar edi. Ko‘ngling bu yerni xohlasa yotaver,— debdi. Shu kuni do‘konda yotib qolibdi. Ertasi turib nonushta qilib o‘tirgan ekan, jarchilar: „Bugun podshoh qirq kunlik ovga chiqadi.

Har kimning yaxshi oti, yaxshi iti, yaxshi qushi bo'lsa ovga chiqa bersin" — deb chaqirib o'tibdi. Podshoh o'sha kuni ovga chiqib ketibdi. Kechqurun bo'lgach, chol yana uyiga qaytib ketibdi. Tikuvchi yolg'iz qolib o'ylabdi:

„Shu kecha sandiqqa tushib bir tomosha qilib kelsam", debdi. Shu bilan kechasi o'rnidan turib, sandiqqa tushibdi. Sandiqning bir qulog'ini burasa, osmonga uchib chiqib ketibdi. Osmonda shaharni tomosha qilib, malikaning yotadigan ravog'i ustiga kelib aylanib, ravoq ustidagi arkka tushibdi. Sandiqni tomga qo'yib, ust kiyimlarini yechib, arqon topib, osilib tushibdi. Tikuvchi qizning yotoqxonasiga kiribdi. Qizni ko'ribdi. Qiz bir parcha oydek yorug' nur sochib uxlab yotgan ekan. Yigit sekin qizni uyg'otibdi. Qiz uyg'onib qarasa, oldida bir kishi turgan emish. Qiz birdan cho'chib uyg'onib: „Kimsan?" debdi. Tikuvchi:

— Men „Azroil"man,— debdi. Qiz:

— Unday bo'lsa nima qilib yuribsan?— debdi.

— Xudo seni nihoyat chiroyli qilib yaratibdi. Sening husningni ko'rib mahliyo bo'lib turibman,— debdi. Qiz juda qo'rqqanidan hech bir nima deyolmabdi. Tikuvchi sandiqqa tushib uchib yana do'konga qaytib, o'z o'rnida yota beribdi. Ertasiga qiz enagalarini chaqirib kechasi bo'lgan voqeani aytibdi.

Enagalari hayron bo'lishibdi. U kun yana kech bo'libdi. Qiz o'z uyida uxlab qolibdi. Bir vaqt haligi tikuvchi yana kelibdi. Shunday qilib, qirq kungacha shu voqea davom eta beribdi. Qirqinchi kuni podshoh ovdan qaytib kelibdi. Kechqurun podshoh qarasa, shaharning hamma yog'i qorong'u, ilgarigidek yorug' bo'lmay qolibdi. Podshoh qizining ravoqqa chiqib yotishini buyuribdi. Enagalar aytibdi:

— Qizingiz ravoqning tepasida, lekin bu kun qirq kun bo'ldi, ajal farishtasi sizga kuyov bo'lgan, — debdi. Podshoh birdan hovliqib:

— Qizim o'lganmi? — desa, enagalar:

— Yo'q, erga tekkan, — debdi.

Podshoh:

— Mendan so'roqsiz qanday erga tekkan?— deb, qo'lini bo'langlatib qizining oldiga chiqibdi.

Qizining o'zidan so'rabdi. Qiz:

— Bir kun uxlab yotsam bir kishi kelib meni uyg'otdi. Qarasam, menga qarab turibdi. Men: „Sen kimsan?" dedim. U: „Men Azroilman", dedi. Undan keyin qo'rqib „Nimaga kelding? — desam, u „Sening

husni jamolingni ko‘rib, oshig‘ beqaror bo‘ldim, senga uylanmoqchiman, dedi. Men: „Hozir otam yo‘q, otamdan so‘rab, nikoh qilib olsangiz!“ desam, u ko‘nmadi. Shundan beri har kuni keladi. Men uning qaydan kelganini ham, qayerga ketganini ham bilmayman,— debdi.

Podshoh bu gaplarni eshitib, hayron bo‘lib, pastga tushibdi. Vazirlarini chaqirib qizidan eshitgan so‘zlarini birma-bir aytib beribdi. Vazirlaridan biri turib:

— Ey podshohim, bu jodugarning ishi bo‘lsa kerak desa, ikkinchi vaziri:

— Buni bir sinab ko‘rish kerak. Agar haqiqatda farishta bo‘lsa, bu dunyo taomidan sira yemaydi, odamzod bo‘lsa yeydi. Uning kelishiga har xil yaxshi taomlarni hozir qilib kutib olish kerak, — debdi.

Podshoh odamlari uning kelishini taomlarni tayyorlab qo‘yib, kutib turibdilar. Bir vaqt hamma uxlab qolganida tikuvchi qiz oldiga kelibdi. Qiz darhol o‘rnidan turib taomga taklif qilibdi. Qiz nazokat bilan:

— Bugun qirq kun bo‘ldi. Ikkovimiz bir yerda o‘tirib taom yemadik. Sizga taom hozirladim. Buni yeb, undan keyin yotamiz, — debdi.

Tikuvchi qizning hiylasini darrov fahmlabdi va:

— Bu taomni yemayman. Bu taomni yemoq bizga mumkin emas,— debdi. Qiz shuncha taklif qilib ko‘rsa ham, sira unamabdi. Bir vaqtdan keyin podshoh chiqib qarasa, kuyovi ovqatga tegmabdi.

Podshoh uning farishtaligiga ishonibdi.

Oradan bir qancha vaqt o‘tibdi. Podshohning qiziga ikkinchi bir podshohning o‘g‘lidan sovchi kelibdi. Sovchi podshoh oldiga kirib, ta’zim qilib:

— Men sizning qizingiz uchun falon podshoh tarafidan vakil bo‘lib keldim, shunga bir javob qilsangiz, — debdi. Podshoh aytibdi:

— Bu kun qirqinchi kun bo‘ldi, qizimizni erga berganmiz,— debdi. Elchi:

— Kimga? — desa, podshoh:

— Azroilga, — debdi. Sovchi ichida „Bermas qizning qalini ko‘p“ degandek, bermas ekan-da, podshohimiz ustidan kulyapti, — deb podshoh huzuridan chiqib, o‘z eliga qarab jo‘nabdi.

Sovchi o‘z podshosi oldiga yetib borib, qizning otasi aytgan so‘zlarni bayon qilibdi. Podshoh g‘azablanib butun odamlariga „Askar tayyor bo‘lsin, falon podshohga qarshi urushga boramiz“ deb xabar beribdi. Tez orada askar hozir bo‘libdi. Ular bir necha kundan keyin qizini bermagan

podshohning yeriga bosib kiribdilar. Oxiri podshohning poytaxtiga yetib boribdilar. Borib shaharni qamal qilibdilar. Shunda qizning otasi vazirlari bilan kengashibdi. Vazirlari aytibdi:


— Biz dushman askari bilan urusha olmaymiz. Ular ko‘p, biz oz. Qizingizga ayting, „azroil“ kuyovingiz yordam qilmasa bo‘lmaydi, bizga yordam kerak, — deyishibdi. Podshoh qiziga aytibdi. Kechasi tikuvchi kelibdi. Qiz unga aytibdi:

— Bizning shahrimiz dushman askari tarafidan o‘rab olingan. Shunga siz yordam qilmasangiz bo‘lmaydiganga o‘xshaydi. Biz katta xavf ostida qoldik. Bizning qo‘ldan podshohlik ketib qoladi,— debdi. Tikuvchi „Xo‘p“ deb, darhol saroydan bir latta, cho‘prak[1] bilan bir qadoq yog‘ olib chiqishni buyuribdi. Qiz darhol uning aytgan narsalarini tayyor qildiribdi. Tikuvchi yog‘ bilan cho‘praklarni olibdi-da, sandiqqa tushib uchib ketibdi. Osmonga chiqib dushman askari ustiga besh-olti yerga o‘t yoqib tashlabdi. Dushman askarlari qo‘rqib: „Bizga osmondan balo yog‘di“, deb oldi-orqasiga qaramay, qocha beribdilar. Hujum qilgan podshohning askarlari yengilibdi. Podshohning o‘g‘li ham askar hozirlab: „O‘zim bormasam bo‘lmas ekan, deb birmuncha askarlarini olib urushga kiribdi. Tikuvchi osmondan bular ustiga yana o‘t yoqib tashlabdi. Dushman askarlari ustiga yog‘ilgan o‘t ularni kuydiribdi. Ular qo‘rqib, qochgani qochib, kuyib, o‘lgani o‘lib yengilibdi. Shu vaqt tikuvchi yigitning sandig‘iga yog‘ tushib qolgan ekan. Tashlagan cho‘praklaridan o‘t tushib sandiq ham yona boshlabdi. Tikuvchi buning ilojini qila olmabdi. O‘zi ham biroz kuyibdi. Nihoyat, u tog‘ning orqasiga borib, bir suv bo‘yiga yiqilib tushibdi. Dushman askarlari qochib ketibdilar. Tikuvchi yongan sandiqdan zo‘rg‘a chiqib, o‘zini suvga tashlabdi. U joyda shu kecha yotibdi. Uch oygacha tog‘-toshlarda yurib sog‘ayib, yaxshi bo‘libdi. Biroq uning yuz-qo‘llari tirtiq bo‘lib qolibdi. Uch oy o‘tibdi. Podshoh esa:

— Kuyovim kelmay qoldi, nima bo‘ldi ekan? — deb hayron bo‘lib yuraveribdi. Shu orada podshoh o‘lib, uning o‘rniga qizi podshoh bo‘libdi. Qiz erining kelmaganiga hayron bo‘lib yuribdi. Bir kuni tikuvchi „Men endi u shaharga borsam, podshoh arkining tagidan o‘tsam, meni biror kishi tanirmikan?“ deb, bir eski yirtiq chopon kiyib yo‘lga tushibdi. U shaharga yetib borib podshoh saroyi oldidan o‘tib borayotganda qizning

---

[1] **Cho‘prak** — cho‘p.



«No'xatvoy» ertagiga ishlangan rasm

ko‘zi unga tushib qolibdi. Qiz erini tanibdi. Darhol malika o‘z xizmatchilariga:

— O‘sha ketib borayotgan odamni chaqirib kelinglar, lekin mening oldimga olib chiqayotganingizda yaxshi kiyimlar kiygizib olib chiqinglar! — debdi. Xizmatkorlar: „Xo‘p“ deb tikuvchini chaqirib to‘xtatib, qo‘lidan ushlab:

— Seni podshoh chaqiryapti,— debdilar. Tikuvchi „Xo‘p“, deb ular oldiga kelibdi. Unga yaxshi kiyimlar kiydirib, podshoh qiz oldiga olib chiqibdilar. Qiz undan:

— Siz kimsiz? — deb so‘rabdi. Tikuvchi:

— Men Azroilman, — debdi.

Qiz:

— Sizga nima bo‘ldi, ko‘rinmay ketdingiz, — debdi. Tikuvchi:

— Sizning otangizning dushmani bilan olishaman deb qanot-quyruqlarim yulinib, shu ahvolga tushib qoldim, — debdi. Qiz:

— Xudo xohlasa, yana qanot-quyruqlaringiz chiqib qolar. Men podshohlikni sizga berdim. Keling, mening o‘rnimda podshohlik qiling,— deb, otasidan qolgan podshohlikni eriga topshiribdi. Shu bilan tikuvchi malika bilan birga yashab, murod-maqsadiga yetgan ekan.



O‘tinchi chol

O‘tgan zamonda sakson yashar bir o‘tinchi chol bor ekan. Daladan bir ko‘tarim o‘tin terib kelib, uni sotib, xotini bilan tirikchilik o‘tkazar ekan. Bir kuni o‘tinini sota olmasdan bozorga tashlab qaytib kelibdi. Chol eshikdan kirishi bilan, xotini:

— Nima olib keldingiz? Kechadan beri hech narsa yeganim yo‘q, — debdi.

— O‘tinimni sotolmay, quruq qaytdim,— debdi chol.

— Ha, to‘g‘ri, qachon o‘tin sota olsangiz ovqat olib kelasiz-da, bo‘lmasa yo‘q. Mana shunday vaqtda uyda biror narsa bo‘lsa, pishirib-kuydirib yerdik. Endi ertaga ikki qo‘shnini hasharga aytsangiz, ular ikki ko‘tarim o‘tin olib kelsa, uni yoqarmiz, siz olib kelgan o‘tinni sotsangiz ovqat bo‘lar,— debdi.

Kambag‘al xotinining so‘zini ma’qullab, kosiblarni hasharga chaqiribdi. Ular ham rozi bo‘lishibdi. Erta bilan ikki kosib cholning eshigiga kelib chaqiribdi. Uchovi uchta arqon olib, o‘tin terishga chiqib ketishibdi. Daladan o‘tin terib, uchovi uch ko‘tarim o‘tinni orqalayotganda shamol turib, o‘tinlarini uchirib ketibdi. Chol: „Er-xotin kecha och yotgan edik, endi bugun ham och qolamizmi?“ deb yig‘labdi. Kosiblar cholni yupatib:

— Ey ota, yig‘lamang, bugun er-xotin ikkovingizga ovqat topib berarmiz. Ertaga shamol tingandan keyin yana kelib o‘tin terib ketamiz,— debdi. Ular qaytib kelayotganlarida bir chinorning tagida chuqur

ko‘rishibdi. Qarashsa, ular tergan o‘tinlarni shamol kelib shu chuqurga tashlagan ekan. Kosiblar:

— Ota, mana bizning tergan o‘tinimiz, siz tushib olib berib turing, biz taxlaymiz, — deyishibdi. Chol uch ko‘tarim o‘tinni olib bergandan keyin oyog‘ining tagiga qarasa, uch xum oltin turgan emish. Chol bu oltinlarni sheriklaridan yashirmay, chuqurdan olib chiqib, uch bog‘ o‘tinning orasiga bir xumdan bog‘labdi.

Chol kosiblarga:

— O‘zingiz ko‘targan xumdagi oltinlar o‘zingizga, ammo o‘tinni uyimga olib borasizlar,— debdi. Ikki kosib bir-biriga imo-ishora qilib, cholni o‘ldirib, uning ham oltinini olmoqchi bo‘lishibdi.

Kosiblardan biri:

— Sen cholning o‘tinini bog‘la, men qo‘lini bog‘layman, so‘ng chohning bo‘yiga olib borib so‘yib tashlaymiz-da, ustiga tegirmon toshini bostirib ketamiz. Ammo o‘tinni uyiga eltib beramiz, — debdi. Ikkovi cholni sudray boshlaganda chol ulardan:

— Nimaga meni azoblaysizlar? — deb so‘rabdi. Biri turib:

— Sizni o‘ldirib oltinning hammasini o‘zimiz olmoqchimiz, — deb javob beribdi. Chol:

— Bolalarim, meni o‘ldirmanglar, mening oyog‘imni go‘r tortib qolgan qari cholman, buning ustiga xotinimning yetti oylik gumonasi bor. Qizmi, o‘g‘ilmi shuni bir ko‘rsam, undan keyin o‘lsam armonim yo‘q,— debdi. Ular cholga quloq solmay:

— Yo‘q, o‘ldiramiz, — deyishibdi. Chol yalinib:

— Men bu voqeani hech kimga aytmayman, ishoning. Faqat o‘tinimni uyga olib borib bersangiz bo‘lgani,— debdi. Ular:

— Yo‘q, so‘yamiz, — deyishibdi. Chol turib:

— Bo‘lmasa, xotinimga bir vasiyatim bor. Shuni borib aytinglar: „Chol yo‘lda o‘tin ko‘tarib kela turib, uch joyda shamoldan yiqilib tushganiga achchiqlanib, boshini olib boshqa bir shaharga ketdi. Agar xotinim o‘g‘il tug‘sa, otini Dod qo‘ysin, qiz tug‘sa, o‘zi bilib ot qo‘ysin, deb aytdi“, deng.

Ular cholni o‘ldirib, o‘ligini chohga tashlab, tegirmon toshini bostirib qo‘yishibdi. Uch ko‘tarim o‘tinni oltin bilan ko‘tarib uylariga qarab ketishibdi. Haligi uch ko‘tarim o‘tinni o‘tinchining uyiga keltirib, cholning xotiniga:

— Eringizning fe’li qursin, bizni ham xafa qildi, o‘zi ham uch joyda yiqilib tushib, achchig‘idan boshqa bir shaharga boshini olib ketdi. Keta turib: „Xotinimga aytinglar: bo‘yida gumonasi bor edi. Agar o‘g‘il tug‘sa, otini Dod qo‘ysin, qiz tug‘sa o‘zi bilib ot qo‘ysin“, dedi,— debdilar.

Xotini yig‘lay-yig‘lay o‘tinni olib kirib ketibdi. Kosiblar yarim xumdan oltinni sarf qilib, naqshin saroy solishibdi. Ular har shahardan gumashta

orttirib, katta boy bo'lib, yetti qiron podshohlarga e'tiborli bo'lib ketibdilar. Adras kiyimlar kiyib, po'ta belbog'lar bog'lashib, kumushdan hassa ushlab yuradigan bo'lishibdi.

Endi bir kalima so'zni o'tinchining xotinidan eshiting. Vaqt-soati yetib xotin bir o'g'il tug'ibdi, otini Dod qo'yibdi. Dod kunda bir yashab, oyda bir yashab yettiga qadam qo'yibdi. Onasi Dodni ko'chaga chiqarmay, eshikka qulf solib qo'yib, o'zi charx yigirib kun o'tkazar ekan. Bir kun Dod ko'chada o'z tengqurlarining ovozini eshitib yig'lab, onasiga:

— E ona, men ham chiqib bolalar bilan o'ynab kelay,— debdi. Onasi:

— Mening gapimga kirsang chiqaraman; betingga niqob tortib qo'yaman, shu niqobing bilan o'ynaysan. Bolalar niqobingni och desa „Ochmayman" degin,— debdi. Dod yuziga niqob tortib chiqib, kechgacha bolalar bilan o'ynabdi. So'ngra qorni ochib uyga kiribdi:

— Ona, non bering,— debdi. Onasi:

— E bolam, sening tashvishingni tortib o'tirgan edim, uyda bir burda non yo'q. Endi otangning hunarini qilmasang bo'lmaydi. Otang o'tinchi edi. Endi ikkimiz dalaga borib ikki ko'tarim o'tin olib kelsak, birimizniki ovqat bo'lsa, birimizniki qo'r bo'ladi, — debdi.

Ona-bola maslahatlashib, ikkovi arqon olib dalaga borishibdi. O'tin terib yurib, onasining beli og'rib qolibdi. Onasi:

— Men birpas yotib dam olay, sen o'ynab tur,— deb bir daraxt tagida yotib uxlab qolibdi. Uyqusidan uyg'onib qarasa, bolasi yo'q.

Bolasini qidirib, „Dod" deb to'qayga kirib ketibdi. To'qaydan chiqib „Dod" deb tog' orasiga qarab izlab ketibdi. Tog' orasidan chiqib, „Dod" deb daryo yoqalab ketibdi. Undan cho'lga qarab „Dod" deb ketibdi. O'g'lini topa olmay, bolasining dog'ida cho'lda zor-zor yig'lab ketayotgan ekan, oldidan sakkiz yuz askari bilan kiyik oviga chiqqan bir podshoh chiqib qolibdi. Podshoh xotinning dodini eshitib ikkita yasovulga: „U xotinni chayon chaqqanmi yo ilon zahar solganmi o'zidan-o'zi „dod" deb yig'lab yuribdi, uni olib kelinglar!" deb buyuribdi. Yasovullar xotinni podshohning oldiga olib kelishibdi. Podshoh xotindan:

— Nima uchun dod deb yig'laysan, ilon chaqdimi, chayon chaqdimi?— deb so'rabdi. Xotin:

— Bolamni yo'qotdim, oti „Dod" edi. Otini aytib yig'lab ketayotib edim,— debdi. Podshoh:

— Boshqa ot qurib ketdimi, shu otni qo'yasanmi,— debdi. Xotin erining ikki qo'shnisi bilan o'tin olib kelishga ketganda bo'lgan voqeani va erining vasiyatini aytibdi. So'ngra bolam bilan o'tin terishga chiqqan edim, belim qotib birpas yotdim, uxlab qolibman. O'rnimdan turib qarasam, bolam yo'q,— debdi. Podshoh:

— Ering bilan o'tin terish uchun hasharga chiqqan qo'shnilaring hozir bormi? — deb so'rabdi.

Xotin:

— Bor, ular boy bo'lib ketgan. Bozor chorsida naqshli saroyda turadigan, kumush kursida o'tiradigan ikki boy o'sha qo'shnilarimizdir.

Podshoh: „Cholni o'sha qo'shnilar o'ldirgan bo'lsa kerak", deb o'ylab, uchta yasovulni chaqirib:

— Uchoving „Dod" deb shaharga uch tomondan kiringlar. Shahar ichida qaysi bola „Ha" desa, tutib, otga mindirib olib kelinglar — debdi. Uchta yasovul „Dod" deb shaharga kirishibdi. Shaharda kabobpazning do'konida kabob yeb o'tirgan bir bola „Ha" debdi. Yasovul boladan: „Oting nima?" deb so'rabdi. Bola:

— Dod, — debdi. Yasovul:

— Dod bo'lmay o'l. Cho'llarda onang Dod deb yig'lab yuribdi, — debdi-da, Dodni otga mindirib podshohning oldiga olib kelishibdi.

Podshoh niqobdor bolani ko'rishi bilanoq:

— Betingdagi niqobingni och,— debdi: Bola:

— Ey podshohi olam, betimdagi pardani ochtirib nima qilasiz? Qanday gapingiz bo'lsa, ayta bering,— debdi. Podshoh:

— Agar otang bilan o'tinga chiqqan kishilarni chaqirib, otangning o'ligini toptirib bersam, niqobingni ochasanmi? — debdi.

— Niqobimni ochish ixtiyori menda emas, onamda,— debdi bola.

Podshoh onasini chaqirib:

— Bolangning niqobini ochish ixtiyori senda ekan, niqobini ochsin! — debdi. Onasi podshohga:

— Bu yosh bola bo'lsa, buning yuzini ko'rib nima qilasiz?— debdi.

Podshoh ikki yasovuliga boylarni olib kelishni buyuribdi. Yasovullar boylar oldiga boribdi, ularga siyosat qilib „Podshoh sizni chaqirdi", deb ikki boyning qo'llarini orqasiga bog'lab, otga mindirib podshohning oldiga olib kelibdi. Podshoh ularning oyoq-qo'llarini yechtirib yerga tushirtiribdi. Podshoh ikki boydan:

— Shu bolaning otasini qayerda o'ldirdinglar? Rostini aytsangiz, sizga zulm yo'q,— debdi. Boylar:

„Bizga zulm yo'q ekan", deb cholni o'ldirganlariga iqror bo'lishibdi:

— Chinor tagida o'ldirdik, chohga tashladik, — deyishibdi. Podshoh:

— Nima sababdan o'ldirdinglar? — deb so'rabdi. Boylardan biri bo'lgan voqeani birma-bir aytib, chuqurda topilgan oltinning hammasini olmoqchi bo'lib, cholni o'ldirmoqchi bo'lganlarini, oxirida cholning: „Meni o'ldiradigan bo'lsalaring, bir vasiyatim bor, borib xotinimga shunday deb aytinglar: eringizning fe'li qursin, bizni ham xafa qildi, o'zini ham

xafa qildi. Uch joyda shamoldan yiqilib tushdi. Achchig'idan boshini olib boshqa shaharga ketdi. Keta turib, agar xotinim o'g'il tug'sa, otini „Dod" qo'ysin, qiz tug'sa otini o'zi bilib qo'ysin", dedi. Biz „vasiyating shumi" deb uni o'ldirib, chinor tagidagi chohga ko'mib, ustiga tegirmon toshi bostirib ketdik. Oltinni uyimizga olib borib, bir yarim xumdan bo'lib oldik. Cholning xotiniga o'tinni olib borib berib, cholning vasiyatini aytdik. Shu bilan biz boyib ketdik! — debdi. Ikkinchi boy:

— Ey podshohi olam, sultoni bokaram, dunyo shirin ekan. Shu ishlarni qildik. Nima zulm qilsangiz, mana, oldingizda turibmiz, — debdi. Podshoh:

— Ikki xum oltin turibdimi?— debdi. „Turibdi", deyishibdi boylar. Podshoh:

— Ikki xum tillani olib kelinglar,— deb ikki yasovulga buyuribdi. Yasovullar ikki xum oltinni olib kelishibdi. Podshoh Dodni chaqirib:

— Mana bu bir xum oltin otangning o'ldirilgani uchun, mana bu bir xum oltin otangning o'z haqi, ol, rozimisan? — debdi. Dod:

— Men otamning xunidan kechdim. Otamning o'z haqi — bir xum oltinni bering, boshqasi kerak emas,— debdi. Dod bir xum oltinni ko'tarib onasining oldiga olib boribdi. Podshoh bir xum oltinni boylarning o'ziga bo'lib beribdi. Podshoh Dodni chaqirtirib:

— Otangning o'ligini topib berdim. Endi yuzingdan pardangni och, ko'ray! — debdi. Dod:

— Qanday podshohsiz, men yetti yashar bola bo'lsam, yuzimni ko'rib nima qilasiz?— debdi. Podshoh „Niqobingni ochmaysanmi?"— deb qilichini sug'urib, Dodga hamla qilibdi. Bola qilichdan qo'rqib, yuzini ochib yuboribdi. Podshoh bolaning yuzini ko'rib otning tagiga yiqilibdi. Bola sarkardalarni chaqirib:

— Ulug'laring behush bo'lib yiqildi. Daryo bo'yiga olib borib hushiga keltiringlar, — debdi. Sarkardalar kelib, podshohni yelpib hushiga keltirishibdi. Podshoh „Dod qayerda?" deb so'rabdi. Dodni keltirishibdi. Podshoh:

— Ey bolam, qaysi bog'ning gulisan, devmisan, parizodmisan, qanday gavhar donadan paydo bo'lding? — debdi. Dod:

— Mana shu kampirdan bino bo'lganman,— debdi. Podshoh:

— Yetti iqlim podshosi bo'lib, sendek husndorni Ko'hiqofdan ham topmadim. Mening o'g'lim ham yo'q, qizim ham yo'q. Sen menga o'g'il bo'l, olib ketay. Avg'on bog'larimda, saltanat taxtlarimda o'tir, seni podshoh qilay,— debdi. Dod turib:

— Men yetti yashar bolaman, ena sutim og'zimdan ketgani yo'q, o'rdaga loyiq emasman, odamning sarasini ajrata olmayman. Menga shu cho'llarning ixtiyorini bersangiz, men ariq chiqartirib, imorat soldirib,

beva-bechoralarga bersam, ming tanob yerni bog‘ qilib, yetti yilda obod qilsam. O‘n to‘rt yoshga kirganimdan keyin kelib olib ketarsiz,— debdi.

Podshoh Dodga bir sanoch oltin berib „endi ota-bola bo‘ldik“, deb askarlarini, vazir-sarkardalarini, yasovul-yuzboshilarini olib tog‘ga kiyik oviga ketibdi. Dod enasiga qarab:

— Ey onayi mehribonim, sizga shu yerga bir tol yog‘ochdan kapa qilib beray, siz shu yerda istiqomat qilib turing. Men bir-ikki ming mardikor olib kelay,— debdi. Ertasi bir qancha mardikor olib kelib Qo‘qon viloyatidan ariq chiqartiribdi; imorat qildirib beva-bechoralarga beribdi. Yetti yilda ming tanob yerga bog‘ qildiribdi. Bu bog‘ Dodning bog‘i deb mashhur bo‘libdi.

Bog‘ni tayyor qilib o‘tirganda, podshoh qirqta sarkardasini yuborib Dodni tilla qafasga, enasini kajava savatga solib oldirib kelibdi. Dodning onasiga qirqta zinasi sangi-marvarid toshdan yasalgan ravoq beribdi. Enaga xotin, qirqta kaniz, qirqta cho‘ri, qirqta qul uning xizmatini qilibdi. Har kun Dodning enasiga qirqta qo‘yning iligidan osh qilib beribdi.

Podshoh Dodga:

— Endi qo‘limga tushding, ota-bola bo‘ldik, betingdagi niqobingni olib, taxtimga o‘tir! — debdi.

Dod:

— Menga onamdan javob olib kelishga ruxsat bering, undan keyin niqobimni ochay,— debdi. Podshoh ruxsat beribdi. Dod onasining yoniga yugurib borib:

— E onam, mehribonim, podshoh „yuzingni och“, dedi. Unda donolar, vazirlar, qirqta sandalnishinlar[1], yasovullar, ponsodlar[2], yuzboshi-sarkardalar o‘tiribdi. Ular oldida yuzimni ochsam, podshohning yana hushi ketib qolsa, biror dushman chiqib podshohni o‘ldirib ketsa, men javobgar bo‘lib qolmay tag‘in,— debdi.

Shunda onasi:

— Ey, Dod bolam, og‘zingni och bo‘lmasa,— debdi. Dod og‘zini ochibdi.

Enasi bir tuflabdi:

— Bor bolam, endi borib niqobingni ochib o‘tira ber,— debdi. Dod podshohning saltanat taxtiga chiqib podshohning o‘ng tomoniga borib, niqobini yuzidan olib o‘tiribdi. Shunda odamlar Dodning husni-jamolini ko‘rib tahsin-ofarin o‘qib, podshohga: „O‘g‘lingiz qutlug‘ bo‘lsin“, deyishibdi. Podshoh bular ustidan dur sochibdi. Dod Avg‘on bog‘iga ov

---

[1] **Sandalnishinlar** — kursida o‘tiruvchilar, ya’ni vazirlar.

[2] **Ponsodlar** — beshyuzboshilar, amaldorlar.

qilish uchun kiribdi. Dodning husnini o‘rdaklar, churraklar tomosha qilib, ketidan yurishibdi. O‘rdak, churrakdan qochib tuyaxonaga kiribdi, unda ham karvonlar Dodning husnini tomosha qilishibdi. Undan chiqib ichkari o‘rdaga kiribdi, undagi qizlar Dodning husnini ko‘rib, uni quvlab ketishibdi. U yerdan ko‘cha darvozasiga chiqqan ekan, eshikdagi qirqta shotir uning husnini tomosha qilib quva beribdi. Undan podshohning chillaxonasiga kirib qutulibdi. Chillaxonada bag‘rini zaxga berib yotib uxlab qolibdi. Tushida Ko‘hiqofdan bir parizod bir qo‘lida kabob, bir qo‘lida sharob ushlab uchib kelib, sharobni ichirib, kabobni yedirib ketibdi. Podshohzoda cho‘chib uyg‘onib o‘ng tomoniga, so‘l tomoniga qarasa, yonida parizod yo‘q emish. Dod shikastalik bilan o‘rnidan turib qushxonaga kirib, podshohning qushini qo‘liga qo‘ndiribdi. Chakasni beliga qistirib, kamon, o‘q-yoylarni beliga taqibdi, podshohning otxonasiga kiribdi. Tulpor otni yetaklab chiqibdi. Unga minib, yor ishqida tog‘ ichiga kirib ketibdi. Tog‘ma-tog‘, cho‘lma-cho‘l, ko‘lma-ko‘l yurib bir tilsimli tog‘ga kirib qolibdi. Unda uch kecha-yu uch kunduz yuribdi. Oxirida tog‘ orasidan bir kiyik chiqib cho‘lga qochibdi. Dod kiyik orqasidan quvlab, u ham cho‘lga chiqib qolibdi, kiyikni topa olmay yo‘l yuribdi. Yolg‘iz o‘zi cho‘lma-cho‘l, ko‘lma-ko‘l, yetti kecha-yu yetti kunduz yo‘l yurib, bir daryoning bo‘yiga yetibdi. Belidagi chakasni yerga suqib, qushni qo‘ndiribdi. Daryo bo‘yida dam olib o‘tirsa, ro‘parasida sallasining pechi yelkasiga, soqoli ko‘ksiga tushgan, qo‘lida xassa ushlagan malla to‘nli, betidan nur yog‘ilib turgan bir mo‘ysafid chol paydo bo‘libdi. Dod mo‘ysafidga salom beribdi. Mo‘ysafid:

— O‘g‘lim Dod, bu tilsim daryosi oldida turmang, bunda devlar bor. Siz oshiqlikning ishqida kelgan ekansiz. Sevgan qizingiz parilardan. Lekin buni olib chiqishning iloji yo‘q,— debdi. Dod cholga qarab yig‘lab bayt o‘qibdi. Cholning rahmi kelib:

— Men topib beray. Ko‘zingni yum, yetti damdan keyin och,— debdi.

Dod ko‘zini yumib, yetti damdan keyin ochib qarasa, o‘zini daryoning narigi tomonida ko‘ribdi. Chol:

— O‘g‘lim, hov o‘sha ko‘ringan tanasi zumraddan, shoxi la’li-yoqutdan, bargi zabarjaddan bo‘lgan daraxt yonidagi qo‘rg‘onning ichiga kirsang, unda jami devlar-parilar uxlab yotganini ko‘rasan. Oyog‘ing tagida gavhar shamchiroqlar bo‘ladi, unga nazar ko‘zingni solmay, undan o‘tganingdan keyin, qirq bir hujra bor, unda ham gavhar shamchiroqlar bor, bunga ham qarama. Oxirgi hujraga kirsang, tokchada uchta qovoq turibdi. O‘rtadagi qovoqni menga olib kelib ber, — debdi.

Dod cholning aytganiday borib oxirgi hujraga kiribdi, o‘rtadagi qovoqni olib kelib cholga beribdi. Chol:

— Ey bolam, sening tushingda ko‘rgan yoring shu. Endi ko‘zingni yum, — debdi. Birozdan keyin „ko‘zingni och!“ debdi. Dod ko‘zini ochib qarasa, o‘zini oti oldida ko‘ribdi. Chol yana: „Sen o‘n to‘rt kunlik yo‘lni bosib kelding, endi men senga bir duo o‘rgatay, tez yetasan“, deb unga duo o‘rgatibdi. Dod qovoqni qo‘ltig‘iga qisib otiga minibdi. Chol: „O‘g‘lim, olgin — oldirma, to‘lgin — to‘kilma, yo‘lda hargiz qovoqqa hazil qilma, yana o‘z boshingga jabr-u jafoni ortdirma“, debdi. Dod yo‘lda chol o‘rgatgan duoni o‘qibdi, bir qancha yo‘l bosgach, otining boshini to‘xtatib: „Men tushimda parizodni ko‘rgan edim. Jodugarga uchrabman. Quruq qovoqni nima qilaman“, deb yerga tashlamoqchi bo‘lib ushlaganda, qovoqning ichidan „Voy, nozik badanim“ degan tovush eshitilibdi. Dod darrov tilla qilichini sug‘urib olib qovoqni bandidan ochibdi. Qarasa: oy desa og‘zi bor, kun desa ko‘zi bor, shirindan-shakar so‘zi bor, o‘ng betida chaparasta xoli bor, necha alvonlar kiygan, qirq kokiliga duri javohirlar taqilgan bir parizod qiz o‘tiribdi. Yigit parini ko‘rib, hushidan ketib yiqilibdi. Parizod uni yelpib hushiga keltiribdi. Dod:

— Bo‘yingdan aylanib ketay gavharim, topilmas qimmatbaho durri g‘altonim.[1] Qaysi bog‘ning gulisan, qaysi chamanning bulbulisan, devmisan, parimisan, ins-jinsmisan, qaysi gavhar donadan paydo bo‘lgansan? — deb so‘rabdi. Parizod:

— Cholning so‘zini qulog‘ingizga olmay o‘zingizga jabr-jafo orttirdingiz. Endi meni uch xil yo‘l bilan uyingizga olib borasiz, — debdi. Dod:

— Zarvaraq to‘nimni yopib, zarrin ro‘molni parda qilib, otga mindirib olib ketaman, — debdi. Qiz:

— Men otga minishga munosib emasman, soyabon aravaga munosibman, — debdi. Yigit:

— Bo‘yingdan aylanay, gavharim. Shahar yaqin qoldi. Shaharga yetganda sizni bir tomga chiqarib qo‘yib, otam saroyidan qirqta qiz-juvonlarni aravaga solib kelib, karnay chaldirib olib ketaman. Sakson zinali ravoqqa qo‘yaman. Ravoqning zinalari marmar toshdan, tepasi qizil marjondan, kunguralari la’li-yog‘utdan, — debdi. Malika rozi bo‘lib, otning orqasiga mingashib shaharga jo‘nashibdi. Shaharga yaqin qolganda bir tomga qizni qo‘yib, o‘zi shaharga arava olib kelishga ketibdi. Parizod betidagi pardasini ochib atrofga tabassum bilan qarabdi. Bu joyning ro‘parasidagi uyda bir kampir turar ekan. U jodugar ekan. Bir yeganda qirqta qo‘yning go‘shtini yeb, har suv ichganda bir mesh suv ichar, nafasiga bir juvoz aylanar ekan. Shu kampirning uyiga bir yorug‘ shu’la tushibdi. Kampir, „Bu qanday shu’la ekan, bilay-chi“, deb suv oladigan

---

[1] **G‘alton** — yumaloq, katta dur.

ko‘zasini ko‘tarib, ko‘chaga chiqibdi. Jodugar kampirning ko‘zi parizodga tushibdi. Qiz kampirga salom beribdi. Kampir:

— Ha, onang aylansin, pastga tushib shu ko‘zada ariqdan suv olib ber, — debdi. Qizning achchig‘i kelib:

— Men sizning cho‘ringiz emasman,— debdi. Kampir:

— Sen menga suv olib bergani buloq boshiga borsang shu’lang suvga urib qolsa, men shu shu’lang yorug‘ida charx yigirib, ovqat qilarman, degan edim,— debdi. Parizod kampirga:

— Men parizodman, bir dumalayman ilon bo‘laman, bir dumalayman kaptar bo‘laman, bir dumalayman kampir bo‘laman,— debdi. Kampir:

— Bunchalik hunaring bo‘lsa, qani kaptar bo‘l-chi,— debdi. Parizod bir yumalab oyog‘i qizil marjondan, qanoti la’li yoqutdan, tumshug‘i zabarjaddan bir kaptar bo‘libdi, yana yumalab qadimgi asl holiga kelib parizod bo‘libdi.

— Meni Dod qancha mashaqqatlar bilan topib olib keldi. Siz menga suv olib ber, deysiz,— debdi.

Kampir, „Qo‘y, olib bermasang o‘zim olaman“, deb zarda bilan ko‘zasini ko‘tarib buloq boshiga ketibdi. Malikaning kampirga rahmi kelib:

— To‘xtang, ona, men o‘zim olib boray,— deb kampirning orqasidan boribdi. Kampirning qo‘lidan ko‘zasini olib, buloqdan suv olayotganda, kampir kelib qizning orqasidan bir tepibdi. Qiz suvga tushib, g‘oyib bo‘libdi. Kampir ko‘zasini yerga urib sindirib tomga chiqibdi. Qizning zarrin ro‘molini yuziga parda qilib o‘tiribdi. Birozdan keyin Dod besh yuz sarkarda, qirq qiz-juvon bilan har xil o‘yinlar qilib kelib qolibdi. Kelib qarasa, qizning o‘rnida ko‘zi chaksa guruch damlaydigan qozonday bir kampir o‘n to‘rt kishilik joyni egallab o‘tirgan emish. Yigit yuzini ochib qarabdi, qo‘rqqanidan o‘zini pastga tashlab yuboribdi.

Sarkardalar Dodning yuziga suv purkab hushiga keltirishibdi. „Ey podshohzoda, sizga nima bo‘ldi?“ deb so‘rashibdi. Dod ularga kampirning ta’rifini aytishga nomus qilib, o‘rnidan irg‘ib turib, kampir oldiga borib:

— Sen o‘sha parizodmisan yo o‘zgamisan? — debdi. Kampir:

— Men o‘sha siz olib kelgan parizodman,— debdi.

— Bo‘lmasa, yana yuzingni ko‘ray, —debdi. Kampir:

— Men sizga hozir yuzimni ko‘rsatmayman, qachon meni nikohingizga olasiz, mendan bir o‘g‘il ko‘rasiz, shu o‘g‘il yetti yoshga kirganda otangiz to‘y qilib beradi, shu kuni yuzimni ko‘rsataman. Ungacha yuzimni ko‘rsatmaslikka qasam ichganman. Menda hali hunar ko‘p: bir yumalayman kaptar bo‘laman, bir yumalayman ilon bo‘laman, bir yumalayman kampir bo‘laman, bir yumalayman tag‘in parizod bo‘laman, mana, hozir bir yumalab kampir bo‘ldim,— debdi. Dod:

— Bir yumalab ilgarigi parizod bo‘ling, men sizni podshoh saroyiga olib boraman,— debdi. Kampir:

— Xohlasangiz shu, xohlamasangiz ko‘k kaptar bo‘lib Ko‘hiqofga uchib ketaman,— debdi. Dod o‘ylab turib:

— Yetti yil kutish yigit kishiga nima gap, aravaga tushing!— debdi. Kampir:

— Aravaga o‘zingiz ko‘tarib soling! — debdi. U kampirni ko‘taraman deb yetti yumalab ag‘darilib tushibdi. Enaga xotinlar ko‘plashib podshohzodani ko‘tarib olishibdi. Kampir podshohzodaga:— Otni o‘zingiz minib oling,— debdi. Dod otga minib „chuv“ deb bir qamchi urishi bilan, quduqning ichidan bir qora ot chiqib, uning oldiga kelib gir-gir aylana beribdi. Shu yerdagi odamlar otni ko‘rib ofarin qilibdi. Dod o‘zi mingan otdan tushib, quduqdan chiqqan otning bo‘ynidan quchoqlab silay beribdi. Kampir buni ko‘rib:

— Bu otni chiqarib, quduqdan chiqqan qora otni aravaga qo‘shing! — debdi. Enagalar qora otga tilla yuganlar kiygizib, aravaga qo‘shibdi. Podshohzoda otga minib bir qamchi urib o‘rdaga ketibdi. Har qirq odimni bir odim qilib o‘rdaga yetibdi. Podshoh bularga durri javharlar sochibdi. Qiz-juvonlar o‘lan aytishib kelishib, kelinni ravoqning tepasiga olib chiqib ketishibdi. Kampir zarrin ro‘molni yuziga parda qilib, chimildiqning ichida yuzini ko‘rsatmay o‘tiribdi. Dod quduqning ichidan chiqqan otni yakka qoziqqa boylab qo‘yibdi. Ot suvlig‘ini chaynab turibdi.

Podshohzoda ot oldidan keta olmay otning betidan, ot Dodning betidan yarim kechagacha silab chiqibdi. Kampir kanizaklarga aytib podshohzodani chaqirtiribdi. Dod kampirning oldiga salom berib kiribdi. Kampir turib:

— Ey podshohzoda, yo o‘sha qora otni deng, yo meni deng. Bo‘lmasa ko‘k kaptar bo‘lib uchib ketaman, meni desangiz vaqtliroq nikohingizga oling, farzand ko‘rishning orzusini qiling,— debdi.

Podshohzoda kampirdan bu so‘zni eshitib, qo‘liga zarrin ro‘molcha olib zor-zor yig‘lab, otasining saltanat taxtiga chiqibdi. Podshoh o‘g‘lining holini ko‘rib:

— Sizga kim zulm, alam yetkazdi. Zulm yetkazganlarni olib kelib kallasini olib, kallani minoraga uraman,— debdi. Podshohzoda:

— E podshoh, men Ko‘hiqofdan bir qovoq olib kelayotib, yo‘lda ochdim. Ichidan bir qiz chiqdi. Shaharga kirganda uni bir tomga qo‘yib o‘zim o‘rdadan soyabon arava olib kelgunimcha, qizning o‘rnida bir kampir paydo bo‘lib qolibdi. Kelib yuzini ochib qarasam, ko‘zi chaksa guruch damlaydigan qozonday bir kampir o‘n to‘rt kishilik joyni egallab o‘tiribdi; bu kampir bir yumalayman kampir bo‘laman, bir

yumalayman ilon bo‘laman, bir yumalayman, ko‘k kaptar bo‘lib o‘n sakkiz ming olamni aylanib kelaman, bir yumalayman parizod bo‘laman, deydi. Men kampirga: „Yana parizod bo‘ling, do‘st-dushmanning oldida men sizni qanday qilib shu holingizda o‘rdaga olib boraman“, dedim. Kampir: „Men husnimni ko‘rsatmaslikka qasamyod qilganman, meni shu holimcha nikohingizga olasiz, o‘g‘lingiz yetti yashar bo‘lib, otangiz to‘y qilib bergan kuni asli husnimni ko‘rsataman. Xohlamasangiz bir yumalab ko‘k kaptar bo‘lib, Ko‘hiqofga uchib ketaman“, deydi. Endi men yig‘lamay kim yig‘lasin. Uni asli parizodligida yaxshi ko‘rib qolgan edim. Yo‘lda bir quduqdan qora ot chiqib gir-gir aylanib turdi. Otdan tushib qora otni quchoqlab silay berdim. Jami odamlar otni ko‘rib tahsin qilishdi. Shunda kampir ilgarigi otni aravadan chiqarib quduqdan chiqqan otni aravaga qo‘shtirdi. Ot qirq odimni bir odim qilib o‘rdaga yetkazdi. Kelgandan keyin ham ot bilan o‘ynab tursam, kampir chaqirib „Tezda nikohingizga oling“, dedi. Men qanday qilib bu kampirni nikohimga olaman, har kim sevganini oladi-da,— debdi. Podshoh aytibdi:

— Ko‘p xafa bo‘lmang, bir ilojini qilarmiz. Rasmi parizodlar duo o‘qib har turga kira beradi, o‘g‘lim. Bir iloj qilib o‘g‘il ko‘rishga harakat qiling! — debdi. Podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y tomosha qilib nikoh o‘qitibdi.

Podshohzodani mast qilib kampirning oldiga kirgizishibdi. Podshohzoda ertasiga yana qora ot yoniga chiqib, bo‘ynidan quchoqlab silay beribdi. Bir oxurga sharbat, bir oxurga shakar to‘kib beribdi. Oylardan oy o‘tib kampirning haligi qora otga boshi qorong‘i bo‘lib qolibdi. Podshohzodani chaqirib:

— Qassobni olib kelib, shu qora otni so‘ydirib ber. Go‘shtini kabob qilib yeyman, — debdi. Podshohzoda noiloj, qassobni chaqirtirib kelib:

— Shu otni so‘yib beringlar, — deyishi bilan qassobning qo‘lidan pichog‘i bilan boltasi tushib ketibdi. Qassobning ko‘ziga ot parizod bo‘lib ko‘rinibdi.

— Taqsiri olam, bu ot emas, parizod-ku. Men bu otni so‘ya olmayman, men o‘z jonimdan qo‘rqaman,— deb qassob qaytib ketibdi. Xizmatchilar yana boshqa qassobni olib kelishibdi. Podshohzoda qassobga:

— Shu otni so‘yib bering! — debdi. Otni ko‘rishi bilan bu qassobning ham qo‘lidagi pichog‘i bilan boltasi tushib ketibdi, o‘zi behush bo‘lib yiqilibdi. Qassob o‘rnidan turib:

— O‘rdangizda shunday bir parizod yursa, shuni so‘ydirmoqchisiz, jinni bo‘ldingizmi? — debdi. Podshohzoda: „Bu nima gap, mening oldimga

jinni qassoblar keladi. Ikkovi ham bu otni parizod deb so‘ymadi“, deb qassobga qarab:

— Shu otni qanday qilib bo‘lsa ham so‘yasiz! — debdi. Qassob podshohzodadan qo‘rqib:

— Men otni so‘ysam, boshimga kelgan balolarga balogardon bo‘lasizmi?— debdi. Podshohzoda:

— Albatta, balogardondirman,— debdi. Qassob „Qanday qilay, hukmi podshoh vojib ekan“, deb otning oyog‘iga arqon solishi bilan ot o‘zi beozor yiqilibdi. Qassob otning bo‘yniga pichoq tortibdi. Otning bo‘ynidan uch joyga uch tomchi qon sachrabdi. Shu uch tomchi qon o‘rnidan uch tup terak ko‘karib chiqib, har biri besh qulochdan bo‘libdi.

Kampirning oldidan bir kaniz chiqib:

— Otning jigaridan berar ekansiz, — debdi. Qassob jigarini olib beribdi. Qassob bir yon nimtasini teridan ajratayotganda yana bir kaniz chiqib:

— Otning bir sonini berar ekansiz,— debdi. Shunday qilib kampir otning go‘shtini yeb tamom qilibdi.

Podshohzoda otidan ajralganiga xafa bo‘lib, yig‘lab taxtiga chiqibdi. Oylardan oy o‘tib, to‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat, to‘qqiz daqiqadan keyin bir o‘g‘il tug‘ilibdi. Bolani beshikka belaydigan bo‘lishibdi. Kampir podshohzodani chaqirib:

— Bolangizni beshikka belashadi. Shu teraklarni kesib, mana bu ravoqning to‘rt tarafidan to‘rt eshik va bir beshik qilib bering, — debdi. Podshohzoda daraxtni kestirib eshik ham, beshik ham qildirmoqchi bo‘lib usta chaqiribdi. Usta kelib, daraxtlarni ko‘rishi bilan arra, teshasi qo‘lidan tushib ketibdi.

— Ey podshohzoda, bular parizod-ku, o‘rdangizda shu uch parizod yashasa nima qiladi? — debdi. Podshohzoda:

— Kessangiz ham kesasiz, kesmasangiz ham kesasiz! — debdi. Usta turib:

— Boshimga tushgan balolarga giriftor bo‘lsang kesay, — debdi. Podshohzoda qabul qilibdi. Shunda oltita arrakash uch terakka arra qo‘yibdi. Teraklar beozor o‘zlari yiqila beribdi. Daraxtlardan taxta tilibdi; beshik yasaydigan beshik yasabdi, duradgorlar eshik yasabdi, eshikni kampirning ravog‘iga olib chiqib qurib beribdi. Duradgorlarga bir dona gavhar beribdi, ular chiqib ketibdi. Beshikni olib kelib, bolani yo‘rgaklab, beshikka solib, ustidan durlar sochibdi. Bolani beshik siqib o‘ldiribdi. Kampir dod deb yig‘lab, qochib chiqmoqchi bo‘lganda, eshik kampirni siqib qolibdi. Dod kelib kampirni ajratib olibdi. Dod beshikdan bolani ko‘tarib chiqib kelayotganda enagalar unga:

— Ey podshohzoda, hali yoshsiz, ko‘p bola ko‘rasiz, o‘likni ko‘targanингiz bilan tiriladimi? Qora kigizni yuvgan bilan oqaradimi? — deb bolani qo‘lidan tortib olishibdi.

Dod ko‘z yoshini oqizib, tashqariga chiqib ketibdi. Eshikdan chiqsa, bir qalandar turgan emish. U qalandarga cho‘ntagidan bir dona dur olib uzatibdi. Qalandar durni olmay aytibdi:

— Ey, podshohi a’zam, shu tarasha, shox-shabbalarni menga bersangiz, men uni yoqib, haqingizga duo qilsam,— debdi. Dod:

— Ol, yoqaver, — deb qalandarga besh arava shox-shabba, tarashalarni in’om qilibdi. Qalandar ularni yig‘ishtirmoqchi bo‘lib turganda shox-shabba, tarashalar osmonga ko‘tarilib uchib ketibdi. Podshohzoda bilan qalandar hayron bo‘lib qolibdi. Qalandar o‘z yo‘liga ketibdi. Uyiga kelsa, o‘zining chordevori o‘rnida qirq zinali katta saroy paydo bo‘lib qolibdi. Qalandar saroyni ko‘rib, hushidan ketibdi; yana hushiga kelib o‘z uyini aniqlash uchun qo‘shnilarinikiga kiribdi.

Qo‘shnisining uyida besh kishi o‘tirgan ekan. Qo‘shnisi qalandarni ko‘rib:

— Uying boshingni yesin. Uyingni dev-parilar bosib ketdi, — jonimizni hovuchlab o‘tiribmiz, — debdi. Qalandar uyidan xabar olay deb ichkariga oyoq uchi bilan kiribdi. Qarasa, ravoqning tepasidan bir parizod ikki dev bilan tushib kelyapti. Parizod uyning egasi qo‘rqib kira olmay turganini ko‘rib, devlarga javob berib yuboribdi. Parizod qalandarni uyga taklif qilib:

— Ey mehribon ota, kiravering, shu joy, shu davlatlar sizniki, endi shunga ioyiq usti-bosh kiying, — deb bir bo‘xcha zarrin kiyimlar berib kiyintiribdi. Qalandar davlatli bo‘libdi.

Kunlardan bir kun qiz qalandarga:

— Ey ota, ichkari kirib sandiqni oching, undagi durri-gavharlardan olib sarf qilib mamlakatga osh bering. Podshohlarni ham chaqiring, podshohzoda Dodni ham chaqiring. Har qaysisiga zarvaraq to‘nlar kiygizib yuboramiz, — debdi.

Qalandar qirq kunlik xarajatni uch kunda tayyor qilibdi. Qirqta doshqozon quribdi. Avg‘on bog‘da qirq kecha-yu qirq kunduz tuynugidan tutun chiqarmaydigan kambag‘algacha osh beribdi. Podshoh „gadoynikiga boramanmi?“ deb kelmay, qirqta sarkardasi bilan podshohzoda Dodni yuboribdi. Podshohzoda zar-saltanat bilan kelibdi. Qalandar qiz oldiga kirib:

— Qizim, podshohning o‘zi kelmadi, shahzoda qirqta sarkardasi bilan keldi, — debdi. Qiz:

— Podshoh kelmasa ham mayli. Ziyofatni katta qiling. Mehmonlarga yetti iqlimga arziydigan kiyimlar kiygizing. Podshohzodaga shohona libos

kiygizing, chiqib ketish oldida imoratlarni tomosha qildiring, keyin podshohzodani mening ravog'imga olib chiqing, — debdi.

Qalandar podshohzodaga imoratlarni tomosha qildiribdi. Qizning ravog'iga olib chiqibdi. Parizod necha alvon kiyimlar kiyib, o'ziga oro berib o'tirgan ekan.

Podshohzoda bilan parizod bir-birlariga salom berib, ikkisi ham hushlaridan ketib qolibdi. Podshohzoda hushiga kelib parizodga qarab, uni sevib, sahrolarda kezib yurganlarini, yuragi zardobga to'lganini aytib bayt o'qibdi. Parizod:

— Ha, podshohzoda, kalla deb qovoqni kiyib olgan ekansiz-da. Bitta jodugar kampirning so'ziga kirib, bola qilganingizga rahmat. Quduqning ichidan chiqqan qora ot men bo'laman, bilmay aravaga qo'shdingiz. Qirq odimni bir odim qildim. Qora otni jodugarga so'yib berganingizda uch terak bo'lib ko'karib chiqdim. Beshik bilan eshik qildirdingiz, beshikdagi bolani qisib o'ldirdim, eshikda kampirni siqqanimda ajratib oldingiz — bilmadingiz, uyalganimdan qo'yib yubordim. Bolaning dog'ini tortib, ko'zdan yosh oqizib tashqariga chiqdingiz. Qalandar keldi, shox-shabbani unga in'om qildingiz. Shox-shabba o'zicha yig'ishtirilib osmonga chiqib ketib, qalandarning hovlisiga tushdi, — deganda, Podshohzoda:

— To'xtang, malikam, bundan ortiq menga gap yo'q, — deb o'qday otilib pastga tushibdi. Otiga minib o'rdaga kelibdi. Kampirning oldiga kirib:

— Ha, jodugar, qani, hunaringni ko'rsat, kaptar bo'lib ko'r-chi, — debdi. Kampir:

— Men hali hunarimni ko'rsatmayman. Hali tag'in o'g'il ko'raman, shuning to'yida ko'rsataman, — debdi. Podshohzoda kampirning bosh yuvib o'tirgan joyidan sochidan burab pastga olib tushibdi. Jallodlarni keltirib kampirni bir enlikdan qirqib tashlatibdi. Podshohzoda otasi oldiga chiqib:

— E ota, mehribonim, suyunchi bering, yorimni topdim, — debdi. Podshoh darhol karnay-suray qo'ydiribdi. Dod qirqta soyabon aravaga qiz-juvonlarni solib, o'yin-kulgilar bilan yorini olib kelibdi. Qirq kecha-kunduz to'y qilib, Dod parizodga uylanibdi. Podshoh Dodni o'z o'rniga podshoh qilibdi. Murod-maqsadga yetibdi.



Savdogar bilan podachi

Bor ekanda, yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan, bir savdogar bor ekan. U har yili ikki marta qal’aga borib kelar ekan. O‘zi ko‘p katta savdogar ekan, qirq savdogarga bosh ekan. Kunlardan bir kun savdogar „Bu kun qal’aga jo‘naymiz“, deb boshqa savdogarlarga xabar qilibdi. O‘zi sakson tuyaga mol yuklabdi. Shu orada qirq savdogar ham tayyor bo‘lib kelibdi. Qirq kecha-yu, qirq kunduz yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Bir cho‘l-biyobonga yetibdi. Savdogarlar cho‘ldagi bir daraxt va buloqni ko‘rganlarida:

— Ey karvonboshi, shu yerda bir dam olsak, tuyalarimiz yozilib o‘tlab-suvlab olsa, — debdilar. Karvonboshi:

— Ko‘p yaxshi bo‘ladi, — debdi. Ular yuklarini tushirib, cho‘lga tuyalarini qo‘yib yuborishibdi. Ko‘klam kunlari ekan, cho‘l bahor yomg‘iri bilan maysazorga aylangan ekan. Tuyalar buloqdan suv ichibdi. Savdogarlar osh-suv qilib, yeb-ichib o‘zlari ham dam olishibdi. Ular chuvillashib, hangoma qilib o‘tirishgan ekan, ko‘zlariga ko‘rim yerdan bir lochiq[1] ko‘rinibdi. To‘rt-besh savdogar maslahat qilib:

— Bu yerda elat bor ekan, borib ko‘raylik, bular qanday el ekan, bilaylik, — debdilar.

---

[1] **Lochiq, olachuq** — kichikroq chordevor uy.

To‘rt-besh savdogar lochiqqa borib mehmon bo‘libdilar. U yoqdan-bu yoqdan gaplashib o‘tirib, lochiqning egasi podachi ekanini bilishibdi. Podachining qizi bilan kampiri uyda ekan. Kampir bularga osh-suv qilibdi. So‘ngra podachining qizi kelib enasiga:

— Ena, yakta! —deb ketibdi. Yana bir maydon o‘tgandan keyin kelib, „Ena, duta!“ deb ketibdi. Tag‘in bir maydondan keyin kelib, „Ena, seta“ debdi... Savdogar ikki choynak choy ichguncha „hafta“ debdi. Savdogar:

— Ena, bu qizingiz nima dedi? — deb so‘rabdi. Kampir:

— Ey aylanayin chirog‘larim, bizlarning nimamizni so‘raysiz, bizlar bu cho‘lda charx yigirib kun ko‘ramiz-da, qizim boyatdan beri yetti iylik[1] ip yigirdim, deb ketdi, — debdi.

Karvonboshi ko‘nglida „Bu qiz ikki choynak choy ichguncha yetti iylik ip yigirdi. Buning turmushi xazina ekan“ deb o‘ylabdi. So‘ngra kampirdan so‘rabdi.

— Ena, qizingizning boshi ochiqmi?

— Aylanayin, qizimning boshi ochiq, — debdi kampir.

Savdogar „Qizni bersa, har qanday qilib olmoq kerak, qo‘shxonaga borib bunga bir sovchi yuborayin“, deb o‘ylab qo‘yibdi. Savdogarlar podachining uyidan qo‘shxonaga qaytib kelibdi. So‘ngra karvonboshi savdogarlardan ko‘ngli tortganlarini bir yerga to‘plab:

— Ey qarindoshlarim, menga bir maslahat beringlar, men shu podachining qiziga sovchi yuborayin deyman, sizlar nima deysizlar? — deb so‘rabdi. Ular:

— Bizlarga maslahat solsangiz hozircha indamay turing, biz qal’aga borib, bu mollarni sotib, boshqa mol olib, tuyalarga yuklab qaytib kelamiz, undan keyin sovchi qo‘ysangiz, qo‘ying! — debdilar. Bu maslahat karvonboshiga ma’qul tushib:

— Tuyalaringni yig‘ib yuklarni ortinglar, jo‘naymiz, — debdi. Savdogarlar tuyalarini yig‘ib, yuklarini ortib, karvonboshiga „Tayyor bo‘ldik“, deyishibdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, qal’aga yetishibdi. Karvonlar bozorga tushib, mollarini sotib, boshqa mollarni olib tuyalariga yuklab qal’adan chiqib jo‘nashibdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib yana avvalgi joyga kelishibdi. Buloq bo‘yiga tushib, tuyalarini o‘tga qo‘yib, o‘zlari osh-suv qilib, yeb-ichib o‘tira beribdilar. Karvonboshi savdogarlarni chaqirib:

— Sovchilikka kim boradi? — desa, Qirqinboy degani:

— Men boraman, — debdi. Qirqinboy sovchilikning bordi-keldisini gaplashib, podachinikiga boribdi. Podachining o‘zi poda boqib yurgan

---

[1] **Iylik** — dug.

ekan. Uyda podachining xotini bilan qizi o'tirgan ekan. Darrov bir bolani yuborib podachini ayttirib kelibdi. Podachi Qirqin bilan ko'rishib, o'tiribdi. Qirqinboy:

— Bobo, bizdan yo'l so'rang: „Yo'l bo'lsin", deng, — debdi.

Podachi:

— Ha, o'g'lim, yo'l bo'lsin, xush kelibsiz?— debdi, Qirqinboy:

— Yo'l, yo'l bo'lsa ol bo'lsin. Biz sizga sovchilikka keldik. Karvonboshi siz bilan tomir bo'lmoqni havas qilib, mana bu qizingizni o'ziga teng ko'ribdi, — debdi.

— Ha, bolam, karvonboshi bizni o'ziga teng ko'rgan bo'lsa, biz ham jonimiz bilan teng ko'rdik, — debdi.

— Bobo, teng ko'rgan bo'lsangiz, endi, qizingizning qalinini ayting! — debdi.

— Bolam, otingiz nima?

— Ey bobo, otim Qirqinboy.

— Ey bolam, otingiz Qirqinboy bo'lsa, qirqta qizil norni yuki bilan bersin, to'y-qo'yini karvonboshining o'zi biladi, — debdi. Qirqinboy:

— Men borib karvonboshiga aytayin, — deb, „Karvon aka, podachining qizini sizga bitirdim", — debdi.

— Qandayga bitirding? — debdi karvonboshi. Qirqin aytibdi:

— Qirq qizil nor ustida yuki bilan, to'yini, qo'yini o'zi biladi, deb yubordi, — debdi.

Karvonboshi:

— Bu tuyalardan qirqini sanab, yuki bilan olib borib beringlar! — debdi.

Karvonboshi to'yning qo'yini, moyini, guruchini to'g'rilab, ularni ham savdogarlardan berib yuboribdi. So'ngra to'yni qilib, karvonboshi podachining qizini olib jo'nabdi. Necha kecha, necha kunduz yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Karvon o'z yurtiga qaytib kelibdi, savdogarlarning har qaysisi o'z hovlisiga kiribdi, joy-joyiga qaror topibdi. Karvonboshi o'ziga qarashli kal-ko'rini, yaqinlarini yig'ib, podachining qiziga o'n kecha-kunduz to'y-tomosha beribdi. Karvonboshi podachining qizi bilan o'ynab-kulib yura beribdi. Kunlardan bir kun karvonboshi: „Men bu podachining qizini ko'p pul, mol berib oldim. Charxini ko'rib oldim. Bo'lmasa menga bir durust odamning qizi ham tegar edi," deb o'ylabdi. Bozordan o'ttiz botmon g'o'za sotib olib, hovlisiga olib kelib g'allaxonaga bosib qo'yibdi va xotiniga aytibdi:

— Ey xotin, men endi tuyalarga mol yuklab qal'aga ketaman, olti oydan keyin qaytib kelaman, men kelguncha mana bu g'allaxonadagi g'o'zani yigirib, kalava qilib, tag'in g'allaxonaga bosib qo'yasan, — deb karvonboshi navkarlarini olib, mollarini yuklab jo'nab keta beribdi.

Endi ikki og‘iz so‘zni savdogarning xotini — podachining qizidan eshiting:

Podachining qizi savdogarni jo‘natib, na g‘o‘za chuvibdi, na paxta savabdi va na charx yigiribdi. O‘ynab yura beribdi. Kundan kun, oydan oy o‘tibdi, savdogarning kelar vaqtiga bir oy, bir yarim oy qolganda podachining qizi: „Endi savdogarning kelar vaqti yaqin qoldi, hali bir changal paxta chuviganim yo‘q“ deb o‘ylab bir etak g‘o‘zani chuvib, charxini, dugini, bulg‘ovichini[1] ayvonga chiqarib qo‘yib, bir qozon atala qilibdi. Buning odati bir nafas ovqat yemasa turolmas ekan. O‘zi charx yigirgan vaqtida bir odamga „Og‘zimga ovqat solib o‘tir“, demakka uyalib, ikki qo‘lim bilan charx yigirib, tilim bilan yalab o‘tiraman, deb atala qilibdi. Podachining qizi, bu yerda tursin, ikki og‘iz so‘zni shu yurtning shahzodasidan eshiting.

Kunlardan bir kun shahzodaning tomog‘iga suyak tiqilib qolibdi. Podshoh tabib debdi, takkan debdi, mulla debdi, dori-darmon debdi, hech biridan shifo topmabdi. Endi bolam o‘ladigan bo‘ldi, deb bolasidan umidini uzib qo‘ygan ekan. Karvonboshining hovlisi podshohning arkiga qaragan ekan. Savdogarning xotini atalani egnining ikki tomoniga surtib, ayvonga chiqib o‘tirib, bir qo‘liga bulg‘ovichni olib, bir qo‘li bilan charxning qulog‘idan ushlab „Ha, darg‘azab savdogar“, deb egnining bir tomonidan bir yalab „Ha, darg‘azab savdogar“, deb ikkinchi tomonidan bir yalab, charxni yigira beribdi. Podshohning o‘g‘li arkda o‘tirgan ekan. U savdogar xotinini charx yigirib, qilib o‘tirgan qilig‘ini ko‘rib, shavqi kelib, qattiq kulib yuboribdi. Shunda tomog‘idagi tiqilib qolgan suyak birdan otilib chiqib ketibdi.

Shahzodaning ko‘zi ochilib, o‘ziga kelibdi. Podshoh buni ko‘rib quvonib, o‘g‘lidan:

— Bolam nimaga kulding? —deb so‘rabdi. Shahzoda:

— Arkning to‘g‘risida bir xotin charx yigirib o‘tirgan ekan, ko‘zim tushib, ko‘nglimda bir qiziqlik paydo bo‘lib, kulib yubordim. Tomog‘imdagi suyak birdan chiqib ketdi-yu, ko‘zim charaqlab ochildi, — debdi.

Podshoh bir yasovulini chaqirib:

— Charx yigirib o‘tirgan xotinni topib kelinglar, — debdi. Yasovul surishtirib savdogarning xotinini topib, podshoh oldiga olib boribdi. Podshoh savdogarning xotiniga:

— Tila tilagingni! — debdi. Savdogarning xotini:

— Nimani tilayman, — debdi. Podshoh:

---

[1] **Bulg‘ovich** — charxning qulog‘ini aylantiradigan cho‘pi.

— Ko'nglingda nima bo'lsa, shuni tila, — debdi. Savdogarning xotini:

— Tilasam, taqsir, mening bir ombor g'o'zam bor, shuni yigirtirib, kalava qildirib bersangiz, tilagim shu, — debdi.

Podshoh darrov fuqaroni chaqirib, har biriga bir pud, yarim pud g'o'za ulashib, tarqatib:

— Shu g'o'zani olti kunda kalava qilib olib kelinglar, — deb buyruq beribdi.

G'o'zani olib ketganlar kunni kun demay, tunni tun demay yigirib ip qilib, olib kelib beribdilar. Podshohning xizmatkorlari o'ttiz botmon g'o'zani kalava ip qilib savdogarning omboriga taxlab qo'yibdilar. Shundan ikki-uch kun keyin savdogar kelib qolibdi. Tuyalarini boylab, qal'adan olib kelgan mollarni qo'yay deb, omborni ochib qarasa, o'ttiz botmon g'o'zaning paxtasi kalava ip bo'lib bosilib turgan emish. Savdogar xotinidan dimog'i chog' bo'lib, olib kelgan narsalarini omborga qo'yib qulflab, ichkariga kirib, xotini bilan ko'rishib-so'rashib:

— Xurjunda go'sht bor, olib, bir o'xshatib kulchatoy qil, — debdi.

Xotini go'shtni olib, bir choynak choyni damlab savdogarning oldiga qo'yibdi. Suprani yozib, unni elab, xamir qilib, zuvala qilib, taxta-o'qlog'i bilan yoyib o'tirgan ekan, bir qora qo'ng'iz o'rmalab supraga chiqib kela beribdi. Savdogarning xotini o'rnidan turib, haligi qora qo'ng'izga uch ta'zim qilib, uch marta salom beribdi. Savdogar buni ko'rib hayron bo'lib:

— Bu nima qilgan ishing? —deb so'rabdi. Xotin:

— Ey karvonboshi, buning nimasini so'raysiz, bu mening yolg'izgina xolam bo'ladi, — debdi. So'ngra savdogar:

— Bu sening xolang bo'lsa, nimaga bunday qora, — debdi. Xotin:

— Aylanayin karvonboshijon, mening qay bir dardimni so'raysiz, shu yolg'iz xolam charxni yigira-yigira qora qo'ng'iz bo'lib, o'rmalab yuribdi, — deb ko'ziga yosh olibdi. Karvonboshi o'ylab turib:

— Charxning foydasi shu bo'lsa, agar sen charx yigirsang senga uch taloq, endi charx ushlama, — debdi. Shu bilan podachining qizi charxdan qutulib, savdogar bilan er-xotin bo'lib, murod-maqsadiga yetibdi.



Badalqorachi

Bor ekanda yo‘q ekan, bir zamonda bir chol bobo bor ekan. Uning uch o‘g‘li bor ekan. Eng kichkina o‘g‘lining ismi Badalqorachi ekan. Boboning La’li nomli oti bor ekan. Bu biya har yili tug‘gan paytida, uning bolasini bir narsa kelib olib ketar ekan. Bir yili bobo biyani tepasida turib o‘zi tug‘dirib olish uchun poylab yotibdi. Ammo otning tug‘adigan kechasi uxlab qolibdi, toyni ololmabdi. Ikkinchi yili, katta o‘g‘li otasidan: „Otni men poylayman va toyini olaman“, deb ruxsat olib qorovulchilik qilibdi. Ammo otning tug‘adigan kuni bu ham uxlab qolibdi, oltin toydan quruq qolibdi. Uchinchi yili o‘rtancha o‘g‘li otasidan: „Otning tug‘adigan kunini poylab, toyini o‘zim olaman“, deb ruxsat olibdi. O‘rtancha o‘g‘li kechalab, otning tug‘ishini poylab yotibdi. Lekin ko‘zi uyquga ketib qolibdi. Turib qarasa, toy yo‘q emish.

Keyingi yili kichkina o‘g‘li Badalqorachi otasiga aytibdi: „Ota, men shu sirni bilaman. Bu yil biya tug‘ish vaqtida uni poylab yotaman. Otim bu safar menga La’li toy tug‘ib beradi“, debdi va otxonada otni poylab yotaveribdi. Ko‘zi uyquga ketayotganda, ot kishnabdi, uyg‘onib qarasa, tuynukdan bir narsa chiqib ketayotibdi. Darrov xanjari bilan bir uribdi. Bir narsa tap etib yerga tushibdi, olib qarasa, bir kishining qo‘li ekan. Badalqorachi tong qorong‘usida otasidan javob olib, qonning izi bilan toy o‘g‘risini qidirib ketaveribdi.

Yo‘l yurib, mo‘l yurib, bir uyga yetibdi. U uyga kirsa, yigirma yoshlar chamasi bir qiz o‘tiribdi. Juda chiroyli. U qiz Badalqorachiga aytibdi:

— Ey odamzod, odam yursa oyog‘i kuyar, qush uchsa qanoti kuyar bu yerda sen nima qilib yuribsan? Tez ket, agar dev kelib qolsa, seni o‘ldiradi.

Badalqorachi aytibdi:

— Sen nega dev bilan bu yerda turibsan?

— Meni dev olib qochib kelgan, — debdi qiz. Dev uchun pishirib qo‘ygan ovqatni beribdi. Badalqorachi aytibdi:

— Men dev bilan kurashib, seni uning qo‘lidan qutqaraman.

— Sen meni qutqaraman deb halok bo‘lma. U juda kuchli, zo‘r dev, — debdi.

— Dev qayerda va qachon, qaysi yo‘l bilan keladi? — deb so‘rabdi:

— Dev bir elatga ketgan edi, ana shu ko‘prikning ustidan o‘tadi, — debdi qiz.

Badalqorachi qizga:

— Sen peshin vaqtida ko‘prikning ustiga borib menga ovqat tut, — debdi va o‘zi ko‘prikning ostiga kirib o‘tiribdi.

Birdan otning tuyoq tovushi eshitilibdi. Ot kelib ko‘prikning ustida to‘xtabdi. Ot ustida kelayotgan oltin toyni o‘g‘irlagan dev ekan, tagidagi ot esa, oltin toy ekan. Devning qahri kelib:

— Bu yerda Badalqorachi bormi? — deb so‘kinibdi. Shu vaqtda Badalqorachi ko‘prik ostidan chiqib, devga qarab:

— Badalqorachi sening yeydigan ovqatingmidi? — deb do‘q uribdi.

Dev aytibdi:

— Otishasanmi, tutishasanmi, chopishasanmi?

— Otishish, chopishish o‘zingga siylov, sen bilan tutishaman, — debdi.

Dev bilan Badalqorachi tutisha ketibdi. Bular shu tutishishda bir-birini hech yiqitolmay, peshingacha kurashibdilar. Peshinda qiz Badalqorachiga tuxum keltirib beribdi. Badalqorachi uni yeb olib, kuchlanib, devni yiqitibdi. Devning kallasini kesibdi. Oltin toyni olib, qiz bilan devning joyiga borib, qizga: „Sen otni boqib tur, men kelguncha hech qayoqqa ketma“, deb o‘zi yo‘lga ravona bo‘libdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Badalqorachi yana bir joyga boribdi. O‘sha joydagi qo‘rg‘onga kirsa, o‘n sakkiz yoshlar chamasi bir go‘zal qiz o‘tirgan emish. U shu qadar go‘zal emishki, hatto unga oyning ham rashki kelar ekan.

Qiz yigitni ko‘rib:

— Ey odamzod, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyar bu yerda nima qilib yuribsan? Tez ket, dev kelsa, seni halok qiladi, — debdi.

Badalqorachi qizdan uning dev uyida nima qilib yurganini so'rabdi. Qiz:

— Meni dev olib qochib kelgan, — debdi va devga pishirib olib qo'ygan ovqatini Badalqorachiga beribdi.

Badalqorachi aytibdi:

— Men seni shu devning qo'lidan qutqaraman.

— Sen meni qutqaraman deb halok bo'lma, bu dev juda yomon dev, — debdi qiz.

— Dev qayerda va qachon keladi, qaysi yo'ldan keladi, — deb Badalqorachi qizdan so'rabdi.

— Keladigan vaqti bo'layotir, ana shu ko'prikdan o'tadi, — debdi qiz.

— Sen menga ovqat pishirib ko'prik ustiga olib bor, — deb Badalqorachi ko'prik tomon ketibdi. U ko'prik ostiga kirib yotibdi. Birdan ot tuyog'ining tovushi eshitilibdi. Ot kelib, ko'prik ustida to'xtabdi. Ot ustida kelayotgan kumush toyni olib qochgan dev ekan.

Dev otga do'q qilib: „Bu yerda Badalqorachi bormi?" deb so'kinibdi.

— Badalqorachi sening yeydigan ovqatingmi? — deb yosh yigit ko'prik tagidan chiqibdi. Dev Badalqorachiga aytibdi:

— Otishasanmi, chopishasanmi, tutishasanmi?

— Otishish, chopishish o'zingga siylov, tutishaman, — debdi.

Shundan keyin bular ikkisi kurash boshlabdilar, azondan ertangi peshinga qadar tortishibdilar. Shu vaqtda qiz ovqat olib kelib Badalqorachining qo'liga tutibdi. Keyin kuchlanib Badalqorachi devni yiqitibdi va kallasini kesibdi. Badalqorachi kumush toyni olib, qiz bilan devning joyiga borib, qizga:

— Sen bu otni men kelguncha boqib o'tir, — deb yo'lga ravona bo'libdi.

Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, yana bir joyga boribdi. Unda o'n olti yoshlar chamasi bir qiz o'tirgan ekan, kun desa ko'zi bor, oy desa yuzi bor, shunday chiroyli bir qiz ekan.

Qiz aytibdi:

— Ey odamzod, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyar bu yerda nima qilib yuribsan? Bu yerdan hozir ket. Dev kelsa, seni o'ldiradi, — debdi.

Badalqorachi bu qizni ham dev olib kelganini so'rab bilgandan keyin:

— Men seni qutqazaman, — debdi.

— Sen meni qutqazaman deb ovora bo‘lma, dev juda kuchli, — debdi qiz va devga pishirib qo‘ygan ovqatini yigitga beribdi.

Badalqorachi so‘rabdi:

— Dev qayerda, qachon, qaysi yo‘ldan keladi?

Qiz devning bir joyga ketganini, kelish vaqti bo‘lib qolganini aytib: „Ana shu ko‘prikdan o‘tib keladi“, debdi.

Badalqorachi borib ko‘prik ostiga kirib turibdi. Birozdan keyin otning tuyoq tovushi eshitilibdi. Ot kelib ko‘prik ustida to‘xtabdi. Dev otga qarab: „Bu yerda Badalqorachi bormi?“ — deb turgan ekan.

Badalqorachi ko‘prik ostidan chiqib:

— Badalqorachi sening yeydigan ovqatingmidi?— debdi.

Dev Badalqorachiga qarab:

— Otishasanmi, tutishasanmi, chopishasanmi? — debdi.

— Otishish, chopishish o‘zingga siylov, tutishaman, — debdi.

Ikkisi tutisha ketibdi. Kun bo‘yi olishibdi. Bu olishish ikki kun davom etibdi. Uchinchi kun Badalqorachi g‘ayratga kirib, qahri bilan devni ko‘tarib yerga uribdi va darrov kallasini kesibdi.

Endi Badalqorachi uch devni o‘ldirib, ularning mollarini olib, uch qizni ham uch otni: Oltintoy, Kumushtoy, La’litoyni olib qaytibdi. Yo‘lda o‘z-o‘zicha o‘ylabdi: „Katta qizni katta akamga, o‘rtanchasini o‘rtancha akamga beraman, kichigini o‘zim olaman“.

Badalqorachi yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, shaharga yaqin kelib dam olibdi. Badalqorachining akalari uning kelayotganini eshitib, kutib olish uchun peshvoz chiqibdilar.

Badalqorachi akalariga:

— Og‘alarim, men juda horidim, shu uyda biroz uxlab olay, sizlar mollarga qarab turinglar, mabodo birorta dushman kelguday bo‘lsa, menga xabar beringlar, — deb uxlab qolibdi.

Akalari maslahat qilishibdi: „Agar u shuncha mol bilan otamizning oldiga borsa, otamiz uni yaxshi ko‘rib, bizni uyaltiradi. Undan ko‘ra, Badalqorachining bir ilojini qilaylik“. Shunda Badalqorachi yotgan uyning eshigiga xanjarni qo‘yib, Badalqorachiga: — O‘g‘ri keldi, — deb qichqiribdilar. Badalqorachi yugurib, chiqaman deganda xanjar ikki oyog‘ining tizzasidan kesib ketibdi. So‘ng ikki aka butun narsalarni olib qizlarga: „Hech kimga buni aytmanglar!“ — deb qo‘rqitib yo‘lga tushibdilar. Badalqorachi oyoqsiz shu yerda qolaveribdi.

Akalari boboning oldiga borib: „Bu narsalarni: toy va qizlarni biz olib keldik“, debdilar.

Badalqorachi emaklab yo‘lga chiqibdi. Yo‘lda bir ko‘r bilan topishib olibdi. Bular dalada yurganlarida, bir boy kambag‘alning qizini xoh-

lamaganiga qo‘ymay, zo‘rlab olayotgan ekan, to‘y ustidan chiqib qolibdilar. To‘yda chopishma bo‘libdi.

Badalqorachi chopishmada yutibdi. Xotinlar narsa bersalar olmabdi.

— Nega olmaysan? — desalar, Badalqorachi:

— Menga kelinning o‘zi uzatsa olaman, — debdi. Kelin unga narsa uzatayotganida, uning o‘zini olib qochib ketibdi. Uni quvibdilar, lekin qayerga qarab ketganini bilmabdilar, ko‘zdan yo‘qolibdi.

Ko‘r bilan Badalqorachi qizni o‘z joylariga olib kelib, singil qilib olibdilar. Faqat undan ovqat pishirib berib turishni so‘rabdilar. Bularga yana bir kar ham qo‘shilibdi. Bular uchalasi ovga chiqib ketar ekanlar; qiz esa ovqat tayyorlar ekan.

Kunlardan bir kuni uchalasi ovga ketganida, qiz ovqat pishirmoqchi bo‘libdi. O‘t o‘chib qolgan ekan, eshikka chiqib u yoq-bu yoqqa qarasa, bir yerdan tutun chiqib turgan emish. O‘sha yerga borsa, bir momo o‘tirgan emish. Qiz momoga salom beribdi.

— Gar saloming bo‘lmasa, ikki yamlab bir yutardim, — debdi momo. Qiz o‘t so‘rabdi. Momo qizning qayerda turishini so‘rab olib, keyin o‘t beribdi.

Ertasi kun bular yana ovga ketganda, momo qizning yoniga kelib boshini boqtirib, uning qonini so‘rib ketibdi.

Ertasi ham, uchinchi kun ham xuddi shunday hodisa ro‘y beribdi. Bir kuni Badalqorachi qizga diqqat bilan qarab, undan so‘rabdi:

— Biz senga ozor bermasak, xafa qilmasak, nega ranging sarg‘ayib ketayotibdi, ota-onangni sog‘indingmi yo senga birov ozor berayotibdimi?

— Yo‘q, hech narsa bo‘lgani yo‘q, — debdi qiz.

— Sen bizdan yashirayotibsan, to‘g‘risini ayt, — deb majbur qilibdi.

— Men bir kuni o‘t o‘chib qolganida bir momodan o‘t olib keluvdim. Shu momo har kuni sizlar ovga ketganda kelib, mening qonimni so‘rib ketadi, — debdi qiz.

Ertasi ketish oldida Badalqorachi karni poyloqchi qilib qoldirib ketibdi. Kunduz kuni momo kelib, bir tola sochi bilan karni bog‘lab qo‘yibdi va qizning qonini yana so‘rib ketibdi.

Badalqorachi kelib, karning bog‘liq yotganini ko‘ribdi. Kar aytibdi:

— Momo kelib meni bog‘lab qo‘ydi va qizning qonini so‘rib ketdi.

Ikkinchi kuni Badalqorachining o‘zi qolibdi.

Momo kunda keladigan vaqtida kelibdi. Badalqorachi momoni tutib olib, o‘ldirmoqchi bo‘lgan ekan, momo Badalqorachiga aytibdi:

— Meni o‘ldirmagin, men qizni avvalgisidan ham xushro‘y qilaman, karning qulog‘ini ochaman, ko‘rni tuzataman, sening oyog‘ingni butun qilaman, — debdi.

Momo avval qizni bir yutib, so‘ng qayta chiqaribdi. Qiz avvalgisidan ham chiroyli bo‘libdi. Ikkinchisida karni yutib chiqaribdi. U burungisiday eshitadigan bo‘libdi. Uchinchisida ko‘rni yutib chiqaribdi. Uning ko‘zi ko‘radigan bo‘libdi. Endi Badalqorachiga navbat yetganda, u sheriklariga qarab:

— Agarda meni yutib, chiqarmasa, uni chopib o‘kchasini yoki jimjilog‘ini qaranglar, — debdi.

Momo Badalqorachini yutib chiqarmabdi. Bular „chiqar!“ desa, momo:

— Endi sizlarni ham yeyman, Badalqorachidan qo‘rqib turuvdim, — debdi.

Bular ham g‘ayratlanib, darrov momoni chopqilab, jimjilog‘idan Badalqorachini topib olibdilar. Badalqorachi ham oyoqli bo‘lib chiqibdi. Bular qizni uyiga yuboribdilar. Har qaysilari o‘z joylariga qarab yo‘lga tushibdilar.

Badalqorachi otasi yoniga borib, butun bo‘lgan voqealarni aytib berib, akalarining xiyonat qilganini so‘zlabdi.

Devdan ozod qilingan qizlar guvohlikka o‘tibdilar.

Boboning qahri kelib, xiyonatchi ikki o‘g‘lini qattiq jazolabdi.

Badalqorachi devdan qutqarib olgan kichkina qizga uylanib, murod-maqsadiga yetibdi.



Uchar gilam

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, ilgari zamonda bir chol bilan kampir bor ekan. Ular uzoq vaqt farzandsiz umr kechirib, eri ellikka, xotini esa qirqqa kirganda bir o‘g‘il ko‘rishibdi. Er-u xotin o‘g‘ilni tarbiyalay boshlashibdi. Bola o‘sib ulg‘ayibdi. U maktab yoshiga yetgach, yaxshi domlaga berishibdi. Bolaning zehni o‘tkir ekan, savodi tez chiqa boshlabdi, har xil kitoblar o‘qibdi, tushunmagan narsalarini domlasidan yoki boshqa biror kishilardan so‘rab olishga harakat qilibdi. Shunday qilib, bola yigirma yoshga to‘lgach, yaxshigina ilmga ega bo‘libdi.

Bir kun bolaga bir chol yo‘liqibdi, ancha suhbat qilibdi, unga ko‘p nasihatlar beribdi, ko‘pgina sirli so‘zlarni o‘rgatibdi, mendan senga yodgorlik bo‘lsin, deb bolaga bir gilamcha beribdi. Bola oliyhimmat choldan:

— Bobo, bu gilamchani nima qilaman, buning qanday siri bor?— deb so‘ragan ekan, chol gilamchaning sirini aytib beribdi.

— Endi sen katta bo‘lib qolding, uylanishing kerak, ota-onangga aytgin, seni uylantirib qo‘yishsin. „Menga podshohning qizini olib beringlar!“ degin, boshqa qizni olib berishmoqchi bo‘lishsa, yo‘q, deb aytgin, — debdi.

Bola chol bilan xayrlashibdi...

Gilamchaning siri bunday ekan: uning ustiga chiqib o‘tirib: „Ey gilamcha, cholning hurmati, meni falon joyga yetkazgin!“ desa, ko‘zini yumib-ochguncha o‘zini o‘sha yerda ko‘rar ekan.

Gilamchani qo‘liga olib:

— Ey gilamcha, cholning hurmati uchun kichkina ro‘molcha bo‘l! — deb gilamchani bir qoqsa, kichkina ro‘molcha bo‘lar ekan.

Chol ketgandan so‘ng, bola gilamchaning sirlarini bir necha marta sinab ko‘rib, qanoat hosil qilibdi. Kechqurun ovqatdan keyin chol bilan kampirga:

— Men katta bo‘lib qoldim, endi meni uylantirib qo‘yinglar, — degan ekan, chol bilan kampir:

— Xo‘p bolam, ertadan boshlab to‘y harakatiga tushamiz, — deyishibdi.

— Menga kimning qizini olib berasizlar?

— Kimning qizi chiroyli, odobli, ota-onali, tagli-taxtli bo‘lsa, shuning qizini olib beramiz.

— Yo‘q, menga podshohning qizini olib berasizlar, — debdi bola.

— Podshohning qizini deysanmi, bolam, bizlar bir kambag‘al bo‘lsak, podshohga qanday qilib quda bo‘lamiz, u qizining qaliniga qancha dunyo so‘rar, unga bizning qudratimiz yetmaydi-ku, xudoga shukr, sening aqling, idroking joyida, hamma narsaga aqling yetadi-ku! — debdi chol.

— Ota, siz podshohning qiziga sovchilikka boring, u sizga nima javob qaytarar ekan, so‘ngra shunga qarab ish tutamiz, — debdi.

— Bolam, podshoh qizini podshohzodaga beradi, bizga o‘xshagan kambag‘alning sovchi bo‘lib kelganini eshitishi bilan jallodga buyuradi.

— Yo‘q, ota, siz qo‘rqmang, avval boring!

— Xo‘p bolam, — deb va’da qilibdi chol.

Ertasi kechqurun:

— Ha ota, bordingizmi? — debdi bola.

— Yo‘q, bolam, qo‘rqdim, — debdi chol. Qo‘rqib-qo‘rqib, nihoyat, uchinchi kuni chol azonda borib podshohning eshigini supurib kelibdi.

Ertasiga yana eshigini supurayotganda podshohning mulozimlari cholni ushlab saroyga olib kiribdilar va podshoh oldiga yo‘llabdilar:

Podshoh g‘azab bilan cholga qarab:

— Ha, chol, nima qilib yuribsan? — debdi.

— Taqsiri olam, sultoni bokaram, kamina qulingiz qulchilikka keldi, bir... Qull...ba... changiz bor... — deb tili tutilib qolibdi.

Shohning g‘azabi kelib, ko‘zlari kosasidan chiqib ketguday bo‘libdi, birdan:

— Jallod! —deb baqirib yuboribdi. Birdan uch nafar jallod podshohga ta’zim qilib:

— Tig‘imiz burro, tilimiz go‘yo, kimning ajali yetdi? — deb muntazir bo‘lib turibdilar. Podshoh ularga qarab: „Cholni bu yerga ajal haydab kelgan ekan, boshini tanasidan judo qilib tashla, boshqalarga ibrat bo‘lsin, haddidan oshmasin!“ — deb dahshat qilibdi. Jallodlar cholni sudrabdilar. Podshohning bir donishmand vaziri bor ekan. Shu vazir cholning gunohidan o‘tishni podshohdan so‘rabdi.

Podshoh:

— Nima demoqchisan, shu bachchataloq cholning bolasiga qizimni beraymi? — deb vazirga o‘shqiribdi.

— Podshohi olam, u bechora cholning qonini to‘kib nima qilasiz, bir og‘irroq, qiyinroq shart qo‘ying, shu bilan yo‘q bo‘lib ketadi, — deb yana ta’zim qilibdi.

— Bo‘lmasa, o‘zing unga o‘sha qiyin shartingni ayta qol! — debdi podshoh. Vazir cholni jallodlarning qo‘lidan ajratib olib, unga:

— Ota, o‘g‘lingizga borib ayting, shu shaharning kunchiqar tomonida bir qishloqning chetida bir tandir bor. Shuning ichida bir chol bilan bir kampir yashaydi. Ular tashqariga chiqqanda bir xil chopon bilan chiqadilar. Bolangiz borib shu chol-kampirdan ular nima uchun tandirning ichida turadilar, nima uchun boshqalarga o‘xshab ochiq joydan hovli-joy qilishmaydi va nima uchun ular bir chopon bilan tashqariga chiqishadi. Chopon bir xilmi yoki choponning o‘zi bir donami? Ana shuni bilib kelsa, podshoh qizini o‘g‘lingizga beradi, — debdi. Chol uyga qaytibdi.

Kechki ovqatdan keyin chol o‘g‘liga bo‘lgan voqealarni va shartlarni tushuntira boshlabdi. Ertalab yigit ota-onasidan oq fotiha olib, sirli gilamda uchib borib, tandirning qarshisiga borib o‘tiribdi. Peshindan oldin bir oppoq soqolli chol eski choponni kiyib tandirdan chiqibdi, yozilib, tahorat qilib yana kirib ketibdi, undan keyin xuddi o‘sha choponni kiyib bir kampir chiqibdi, u ham tahorat qilib kirib ketibdi. Oradan to‘rt soatcha o‘tgach, kechga yaqin namozgar oldidan oq soqolli kishi yana chiqib, tahorat qilib, tandirga kirib ketibdi. Undan keyin kampir ham chiqib, yana kirib ketibdi.

Ertasi tushga yaqin yigit yana kelib poylabdi, oq soqolli chol chiqib tahorat qilib bo‘lgandan keyin, yigit uning oldiga borib salom beribdi, ko‘rishibdi va tandirning ichida turishi va kampiri bilan bir chopon kiyib yurishining sababini so‘rabdi. Oq soqolli chol unga:

— Qo‘y, bolam, ishimdan qoldirma, namozim qazo bo‘ladi, — degan ekan, yigit unga mahkam yopishib:

— Ota, aytmasangiz bo‘lmaydi, — deb turib olibdi. Chol yigitning so‘zini uch-to‘rt marta qaytaribdi. Qarasa, yigit bo‘sh kelmaydi.

O‘ylab turib:

— Mening bir shartim bor, agar shu shartimning uddasidan chiqib bajarsang, aytib beraman, bo‘lmasa, meni ham, o‘zingni ham ovora qilma, bolam, — debdi.

— Qanday shart ekan, otajon, ayting, — debdi yigit.

— Shartim shuki, — debdi chol, — falon shaharning qabristonida kichkinagina bir hujra bor. Shu hujra ichida bir qari chol qorovul bo‘lib turadi va kecha-yu kunduz tinmay yig‘laydi. Sen borib shu qariyadan o‘sha yerda uning kimi bor ekanini, kecha-yu kunduz yig‘lashining sababini, tirikchiligi nima bilan o‘tishini so‘raysan. Ana shularni bilib kelsang, men ham sirimni aytib beraman, — debdi.

Yigit sirli gilamchasiga o‘tirib o‘sha go‘ristonga boribdi, qariyani poylabdi, ikkinchi kuni salom berib qariyaning hujrasiga kiribdi. Qariya bilan ko‘rishib, odob bilan ko‘rsatgan joyga o‘tiribdi.

Qariya yigitga savol nazari bilan qarab:

— Keling bolam, qayerdan kelayotirsiz, kelishingizdan maqsadingiz nima? —deb so‘rabdi.

— Men falon shahardan sizning ta’rifingizni eshitib keldim. Kechadan beri hujrangiz qarshisida o‘tirib, sizning yig‘lashingizni ko‘rdim, endi ikki-uch savolimga javob berishingizni so‘rayman, — debdi.

— Qo‘y, bolam, savollaring bilan boshimni qotirma, meni yig‘imdan qoldirma, sening savollaring menga ma’lum. Bunaqa savollar bilan senga o‘xshaganlardan juda ko‘pi kelishadi, lekin birontasi ham mendan javob ololmay ketadi.

— Ota, meni boshqalarga o‘xshatmang, men sizdan javob olmay ketmayman.

— Bolam, mening bir shartim bor, agar shu shartimni bajarib kelsang, men ham aytaman, — debdi chol.

— Jonim bilan bajarib kelaman, otajon, qani ayting! — debdi yigit.

— Falon shaharda bir novvoy bor, — debdi qariya, — Uning novvoyxonasida yigirmata tandir qurilgan, o‘sha tandirlarda har kuni erta sahardan tushgacha non yopiladi. Lekin birorta non birovga sotilmaydi. Tushdan keyin novvoyxona yig‘ishtirilib, ertalabdan beri yopilgan nonlarni yigirma-yigirma besh aravaga ortadilar, eng oldingi aravaga novvoyxonaning egasi o‘tiradi va aravalarni haydashga buyuradi. Shu

shahardan yigirma chaqirimcha joyda katta daryo oqadi. Aravalar daryoga yetgach, novvoyxonaning egasi hamma nonlarni daryoga tashlaydi-da, aravalarni bo‘shatib shahriga qaytadi. Necha yildan beri bu novvoyning qiladigan ishi shu. Sen novvoydan so‘ragin, uning qo‘lida yetmish-sakson odam ishlaydi, ularga ish haqi to‘lash kerak, bir kunda yuz qopcha un ketadi, bularning hammasiga u pulni qayerdan topadi va topganda ham daryoga tashlashning nima foydasi bor?

Yigit gilamchasi bilan to‘ppa-to‘g‘ri novvoyning oldiga boribdi. Novvoylarning ishini kuzatib turibdi. Nonlar yopilib bo‘lgach, aravalarga ortibdilar va daryoga qarab jo‘nabdilar. Yigit ham eng keyingi aravaga o‘tirib ular bilan ketibdi. Daryoga yetib borgach, novvoyxonaning egasi nonlarni daryoga irg‘ita boshlabdi va aravalarni bo‘shatib qaytibdi.

Ertalab yigit novvoyxonaga kirib boribdi; qarasa katta nonvoyxonada yigirmata tandirda non yopilayotgan emish. Novvoyxonada hamma o‘z ishi bilan mashg‘ul. Novvoyxonaning o‘rtasida baland supa, supaga qip-qizil gilam to‘shalgan, ko‘rpacha solingan, par yostiqlar qo‘yilgan. Shu supada ellik yoshlarga borgan yo‘g‘on gavdali kishi o‘tiribdi. Bu kishi novvoyxona egasi edi. Yigit salom berib, supaga chiqibdi va novvoyxona egasi bilan ko‘rishibdi. Xo‘jayin darrov yigitga joy ko‘rsatibdi, choy buyuribdi.

Yigitning oldiga issiq nonlardan sindirib qo‘yibdi va nonga taklif qilibdi.

— Keling, uka, — deb gap boshlabdi xo‘jayin.

— Sizning ta’rifingizni eshitib kelgan edim, eshitganlarimning hammasi to‘g‘ri ekan. Eshitishimga qaraganda, siz shu ishni yigirma besh yildan beri qilar ekansiz. Shuncha pulni qayerdan topasiz va nima uchun davlatingizni suvga oqizasiz. Shuni aytib bersangiz, — debdi.

— Ey, ukam, sizga pul kerak bo‘lsa, beray, boshqa narsa kerak bo‘lsa, uni ham ayting, lekin bu voqeadan og‘iz ochmang! — debdi.

— Amaki, men bir maqsadga qadam qo‘yganman, shu maqsadimga albatta yetishim kerak. Maqsadimga yetishimning bir kaliti sizning javobingiz bo‘ladi, shuning uchun meni xursand qilarsiz deb ishonaman.

Novvoyxonaning egasi biroz jim turgach:

— Mening bir shartim bor, shuni bilib kelsangiz, men ham aytaman, bo‘lmasa ovora bo‘lasiz, ukam! — debdi.

— Xo‘p, ayting, u nima shart ekan? — debdi yigit.

— Falon shaharda bir egarchi bor. Shu egarchi bir yilda bir dona egar yasaydi, egar bitgach, uni birovga ming tangaga sotadi. Egarni olgan odam pulni beradi va o‘n-o‘n besh qadamcha yurib uzoqlashgach, pulga qarab turib egarchining rangi o‘zgaradi, ko‘zlari chaqnab ketadi-da,

o‘rnidan irg‘ib turib, egar olganni chaqiradi. Egar olgan qaytib kelgach, undan egarni qaytarib oladi va pulini qaytarib beradi.

— Ha, amaki, nima bo‘ldi?

— Egarning bir joyida chalasi bor ekan.

— Mayli, pul sizda tursin.

— Yo‘q, kerak emas.

Egar olgan hayron qoladi.

Egarchi esa, egarni olib do‘koniga qaytadi-da, egarni to‘nkaning ustiga qo‘yib teshasi bilan urib mayda-mayda qilib tashlaydi. Shu egarchi bir yilda bir dona egar yasar ekan, nima uchun sindiradi: hech bo‘lmasa o‘zining mehnatiga achinsa bo‘lmaydimi? Egarni-ku sindiradi, yana nima uchun yasaydi, baribir yasagan egarini sindiradi. Shuning sababini bilib kelsang! — debdi.

Yigit gilamchaga o‘ltirib egarchining oldiga boribdi. Egarchi egarni bitkazib, pardozlayotgan ekan. Ikki kundan keyin egar tayyor bo‘libdi. Egarchi do‘kon oldidagi peshayvonga chiqib, egarining u yoq-bu yog‘iga qarab zavq bilan o‘z hunaridan xursand bo‘lib o‘ltiribdi.

Do‘konning oldidan o‘tganlardan ba’zilari egarga xaridor bo‘lar, uni qo‘llariga olib ko‘rar va qimmat ekan deb egasiga qaytarib, o‘z yo‘llariga qarab ketishar ekanlar.

Shu ahvolda uch-to‘rt kun o‘tibdi. Yigit ham egarchini kuzatib yura beribdi. Beshinchi kuni bozor kuni bo‘libdi, tushga yaqin bir boyvachcha kelib:

— Qani, ota, egaringiz necha pul? — debdi.

— Ming tanga, mulla, — debdi egarchi.

— Juda qimmat-ku, ota! — desa.

— Moliga ham qarang, uka! — debdi.

— Ming tangaga ko‘p narsa olsa bo‘ladi. Ota, siz bir egarni ming tanga deysiz-a? — debdi.

— Ishqiboz bo‘lsangiz, mehnatni qadrlasangiz olasiz, uka, bo‘lmasa egasiniki, — debdi egarchi.

— Sal keltirib ayting, — debdi xaridor.

— Bo‘lgani shu, mulla, qimmatlik qilsa olmay qo‘ya qoling, — debdi egarchi.

Nihoyat, ko‘p talashganlaridan keyin ishqiboz yigit ming tangaga egarni olibdi. Pulni sanab berib, egarni olib ketibdi. Pulni qo‘liga olishi bilan egarchining ko‘zlari olayib, rangi oqarib ketibdi va o‘rnidan turib boyvachchani chaqiribdi. U qaytib kelgach: „Egarni menga bering, pulingizni olib turing!“ — debdi egarchi.



«Uchar gilam» ertagiga ishlangan rasm

— Nima uchun, ota? — debdi xaridor.

— Bir joyida chalasi bor ekan, tuzatish kerak, — debdi usta.

— Mayli, pul sizda tursin, — desa, — Yo‘q, olib turing, — deb pulni egasiga topshiribdi-yu, egarni do‘koniga olib kirib, tesha bilan mayda-mayda qilib tashlabdi.

Ertasiga yangi egar ishlashga kirishibdi.

Tushga yaqin salom berib yigit do‘konga kelibdi va chol bilan ko‘rishib bo‘lgach:

— Ota, sizning ishlaringizni eshitib ishonmagan edim, kelganimga bir hafta bo‘ldi, ishingizni kuzatib yurdim. Eshitganlarimning hammasi to‘g‘ri ekan, — debdi.

— Bolam, mening to‘g‘rimda nima eshitdingiz? — debdi.

— Falon shahardagi novvoydan eshitgan edim. Ota, bir oy emas, bir yil deganda bir egar yasar ekansiz, sotgandan keyin qaytib olib sindirdingiz, yana shunday egarni yasaysiz, bir kun buni ham sindirasiz-ku, hech bo‘lmasa bir yillik mehnatingizga achinmaysizmi? — debdi yigit.

— Qo‘y, bolam, meni ishdan qoldirma!

— Yo‘q, ota, men qo‘ymayman, aytasiz.

— Uni aytishga vaqtim yo‘q, — debdi usta.

— Keling, otajon, ayta qoling! — debdi yigit.

Nihoyat:

— Mening bir shartim bor, shuni topib kelsang, men ham aytaman, — debdi usta.

— Mayli, ota, ayting! — debdi yigit.

— Bir shaharda Sanobar degan podshoh bor emish, shu Sanobar Gul degan qizni besh-olti yoshlik vaqtida yaxshi ko‘rib, ota-onasini ham rozi qilib olibdi va unga yaxshi enagalar tayin qilibdi. Qizning tarbiyasi uchun hech narsani ayamabdi. Nihoyat qiz voyaga yetgach, to‘y qilib olibdi. Hozir shu bechora Gulni temir qafasga solib qo‘ygan emish. Bu xotinni shunday qiynar ekan, qo‘yib yuborsa bo‘lmasmidi, uni ota-onasi voyaga yetkazib, o‘z munosibiga bersa bo‘lmasmidi? Borib shu sirni bilib kelsang, men ham bu sirlarni aytib beraman, — debdi.

Yigit egarchi bilan xayrlashib, gilamchaga o‘tirib Sanobarshoh shahriga ravona bo‘libdi.

Baland qal’a. Qal’aning ustida soqchi sarbozlar oyboltalarini yelkalariga qo‘yib, o‘q-yoylarini bo‘yinlariga osib yurgan ekanlar. Shaharda o‘n-o‘n besh kun yurib, past-balandni ko‘rib, yaxshi-yomonni ajratib bilib olibdi.

Yigit ko‘p o‘ylab, Sanobarshoh huzuriga kirish chorasini izlabdi. Nihoyat, bir dehqon yordamida podshohning oshxonasiga shogird bo‘lib kiribdi.

Oshxonada astoydil xizmat qilibdi, tez kunda oshpazlik hunarini o‘rganib olibdi. Mehnatini ayamabdi, tirishqoqlik bilan ishlabdi. Oshpazlikdan tashqari suv tashibdi, og‘ir mehnat qiluvchilarga qarashibdi. Mehnatsevarligidan hammaning hurmatiga sazovor bo‘libdi. Uni oshxonadagilar yaxshi ko‘ribdilar. Bora-bora u Sanobarshoh oshpazining yordamchisi bo‘libdi.

Bu vazifada u jonu dili bilan ishlabdi, podshoh yeydigan ovqatlarining deyarli hammasini o‘rganibdi, hatto usta oshpazdan ham mazaliroq ovqat pishiradigan bo‘libdi. Katta oshpaz ovqatlarni yigitga pishirtirib, o‘zi uni kuzatib yurar ekan.

Kunlardan bir kun usta oshpaz o‘rtog‘inikiga to‘yga ketibdi.

Ertasi kuni yigit bor hunarini ishga solib ovqatlarni pishiribdi. Vaqt-vaqtini bilib ovqatlarni podshohga kirgizib turibdi.

Ertasiga katta oshpazning o‘zi ovqat tayyorlabdi.

Tushki ovqatdan keyin Sanobarshoh oshpazni chaqirib undan:

— Kechagi ovqatlarni kim pishirgan edi? — deb so‘rabdi. Qo‘rqib ketgan oshpaz:

— O‘zim, podshohi olam, — debdi.

— Rostini ayt!

— O‘zim pishirdim, — debdi.

— Yolg‘on aytma, kechagi oshpaz boshqa!

— Podshohi olam, bir qoshiq qonimdan o‘tsangiz aytaman, — debdi oshpaz.

— Ayt, o‘tdim! — debdi shoh.

— Shohim, bir yilcha bo‘ldi, yoshgina bir bolani oshxonaga ishga olganmiz, hozir u men bilan ishlaydi, o‘zi juda uddaburon, qo‘l-oyog‘i chaqqongina, tirishqoq, serharakat yigit.

— Ilgari u senga shogird bo‘lgan bo‘lsa, endi sen unga shogird bo‘lishing kerak. Ovqatni u sendan yaxshi qilar ekan, bor, shu yigitni mening oldimga yubor, — debdi. Oshpaz podshohga uch martaba ta’zim qilib chiqib ketibdi. Oshxonaga kelib yigitga:

— Ukam, omading kelgan ekan, shoh seni chaqiryaptilar. Agar seni mening o‘rnimga bosh oshpaz qilib tayinlasalar, meni esingdan chiqarma, ukam, har holda seni oshpazlikka men o‘rgatdim-ku, — debdi.

— Usta, xotiringiz jam bo‘lsin, men yaxshiligingizni unutmayman, — debdi yigit.

Yigit podshoh saroyiga boribdi, oybolta ko'targan sarbozlar, o'nboshi va yuzboshilardan, hashamatli qasrlardan o'tib, Sanobarshohning dargohiga kiribdi. Podshoh oldiga boribdi. Sanobarshoh oltin tojini kiyib taxtida o'tirgan ekan.

Yigit podshohga uch marta ta'zim qilib, yer o'pib, boshini egib turibdi.

— Oshpaz yigit senmisan? — debdi shoh.

— Shunday, taqsirim! — debdi yigit.

— Otang-onang bormi?

— Bor, shohim.

— Ular qarimi?

— Qarib qolgan, shohim.

— Sen bizga yaxshi xizmat qilding.

— Shohim, men faqat o'z vazifamni bajardim, hech qanday jonbozlik ko'rsatmadim, — debdi.

— Mendan tilagingni tila! — debdi shoh.

— Shohim, hozir yoshman, dunyoning achchiq-chuchugini totmaganman, nima ham tilagim bo'lar edi.

— Kamtarlik qilmasdan tila, odam bolasida, albatta, turli orzu-havaslar bo'ladi, tila tilagingni! — debdi shoh.

— O'zim yosh bo'lganim uchun mol-dunyoga hozircha ehtiyojim yo'q, agar sizga og'ir kelmasa, sizdan bir voqeani so'ramoqchi edim, — debdi yigit.

— Qanday voqea ekan? — debdi shoh.

— Xotiningiz Gulni qafasda saqlash voqeasini...— debdi yigit.

— Hoy yigit, bo'lmag'ur narsalar bilan boshingni qotirib nima qilasan, mendan mol-dunyo so'rasang-chi.

— Agar lozim topsangiz, tilagim shu edi, boshqa tilagim yo'q, shohim, — debdi yigit. Sizning oshxonangizda ishlab yurishim ham menga katta davlat, — debdi.

Sanobarshoh bir yasovulboshini chaqirib:

— Bu yigitga „Ibrat" saroyini ko'rsatib kel! — deb buyuribdi.

Yasovulboshi yigitni ergashtirib podshohning gulbog'i tomon yuribdi. „Ibrat" saroyi gul bog'ining naryog'ida bo'lib, bog' orqali borilar ekan.

Bog'da har xil gullar chaman bo'lib ochilib turar, gullar shoxida bulbullar, qumrilar, to'tilar sayrab, shoxdan-shoxga uchishib, bir-birlari bilan bahslashgandek galma-gal sayrashar va o'ynashar ekan. Bu qushlar odamga shunday o'rgangan ediki, hatto o'tib ketuvchilarning boshlariga, yelkalariga qo'nishardi. Ariqlardan zilol suvlar shildirab oqar, bu shildirashlar qushchalarning sayrashiga jo'r bo'lar edi.

Gulbog‘ shunday xushhavo, xushmanzara va kishiga rohat baxsh etar ekanki, hatto shu gulbog‘ga kirgan o‘lik tiriladi, — deb o‘ylash mumkin ekan.

Yasovulboshi yigitga qarab:

— Hayot qanday yaxshi, bu bog‘ni qara, qanday chiroyli. Shu bog‘da bir kun yursang, besh yilcha yosharib ketasan, — debdi.

Bog‘dan o‘tib „Ibrat“ saroyiga kelibdilar. Saroy darvozasidan kirish bilan yigitning badani titrab, yuzi burishib ketibdi, saroyning ichi dahshat ekan. Saroyning hamma tomonida kesilgan boshlar osilib yotgan emish.

— Amaki, bu boshlar kimlarning boshi? Ularni kim, nima uchun kesgan va nimaga osib qo‘yibdilar? — deb so‘rabdi.

— Bu boshlar senga o‘xshagan ahmoqlarning boshi, shu dahshatli saroyga bir kirsang, o‘n yil qariysan. Bu boshlar senga o‘xshagan oddiy kishilarning boshi emas, shahzoda, bekzodalar va katta amaldorlarning boshlari. Bular ham xuddi senga o‘xshab Sanobarshoh bilan Gulning sirini bilaman, deb o‘lib ketgan. Uka, yosh joningga rahming kelsin, bekorga Sanobarshoh bilan Gul voqeasini bilaman deb o‘lib ketma, agar sen shohdan so‘ragan bo‘lsang, u aytadi, lekin aytib bo‘lgach, boshingni kesdiradi-da, mana bu yerga osib qo‘yadi, — deb osib qo‘yilgan boshlarni ko‘rsatibdi. Shu boshlardan ibrat olsin, niyatidan qaytsin, bekorga o‘lib ketmasin, deb seni bu yerga yubordilar.

Yigit „Ibrat“ yoki dahshat saroyidan qaytib chiqibdi, yana gulbog‘ ichi bilan Sanobarshoh saroyiga qaytib, podshohning oldiga kelib ta’zim qilib turibdi.

— Yigit, men senga achinayotirman, yoshsan, bekorga o‘lib ketma, mendan boylik tila! —deb nasihat qilibdi shoh.

— Podshohi olam, xohlamasangiz aytmang, lekin men sizdan boshqa narsa tilamayman, — debdi yigit.

— Men senga va’da qildim, mendan faqat bir tilak tilashga haqqing bor, masalan, davlatimning yarmini tilasang ham beraman. Agar haqiqatan ham maqsading Gul voqeasini bilish bo‘lsa, unda senga voqeani aytib beraman-u, boshingni kestiraman. Shu shartga rozi bo‘lsang, mayli, o‘zing bilasan-u o‘lasan: mening sirim olamga yoyilmasin!

— Men sizning shartingizga roziman, lekin bir iltimosim bor, hikoyangiz tamom bo‘lgandan keyin bir piyola choy ichguncha menga muhlat berasiz, dunyo bilan xayrlashaman, shundan keyin boshimni olishingizga roziman, — debdi yigit. Sanobarshoh bu shartga ko‘nibdi.

— Men Gul degan xotinimni yetti yasharlik vaqtida yaxshi ko‘rib, ota-onasini rozi qilib oldim, unga saroyda enagalar va boshqa tarbiyachilar

tayinladim. Uni katta otinlarga topshirib o‘qitdim. Katta bo‘lib bo‘yi yetgach, qirq kecha-yu qirq kunduz butun shaharga to‘y berib, o‘zimga xotin qilib oldim. Men uni juda yaxshi ko‘rar edim. Ko‘p vaqtimni Gul bilan o‘tkazar edim, biror kun davlat ishi bilan ovora bo‘lib, uni ko‘rolmasam, devonalardek bo‘lardim, hatto ovga chiqqanimizda ham ikkalamiz birga chiqar edik. Ovga minishga ikkita alohida otim bor edi.

Uylanganimga uch yil bo‘lganda, ertaga ovga chiqsak, deb xayolimdan o‘tkazdim-u, otxonaga borib ko‘rsam nima uchundir otlarim ozib qolgan, yunglari hurpaygan, charchoq ko‘rinadi. Otboqarni chaqirib:

— Ablah, nima uchun bu otlar muncha ozib ketgan, charchagan ko‘rinadi? — deb so‘rasam: —„Shohim, har kuni minilgandan keyin, albatta charchaydi, ozadi-da“, — deb beparvo javob berdi. Bularni mendan boshqa kim minadi, deb baqirgan edim:

— O‘zlari har kun kechasi kelib minib ketadilar-ku, — dedi.

— Ahmoq, yolg‘on gapirma! — dedim.

— Bir kecha unisini, bir kecha bunisini egarlab qo‘ygin degan edingiz-ku! Men har kuni egarlab qo‘yaman, har kuni kelib minib ketasiz, ertalabga yaqin kelasiz-u, yana mendan so‘raysiz-a, — deb javob berdi.

O‘ylab turib hayron qoldim va otboqarga:

— Bugun otlarning ikkalasini ham egarlab qo‘y, o‘sha odam kelib otning birini minib ketgandan keyin, meni uyg‘otgin! — dedim.

Ertalab qarasam o‘rinda yotibman. „Nima uchun uyg‘otmading, nimadan qo‘rqding“, deb otboqardan so‘rasam: „Shohim, borib uyg‘otgan edim, turmadingiz, uyqingiz juda qattiq ekan, eshikni qattiq-qattiq tepsam ham uyg‘onmadingiz“, — dedi.

— Bugun har qanday bo‘lsa, ham uyg‘otgin, — dedim.

Men xotinimdan hech qanday shubha qilmas edim. Kechasi otboqar uy eshigini buzib, meni ko‘targandan keyin uyg‘ondim, shu vaqt ko‘kragimdan boshbarmoqning tirnog‘idek yumaloq narsa tushdi, uni olib cho‘ntagimga soldim-u, otga mindim va otboqardan qaysi tomonga qarab ketganini so‘rab, otimning boshini qo‘ydim.

Kechasi oydin edi.

Mendan oldin ketgan otliq odamga ko‘zim tushgach, otning jilovini tortib qorama-qora ketaverdim. Shaharning kunbotar tomonida chorbog‘im bor edi. Yoz vaqtlarda ko‘ngil ochish uchun borib, ikki-uch kun dam olib kelar edim. Hozirgi yo‘limiz xuddi o‘sha chorbog‘ga borar edi.

Oldingi noma’lum otliq chorbog‘ga kirdi-yu, otini bog‘lab mehmonxonaga qarab yurdi. Men ham otimni bog‘lab uning ketidan yurdim.

Bog'ni Qahraton degan zanji boshchiligidagi qirq nafar qullarim qo'riqlab yotar edilar.

Katta mehmonxonada Qahraton boshliq qirq nafar qullar ko'zalarga sharoblarni to'ldirib, Gulni poylab o'tirgan ekanlar.

Gul mehmonxonaga kirishi bilan Qahraton qichqirib uni yomon so'zlar bilan so'kdi. Gul esa yalinib:

— Zo'rg'a Sanobarni uxlatdim, xayolimda xuddi orqamdan kelayotganga o'xshaydi, — dedi. Shunda Qahraton:

— Sanobarning ko'kragiga men bergan muhrani qo'ygan bo'lsang, badanini burda-burda qilib tilsang ham uyg'onmaydi. O'tir, sharobni quy! — dedi. Allaqanday shubhalarga tushgan Gul:

— Shu bugun xavotirdaman, Sanobar kelib qoladi deb qo'rqayotirman, — dedi.

— Quy sharobni, Sanobaring kelsa, ming joni bo'lsa ham tirik qolmaydi, agar kelsa, uni ajal haydab keladi.

— Qo'rqayotirman, bahodir.

— O'tir deyman senga, quy sharobni.

Gul to'rga chiqib Qahratonning yoniga o'tirdi-yu, sharobni quyib avval unga, keyin boshqalarga noz-u karashma bilan uzata boshladi.

Qilichimni yalang'ochlab eshikda poylab tayyor bo'lib turdim.

Gul har zamonda: „Bugun qo'rqayotirman" deb qo'yardi. Qahraton yigitlardan biriga: Eshikka chiqib kel, buni xotirjam qil, — dedi. Yigitlardan biri dahlizdan boshini chiqarishi bilan uning boshini kesib tashladim. Eshikka chiqqan qul qaytib kirmagani uchun Gulning qo'rquvi oshdi;

— Chiqqan yigit kelmadi-ku? — dedi. Qahraton ikkinchi yigitni chiqardi, uning ham boshini kesdim, uchinchisi chiqdi, to'rtinchisi chiqdi, beshinchi chiqdi, chiqqanining boshini kesaverdim va borib-borib Qahraton bilan Guldan boshqa mehmonxonada hech kim qolmadi. Faqat Gul emas, Qahraton ham mening eshikda turganimni bilgan edi. Uning ham kayfi tarqagan edi.

— Hoy Sanobar, qani kir, baxtimizni bir sinab ko'raylik! — deb chaqirdi Qahraton. Men kirdim. Ikkalamiz talashib ketdik. Kurashimiz ancha davom etdi. Goho men uni surib borar edim, goho u meni surib kelar edi, ikkalamiz ham bir necha joyimizdan yarador bo'ldik. Ko'p olishuvlardan keyin men fursatni qo'ldan bermay, Qahratonning boshini kesdim. Gulni shaharga olib keldim va temir qafasga solib qo'ydim. Gulni qafasga solishimning sababi shu, qani endi dunyo bilan xayrlashgin, jallodni chaqiraman, — dedi.

Yigit cho'ntagidan ro'molchani olib duosini o'qib, cholning hurmati, deb bir qoqqan edi, gilamchaga aylandi, gilamchaning ustiga o'tirib:

— Ey gilamcha, cholning hurmati, meni egarchining oldiga yetkaz! — degan ekan, gilamcha havoga ko‘tarilib g‘oyib bo‘libdi. Yigit egarchining oldiga „Assalomu alaykum“, deb kirib kelibdi va u bilan ko‘rishibdi.

Egarchi yigitning oldiga dasturxon yozib, non qo‘yibdi va choy damlab kelibdi. U yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tiribdilar.

Yigit egarchiga Sanobar bilan Gul voqeasini aytib beribdi.

— O‘g‘lim, sen Sanobarning qo‘lidan qanday qilib qutulding, uni hech kimga sir aytmaydi, mabodo aytsa, eshitganning boshini o‘shal zamoniyoq kestiradi, — deyishardi-ku!

— Otajon, shartingizga muvofiq buyrug‘ingizni bajarib keldim, mening qanday qilib Sanobarshoh qo‘lidan qutulganim bilan ishingiz bo‘lmasin-u, o‘zingiznikini, ya’ni nima uchun egarni sindirishingizni aytib bering! — debdi.

— Xo‘p, o‘g‘lim, endi aytmasdan ilojim yo‘q, aytaman, siz bugun menga mehmon bo‘ling, hasratlashib yotamiz, — debdi. — Mening asli ota kasbim egarchilik, bu ishni otamdan o‘rganganman. Ota-onamdan bir singlim bilan qoldim, singlim uy ishini qilar, men egarchilik qilib, ro‘zg‘orimizni o‘tkazar edik. Ota-onamizdan keyin uch yil shu ahvolda kun kechirdik.

Kunlarning birida kechqurun uyga qaytsam, chiroyli, xushbichim, kelishgan odamlar bilan hovlimiz to‘la. Hayron bo‘ldim. Kimdan so‘rashimni bilmayman. Ichkari hovliga kirib xotinlar orasidan singlimni topib, undan: — Nima gap, bular kim, qayerdan kelishdi? — deb so‘ragan edim:

— Bugun sizning to‘yingiz, sizni uylantirishyapti, — dedi.

— Kimlar meni uylantirishadi?

— Bu yoqqa keling, — deb singlim meni bir uyga olib bordi, meni kiyintirishdi, chimildiqqa olib kirishdi, chimildiqda juda ham chiroyli kelinchak turgan edi.

Bu kelinchak shunday chiroyli ediki, uning ta’rifiga til ojiz edi, umrimda shunday chiroyli qizni ko‘rmagan edim. Ko‘zlarimga ishonmas edim, dunyoda shunday chiroyli qiz ham bo‘ladimi? — deb o‘zimdan o‘zim so‘rar edim.

To‘y marosimlari o‘tdi, hovlidagi odamlarning ko‘pchiligi ketdi, biz bilan xotinimning ikkita kanizi va bir quli qoldi. Shunday qilib, xotinim bilan yaxshi kun kechira boshladik.

Bir yildan keyin xotinim o‘g‘il tug‘di. Er-u xotin chaqaloqni qo‘yishga joy topolmas edik.

Turmushimiz yaxshi o‘tar, urish-janjalimiz yo‘q, rohat va farog‘atda yashar edik. O‘g‘ilchamiz ikki yoshga to‘lganda xotinim yana bir o‘g‘il tug‘di.

Katta o‘g‘lim to‘rt yoshga, ikkinchisi ikki yoshga kirdi. Bir kun arzimagan narsa ustida er-u xotin urishib qoldik. Gapimni ko‘p qaytara berganidan jahlim chiqib ketdi-yu, bir tarsaki urib, chiqib ketdim.

Kechqurun hovliga kelsam, hech kim yo‘q, singlim uyning bir burchagida yig‘lab o‘tiribdi.

— Ha, nima uchun yig‘laysan, yangang qayoqda, bolalar qani, nima uchun uyda hech kim yo‘q? — deb so‘radim.

— Akajon, urib nima qilardingiz, qayerdan kelgan bo‘lsa, o‘sha yoqqa ketdi, — deb ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

U qo‘shnidan so‘radim, bu qo‘shnidan so‘radim, mahallamizning oqsoqollaridan so‘radim, shaharning amaldorlaridan, yasovulboshilaridan so‘radim, xullas, birov ko‘rdim demaydi, shu yo‘q bo‘lganicha hozirgacha yo‘q.

Shundan buyon kunim o‘tsin, shu bilan ovunay, ermak bo‘lsin deb egar yasayman. Egarni sotib, pulni olishim bilan xotinim, o‘g‘illarim, xotinim bilan kechirgan kunlarim ko‘z oldimdan o‘ta boshlaydi-yu, yaram yangi bo‘ladi, yaraga tuz sepgandek bo‘ladi-yu, rangim o‘zgarib ketadi. Pulni egasiga qaytarib, egarni sindirib tashlaganimdan keyin hovrim bosilib, biroz tinchlanaman, — deb egarchi o‘z sarguzashtini tamom qilibdi.

Yigit egarchi bilan xayrlashib, gilamchaga o‘tirib, novvoyning oldiga boribdi. Novvoyxona egasi bilan salomlashib, unga egarchining sarguzashtlarini aytib beribdi.

— Ukam, siz egarchini qanday eritdingiz, u juda o‘jar chol edi-ku?— debdi.

— Nima qilsam ham ayttirdim, endi siz ham ayting! — debdi yigit.

— Otam juda qashshoq yashar edilar, tirikchiligimiz juda ham qiyinchilik bilan o‘tar edi. Otam o‘lgandan keyin uyda hech narsa qolmadi. Hech qanday hunarim bo‘lmaganidan mardikorchilikdan boshqasiga yaramadim.

Bir kun ertalab mardikor bozorida turgan edim, bozorga qora qashqa ot mingan bir boyvachcha keldi. Boyvachchaning boshida suvsar telpak, egnida kimxob to‘n, belida oltin kamar, oyog‘ida yaxshi etik bor edi. Ot anjomlariga ham oltin-kumush va har xil javohirlar qadalgan edi.

Boyvachcha oyog'ini uzangiga tirab turib: „Menga bir yilcha ishlash uchun birorta odam kerak, ishim og'ir emas. O'n bir oy men unga xizmat qilib boqaman, o'n ikkinchi oyda bir oy u menga ishlab beradi. Shunaqa odam bormi? — deb so'radi.

Men irg'ib o'rnimdan turib, uning oldiga bordim.

— Mana men boraman, xo'jayin, — dedim. Basharamga tikilib turdida, yuring! — deb yo'l boshladi, yo'l-yo'lakay mendan har xil gaplarni so'rab bordi.

Xo'jayinning uyiga yetib keldik. Otini otxonaga bog'lab, mehmonxonani ochib, meni olib kirdi-da, „Mana shu uy sizniki, ertalab shirchoy, tushda palov, kechqurun sho'rvani ichib, bemalol yotaverasiz", deb ichkari hovliga kirib ketdi.

Ichkaridan avval dasturxon bilan non olib chiqdi, dasturxonni yozib, nonni ushatib qo'ydi-yu, bir kosa saryog' solingan shirchoy olib chiqdi, o'zi esa ichkariga kirib ketdi.

Shirchoyga nonni to'g'rab yedim, qorinni to'yg'azib, dasturxonni yig'ib qo'ydim. Xo'jayin chiqib menga ish buyurar, deb ishga tayyor bo'lib turdim, lekin xo'jayin tushgacha chiqmadi.

Tushda xo'jayin bir lagan palov ko'tarib keldi, mening oldimga qo'yib, o'zi kirib ketdi, kechgacha yana chiqmadi.

Kechqurun ikkita non bilan bir kosa sho'rva olib chiqdi. Shu zaylda kunlar, oylar o'taverdi. Meni o'n bir oy yaxshilab boqdi, hech qanday ish buyurmadi. O'n ikkinchi oy boshlanishi bilan ertalab xo'jayin chiqib:

— Qani, endi sizning ishlaydigan vaqtingiz keldi, turib aravani qo'shing! — deb buyurdi. Aravani qo'shdim, namat, ko'rpacha, idish-tovoq va bitta katta meshni aravaga ortdik, o'zi aravaga chiqib o'tirdi-yu, menga:

— Otga minib haydang! — deb buyurdi.

Xo'jayin ko'rsatgan ko'chalar bilan shahar darvozasidan chiqdik, katta yo'l bilan ketaverdik. Yarim manzil yurganimizdan keyin dengiz bo'yiga chiqdik. Otni aravadan chiqarib, eski bir qoziqqa bog'ladik.

Dengiz bo'yiga joy soldim, ko'rpacha to'shadim, aravadagi narsalarning hammasini tushirdim.

O'sha yerda bir eski o'choq bor ekan, qozonni shu o'choqqa osdim.

Xo'jayin o'zi pishirgan oshni suzib keldi-yu, kosani menga uzatib, bitta suv oling! — deb buyurdi. Men suv olgani dengizga engashganimda, mening oshimga behush qiladigan dori sepib qo'yibdi.

Oshni „oling-oling“ qilib yedigu, men o‘zimdan ketib qoldim. O‘zi bemalol oshni yebdi, meni meshga solibdi, meshning og‘zini bog‘lab, dengizga oqizib yuboribdi.

Suv to‘lqini meni dengizning narigi qirg‘og‘iga tashlabdi. Bir vaqt o‘zimga kelsam, bir narsaning ichida siqilib yotibman. Bir kuchangan edim, meshning og‘zidagi ip yechilib ketdi-yu, boshim meshdan chiqdi. Qarasam, meshning ichida ekanman. Meshdan bir amallab chiqib oldim. Qarasam, atrofim to‘la qimmatbaho toshlar. Ko‘zimga yaxshi ko‘ringanini terib, meshga sola boshladim. Meshni to‘ldirib, og‘zini chilvir bilan mahkam bog‘ladim. Cho‘ntaklarimni ham toshlarga to‘ldirdim.

Bir vaqt qarasam, osmondan katta bir tuyaqush uchib keldi-yu, meshni ko‘tarib uchib ketdi. Men ko‘p azoblar chekdim. Dengizdan baliq tutib, toshlarga yopib yeb yurdim.

Shu ahvolda olti kecha-yu olti kunduz yurdim, yettinchi kuni kechasi yig‘lab uxlab qolibman. Tush ko‘ribman. Tushimda bir oppoq soqolli nuroniy chol oldimga kelib:

— Tur, bolam, mana bu ko‘prikdan o‘tib ketgin! — dedi. Cho‘chib uyg‘ondim. Ko‘zimni ochib qarasam, dengiz ustida baland ko‘prik paydo bo‘libdi.

Irg‘ib o‘rnimdan turdim-u ko‘prikka qarab yugurdim. Ko‘prik juda uzun edi. Zo‘r mashaqqatlar bilan dengizning narigi tomoniga o‘tib oldim. Orqamga o‘girilib qarasam, dengiz ustidagi ko‘prik buzilib, baliq bo‘lib suvga tushib ketdi.

O‘shanda: „Agar baxtim chopib, davlat topsam, topganimni baliqlarga beraman“ deb niyat qilgan edim.

Shu kuni dengiz bo‘yida uxladim. Uyqudan turib, shaharga jo‘nadim. Yo‘lda kela turib tuproqda meshning izini ko‘rdim.

Keyinchalik bilsam, xo‘jayin har yili menga o‘xshagan bir bechorani dengizga oqizar ekan. O‘sha odam ham menga o‘xshab asl toshlarni meshga solib tayyorlab qo‘yganda, tuyaqush kelib meshni changallab uchar va dengizning bu tomoniga olib o‘tib tashlar ekan. Buni poylab turgan xo‘jayin meshni aravaga ortib uyiga olib kelar ekan.

Shaharga yetib keldim. Yonimdagi toshlardan birini sotib kiyimlarimni yangiladim, bir saroyga kelib yotdim. Ertalab mardikor bozoriga borib, xo‘jayinning kelishini poylay boshladim.

Beshinchi kuni xo‘jayin kelib, odam so‘ragan edi.

— Men boraman, xo‘jayin, — dedim.

Yuzimga, kiyimlarimga uzoq tikilib qaragach, orqasidan ergashtirib jo‘nadi.

Xo‘jayin hovlisiga kelib, yana avvalgicha yashayverdim. Nihoyat aravani qo‘shish kuni yetib keldi. Bu gal men ham behush qiladigan dori olib qo‘ygan edim.

Bulturgidek dengiz yoqasiga yetib bordik. Otni aravadan chiqazib bog‘ladim, o‘ltiradigan joyimizni supurib namat va ko‘rpachalarni soldim. Xo‘jayin menga osh qilishni buyurdi.

Bu gal xo‘jayin meni alday olmadi. Avval kosaga suv olib qo‘ydim-u, keyin oshni suzdim va xo‘jayinning oshiga dorini sepib aralashtirib qo‘yib: „Qani, xo‘jayin, oling!“ — deb oshni tushira boshladim. Xo‘jayin qovog‘ini solib osh yeyishga tushdi, besh-olti osham yeganidan keyin o‘zidan ketdi.

Men oshni yeb bo‘lib o‘lgudek qotib qolgan xo‘jayinni meshga soldim va meshning og‘zini bog‘lab, dengizga oqizib yubordim, o‘zim aylanib yuraverdim.

Kun botishiga yaqin bir qush meshni changallab kelib, aravadan nariroqqa tashladi-yu, o‘zi uchib ketdi.

Meshni aravaga ortdim-u, shaharga qarab otni haydab ketdim.

Aravadan narsalarni hovliga olib kirdim, o‘rta eshikni taqillatdim.

— Kim u,— deb ovoz berdi xo‘jayinning xotini.

— Bu yoqqa qarang!

— Kimsiz, nima deysiz?

— Qo‘rqmang, men ikki yildan beri sizning mehmonxonangizda turgan odamman, bultur ajalim yetmagan ekan, xudo yo‘l berdi, dengizdan eson-omon o‘tib, ikkinchi marotaba shu hovliga keldim.

Bu gal o‘zim va o‘zimga o‘xshaganlarning o‘rniga xo‘jayinni yubordim, u kishi endi vahshiy hayvonlarga yem bo‘ldi.

Men mana shu hovli va undagi boyliklarning egasiman, menga o‘xshagan bechoralarni qurbon qilgan eringizning gunohiga siz sherik bo‘lgansiz. Bilib qo‘ying, qozi, hokim va boshqalarga arz-u dod qilaman desangiz, o‘zingiz gunohkor bo‘lasiz, chunki eringizning qilmishlarini bilib turib, yashirib kelgansiz.

Menga tegishga rozi bo‘lsangiz, uy egasi bo‘lib tura bering, agar rozi bo‘lmasangiz, mana katta ko‘cha, to‘rt tomoningiz qibla. Sizga besh-olti kun muhlat beraman, xo‘p tanangizga o‘ylang-da, javobini bering! — dedim.

— Xo‘p, aylanay, o‘ylab ko‘raman, erimning gunohiga meni sherik qilmang, xotinlarning ishi erining buyurganini qilish bo‘ladi, — dedi.

Kunlar avvalgidek o‘ta berdi, ayol menga tegishga rozilik bildirdi. Ayol bilan er-u xotin bo‘lganimizdan keyin eridan qolgan asl toshlar: yerto‘lada to‘lib yotgan gavhar, zumradlarni ko‘rsatdi.

Bu bitmas-tuganmas boylikni asrab nima qilaman, dedim-u shu novvoyxonani qurdim. Nonlarni esa baliqlarga yedirib yuribman. Bu tuganmas boylik mendan keyin o‘g‘il va nabiralarimga ham yetib, ortadi. Hozir o‘sha xotinimdan bir o‘g‘il va bir qizim bor, — deb novvoy o‘z sarguzashtini tamomladi.

Yigit novvoy bilan xayrlashib, gilamchasiga o‘tirib go‘rkov oldiga kelibdi.

Yigit go‘rkov chol oldiga kirib, novvoyning sarguzashtlarini so‘zlab beribdi.

— Meni ham aytishga majbur qilding, bolam, — deb gap boshladi go‘rkov chol. Mening asli kasbim savdogarlik. Savdogarchilik bilan uzoq-uzoq shaharlarga borar edik, safarimiz ba’zi vaqtlarda besh-olti yillarga ham cho‘zilar edi.

Bir kuni xotinim homilador bo‘lib qoldi. Oy kuni yetib, bir qiz tug‘di. Eson-omon qutuldi, deb xursand bo‘ldim. Chaqaloqqa chillasida kasal tegdi-yu, a’zoyi-badani yara bo‘lib ketdi. Yara kundan-kunga badtar bo‘la boshladi, hech qanday dori-darmon ta’sir qilmadi.

Bolani ko‘rsatmagan tabib, jarroh, duoxon, azayimxon, qasidaxon, domla, otin va folbin qolmadi.

Uyimizda faqat qiz emas, uning g‘amida biz ota-ona ham kasalga o‘xshar edik.

Birovni ko‘rganimizda „Siz biror tabib, duoxonni bilmaysizmi?“ deb so‘rar edik.

Oradan o‘n yetti yil o‘tdi, qizimiz o‘n yetti yoshga kirdi. Ko‘klam vaqti edi, juma kuni qarindoshimizning to‘yiga borib, qaytishda go‘riston ichidan o‘tib ketayotganimda bir bosh suyagiga ko‘zim tushdi. Suyakning peshonasida „Shu kalla o‘n to‘rt kishini o‘ldiradi“, deb yozib qo‘yilgan edi.

Kallani qo‘limga olib, sinchiklab qaradim, quruq bosh suyagi ekan.

Bu quruq bosh suyak qanday qilib o‘n to‘rt kishini o‘ldirar ekan deb uzoq o‘yladim, kallani qo‘ynimga solib uyga keldim-da xotinimga: „Xotin, shu suyakni hovonchada tuyib talqon qilib, bitta xaltachaga solib qo‘ygin“, deb buyurdim. Xotinim kalladan qo‘rqmasin, deb u hovonchani olib kelguncha, teshani olib uni sindirib qo‘ydim.

Xotinim suyakni hovonchaga solib, tuyib, sandiqqa solib qo‘ydi. Shu kunlarda shahrimizdagi bir qancha savdogarlar safarga tayyorlanayotgan edilar. Meni ham birga olib ketmoqchi bo‘lishdi.

O‘ylab turib rozilik berdim va safarga tayyorlana boshladim. Karvon tayyor bo‘lgach, xotinim bilan xayrlashib jo‘nab ketdim.

Karvonimiz bilan yo‘l yurib, yo‘l yursak ham mo‘l yurib, u shahardan bu shaharga o‘tib, savdo qilib uzoq yil yurdik.

Uydan ketganimdan bir yil o‘tgach, xotinim meni sog‘inibdi shekilli, sandiqni ochib kiyimlarimni bir-bir ko‘rib turgan ekan, kiyimlarim orasidan xaltachadagi suyak talqoni chiqibdi.

Bu nima ekan deb ochib ko‘rib, ozgina yalab ko‘rgan ekan, oddiy talqondek tuyulibdi, shundan qizimga ozgina bersam nima qilarkin, deb qizning og‘ziga solgan ekan, qiz yana so‘rabdi, yana talqondan ozgina beribdi. Ertasi kuni qizning yarasi biroz qotgandek ko‘rinibdi, ikkinchi kuni undan yaxshiroq bo‘libdi: keyin-keyin yaraning nishoni qolmabdi. Oradan uch oy o‘tgach, qiz butunlay sog‘ayib ketibdi-yu, lekin homilador bo‘lib qolibdi. Hamma hayron bo‘libdi.

Oy kuni to‘lib, bir o‘g‘il tug‘ibdi, tug‘ilishining ikkinchi kuniyoq bola tilga kiribdi. U tez o‘sar, o‘zidan-o‘zi o‘qish-yozishni bilar, hatto mullalar bilmagan gaplarni bilar ekan.

Shunday bir donishmand bo‘libdiki, unga hamma hayron qolibdi.

Bola to‘qqiz yoshga to‘lganda, karvonimiz bilan qaytib keldim. Bizni qarshi olib chiqqan qarindosh-urug‘, oshna-og‘aynilardan nabiramning donishmandligini eshitdim-u, mening maslahatimsiz erga berganlariga jahlim chiqib hovliga kirdim. Ko‘chamizga burilishim bilan nevaram:

— Bobojon, — deb quchog‘imga otilishi bilan, yuragim mehrga to‘ldi-yu, jahlimdan asar ham qolmadi.

Nevaramni quchoqlab bag‘rimga bosdim. Hovliga kirdik, uning gaplariga og‘zim ochilib qoldi. U uyda bo‘lgan o‘zgarish va yangiliklarni menga so‘zlab berar, shahrimizdagi donishmandlar bilan masala talashib, ularni mot qilganini va boshqa bir qancha voqealarni gapirib berar edi. Safardan qaytganimizning beshinchi kuni shahrimizning podshosi bizni chaqirdi. Podshohning ziyofatiga hamma savdogarlar hadyalar olib boradi. Men ham o‘z tuhfamni ko‘tarib ketayotganimda nevaram:

— Bobojon, meni ham olib boring, — deb yalinib yopishdi.

— Qo‘y, bolam, podshohlarning majlisi nozik bo‘ladi, men darrov kelaman, — deb aldasam ham ko‘nmadi. Noiloj olib borishga majbur bo‘ldim.

Tuhfalarni yasovulboshi-bakovulboshilarga topshirib, podshohning mehmonxonasiga kirib o‘tirdik.

Har kim ko‘rgan voqealarini aytib berar, har xil xalqlarning urf-odatlari haqida gapirib berishar edi. Savdogarlardan biri g‘aroyib baliqni suvga solib olib kelgan ekan. Baliqni o‘rtaga qo‘ydi.

Bu jonivorni ko‘rganlar hayron qoldilar. Podshohdan tortib, o‘tirganlarning hammasi ham baliqqa qiziqdi. Hamma bir-bir ko‘rib bo‘lgach,

podshoh ichkariga olib kirgin, xotin-qizlar ham ko‘rishsin, deb buyurdi. Mahram bola baliqni haramga olib kirdi-yu, birozdan keyin darrov olib chiqdi.

— Ha, nima uchun darrov olib chiqding?

— Bu jonivor nomahram ekan, erkak emish, — deyishdi. Nomahram ekan, degan so‘zni eshitgan nabiram „piq“ etib kulib yubordi.

O‘tirganlarning hammasi bolaga qarab qo‘ydi.

— Kim u kulgan? — deb baqirdi podshoh.

Mening yonimda o‘tirgan bir savdogar, mana bu bola, deb nabiramni ko‘rsatdi.

G‘azablangan shoh:

— Jallod! U bolaning boshini ol! — dedi. Jallod kirib bolaning qo‘lidan ushlagan edi: „Podshohi olam, avval so‘rash, keyin so‘yish, kulishimning sababi bor“, dedi nabiram.

— Ayt sababini! —dedi podshoh.

— Qulog‘ingizga aytaman, — dedi.

— Kel, ayta qol! —dedi podshoh.

Nabiram podshohning qulog‘iga bir nima dedi-yu, kelib yonimga o‘ltirdi. Dasturxonlar yozildi, necha turli taomlar yeyildi, sharoblar ichildi.

Ziyofatdan so‘ng podshoh mehmonlarga in’omlar berdi..

Menga qarab:

— Sizning nabirangiz bugun bizga mehmon bo‘ladi, — dedi.

Podshohga qulluq qilib chiqdim. Uyga keldim-u, aql-u hushim nabiramda qoldi. Ertalabgacha mijja qoqmasdan chiqdim. Ertalab podshoh saroyiga qarab yurdim. Nabiram podshoh bilan choy ichib o‘tirgan ekan. Podshoh meni choyga taklif qildi.

O‘sha kuni podshoh shunday katta in’om berdiki, shuncha yildan beri savdogarchilik qilib orttirgan davlatim podshoh bergan in’om oldida dengizdan bir qatra, oftobdan bir zarra edi.

Juda xursand bo‘lib uyga qaytdik. Nabiram podshohning qulog‘iga:

— Kulganimning sababini kechasi aytaman, meni bobomdan so‘rab olib qoling! — degan ekan.

Yarim kechagacha nabiram podshoh bilan shatranj o‘ynab o‘tiribdi. Yarim kechadan keyin:

— Qani, shohim, qurollaning, menga ham qurol bering, — deb o‘rnidan turibdi. Qurollanib bo‘lgach, ikkovlari saroyga kirishibdi.

Nabiram podshohni katta qizining uyiga boshlab kiribdi; unda hech kim yo‘q ekan. Podshohga dahlizdagi obrezni ko‘rsatib, „Shu joyni oching!“ — debdi.

Podshoh obrezni ochgach, uning tagida bir zina ko'rinibdi, zina bilan yana bir dahlizga tushibdilar. Tokchada sham yoqig'liq. Dahlizda bir katta kovush va ikkita kichkina bola kovushi bor ekan.

Dahlizdagi uyning eshigini ochib uyga kirishibdi.

Podshohning qizi bir badbashara kishi bilan yotar, bir tomonda ikkita uch-besh yoshlar chamasidagi bolalar, ikkinchi tomondagi beshikda esa yana bir bola yotar ekan.

— Podshohi olam, bu badbashara mahram-u, tilsiz baliq nomahrammi? Mana kulishimning sababi, — debdi bola.

Shoh yerto'ladagilarni jazolabdi. Shundan so'ng podshoh nabiramni tez-tez chaqirib turadigan bo'ldi.

Bir kun namoz o'qiyotganimda nabiram kelib namozimni buzdi. Bolam, sen bir oz tashqarida o'ynab yurgin, men namozimni o'qib olay, keyin ikkalamiz bir joyga boramiz, — deb aldab yubordim. O'zim namozimni o'qiy boshlagan edim, yana kelib nomozimni buzdi, aldab yuborib namozimni boshlashim bilan kelib, namozni yana buzdi.

Ming aqlli bo'lsa ham, bola bolaligiga boradi-da. Bolaga qo'shilib o'zim ham bola bo'lib qolibman. Endi bunga bir po'pisa qilib qo'rqitib qo'ymasam bo'lmaydi, dedim-u, bir shapaloq urdim, bola ikki yumaladi-yu, go'ristondan topganim quruq suyak kalla bo'lib qoldi.

O'sha kallani mana shu go'rga qo'yganman, endi pushaymon qilamanki, nima uchun men uni urdim, namozimni yuz martaba buzsa ham, ming marta buzsa ham mayli edi, men nima qilib qo'ydim, — deb yig'layman, ammo foydasi yo'q.

Mollarim va pullarimni bir sodiq qulimga berganman, xotinim bilan qizimning ro'zg'origa o'sha qaraydi, o'zim o'lgunimcha shu go'ristonda qorovul bo'lib yig'lab yotishga ahd qilganman, — debdi chol.

Chol bilan xayrlashib, tandirchi oldiga kelgan yigit go'rkov sarguzashtini aytib beribdi. Chol bolaga:

— Bizning turmushimizda bunday g'aroyib voqealar bo'lmadi. Turgan joyimiz tandir bo'lsa ham ichi katta joy. Kiygan choponimiz esa bitta, chunki juda qashshoqmiz, topganimiz zo'rg'a ovqatimizga yetadi, — deb bu kishi ham o'z sarguzashtini so'zlab beribdi.

Uzoq safar va mashaqqatlarda sarson bo'lgan, nihoyat, ko'p sirlarni bilib olgan yigit uyga kelgach, ota-onasi bilan ko'rishib, butun voqeani so'zlab beribdi, ertasidan boshlab siyoh, qalam va qog'ozlarni g'amlab olibdi-yu, o'tgan voqealarni bir kitob qilib, otasining qo'liga beribdi va podshohning vaziriga topshirishni va javobini olib kelishni iltimos qilibdi.

Chol saroyga kirib podshohga salom beribdi.

Podshoh vazirga qarabdi: Vazir:

— Ha, ota, nima xizmat, kimga arzingiz bor? — debdi.

Chol qo‘ynidagi kitobni vazirga beribdi.

— Bu nima, ota? —debdi vazir.

— Bu, o‘sha tandirda turuvchi chol-u kampirning hikoyasi. Qulbachchangiz berib yubordi, — debdi chol.

— Ular kitobni qo‘liga olib varaqlab ko‘rishibdi; har joy har joyidan bir xat, yarim xat o‘qib, ota siz ketavering, bu kitobni o‘qib ko‘rib, sizni o‘zimiz chaqiramiz, — deb cholga ruxsat berishibdi.

Podshoh bilan vazir kitobni diqqat bilan o‘qib chiqishibdi.

— Podshohi olam, bu yigit juda aqlli ko‘rinadi, bu ishlar har qanday odamning qo‘lidan kelmaydi. Bu kitobda yozilgan go‘rkov, novvoy, egarchilarning sirini bilish uchun ko‘p kishilar ovora bo‘lib, ularni gapirtira olmaganlar. Ayniqsa, Sanobarshohning oldiga borgan odam tirik qaytmagan.

Siz uning kambag‘alligiga qaramang, davlati bo‘lib, aqli bo‘lmasa, u davlatdan nima foyda? Bizlarning maslahatimizga kirsangiz malikani shu yigitga bering, — deyishibdi vazirlar. Podshoh bu maslahatga ko‘nibdi.

Bir haftadan keyin cholni chaqirtirib, unga bu xushxabarni va to‘y tayyorgarligiga kirishishni aytibdilar. Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, malikani cholning o‘g‘liga berib, hammalari murod-maqsadlariga yetgan ekanlar.



«Egri va To'g'ri» ertagiga ishlangan rasm



Egri va To‘g‘ri

Qadim zamonda bir qishloqda bir yigit bor ekan. Unga To‘g‘riboy deb nom bergan ekanlar. Uning bittagina ozg‘in otidan bo‘lak narsasi yo‘q ekan. Bora-bora qishloqda ish topilmaydigan bo‘lib, uning ahvoli og‘irlashibdi. Oti bilan mardikor ishlashga ikkinchi bir tomonga jo‘nab ketibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Yo‘lda unga bitta piyoda yigit hamroh bo‘libdi. Ikkisi suhbatlashib ketaveribdi.

— Xo‘sh, yo‘l bo‘lsin? — debdi To‘g‘riboy.

— Mardikorlik qilish uchun uzoq shaharga ketayotibman, — deb javob beribdi piyoda yigit.

— Isming nima?

— Egriboy.

— Seniki-chi?

— To‘g‘riboy. Ikkimizning nomimiz bir-biriga mos ekan, kel, endi do‘st bo‘laylik, birga ishlab, birga yuraylik,— debdi To‘g‘riboy. Ikkovlari shunday deb ahdlashibdi.

Otliq yigit sherigining piyoda yurganiga rahm qilib, unga otini beribdi. Egriboy egarga o‘tirishi bilan otga bir qamchi berib, tezda ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. To‘g‘riboy hayron bo‘lib qolaveribdi. „Do‘stman, deb dushmanning ishini qilib ketdi,“ deb o‘ylabdi u. Rangi o‘chibdi, qoni qochibdi.

Oxiri piyoda yo‘lga ravona bo‘libdi. Kech kiribdi. Tik yo‘ldan adashib, bir so‘qmoqqa qayrilibdi. So‘qmoq ham qalin bir o‘rmonga kirib yo‘qolgach, To‘g‘riboy qayoqqa borishini bilmay, sarosimaga tushibdi.

Kech kuz pallasi ekan. Daraxtlarning yaproqlari to‘kilgan, qip yalang‘och, bargsiz qolgan qalin o‘rmon ekan. To‘g‘riboy hamon yo‘l axtarib yuraveribdi. Kech kirib qorong‘u tushibdi. Osmonda yulduzlar ham ko‘rina boshlabdi. To‘g‘riboy yo‘lda bir eski tandirga duch kelibdi. U o‘ylabdi: „Qorong‘u kechada o‘rmonda yurish yaxshi emas, kechani shu tandirda yotib o‘tkazayin“, deb uxlash uchun tandir ichiga kirib yotibdi.

Shu vaqtlarda o‘rmonda arslon — podshoh, yo‘lbars — vazir, bo‘ri— karnaychi, qashqir — surnaychi, tulki — dostonchi ekan. Haligi tandir turgan joy shularning bazmgohi ekan. Birozdan keyin bir qashqir kelib, tandir atrofini aylanib, uvlabdi. Oradan sal o‘tmay, o‘rmondagi butun hayvon shu yerga yig‘ilibdi. Arslon podshoh o‘rniga o‘tirib, o‘rmon ahllarining majlisini davom ettiribdi. Tulki doston boshlabdi:

— Yoronlar, shu o‘rmon orqasidagi tog‘da bir g‘or bor, men o‘n yildan buyon o‘sha g‘orda yashayman. Odamlarning uyida nimaiki bo‘lsa, mening uyimda ham bor. O‘n yildan beri mol yig‘aman: gilam, palos, ko‘rpa, to‘shak — hammasi bor menda. Yaxshi-yaxshi ovqatlar ham bor.

Tandir ichida o‘tirgan To‘g‘riboy o‘zicha o‘ylabdi: „Yaxshi, tulki-boynikiga mehmonga borsam bo‘lar ekan“. Navbati bilan qashqir so‘z boshlabdi:

— Sening joying qiziq emas, tulkiboy. Mana bu tepa ostida mening bir sichqonim bor, har kun tush vaqtida shuni tomosha qilaman. Uning qirq bitta tillasi bor. Shularni inidan chiqarib o‘ynaydi, keyin ularni o‘rtaga uyib, o‘zi tomosha qiladi, atrofida aylanadi, keyin yana iniga opkirib ketadi.

Endi ayiq afsonasini eshiting:

— Bu ham qiziq emas, — deb so‘zga kirishibdi ayiq, — bizning shu o‘rmonda bir qayrag‘och bor, uning pastrog‘ida ikki shoxchasi bor. Shu shoxchalarning yaproqlari butun kasallarga davo. Mana shu shahardagi podshohning qizi yetti yildan buyon kasal. Podshoh jar soldiradi: „Kimda-kim shu qizimni sog‘aytirsa, uni o‘shanga beraman“ deydi. Sog‘aytirolmagan kishini o‘ldiradi. Ko‘p tabiblar qizni sog‘aytirol-masdan, dorga osilib ketdilar. Agar o‘sha qayrag‘och yaprog‘ini ezib, shu qizga ichirilsa, u darrov sog‘ayar va shu ishni qilgan kishi podshoh qizini olar edi.

So‘ngra bo‘ri afsona boshlabdi:

— Yoronlar, bizning ham bir qiziq hikoyamiz bor. Shu o‘rmonning narigi chekkasida bir boyning qirq mingta qo‘yi bor. Men har kuni ikki qo‘yni yeyman. Meni ushlash uchun hamma hiylani ishlatdilar. Lekin hech iloj topolmadilar. Mana shu yaqin oradagi qir boshida turuvchi chol boboning bir iti bor. Agar shu itni sotib olsalar, u meni tilka-pora qilar edi.

Eng oxirida yo‘lbars gap boshlabdi:

— Bo‘ri aytgan boyning o‘n ming yilqisi shu o‘rmonning bir chekkasida o‘tlab yuradi. Men shundan har kuni bir ot yeyman. Lekin shu otlarning ichida bir ola ayg‘ir bor. Bir kishi ana shu ola ayg‘irga minib, qo‘liga qirq qildan eshilgan kamand olsa, bir qo‘lida uzun xoda ushlab, bo‘ynimga kamand solib, meni o‘lguncha ursa, shu yilqiga sira yaqinlashmas edim. Mening eng katta dushmanim shu ola ayg‘ir ekanligini boy bilmaydi...

Yo‘lbars afsonasini tugatishi bilan tong ham yorishibdi. Hamma hayvonlar joy-joyiga tarqab ketibdilar.

To‘g‘riboy tandirdan chiqib tulkining makoniga boribdi. Qarasa, hamma narsa joy-joyida, go‘sht ham bor, yog‘ ham bor, guruch ham bor. Darhol qozonga yog‘ solib, olovni yoqa boshlagan ekan, tog‘ boshidan oshib kelayotgan tulkini ko‘rib qolibdi va o‘zini panaga olibdi. Tulki uyga kelgach, qozonda yog‘ dog‘ bo‘layotganini ko‘rib, hayron bo‘lib qolibdi. Shunda To‘g‘riboy tulkini tappa bosib, bo‘g‘ib o‘ldiribdi. Osh qilib yeb, qornini to‘ydiribdi va yotib uxlabdi.

Ertasiga To‘g‘riboy qashqir aytgan tepalikni izlab ketibdi. Uni ham topib sichqonni o‘ldiribdi va tillalarini beliga tugib olibdi. Keyin ayiq aytgan qayrag‘ochning yaprog‘ini ham olibdi.

So‘ngra cho‘pon tomonga yo‘l solibdi. Cho‘ponni topib, undan hol-ahvol so‘rabdi. Shunda cho‘pon:

— Ahvol yomon, — debdi, — ancha vaqtdan beri bir bo‘ri har kuni ikkitadan qo‘yimni yeb ketadi. Hech ilojini qilolmayman. Xo‘jayin meni baloga qo‘yadi.

To‘g‘riboy so‘rabdi:

— Men shu bo‘ridan sizni qutqazsam, nima berasiz?

Cho‘pon xo‘jayindan qirq qo‘y olib berishga va’da qilibdi.

To‘g‘riboy haligi boboning itini sotib olib, cho‘ponga beribdi.

Cho‘pon bo‘ri ofatidan qutulibdi va To‘g‘riboyga xo‘jayindan qirq qo‘y olib beribdi.

Shundan so‘ng To‘g‘riboy yilqichining oldiga boribdi. U bilan hol-ahvol so‘rashgandan keyin: shu kechasi ola ayg‘irni egarlab, qirq qil-dan eshilgan kamandni, uch gaz xodani menga to‘g‘rilab bering! — debdi.

To‘g‘riboy otni minib, yo‘lbars keladigan so‘qmoqni poylab turibdi. Birdan yo‘lbars o‘rmondan yugurib chiqib, o‘zini otlar orasiga uribdi. To‘g‘riboy kamandni rostlab turib, yo‘lbarsning bo‘yniga solibdi. O‘rmonda yo‘lbarsni aylantirib yurib, o‘lguday uribdi. Yo‘lbars holdan ketib yiqilibdi. Yilqibon To‘g‘riboyning xizmati uchun ola ayg‘irni beribdi. To‘g‘riboy ola ayg‘irni minib shaharga yo‘l solibdi. Shaharga borsa, bozorda jarchi jar solayotgan ekan: — Podshohning qizi yetti yildan buyon kasal, kimki uni sog‘aytirsa, podshoh o‘shanga qizini beradi!.. Sog‘aytirolmasa, o‘ldiradi!

To‘g‘riboy jarchining orqasidan podshoh huzuriga boribdi va qizini boqib tuzatishga va’da beribdi. Podshoh To‘g‘riboyni qizining huzuriga boshlab kiribdi. To‘g‘riboy yonidagi yaproqni qizga ezib ichiribdi. Shu bilan qiz uch kun deganda sog‘ayib ketibdi. Podshoh qizini To‘g‘riboyga beribdi.

Podshoh To‘g‘riboydan so‘rabdi:

— Endi sizni qaysi shaharga hokim qilay?

To‘g‘riboy aytibdi:

— Menga hokimlik kerak emas. O‘rmon etagidagi tog‘ ustiga bir uy solib bersangiz, bas. Men o‘z mehnatim bilan kun kechiraman.

Podshoh uning aytganini qilibdi. To‘g‘riboy xotini bilan tog‘da yashabdi. Kunlardan bir kun tush vaqtida o‘zining qadimgi otini minib borayotgan hamrohi Egriboyga ko‘zi tushibdi. Uni chaqirib keltiribdi va yaxshilab ziyofat qilibdi. Egriboy:

— Do‘stim, — debdi, bunday baland joyga qanday qilib imorat solding? Uyli-joyli bo‘libsan, bularni qayerdan topding? Birovga xiyonat qilgan kishining qorni sira to‘ymas ekan. Sening otingni olib qochib, qayerga borsam, ishim chappasidan keldi. O‘shandan beri bir marta ham qornim nonga to‘yganini bilmayman.

To‘g‘riboy:

— Mana bu o‘rmon ichida bir tandir bor. Men o‘sha tandir ichida bir kecha yotib, bu narsalarga erishdim, — degan ekan, Egriboy:

— Sadag‘ang bo‘lay, menga ham ko‘rsatib qo‘y, men ham o‘sha tandirda bir kecha yotib chiqay, — debdi.

To‘g‘riboy uni boshlab borib, tandirni ko‘rsatibdi. Egriboy tandirga kirib yotibdi.

O‘rmon hayvonlari yana yig‘ilishibdi. Arslon podshoh:

— Mening afsonachi do‘stim tulki qayerda? — deb so‘rabdi.

Qashqir o‘rnidan turib shunday debdi:

— Afsona qursin: u kungi afsonaning kasofati bilan siz tulki do‘stingizdan, men tillali sichqonimdan ayrildim.

Uning ketidan ayiq o‘rnidan turib:

— Qayrag‘ochimizning yaproqlarini ham olib ketibdilar, — debdi.

Navbat bo‘riga kelganda, podshohga qarab debdi:

— Men oziq-ovqatimdan ajradim, cho‘pon men aytgan itni sotib oldi, tilka-poramni chiqazdi. Kaltak zarbidan a’zoyi-badanim shishib ketdi.

Arslon podshoh qovog‘ini solib turib, buyuribdi:

— Kim chaqimchi bo‘lsa, tutib o‘ldiring!

Qashqir tustovuqdan ko‘ribdi. Tustovuq: „Chaqimchi tandirda“ deb uchib ketibdi. Hamma hayvonlar birdaniga tandirga yugurishib, uning ichida berkinib yotgan Egriboyni tutib olishibdi va „chaqimchining jazosi — shu!“, deb uni tilka-tilka qilib tashlashibdi.

Shunday qilib, To‘g‘riboy to‘g‘riligidan maqsadiga yetibdi. Egriboy esa egriligidan jazosini tortibdi.



Hasan va Zuhra

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir podachi chol bilan kampir bor ekan.

Ularning Nasiba, Gulbahor va Zulfiya degan uch qizi bo‘lgan ekan.

Oydan oy, yildan yil o‘tibdi, qizlarning bo‘yi yetibdi: Nasiba yigirma birga, Gulbahor o‘n to‘qqizga, Zulfiya o‘n sakkizga kiribdi.

Chol-kampir qizlariga sovchi kelmagani uchun kecha-yu kunduz xafa bo‘lib yurishibdi.

Kunlardan bir kun chol kampirga qarab:

— Qarigan chog‘imizda juda qiyin ahvolda qoldik, bu uch qiz o‘g‘il bo‘lganda, bizni boqardi, hech bo‘lmasa bularga sovchi kelsa ham mayli edi, u ham yo‘q, — deb zorlanibdi.

Kampir cholga javoban:

— Bizning kasbimiz qashshoq podachilik bo‘lganidan keyin qizlarimizni kim ham olar edi? — debdi. Chol o‘ylab turib, kampirga bunday debdi:

— Bir maslahat bor, qizlarimizni o‘zimizga o‘xshagan kambag‘alga bersak deyman. Agar ular ma’qul topsa, yengil-yelpi to‘y qilib, qizimizni beraylik!

Cholning bu maslahati kampirga ma’qul tushibdi.

Choldan avval kampir yo‘lga ravona bo‘lib, qishloqdagi boyning qarollari bilan birma-bir uchrashib, har qaysisiga shunday debdi:

— Bolam, senga bir so‘zim bor, qizlarimning bo‘yi yetdi, „teng tengi bilan“ deganday, sen ham kambag‘al, biz ham. Topganingni to‘y qilib, qizlarimizdan xohlaganingni ola qol.

Lekin kampirning bu so‘ziga hech qaysi qarol ko‘nmabdi, kampirning ishi unmabdi.

Bechora kampir peshonasiga bir urib, yo‘lga tushibdi. Shunday qilib, podachining qizlari kuyovga chiqmay yuraveribdilar.

Bir kun qizlar so‘zlashib o‘tirib: „Oqjarning tuti pishibdi, bir borib tutxo‘rlik qilib kelmaymizmi?“ deyishibdi. So‘ngra uchovlari Oqjarga ketishibdi. Borishsa, tut pishgan, hamma yoq chamanzor, bulbullar sayramoqda emish. Qizlar kunduzi tut yeyishibdi. Kechasi chaylada ikkisi yotib uxlasa, biri uyg‘oq o‘tirib poylabdi. Uchala qiz shu ahvolda yuraveribdi.

Endi gapni boshqa yoqdan eshiting:

O‘sha yurtning bir podshosi bor ekan, o‘g‘il-qizga zor ekan, to‘rt xotini bor ekan-u, hech biri tug‘mas ekan. U bir kun taxtda o‘tirib, vazir-vuzarolari, donishmand va sipohlarini yig‘ib, ularga shunday debdi:

— E yoronlar, men podshohlik davrini surib, ko‘p kayf-u safo qildim. Endi umrim g‘am-anduhda o‘tmoqda. Olamdan o‘tsam o‘rnimda qoladigan o‘g‘il-qizim yo‘q. Shuning uchun kambag‘almi, qashshoqmi — menga baribir — tezroq bir qiz topilsin, topilganda qirq kun uloq chopilsin!

Shundan so‘ng vazir-vuzarolar maslahat qilib, har yoqqa tarqalishibdi. Podshoh: „Bir o‘g‘il, bir qiz ko‘rsam, katta to‘y qilar edim“, deb o‘z-o‘zicha xursand bo‘lib yurarkan. Podshoh to‘rt xotinini yig‘ib:

— Ey xotinlarim, sizlarni ko‘p dunyo sarf qilib olgan edim. Sizlar bilan shu vaqtgacha yashadim, endi yoshim ulg‘ayib qoldi. Hanuz farzand ko‘rmaganim uchun juda xafaman. Endi yana uylanmoqchiman. Menga yana bir xotin olib beringlar, — debdi. Xotinlar ham rozi bo‘lishibdi.

To‘rt xotin yashirincha yig‘ilib maslahat qilishibdi. Ulardan biri turib:

— Podshoh uylansa, farzand ko‘rsa, bizga g‘azab qilsa, ahvolimiz qanday bo‘lar ekan? — debdi. Shunda podshohning katta xotini, ya’ni vazirning qizi bu masalada otasiga murojaat qilishini aytibdi.

Vazir esa xaloyiqqa qarata:

— Hoy, xaloyiq! Podshoh farzand ko‘rmaganidan yana uylanmoqchi. Shuning uchun qashshoq bo‘lsa ham, yetim bo‘lsa ham, bir qiz toping-lar, — debdi.

Shunda bir kishi turib:

— Taqsir, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, bir so‘z aytsam, — debdi. Vazir:

— Ayt! — debdi.

— E janob vazir, Oqjarga uchta bo‘yi yetgan qiz kelganiga o‘n kuncha bo‘ldi. U yerda tut g‘arq pishgan, qizlar kunduzi tut yeydilar, kechasi bir chaylada uxlaydilar, hech narsa bilan ishlari yo‘q. Uchovi ham go‘zal, kelishgan qiz. Agar janoblari ma’qul topsalar, shular qalay bo‘lar ekan? Vazir:

— Meni o‘sha qizlar yoniga olib bor, ularni bir ko‘ray-chi, qanday qizlar ekan? — debdi.

Vazir qizlar chaylasi yoniga borib quloq solsa, ular gaplashib o‘tirishgan ekan. Nasiba singillariga qarab:

— Podshoh meni olsa, bor hunarimni ishlatib, unga shohona kiyimlar tikib berar edim. Bu kiyimlar dunyoda yagona bo‘lar edi, — debdi. O‘rtancha qiz Gulbahor:

— Podshoh meni olsa, unga shirin-shirin ovqatlar pishirib berardim. Yegani bilan to‘ymas edi, — debdi. Kenja qiz Zulfiya esa:

— Podshoh meni olsa, ikki bola: Hasan va Zuhra tug‘ib berar edim, — debdi.

Vazir bu so‘zlarni eshitib bo‘lib, chaylaga kirib boribdi. Qizlar uni ko‘rib, o‘rinlaridan turibdilar. Vazir qizlarning kiyimlariga tikilibdi: kiyimlari juldur-eski ekan. Vazir darhol podshoh huzuriga borib, ko‘rgan va eshitganlarini birma-bir aytib beribdi.

Podshoh vazirdan bu so‘zlarni eshitgach, terisiga sig‘may sevinibdi va vazirga qarab:

— Mayli, o‘sha kenjasini olay, — debdi. So‘ngra vazirni yana Oqjarga yuboribdi.

Vazir Oqjarga borib qizlardan:

— Podshoh Zulfiyani olmoqchi, nima deysizlar?— deb so‘rabdi. Shunda Zulfiya:

— Kambag‘al bo‘lsa ham ota-onamiz bor, o‘shalar bilan so‘zlashsangiz yaxshi bo‘lardi, — debdi.

Vazirga Zulfiyaning gapi ma’qul tushib, mulozimlaridan birini podachi chol huzuriga yuboribdi. Mulozim podachi oldiga borib:

— E ota, sizning kichik qizingizni podshoh olmoqchi. Siz shunga nima deysiz? —deb so‘raganda, podachi bu so‘zga ishonmay:

— Siz meni aldamoqchimisiz? — debdi.

Mulozim cholning ishonmaganini Oqjarga borib vazirga aytibdi.

Vazir Oqjardagi hamma odamlarni yig'ib, maslahatlashibdi:

— E xaloyiq, men podachiga mulozimimni yubordim. U cholga podshoh Zulfiyani olmoqchi bo'lganini aytibdi. Podachi: „Meni aldayotirsiz" debdi. Endi sizlar menga qanday maslahat berasizlar?

Avval vazirni qizlar oldiga boshlab borgan chol bunday debdi: — E vazir, „qush tilini qush biladi" degan maqol bor. Qishlog'imizda bir podachi chol bor. O'sha cholni qizlarning otasiga yuborsangiz, balki uning so'ziga ishonar, — debdi.

Bu maslahat vazirga ma'qul tushibdi. Vazir aytibdi:

— Xo'p, mayli, podachi cholni tezda chaqirib keling, gaplashib ko'rsin.

Podachi cholni chaqirib kelibdilar. U esa qo'rqqanidan tinmay yig'lab, bunday der emish:

— Taqsir, men gunohkor emasman. Poda boqishdan boshqa hech narsani bilmayman. Ahvolimga rahm qiling.

Xalq unga:

— Qo'rqma, boshqa gap bor, — desa hamki yana qattiqroq qo'rqib:

— E taqsir, bola-chaqangizning rohatini ko'ring, men aybdor emasman. Men mollarni hech urmayman. To'g'ri, bir vaqt bir ola sigir yurmagan edi. Uning shoxiga bir urgan edim, xolos. — der emish. Vazir kulib:

— Mayli, gunohingni kechirdim, endi senga boshqa bir gap bor. Senga ikki kun muhlat beraman. Podshoh uchun podachi cholning kichkina qiziga sovchi bo'lib borasan. Ikki kundan keyin kelib javobini menga aytasan, — debdi. Podachi:

— Xo'p, taqsir, xo'p! Qizning otasi menga tanish, — deb xursand bo'lib chiqib ketibdi.

Podachi: „Osongina qutulganimga shukr" deb qizning otasinikiga ravona bo'libdi. Yo'lda o'z-o'ziga: „Xayriyat, vazirning qo'lidan eson-omon qutuldim," deb sevinibdi. Podachi qizning otasi qoshiga kelib, u bilan salomlashibdi. U yoqdan-bu yoqdan gaplashib o'tirib, qizlarning hol-ahvolini so'rabdi. Shu kecha cholning uyida yotib qolibdi. Ertasiga erta bilan ikkovlari Oqjarga jo'nashibdi.

Qizlarning otasi podachiga:

— Men shu yerda turaman, sen vazir oldiga bor, — debdi.

Oqjarlik podachi vazirning yoniga kelib:

— Buyrug'ingizni bajo keltirdim, — debdi. Vazir kulib:

— Balli, ishni muhlatidan bir kun ilgari tamom qilding, — debdi.

— Podachi chol qizlarini ko'rgani keldi, — debdi oqjarlik podachi. Shu paytda ota o'z qizlari bilan gaplashmoqda ekan.

Zulfiya otasiga qarab:

— Agar shoh menga uylanmoqchi bo'lsa, sizga qirq tuya qimmatbaho mol bersin, ikki opamning boshidan-oyog'igacha zar to'ksin, ularga yaxshi kiyimlar kiydirsin, — debdi. Bu gap podshohga ma'lum qilinibdi.

Podshoh qizning aytganlarini to'la-to'kis bajo keltiribdi, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomoshalar qilib, Zulfiyani olibdi.

Oradan biroz vaqt o'tgandan so'ng chol-kampir katta qizlari Nasiba bilan Gulbahorni ham uzatib, ko'ngillari tinchibdi.

Kundan kun, oydan oy o'tibdi. Zulfiyaning tug'ish vaqtiga bir oy qolibdi. Podshoh xursandlikdan har kuni ovga chiqar ekan. Zulfiyaning homiladorligidan ich-etlarini yeb yurgan podshoh xotinlari har xil makr-hiylalar o'ylay boshlabdilar. Podshohning katta xotini vazir otasiga:

— Zulfiya yaqinda tug'adi, endi podshoh bizga e'tibor bermay qo'yadi, — deb hasrat qilibdi.

Boshqa xotinlar ham hasrat qilishibdi. Shunda vazir:

— Sizlar hech kimga aytmanglar, podshoh ham bilmasin, Zulfiya tug'ar vaqtida bir kampirni topib, doya qilamiz, hisobini o'zi to'g'rilaydi, — debdi.

Kunlardan bir kun Zulfiya eriga:

— Bugun ahvolim boshqacha, har xil so'zlar bo'layotganga o'xshaydi, qo'rqaman. Bugun siz ovga chiqmang, — degan ekan, ahmoq podshoh Zulfiyaning so'zini pisand qilmay, ovga chiqib ketibdi. Saldan so'ng Zulfiyani to'lg'oq tutibdi. Shu paytda podshohning alamzada xotinlari bir makkor kampirni chaqirtirishibdi. Makkor kampir podshohning katta xotinlari bilan gapni bir joyga qo'yib, Zulfiyaga:

— Chirog'im, Zulfiya, podshoh xotinlari to'lg'oq tutganda ko'zlarini ro'mol bilan mahkam tang'ib qo'yishadi. Sening ham ko'zingni bog'lab qo'ysak yaxshi bo'ladi, — deb Zulfiyaning ikkala ko'zini bog'labdi.

Zulfiya bir-biridan chiroyli bir o'g'il va bir qiz tug'ibdi, biroz behush bo'lib yotibdi.

Makkor kampir podshoh xotinlariga „Yangi tug'gan echkining bir urg'ochi, bir erkak bolasini darrov topib kelinglar", debdi.

To'rt xotin kampirning aytganini darrov bajo keltirishibdi. Kampir esa ikki bolani bir xaltaga solib, yashirib qo'yibdi. Zulfiya hushiga kelganda, kampir ikki uloqni Zulfiyaga ko'rsatib:

— Bolam, xafa bo‘lma, taqdiring shu ekan, odam bolasi o‘rniga ikkita echki bolasi tug‘ding: biri erkak, biri urg‘ochi. Podshohning peshonasi sho‘r ekan, — deb Zulfiyaga piching qilibdi.

Zulfiya zor-zor yig‘lab, o‘tgan kunlarini eslabdi. To‘rt xotin esa toza sevinishibdi. Kampir xaltadagi ikki chaqaloqni karvonlar o‘tadigan cho‘l-biyobonga eltib tashlabdi. To‘rt xotin podshohga xabar uchun chopar yubora turib unga:

— Xotiningiz tug‘di, deysan, podshoh shodlanib, „Nima tug‘di“ deganda, „Ikki echki bolasi tug‘di: biri urg‘ochi, biri erkak“ deysan, — deb obdan tayinlashibdi.

Chopar borib bu xabarni podshohga yetkazibdi. Buni eshitgan podshoh g‘azablanib, Zulfiyani zindonga tashlatibdi.

Endi gapni boshqa tomondan eshiting.

Yo‘ldan o‘tayotgan karvonlar shum kampir tashlab ketgan bolalarni ko‘rib, hayron bo‘libdilar. Ular orasida bir kishi bor ekan. Bolalarga uning rahmi kelib ikkalasini olib ketibdi. Tirnoq betiga zor bo‘lib yurgan er-xotin ikki bolani yaxshilab parvarish qila boshlabdi. Ularga Hasan va Zuhra deb nom qo‘yishibdi. Oydan oy, yildan yil o‘tib, Hasan bilan Zuhra yetti yoshga kirishibdi. Asrandi bolalarga ota-ona juda bino qo‘yishib, ularga odob-ta’lim o‘rgatishibdi. Bolalar bu ahil oilada juda yaxshi tarbiya olibdilar. Hasan ulg‘aygan sari kuchli, baquvvat bo‘laveribdi. Kurashda o‘zidan kattalarni ham yiqitadigan zabardast polvon bo‘libdi. U har ishni uddalaydigan tadbirli, bahodir yigit bo‘lib yetishibdi. Zuhra esa hunar o‘rganib, chiroyli gilamlar to‘qiydigan bo‘libdi. Zuhraning to‘qigan gilamlari bozordagi gilamlardan o‘n chandon qimmat yurar ekan.

Kunlardan bir kun Hasan otasiga:

— Menga bir yaxshi ot, bir qilich va bir o‘q-yoy olib bering, — deb yalinibdi.

Otasi o‘g‘lining aytganlarini olib beribdi. Hasan har kuni ovga chiqadigan bo‘libdi. O‘sha yurtning podshosi ham ovga chiqar ekan. Hasan yosh bo‘lsa ham ko‘p ov qilar, podshoh esa quruq qaytar ekan. Podshoh bu hodisani xotiniga aytib berar ekan.

Bir kuni Hasanga otasi bunday debdi:

— Singling bilan ikkovingni chaqaloqligingda cho‘ldan topib olgan edim, ikkovingni parvarish qildik, mana endi katta bo‘ldilaringiz.

Shunda Hasan otasiga minnatdorlik bildirib:

— Endi sizlardan boshqa ota-onamiz yo‘q. Singlim ikkovimiz siz bilan onamizga qo‘limizdan kelgancha yaxshilik qilaylik, — debdi.

Kunlardan bir kun Hasan ovga chiqibdi. Podshoh ham mulozim bilan ovga chiqqan ekan. Hasan ko'p ov qilibdi. Podshoh bosh vaziri bilan quruq qaytibdi. Bu narsa podshohga alam qilib, Hasandan:

— E bola, nimaga bu yerda ov qilasan? O'zing kimning o'g'lisan? — deb so'rabdi. Shunda Hasan chaqaloqlik vaqtida singlisi ikkovini bir karvon topib olganidan tortib, singlisining hozir gilam to'qishga juda usta bo'lganigacha aytib beribdi.

Podshoh ahmoq ekan, hech narsani o'ylamabdi. Ammo haligi vazir o'ylab turib: „O'sha bolalar o'lmay, katta bo'lgan ekan-da, o'zi ham xuddi otasiga o'xshaydi" deb ko'ngliga tugib qo'yibdi va bo'lgan voqeani borib qizi bilan shum kampirga aytib beribdi.

Vazirning qizi juda ayyor ekan:

— Ha, ota, o'sha bolalar xuddi Zulfiyaning bolalari, — debdi. Vazir ham:

— O'shalar bo'lsa ajab emas, — debdi.

Podshohning bosh vaziri, to'rt xotin, shum kampir ko'p afsus qilibdilar.

Podshoh ertasiga yana ovga chiqibdi. Hasan ham ovga chiqqan ekan. Hasan podshohni uyiga chorlabdi. Hasanni boqib katta qilgan otasi podshohni yaxshi qabul qilibdi. Suhbat chortang kelibdi. Podshoh turli voqealarni aytib beribdi. Zulfiya to'g'risida ham so'z bo'pti. Hasan bilan Zuhrani gapiribdi. Karvonboshining xotini dono ekan. U Hasanga qarabdi, podshohga qarabdi, ikkalasining tusini, qosh-ko'zini bir-biriga o'xshatibdi.

— E shohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, bir gapni aytsam, — debdi.

— Kechdim, ayt, — debdi podshoh.

Xotin gap boshlabdi:

— O'zingiz „mening to'rt xotinim bor edi, hech qaysisi tug'mas edi", dedingiz. Shundan keyin Zulfiya degan qizga uylanganingizni va uning ikki echki bolasi tug'ganini aytdingiz. Menimcha, kundoshlar Zulfiyani ko'rolmay, makr-hiyla bilan ikki bola o'rniga ikki echki bolasini keltirib qo'yishgan bo'lsa kerak. „Zulfiya ikki echki bolasi tug'di" degan gap yolg'on. Nahotki odam echki bolasi tug'sa. Bizning Hasan, Zuhramiz xuddi sizga o'xshaydi. Zulfiyaning zindonga solinganiga qancha vaqt bo'ldi?

— Rosa o'n ikki yil bo'ldi, — debdi podshoh va peshonasiga bir urib, „Attang!" debdi.

— Voqeani Zulfiyadan aniqlab so‘rang-chi, nima der ekan, — debdi xotin.

Podshoh Hasanni olib uyga qaytibdi. O‘rdaga borganda zindonbonni chaqirib, Zulfiyani zindondan chiqarishga buyuribdi. Zulfiyani zindondan olib chiqib, podshoh qoshiga keltiribdilar. Podshohga Zulfiya hamma voqeani birma-bir aytib berib yig‘labdi.

Shunda Hasan uning so‘zini eshitib: „Onamiz shu ekan“ deb, ona-bola yig‘lashib, ko‘rishishibdi. So‘ngra podshoh to‘rt xotinini chaqirib, bo‘lgan voqeani surishtira boshlabdi. Podshohning bir xotini rostgo‘y, to‘g‘riso‘z ekan, boshqa xotinlari uni yomon ko‘rar ekanlar, o‘sha xotin butun sirni ochib tashlabdi. Podshoh g‘azablanib:

— Jallod! Avval vazirni, keyin qizini dorga os! — debdi. Keyin ikkita xotinini haydab yuboribdi. Podshoh qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha qilib beribdi.

Hasan va Zuhra esa o‘z ota-onalaridan ziyod tarbiyalab voyaga yetkazgan karvonboshiga va uning xotiniga mehribonlik qilib, umr kechirishibdi.



Bektemir botir

Qadim zamonda Farg‘ona mamlakatida Odilxon degan bir podshoh o‘tgan ekan. Uning to‘rtta xotini bo‘lgan ekan. To‘rtta xotinidan bir kam qirqta o‘g‘il ko‘rgan ekan. Bir kuni podshoh cho‘l-biyobonlarda kiyik ovlab yurganda bir qo‘rg‘onga borib qolibdi. „Yuragim kuydi, shu qo‘rg‘ondan bir kosa suv so‘rab ichayin“ deb, qo‘rg‘ondan biror kimsani chaqirsa, ro‘molini qiya yopinib, bir qiz qo‘rg‘on eshigining oldiga kelib javob qilibdi. Podshoh qarasa, jamoli osmondagi to‘lgan oyga o‘xshash, o‘n sakkiz yoshli, chiroyli bir qiz. Podshoh qizdan bir kosa suv so‘rab olib ichibdi. Go‘yo sharbat ichganday bo‘libdi. Qizga muhabbat paydo qilibdi. Ovdan qaytib borib, bu qo‘rg‘onga odam yuboribdi:

— Borib bilinglar: Bu qo‘rg‘on kimning qo‘rg‘oni. Qizning ota-onasi bilan gaplashinglar. Qizini bizga xotinlikka bersin. Agar yaxshi gapga ko‘nmasa, qizni tortib olib kelinglar! — dedi.

Podshohning odamlari qo‘rg‘onga yetib borib, chaqirishdi. Bir chol chiqdi. Bu chol kambag‘al ekan, shu joyda kiyik, tulki, bo‘ri ovlab, shularning terisini sotib, kampiri va qizi bilan turar ekan. Cholga „Biz Odilxonning odami bo‘lamiz. Sovchi bo‘lib keldik. Qizingizni podshohga berasiz, bo‘lmasa, zo‘rlab olib ketamiz“, deyishdi. Chol kampirining oldiga kirib maslahatlashdi: „Agar bermaymiz desak,

zo‘rlab olib ketishadi. Balki o‘zimizni zindonga soladi. Undan ko‘ra beraylik!“ deb, podshohning odamlariga roziliklarini aytdi. Bular borib podshohga bildirishdi. Podshoh qizning qaliniga mol-dunyoni ko‘p berib, necha kecha-kunduz to‘y-tomosha bilan qizni nikohlab oldi. Odilshoh bu xotinidan bir o‘g‘il, ikki qiz ko‘rdi. O‘g‘lining otini Bektemir qo‘ydi. Shu bilan Odilxonning o‘g‘illari qirqta bo‘ldi. Hammasini tarbiyaladi. Bir kam qirq o‘g‘li bo‘shashgan, Bektemir sersavlat, bahodir taxlit yigit bo‘lib yetishdi.

Bir kuni Odilshoh qirq o‘g‘li bilan ovqatlanib o‘tirib, bularni ko‘rib, ko‘ngli ko‘tarilib: „O‘g‘illarim qirq yigitning o‘rnini bosadigan, dushman bosib kelsa, maydonning bir tomonini oladigan bo‘lib qolishibdi. Endi bularni jang-u jadal ishlariga o‘rgatayin!“ deb, ko‘nglidan o‘tkazib qo‘ydi. Shundan keyin podshoh to‘qsobasini chaqirib, bolalarga ot chopish, tirandozlik, qilichbozlik, ishqilib, nimayiki urush hunari bo‘lsa, o‘rgating, dedi. To‘qsoba podshohning qirq o‘g‘liga urush hunarini o‘rgatdi, ammo o‘ttiz to‘qqiz o‘g‘li pandavaqilik qilib, hech narsa o‘rganolmadi. Ular biz podshohzodalar bo‘lsak, bunday ishlarning bizga nima keragi bor, deb yuraverishdi. To‘qsoba bularning fe’l-atvorlarini otalariga aytishdan qo‘rqib, aytolmadi. Ammo Bektemir urush hunarlarini yaxshi o‘rgandi.

Bir kuni podshoh to‘qsobadan bolalarining urush hunarini qanday o‘rganayotganliklarini so‘radi. To‘qsoba: „Yaxshi“ deb aytdi. O‘g‘illarini chaqirib so‘radi. Ular biz juda mohir bo‘lib qoldik! — deb maqtanishdi. Shunda podshoh, endi bolalar manjanaq[1] otishni ham bilsinlar dedi. Bir rixtagar[2] ustaga buyurib, oltindan qirq quloqli soqqa quydirdi. Soqqani katta maydonga oldirib chiqdi. Podshoh hamma amaldorlarini chaqirtirdi: „Ertaga mening o‘g‘illarim qirq quloqli oltin soqqani irg‘itadi, ko‘rib tomosha qilasizlar!“ dedi. Podshoh Bektemir kichkina, deb uni chaqirmay, bir kam qirq o‘g‘illarini maydonga hozirladi. Amaldorlar ham tomosha qilgani kelishdi. Podshoh ham o‘sha yerda turdi. Shunda podshohning bir kam qirq o‘g‘li birin-ketin kelib, soqqani ushlab, ko‘tarib otish u yoqda tursin, loaqal joyidan qimirlata olmadi. Podshoh izza bo‘lib, yerga qarab qoldi. Podshoh xafa bo‘lganicha avg‘on bog‘iga borib yota berdi. Bektemir otasining bog‘da xafa bo‘lib yotganini eshitib, bordi. Bektemir qarasa, otasi xafa bo‘lib o‘tiribdi:

---

[1] **Manjanaq** — dushman qo‘rg‘oniga tosh solib otiladigan eski urush quroli.

[2] **Rixtagar** — bronzadan idish-oyoq, zambarak o‘qi quyuvchi.

— E, otajon! Arslonday qirqta o‘g‘lingiz bo‘lsa-yu, nimadan g‘am tortib xafa bo‘lasiz? — dedi. Podshoh:

— Bir kam qirq akangning „arslonligini“ ko‘rdim. Arslonlik u yoqda tursin, bir kam qirqi yig‘ilib, bitta sichqonning burnini qonata olmaydi! —dedi. Bektemir:

— Nima bo‘ldi, ayting? — dedi. Otasi:

— Bir kam qirq akang nima qildi-yu, sen nima qilar eding! — dedi. Bektemir otasiga: „Xafa bo‘lishingizning sababini ayting!“— deb qistay berdi. Odilshoh oxiri, bir kam qirq o‘g‘li qirq quloqli soqqani o‘ynay olmaganini, o‘zi amaldorlarining oldida izza bo‘lganini aytdi.

Bektemir bu gapni eshitib xafa bo‘lib, yuragi jo‘sh urdi. Otasining oldidan chiqib, otasiga ham, boshqalarga ham bildirmay to‘ppa-to‘g‘ri maydonga bordi-yu, bor kuchini to‘plab turib, qirq quloqli oltin soqqani dast ko‘tarib, osmonga irg‘itib yubordi. Soqqa otasining o‘rdasidagi ravoqning bir chekkasini uchirib pachaqlab ketdi. Bektemirning bu ishini hech kim payqamay qoldi. Shu onda podshohning odamlari yugurib borib, podshohga:

— E, taqsiri olam! Siz quydirgan qirq quloqli oltin soqqa uchib kelib, o‘rdangizga tushdi, ravog‘ingizga tegib sindirdi, ammo soqqani kim otganini hech kim bilmaydi, — dedi.

Bu gapni podshoh eshitib hayron bo‘ldi va: „Kimki shu soqqani otgan bo‘lsa, kelib olib ketsin!“ deb xaloyiqqa jar soldirdi. Hech kim: „Men otgan edim“, deb kelmadi.

Shu shaharda bitta shumqadam, olg‘ir o‘g‘ri bor edi. Tillaga qiziqdi-yu, podshohning oldiga borib:

— Taqsir! Soqqani men otgan edim! — dedi. Podshoh:

— Agar sen otgan bo‘lsang, olib ket! — dedi. O‘g‘ri:

— Xo‘p, taqsir! Hozir beodobchilik bo‘lmasin, ertaga, siz yo‘qligingizda kelib olib ketaman, — dedi. Podshoh:

— Yo‘q, hozir olib ket! — dedi. Podshohni alday olmay, o‘g‘rining yuragiga vahima tushdi: endi o‘lmasam, qachon o‘ldim.

— Taqsir! Bo‘lmasa, bitta arava olib kelay! — deb qochmoqchi bo‘ldi. Podshoh:

— Soqqani otgan odam o‘zi ko‘tarib olib ketaveradi. Hozir ko‘tarib olib ket! — dedi.

O‘g‘ri kelib, soqqani joyidan jildira olmadi. Shunda podshoh: „Sen meni aldading!“ deb, o‘g‘rini o‘limga buyurdi. O‘zi yana bog‘iga borib, xafa bo‘lib yota berdi. Bektemirning otasiga rahmi keldi: „Aytmasam, otam g‘am tortib kasal bo‘lib qolmasin!“ deb borib, otasiga soqqani u otganini aytdi. Otasi ishonmadi: „Akalaring otolmagan soqqani sen

ota olarmiding?!“ dedi. Shunda Bektemir o‘rdaga borib, soqqani ko‘tarib, u qo‘lidan bu qo‘liga olib, o‘ynab, otasining oldiga olib keldi.

Odilxon podshoh Bektemirning bu ishini ko‘rib, undan xursand bo‘lib, xafachiligi tarqaldi. O‘g‘lining peshonasidan o‘pdi va soqqani shaharning ichida o‘ynab ko‘rsatishini so‘radi. Bektemir botir soqqani ko‘tarib, irg‘itib otdi. Bir kampir hovlisida charx yigirib o‘tirgan edi, soqqa borib kampirning bir labi bilan, charxning parragini uchirib o‘tib ketdi. Bektemir botir soqqaning ketidan izlab ketayotgan edi, bir hovlidan kampirning yig‘lab, qarg‘ayotganini eshitib qoldi. Bektemir botir to‘xtab quloq solsa, kampir:

— Juvon o‘lgur yetimcha,
Charximni qilding parcha!
Charxim sinsa, go‘rga-ya,
Bir labimdan ayrildim!
Oqbilakka yetmasdan,
Sen ham bo‘lgin, mendaycha,

deb yig‘layapti. Bektemir botir kampirdan bu gapni eshitib, uning oldiga kirib: „Nima deyapsiz, ona?!“ dedi. Kampir aytdi:

— Bolam! Qirq quloqli soqqang kelib, charximni sindirib, bir labimni uchirib ketdi. Botir bo‘lsang, kuchingni menday mungluqqa ko‘rsatmay, borib Misr podshosiga ko‘rsatsang-chi! —dedi. Bektemir kampirdan so‘radi:

— Nimaga unday deyapsiz, ona? Gapni ochiq qilib ayting! — dedi.

Kampir aytdi:

— Misr mamlakatida Shavkat degan podshoh bor. Uning Oqbilak degan qizi bor. Jamoli osmondagi oydan o‘tadi, ikki ko‘zi ohuning ko‘zidan qoralik qiladi. Hozir kamolga yetgan. Necha-necha oshiqlar uning yo‘lida qon yutgan. Sherday savlating, arslonday kuching bor. Borib Oqbilakni olib kelib, o‘zingga yor qilsang-chi! — dedi.

Bektemir botir kampirdan bu gapni eshitdi-yu, Oqbilakka g‘oyibona oshiq bo‘ldi, soqqasiga ham qaramay, uyiga qaytib borib, ko‘kragini zaxga berib yotaverdi. Podshoh o‘g‘lini yo‘qlatsa, yo‘q. Uning qorong‘i xonaga kirib yotganini bildi. Chaqirtirdi, chiqmadi. Kirib ahvol so‘rasa, aytmadi. Onasiga ham aytmadi. Kundan-kunga rangi ketaverdi. Podshoh: „Har kim Bektemirni gapga solib, uning yuragidagi dardini bilib bersa, bir mistovoq tilla beraman,“ dedi. Hamma odamlar kirib gapga soldi,

gapirmadi. Oxirda boyagi kampir kelib „Men gapirtirib, bilib beraman!“ dedi. Kampir Bektemirning oldiga kirsa, u bag‘rini zaxga berib yotgan ekan. Kampir:

— Bolam, tur endi! Sening dardingni men bilaman. Otang aytganingga ko‘nadi. Oqbilakka jo‘naysan. Otang senga ko‘p narsalarni, yaxshi otlarni beradi, sen ularni olmay, boquvda yotgan Tarlonbo‘z otini so‘ragin! — dedi. Yigit kampirning gapiga rozi bo‘ldi. Kampir chiqib, podshohga:

— E, podshohi olam! O‘g‘lingiz Misr podshohining qizi Oqbilak oyimga xushtor bo‘libdi. Yuragida ishq dardi zo‘r. Otam ijozat bersa, borib Oqbilakni olib kelsam, deb aytadi. Agar ijozat bermasangiz boladan ajrab qolasiz, — dedi. Podshoh kampirga bir mistovoq oltinni berib, xursand qilib jo‘natdi.

Podshoh o‘g‘lining tilga kirganiga xursand bo‘ldi. Misrga borib, Oqbilakxonni olib kelishi uchun rozi bo‘lib, birga borish uchun qirqta yigitni tayin qildi. Bektemir botir: „Men yorga o‘zim yakka boraman! Qirq yigitning keragi yo‘q!“ dedi. Shunda Odilxon yaxshi otni yasatib, egarlab, yuganlab, necha otga oltin, kumush ortib berdi. Bektemir bu narsalarni ham olishga rozi bo‘lmadi.

Otasi:

— E, bolam! Nimaga bunday qilasan? —dedi. Bektemir:

— E, ota! Agar siz meni farzandim, deb suysangiz, bu narsalarni qo‘yib, menga Tarlonbo‘z otingizni bering! — dedi. Podshoh buyurdi. Kanizaklar kirib, Tarlonbo‘zni qashlab, supurib, yol-u dumini tarab, ustiga zar-zarbobdan ishlangan terlik-to‘qimni, uning ustidan zar sochiqli dikkakni urib, ustidan tilla egarni bosib, ayilni mahkam tortib, tilla quyushqon, tilla umildiriqni taqib, yetaklab borib, Bektemir botirga to‘g‘ri qilib qo‘ydi. Ustiga yo‘l yaroqlarini, qancha tilla-kumushni bir hurjunga solib, egarning ustidan oshirib tashlab qo‘yishdi.

Bektemir botir ota-onalari, aka-ukalari, qarindosh-urug‘laridan rozi-rizolik tiladi. O‘zi kirib yotgan hujraning shipiga bir qilichni osib qo‘ydi: „Agar shu qilichdan qon tomsa, Bektemir o‘ldi denglar, „Voy bolam!“ deb azamni tutinglar. Agar qon tommasa, Bektemir salomat, yer yuzida yuribdi denglar!“— dedi. Oq fotiha tilab, yo‘lga tushmoqchi bo‘ldi. Shunda Bektemir botirning ikki singilchasi: „Dod, aka! Bizni tashlab qayerga ketyapsiz? Bizni ham olib keting!“ deb, yig‘lab kelib qolishdi. Bektemirning ko‘ngli buzilsa ham, o‘zini bosib, singillariga:

— Men sizlarga g‘amzaparang ko‘ylak, tilla taroq olib kelgani ketyapman. Tezda qaytib kelaman, — deb ularni aldab, yupatib, xayrlashib jo‘nadi.

Bektemir botir shahardan chiqquncha yurgan joylari bilan, ko'chalar, daraxtlar bilan xayrlashib, shahar darvozasidan tashqariga chiqdi-da, otiga:

Quloq solgin so'zimga:
Qamchi urdim chovingga,
Jabr qildim joningga,
Oqbilak oyim shahriga,
O'n ikki oylik yo'li bor,
Olti oylik cho'li bor.
Sog' borib, salomat qaytaylik,
Otam Odilxon shahriga —

deb otning choviga qamchini qattiq soldi. Qamchi otning jon-jonidan o'tdi, bir kishnab, qanot bog'lab osmonga uchdi. Ot osmonda uch kecha-yu, uch kunduz uchib, Misr mamlakatiga borib, bir ko'kalamzor yerga qo'ndi. Otdan tushib, egar-jabduqni olib, sero't bir joyga berkitdi. Tarlon-bo'zning bosh-ko'zini silab:

Men keturman yorim izlab,
Sen qolursan endi bo'zlab.
Oqbilakman men qaytguncha
Salomat bo'l, yo'lni ko'zlab! —

deb, Tarlonbo'zni chamanzorga haydab yubordi. O'zi qamchinini xurjunga solib, xurjunni yelkaga osib, sekin keta berdi. Otni yakka tashlab ketishga ko'ngli bo'lmay, otidan xayolini uzolmay, yana orqasiga qaytdi. Nazarkarda Tarlonbo'z botirning qaytish sababini bilib, tilga kirib, Bektemirga qarab shunday dedi:

Ko'nglingni bo'lmagin, xonim!
Qo'lingga kelsin, Oqbilak yoring!
O'g'riga o'zim ushlatmasman,
Bo'riga aslo tishlatmasman.
Borib yoring bilan kelsang,
Qanot boylab tez ucharman,
Bora ber yoringga, jon begim! —

dedi. Bektemir botir Tarlonbo'zdan bu gaplarni eshitib, ko'ngli taskin topib, xotirjamlik bilan jo'nadi.

Bektemir botir yo'l yurdi, yo'l yursa ham mo'l yurdi. Bir shahri azimga kirib bordi. Shaharda hech kimni tanimaydi, qayerga borib qo'narini

bilmaydi. Bir kampir bir daraxtning soyasida bir savatda xurmo sotayotgan ekan. Borib kampirga:

— E ona! Menga bir to'yishlik xurmo bering! — dedi. Kampir qarasa, shahzodalarga o'xshash bir yigit. Ammo bu shaharning odamiga o'xshamaydi. Rahmdillik bilan muomala qildi. Savatni botirning oldiga surib qo'yib:

— To'yguningcha ye, bolam! — dedi. Bektemir botir xurmodan to'yganicha yeb, kampirning qo'liga bir tilla berdi. Bektemir kampirga:

— Ona! Siz ketguncha shu joyda bir uxlab olayin, — deb xurjunini boshiga qo'yib uxladi. Kampir xurmosini sotib bo'lib, endi bu yigitni uyg'otib ketayin, deb uyg'otdi. Kech kirgan edi. Kampir:

— Musofirga o'xshaysan. Qo'nog'ing qayerda? — dedi. Bektemir botir:

— E ona! Men bugungina keldim. Boradigan joyim yo'q. Agar bir-ikki kunga qo'noq bersangiz, siznikiga borib tursam, — dedi. Kampir rozi bo'lib, boshlab uyiga olib ketdi. Bu kecha kampirnikida mehmon bo'ldi. Erta bilan Bektemir botir kampirga bir tilla, kechqurun yana bir tilla berib: „Bugungi xarajat uchun, ona!" dedi. Kampir juda xursand bo'lib, yugurib-yelib xizmatni qildi. Oradan uch kun o'tdi. Kampir erta bilan nonushtadan keyin yigitdan:

— Bolam! So'raganning aybi yo'q. Sen qayerdan va nima ish bilan kelding? — dedi. Bektemir botir:

— E onajon, men Farg'ona mamlakatidan bo'laman. Shavkat podshohning qizi Oqbilak oyimning ta'rifini eshitib, g'oyibona oshiq bo'lib, yorimning loaqal bir qorasini ko'rarmikinman, deb keldim. Siz bilan ona-bola bo'ldik. Sizga qo'limdan kelgancha xizmat qilaman, siz Oqbilakxon bilan ko'rishish yo'lini menga aytib bering — deb bir hovuch tillani kampirning oldiga jaranglatib to'kib qo'ydi. Kampir aytdi:

— Shavkat podshoh bir oyga shikorga jo'nagan. O'rniga Oqbilakni qo'yib ketgan. Agar sen unga oshiqi-shaydo bo'lsang, ixlos bilan harakat qilsang, unga yetasan. Oqbilak har juma kuni kanizaklari bilan Eram bog'iga sayr-u tomoshaga chiqadi. Sen bir attor bo'lib: „Ketdi-ketdi!" deb bog'ining darvozasidan o'tasan. Oqbilak qiz bola emasmi, narsalaringga ko'ngli moyil bo'lib, chiqadi. Shunda ko'rasan, arzi-dodingni aytasan. Endi sen bozorga chiqib, attorlik mollardan sotib olib kelgin. Men bir folbin bo'lib borib, Oqbilakka fol ochib, ko'nglini senga moyil qilib kelaman, — dedi.

Bektemir botir xurjunini yelkasiga ilib bozorga bordi. Zargarlikka borib, bir zargar bilan so'zlashib: „Menga malikalar taqadigan isirg'a, uzuk, bilaguzuk, tillagajak, tillatumor, tilla taroq yasab bering!" deb, xurjunidagi

tilla, kumushlardan olib berdi. Zargar ishga kirishdi. Bektemir botir attorlikka bordi. Attorlardan qizlar chaynaydigan oq saqich, qora saqich, gilvata; qizlar badaniga sepadigan atir, upa-elik, mushki anbarlarni sotib oldi. Zargarga buyurgan buyumlarni ham oldi. Bozordan o'ziga „Kettichilar"ga munosib keladigan ust-boshlarni sotib olib, kampirning uyiga qaytib bordi.

Kampir boshiga chodirini yopinib, Oqbilak oyimning o'rdasi eshigiga borib turgan edi. Shu kuni Oqbilakxon kanizaklari bilan birga hammomga borib kelayotsa, o'rda eshigining oldida bir kampir turibdi. Qizlardan biriga aytdi:

— Borib, kampirdan so'ra-chi, nima ish bilan keldi ekan! Qiz borib:

— Ha, ona! Bu yerda nima qilib turibsiz? — dedi. Kampir:

— Aylanay, qizim! Men folbin bo'laman. Malikaga bir fol ochib qo'yay deb kelgan edim, — dedi. Qiz qaytib borib:

— Ayajon! Kampir folbin ekan. Malikaga fol ochgani keldim, deyapti, — dedi. Oqbilakxon:

— Unday bo'lsa, o'rdaga olib kiringlar, — dedi.

Kampirni qizlar o'rdaga boshlab kirishdi. Oqbilak oyim:

— Qani, ona! Bir fol oching-chi! — dedi. Kampir: „Bismillohu rahmonu rahim!" deb Oqbilak oyimning o'ng qo'lidan ushlab, fol ko'rib ketdi:

Aylanay, oppoq qo'zim!
Baxtingdan ochaymi?
Toleyingdan ochaymi?
Baxtingdan ochsam:
Baxting ulug'.
Toleyingdan ochsam:
Toleying qutlug'.

Ammo yuragingda darding bor, ta'bing xira. Xafa, bo'lma bolam! Ko'pi bilan bir hafta ichida yorug'likka chiqasan! Oqbilak oyim voyaga yetgan, ko'ngli yor istar. Senga ko'p yigitlar oshiq ekan, ammo bir g'anim bor ekan, seni o'z tenging bilan qovushtirishga u g'anim doim to'sqinlik qilar ekan (Oqbilakniig otasi kelgan sovchilarni doim qaytara berar edi). U g'anim otangmi, onangmi yo biror qarindoshingmi, buni folim aytmayapti. Ammo senga bir vafodor shahzoda yigit oshiq bo'libdi. Folimning aytishiga qaraganda, o'sha yigit senga bir savdogar yigit bo'lib kelib uchraydi. Umringni o'tkazma, kim vafodorlik ko'rsatsa, undan qolma, omin, ollohu akbar!" — deb folni tugatdi.

Oqbilakxon: „Kampir mening ko‘nglimdagini topdi!“ deb bir hovuch tilla berdi. Oqbilak oyimdan keyin qizlar ham: „Onajon! bizga ham fol ochib qo‘ying!“ deyishdi. Kampir ularga ham fol ochib, tilla, tangalarini olib, haqlariga duo qilib, xayrlashib, o‘rdadan chiqib ketdi, to‘ppa-to‘g‘ri uyiga bordi. Oradan uch kun o‘tib, juma kuni keldi. Kampir Bektemir botirga aytdi:

— Bugun Oqbilak oyim Eram bog‘iga sayr-tomoshaga chiqadi. Borgin! — dedi.

Bektemir botir kiyimlarini almashtirib kiyib, attor nusxasiga kirdi. Hurjunni yelkasiga solib, yo‘lga ravona bo‘ldi. Eram bog‘ga yetib bordi. Qarasa, shunday katta bog‘, narigi cheti ko‘rinmaydi. Bog‘dan gul hidlari hamma yoqqa anqib turibdi. Bektemir botir bog‘ning atrofida aylanib yurib:

Attorman-u attorman,
Tilla taroq menda bor,
Shamshod taroq menda bor.
Keling, qizlar, oling, qizlar,
O‘sma toshlar menda bor! —

deb qichqira berdi. Bu tovush Oqbilak oyimning qulog‘iga yog‘day yoqib ketdi. Oqbilak oyim:

— Qizlar! Borib qaranglar-a, ko‘chada birov bir narsa deb chaqirib yuribdi. Kim ekan, bilib kelinglar! —dedi.

Qizlar chopqillashib ketishdi. Borishsa, bir yosh attor yigit. Qizlarni ko‘rib:

Oppoq-oppoq, oy qizchalar,
Beli xipcha, nozikchalar!
Oqbilakxonday yorim bor,
Yorga loyiq mollarim bor:
Mushki anbar xushbo‘y atir,
Tilla uzuk, taroqchalar,
Tilla ko‘zgu, baldoqchalar,
Upa, elik, tumorchalar...
Kelib ko‘ring, menda bor, —

dedi. Qizlar attorning girdini olib, narsalarini ko‘ra ketdi. Bittasi chopqillab borib, Oqbilak oyimga attorning gaplarini aytib: „Yuring opa! Attorning mollarini ko‘ring! Yoqtirganingizni oling“ deb qistadi. Oqbilakxon oyim,

badanlari muloyim, gulzorlar orasidan bitta-bitta qadam tashlab, bog'ning eshigi yoniga keldi. Oqbilak oyim attordan:

— Attor yigit! Nimalaringiz bor? — deb so'radi. Attor boyagi gaplarini takrorlab, narsalarini yerga yozib tashladi. Bir juft tilla bilaguzuk, bir juft oltin isirg'a, tilla tumorcha, tilla uzukni Oqbilakxonga: „Mana bu mollarni sizga atab olib kelganman!" deb uzatdi. Oqbilak oyim munday qarasa, attor qaddi-qomati kelishgan, ko'zlari, so'zlari o'ynoqi, istarasi issiq, jonon bir yigit ekan. Qo'lidagi narsalarini olish uchun qo'l uzatdi. Shunda shabada kelib, yuzidagi niqobini ko'tardi, Bektemir botir uning o'n to'rt kunlik to'lgan oyday yuzini ko'rib: „Oh!" deb yiqildi. Qizlar chuvurlashib qoldi. Malika: „Folbin aytgan vafodor yor shu bo'lsa kerak!" deb xayoldan o'tkazdi-da, qizlarga buyurib, Bektemir botirni ko'tartirib, Eram bog'iga olib kirib, gullar orasiga tilla so'riga yotqizib, yuziga suv septirdi. Attor o'rnidan tura qoldi. Oqbilakxon oltin kosada sharbat quyib olib kelib tutdi. Bektemir botir sharbatni ichib, yorining husn-jamoliga mast-u alast bo'lib o'tirdi. Malika:

— E go'zal yigit! Siz qaysi bog'ning gulisiz, qaysi chamanning bulbulisiz? Bu joylarga qanday adashib kelib qoldingiz?— deb so'radi. Bektemir botir o'zining asli zotini, Oqbilak oyimga g'oyibona oshiq bo'lib kelganini izhor qildi. Oqbilak oyim: „Kampir aytgan vafodor yorim shul ekan!" deb baland ko'shkiga olib chiqib, oldiga noz-u ne'mat, qimiz, sharoblar qo'yib ziyofat qildi. Ikkisi bir-birining husniga to'yishmay, bir hafta shu bog'da qolib ketdi.

Bir haftadan keyin Bektemir botir aytdi:

— Xudo ikkimizni bir-birimizga qo'shdi. Endi bu yerdan qochaylik. Men sizni o'z yurtimga olib ketayin. Falon chamanzorda mening otim bor. Men otimning oldiga borib, tayyorlanib turaman. Siz bu yoqdan yetib borasiz! —dedi.

Ikkisi gapni bitta qildi. Bektemir botir chiqib ketdi. Borib, kampir bilan xayrlashdi. Qolgan tilla-kumushini unga berib, o'zi otining oldiga bordi. Borsa, oti o'tlab yurgan ekan, egasi kelganini bilib, yugurib yetib keldi. Bektemir botir otni qashlab, supurib, yol-dumini tarab, egarlab, yuganlab, shay bo'lib turdi.

Oqbilak oyim bo'lsa, qizlarni to'plab, yori bilan ketishini ularga aytib: „Men sizlardan roziman. Sizlar ham mendan rozi bo'ling! O'lmasak, bir kuni yana ko'risharmiz, topisharmiz!" deb, ularga katta-katta in'om-ehsonlarni berib, ko'ngillarini to'ldirdi. Qizlar: „Ayajon! Bizlarni tashlab ketasizmi?!" deb yig'lab qolishdi. Oqbilak oyim sahar chog'ida otini

egarlatib, yuganlatib, erkakcha kiyinib, qizlar bilan xayrlashib, yorining ketidan chopib, chamanzorga yetib bordi.

Bektemir botir: „U otni qoldiraylik! Mening otimga minib tez ketaylik desam, yorim ko'ngliga qattiq olmasin!" deb, Oqbilak oyimning ko'ngliga qarab, ikkisi o'z oti bilan keta berishdi. Dam olmay, uxlamay qirq kecha-yu qirq kunduz yo'l yurishdi. Bir joyga borib, charchab, otdan tushib, chodirni tikib, dam olgani kirishdi. Shunda Bektemir botir Oqbilakka aytdi:

— Men uxlasam, qirq kecha-yu qirq kunduzgacha uyg'otmaysiz, basharti biror hodisa ro'y bersa, tovonimga igna tiqsangiz uyg'onaman, — deb yorining tizzasiga bosh qo'yib, uxlab qoldi. Oradan bir qancha kun o'tdi.

Bir vaqt chodirning yoniga birov keldi. Oqbilak oyim yuragi taka-puka bo'lib quloq solib tursa:

— Qiz o'g'risi! Chiq chodirdan! —dedi. Oqbilak oyim qo'rqib ketdi. Yorining tovoniga igna sanchishga ko'ngli bo'lmadi. Yig'lab o'tira berdi. Etagi ko'z yoshi bilan to'ldi. Tashqaridagi kishi: „Tez chiq!" deb qistay berdi. Shunda Oqbilak oyim: „Qani, o'zim chiqayin-chi!" deb o'rnidan turgan edi, etagidagi yoshi Bektemir botirning yuziga to'kildi. Bektemir botir cho'chib uyg'onib:

— Nima hodisa? — deb so'radi. Oqbilak oyim:

— Ketimizdan otamning odamlari yetib keldi, tashqariga chiq! deb qistayapti!"— dedi. Bektemir botir:

— E malikam, sira g'am yemang! „Yakkaning yori — xudo" deganlar. O'zim maydonga chiqaman! — deb yoy-yarog'ini taqib chiqib, Tarlonbo'zni minib borib qarasa, qizning otasi Shavkat podshoh son-sanoqsiz askar bilan quvib kelibdi. Botir qichqirib: „Mana, men keldim! Birma-bir olishamizmi yoki otishamizmi?"— dedi. Dushman: „Otishamiz!" dedi. Shunda botir aytdi: „Bo'lmasa, oldin sizlar otinglar. Keyin men otaman!" dedi. Podshohning askarlari Bektemir botirga qarab ota boshlashdi. Hamma o'qlarini otib bitirishdi. Birortasining ham o'qi unga tegmadi. Botir: „Navbat endi menga keldi!" deb dushmanga qarab ota berdi. O'qi zoye bo'lmay tega berdi. Podshohning hamma askarlari o'lib, bitta o'zi qoldi.

Bektemir botir „Bir kishining qo'lidan nima kelar edi! Qaynotani o'ldirish yaxshi ish emas! Har holda ota emasmi? Farzandidan umidini uzmay, bir kun emas, bir kun yarash yo'lini tutar" deb podshohni o'ldirmay, chodirni yig'ishtirib, otlariga minib jo'nashdi. Yo'l yurishdi, yo'l yursalar ham mo'l yurishdi. Yana bir joyga borib, otdan tushib, chodirni qurib, dam olib o'tirishdi.

Qiz bilan yigit yo'lga tushganda orqasidan Oqbilakning otasi Shavkat podshoh ham poylab, qorama-qora kelayotgan edi. Qiz bilan yigitning to'xtaganini ko'rib, otidan tushib, oyoq uchi bilan asta-asta borib, chodirga keldi. Tirqishdan qarab xanjarni Bektemir botirning yuragiga mo'ljallab irg'itdi-da, ketiga qarab qochdi. Xanjar borib botirning yuragiga sanchildi, bir qancha vaqt yotib, joni uzildi.

Shunda Oqbilak oyim:

Bog' ichidan tanlab olgan
Toza rayhonimdan ayrildim! —

deb yig'ladi. Tarlonbo'z kelib, Bektemir botirni hidlab, kishnab yig'lay berdi. Ikkisi yig'lab-yig'lab, botirga go'r qazib, ko'mishdi.

Oqbilak oyim Tarlonbo'zga mindi: „E jonivor! Menga ota yurtiga bormoq harom! Endi boshla, yorimning shahriga! Yorimning shahriga boray! Yorim o'ynab-o'sgan joylariga guli-rayhonlar ekib, suv quyib, ostini chopib, yorim yurgan yo'llardan o'sib chiqqan gullaridan uzib olib, bag'rimga bosib, umrimni o'tkazay!" dedi. Ot qizni ko'tarib, Odilxon podshohning shahriga, Farg'ona mamlakatiga qarab uchib jo'nadi.

Bektemir botir Tarlonbo'zni minib, Misr mamlakatiga jo'nab ketgandan keyin, uning ota-onalari:

Yuragimizning chegasi,
Qirq o'g'ilning sarasi,
Qachon ko'rinadi qorasi? —

deb, oyga qaraganday ikki ko'zlari uning yo'liga intizor edi. Podshoh: „O'g'lim agar qilichimdan qon tomsa, mening o'lganim" degan edi, deb bir odamini qilichning yoniga posbon qilib qo'ygan edi. Bir vaqt qilichidan qon tomdi. Bu xabar podshohlikka yetdi. Hamma: „Shunday botir olamdan o'tdimi? Hay attang, yosh ketdi!" deb xafa bo'lishib, yig'lashib, aza tutishdi. Shunda Tarlonbo'z osmondan uchib kelib, o'rdaga tushdi. Ustida Bektemir botir yo'q, bir go'zal malika o'tiribdi. Bektemir botirning ikki singlisi ko'zlaridan yosh oqizib borib:

— Akam qani?— deb so'radi. Shunda malika:

— Akangiz keladi! — dedi. Qizlar:

„Akang keladi" deguncha,
„Akang o'ldi!" desang-chi!

Xumor-xumor ko‘ziga
Tuproq to‘ldi desang-chi!
Qalam-qalam qoshini
Burgut teshdi desang-chi! —

deb yig‘lashdi. Shunda Oqbilak oyim: „Dod!“ deb otdan o‘zini tashlab, qizlarni bag‘riga bosib yig‘lay berdi. Botirning ota-onalari, hamma yaqinlari dod-voy solib yig‘lashdi. Yig‘i to‘xtadi. Odilxon podshoh Oqbilak oyimdan hol-ahvol so‘radi. Oqbilak oyim bo‘lib o‘tgan ishning hammasini podshohga aytib berdi. Shunda podshoh: „O‘g‘lim cho‘llarda g‘aribmozor bo‘lib qolmasin. Borib, murdasini olib kelib, o‘rdamga ko‘mdirayin!“ deb qancha odamlari bilan, qizni boshlab, Bektemir botirning qabriga qarab jo‘nashdi. Qabrga yetib borib, uni ochib, murdani olib qo‘yib, unga ko‘zlarini surtib yig‘lay berdi.

Shu paytda qibla tomondan bir mo‘ysafid odam yetib kelib:

—E birodar! Dunyoda kim o‘lmaydi! Hamma o‘ladi. Qirqta o‘g‘lingdan bittasi o‘lsa, o‘libdi-da. Birkam qirqi bor-ku! Shularga shukr qilsang-chi, — dedi. Podshoh boshini ko‘tarib turib aytdi:

— Birkam qirq o‘g‘lim, shu bir o‘g‘limning tukiga ham arzimaydi. Hammasidan ham shu o‘g‘limga quvonar edim. Ular eson-omon yurtlariga qaytib keldilar! — dedi.

Chol kishi Xizr edi. Shu zamon ikki qo‘lini ochib, qiblaga qarab: „Xudo murodingga yetkazsin!“ deb fotiha o‘qidi. Shu zamon Bektemir botir: „Men uzoq uxlab qolibman“, deb o‘rnidan turdi...

Odilxon podshoh qirq kecha-kunduz to‘y-tomosha qilib, Bektemir botir bilan Oqbilak oyimni bir-biriga qo‘shdi. Shu bilan ular murod-u maqsadiga yetishdi.



Qirq kuyov

Bir podshohning qirq o‘g‘li bor ekan. Bir kuni podshoh katta o‘g‘lini uylantirmoqchi bo‘libdi. Buni eshitgan boshqa o‘g‘illari, „Bizlarni ham uylantiring, deyishibdi. Podshoh qirqta o‘g‘liga qirqta qizlik odamni qidirtira boshlabdi. Bir necha yillar qidirgandan keyin, o‘z mamlakatidan olti oylik yo‘lda bo‘lgan bir podshohning qirqta qizi borligini eshitib, shu podshohning dargohiga bir tuya bilan maston kampirni sovchilikka yuboribdi. Kampir olti oylik yo‘lni ilamon tuya bilan olti kunda bosib boribdi. Podshohning o‘rdasiga kelib, eshik oldini supuribdi. Podshohning xizmatkorlari kampirni ushlab podshohning oldiga olib kirishibdi. Podshoh kampirdan nimaga kelganini so‘rabdi. Kampir:

— Ey podshohim, sizning qirqta qizingiz bor ekan. Shu qizlaringizga sovchilikka keldim, — debdi. Podshoh:

— Haqiqatan, mening qirqta qizim bor. Ularning hammasini tug‘ishgan qirqta yigitga beraman, — debdi. Kampir ham o‘z podshohining qirqta o‘g‘li borligini aytibdi. Podshoh:

— Men qizlarimni berishga roziman, lekin bir shartim bor: podshohingiz o‘z mamlakatidan mening mamlakatimgacha bo‘lgan olti oylik yo‘lga ariq qazdirib, o‘z suvini mening suvimga qo‘shsin, — debdi.

Maston kampir o‘z mamlakatiga qaytib podshohga:

— Ey, podshohi olam, shu olti oylik yo'lga ariq qazib, o'z suvingizni ul podshoh suvlariga qo'shsangiz, qizlarini berar ekan, — debdi.

Podshoh bu shartga rozi bo'libdi.

Podshoh shahardagi hamma fuqarolarni yig'dirib, ariq kovlata boshlabdi. Xalq bir oyda uch-to'rt toshlik yo'lgacha ariq kovlabdi. Podshohning o'g'illari ariqni tezroq kovlatish uchun navbat bilan mehnat qilayotgan odamlar ustidan xo'jayinlik qilib turishibdi. Bir qancha odamlar uylaridan, bola-chaqalaridan ajralib, podshohning zulmiga chiday olmay, bu ishdan norozi bo'la boshlashibdi. Bir kun odamlarning: „Podshohning o'g'illari xotin olmay ketsin, hammamizni uy-joyimizdan, bola-chaqamizdan judo qildi", deb gaplashganlarini podshohning kichik o'g'li eshitib, ariq kovlayotgan odamlarning hammasiga javob berib yuboribdi. Akalari buni ko'rib, „Bizni xotinsiz qoldirding" deb bir mushtdan urib ketibdi. Kichik ukasi yig'lab-yig'lab ariq yonida yotib, uxlab qolibdi. Sahar vaqti bir chol kelib, bolani uyg'otib:

— Ha, o'g'lim, nima uchun bu yerda yotibsan? —debdi. Bola bo'lgan voqeani cholga gapirib beribdi. Chol:

— O'g'lim, xafa bo'lma, bu ariqni kovlash qiyin emas. Lekin senga bir nasihatim bor, shuni bajarasan. Kovlagan arig'ingizning bir tomoni yoz, bir tomoni qish bo'ladi. Akalaring to'yga borganda sen o'zing bormay, pichog'ingni berib yuborgin. Akalaring kelinlarni olib yo'lning yarmiga kelganda yomg'ir yog'adi, yomg'irdan keyin qor yog'adi, qordan keyin tosh yog'adi.

Shu vaqtda bir oq uy ko'rinadi. Zinhor-bazinhor shu oq uyga kirish-masin. Tez orada havo ochilib ketadi. Otangga shu gaplarni tayinla, — debdi-da, tayog'ini ot qilib minib, „Ko'zingni yum" debdi. Bir pas-dan keyin „och!" debdi. Bola ko'zini yumib ochsa, shu olti oylik yo'lga ariq kovlanib, ikki podshohning suvi bir-biriga qo'shilibdi. Chol bolaga yana„ ko'zingni yum!" debdi. Bola ko'zini yumibdi. „Ko'zingni och!" debdi. Bola ko'zini ochib qarasa, o'zini yig'lab yotib qolgan ariq bo'yida ko'ribdi. Chol g'oyib bo'libdi. Bola yana ariq bo'yida avvalgiday qilib yotibdi. Ertasi akalari ariq boshiga kelib qarashsa, suv oqib yotibdi, suvning boshi ko'rinmaydi. Akalari bolani uyg'otib otalari oldiga olib borishibdi. Bola otasiga:

— Ariqni men kovlab, ikki suvni bir-biriga qo'shdim, — debdi.

Podshoh o'g'lidan xursand bo'lib, kelinlarni olib kelishga tayyorgarlik ko'rib, bir qancha askarlari bilan jo'nabdi. Bir necha oy yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, suvsiz sahro cho'l yurib, qizlar yashaydigan mamlakatga yetib borishibdi. Podshoh bularning kelayotganini eshitib, yo'llariga poyandozlar tashlab kutib olish uchun bir qancha askarlari

bilan peshvoz chiqibdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, bir kam qirq yigitga qizlarini nikoh qilibdi. Kichkina kelinni esa pichoqqa nikoh qilishibdi. Yigitlar bir qancha askarlar bilan kelinlarni olib yo‘lga tushibdilar. Bir necha kun yo‘l yurib, yo‘lning yarmiga kelganda yomg‘ir yog‘a boshlabdi. Yomg‘irdan keyin qor yog‘a boshlabdi, qordan keyin tosh yog‘a boshlabdi. Shu payt oq ravot ko‘rinibdi. Podshohning katta o‘g‘illari shu ravotga kirishga ijozat so‘rabdi. Podshoh: „Ukangizning nasihati bor, kirmangiz“ deb ravotga kirishga rozilik bermabdi. Akalari otasini koyib: „Siz bitta o‘g‘lingiz deb bizlarni o‘ldirasizmi“, deb quloq solmasdan qo‘rg‘onga kirishibdi. Podshoh ham noiloj orqalaridan kiribdi. Bular hammasi qo‘rg‘onga kirishi bilan havo charaqlab ochilib ketibdi. Qo‘rg‘onning to‘rt burchagidagi to‘rt quduqdan suv otilib chiqib, pastga tushib turibdi, qozonlarda palovlar pishgan, dasturxonlar yozilgan, shirin sharbatlar, turli taomlar qo‘yilgan, ko‘rpachalar solingan. Otlar uchun har biriga yakka mixlar qoqilgan, oxurlarga yemlar solingan. Lekin hech kim yo‘q ekan. Ravotga kirgan odamlarning hammasi taomlardan yeb, bu oqshom shu joyda yotibdilar. Ertalab turib, yo‘lga tayyorlanib darvozadan chiqayotganlarida bir ajdarho kelib darvozaning og‘zini to‘sibdi. Tilga kirib:

— Qani, buning haqini berib ketinglar! — debdi. Podshoh:

— Pul kerakmi, dunyo kerakmi, ot kerakmi? Ol! —debdi. Ajdarho:

— Menga pul ham, dunyo ham kerak emas, kichik o‘g‘lingni bersang bo‘ladi, boshqa hech narsa olmayman, — debdi. Podshoh xafa bo‘libdi.

Lekin katta o‘g‘illari otalariga:

— Mayli, beraman deb ayting, yo‘l uzoq, borib ololmaydi, — deb podshohni ko‘ndirishibdi. Podshoh kichik o‘g‘lini ajdarhoga berishga rozi bo‘lib jo‘nab ketishibdi.

O‘n kun yo‘l yurganlaridan keyin uzoqdan bir narsaning uchib ketayotganini ko‘rishibdi. Uchib ketayotgan narsa tez vaqt ichida yaqinlashibdi. Qarasalar, kichik ukasini ajdarho domiga tortayotgan ekan. Bola podshoh yoniga yaqinlashganda „Ota, olib kelayotgan kelinngizni kimga bersangiz bering“ deb o‘tib ketibdi-da, ravotning oldida turgan ajdarhoning oldiga boribdi. Ajdarho bola kelishi bilan bolaning beliga ikki marta aylanib betini betiga qo‘yib:

— Bir kunlik umringdan kechasanmi, qirq kunlik umringdan kechasanmi? — debdi. Bola o‘ylab turib:

— Qirq kunlik umrimdan kechaman, — debdi.

— Bo‘lmasa, falon mamlakatda bir podshohning qizi bor. Shu qizni qirq kun ichida menga keltirib berasan, keltirmasang o‘zingni yeyman, — debdi.

Bola ajdarhodan qirq kunlik javobni olib, yo'lga ravona bo'libdi. Bir necha kun yo'l yurib bir joyga kelsa, yo'lda juda ko'p chumolilar yurgan emish. Bola ularni bosib o'ta olmay, kechgacha chumolilarning o'tib bo'lishini kutib o'tiribdi. Kechqurun chumolilar o'tib bo'lgandan keyin oxirida chumolilarning podshohi bolaning oldiga kelib:

— Ha, yigit, nima uchun bu yerda o'tiribsiz?— deb so'rabdi.

— Men chumolilarni bosmay deb ularning o'tib ketishini kutib o'tiribman, — debdi bola. Chumoli:

— Senga rahmat, mabodo biz ham bir kuningga yararmiz, — debdida, bolaga bir hovuch somon beribdi. Bola somonni olib, yana bir necha kun yo'l yurgandan keyin ikkita sherning olishayotgani ustiga borib qolibdi. Qarasa, sherlar bir quyonni ushlab olib, qanday qilib bo'lib yeyishni bilmasdan olishayotgan ekan. Bola sherlardan quyonni so'rab olib, quyonni yonidagi pichog'i bilan ikki bo'lib beribdi.

Sherlar:

— Rahmat, odamzod o'g'li, shu quyonni bo'lib yeya olmasdan uch kundan beri ovora edik, — deb boladan xursand bo'lib:

— Mana ol, bir kuningga yararmiz, — deb ustlaridagi junglaridan uzib beribdilar. Bola yana yurib-yurib, kechqurun bir qishloqqa boribdi. Kechasi yotish uchun bir kampirdan joy so'rabdi. Kampir joy berib:

— Ha, o'g'lim, qayerdan kelayotibsan, nima ish qilib yuribsan? — debdi. Bola oldin nimaga kelganini kampirga aytmabdi. Kampir qistagandan keyin podshoh qizini olishga kelganini aytibdi. Kampir xafa bo'lib:

— O'g'lim, bu ishni qo'y. Juda og'ir ish, buni bajarish juda qiyin. Yosh yigit ekansan, bekorga o'lib ketasan. Bir necha qiyin shartlari bor, ularni bajara olmaysan. Mana, qara, yettita yakka mixda yetti ot turibdi. Mana shu yetti otni yetti o'g'lim minib yurar edi.

O'g'illarim shu podshohning qizini olamiz deb podshohning shartlarini bajara olmasdan, birin-ketin o'lib ketishdi. Bir o'zim shu hovlida qoldim. Qo'y, o'g'lim, podshohning qizidan boshqa qizlar ko'p. Shulardan biriga seni uylantiraman, seni o'zimga o'g'il qilib olaman, — debdi.

Bola kampirga:

— Hay ona, nima bo'lsa ham men shu podshoh qizining shartlarini bajarishga bel bog'laganman, shu shartlarni bajarishga majburman, — debdi.

Ertalab, kampirning yig'lab-yalinishiga qaramay, podshoh dargohiga borib, dovulini chalibdi. Podshohning odamlari kelib, bolani shoh oldiga olib boribdilar.

Podshoh boladan:

— Sen mening qizimni olishga kelgan bo'lsang, uchta shartim bor. Shu shartlarni bajara olmasang, kallangni olaman. Qo'y, urinma, yo'lingdan qolmay ketaver, — debdi. Bola podshohga:

— Shartingizni ayting, bajaraman, — debdi. Podshoh:

— Uchta shartdan biri — qirq qop tariqni yerga septirib beraman, bittalab terib berasan; ikkinchi shartim — otamdan qolgan ikkita bo'rdoqi ho'kizim bor. Shularning go'shtini ertalabgacha yeb, suyagini keltirib berasan; uchinchi shartim — darvozaga yaqin joyda otamdan qolgan to'rt pudlik ko'za yerga ko'milgan, og'zi ochiq, ichida hech narsa yo'q. Shuning oldidan o'tib, qaytguninggacha ichida tilla qaynab tursin. Mana shu shartlarimni bajarsang, qizimni beraman, — debdi.

Birinchi shartni bajarish uchun qirq tuyaga qirq qop tariqni orttirib yuborib bir xavar[1] yerga septiribdi. Xizmatchilar bolani qoldirib, o'zlari qaytibdi. Bola shuncha tariqni qanday terib tamomlash ilojini topa olmay, o'ylay-o'ylay qo'li bilan tera boshlabdi. Peshingacha yonkap[2] tariq teribdi. Peshin vaqtida, bir joyga o'tirib, yana o'ylay boshlabdi. Birdan chumolilar bergan somon esiga tushib qolibdi. Yonidagi chaqmog'ini olib chaqib somonni tutatibdi. Somonning tutuni chumolilarning burniga kirib, hamma chumolilar yig'ilib bolaning oldiga kelib:

— Nima xizmat, buyuring, — debdi.

— Ey jonivorlar, mening boshimga mushkul ish tushdi. Mana shu xavarga sepilgan qirq qop tariqni terib beringlar, — debdi.

Bola qopning og'zini ochib turibdi, chumolilar tariqni terib qopga sola boshlabdi. Kechgacha qirq qopga tariqni to'lg'azib, chumolilar o'z joylariga ketishibdi. Bola qirq qop tariqni tuyalarga ortib, podshoh o'rdasiga olib kelibdi. Bolaning bu ishidan hamma xursand bo'libdi. Ikkinchi kuni, ikkinchi shartni bajarish uchun podshoh otasidan qolgan ikkita novvosni chiqarib:

— Mana shu novvoslarning go'shtini ertagacha yeb, suyaklarini qopga solib keltirib ber! — debdi.

Bola ho'kizlarni yetaklab, bir joyga olib borib bog'lab qo'yibdi. Kechasi ho'kizlar yoniga kelib qanday yeb tamomlashni bilmay xafa bo'lib, o'ylab o'tirib sherlarni eslabdi. Sherlarning yungini tutatibdi. Sherlar „Labbay, xizmatingga tayyormiz" deb bolaning oldiga yetib kelishibdi. Tong otguncha ikki sher ikki ho'kizning go'shtini tamomlabdi. Bola suyaklarni qopga

---

[1] **Xavar** — tekis.

[2] **Yonkap** — yarim hovuch.

to‘ldirib saharda podshoh o‘rdasiga kelib: „Qornim ochib ketdi, qani yana yeyishga biror narsa bormi?“ deb chaqiribdi. Xizmatkorlar bolani podshoh oldiga olib kiribdi. Bola suyaklarni podshoh oldiga qo‘yibdi. Odamlar buni ko‘rib „Bu devmi yoki boshqa biror narsami“ deb hayron qolishibdi.

Podshohning buyrug‘i bilan bolaga bir tog‘ora qatiq bilan sakkizta non keltirib beribdilar. Bolaning haqiqatan qorni och ekan, ana-mana deguncha bir tog‘ora qatiq bilan sakkizta nonni yeb qo‘yibdi. Podshoh bolaga uchinchi shartni buyuribdi. Malika esa, bu yigitning ikkita shartni bajarganidan juda xursand bo‘lib, yo‘liga chiqib turibdi. Yigit podshohning uchinchi shartini qanday bajarishni bilmay, xafa bo‘lib, o‘ylanib chiqib kelayotsa, podshohning qizi uchrabdi. Qiz qo‘lidagi gavhar uzukni yigitga berib:

— Ey yigit, mana shu uzukni darvoza yonidagi ko‘zaning oldidan o‘tayotganingizda uning ichiga tashlang, lekin orqaga qaramay, keta-vering. Siz qaytib kelguningizcha tilla qaynab chiqaveradi, — debdi. Yigit uzukni olib ketibdi. Ko‘za yoniga borib uzukni tashlab, qiz aytgancha orqasiga qayrilib qaramasdan darvozadan chiqib ketibdi. Podshohning xizmatchilari ko‘zadan oltin qaynab chiqqanini ko‘rib, yigitning orqasidan borib uni bardor-bardor qilib ko‘tarib, podshoh oldiga olib kelishibdi. Xizmatkorlar podshohga:

— Podshohi olam, qizingiz ana shu yigitniki, — deyishibdi.

Podshoh butun shahar xalqini yig‘ib, to‘y-u tomoshalar qilib, qizini yigitga nikohlab beribdi. Ajdarhoga bergan va’dasi to‘lishiga bir kun qolganda, yigit bir oh tortibdi. Qiz yigitga:

— Ey yigit, nega bunchalik qattiq oh tortasiz? — debdi. Yigit ajdar-hoga bergan va’dasini qizga aytmasdan:

— Ota-onam esimga tushdi, — debdi. Erta bilan, tong otgandan keyin yigit qizga:

— Meni desang birga ketasan, bo‘lmasa ixtiyoring, — debdi. Qiz ham ketishga rozi bo‘libdi. Ikkovi podshohdan javob olib, yo‘lga tushi-shibdi. Bir qancha yo‘l yurgandan keyin, yigitning juda holi tang bo‘lib, rangi qop-qora bo‘lib ketaveribdi. Qiz yigitning holini ko‘rib:

— Nimaga bunchalik qattiq pakar[1] bo‘lib ketyapsiz? — debdi.

Shunda yigit chidamay, o‘zlarining ajdarho oldiga ketayotganlarini aytibdi:

— Tez yetib bormasak, ajdarho ikkovimizni ham yeb qo‘yadi, — debdi. Qiz yigitdan juda xafa bo‘lib:

---

[1] **Pakar** — xafa.

— Ey yigit, nega shu vaqtgacha bu gaplarni menga aytmadingiz, uning iloji qo'limizda edi, hali ham kech emas. Endi siz chopib borib otamning kichik hujrasini ochasiz, hujraning ichida bir sandiq bor, sandiqning ichida bir kaptar bor. Shu kaptarning kallasini kesasiz. Tomog'idan bir qurt chiqadi, qurtni o'ldirasiz. Ana shundagina ajdarho o'ladi, bo'lmasa ikkimizni ham yeydi, — debdi.

Shu gapni aytib bo'lishi bilan ajdarho qizni domiga torta boshlabdi. Yigit esa kuchining boricha podshoh o'rdasi tomon chopibdi. O'rdadan hujraning kalitini topib, hujraning qulfini ochibdi. Hujraning ichiga kirib, tokchada turgan sandiqni ochib, kaptarni ushlay deganda, kaptar uchib ketibdi, yigit darrov hujraning eshigini bekitib qo'yib, kaptarni zo'rg'a ushlab olib, kallasini kesibdi, tomog'idan qurtni olib o'ldiribdi. Hujradan chiqib o'rdada turgan otga minib qiz yoniga ketibdi. Yo'lda kelayotib „Qizga nima bo'ldi ekan, ajdarho yutdimi, o'likmi, tirikmi" deb o'ylab, xafa bo'lib qiz oldiga kelib qarasa, qiz bilan ajdarhoning orasi uch qadam qolganda ajdarho o'libdi. Qiz esa hushidan ketib qolibdi. Yigit yugurib kelib qizni ko'tarib olib o'tirsa ham hushiga kelmagandan keyin ko'zidan yosh oqib qizning yuziga tomishi bilan, qiz ko'zini ochib, yigitni ko'rib xursand bo'libdi. Yigit:

— Ajdarho o'libdi, jonimiz foydaga qoldi, ajdarhodan qutuldik, ajdarhoning makoni bizga kerak emas, o'z yurtimizga ketamiz, — debdi.

Bir necha kun yo'l yurib, otasining mamlakatiga kelibdi. Podshoh o'g'lining kelayotganini eshitib xursand bo'lib, kutib olibdi. Qayta boshdan qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berib murod-maqsadiga yetibdi.



Qilichqora

Uch og‘ayni bor ekan. To‘ng‘ichining oti Yulduzsanar, o‘rtanchasining oti Daryobog‘lar, kenjasining oti Qilichqora ekan. Bularni otalari uylantirmabdi. Uch og‘ayni maslahatlashib, bitta odamni vosita qilib aytibdilar:

— Otamizga chiqib ayting, bizni uylantiradimi, yo‘qmi? Otalari:

— Darvoqe, men o‘g‘illarimni uylantirganim yo‘q edi. Uchoviga uch oyday xotin olib berayin, — debdi. Haligi odam chiqib o‘g‘illariga: „Uchalangizga uch oyday xotin olib berar ekan“, debdi.

O‘g‘illar sayohat qilish uchun yo‘lga chiqishibdi. Cho‘l-u biyobonlar kezib bir joyga borganda bir qo‘rg‘onni ko‘rishibdi. Qo‘rg‘on devorining tepasida ko‘p odamlar to‘planib turganmish. Ular bir cho‘pondan so‘rabdilar:

— Bu yerda nima hodisa bo‘lyapti? Odamlar nimaga to‘planib turibdilar?

Cho‘pon aytibdi:

— Bu ishni so‘rab nima qilasiz? Shu qo‘rg‘onda bir ajdar turadi.

Ajdarning yemagi uchun shu shaharning podshohi har bir uyga bir qo‘y, bir bola berishni buyurgan edi. Bugun podshohning o‘ziga navbat keldi. Podshohning bitta-yu bitta qizi bor edi. Shu bilan bir qo‘y keltirib qo‘yganlar. Shuni tomosha qilyapmiz.

Qilichqora aytibdi:

— Podshoh ajdarni o‘ldirgan odamga qizimni beraman demadimi?

— Shunday degan edi. Lekin shuni qiladigan odam chiqmadi-da.

Qilichqora akalariga:

— Akalar, sizlar bir takyaga borib turinglar, men bu ajdar bilan olishib ko‘raman. Ajdarni nobud qilsam, oldilaringizga boraman. Agar nobud qila olmasam, mendan umid qilmanglar, — debdi.

Yulduzsanar va Daryobog‘lar shahardagi takyaga — musofirxonaga qarab ketishibdi.

Qilichqora devorga irg‘ib chiqibdi. Qarasa, podshohning qizi bilan bir qo‘y boylog‘liq turganmish. Qilichqora tushib, qizni tomga chiqarib qo‘yibdi.

— Singlim, siz shu yerda turing, sizni yeydigan ajdar meni yesin, — debdi. Qilichqora qizning o‘rniga kelib turibdi. Buning qilgan ishiga qarab turgan xaloyiq hayron bo‘libdi. Shamol, to‘polon bilan ajdar kelib, qo‘rg‘onga yaqinlashibdi. Qo‘yni domiga tortibdi. Qilichqoraning bir isfahon qilichi bor edi. Ajdar Qilichqorani ham domiga tortganda, u qilichini peshonasida ushlab ajdarhoni ikki nimta qilibdi. Podshohning polvonlari: „Ajdarni men o‘ldirdim“, deb maqtanibdilar. Podshohning qizi saroyga qaytib kelibdi. Qizi sog‘-salomat kelgach, podshoh sevinib:

— Ajdarhoni kim o‘ldirdi, qizim?— deb so‘rabdi.

— Bir yigit o‘ldirdi. U bu yerlik emas, — deb javob beribdi qiz. Podshoh:

— Qizim, o‘ldirgan odamni taniysanmi?

— Albatta, taniyman.

Podshoh qizining qo‘liga bir olma berib, shunday debdi:

— Olti yashardan oltmish yashargacha bo‘lgan kishilarni chaqirtiraman. Ajdarni o‘ldirgan odamni olma bilan urasan, — debdi.

Podshoh olti yashardan oltmish yashargacha bo‘lgan odamlarni chaqirtirib: „Hamma mening ravog‘im tagidan o‘tsin“ debdi. Olti yashardan oltmish yashargacha bo‘lgan odamlarning hammasi podshohning ravog‘i tagidan o‘tibdi. Qiz hech kimni urmabdi. Podshoh so‘rabdi:

— Hech kim qoldimi?

Bir bobo aytibdi:

— Mening uyimda uch musofir yigit qoldi.

— Ularni ham olib kelinglar, — debdi podshoh.

Haligi bobo uch musofirni olib kelibdi. Ravoqning tagidan to‘ng‘ichi oldin, o‘rtanchasi o‘rtada, Qilichqora esa eng keyin o‘tibdi. O‘tishlari bilan qiz Qilichqorani olma bilan uribdi. Kishilar bularni darrov oq namatga solib ko‘tarib, ravoqqa olib chiqibdi. Podshoh qirq kun to‘y-tomosha qilib beribdi. Qirq kun bo‘lgandan keyin kuyovga sarpo olib chiqibdi. Qilichqoraning oldiga qo‘yibdi. Qilichqora so‘rabdi:

— Sizning rasmingizda to‘nni yoqasidan kiyadimi, etagidan kiyadimi?

— Ey mehmonjonim, to‘nning yoqasidan kiymay, etagidan kiyadimi, — debdi. Qilichqora turib aytibdi:

— Bo‘lmasa, mening shu ikki akam bor. Qizlarini katta akamga bersalar, ming marta biz rozi, bermasalar yana o‘zlari biladilar.

Shunda podshoh: „Akasiga bersam berayin“, debdi. Sarponi akasi Yulduzsanarga qo‘yibdi.

Qilichqora bilan Daryobog‘lar yo‘lga ravona bo‘libdi. Ular yo‘lda ketayotganlarida bir tegirmontosh ko‘rinibdi. Qilichqora kuchini sinab, tegirmontoshni ko‘tarib ko‘rsa, uning tagida bir qancha chumoli bosilib qolgan ekan. Ular tosh ostidan chiqib, xursand bo‘lib yayrabdilar. Chumolilarning podshohi Qilichqoraning qo‘liga bir tutatqi beribdi:

— Qanday mushkul ishingiz bo‘lsa, tutatsangiz, biz hozir bo‘lamiz — debdi.

Shundan so‘ng Qilichqora yurib-yurib bir podshohning mamlakatiga boribdi. U podshohning bir qizi bor ekan. Vazirlar podshohga:

— Taqsir, qizingizning bo‘yi yetibdi, kuyovga bering, — deyishibdi.

— Mening ikkita shartim bor. Shuni kim bajarsa, qizimni o‘shanga beraman. Birinchi shartim shuki, otamdan qolgan bir nog‘oram bor, shuni kimki bir tepib yorsa; ikkinchi shartim — bir tuyaga ko‘targuncha ikki qop tariq yuklayman. Shuni yetganicha yerga sepadi. Yana qaytib bittalab qopga soladi. Tuyaga ortib o‘z joyiga olib kelib qo‘yadi. Mana shu shartni bajargan odamga qizimni beraman, — deb yurtga jar solibdi.

Buni eshitgan odamlar, podshohning o‘rdasiga qarab kelaveribdilar. Podshoh o‘rdasiga shodiyona nog‘orasini olib chiqib qo‘yibdi. Kelgan odam bir martadan haligi shodiyona nog‘orani tepib o‘tibdi. Uch kungacha hech kim yorolmabdi. Podshoh so‘rabdi:

— Hech qayerda odam qoldimi?

Bir odam:

— Menikida ikkita musofir odam qoldi, — debdi.

— O‘sha musofirlarga aytinglar. Kelib ular ham nog‘orani tepsin, armonda qolmasin, — debdi.

Haligi kishi kelib musofirlarga aytibdi:

— Podshohning ana shu ikkita sharti bor. Shuni har kim qilsa, podshohning qizini oladi. Sizlar ham borib tepib ko‘ringlar, armonda qolmanglar, — debdi.

Qilichqora bilan Daryobog‘lar ikkovi sakrab o‘rnidan turibdi. Podshohning o‘rdasiga qarab yuribdi. Yo‘lda ketayotib Qilichqora akasiga:

— Shu shodiyona nog‘orani tepish sizning navbatingiz edi. Endi bemalol bo‘lsa, shu navbatingizni menga bersangiz, nog‘orani men tepsam, — debdi.

Akasi ruxsat beribdi. Ukasi borib, podshohning o‘rdasiga kirib, turgan odamlarga ta’zim qilibdi. Hech kim odamlarga bu yigitday ta’zim qilmagan edi. Qilichqora bir zarba bilan nog‘orani tepibdi, oyog‘i nog‘oraning naryog‘iga o‘tib ketibdi. To‘planib turgan xalq: „Barakalla kuchingga!“ deb ofarin o‘qibdi. Podshoh Qilichqoraga:

— Endi yana bitta shart bor: mana shu tuyadagi tariqni olib chiqib yerga sepib, qopni bo‘shatib, ikkita odamga ko‘rsatib, yana shu tariqni bittalab terib, qopga solib, mana shu joyga olib kelib qo‘yasiz, — debdi.

Yigit qabul qilibdi. Tuyadagi tariqni Qilichqora bilan uch kishi olib borib dalaga sepibdi. Qopni bo‘shatib ikki kishi haligi joyga qaytib kelibdi. Qilichqora o‘zi yakka qolib, chumolining tutatqisini tutatibdi. Birpasda hamma yoqqa chumoli to‘lib ketibdi. Chumolilarning podshosi aytibdi:

— Boshingizga nima mushkul ish tushdi?

— Shu yerga ikki qop tariq sepilgan, shuni terib, qopga solib bersangiz.

Shundan keyin chumolilarning podshosi chumolilarga:

— Mana shu yerga sepilgan tariqni terib, shu qopga solib beringlar, — deb buyuribdi.

Haligi ikki qop tariq, chumolining ba’zisiga tegib, ba’zisiga tegmay qolibdi.

Qilichqora chumolilar terib bergan tariqlarni ikki qopga to‘ldirib, tuyaga ortib joyiga olib kelib qo‘yibdi. Podshoh shartni bajargan botirga qirq kun to‘y-tomosha qilib qizini bermoqchi bo‘libdi. Qirq kundan keyin kuyovga sarpo olib chiqibdilar. Qilichqoraning oldiga qo‘yibdilar. Qilichqora aytibdi:

— Ey azizlar, sizlarning rasmlaringda to‘nni yoqasidan kiyadimi, etagidan kiyadimi?

Shunda sarkardalar:

— Ey yigit, to‘nning yoqasidan kiymay, etagidan kiyadimi? — debdilar. Qilichqora:

— Bitta-yu bitta akamiz bor. Qizlarini akamizga bersalar, biz xursand bo‘lar edik, — debdi.

Sarkardalar bu so‘zni podshohga yetkazibdilar. Podshoh aytibdi.

— Kimga bersam ham ixtiyorim. Mayli berdim.

Sarponi Daryobog‘larga kiygizib, qiz bilan yigitni qo‘shib qo‘yibdilar.

Qilichqora xayr-ma’zur qilib, cho‘l-u biyobonlarga chiqib ketibdi.

Necha kun cho‘l-biyobonda yuribdi. Bir kuni cho‘lda bir qo‘rg‘on ko‘rinibdi. Qo‘rg‘onga qarab borayotgan ekan, bir yalmog‘iz kampir yo‘lni to‘sib chiqibdi. Ikkovi uch kecha-yu uch kunduz tutqilashib olishibdi. Axiri Qilichqora yalmog‘iz kampirning boshiga shamshir solibdi. Yalmog‘izning kallasi cho‘rt uzilib ketibdi.

Kampirni o‘ldirib, qo‘rg‘onga kirib boribdi. Qampir bir Xalchaoy degan qizni qo‘rg‘onda saqlar ekan. Ko‘p xushsurat, yaxshi qiz ekan. U yigitga qarab:

— Ey aka, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan bu yerga nima uchun keldingiz?— deb so‘rabdi.

Qilichqora aytibdi:

— Jamolingizga tasadduq bo‘lay, sizning ishq-muhabbatingiz meni tortib keldi. Ana shu yerda yalmog‘iz kampir bilan uch kecha-yu uch kunduz olishib, tutqilashib, uni o‘ldirib keldim, shunga xursandmisiz, — degandan so‘ng, haddan tashqari sevinib ketgan Xalchaoy turib, aytibdi:

— Agar siz meni deb shuncha mashaqqatlarga bardosh qilgan bo‘lsangiz, men sizga o‘z ixtiyorimni berdim.

Shunday qilib, ikkovi er-xotinlikni qabul qilibdilar. Shu yerda kun kechiraveribdilar. Bular bu yerda turaversin, endi ikki kalima so‘zni Ko‘ktemir podshohdan eshiting.

Ko‘ktemir podshohga yetib ma’lum bo‘ldiki, bir yigit kelib yalmog‘iz kampirni o‘ldirib, Xalchaoyni olibdi. Ko‘ktemir podshoh:

— Kimki borib Xalchaoyni olib kelsa, bo‘yi tengi zar beraman, — debdi. Bir pismiq kampir:

— Bir sandiqcha yerni lahim qilib kovlaydigan asbob, bir izvoshchi bilan uch oylik ovqat berasan. Biz borib olib kelamiz, — debdi.

Podshoh uning aytganini muhayyo qilibdi. Narsalarni olib, kampir yo‘lga tushibdi. Bular yo‘lda ketaversin, endi ikki kalima so‘zni Qilichqoradan eshiting.

Qilichqora uxlab yotib edi, uyqusida bir kishi: „Ey Qilichqora, sening yoningdagi shamshir qiliching qachon yo‘qolsa, o‘sha kuni o‘lasan. Yoningdan judo bo‘lmasa o‘lmaysan“, debdi. Cho‘chib uyg‘onibdi. Nonushta qilib ovga chiqib ketibdi. Bu ovini ovlab yuraversin, ikki kalima so‘zni kampirdan eshiting.

Bular bir joyga kelibdilar. Qarasaki, ko‘klama maydon, o‘tloq joylar ekan. Kampir aytibdi.

— Izvoshingni shu yerda to‘xtat!

Shu yerda izvoshni to‘xtatibdi. Kampir aytibdi:

— E izvoshchi, qo‘l-oyog‘imni, ko‘zimni bog‘lab anavi joyga — yo‘l ustiga tashlab kelasan, keyin shu yerga qaytib kelib, qimirlamay yotasan. Men bir oyda kelamanmi, yarim oyda kelamanmi, shungacha kutasan.

Izvoshchi kampirni olib borib, aytganidan ziyoda qilib qo‘l-oyog‘ini va ko‘zini bog‘lab, yumaloq qilib tashlab ketibdi. Kampir „Voy-voy“lab yotaveribdi. Qilichqora ovni ovlab kelayotganida, „Voy-voy“ degan ovozni

eshitibdi. Kelib qarasa, birov bir kampirni yumaloq qilib bog‘lab tashlab ketgan ekan. Qilichqora so‘rabdi:

— Ey kampir, nimaga bunday qilib yotibsiz?

— Ey bolam, mening bitta-yu bitta o‘g‘lim bor edi. Kelinim aytdiki: „Yo enangni degin, yo meni degin, enangni desang, menga javob bergin, meni desang, enangni yo‘qotgin!“ Xotinining so‘ziga kirgan o‘g‘lim meni olib kelib shu yerga tashlab ketdi, — debdi kampir.

Qilichqora aytibdi:

— Ey ona, men uyimga olib ketsam, xizmat qilib yurasizmi?

— Ey bolam, jonim bilan yuraman.

Qilichqora uyiga olib ketibdi. Xalchaoy buni ko‘rib achchig‘lanibdi. Qilichqoraning qo‘lidagi ilvasinlarga ham qaramabdi: Qilichqora:

— Nimaga xafasiz, oyim? —deb so‘rabdi. Xalchaoy aytibdi:

— Siz bilmaysiz, mana shu yoqda Ko‘ktemir degan podshoh bor. Necha marta menga sovchi yuborganda, yalmog‘iz kampir yeb qo‘ygan. Men shu kampirni Ko‘ktemir degan podshoh yuborganmikan deb qo‘rqaman, deb o‘z shubhasini bildiribdi.

— Shunday yomon yalmog‘iz nima qildi, bu nima qilardi. Yaxshi bo‘lsa oshini, yomon bo‘lsa boshini yer! — debdi Qilichqora.

Xayr, shu bilan Xalchaoy indamay qolaveribdi. Kampir bir necha kun xizmat qilib yura beribdi. U poydevorning tagidan mo‘ljallab Qilichqora bilan Xalchaoyning ikkovi yotadigan joygacha lahim kovlab, yetib olibdi. Xalchaoyim bilan Qilichqora ikkovi nimaiki degan bo‘lsa, kampir barchasini eshitib yotar ekan. Bir kuni Qilichqora yo‘g‘ida kampir aytibdi:

— Ey, Xalchaoy, shunday yolg‘iz qo‘rg‘onda zerikmay o‘tirar ekansiz-da? Xalchaoy:

— O‘zimnnng o‘rgangan joyim, bo‘lmasam nima qilay? —debdi.

Kampir har xil gaplarni aylantirib, o‘smoqchilab debdi:

— Qilichqora bilan gaplasha turib, sizning joningiz qayerda turadi, deb so‘rang. Bir shapaloq, yarim shapaloq urgan bilan hech narsa bo‘lmaydi. Keyin „Nima qilasan“ deb so‘rasa, sizning joningizga men jonimni qo‘shib qo‘ysam, o‘ynashib yursa, deb ayting. Keyin jonining turgan joyini artib beradi, — debdi.

Qilichqora kelgandan so‘ng Xalchaoy kechasi Qilichqoradan kampir aytganini so‘rabdi. Qilichqora aytibdi:

— Yonimdagi isfahon qilichim — mening jonim.

Bu so‘zni kampir eshitib olibdi. Kampir yarim kechada uyqusidan uyg‘onib chiqib Qilichqoraning isfahon qilichin olib, eshigining tagida bir daryo bor ekan, shu daryoga tashlab yuboribdi.

Xalchaoy erta bilan turib qarasa, eri o‘lib yotibdi. Kampirni chaqirib aytibdi:

— Ey ona, nimaga o‘g‘lingiz qimirlamaydi?

Kampir kelib qarasa, Qilichqora qimirlamas emish. Kampir aytibdi:

— Ey bolam, ikkovimiz bir joyga ko‘maylik.

Xalcha aytibdi:

— Ey ona, o‘likni qirq kun saqlayman.

Xalchaoy qo‘lidagi nigin — uzugini murdaning qo‘liga solibdi. Etagini g‘iracha[1] qilib yopib qo‘yibdi, uyni qulflab chiqibdi. Kampir aytibdi:

— Ey bolam, Xalchaoy, bu yerda diqqat bo‘lib qolasiz. Endi bizning joyimizga borib ikki kungina aylanib kelaylik.

Xalchaoy xo‘p deb jo‘nabdi. Kampir Xalchaoyni boshlab, izvosh turgan joyga olib kelibdi:

— Ey izvoshchi, falon yerga necha pulga olib borasan, — degach, izvoshchi:

— O‘n so‘m berasiz, — debdi.

— Xo‘p bo‘ladi, — deb izvoshga chiqadigan bo‘lishibdi. Kampir aytibdi:

— Ey bolam, izvoshda yurmagansiz, yo‘lda ko‘zingiz tinadi, sandiqqa tushib oling, — debdi.

Xalchaoy sandiqqa tushib olgach, sandiqning qopqog‘ini bekitib olib:

— Hayda! — debdi kampir.

Kampir Xalchaoyni podshohning dargohiga olib boribdi:

— Olib keldim, — debdi.

Podshoh kampirga bo‘yi tengi zar beribdi. Kampirga bitta belanchak qilib, bitta cho‘rini tayinlab qo‘yibdi. Podshoh cho‘riga:

— Umrbod shu kampirning xizmatida bo‘lasan, — debdi.

Xalchaoyni bir uyga olib kiribdi. Xalchaoy aytibdi: „Ey podshoh, mening so‘zimga bovar qilgin. Qirq kungacha qirqta cho‘ri bilan idda saqlayman. Qirq kundan keyin senga javob beraman, — debdi.

Podshoh „Xo‘p“ debdi-yu, qirqta cho‘ri bilan bir bog‘i eramga chiqarib qo‘yibdi.

Endi ikki kalima so‘zni Qilichqoraning akalaridan eshiting:

Qilichqoraning akasi Yulduzsanar malikaga:

— Ikkita ukam meni uylantirib qo‘yib, ketaverdi. Men xabar olmadim. Tezlik bilan menga otangizdan ruxsat olib bering. Ukalarimni ko‘rib kelayin, — deb aytibdi. Xotini podshohga chiqib:

---

[1] **g‘iracha** — qiya.

— Dada, kuyov o‘g‘lingiz ukalarimni ko‘rib kelaman, ruxsat bersalar, deb so‘rayapti, — debdi.

Podshoh qirqta lochinga o‘xshagan yigitni kuyoviga qo‘shib yuboribdi. Bular yo‘lda ketaversin, ikki kalima so‘zni Daryobog‘lardan eshiting. Bu ham qayin otasidan ruxsat olib, qirqta yigit bilan akasi tomonga jo‘nabdi. Ikkala og‘ayni yo‘lda uchrashibdilar. Ikkovlari so‘rashib bo‘lgach, akasi so‘rabdi:

— Qilichqora ukang qayoqqa ketdi?

Daryobog‘lar ukasining ketgan tomonini ko‘rsatibdi. Yulduzsanar:

— Boshla, — debdi.

U ham qirqta yigiti, bu ham qirqta yigiti bilan yo‘lga tushib jo‘nabdi. Bir necha kun yo‘l yuribdilar. Kechasi Daryobog‘lar akasiga debdi:

— Ey aka, Qilichqoraning yulduzini qarang-chi, bormi, yo‘qmi?

Yulduzsanar osmonga qarab, yulduzlarni sanab:

— Ey uka, Qilichqoraning yulduzi yo‘q, — debdi. Bir joyga borib daryoga ro‘para kelishibdi. Shu yerga tushishibdi. Tong otibdi. Yulduzsanar Daryobog‘larga:

— Ey uka, daryoni bog‘la, — debdi.

U daryoni bog‘labdi. Daryoga tushib, yurib ketayotganlarida Yulduzsanar Qilichqoraning isfahon qilichini ko‘ribdi va darrov qo‘liga olibdi:

— Ey uka, Qilichqoraning qilichini bu yerdan topdim, endi mana bu qo‘rg‘onga kirishimiz zarur, — debdi.

Daryo yoqasidagi qo‘rg‘onga kirib qarasalar, qirqta hujra bor ekan. Hammasi qulflangan. Daryobog‘lar bilan Yulduzsanar bir uyni ochib Qilichqoraning o‘ligini topib olibdilar. Qilichqoraning ko‘kragiga qo‘llarini qo‘yib turishibdi. Qilichqora aksa urib o‘rnidan turib, u yoq-bu yoqqa qarab, akalarini ko‘ribdi. Akalari:

— Sen shunday yotgan ekansan, boshqa narsani ko‘rmadik, — debdilar. Qilichqora:

— Xay mayli, akalar, mening orqamdan yuraveringlar, — debdi. U Ko‘ktemir podshohning shahriga qarab yo‘l boshlabdi. Necha kun yo‘l yurib, shaharga yaqinlashibdilar. Qilichqora aytibdi:

— Ey yigitlar, sizlar shu yerda turinglar. Biz uch og‘ayni shaharga kirib chiqamiz.

Har uchovi shaharga kirsa, Xalchaoyning qirqta kaniz bilan o‘tirgan bog‘i oldidan o‘tibdilar. Qarasaki, bir juvon bir oftoba suvni olib Bog‘i Eramga kirib ketayotibdi. Qilichqora haligi juvonni chaqirib olib so‘rabdi:

— Ey singlim, suvni qayerga olib borasiz?

Juvon aytibdi:

— Ey aka, podshoh Xalchaoy degan qizni shu yerga oldirib kelgan edi. Xalchaoy qirq kunga muhlat olgan edi. Shu bugun muhlat tamom bo‘lib, to‘yi bo‘layotir, shularning qo‘liga suv olib borayotirman.

— Bo‘lmasa to‘xtang, — deb Qilichqora uzugini oftobaga solibdi. — Oldin hamma cho‘rilarga suv bering. Xalchaoyning qo‘liga eng keyin suv quying, — debdi.

Boyagi juvon aytgandan ham ziyoda qilib, suv quyibdi. Xalchaoyning qo‘liga jildiratib-jildiratib quymoqda ekan. Xalchaoyning achchig‘i kelib, „Quy!“ debdi. Juvon sharqiratib suvni ag‘darib yuboribdi. Uzuk Xalchaoyning qo‘liga tushibdi. Xalchaoy qarasa, erining qo‘liga solib kelgan uzugi. Haligi juvonga qarabdi, uzukka qarabdi. Xalchaoy haligi juvonni chekkaga chaqirib olib:

— Bu uzukni senga kim berdi? —debdi.

— Ko‘chada uch otliq turibdi. Uzukni o‘shalar berdi, — debdi. Xalchaoy ko‘chaga chiqib qarasa, o‘zining eri.

— Tasaddug‘ing bo‘lay, — deb bo‘yniga yopishib yig‘labdi.

Eri otga mindirib, jo‘nabdi. Yigitlarning oldiga yetib kelganda orqasidan chang paydo bo‘libdi. Bular Ko‘ktemir podshohning askarlari ekan.

Ular Ko‘ktemir podshoh bilan urishib, uni yengibdilar va Yulduzsanar turgan mamlakatga qarab jo‘nabdilar. Har uch og‘ayni tinch mehnat qilib, o‘z sevganlari bilan yashab, murod-maqsadlariga yetibdilar.

TO‘PLAMDAGI ERTAKLARNI AYTUVCHI VA YOZIB OLUVCHILAR

Ovchi, Ko‘kcha va Dono — Aytuvchi: *Sharif Musayev.* Yozib oluvchi: *Nuriddin Sharipov.*Toshkent, 1941, inv.№ 205.Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Ur to‘qmoq — To‘plovchi: *Mirkarim Osimov,* inv. № 873. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Bo‘ri bilan mergan — Aytuvchi: *Sultonhoji Rahimov*, Yozib oluvchi: *H. T. Zarifov.* Namangan, 1935, № 628. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

O‘tinchi yigit bilan sher — Aytuvchi: *Sultonhoji Rahimov.* Yozib oluvchi: *H. T. Zarifov.* Namangan, 1935, inv. № 628. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

Buzoq, echki va qo‘zi — Aytuvchi: *Haydar Boychayev.* Yozib oluvchi: *Fathulla Abdullayev,* Namangan vil. Yangiqo‘rg‘on tumani, 1953, inv. № 1171. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Qarg‘a bilan qo‘zi — Aytuvchi: *Sultonhoji Rahimov.* Yozib oluvchi: *H. T. Zarifov,* Namangan, 1935, inv. № 627, nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

Botir echki — Aytuvchi: *Ashur Xoldorov.* Yozib oluvchi: *Sobirjon Ibrohimov.* Andijon vil. Jalolquduq tumani, 1935, inv, № 636a, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Bo‘ri bilan tulki — Aytuvchi: *Sultonhoji Rahimov*, Namangan, 1928, inv, № 70. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Ilonning ishi zahar solmoq — Aytuvchi: *Muhiddin G‘aniyev.* Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov,* 1948, Toshkent inv. №1104a.

Laylak bilan tulki — Aytuvchi: *Tosh shoir Chorshanba o‘g‘li.* Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*, Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz, 1957-yil, inv № 1359.

Susambil — Aytuvchi: Sanambibi. Yozib oluvchi: *Sobirjon Ibrohimov*, Andijon. 1938, inv. № 810. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Echkining o‘ch olishi — Aytuvchi: *Haydar Boychayev.* Yozib oluvchi: *Fathulla Abdullayev*, Namangan, Yangiqo‘rg‘on tumani, 1958-yil. inv № 1114. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Tulki bilan tovus — Aytuvchi: *Haydar Boychayev.* Yozib oluvchi: *Fathulla Abdullayev*, Namangan viloyati, Yangiqo‘rg‘on tumani, 1953-yil. inv. № 1174. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Kiyik bilan Kadi — Aytuvchi: *Tojiboy Qulmat o‘g‘li.* Yozib oluvchi: *H. T. Zarifov,* Samarqand, 1926 -yil. inv. № 62. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

Hiylagar bedana — Aytuvchi: *Haydar Boychayev.* Yozib oluvchi: *Fathulla Abdullayev,* Namangan viloyati, Yangiqo‘rg‘on tumani, 1953-yil, inv. №1174. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Chivinboy — To‘plovchi: *Zohir Qo‘chqorov.* Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz. 1957-yil. inv. № 1260. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Tulkiboy — To‘plovchi: *A. Ahmedov*, 1949-yil, inv. № 1080. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

Qumursqa — Aytuvchi: *Tosh shoir Chorshanba o‘g‘li.* Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.* 1957-yil, inv. № 1158. Qashqadaryo vil. Shahrisabz.

Qo‘ng‘iz bikach — To‘plovchi: *Q. Qodirov.* Andijon, 1957-yil, inv. № 1387, Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Och bo'ri — Aytuvchi: *Haydar Boychayev.* Yozib oluvchi: *Fathulla Abdullayev.* Namangan vil., Yangiqo'rg'on tumani, 1953-yil, inv. № 1174. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Tulki bilan bo'ri — Aytuvchi: *Haydar Boychayev.* Yozib oluvchi: *Fathulla Abdullayev,* Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumani, 1953-yil, inv. № 1174. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Chumchuq — To'plovchi: *Zohir Qo'chqorov.* Qashqadaryo vil. Shahrisabz, 1957-yil, inv, № 1275. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Burgutlar — To'plovchi: *Ne'matulla Madaminov.* Andijon, 1957, inv. № 139. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

O'tinchi chol bilan tulki — Aytuvchi: *Ahmedov.* Yozib oluvchi: *Zaytuna Karimova.* Marg'ilon, 1950-yil. inv. № 1126. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

Oltin tarvuz — Aytuvchi: *Vafo Rahimqul o'g'li.* Yozib oluvchi: *Qurbon Masharipov.* 1940-yil, inv.№ 638. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Kampir bilan shaqal — Aytuvchi: *Abdulla shoir Nurali o'g'li.* Yozib oluvchi: *H. T. Zarifov.* Qashqadaryo vil. Kitob tumani, Qaynarbuloq qishlog'i, 1936, inv. № 66a.

Bulbuligo'yo — Aytuvchi: *Hasan Xudoyberdi o'g'li.* Yozib oluvchi: *Izzat Sultonov.* Toshkent, 1937-yil, inv. № 667. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Uch og'ayni botirlar — Aytuvchi: *Hamrobibi Umarali qizi.* Yozib oluvchi: *Po'latjon Qayumov.* Qo'qon, 1926-yil, inv. № 851. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Tohir va Zuhra — Aytuvchi: *Zovonbibi Sarimsoqova.* Yozib oluvchi: *Buyuk Karim.* Qo'qon, 1935-yil, inv. № 421a. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Rustamzod va Sherzod — Aytuvchi: *Abdug'ofur Shukurov.* Yozib oluvchi: *Fathulla Abdullayev.* Qashqadaryo vil., Kitob tumani, 1957-yil, inv. № 1366. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Gulshoh bilan Varqa — To'plovchi: *Asrorova.* Andijon, 1957, inv, № 1404. Nashrga tayyorlovchi: *X. Rasul.*

Muqbil toshotar — Aytuvchi: *Nasriddin Zabihullayev.* Yozib oluvchi: *Jamoliddin Asamutdinov.* Toshkent, 1944-yil, inv. № 160. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Orzijon bilan Qambarjon — Aytuvchi: *Husanboy Rasulev.* Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *Sobirjon Ibrohimov.* Marg'ilon, 1935-yil, inv. № 817.

Yalmog'iz kampir — To'plovchi: *Rahmatulla Yusuf o'g'li.* Samarqand viloyati, Nurota tumani, 1948-yil. inv. № 1089. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

Vospiroxun — Aytuvchi: *Jamoliddin Tojiboyev.* Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.* Toshkent, 1937-yil, inv. № 122.

Malikai Husnobod — Aytuvchi: *Hasan Xudoyberdi o'g'li.* Yozib oluvchi: *H. T. Zarifov.* Namangan, 1935-yil, inv № 658. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Yamoqchi — To'plovchi: *M. I. Afzalov*. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*. inv. № 1369.

Aqlli qiz — Aytuvchi: *Tojiboy Rasulov*. Yozib oluvchi: *Hojinisa Shokirova*. Toshkent, 1944, inv. № 938. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Qorasoch pari — To'plovchi: *Afandixon Ismoilov*. Toshkent, 1955-yil, inv. № 1364. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Qilich botir — Aytuvchi: *Yo'ldosh G'oziyev*. Yozib oluvchi: *H. T. Zarifov*. Andijon viloyati, 1935-yil, inv. № 244. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Ilon pari — Aytuvchi: *Haydar Boychayev*. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*. Namangan viloyati. Yangiqo'rg'on tumani, 1951-yil, inv. № 1104.

Shahzoda Asad — Aytuvchi: *Hamidulla Habibullayev*. Yozib oluvchi: *Jamoliddin Asomutdinov*. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Oltin baliq — To'plovchi: *Shamsiya Angarova*. Toshkent, 1939-yil, inv. № 686. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov*. va *X. Rasul*.

No'xatvoy — Aytuvchi: *Suhbatullayeva*. Yozib oluvchi: *Jamoliddin Asomutdinov*. Toshkent, 1944-yil, inv. № 176. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Duradgor bilan tikuvchi — Aytuvchi: *Mamatrahim Mirzakarim o'g'li*. Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, 1928, inv. № 74. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *Zubayda Husainova*.

O'tinchi chol — Aytuvchi: *Hasan Xudoyberdiyev*. Yozib oluvchi: *Sharif Rajabov*. Namangan, 1935-yil, inv. № 489. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Savdogar bilan podachi — Aytuvchi: *Rustam Ma'mur o'g'li*. Yozib oluvchi: *H. T. Zarifov*. Samarqand, Qirqshodi qishlog'i. 1926-yil. inv. № 65. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Badalqorachi — Aytuvchi: *Janibek Bekmuradov*. Yozib oluvchi: *Buyuk Karim*. Xorazm, 1936-yil, inv. № 606. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X Rasul*.

Uchar gilam — Aytuvchi: *Sobir Sodiqov*. Yozib oluvchi: *Nasiba Sodiqova*. Toshkent, 1957. inv. № 1423. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Egri va To'g'ri — Aytuvchi: *Matnazarov*. Yozib oluvchi: *Buyuk Karim*. Xorazm. 1938-yil, inv. № 515. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Hasan va Zuhra — To'plovchi: *M. I. Afzalov*. Toshkent, 1950. inv. № 1370. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Bektemir botir — Aytuvchi: *Mamayusuf Boltaboy o'g'li*. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *Sobirjon Ibrohimov*. Andijon, Oltinko'l tumani, 1957-yil.

Qirq kuyov — Aytuvchi: *Misr Hatamov*. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*. Samarqand viloyati, Urgut tumani, Tersak qishlog'i, 1957-yil, inv. № 1324.

Qilichqora — To'plovchi: *Buyuk Karim*. 1941-yil, inv. № 778. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I Afzalov* va *X. Rasul*.

MUNDARIJA

Nodir xayolotning so‘ngsiz osmoni 5
Ovchi, Ko‘kcha va dono 12
Ur to‘qmoq 16
Bo‘ri bilan mergan 20
O‘tinchi yigit bilan sher 24
Buzoq, echki va qo‘zi 26
Qarg‘a bilan qo‘zi 29
Botir echki 32
Bo‘ri bilan tulki 37
Ilonning ishi zahar solmoq 42
Laylak bilan tulki 44
Susambil 45
Echkining o‘ch olishi 55
Tulki bilan tovus 60
Kiyik bilan kadi 61
Hiylagar bedana 63
Chivinboy 67
Tulkiboy 70
Qumursqa 73
Qo‘ng‘iz bikach 75
Och bo‘ri 77
Tulki bilan bo‘ri 79
Chumchuq 85
Burgutlar 87
O‘tinchi chol bilan tulki 89
Oltin tarvuz 92
Kampir bilan shaqol 94
Bulbuligo‘yo 97
Uch og‘ayni botirlar 112
Tohir va Zuhra 124
Rustamzod va Sherzod 136
Gulshoh bilan Varqa 153

Muqbil toshotar 157
Orzijon bilan Qambarjon 164
Yalmog'iz kampir 188
Vospiroxun 191
Malikai Husnobod 212
Yamoqchi 221
Aqlli qiz 226
Qorasoch pari 232
Qilich botir 252
Ilon pari 258
Shahzoda Asad 260
Oltin baliq 277
No'xatvoy 282
Duradgor bilan tikuvchi 284
O'tinchi chol 290
Savdogar bilan podachi 304
Badalqorachi 309
Uchar gilam 315
Egri va To'g'ri 337
Hasan va Zuhra 342
Bektemir botir 350
Qirq kuyov 363
Qilichqora 370

10.000 сўмлик.

82.3(5O‘)
O‘-16

O‘zbek xalq ertaklari. Jild 1/ Tuzuvchilar: M. Afzalov, X. Rasulov, Z. Husainova; mas'ul muharrir M. Mahmudov. 2-nashri. T.: „O‘qituvchi“ NMIU, 2012. — 384 b.

ISBN 978-9943-02-457-1

УДК: 821.512.133
398.21.
КВК 82. 3(5O‘)

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI

III jildlik

I jild

2-nashri

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2013

Texnik muharrir
T. Greshnikova

Kompyuterda sahifalovchi
F. Hasanova

Musahhihlar
M. Ibrohimova, Z. Sodiqova

Nashriyot litsenziyasi AI №161. 14.08.2009. 2012-yil 24-dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8. Kegli 12 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 44,64+3,72 rangli vkl. Nashr t. 30,75+2,21 rangli vkl. 10 000 nusxada chop etildi. Buyurtma №290-12.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko‘chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko‘chasi, 1- uy. Shartnoma № 07-97-12.